

Κυριακή 11ης Ιουλίου 1910

Α. Π. ΠΑΠΑΝΔΡΟΥ



ΟΛΤΙΝΟΙ
ΠΑΛΑΤΑ

Rus adabiyoti durdonalari

ANTON PAVLOVICH
GHEXOV



**OLTINGHI
PALATA**

Qissalar

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2021

Rus tilidan

**Abdurahmon Alimuhamedov, Odil Sharopov, Nabi Alimuhamedov,
Davron, Zumrad, Humoyun Akbarov tarjimalari**

Mazkur kitobga aksar adabiyot ixlosmandlari uchun qisqa janr ustasi sifatida tanilgan atoqli rus va jahon adabiyotining hassos vakili Antov Chexov qalamiga mansub sara qissalar jamlandi.

Adib azaliy va abadiy mavzular bo'lmish muhabbat, oila muqaddasligi, yovuzlik va ezgulik tuyg'ulariga yo'g'rilgan qissalarida inson qalbining nozik tebranishlari, qahramonlar hayoti va ular tiynatidagi evrilishlarni aks ettiradi. Ular erkka intiladilar, o'z burch va majburiyatlarini har xil sharoitlarda sinab ko'radilar, hayot mashaqqatlarida toblanadilar. Muallif bu asarlarida inson eng og'ir sharoitlarda ham ojiz emasligini isbotlaydi. Barchasi insonning ruhiyati, ma'naviy dunyosi hamda irodasiga bog'liq ekanini yorqin tasvirlarda ifodalaydi.

Kitob keng adabiyotsevarlar auditoriyasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-7144-6-5

**A. NAVOIY NOMIDAGI
SIRDARYO VILOYATI AKM**

INV № 2021/115-19

© A. Alimuhamedov va b. (tarj.), 2021

© «O'zbekiston» NMIU, 2021



ZERIKARLI VOQEA

(Keksa odamning xotiralaridan)

I

Rossiyada Nikolay Stepanovich falonchi degan atoqli professor bor, o'zi maxfiy maslahatchi, ham ordendor; uning rus va chet el ordenlari shunchalik ko'pki, Nikolay Stepanovich shularni taqqanida, talabalar uni ikonostas¹ deb ulug'lashadi. Uning tanishlari ham juda aslzodalardir; qisqasi, keyingi 25-30 yil ichida Rossiyada Nikolay Stepanovich bilan yaqindan oshnachilik qilmagan bironta mashhur olim bo'lmagan, hozir ham yo'q. Endi oshnachilik qiladigan odam qolmagan, mabodo, o'tmish to'g'risida gap ochiladigan bo'lsa, u orttirgan ajoyib do'stlarining uzun ro'yxati Pirogov, Kavelin, shoir Nekrasov kabi kishilarning nomlari bilan tugaydi. Bular Nikolay Stepanovichni o'z samimiy do'stliklari va mehribonchiliklari bilan baxtiyor qilganlar. U Rossiyadagi hamma universitetlarning va chet ellardagi uchta universitetning a'zosi. Va hokazo va hokazolar. Bularning hammasi va aytilishi lozim bo'lgan yana ko'p narsalar mening nomimni bezab turadi.

Mana shu mashhur nom – mening nomimdir. Bu nom Rossiyada har bir savodli kishiga ma'lum, chet ellarda esa kafedralarda «mashhur» va «muhtaram» degan so'zlar bilan tilga olinadi. Bu nom kamdan-kam baxtiyor kishilarda bo'ladiki, bunday nomlarni behurmat qilish yoki odamlar orasida va matbuotda behudaga tilga olish odobsizlik hisoblanadi. Shunday ham bo'lishi kerak. Shuhratli, g'oyat iste'dodli, mutlaq foydali kishi haqidagi tushuncha mening nomim bilan bog'liq-ku, axir. Men nihoyatda mehnatsevar va tuyadek chidamli kishiman, bu juda muhim fazilat, iqtidorim ham bor, bu esa yana ham muhimroqdir. O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki,

¹ Pravoslavlar cherkovida: *mehrob* – sajdagohni ajratib turadigan, ikonalar qo'yilgan pardadevor.

men tarbiya ko'rgan, kamtar va halol bir kishiman. Adabiyotga, siyosatga hech qachon tumshug'imni suqqan, nodonlar bilan so'z tala-shib shuhrat qozonishni ko'zlagan, na ziyofatlarda, na do'stlarimning qabri ustida va'zxonlik qilgan emasman... Umuman aytganda, mening olimlik nomimda hech qanday dog' yo'q, shu sababli bu nomdan nolishga asos topolmayman. Bu nom – sof nom.

Bu nomning egasi, ya'ni kamina tepa sochlari to'kilgan, og'zi to'la yasama tish qo'yilgan, bedavo tik¹ kasaliga muhtalo bo'lgan oltmish ikki yoshli bir kishiman. Nomim qanchalik yaxshi, qanchalik go'zal bo'lmasin, o'zim shunchalik beo'xshov va badbasharaman. Boshim va qo'llarim darmonsizlikdan tinmay qaltiraydi; bo'ynim Turgenevning bitta qahramoni singari kontrabasning² dastasiga o'xshaydi; ko'kragim cho'kkan, yag'rinim tor. Gapirganimda yoki kitob o'qiganimda, og'zim bir tomonga qiyshayib ketadi; jilmaysam, aft-basharamni qarilikning xunuk ajinlari bosib ketadi. Mening ojiz tanimda salobatli biron narsa yo'q; tik kasali qo'ziganda, basharam allanechuk tusga kiradi, shunday paytlarda aftimni ko'rgan kishining ko'ngliga: «Bu odam bugun-erta o'ladi», degan qat'iy ishonch kelsa kerak.

Men ma'ruzani hali ham yomon o'qimayman, avvalgidek talabalarning diqqatini ikki soat davomida o'zimga jalb qilib tura olaman. Ma'ruzani ehtiros bilan o'qishim, tilimning adabiyligi, ma'ruza orasidagi hazil-mutoyibalarim ovozimdagi kamchilikni silliqlab ketadi. Ovozim esa juda quruq, shirasi yo'q, munofiqning ovozigaga o'xshash ancha muloyimdir. Yozuvga kelganda juda no'noqman. Miyamdagi yozuv qobiliyatini boshqarib turadigan markaz menga itoat qilmay qo'ygan. Zehnim xitlashib ketgan, fikrimda yetarli izchillik yo'q, fikrimni qog'ozga ko'chirayotganimda, bu fikrlarni bir-biriga bog'lash qobiliyatini yo'qotib qo'yganga o'xshayman, jumllarim bir xil, zaif va qo'rqa-pisa yozilgan bo'ladi. Ko'p mahal bir narsani o'ylab turib, boshqa narsani yozib qo'yaman; xatning oxiriga kelganda boshi esimdan chiqib qoladi. Ko'pincha oddiy so'zlarni unutib qo'yaman; ortiqcha so'zlarni, keraksiz kirish iboralarini yozib yubormaslik uchun har doim ancha urinishga to'g'ri keladi – bularning hammasi,

¹ Tana a'zolarining pir-pir uchishi.

² *Kontrabas* – skripkaga o'xshash katta cholg'u asbobi.

shubhasiz, zehnimning ancha susayib qolganidan darak beradi. Shuni qiziqki, xat qanchalik oddiy bo'lsa, men shunchalik ko'p qiy-nalaman. Tabriknoma yoki bayonnomadan ko'ra ilmiy maqolalar-ni ancha bama'ni va erkin yozaman. Yana bir narsa bor: ruschadan ko'ra nemischa yoki inglizcha yozish menga ancha oson.

Hozirgi kechirib turgan kunimga kelsak, avvalo, uyqusizlikni aytib o'tishim kerak; keyingi vaqtlarda mana shu dardga mubta-lo bo'lib qolganman. Basharti, mendan: «Hozirgi turmushingning asosiy xususiyati nimadan iborat?» deb so'rasalar, men: «Uyqu-sizlik», deb javob qilgan bo'lardim. Ilgarigi odatimni qilib qoq yarim kechada yechinib o'ringa kiraman. Ko'zim tezda uyquga ke-tadi, biroq bir soat o'tar-o'tmas, xuddi hech uxlamagan kishidek yana uyg'onib ketaman. O'rindan turib chiroqni yoqishga majbur bo'laman. Bir soat yoki ikki soat uyning bir burchagidan ikkin-chi burchagiga qatnab, ko'raverib ko'nglimga urib ketgan suratlar-ni va fotosuratlarini tomosha qilaman. Yuraverishdan bezor bo'lib, stol yoniga kelib o'tiraman. Shu ahvolda qimirlamasdan, hech nar-sani o'ylamasdan va hech qanday orzuni xayolimga keltirmasdan, anchagacha o'tiraman; bordi-yu, ro'paramda bironta kitob yotgan bo'lsa – uni ixtiyorsiz oldimga tortaman, hafsalasizlik bilan o'qiy boshlayman. Masalan, yaqinda «Qaldirg'och nima deb chug'urladi?» degan g'alati kattakon bir romanni kechasi bilan beixtiyor o'qib chiqdim. Yo bo'lmasa, biron narsa bilan band bo'lish niyatida ming-gacha sanashga o'zimni majbur qilaman yoinki oshnalarimdan bi-rontasining qiyofasini ko'z oldimga keltirib, bu odamning qachon va qanday sharoitda xizmatga kirganini o'ylab ketaman. Har xil tovushlarga quloq solishni yaxshi ko'raman. Goh mening uyimdan ikki uy narida yotgan qizim Liza bosinqirab tez-tez javraydi, goh xotinim zaldan sham ko'tarib o'tadi; o'tib ketayotib, albatta, gugurt-ni tushirib yuboradi, goh qurigan shkaf g'ijirlab ketadi yoki chiroq piligi pixillab qo'yadi; bu tovushlarning hammasi negadir yuragimni hovliqtiradi.

Kechasi uxlamagan odam har daqiqa o'zini boshqacha his qi-lib turadi, shuning uchun tong otishini chidamsizlik bilan kuta-man, shundan keyin kishi uxlamasa ham bo'ladi. Hovlida xo'roz qichqirguncha yana ancha vaqt o'tadi. Xo'roz mening birinchi xushxabarchimdir. Bilamanki, xo'roz qichqirishidan bir soat o'tar-

o'tmas pastda darbon uyg'onadi, keyin zarda aralash yo'talib, allanima uchun zinadan chiqadi. So'ngra tashqari asta-sekin yorishadi; ko'chadan har xil tovushlar eshitiladi.

Har kuni tong otishi bilan xotinim eshikdan kirib keladi. U sochlarini taramasdan, lekin yuvinib, gulobdan sepib, go'yo bexosdan kirgandek, yubka kiyib, mening yonimga keladi va har safar:

– Kechirasan, men bir daqiqaga kirdim... Tag'in uxlamadingmi? – deydi.

So'ngra chiroqni o'chiradi-da, stol yoniga o'tirib gap boshlaydi. Men bashoratgo'y emasman, ammo nima haqida so'z ochishini bilaman. Har kuni bir xil gap. Odatda tashvish bilan sog'lig'imni surishtirgandan keyin Varshavada ishlovchi zobit o'g'limizni to'satdan eslab qoladi. Har oying yigirmasidan keyin unga 50 so'mdan pul yuboramiz, suhbatimiz asosan shu masaladan boshlanadi.

– Albatta, bizga qiyin, – deydi xotinim xo'rsinib, – ammo o'zini batamom eplab olguncha qarashib turishga majburmiz. Bola bechora begona yurtda, moyanasi oz... Yaxshisi, sen rozi bo'lsang, kelasi oyda ellik so'mmas, qirq so'm yuboramiz. Shunga nima deysan?

Kundalik tajribalardan xulosa chiqarib, xarajatlar haqida gapiravergan bilan ularning kamaymasligini xotinim tushunishi kerak edi. Biroq u tajribani inobatga olmaydi va har kuni ertalab zobit o'g'limiz haqida, Xudoning marhamati bilan nonning narxi tushganini, qand ikki tiyinga oshganini gapirishni qo'ymaydi. Bularning hammasini menga go'yo biron yangilik aytayotgandek gapiradi. Men quloq solib o'tiraman, gaplarini beixtiyor ma'qullayman, kechasi uxlamaganimdan bo'lsa kerak, allaqanday keraksiz xayollar miyamni chulg'ab oladi. Xotinimga qarab, yosh bola singari ajablanaman. Nahotki, ikir-chikir tashvishlar, bir parcha nonning g'amhasrati chehrasidan sira arimagan, fikri-zikri qarzdorlik, muhtojlik, ro'zg'or xarajati bo'lib qolgan, faqat arzonchilikdan gapirgandagina chehrasi ochilib, labida tabassum ko'ringan mana shu beso'naqay semiz kampir bir vaqtlar nihoyatda aqlli, dili pokiza, o'zi chiroyli bo'lganidan, Otello Dezdemonani sevganidek, butun jon-dilim bilan sevganim, men xizmat qilgan fanga «jonkuyar» bo'lgani uchun yaxshi ko'rganim nozikkina qiz, bir vaqtlar menga o'g'il tug'ib bergan xotinim Varya shu bo'lsa, deb o'z-o'zimdanda so'rayman. Xomsemiz, beso'naqay kampirning betiga tikilib-tikilib qarayman,

uni o'zining Varyamga o'xshatmoqchi bo'laman, biroq uning tabiatida o'tmishdan faqat mening sog'lig'im ustida tashvishlanish, mening maoshimni «bizning maosh», mening qalpog'imni «bizning qalpoq» deb gapirish odatigina qolganini eslayman. Basharasiga qarashga yuragim bezillaydi, ammo biroz bo'lsa ham ko'nglini tinchitish niyatida nimani gapirmasin, tinglab o'tiraveraman, hatto odamlardan nohaq nolisa ham yoki kasallarni davolash ishi bilan shug'ullanmaganim, darslik yozmaganim uchun meni koyisa ham indamayman. Suhbatimiz hamisha bir xilda tugaydi. Xotinim to'satdan hali choy ichmaganimni eslab qo'rqib ketadi.

– Men nima qilib o'tiribman? – deydi u o'rnidan turarkan, – o'ziqaynar allaqachon stolga keltirilgan-u, mening ezmaligim bitmaydi. Esim qurg'ur qolmapti, e Xudoyim! – U tez-tez yurib ketadi, yana gapirmoqchi bo'lib eshik yonida to'xtaydi: – Yegorga besh oylik haq to'lashimiz kerak. Xabaring bormi? Xizmatkorlarning maoshini cho'zib yuborish yaramaydi. Necha marta shuni senga aytdim! Besh oyga ellik so'm to'lagandan bir oyga o'n so'm to'lagan yengil bo'ladi! – Eshikdan chiqib ketib yana to'xtaydi, keyin gapiradi: – Men hammadan ko'ra bechora Lizamizga ko'proq achinaman. Qizgina konservatoriyada o'qiydi, muttasil yaxshi odamlar orasida bo'ladi, ust-boshi bir holatda. Po'stinini ko'rsang, kishi ko'chaga chiqqani uyaladi. Boshqa birovning qizi bo'lsa mayli-ya, axir, otasi kimsan ovozasi ketgan professor, maxfiy maslahatchi ekanini hamma biladi!

Shuhratimni, martabamni pisanda qilib, nihoyat, chiqib ketadi. Kunim mana shunday boshlanadi. Davomi ham boshlanishidan durust bo'lmaydi.

Choy ichayotganimda yonimga Lizam chiqadi. U konservatoriyaga ketishga allaqachon o'tlanib olgan – egnida pochapo'stini, boshida qalpoq, qo'lida notalari bor. Qizim yigirma ikkiga kirgan bo'lsa ham, chehrasidan ancha yosh ko'rinadi, o'zi ancha xushro'y, biroz onasining yoshligiga o'xshaydi. U mehribonlik bilan chakkamdan, qo'limdan o'pib:

– Assalomu alaykum, dadajon, sog'lig'ing durustmi? – deydi.

Qizim bolaligida muzqaymoqni juda yaxshi ko'rardi. Men uni tez-tez qandolat do'koniga oborib turardim. Uning uchun muzqaymoq har bir go'zal narsaning andozasi edi. Qizim basharti meni maqtamoqchi bo'lsa: «Dadajon, sen xuddi qaymoqqa o'xshaysan»,

der edi. U bitta barmog'iga pista, ikkinchisiga – qaymoq, uchinchisiga – maymunjon va hokazo nom qo'ygan. Har kungi odatini qilib men bilan so'rashish uchun ertalab oldimga kelganida, uni tizzamga o'tqizib, barmoqlarini o'parkanman:

– Qaymoq... pista... limu... – deb qo'yardim.

Hozir ham Lizaning barmoqlarini o'pib turib, eski odatimga ko'ra «Pista... qaymoq... limu...» deb ming'illayman, biroq hozirgi erkalatishim sira-sira ilgarilariga o'xshamaydi. Men baayni muzqaymoq singari sovuqman, bu holimdan o'zim ham uyalaman. Qizim oldimga chiqib, lablarini chakkamga tekizganida, bamisoli asalari chaqqandek seskanib ketaman, keyin zo'rma-zo'raki iljayib, yuzimni o'girib olaman. Uyqusizlik balosiga yo'liqqanimdan beri: men kek-sa bir odam, nomi chiqqan olim bo'laturib, xizmatkordan qarzdor bo'lganim uchun juda qattiq aziyat chekishimni, arzimagan qarzlarni tashvishida ko'p mahal ishimni yig'ishtirib qo'yib, soatlar bo'yi uying u burchagidan bu burchagiga qatnab xayol surishimni qizim har doim o'z ko'zi bilan ko'radi-yu, nima uchun biron marta onasidan yashirincha menga kelib: «Ota, mana mening soatlarim, bilaguzuklarim, baldoqlarim, ko'ylaklarim... hammasini garovga qo'yib, ustidan pul ko'taring», demaydi? Onasi ikkimiz soxta xayollarga berilib, qashshoqligimizni odamlardan yashirishga uringanimizni bilaturib, nima uchun qimmatga tushadigan musiqani yig'ishtirib qo'ymaydi? Men uning soatlarini ham, bilaguzugini ham, baldoqlarini ham olmas edim – Xudo meni bu narsalardan asrasin – men istagan narsa bular emas, degan fikr miyamga qadalib turadi.

Darvoqe, Varshavada xizmat qiladigan zobit o'g'lim ham esimga kelib qoldi. U ancha aqli, halol va xushyor yigit, ammo bu narsa ko'nglimni to'ldirmaydi. O'ylaymanki, mening kek-sa otam bo'lsayu, uning o'z qashshoqligidan nomus qiladigan paytlari bo'lishini sezib qolsam, zobitlik o'mimni boshqa biron kimsaga berib, xizmatkorlikka yollanib ketardim. Bolalarim haqidagi bu xildagi xayollar ta'bimni xira qiladi. Buning nima hojati bor? Oddiy odamlarga qarshi, hotamtoy emassan, deb ko'ngilda yozg'irish, fe'li tor, alamzada kishilarning ishi-ku, axir. Bas, bu haqda endi gapirmayman.

Soat chorak kam o'nda qadrdon bolalarimning oldiga ma'ruza o'qishga borishim kerak. Ust-boshimni kiyib, o'ttiz yildan beri qatnay-qatnay, ko'zimga sinashta bo'lib qolgan ko'chadan yo'lga tu-

shaman. Men bu ko'chaning tarixini yaxshi bilaman. Ana, kattakon kulrang imorat, uning ichida dorixona bor. Bir mahallar bu yerda kichkinagina uy, uying ichida pivoxona bo'lardi. Men mana shu pivoxonada dissertatsiyamning rejasi ustida ko'p o'ylardim. Varyaga birinchi oshiqlik xatini ham shu yerda yozganman. O'sha xatning tepasiga «Historia morbi»¹ degan so'z bitilgan bir varaq qog'ozga qalam bilan yozganman. Ana, baqqollik do'koni; ilgari bu do'kon qotmagina yahudiya qarardi, u papirosni menga nasiyaga berardi. Keyin ana shu do'konda semiz bir xotin savdo qiladigan bo'ldi, bu xotin «har bir talabani onasi bo'lgani uchun» ularni yaxshi ko'rar edi. Hozir bu yerda sariq bir savdogar mol sotadi; u juda beg'am, hamisha mis choynakdan choy quyib ichib o'tiradi. Ana, universitetning ko'pdan beri ta'mir qilinmagan xunuk darvozasi; po'stin kiygan, zerikib turgan qorovul, supurgi, g'aram-g'aram qor uyumlari... Viloyatdan yangi kelgan va ilm mehrobini chindan ham mehrob deb o'ylaydigan yosh yigitda bunday darvoza yaxshi taassurot qoldirmaydi. Umuman aytganda, universitet binolarining eskirib ketgani, dahlizlarning befayzligi, devorlarning isi, g'ira-shira yorug'lik, zinatlarning, qoziqlarning, o'rindiqlarning nursiz ko'rinishi – rus badbini tarixida bu kasalga mayl ettiradigan sabablar qatorida eng oldingi o'rinlardan birini oladi... Ana, bog'imiz ham ko'rindi. Talabalik chog'larimdan beri bu bog'ning yaxshilangani ham, yomonlashgani ham sezilmaydi. Men bu bog'ni yoqtirmayman. Nimjon jo'ka daraxtlari, sarg'ayib ketgan akaslar, kallaklangan yakkam-dukkam nastarinlar o'rniga bu yerda uzun-uzun qarag'aylar, yaxshi-yaxshi eman daraxtlari o'sganida juda bema'ni ish bo'lardi. Talabalarning ahvol-ruhiyasi ko'p mahal sharoitga qarab kamol topadi; shu sababli ular o'zlari o'qiydigan yerda qadam sayin mag'rur, zabardast va nafis narsalarni ko'rishlari lozim... Nimjon daraxtlardan, siniq derazalardan, kulrang devorlardan, yirtiq-sirtiq kleyonkalar qoplangan ko'rimsiz eshiklardan ularni Xudoning O'zi asrasin.

Kabinetimga kiradigan zinaga etganimda, ko'p yillardan beri universitetda darbon bo'lib ishlaydigan, tengdoshim va adashim Nikolay eshikni ochib meni kutib oladi. Ichkariga kirganimda tomog'ini qirib:

¹ Kasallik tarixi (*lot*).

– Juda sovuq, janobi oliylari! – deydi.

Mabodo po‘stinim ho‘l bo‘lsa:

– Yomg‘ir yog‘yapti, janobi oliylari! – deb qo‘yadi.

Keyin mendan ilgari yugurib, yo‘limdagi hamma eshiklarni ochadi. Kabinetga kirganimda, ehtiyotkorlik bilan ustimdan po‘stinimni yechib oladi va shu payt universitetdagi bironta yangilikni aytib ham qo‘yadi. Jamiki universitetlarning darbonlari bilan qorovullari o‘rtasidagi yaqin oshnalik tufayli har to‘rttala fakultetda, devonxonada, rektorning kabinetida, qiroatxonada o‘tadigan hech bir gapdan Nikolay bexabar qolmaydi. U nimalarni bilmaydi deysiz?! Universitetda biron mishmish gap, chunonchi, rektor yoki dekanning ishdan bo‘shatilish masalasi ko‘tarilib qolgudek bo‘lsa, uning og‘zidan ajoyib so‘zlarni eshitaman. Nikolay yosh qorovullar bilan suhbatda bo‘shagan o‘ringa kim kelishini aytadi va shu onning o‘zida falonchini vazir tasdiqlamasligini, pistonchi o‘zi xohlamasligini tushuntirib beradi, so‘ngra devonxonaga kelgan allaqanday sirli qog‘ozlar, go‘yo vazir bilan nozir o‘rtasida bo‘lib o‘tgan maxfiy suhbat va hokazolar to‘g‘risida ajoyib tasfilotlarni so‘zlaydi. Agar mana shu tafsilotlar chiqarib tashlansa, uning gaplari deyarli har doim to‘g‘ri chiqadi. Nomzodlarning har biriga beradigan baholari ham g‘alati-g‘alati, lekin to‘g‘ri bo‘ladi. Agar siz kimning, qaysi yili dissertatsiya yoqlaganini, ishga kirganini, iste‘fo berganini yoki vafot etganini bilmoqchi bo‘lsangiz, shu askarning yorqin xotirasini yordamga chaqiring, u sizga faqat yilni, oyni, kunnigina aytib qo‘yaqolmasdan, hatto har bir voqeaning qanday sharoitda ro‘y berganini ham gapirib beradi. Faqat jon-dilidan sevgan kishigina shunday eslab qoladi.

Nikolay universitet haqidagi rivoyatlarni saqlab keluvchi odam. O‘zidan oldin o‘tgan darbonlardan meros tariqasida universitet hayotiga doir ancha-muncha afsonalarni o‘zlashtirib olgan. Bu boylikka o‘zining xizmati davrida orttirgan juda ko‘p hissalarini qo‘shgan. Istasangiz, sizga bir talay uzun-uzun va qisqa-qisqa voqealarni gapirib beradi. Hamma narsani bilgan ulug‘ donishmandlar, haftalab uxlamagan ajoyib zaxmatkashlar, fanning behisob jafokashlari va qurbonlari haqida hikoya qila oladi. Bu odamning aytishiga qaraganda, yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonadi, kuchsiz kuchlini, dono nodonni, sodda mag‘urni, yosh qarini har doim yengib

chiqadi... Bu xilda afsonalarni va to'qima gaplarni naqd pulga sotib olishning, albatta, hech qanday zaruriyati yo'q, ammo siz ularni suzib olsangiz, istagan narsangizning hammasi suzgichda qoladi: ana shular bizning yaxshi an'analarimiz, barcha odamlar tomonidan e'tirof etilgan asl qahramonlarimizning nomlari bo'ladi.

Bizning jamiyatda olimlarning hayotiga doir masalalar ustida gap ochilganda, eski professorlarning o'taketgan parishonxotirligi to'g'risida tarqatilgan latifalar, shuningdek, goh Gruberga, goh menga, goh Babuxinga to'ng'aladigan bir-ikkita qochiriq so'zlar bilan cheklanib kelinadi. Madaniy jamiyat uchun bu kamlik qiladi. Jamiyatimiz fanni, olimlarni, talabalarni Nikolay singari sevganida, uning adabiyoti allaqachon epopeyalar, rivoyatlar, qasidalar bilan boyigan bo'lardi, afsuski, bunday narsalar hozircha yo'q.

Nikolay yangilikni gapirib bo'lgandan keyin betiga jiddiy tus beradi, shundan so'ng ishga doir so'z boshlanadi. Shu payt begona biron kimsa Nikolayning gapiga quloq solib tursa, har xil atamalarni qiynalmasdan ishlatishini ko'rib, bu odam askarcha kiyinib olgan olim bo'lsa kerak, deb o'ylashi ham mumkin. Kezi kelganda, universitet qorovullarining bilimdoni haqidagi mish-mishlarning ortiqcha mubolag'a ekanini aytib o'tishga to'g'ri keladi. To'g'ri, Nikolay yuzdan ortiq lotin iboralarini biladi, skelet yasashni uddalaydi, ba'zan preparat ham tayyorlaydi, uzundan-uzoq bironta olimona so'z bilan talabalarni kuldirib qo'yadi, biroq o'ng'aygina qon aylanish nazariyasi uning uchun yigirma yil ilgari qanchalik qorong'i bo'lgan bo'lsa, hozir ham shunday.

Kabinetdagi stol yonida, kitob yoki preparat ustida boshini engashtirib mening yordamchim Pyotr Ignatyevich o'tiradi, u – tishqoq, sipo, ammo qobiliyatsiz, o'ttiz besh yoshlarga kirgan, allaqachon sochi to'kilib, boshi yaltirab qolgan, qorindor bir odam. U ertalabdan qaro kechgacha ishlaydi, kitobni juda ko'p o'qiydi, o'qigan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi – bu jihatdan, u odam emas, tilla; boshqa hamma jihatlardan esa – aravakash ot yoki boshqacha qilib aytganda, qovoqbosh olim. Aravakash otni iqtidorli odamlardan ajratadigan xususiyatlar shulardan iboratdir: uning ong-bilim darajasi juda tor va o'zining kasbi bilan qat'iy chegaralangan bo'ladi; o'z kasbidan chetga chiqdi, deguncha go'dak boladek go'lib qoladi. Esimda bor, men bir kuni ertalab kabinetga kirib:

– Bilasizmi, qanday baxtsizlik yuz beripti? Skobelev vafot etganmish, – dedim.

Nikolay cho‘qinib qo‘ydi, Pyotr Ignatyevich esa yuzini menga o‘girib:

– Skobelev deganingiz kim? – deb so‘radi.

Yana bir safar – bu narsa birmuncha ilgariroq bo‘lgandi – men professor Perovning o‘lganini aytdim, yoqimtoy Pyotr Ignatyevich daf‘atan:

– U kishi nimadan dars berardilar? – deb so‘radi.

Mashhur ashulachi Patti uning qulog‘i ostida qo‘shiq aytsa, xitoy lashkarlari Rossiyaga hujum qilgudek bo‘lsa yoinki zilzila bo‘lib qolssa, bu odam pinagini buzmasdan, suzilgan ko‘zlarini xotirjamlik bilan zarrabinga tikib o‘tiraveradi. Qisqasini aytganda, uning Gekuba¹ bilan hech qanday ishi yo‘q. Bu guvalaning xotini bilan yotganini ko‘rish menga nasib etsa, har qancha bo‘lsa, to‘lashdan qochmasdim.

Uning yana bir xislati, fanning va ayniqsa, nemislar yozgan har bir narsaning benuqsonligiga shak-shubhasiz ishonishidir. Qilayotgan ishlarining to‘g‘riligiga, preparatlarining bekami-ko‘stligiga chuqur ishonadi, nima uchun yashab yurganini yaxshi tushunadi, ammo iqtidor ahllarining sochlarini oqartirib yuboradigan shubhalar, umidsizliklar unga butunlay begonadir. Ulug‘ kishilarga ko‘r-ko‘rona sig‘inish va mustaqil fikr yuritishning yo‘qligi ham uning xususiyatidir. U bilan bahslashib, biron masalaga uni ishontirib bo‘lmaydi. Eng yaxshi fan – tibbiyot fani, eng yaxshi odamlar – shifokorlar, eng yaxshi an‘analar – tibbiyot an‘analari ekaniga chuqur ishongan bir odam bilan masala talashib bo‘ladimi? Tibbiyotning sovuq o‘tmishidan faqat bitta an‘ana omon qolgan, u ham bo‘lsa hozirgi mahalda doktorlar taqadigan oq bo‘yinbog‘dir; olimlar va umuman, o‘qimishli kishilar an‘analarni tibbiyot an‘anasi, huquqshunoslik an‘anasi va hokazo qismlarga bo‘lmasdan, yolg‘iz umum-universitet an‘analarini inobatga oladilar, xolos. Pyotr Ignatyevich esa bu narsaga sira-sira rozi bo‘lmaydi, shu xususda u siz bilan to‘lguncha tortishadi.

Pyotr Ignatyevichning istiqboli menga ravshan. Butun umrida u haddan ziyod bir necha yuz toza preparat tayyorlaydi, anchagina qu-

¹ *Gekuba* – qadimgi yunon afsonalarida: Troya shohi Priamning ikkinchi xotini; ayol baxtsizligi timsoli.

ruq va durust referatlar yozadi, astoydil o'tirib o'nga yaqin kitobni tarjima qiladi, ammo porox o'ylab chiqarolmaydi. Porox o'ylab chiqarish uchun fantaziya, ijodkorlik, fahm-farosat kerak. Pyotr Ignatyevichda esa bularning biron-tasi ham yo'q. Qisqasini aytganda, bu odam fanning sohibi emas, mardikoridir.

Men, Pyotr Ignatyevich va Nikolay uchalamiz pichirlashib so'zlashamiz. Hammamiz o'zimizni biroz noqulay his qilamiz. Eshik orqasida talabalar dengizdek guvillab turganida, kishi o'zini boshqacha sezadi. O'ttiz yil davomida men bu sezgini aslo bosolmadim, har kuni ertalab shu sezgi meni bezovta qiladi. Asabiylashib kamzulimning tugmasini qadayman, Nikolayga o'rinsiz so'roqlar beraman, tajang bo'laman... Go'yo qo'rqayotganga o'xshayman, ammo bu qo'rquv emas, boshqa bir narsa-yu, biroq men uning nomini aytolmayman, ta'rifini ham qilolmayman. Hech qanday ehtiyoj bo'lmagani holda soatimga qarab:

– Xo'sh, yuringlar, bo'lmasa! – deyman.

Shundan keyin biz quyidagi tartibda yo'lga tushamiz: oldinda preparatlarni, atlaslarni ko'tarib Nikolay boradi, undan keyin men, mening orqamdan boshini quyi solib aravakash ot yuradi; mabodo zarur bo'lib qolsa, oldinda zambilga solib o'likni oborishadi, o'lik orqasidan Nikolay yuradi va hokazolar. Men auditoriyaga kirishim bilan talabalar o'rinlaridan turishadi, keyin yana o'tirishadi, dengiz guvillashi birdan bosiladi. Jimlik cho'kadi.

Men nima to'g'rida ma'ruza o'qishimni bilaman, ammo qanday o'qishim, nimadan boshlab, nima bilan tugatishimni bilmayman. Miyamda bironta tayyor jumla yo'q. Biroq auditoriyaga (u amfiteatr shaklida qurilgan) bir ko'z tashlab, «O'tgan darsda... qolgan edik...» degan chaynalgan jumlaning aytishim bilanoq, uzun-uzun so'zlar birin-ketin quyilib kelaveradi – qani endi meni to'xtatib bo'lsa! Men haddan ziyod tez va jo'shqin gapiraman, go'yo quyilib kelayotgan so'zimni to'xtata oladigan biron-ta kuch yo'qdek seziladi. Ma'ruzani yaxshi o'qimoq uchun, ya'ni talabalarni zeriktirib qo'ymaslik, ularga nafi tegadigan qilib o'qish uchun, iste'dodli bo'lishdan tashqari, kishi mahoratli, tajribali bo'lishi, qanchalik kuchi borligini juda yaxshi bilishi hamda ma'ruzani kimga o'qiyotganini va nima to'g'risida o'qiyotganini chuqur tushunishi lozim. Bundan tashqari, kishining kallasida fahm-farosati bo'lishi, har tomonga hushyor nazar tashlab turishi va bir daqiqqa ham talabalarni ko'zdan qochirmasligi kerak.

Yaxshi dirijyor bastakorning fikrini tinglovchilarga yetkazish uchun birvarakayiga yigirmata ishni bajaradi: partituran¹ o'qiydi, cho'pini qimirlatib turadi, ashulachini kuzatib boradi, goh do'mbirachiga, goh skripachiga qaraydi va hokazolar. Men ham ma'ruza o'qiganimda xuddi shunday qilaman. Ro'paramda bir-biriga o'xshamagan bir yuz ellikta bashara va uch yuzta ko'z baqrayib betimga tikilib turadi. Mening vazifam ko'p boshli mana shu ajdahoni yengib chiqishdir. Ma'ruza paytida shu ajdohoning qanchalik zehn qo'yayotganini va qanchalik tushunayotganini daqiqa sayin nazardan qochirmasam, men, albatta, g'olib chiqaman. Mening ikkinchi dushmanim o'zimning ichimda yashirinib yotadi. Bu dushman – shakllarning, hodisalarning, qonunlarning haddan tashqari xilma-xilligi va bular natijasida o'zingda ham tug'ilgan fikrlarning behisob ko'p bo'lishidir. Har daqiqada men mana shu buyuk materialdan eng muhimini va eng zarurini epchillik bilan ilib olishim, qanday tez gapirayotgan bo'lsam, xuddi shu xilda ildamlilik bilan fikrlarimni ajdahoning tushunchasiga mos keladigan va uning diqqatini qo'zg'atadigan bir shaklga solishim lozim. Surat solayotgan rassom har bir bo'yoqni o'z o'rnida berganidek, dars o'quvchi kishi ham miyasiga kelgan fikrlarni hadeb gapiravermasdan, ularning ma'lum bir tartibda ifodalanishiga diqqat qilishi zarur. Undan keyin nutqimning adabiy bo'lishiga, ifodalarning qisqa va aniqligiga, jumlaning imkon qadar sodda va chiroyli bo'lishiga urinaman. Har daqiqada o'zimni qo'yib yubormaslikka harakat qilishim hamda menga faqat bir soat-u qirq daqiqa vaqt berilganini unutmashim kerak. Qisqasi, ish kam emas. Bir vaqtning o'zida ham olim, ham pedagog, ham notiq bo'lishga to'g'ri keladi, agar sizdagi notiqlik pedagogni hamda olimni yengib qo'ysa yoki shuning teskarisi bo'lsa – ish chappasidan ketadi.

O'n besh daqiqa, yarim soat gapirgach, talabalarning shiftga, Pyotr Ignatyevichga qarayotganini sezib qolaman, bittasi dastro'molini olishga qo'l soladi, ikkinchisi qulayroq o'tirib oladi, uchinchisi miyasiga kelgan fikrlardan iljayib qo'yadi... Bu narsa talabalarning charchaganini ko'rsatadi. Chora ko'rish kerak. Men birinchi qulay paytdan foydalanib, bironta qochiriq gap aytaman. Bir yuz ellik nafar

¹ *Partitura* – ko'p ovozli musiqa asarida: hamma qismlarning majmui.

odamning hammasi og'zini katta ochib iljayadi, ko'zlar shodiyona yaltiraydi, bir nafas dengiz guldurosi eshitiladi... Men ham kulaman. Talabalar biroz yengil tortadi, keyin ma'ruzani davom ettiraman.

Hech qanday munozara, hech qanday kayf-safo, hech qanday o'yin-kulgi menga ma'ruzadan ortiq zavq bermagan. Mening butun zavq-shavqim faqat ma'ruzadagina xuruj qiladi, shunda men ilhom shoirlar o'ylab chiqargan uydirma gap emas, chindan ham bor narsa ekanini anglardim. Gerkules o'zining eng ajoyib qahramonliklaridan keyin ham, men har safar ma'ruzadan so'ng his qilganimdek, shirin horg'inlik his qilmagandir, deb o'ylardim.

Bularning hammasi bir zamonlar bo'lib o'tgan. Endi bo'lsa ma'ruzada faqat azob chekaman. Yarim soat o'tar-o'tmas oyoqlarimda, yelkamda qattiq charchash sezaman; oromkursiga o'tiraman, o'tirib ma'ruza o'qishga odatlanmaganimdan bir daqiqacha o'tib yana o'mimdan turib davom ettiraman, so'ngra tag'in o'tiraman. Og'zim qurib ketadi, ovozim xirillaydi, boshim aylanadi... Ahvolimni tinglovchilardan yashirish uchun dam-badam suv ichaman, yo'talaman, baayni tumov xalaqit berayotgandek, tez-tez burnimni qoqaman, o'rinsiz qochiriq qilaman, nihoyat, muddatdan ilgari tanaffus beraman. Eng og'iri – juda uyalaman.

Shu ahvolda mening qilishim mumkin bo'lgan eng yaxshi narsa – bolalarga xayrlashuv ma'ruzasini o'qib, ularga oxirgi so'zni aytish, keyin oq fotiha berib, o'mimni o'zimdan yosh va baquvvat kishiga bo'shatib bermoqlikdir. Mening vijdonim, aqlim shu narsani talqin qiladi. Biroq vijdonan ish qilishga jasorat qilolmayman. Xudoyo, O'zing kechirgaysan.

Baxtga qarshi, men faylasuf ham emasman, xudojo'y ham emasman. Yaxshi bilamanki, yarim yildan ortiq yashamayman. Modomiki, shunday ekan, oxirat masalalari, qabrim ichra so'roqqa kiradigan munkar-nakirlar hozirgi kunda meni ko'proq qiziqtirishi lozim edi. Aqlim bu masalalarning muhimligini anglasa ham, ruhim negadir ularni aslo eslagisi kelmaydi. Yigirma-o'ttiz yil ilgarigidek, hozir o'lim oldida turganimda ham, meni yolg'iz fan qiziqtiradi. Og'zimdan oxirgi nafasim chiqquncha inson hayotida eng muhim, eng go'zal, eng zarur narsa fan ekaniga, fan har vaqt sevgining eng yuksak ifodasi bo'lganiga va bundan keyin ham shunday bo'lajagiga, inson tabiatni hamda o'zini yolg'iz fan vositasi bilan yenga olishi-



ga ishonishimdan qaytmayman. Bu ishonch asosida, ehtimol go'llik va noto'g'ri tushuncha bordir, ammo nachora, shu xilda ishonganim uchun aybli emasman, ruhimdagi bu ishonchni yengish mening qo'limdan kelmaydi.

Gap bunda emas. Men faqat jo'shqin muhabbatimga iltifot ko'zi bilan qarashlarini, butun koinotning taqdiridan ko'ra ilikning tuzilishi va xizmati masalalari bilan ko'proq qiziqqan bir odamni kafedradan, shogirdlaridan ajratish – shu odamning o'lishini kutmasdan tiriklayin tobutga mixlab tashlash bilan baravar ekanini anglashlarini iltimos qilaman.

Uyqusizlik va kundan kunga zo'rayib borayotgan bedarmonlik balosidan qutulishga jiddiy urinish orqasida g'alati bir holga tushib qolganman. Ma'ruza o'rtasida ko'z yoshlarim bexosdan tomog'imni bo'g'ib qoladi, ko'zim qichisha boshlaydi, shunday paytlarda qo'llarimni cho'zib, ovozimning boricha faryod urib nola qilgim, dod solib: mendek mashhur odamni taqdir o'limga hukm qildi, biron yarim yildan keyin bu auditoriyada boshqa birov xo'jayinlik qiladi, men zaharlandim, degim keladi; ilgari menga noma'lum bo'lgan yangi-yangi xayollar hayotimning so'nggi kunlarini zaharlaydi va iskabtopar singari nayzasini beto'xtov miyamga sanchadi. Shunday kezlarda ahvolim shunchalik tanglashadiki, men barcha o'quvchilarim bu ahvolni ko'rib qo'rqib ketishlarini va dahshat ichida o'rinlaridan turib dod-faryod bilan eshikka otilishlarini istar edim.

Bunday daqiqalarni boshdan kechirish o'ng'ay emas.

II

Ma'ruzadan keyin uyimda o'tirib ish qilaman. Jurnallarni, dissertatsiyalarni o'qiyman yo bo'lmasa, kelasi darsga tayyorlanaman, ba'zan biron narsa yozaman. Meni yo'qlab kelgan odamlar bilan so'zlashaman, shu tufayli ish ustida chalg'ib turishga to'g'ri keladi.

Qo'ng'iroq tovushi eshitiladi. Bitta o'rtog'im ish to'g'risida gaplashgani kelibdi. U shlyapasi bilan hassasini ushlab uyga kiradi va har ikkisini menga uzatib:

– Men faqat bir daqiqaga, bir daqiqaga keldim! O'tirsinlar, hamkasb! Faqat ikki og'iz gapim bor! – deydi.

Dastavval har ikkalamiz o'zimizning haddan ziyod xushmuomala ekanimizni bir-birimizga ko'rsatishga urinamiz va bir-

birimizni ko'rishga mushtoqligimizni izhor etamiz. Men uni orom-kursiga o'tirishga qistayman, u meni qistaydi. Shu payt ikkalamiz asta-sekin bir-birimizning belimizni silaymiz, tugmachalarimizga qo'l tekkizamiz, bu harakatimizdan go'yo qo'limizni kuydirib olishdan xavfsirab bir-birimizni paypaslab ko'rayotganga o'xshaymiz. Oradan hech qanday qiziq so'z o'tmagan holda, ikkimiz kulamiz. O'tirib olgach, boshimizni bir-birimizga engashtirib sekin-sekin gaplasha boshlaymiz. Bir-birimizga qanchalik qadrdon bo'lishimizga qaramay, «Adolatli tanbeh qilishga ixtiyor etdingiz» yoki «Sizga aytib baxtiyor bo'lganimdek» kabi balandparvoz, jimjimador so'zlardan o'zimizni tutib turolmaymiz, birontamiz harchand noo'rin qochirib qilsak ham xandon urib kulishdan o'zimizni to'xtatolmaymiz. Birodarim ish ustidagi so'zini tugatgach, sapchib o'rmidan turadi va shlyapasi bilan mening ishimga ishora qilib, ketishga o'tlanadi. Yana bir-birimizni paypaslashamiz, yana kulishamiz. Men uni dahlizgacha kuzatib chiqaman; shu yerda po'stinini kiyishiga yordamlashaman, ammo bu xilda yuksak hurmatdan u har xil yo'l bilan bosh tortishga urinadi. So'ngra, Yegor eshikni ochganida, oshnam shamollab qolmasligimni qayta-qayta aytadi, men bo'lsam uning ketidan ko'chagacha chiqishga tayyorligimni ko'rsataman. Nihoyat, kabinetimga qaytib kelganimda, og'zimni hamon ixtiyorsiz tabassumdan yig'ib ololmayman.

Birpas o'tar-o'tmas ikkinchi qo'ng'iroq eshitiladi. Allakim dahlizga kirib uzoq yechinadi, keyin yo'talib qo'yadi. Yegor bir talaba kelganini aytadi. Men: «Kirsin», – deyman. Saldan keyin ichkariga xushbichim bir yigit kiradi. Bir yil bo'ladi, ikkimizning o'rtamiz juda buzilib qolgan: bu yigit imtihonlarda menga juda yomon javob beradi, shuning uchun men unga har doim bir qo'yaman. Talabalar tili bilan aytganda, men qisti-bastiga oladigan yoki imtihonimda yiqitib yuboradigan bu xilda azamatlarning soni mening darsimdan har yili yetti kishiga yetadi. Shularning orasida qobiliyatsizlari yoki xastaligi tufayli imtihondan o'tolmaganlari taqdirga tan berib indamasdan ketaverishadi, baho ustida men bilan savdolashib o'tirishmaydi; men bilan savdolashadiganlari faqat xushchaqchaq oliftalar bo'ladi, chunki imtihonda tomoqqa tiqilgan qiltanoq har doim ularning ishtahasini buzib, muntazam ravishda operaga berish

U. NAVOIY NOMIDAGI



lariga xalaqit beradi. Birinchilardan iltifotimni ayamayman, ikkinchilarni esa bir yillab quvg'inda tutaman.

– O'tiring, – deyman mehmonga. – Xizmat?

– Bezovta qilganim uchun kechirasiz, professor... – deydi u betimga qaramasdan, duduqlanib. – Ishim bo'lmaganda... Men sizni bezovta qilmasdim... Men sizga besh marta imtihon berdim-u... yiqildim. O'tinib so'rayman, bemalol bo'lsa, «qoniqarli» qo'yib bering, chunki men...

O'zlarini oqlash uchun hamma tanballar faqat bitta dalilni ko'rsatadilar: ular go'yo barcha fanlardan juda yaxshi imtihon berganlarini, faqat menikiga kelganda o'tolmaganlarini aytadilar, mening darsimni, go'yo har qachon juda tirishib tayyorlashlariga, uni ancha puxta bilishlariga qaramay, tushunib bo'lmaydigan allaqanday tasodif orqasida yiqilib qolgan bo'ladilar.

– Kechirasiz do'stim, – deyman mehmonga, – sizga men «qoniqarli» degan bahoni qo'yolmayman. Borib ma'ruzani yana o'qib keling. O'shandan keyin ko'ramiz.

Talaba indamaydi. Pivo bilan operani fandan ortiqroq yaxshi ko'rgani uchun men bu talabani biroz qiynagim keladi, shu sababli, bir uh tortib:

– Menimcha, shu kecha-kunduzda tibbiyot fakultetini butunlay tashlab ketsangiz, juda yaxshi ish qilgan bo'lasiz. Modomiki, imtihon topshirishga sira qurbingiz kelmas ekan, bu narsa shifokor bo'lishga sizda na istak, na iste'dod borligini ko'rsatadi, – deyman.

Olifaning yuzi cho'zilib ketadi.

– Kechirasiz, professor, – deb iljayadi u, – bunday qilish o'ta bema'nilik bo'ladi. Besh yil o'qib, keyin birdan tashlab ketilsa!..

– Ha-da! Keyin umrbod sevmagan ish bilan shug'ullangandan ko'ra, besh yilni bekorga yo'qotgan yaxshi.

Shu onning o'zida unga rahmim kelib, gapni silliqlab ketishga oshiqaman:

– Xullas, o'zingiz bilasiz, shunday bo'lsin, yana biroz o'qib, keyin oldimga keling.

– Qachon kelay? – deb so'raydi sekingina tanbal.

– Xohlaganingizda. Menga desa, ertaga keling.

Shu so'zdan keyin uning muloyim ko'zlarida: «Kelishga kelaman-u, ammo sen, hayvon, meni yana quvib yuborasan-da!» degan ma'noni o'qiyman.

– To‘g‘ri, – deyman, – siz menga yana o‘n besh marta imtihon topshirganingiz bilan ilmingiz oshmaydi, lekin bu narsa irodangizni mahkam qiladi. Shunisigayam shukur qiling.

Jimlik cho‘kadi. Men o‘rnimdan turib, mehmonning ketishini kutaman, u bo‘lsa turgan yerida derazaga qarab, soqolini ishqalaganicha o‘ylanib qoladi. Men zerika boshlayman.

Olifta yigitning ovozi juda yoqimli, shirador edi, ma‘nodor ko‘zlari istehzo bilan kulib turadi, beti ancha muloyim, ammo pivoni ko‘p ichganidan, divanda yotaverganidan bir qadar so‘linqirab qolgan; ko‘rgan operalari, o‘zining ishqi sarguzashtlari, qadrdon do‘stlari haqida juda ko‘p qiziq narsalarni gapirib bersa bo‘ladi-ku, biroq baxtga qarshi, bunday narsalarni gapirish rasm bo‘lmaganda... Men bo‘lsam jon deb eshitardim.

– Professor! Men sizga chin va‘da beraman, agar «qoniqarli» qo‘yib bersangiz, men...

Ish «chin va‘daga» kelib to‘xtashi bilan, men qo‘limni siltab, stol yoniga kelib o‘tiranman. Talaba yana bir daqiqa o‘ylanib turib, ma‘yus gapiradi:

– Shundaymi? Xayr... Kechirasiz.

– Xayr, birodar. Salomat bo‘ling.

Bitta-bitta qadam tashlab dahlizga tomon yuradi, u yerda ivirilanib kiyinadi, ko‘chaga chiqib, ehtimol yana uzoq o‘ylanar; mening sha‘ninga «qari shayton» degan so‘zdan bo‘lak narsani o‘ylab topolmagach, pivo ichish, ovqatlanish uchun bironta bo‘lmag‘ur restoranga yo‘l oladi-yu, so‘ngra uxlash uchun uyiga jo‘naydi. Joying jannatda bo‘lsin, halol zaxmatkash!

Uchinchi marta qo‘ng‘iroq tovushi eshitaladi. Egniga yangi qora kostyum kiygan, tilla ko‘zoynak taqqan, oq bo‘yinbog‘ bog‘lagan yosh doktor ichkariga kirib, o‘zini tanitadi. Men unga joy ko‘rsatib, nima yumush bilan kelganini so‘rayman. Ilm yo‘liga jonini tikkan bu navqiron shu yil doktorantlikka imtihon topshirganini, endi faqat dissertatsiya yozishgina qolganini hayajon bilan gapirib ketadi. Men bilan birga, mening rahbarligimda ishlashni istaganini, agar men unga dissertatsiya uchun mavzu bersam, mendan benihoya minnatdor bo‘lajagini izhor qiladi.

– Xizmingizga tayyorman, hamkor, – deyman, – biroq hammadan oldin dissertatsiya nimaligini aniqlab olaylik. Bu so‘z ostida

ijodiy mehnatning mevasi bo'lgan biron asarni tushunadilar. Shundaymasmi? Begona mavzu ustida va boshqa birovning rahbarligida yozilgan asarni bo'lak nom bilan ataydilar.

Doktorant indamaydi. Men tutaqib ketib, sakrab o'nimdan turaman.

– Nega hammangiz menga kelasiz? – deb baqiraman darg'azab bo'lib. – Nima, men do'kondormanmi? Men mavzufurushmasman! Ming birinchi marta hammangizdan iltimos qilaman – meni o'z holimga qo'yinglar! Odobsizligim uchun kechiring, axir, bu narsalarning hammasi jonimga tegib ketdi-ku!

Doktorant indamaydi, faqat yonog'ining oldi bilinar-bilinmas qizaradi. Uning chehrasida dabdabali nomimga, olimligimga chuqur ehtirom ifodalari ko'rinadi, ammo ovozimdan, zaif jasadimdan, qo'llarimni qimirlatib kuydi-pishdi bo'lishimdan nafratlanayotgani ko'zlaridan sezilib turardi. Bu darg'azab holatimda uning ko'ziga tentakdek ko'rinaman.

– Mening do'konim yo'q, – deb yana tutaqaman. – Ajab qiziq gap! Nega mustaqil bo'lishni istamaysiz? Nega erkinlikni bunchalik yomon ko'rasiz?

Men juda ko'p gapiraman, u bo'lsa hamon indamasdan o'tiradi. Nihoyat, sekin-sekin hovurimdan tushaman, keyin, shubhasiz, taslim ham bo'laman. Albatta, doktorant mendan sariq chaqaga arziymaydigan biron mavzuni oladi, keyin mening rahbarligimda hech kimga keraksiz dissertatsiyani ham yozadi, bir kun kelib, kishini zeriktiradigan munozaralarni odob saqlab bardosh bilan eshitadida, o'ziga keraksiz ilmiy unvonni ham oladi.

Qo'ng'iroqning keti uzilmasdan, birin-ketin jaranglab turishi mumkin, ammo men faqat to'rt kishi bilan cheklanaman. Qo'ng'iroq to'rtinchi marta jiringlaydi. Qulog'imga sinashta oyoq tovushi, ko'ylakning shildirashi, dilbar ovoz eshitiladi...

Bundan o'n sakkiz yil ilgari ko'z doktor oshnam o'lib, undan Katya ismli yetti yashar qiz va oltmish ming so'm pul qolgandi. O'rtog'im o'z vasiyatida meni vasiy qilib tayinlagan. Katya o'n yashar bo'lguncha mening oilamda yashadi, so'ngra men uni institutga berdim, shundan keyin u faqat yoz kunlari, ta'til paytlarida menikida turardi. Bolaning tarbiyasiga qarashga vaqtim bo'lmagan, bu masala bilan faqat ahyon-ahyonda bir qiziqib

qo'yardim, shu sababli, uning go'daklik chog'lari haqida ko'p so'z aytolmayman.

Katyanning ko'ngli nihoyatda musaffo, har narsaga ishonaveradigan edi. Shu ishonch bilan mening uyimga kirib keldi, doktorlarga ko'rsatganimda ham shu xususiyatini saqlab qoldi, bu xislati chehrasida doim barq urib turardi. Xotiramda qolgan birinchi narsa shu edi, men uni eslasam, huzur qilardim. Bir xil mahallar jag'ini bog'lab diqqat bilan, albatta, biron narsaga termilib chekkaroqda o'tirardi; bu payt mening xat yozayotganimni, kitob varaqlayotganimni ko'radimi yoki xotinimning ivirsib yurganiga, oshpaz xotinning kartoshka archishiga qarab o'tiradimi yo bo'lmasa, itning irg'ishlab o'ynashini tomosha qiladimi, ko'zlari har doim: «Bu dunyoda qanday ish qilinmasin, hammasi go'zal, hammasi bama'ni», degan bir ma'noni ifoda qiladi. U har narsani bilgisi kelar va men bilan so'zlashishni juda yaxshi ko'rardi. Ba'zan stol yonida ro'paramga o'tirib olib, harakatlarimdan ko'zini olmasdan har xil savol beradi. Qanday kitob o'qiyotganimni, universitetda nima ish qilishimni, o'likdan qo'rqish-qo'rqmasligimni, maoshimni qayerga sarflashimni juda bilgisi keladi.

- Universitetda talabalar mushtlashadimi? – deb so'raydi u.
- Mushtlashadi, oyimqiz.
- Siz ularni cho'kkaletib qo'yasizmi?
- Cho'kkaletib qo'yaman.

Talabalarning mushtlashishi, men ularni cho'kkaletib qo'yishim Katyaga juda qiziq tuyulib, qotib-qotib kuladi. Bu qiz beozor, qanoatli va juda muloyim edi. Ko'pincha men uning qo'lidan biron narsani tortib olganlarini, nohaq jazolaganlarini yoki savollariga javob qaytarmaganlarini ko'rardim; shunday vaqtlarda uning yuzida har doim mavj urib turadigan ishonuvchanlik ifodalariga qayg'u alomatlari ham qo'shilar edi. Men uning yonini ololmasdim, faqat qizni qayg'uli ko'rganimda, bag'rimga bosib, qari enaga singari «Yetimchaginam!» deb holiga achinib qo'ygim kelardi.

Yaxshi kiyinishni, atir seplashni yoqtirishi ham esimdan chiqmaydi. Bu jihatdan u menga o'xshardi. Men ham bichimi kelishgan kiyimni, yaxshi atirlarni juda yoqtiraman.

Katya o'n to'rt-o'n besh yoshlarga kirganida uning qoniga tamomila singib ketgan ehtirosning tug'ilishini, rivojlanishini kuzatib

borishga fursatim bo'lmaganiga va bu narsaga qiziqmaganimga juda achinaman. Men bu yerda Katyaning teatrga bo'lgan jo'shqin mehri haqida gapirmoqchiman. U ta'til vaqtlarida institutidan kelib biznikida turganida, eng ko'p gapiradigan narsasi artistlar bilan pyesalar edi, boshqa biron narsa haqida bunchalik zavq-shavq bilan gapirmasdi. Katyaning teatr to'g'risidagi uzluksiz hikoyalari bizni zeriktirib yuborardi. Xotanim bilan bolalarim uning gaplariga qu-loq solishmasdi. Iltifot ko'rsatmaslikka faqat men jur'at qilolmasdim. Katya o'z zavq-shavqini bironvga aytgisi kelganda, mening kabinetimga kirib iltijo qilganday ovoz bilan:

– Nikolay Stepanich, ijizat bersangiz, siz bilan birpas teatr haqida gaplashardim! – derdi.

Men unga soatni ko'rsatib:

– Yarim soat vaqt beraman, qani, boshla, – deb javob qaytarardim.

Keyinchalik jon-dili bilan sevgan artist va aktrisalarning portretlarini do'jnalab keltiradigan bo'ldi; so'ngra bir necha marta havaskorlar spektakliga qatnashib ko'rdi-da, nihoyat, o'qishni tugatgach, aktrisa bo'lish uchun dunyoga kelganini menga aytdi.

Katyaning teatrga bo'lgan havasini men hech qachon ma'qullamaganman. Menimcha, basharti, pyesa yaxshi bo'lsa, uning ta'sirini kuchaytirish uchun artistlarni ovora qilishning hech qanday hojati yo'q; faqat o'qish bilan chegaralansa ham bo'ladi. Bordi-yu, pyesa yomon bo'lsa, hech qanaqa o'yin bilan uni yaxshilab bo'lmaydi.

Yoshligimda teatrga tez-tez borib turardim. Hozir ham oilamdagilar yiliga ikki marta loja olib, meni «shamollatib» kelishadi. Haddim sig'ib teatr haqida muhokama yuritishga, albatta, bu kamlik qiladi, shu tufayli men bu to'g'rida ozgina gapiraman. Fikrimcha, teatr bundan o'ttiz-qirq yil oldingi ahvolidan durust bo'lgan emas. Ilgarigidek na teatr dahlizlarida, na foyeda men bir stakan toza suv topolmayman. Qishda issiq kiyimda yurishning aybi bo'lmasa ham, kapeldinerlar¹ po'stinim uchun hamon menga bir tanga jarma solishadi. Hech qanday zaruriyat bo'lmagani holda, tanaffus

¹ *Kapeldiner* – tomoshabinlarning chiptasini tekshiruvchi, zalda tartib saqllovchi teatr xodimi.

vaqtlarida hamon musiqa chaladilar. Bu musiqa teatrdan olinadigan taassurotga, ko'z uchib turgandek, o'zining hissasini keltirib tiqadi. Tanaffus paytlarida erkaklar bufetga borib hamon ichkilik ichishadi. Modomiki, mayda-chuydalarda o'zgarish ko'rinmas ekan, uni yirik narsalarda axtarishimning o'zi befoyda urinishdir. Boshdan-oyoq teatr an'analari va taassublariga o'ralashib qolgan aktyor oddiygina «yo hayot, yo mamot» monologini to'ppa-to'g'ri o'qimasdan, negadir, albatta, vishillab, a'zoyi badanini qaltiratib o'qiganida yo bo'lmasa, ana shu artist nodonlar bilan ko'p gaplashadigan va tentak bir qizni sevib qolgan Chatskiyning juda aqlli odam ekaniga hamda «Aqllilik balosi»ning kishini zeriktiradigan pyesa emasligiga jon-jahdi bilan meni ishontirmoqchi bo'lganida, bundan qirq yil avval, ya'ni artistlar ko'kraklariga urib, alamli ingrash qiladigan zamonlarida ham, mening diqqatimni oshirgan eskilik sahnadan basharamga urib turadi. Har safar teatrdan chiqqanimda, kirganimdagidan beshbattar mutaassib bo'lib chiqaman.

Teatrning hozirgi ahvolidagi bir maktab ekaniga mujmal va laqma odamlarni ishontirish mumkin. Maktabning asl ma'nosini tushungan kishilarni bu qarmoqqa ilintirib bo'lmaydi. Bundan ellik-yuz yil o'tib nima bo'lishini bilmayman, lekin hozirgi sharoitda teatr faqat yupanchdan boshqa narsa emas. Bu xil yupanch juda qimmatga tushadi. Bu yupanch davlatdan minglab navqiron, sog'lom hamda iqtidorli erkak va ayollarni tortib oladi. Shu odamlar o'z kuchlarini teatrga sarflamaganlarida, ulardan durust-durust shifokorlar, agronomlar, muallimalar, zobitlar chiqishi mumkin bo'lardi. Bu yupanch o'qish-yozish, shirin-shirin dilkashliklar uchun qulay bo'lgan kechki soatlarni band qilib qo'yadi. Men bu yerda o'rinsiz xarajatlar, sahnada noto'g'ri talqin qilinadigan qotilliklar, fohishabozliklar va ig'volarni ko'rish natijasida tomoshabinda hosil bo'ladigan axloqiy buzilishlar haqida gapirib o'tirmayman.

Katya bo'lsa butunlay boshqa fikrda edi. Teatr hatto o'zining hozirgi ahvolidagi ham auditoriyadan, kitobdan va dunyodagi hamma narsalardan yuqori turishiga meni ishontirmoqchi bo'lardi. Katya teatrga butun san'atlarni yolg'iz o'zida birlashtirgan bir kuch, aktyorlarga esa – yaxshilik jarchilari deb qarardi. Uning aytishicha, hech qanday san'at va hech qanday fan yolg'iz-yolg'iz olganda odamning ruhiga teatr singari zo'r va to'g'ri ta'sir qilolmas emish.

Shu tufayli hatto o'rtamiyona aktyorning mamlakatdagi shuhrati eng yaxshi olim yoki rassomning shuhratidan yuqori turadi, derdi. Binobarin, hech qanday ommaviy faoliyat kishiga sahna faoliyati kabi zavq va mamnuniyat bermasligiga u shubha qilmas edi.

Kunlardan bir kun Katya bitta truppage joylashib, adashmasam, Ufaga jo'nab ketdi. U allaqancha pul, shirin-shirin umidlar va har bir ishga artistlarcha qarash kayfiyatlari bilan yo'lga tushdi.

Katyaning yo'ldan yozgan dastlabki xatlari juda ajoyib edi. Bu xatlarni o'qirkanman, bir parchagina qog'ozda shunchalik yoshlik hislari, ruhiy sofflik, muqaddas soddalik va shu bilan birga, faqat ancha aqlli erkakning qo'lidan keladigan nozik va puxta fikrlarning bo'lishi meni ajablantirardi. Volgani, tabiat manzaralarini, ko'rgan shaharlarini, yor-do'stlarini, o'zining yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini oddiygina tasvirlab qo'yaqolmasdan, doston qilib kuylar edi. Har bir misrada menga tanish bo'lgan sofdillik nafasi sezilib turadi. Shular bilan bir qatorda, ancha-muncha imloviy xatolar uchrardi, tinish belgilari esa deyarli bo'lmas edi.

Yarim yil o'tar-o'tmas «Men sevib qoldim» so'zlari bilan boshlanadigan va yuksak darajada shoirona yozilgan, shavq-zavq bilan to'lib-toshgan bir xat oldim. Bu xatga soqol-mo'ylovlari qirilgan, boshiga keng gardishli shlyapa kiygan, ustiga qalin junro'mol yopinib, bir uchini yelkasiga tashlab qo'ygan yosh yigitning fotosurati qo'shib yuborilgan edi. Bundan keyingi xatlar hamon dabdabali bo'lsa ham, lekin ularning ichida tinish belgilari ko'rina boshladi, imloviy xatolar butunlay yo'qoldi, shu bilan birga, xatlardan erkak kishining hidi anqib turadigan bo'lib qoldi. Katya o'rtada pul to'plab Volga atrofidagi bir shaharda katta teatr qurish, bu ishga badavlat savdogarlarni, paroxod egalarini tortish to'g'risida, shunday qilgan taqdirda pulning ko'payishi, tushumning haddan ortishi, aktyorlarning daromadga sherik bo'lishlari kabi masalalar ustida yozar edi. Bularning hammasi ehtimol chindan ham juda yaxshidir, ammo nazarimda, bunday xomxayollar faqat erkak kishining kallasidan chiqishi mumkindek tuyulardi.

Qanday bo'lmasin, chamasi, bir yarim-ikki yil hech qanday kamchilik sezmagani: sevgan kishisi bo'lgan, o'zi foydali ish qilayotganiga ishongan, shu tufayli baxtiyor va shod-xurram yashagan; biroq bora-bora xatlardan tushkunlikning ochiq alomatlari ko'rina

boshladi. Bu narsa Katyaning o'z sheriklari ustida nolishidan boshlandi – bu esa eng birinchi va eng yaramas alomat edi; agarda yosh olim yoki yosh adabiyotchi o'z faoliyatini olimlardan yoinki adabiyotchilardan qattiq nolish bilan boshlasa, bu narsa uning charchaganini va ishga yaroqsizligini ko'rsatadi. Katya menga o'rtoqlarining repetitsiyaga qatnamasliklari, hech qachon rollarni bilmasliklari to'g'risida; bema'ni pyesalarni sahnaga qo'yishda va o'rtoqlaridan har birining sahnada o'zini tuta bilmasligida, tomoshabinga nisbatan chuqur hurmatsizlik borligi haqida; teatrdagi hamma gap faqat tushumni orttirish atrofida borishi, shu maqsad yuzasidan dramatik aktyorlarning hatto qabih ashulalarni aytishdan ham jirkanmasliklari, tragik aktyorlarning esa xotinlari aldab ketgan erkaklar, homilador bo'lib kelgan bevafo xotinlardan bahs qiladigan bemaza la-parlarni ashula qilib aytishlari; umuman, shu ahvolda viloyatlardagi ishlarning qanday qilib shu kungacha barbod bo'lib ketmaganiga va shunchalik ingichka va chirigan payga ilinib tura olishiga kishining ajablanishi va hokazo, va hokazolar to'g'risida yozar edi.

Men Katyaning xatiga kishini zeriktiradigan uzundan-uzoq javob qaytardim. Jumladan, unga shularni yozdim: *«Menga ehtiromlar ko'zi bilan qaraydigan oliyjanob keksa aktyorlar bilan suhbat qilish ko'pincha menga nasib etar edi. Shu suhbatlardan men bu odamlarning faoliyatini ularning o'z aql va xohishlari emas, davrning rasmiyatlarida hamda jamiyatning kayfiyati idora qilganini anglardim; shu odamlarning eng asllari ham o'z hayotlarida tragediyada ham, operettada ham, Parij hayotidan olingan hajviy asarlarda ham, dabdabali pyesalarda ham o'ynashga majbur bo'lganlar, shunday bo'lishiga qaramasdan, ketayotgan yo'llarining to'g'riligiga, qilayotgan ishlarining foydali ekaniga ular hech qachon shubha qilgan emaslar. Binobarin, ko'rasanki, yomonlik sabablarini aktyorlardan emas, chuqurroqdan, san'atning o'zidan va butun jamiyatning san'atga bo'lgan munosabatlaridan axtarmoq darkor»*. Mening bu xatim Katyaning zardasini qaynatgan. U menga shunday javob qaytardi: *«Birimiz bog'dan kelsak, ikkinchimiz tog'dan kelamiz. Men o'z xatimda sizga hurmat ko'zi bilan qaragan oliyjanob kishilar haqida emas, oliyjanoblikka hech qanday munosabati bo'lmagan muttahaamlar to'dasi haqida yozgandim. Bularning hammasi bo'lak biron yerda ishga olishlariga ko'zlari yetmaganidan teatrga kirib qolgan,*

faqat surbetliklaridan o'zlarini artist hisoblab yurgan vahshiy odamlar podasidir. Bu yerda bironta iqtidor egasini topolmaysiz, ammo piyonistalar, g'alamislar, ig'vogarlar istaganingizcha bor. Shunchalik muhabbat bilan sevganim – san'atning qabih odamlar qo'lida qolganini ko'rib qanchalik yuragim achishganini sizga aytib tugatolmayman. Afsuski, yaxshi odamlarimiz yovuzlikka yaqinroq kelib qarashni istamaydilar, uni faqat olisdan ko'radilar, himoyachi bo'lish o'rniga og'ir uslub bilan umumiy gaplarni yozadilar va hech kimga keragi bo'lmagan nasihatgo'ylik bilan cheklanib qoladilar...» va hokazo.

Yana biroz o'tgach, mana shunday xat oldim: «Men vahshiyona suratda aldandim. Ortiq yasholmayman. Pullarimdan qanday foydalanishni muvofiq topsangiz – ixtiyor sizda. Men sizni otam o'rnida va yagona do'stim sifatida yaxshi ko'rdim. Meni kechirgaysiz».

Ma'lum bo'lishicha, uning sevgani ham «vahshiy odamlar podasiga» mansub kishi ekan. Keyinchalik ba'zi bir imo-ishoralardan Katya o'zini o'ldirmoqchi bo'lganini payqadim. Bilishimcha, u zahar ichib o'lmoqchi bo'lgan. Shundan keyin, o'ylaymanki, qattiq og'rikan-u, doktorlarning maslahati bilan Yaltaga ketgan, chunki keyingi xatni o'sha yerdan oldim. Katya o'zining oxirgi xatida mumkin qadar tezroq Yaltaga ming so'm pul yuborishimni so'ragandi. Bu xat mana shunday tugardi: «Sizga shunday g'amgin xat yozganim uchun meni kechiring. Kecha bolamni ko'mdim». Katya Yaltada bir yilcha turib, uyga qaytib keldi.

Katya to'rt yilga yaqin sayohat qilib yurdi, mana shu to'rt yil ichida, gapning to'g'risi, men unga nisbatan juda xunuk va g'alati bir vazifani ado qilib keldim. Boshda u aktrisalikka kirayotganini aytganida, so'ngra muhabbati to'g'risida yozganida, vaqti-vaqti bilan isrofgarchilik kayfiyatiga berilgan kezlarida, o'zining talabiga ko'ra, goh ming so'm, goh ikki ming so'm yuborish bilan cheklanib qoldim, o'zini o'ldirmoqchi bo'lganini, so'ngra bolasining vafot etganini yozganida, men nima qilishimni bilmay dovdirab qoldim, shunday paytlarda Katyaning dardiga hamdard bo'lish o'rniga, uning to'g'risida faqat ko'p o'ylash, uzundan-uzoq, noxush, behuda xatlarni yozishdan bo'lak ish qilmadim. Axir, men uning otasi o'rniga qolgan kishi edim-ku, axir, men uni o'z qizimdek yaxshi ko'rardim-ku!



Endi Katya mendan yarim chaqirim narida turadi. U besh xonali bir uyni ijaraga olib, o'zining didiga moslashtirib juda yaxshi jihozlagan. Mabodo biron kimsa uyning jihozlarini suratga olmoqchi bo'lsa, rasmdagi asosiy kayfiyat yalqovlikdan iborat bo'ladi. Yalqov tana uchun – yumshoq kushetkalar, yumshoq kursilar, yalqov oyoq uchun gilamlar, yalqov ko'z uchun aynigan, nimrang, xira bo'yoqlar, yalqov ruh uchun devorlarga osib qo'yilgan arzonarov yelpig'ichlar, chiroyli ishlangan, ammo ma'nosi sayoz mayda-chuyda rasmlarning ko'pligi, butunlay keraksiz va hech qanday qiymati bo'lmagan buyumlar yasatib qo'yilgan kichkina-kichkina stol va tokchalarning seroblighi, parda o'rniga parcha-parcha laxtaklar... Bularning hammasi yaltiroq ranglardan, simmetriyadan, kenglikdan qo'rqish, shuningdek, ruhiy tanballik bilan bir qatorda, tabiiy didning ayniganini ham ko'rsatadi. Katya kun bo'yi kushetkada kitob o'qib yotadi. Bu kitoblar asosan roman hamda qissalar bo'ladi. Kuniga faqat bir marta, tushdan keyin men bilan ko'rishish uchun uyidan chiqadi.

Men ishlab o'tiraman, Katya go'yo sovqotayotgandek katta-kon sholro'molga o'ranib, mendan nariroqdagi kushetkada jimgina o'tiradi. U didimga yoqqanidanmi yoki bolaligida oldimga tez-tez kirib turganidanmi, uning kabinetimda o'tirishi ishimga xalaqit bermaydi. Onda-sonda beixtiyor undan biron narsani so'rab qo'yaman, u menga juda qisqa javob qaytaradi yoinki bir nafas dam olish niyatida unga o'girilib, xayolga botib, bironta tibbiyot jurnalini yoki gazetani varaqlayotganiga tikilib turaman. Shu payt men uning betida ilgarigi ishonuvchanlik ifodalari qolmaganini sezaman. Hozir uning chehrasi baayni poyezdni uzoq kutayotgan yo'lovchilarniki singari shavqsiz, beparvo, parishon edi. U hali ham ilgarigidek chiroyli, oddiy kiyinadi. Ammo kiyimlari endi birmuncha ezilgan ko'rinadi. Bilishimcha, uzzukun kushetkada, belanchakda yotaverganidan kiyimlari, sochi ancha urinsa kerak. Hozir u ilgarigidek har narsaga qiziqavermaydi. Go'yo hayotda hamma narsani totib bo'lgan-u, endi hech qanday yangi narsa kutmagandek, menga hech qanday savol bermaydi.

Soat to'rtidan o'tganda zalda, mehmonxonada harakat boshlandi. Ma'lum bo'ladiki, Liza konservatoriyadan qaytibdi, o'zi bilan dugonalarini ham boshlab kelibdi. Royal tovushi, qizlarning ashula-

si, qah-qah urib kulishlari eshitaladi. Yegor idishlarni sharaq-shuruq qilib, oshxonada stolga dasturxon yozadi.

– Yaxshi qoling! – deydi Katya. – Bugun ularning yoniga kirmayman. Kechirishsin. Fursatim yo‘q. O‘zingiz keling.

Men uni dahlizgacha kuzatib chiqqanimda, qovog‘ini solganicha boshimdan to oyog‘imgacha qarab, achinib gapiradi:

– Kundan kunga ozib ketyapsiz! Nega o‘zingizni davolatmaysiz? Men Sergey Fyodorovichni aytib kelaman. Sizni ko‘rib qo‘ysin.

– Hojati yo‘q, Katya.

– Tushunolmayman, oilangiz nimani o‘ylaydi? Omon bo‘lishsin, ishqilib!

U keskin bir harakat qilib po‘stinini kiyadi. Naridan-beri tarab, boshiga turmab qo‘yilgan sochidan shu payt muqarrar ikkita-uchta sochto‘g‘nog‘ich polga tushadi. Sochini tuzatishga hafsalasi kelmaydi, fursati ham yo‘q; tushib ketgan sochini qalpog‘ining ostiga palapartish tiqib, jo‘nab ketadi.

Oshxonaga kirganimda xotinim mendan so‘raydi:

– Katya kelganmidi? Nega bizning oldimizga kirmadi? Qiliqlari juda g‘alati...

– Oyi! – deydi Liza o‘pkalanib. – Xohlamasa – havolasi Xudoga. Tiz cho‘kib yolvorishimiz qoldimi endi?!

– Bilib qo‘y, bu ishi mensimaslikni ko‘rsatadi. Kabinetda uch soat o‘tirsin-u, bizlarni eslamasin! Mayli, bilganini qilsin.

Xotinim bilan qizim Katyani nihoyatda yomon ko‘rishadi. Bu nafratni men sira tushunolmayman. Ehtimol tushunish uchun xotin kishi bo‘lish kerakdir. Butun mas‘uliyatni gardanimga olib aytaman-ki, deyarli har kuni auditoriyamda ko‘radiganim – bir yuz ellikta yosh yigitlar va hafta sayin men bilan uchrashib turadigan yuzlab qariyalar orasida Katyaning o‘tmishiga, ya‘ni nikohsiz homiladorlikka, valadizino bolaga nafrat va jirkanish bilan qarashni anglay oladigan birona odam topilmasa kerak; shu bilan birga, menga tanish xotinlar yoki qizlar orasida ongli ravishda yo bo‘lmasa, beixtiyor ko‘nglida shu xilda tuyg‘ularni saqlamagan birona kishini xotirimga keltirolmayman. Bu narsa erkaklarga nisbatan ayollarning mehr-shafqatli va halol ekanini ko‘rsatmaydi. Axir, saxovat, halollik yovuz hislardan xoli bo‘lmasa, yomonlikdan farqi juda oz bo‘ladi. Men bu narsani faqat xotinlarning qoloqligidan ko‘raman, xolos. Hozirgi zamon

erkaklarining baxtsizlikka nafrat va jirkanish bilan qaramasdan, aksincha, uni ko'rganda g'am chekislari va vijdon azobiga tushishlari, madaniyatda ularning afzalligini, ma'naviy jihatdan o'zib ketganlarini ko'rsatadi. Hozirgi zamon ayollari ham xuddi o'rta asr ayollari singari yig'loqi va berahmdirlar. Fikrimcha, kimda kim ularga o'zlarini tarbiyalab, erkaklar darajasiga ko'tarilishni maslahat bersa, juda yaxshi ish qilgan bo'ladi.

Bundan tashqari, xotinim Katyani aktrisa bo'lgani, oqibatsizligi, dimoqdorligi, tabiatining g'alatiligi hamda bitta ayol ikkinchi ayoldan har doim topa olishi mumkin bo'lgan yana bir qancha qusurlari uchun yomon ko'rardi.

O'zimdanda va oilamdan bo'lak biznikida yana-tag'in qizimning ikkita-uch nafar dugonalari hamda oshig'i va talabgori Aleksandr Adolfovich Gnekker ovqatlanishadi. O'ttiz yoshlardan oshmagan bu yigit mallasoch, o'rta bo'y, juda semiz, yag'rindor, quloqlari yonidan sap-sariq chakkasoqol qo'ygan, bejirimgina mo'ylovini moylab yuradi. Mo'ylov uning go'shtdor silliq betini allanechuk o'yinchoqdek ko'rsatadi. Pijagi juda kalta, kamzuli yaltiroq, katak-katak shimining tepa tomoni haddan ziyod keng, pochalari esa juda tor, oyog'idagi sariq botinkasi poshnasiz. Ko'zlari qisqichbaqanikiga o'xshash chaqchaygan, bo'yinbog'i ham qisqichbaqaning bo'yniga o'xshaydi, nazarimda, hatto bu yigitning a'zoyi badanidan qisqichbaqa sho'rvasining hidi kelib turgandek. Bu odam har kuni biznikiga keladi, biroq oilamdagilarning birontasi uning nasl-nasabini, qayerda o'qiganini, qanday kun ko'rishini bilmaydi. U musiqa chalmaydi, ashula aytmaydi, lekin musiqaga ham, ashulaga ham qandaydir munosabati bor, qayerlardadir allakimlarning royallarini sotib yuradi, konservatoriyada tez-tez ko'rinib turadi, hamma mashhur odamlar bilan oshnachiligi bor, konsertlarda ishboshi bo'ladi; musiqa to'g'risida juda bilimdonlik bilan gapiradi, hamma uning fikrlarini astoydil ma'qullaganini o'zim ko'rganman.

Badavlat odamlarning atrofida har doim nonxo'rlari bo'ladi; fanda ham, san'atda ham ahvol shu. Nazarimda, yer yuzida Gnekker janoblari o'xshagan «yot jinslardan» xoli hech qanday san'at, hech qanday fan bo'lmasa kerak. Men musiqachi emasman, binobarin, Gnekkerga nisbatan, ehtimol, xato qilarkan; buning ustiga, uni juda oz bilaman. Biroq uning obro'si, biron kimsa ashula aytayotganda

yoinki royal chalayotganda, royalning yonida turib bilimdonlik bilan quloq solishi nihoyatda shubhali ko'rinadi.

Siz uchiga chiqqan jentlmen va maxfiy maslahatchi bo'lmang, basharti, qizingiz bo'lsa, xushtorliklar, sovchibozliklar va to'y-tomoshga bilan birga, uyingizga va kayfiyatingizga kirib keladigan meshchanlikdan o'zingizni himoya qilolmaysiz. Chunonchi, har gal uyimizga Gnekker kelganida, xotinimning tantanali bir qiyofaga kirib qolishiga men aslo chidolmayman, shuningdek, juda bemalol va hashamat bilan yashashimizni Gnekkeriga ko'rsatish niyatida, faqat uning yuzini qilib, stolga qo'yiladigan lafit, portveyn va xeres musallaslari ham mening g'ashimni keltiradi. Lizaning konservatoriya-dan orttirgan qiqir-qiqir kulishi, uyimizga erkaklar kelgan kezlarda har narsaga ko'zini qisib qarash odati ham fe'limni aynitadi. Eng muhimi, mening odatlarimga, ilm-fanimga va hayotimning butun tartiblariga tamomila yot bo'lgan, men yoqtirgan kishilarga sira-sira o'xshamagan bir maxluqning har kuni uyimga kelib, men bilan birga ovqatlanishini aslo tushunmayman. Xotinim va xizmatkorlarim «kuyov-kuyov» deb sirli-sirli shivirlashadi, ammo shunday bo'lsa ham, mudom hozir-u nozir bo'lishini mutlaqo anglamayman. Stol yonida men bilan birga, chunonchi, habashni o'tqazganlarida qanchalik hayron bo'lsam, Gnekkerini ko'rganda ham xuddi shunday holatga tushaman. Nazarimda, hali norasida ko'ringan qizimning shu bo'yinbog'ni, shu ko'zlarni, bilqillagan shu yuzlarni... yoqtirishi ham menga juda g'alati ko'rinadi.

Ilgarilari ovqatlanishni yaxshi ko'rardim yoki unga beparvo qarardim; endi bo'lsa ovqat mening dilimda zerikish va tajanglik-dan bo'lak narsani uyg'otmaydi. Men zoti oliy bo'lganimdan va bir qancha vaqt fakultetda dekan bo'lib ishlaganimdan beri oilam negadir ovqatlarning xilini va ovqatlanish tartiblarini o'zgartirishni lozim topdi. Talabalik kezlrimda va tabiblik qilgan vaqtlarimda odatlanib qolgan oddiy ovqatlarim o'rniga endi meni ichida allaqanday oq narsalar suzib yuradigan sho'rvalar, madera musallasida pishirilgan buyraklar bilan boqishadi. Generallik martabam, shuhra-tim tufayli karam sho'rvadan, shirin-shirin piroglardan, olma bilan pishirilgan g'oz go'shtlaridan, bo'tqa bilan yeyiladigan leshch baliqlaridan bir umrga ayrildim. Shular bijildoq va askiyaboz oqsochim Agasha kampirni ham tortib oldilar. Uning o'rniga ovqatni endi

o'ng qo'lga oq qo'lqop kiygan Yegor degan anqov va kekkaygan bir yigitcha tortadi. Ovqat orasidagi tanaffuslar juda qisqa, ammo ularni biron narsa bilan to'ldirishning iloji bo'lmaganidan benihoya uzoq ko'rinadi. Endi bo'lsa ilgarigi xursandchiliklar, erkin-erkin suhbatlar, hazilkashliklar, bemalol kulishlar yo'q, yemakxonada to'planganimizda bolalarimni, xotinimni va meni zavqlantiradigan o'zaro mehribonchiliklar, shod-xurramliklar ham qolmagan, men kabi ishi ko'p odam uchun tushlik – dam olish va uchrashish vaqti bo'lardi, xotinim va bolalarim uchun esa, qisqa bo'lishiga qaramay, porloq va shodiyona bayram hisoblanardi. Shu payt yarim soatgina, men ilm-fan hamda talabalarning ixtiyorida bo'lmay, yolg'iz oilamning izmida bo'lishimni ular yaxshi bilishar edi. Endilikda bir qadah ichkilikdan kayf qilish odatlari qolmagan; Agashadan ajralganman, bo'tqali leshchdan mahrum bo'lganman; tushlik vaqtidagi arzimas mojarolar, chunonchi, stol tagida mushuk bilan kuchukning urishishini yo bo'lmasa, Katyaning belbog'i sho'rvaga tushib ketganda ko'tariladigan shovqin-suronlar endi eshitilmay qolgan.

Endigi tushlikni ta'rif qilish uning o'zini yegandan ham bemaiza bo'ladi. Xotinimning betida dabdabalik, yasama sipogarchilik va aslo yo'qolmaydigan g'amxo'rlik alomatlari bor. U tashvish bilan likopchalarimizga ko'z tashlab: «Qovurdoq sizga yoqmaganga o'xshaydi... To'g'rimi, yoqmadi, a?» deydi. Shu payt men: «Bekor tashvishlanasan, azizam, qovurdoq juda mazali bo'lipti», deyishim kerak bo'ladi. Xotinim bo'lsa: «Sen har doim mening yonimni olasan, Nikolay Stepanich, hech qachon to'g'risini aytmayсан. Nima uchun Aleksandr Adolfovich shunchalik kam ovqat yedilar?» deb javob qaytaradi. Butun tushlik davomida ahvol mana shu: Liza qiqir-qiqir kuladi, ko'zlarini suzadi. Men har ikkalasiga qarayman va faqat hozirning o'zida, ovqat tepasida, ularning ichki dunyosi nazarimdan allaqachon chetda qolgani menga ochiq-ravshan bo'ladi. Shu ahvolda, go'yo bir mahallar o'z uyimda o'z xotinim bilan yashaganman-u, hozir bo'lsa boshqa xotinimning uyida mehmonda o'tirgandek, ro'paramda boshqa Lizani ko'rayotgandek bo'laman. Har ikkalasida jiddiy o'zgarish paydo bo'lgan. Mana shu o'zgarishni taraqqiy ettirgan uzoq jarayonni men ko'zdan kechirganman, binobarin, hech narsani anglamasligim ham taajjublanarli hol emas. Bu o'zgarish nega ro'y berdi? Men buni bilmayman. Ehtimol hamma illat Xudo

xotinim bilan qizimga menikiga o'xshagan kuch bermaganidadir. Men bolalik chog'larimdan boshlab tashqi ta'sirlarga qarshi turishga odatlanganman va bu yo'lda o'zimni yetarli chiniqtirganman. Shuhrat, generallik, tinchgina oddiy hayotdan belni bukchaytiradigan, zo'rama-zo'raki hayotga o'tish, aslzodalar bilan oshna tutinish va shularga o'xshash tirikchilik yo'lida uchraydigan oddiy falokatlar boshimga tushganida esankirab, o'zimni yo'qotib qo'ymadim, ammo bularning hammasi zaif, chiniqmagan xotinim hamda qizimning us-tiga baayni kattakon qor uyumi singari ag'darilib, ularni bosib qoldi.

Qizlar bilan Gnekker fugalar va kontrapunktlar¹ haqida, ashu-lachilar hamda pianinochilar to'g'risida, Bax bilan Brams ustida gaplashishadi, xotinim bo'lsa musiqadan bexabar deb gumon qilish-laridan qo'rqib xayrixohlik bilan iljayadi va: «Juda ajoyib... Rost-danmi?.. Qarang-a...» deb ming'illab qo'yadi. Gnekker sipogarchilik bilan ovqat yeydi, o'zini katta olib qochiriq qiladi, muruvvat yuza-sidan qizlarning so'ziga quloq soladi. Ahyon-ahyonda bilar-bilmas fransuzcha gaplashib qoladi. Shunday paytlarda negadir meni *votre excellence*² deb ulug'lab qo'yadi.

Mening qovog'im ochilmaydi. Nazarimda, har ikkala tomon bir-birimizdan siqilayotganga o'xshaymiz. Ilgari menda odamlarni taba-qalarga ajratish odati yo'q edi. Endi bo'lsa xuddi shunga o'xshagan bir narsa meni juda qiynaydi. Men Gnekkerning faqat yaramas xislatlarini topishga urinaman, shunday xislatlarni tezda topganim-dan keyin nomunosib kishining menga kuyov bo'lishini o'ylab juda o'rtanib ketaman. U bilan hamsuhbat bo'lish yana boshqa jihatdan menga yomon ta'sir qiladi. Odatda, o'zim yolg'iz qolganimda yoinki didimga yoqqan kishilar orasiga kirganimda, hech qachon o'zimning xizmatlarim to'g'risida o'ylamayman, bordi-yu, o'ylagudek bo'lsam, butun xizmatlarim ko'zimga arzimagan bir narsadek ko'rinadi, o'zim bo'lsam go'yo kechagina olimlik darajasiga yetishgandek bo'laman; Gnekker singari kishilarning huzurida esa xizmatlarim haddan tash-qari yuksak toqqa o'xshaydi, mana shu tog'ning cho'qqilari go'yo bulutlarga yashiringan-u, etaklarida ko'zga arang ilinadigan Gnek-kerlar g'imirlab yurishadi.

¹ *Fuga* – bir musiqaviy mavzuning bir necha ovozda izchil takrorlanishi; *kontrapunkt* – musiqa nazariyasining ko'p ovozlilik tamoyillari haqidagi bo'limi.

² Janobi oliylari (*fr.*).

Tushlikdan keyin kabinetimga kirib birinchi marta cho'bug'imni tutaman. Bu cho'buq bir zamonlar yaramas odatga berilib, ertadan kechgacha tamaki buruqsitadigan kunlarimdan qolgan buyum. Cho'buq chekib o'tirganimda yonimga xotinim kiradi va men bilan so'zlashmoqchi bo'lib kursiga o'tiradi. Xuddi ertalabgidek men uning nima to'g'risida so'zlamog'chi bo'lganini bilaman.

– Ikkalamiz jiddiy so'zlashib olsak bo'lardi, Nikolay Stepanich, – deb gapni boshlaydi u. – Men Liza to'g'risida... Nega sen hech iltifot qilmaysan?

– Ya'ni?

– Sen go'yo hech narsani sezmagandek bo'lasan, axir, bunday qilish yaxshimas. Beparvo bo'lish yaramaydi... Gnekkerning Lizaga ko'ngli bor... Sen shunga nima deysan?

– Men uni tentak odam deyolmayman, chunki yaxshi bilmayman, ammo menga yoqmasligini o'ziga ming marta aytganman.

– Axir, bunday qilish yaramaydi... yaramaydi...

O'rnidan turib hayajon ichida u yoqdan bu yoqqa yuradi.

– Jiddiy ishga bunday qarash yaramaydi... – deydi u. – O'z qizingning baxti ustida gap borayotganda, shaxsingga doir narsalarni yig'ishtirib qo'yish lozim bo'ladi. Men bilaman, u senga yoqmaydi... Durust... Bordi-yu, hozir biz qizimizni unga bermasdan, hamma ishni buzib qo'ysak, Lizaning umrbod bizdan domangir bo'lmasligiga qanday ishonching bor? Hozirgi kunda yigitlar aytarli ko'p emas. Shuni qo'ldan chiqarib yuborsak, boshqasi topilmasmikin, deb qo'rqaman... U Lizani juda yaxshi ko'radi, aftidan, Lizagayam yoqadigan ko'rinadi... To'g'ri, yigitning muayyan bir kasb-kori yo'q, mayli, nima qilamiz? Nasib bo'lsa, biron yerga o'mashar... O'zi tagli-taxtli odamlarning bolasi, davlatiyam yo'qmas.

– Sen buni qayoqdan bilasan?

– O'zi aytdi. Otasining Xarkovda kattakon uyi, Xarkov yaqinida mulki bor ekan. Xullas kalom, Nikolay Stepanich, sen, albatta, Xarkovga borib kelishing lozim.

– Nima uchun?

– Surishtirib bilasan... U yerda tanish professorlaring bor, ular senga yordam qilishadi. O'zim borardim-u, xotin kishiman, borolmayman...

– Xarkovga bormayman, – deyman qovog'imni solib.



Xotiniimni vahima bosadi, uning yuzlarida alam alomatlari ko'rinadi.

– Xudo xayringni bersin, Nikolay Stepanich, – deydi u yig'lamsirab. – Xudo haqi, mening ustimdan shu yukni olib tashla. Qiynalib ketdim!

Uning betiga qarashga toqatim qolmaydi.

– Yaxshi, Varya, – deyman muloyimlik bilan. – Agar sen shunga xursand bo'lsang, mayli, borib kelaman, nima istasang, barchasini bajarib qaytaman.

Xotiniim dastro'molini ko'zlariga bosib, yig'lamoq uchun o'z xonasiga ketadi. Men yolg'iz qolaman.

Birozdan keyin chiroq keltirishadi. Oromkursilardan, chiroqning qalpog'idan devorlarga, polga ko'nglimga urib ketgan tanish soyalar tushadi. Bu soyalarga qaraganimda, nazarimda, qorong'i tushgan-u, endi la'nati uyqusizligim boshlanadigandek tuyuladi. Men o'rnimga yotaman, keyin turaman, uyda biroz aylanib, yana yotaman... Odatda, kechlikdan keyin, qorong'i tushishi oldidan asabiy holatim o'zining eng yuqori nuqtasiga yetadi. Men besabab yig'layman, boshimni yostiq tagiga tiqaman. Shu payt biron kimsaning uyga kirishidan, bexosdan o'lib qolishdan qo'rqaman, ko'z yoshlarimdan uyalaman, umuman, dilimda chidab bo'lmaydigan bir narsa boshlanadi. Shundan keyin uyimdagi chiroqni, kitoblarimni, poldagi soyalarni ko'rishga mehmonxonadan kelayotgan tovushlarni eshitishga toqatim qolmaydi. Ko'zga ko'rinmaydigan va tushunib bo'lmaydigan allaqanday kuch, dag'allik bilan meni o'z uyimdan haydayotgandek bo'ladi. Sakrab o'rnimdan turaman. Shoshib-pishib kiyinaman va uydagilarga sezdirmaslik uchun asta-sekin yurib ko'chaga chiqaman. Qayerga borish kerak?

Bu savolning javobi allaqachonlardan beri miyamda: Katyani-kiga.

III

U har vaqtdagidek biron narsani o'qib, turk divanida yoki kushetkada yotgan bo'ladi. Meni ko'rib erinibgina boshini ko'taradi, keyin o'rnidan turib, qo'lini cho'zadi.

– Hamon yotganing yotgan ekan-da, – deyman, so'ngra biroz jim turib, nafasimni rostlagach: – Yaxshimas. Biroz ish bilan shug'ullansang bo'lardi! – deyman.

– A?

– Biron narsa bilan shug‘ullansang bo‘lardi, deyman.

– Nima bilan? Xotin kishi faqat oddiy xizmatkor yoki aktrisa bo‘la oladi.

– Xo‘sh, nima bo‘pti? Xizmatkorlikka borishning yo‘li bo‘lmasa, aktrisa bo‘l.

Indamaydi.

– Erga teksang bo‘lardi, – deyman hazil aralash.

– Odam yo‘q. Hojat ham yo‘q.

– Bunday yashash yaramaydi.

– Ersizmi? Qiziq bo‘pti-da. Xohish bo‘lsa, erkak istaganingcha topiladi.

– Uyat, Katya!

– Nima uyat?

– Hozir aytgan gaping.

Ranjiganimni sezib, noxush taassurotni shuvab yuborish niyatida:

– Yuring. Bu yoqqa yuring. Mana, – deydi Katya.

Meni jajjigina, shinam bir uyga olib kiradi va yozuv stolini ko‘rsatib gapiradi:

– Mana... sizga tayyorlab qo‘ydim. Shu yerda ishlaysiz. Har kuni ishlaringizni olib shu yerga keling. Uyingizda sizga faqat xalaqit berishdan boshqa narsani bilishmaydi. Shu yerda ishlashni xohlaysizmi?

Iltimosni rad qilib, Katyani ranjitib qo‘ymaslik uchun bu yerda ishlashga roziligimni hamda uyning menga juda xush kelganini ayta-man. Keyin ikkalamiz shinam uyda o‘tirib suhbat boshlaymiz.

Issiqqina uy, chiroyli jihozlar va didimga yoqadigan odamning yonimda o‘tirishi dilimda ilgarigidek mamnuniyat hislarini uyg‘otmasdan, aksincha, hasrat, nolish istaklarini qo‘zg‘atadi. Hasrat qilsam, zorlansam, negadir ko‘nglim yengil tortadigandek tuyuladi.

– Ishlarim yomon, azizam! – deb uh tortib, so‘z boshlayman. – Juda yomon...

– Nima bo‘ldi?

– Bilasanmi, nima gap, do‘stim? Podshohlarning eng yaxshi va eng muqaddas huquqi – gunohdan o‘tishdir. Men ham o‘zimni har doim podshoh his qilardim, chunki bu huquqdan istaganimcha foy-

dalanib keldim. Men hech kimni badnom qilmadim, marhamatimni hech kimdan ayamadim, qanday odam bo'lmasin, gunohidan o'tdim. Boshqalar qarshilik qilganda, darg'azab bo'lganda, men faqat maslahat berish, tushuntirish bilan chegaralandim. Butun umrim oilamga, yor-do'stlarimga, talabalarga, xizmatkorlarimga o'zimni manzur qilish harakatida o'tdi. Odamlarga bunday munosabatda bo'lishim atrofimdagi kishilarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini men yaxshi bilaman. Biroq endilikda men podshohmasman. Ruhimda faqat qullarga munosib allaqanday hodisalar g'alayon qilyapti: miyamda kecha-kunduz yovuz xayollar kezadi, ruhimda esa ilgarilari menga noma'lum bo'lgan sezgilar uya qurib olgan. Men sernafrat, jirkanuvchan, darg'azab, qo'rqqoq bo'lib qolganman. Qattiqqo'lligim, talabchanligim, tajangligim, qo'polligim, ehtiyotkorligim haddan tashqari zo'rayib ketgan. Bir mahallar biron nojo'ya holatni ko'rganimda, yengilgina qochiriq va beg'araz kulgi bilan kifoyalanardim, endi bo'lsa shunday hollar dilimda alamli hislarni tug'diradi. Ongimdagi mantiq ham tamomila o'zgarib ketgan: ilgari men faqat puldan jirkanardim, endi bo'lsa hamma aybni badavlat kishilardan ko'rib, shularga nisbatan yuragimda kek saqlayman. Bir mahallar men jabr-zulmdan nafratlanardim, endi bo'lsa nafratimni zulm qiluvchilar qo'zg'atadi, bu narsaga bir-birimizni tarbiya qilolmagan bizlarning o'zimizmas, yolg'iz shu odamlargina aybdordek ko'rinadi. Bu qanday hol? Bordiyu, yangi xayollar va yangi hislar fikrning o'zgarishi orqasida yuzaga kelgan bo'lsa, bu o'zgarishlarning o'zi qayerdan hosil bo'ldi? Yoki dunyo yomonlashdi-yu, men yaxshilashdimmi yo bo'lmasa, ilgari men so'qir va beparvomidim? Basharti, bu o'zgarish jismoniy va fikriy quvvatimning umumiy susayishi – darhaqiqat, men kasalman, kundan-kunga ozib bormoqdaman – natijasida ro'y bergan bo'lsa, ahvolim juda achinarli; binobarin, mening yangi fikrlarim me'yoriy va sog'lom fikrlar emas, shu tufayli men bu fikrlardan uyalishim, ularning nochorligini e'tirof qilishim lozim bo'ladi...

– Bu narsaga kasallikning hech qanday daxli yo'q, – deb Katya so'zimni bo'ladi. – Faqat ko'zingiz ochilgan xolos, boshqa sabab yo'q. Negadir ilgari payqashni istamagan narsalaringiz endi ko'zingizga aniq ko'ringan. Fikrimcha, dastavval oilangiz bilan aloqani butunlay uzib, uyingizdan chiqib ketishingiz kerak.

– Bema'ni gapni gapirma!



– Axir, ulardan ko'nglingiz sovigan-ku, yashirishning nima hojati bor? Nahotki, oila shunday bo'lsa? Pastkash odamlar! Mabodo ular shu bugun o'lib qolgudek bo'lsalar, ertaga ularning yo'qligini hech kim sezmaydi.

Xotinim bilan qizim Katyani qanchalik yomon ko'rishsa, Katya ham ularni shunchalik yomon ko'radi. Bizning davrimizda odamlarning bir-birini yomon ko'rish huquqi borligiga ishonib bo'lmaydi. Bordi-yu, masalaga Katyaning ko'zi bilan qarab, bunday huquqning mavjudligi e'tirof etilganda, xotinim bilan qizimning Katyani yomon ko'rishga qanchalik huquqi bo'lsa, buning ham ularni yomon ko'rishga shunchalik huquqi borligiga kishi iqrор bo'ladi.

– Pastkash odamlar! – deb takror aytadi Katya. – Bugun ovqatlandingizmi? – Nechuk sizni ovqatga chaqirishni unutib qo'yishmapti? Dunyoda borligingizni hamon eslaridan chiqarmaganlariga men taajjublanaman.

– Katya, – deyman jahl bilan, – o'tinaman, gapingni to'xtat.

– Ular haqida gapirish menga yoqadi, deb o'ylaysizmi? Ularni butunlay tanimaganimda xursand bo'lardim. Azizim, gaplarimni qulog'ingizga oling: hammasidan keching, chet elga jo'nang. Qanchalik tez jo'nasangiz, shunchalik yaxshi.

– Qanday bema'ni gap! Universitet-chi?

– Universitetniyam tashlang! Uning sizga nima keragi bor? Baribir hech qanday foyda chiqmaydi. O'ttiz yildan beri dars berib, bironta shogird orttirdingizmi? Qancha mashhur olimlarimiz bor? Hisoblab ko'ring-chi! Odamlarning nodonligidan foydalanib mingminglab pul orttiradigan do'xtirlarning sonini ko'paytirish uchun iste'dodli va yaxshi odam bo'lish kerakmas. Siz ortiqchasiz.

– Yo Rabbiiy, yo Rabbiiy, tiling munchayam o'tkir?! – deyman vahima bosib. – Munchayam o'tkir?! Bas qil, bo'lmasa, ketaman! Achchiq-achchiq gaplaringga javob berish qo'limdan kelmaydi!

Oqsoch xotin kirib choyga chaqiradi. Dasturxon ustida, xayriyat, gapimiz o'zgaradi. Hasratimni aytganimdan keyin keksaligimning boshqa zaifliklaridan bo'lgan xotiralarga berilish kayfiyatining ham tizginini bo'shatib yuborgim keladi. O'tmishimni Katyaga gapirarkanman, shunday tafsilotlarni aytardimki, ularning shu kunga qadar xotiramda saqlanib qolganiga o'zim ham hayron qoldim. Katya nafas olmasdan chuqur mehr va g'urur bilan mening hikoyamni

tinglaydi. Bir mahallar seminariyada o'qiganimni va universitetga kirishga orzumand bo'lganimni Katyaga gapirishni, ayniqsa, yaxshi ko'rardim.

– Ba'zi mahallar, seminariyamizning bog'ida sayr qilib yurardim, – deb so'z boshlayman. – Uzoq-uzoqdan, allaqanday bir mayxonadan shamol garmonning zaif ovozi, ashula sadosini olib kelardi yoki seminariya devori yonidan uch ot qo'shilgan qo'ng'iroqli arava o'tib ketardi, yolg'iz ko'kraginginamas, hatto qornim, oyoqlarim, qo'llarim ham shodlik hislariga to'lib ketishi uchun shuning o'zi kifoya qiladi... Garmon ovozi yoki so'nib borayotgan qo'ng'iroq sadosini eshitarkanman, o'zimni shifokor fahmlab, bir-biridan ko'rkam manzaralarni ko'z oldimga keltiraman. Ko'rib turibsanki, orzularimning hammasiga yetdim, hatto umid qilganlarimdan ham ortiqroqqa erishdim. O'ttiz yil davomida sevikli professor bo'lib keldim, ajoyib kishilar bilan yor-do'st tutindim, nomim hammaga ma'lum va mashhur bo'ldi. Boshimdan oshiqlik kunlarini kechirdim, otashin muhabbat bilan uylandim, bola-chaqa ko'rdim. Xullas, orqamga bir ko'z tashlasam, butun hayotim mohirlik bilan to'qilgan go'zal kompozitsiyaga o'xshaydi. Endi men faqat shu kompozitsiyaning oxirini buzib qo'ymasligim kerak. Buning uchun odamdek o'lishim lozim. Modomiki, o'lim, darhaqiqat, qo'rqinchli bir narsa ekan, men uni ustozga, olimga va nasroniy davlatining fuqarosiga munosib bir tarzda, ya'ni tetiklik va xotirjamlik bilan kutib olishim kerak. Ammo men ishning oxirini buzib qo'yyapman, g'arq bo'lib ketyapman, yordam so'rab oldingga kelsam: «G'arq bo'lavering, hechqisi yo'q», deysan.

Shu payt dahlizda qo'ng'iroq chalinadi. Katya ikkalamiz kim kelganini bilamiz:

– Mixail Fyodorovich bo'lsa kerak.

Darhaqiqat, bir daqiqadan keyin eshikdan ellik yoshlarga kirgan, novcha, qaddi-basti kelishgan, oppoq qalin sochli, qoraqosh, soqolmo'ylovi qirilgan filolog oshnam Mixail Fyodorovich kirib keladi. Bu – juda yaxshi odam va ajoyib ulfat. U adabiyotimiz hamda maorif va ma'rifat ishlarimiz tarixida sezilarli rol o'ynayotgan, anchagina baxtiyor va iqtidorli qadimgi zodagon nasliga mansub kishidir. O'zi ham ancha aqlli, iqtidorli, o'qimishli va shu bilan birga, birmuncha g'alati tabiatli odam. Ma'lum darajada hammamiz ham g'alatimiz,

hammamizda ham afandilik bor, ammo uning g'alatiligida ayricha bir xususiyat va tanish-bilishlari uchun xavfli allaqanday bir narsa bor edi. Mixail Fyodorovichning g'alati odatlari orqasida uning bir talay yaxshi fazilatlarini ko'rmaydigan ko'pgina kishilarni bilaman.

Mixail Fyodorovich ichkariga kirgach, shoshilmasdan qo'l-qoplarini yecharkan, yoqimli yo'g'on ovoz bilan:

– Assalomu alaykum. Choy ichyapsizlarmi? Ayni muddao. Sovuq qaqshatyapti, – deydi.

So'ngra u stol yoniga o'tiradi, qo'liga stakanni olib, shu onning o'zida so'z boshlaydi. Har doim maynavozchilik bilan gapirish, so'zlarni Shekspirning go'rkovlariga o'xshab yarim falsafiy, yarim hajviy ifodalash bu odamning eng xarakterli xususiyati edi. U muttasil jiddiy masalalar ustida gapiradi, ammo hech qachon jiddiy gapirmaydi. Uning muhokamalari doimo keskin, haqoratli so'zlarga to'la bo'ladi, lekin hazil-mutoyiba bilan bir tekisda mayin gapirish orqasida so'zlarining keskinligi, haqoratli iboralari quloqqa uncha dag'al eshitilmaydi, kishi ularga ko'nikib qoladi. U har oqshom universitet hayotiga doir besh-oltita latifa topib oladi-da, stol yoniga o'tirgach, suhbatni har doim shulardan boshlaydi.

– E Xudo-yey! – deydi u maynavozchilik bilan, qora qoshlarini chimirib uh tortadi. – Dunyoda ajoyib masxarabozlar bo'ladi-da!

– Nima bo'ldi? – deb so'raydi Katya.

– Bugun ma'ruzadan chiqib kelaturib zinada anovi qari ovsarni, o'zimizning NN...ga duch kelib qoldim... Har mahalgidek otnikiga o'xshagan engagini cho'zib boradi, bosh og'rig'i, xotini, ma'ruzasiga qatnashishni istamagan talabalar haqida hasrat qilmoqchi bo'lib, biron kimsani qidiriyapti. Obbo, meni ko'rib qoldi-ku, halok bo'ldim, ish pachava, deb o'ylayman...

Va hokazo, shunga o'xshash gaplar. Yo bo'lmasa, gapni mana bunday boshlaydi:

– Kecha men anovi ZZ...ning ommaviy ma'ruzasida bo'ldim. Xudoyo, O'zi asrasin-u, alma materimiz¹ ZZ-ga o'xshagan bunday so'taklarni, bunday pattali nodonlarni uyalmasdan xaloyiqqa ko'rsatganiga kishining aqli bovar qilmaydi. Axir, bunday ahmoqlarning urug'i juda kam bo'ladi-da. Azbaroyi Xudo, kunduz kuni chiroq

¹ *Alma mater (lot.)* – oq sut bergan ona; bu yerda: universitet ma'nosida.

yoqib qidirsangiz ham, butun Ovro'padan bunaqasini topolmaysiz. Ma'ruza o'qishini ko'rsangiz, ishonasizmi, xuddi obaki so'rayotgan kishiga o'xshaydi: chip-chip-chip... Qo'rqqanidan yozuvlarini arang o'qiydi, fikr jonivor domla-imom minib ketayotgan velosipeddek zo'rg'a-zo'rg'a qimirlaydi, eng muhimi, nima demoqchi bo'lganini aslo anglamaysiz. Zerikishni ayting, pashshalar tarrakdek qotadi. Bu xilda zerikishni faqat majlis zalimizda o'tkaziladigan yillik majlisda, an'anaviy nutqni o'qish paytidagi zerikish bilan taqqoslash mumkin. He, qurib ketsin u!

Shu onning o'zida darhol boshqa mavzuga ko'chadi:

– Bundan uch yil avval, mana, Nikolay Stepanovich biladilar, shu nutqni men o'qiydigan bo'lib qoldim. Kun issiq, havo dim, kamzulim qo'tlig'imni siqadi – naq o'lishimga sal qoldi! Yarim soat, bir soat, bir yarim soat, ikki soat o'qidim... «Xudoga shukur, tag'in o'n bet qoldi», deb o'ylayman. Oxirida o'qilmasdan tashlab ketilsayam bo'ladigan to'rt bet bor edi, mana shu to'rt betni tushirib qoldirmoqchi bo'ldim. Shunday qilsam, faqat olti bet qoladi, degan fikrni xayolimdan o'tkazaman. Shu payt ro'paramga sekin bir qarab qo'ygandim, oldingi qatorda yonma-yon o'tirishgan arxiyerey¹ va lenta taqqan allaqanday generalga ko'zim tushib qoldi. Sho'ring qurg'ular azboroyi zerikkanlaridan qotib qolishibdi, uxlab qolmaslik uchun ko'zlarini pir-pir uchirishadi, shunga qaramasdan, chor-nochor yuzlariga jiddiy tus berishga, o'zlarini mening nutqimga tushunayotgan hamda undan juda mamnun bo'lgan kishi qilib ko'rsatishga urinishardi. «He-he, shundaymi, deb o'ylayman, qasdma-qasdlikka olib, yoqyaptimi, ana kavshang, bo'lmasa», dedim-u, to'rt betniyam o'qib tashladim.

Bu odam gapirganida, hamma askiyabozlar singari yolg'iz uning ko'zlari va qoshlarigina kulib turadi. Bu vaqt uning ko'zlarida naf-rat ham, g'azab ham ko'rinmaydi, ammo jiddiylik va faqat o'ta sezgir kishilardagina ko'rinadigan alohida tulki ayyorligi juda ko'p bo'ladi. Agarda uning ko'zlari to'g'risidagi so'zni davom ettirsak, bu ko'zlarda o'zim sezgan yana bir xususiyatni ko'rsatib o'tishga to'g'ri keladi. Mixail Fyodorovich Katyadan stakanni olayotganida

¹ Yuqori darajali cherkov ruhoniylari – mitropolit, arxiyepiskop va shu kabi-larning umumiy unvoni.



yoki uning e'tirozlariga quloq solib turganida yo bo'lmasa, Katya biron ish bilan bir nafasga uydan chiqib ketayotganida uning orqasidan allaqanday beozor, iltijo qilganday beg'araz nazar tashlaganini sezar edim.

Oqsoch o'ziqaynarni olib ketadi, keyin stolga kattakon bir bo'lak pishloq, har xil meva va bir shisha jo'n Qrim shampan musallasini qo'yadi, Katya Qrimda turganida shu musallasni yoqtirib qolgan ekan. Mixail Fyodorovich ochiq javondan ikki dasta qarta olib pasyans¹ tizadi. Uning aytishiga qaraganda, ba'zi bir pasyanslar o'tkir ziyraklik va chuqur diqqatni talab qilarmish, biroq shunga qaramay, qartani tizayotganida ham og'zi gapdan to'xtamaydi. Katya diqqat bilan uning qartalariga qarab o'tiradi va so'z bilan emas, ko'proq imo-ishoralar bilan unga yordamlashadi. Butun kecha davomida Katya ikki qadahdan ortiq musallas ichmaydi, men chorak stakan ichaman; qolgan musallasning hammasini Mixail Fyodorovich ichadi. Bu odam har qancha ichgani bilan aslo mast bo'lmaydi.

Pasyans o'yini ustida asosan oliy mavzularga doir turli-tuman masalalarni muhokama qilamiz, shu muhokamada jon-dil bilan sevgan narsamiz, ya'ni ilm-fan hammasidan ko'proq ozor topadi.

– Xudoga shukurlar bo'lsinki, ilm-fanning ham davri o'tdi, – deydi Mixail Fyodorovich dona-dona qilib. – Uning fotihasi allaqachon o'qib qo'yilgan. Ha, shunday. Insoniyat ilm-fanni biron boshqa narsa bilan almashtirish lozimligini seza boshladi. Ilm-fan, avvalo, bid'atdan paydo bo'lgan, bid'atdan oziqlangan va hozirgi vaqtda o'zining o'lib ketgan momolari – alkimyo, metafizika va falsafa singari bid'atdan pishirilgan murabbodan iborat bo'lib qoldi. Nafsilamrini aytganda, ilm-fan odamlarga nimayam berdi? Ovro'palik olimlar bilan hech qanaqa ilm-fani bo'lmagan xitoylar o'rtasida juda ozgina farq bor-ku, axir, u ham bo'lsa faqat tashqi farq. Xitoylar hech qanday ilm-fanni bilishmagan, xo'sh, shu bilan ular biron narsani yo'qotishdimi?

– Pashshalar ham ilm-fanni bilmaydi, – deyman, – xo'sh, nima bo'ldi?

– Siz bekorga achchiqlanyapsiz, Nikolay Stepanovich. Axir, men buni shu yerda, o'zimizning oramizda gapiryapman... Men siz

¹ *Pasyans* – qartada fol ochishning yoki o'yin ko'rsatishning bir turi.

o'ylagandan ko'ra ehtiyotkorroqman, bu narsani odamlar oldida gapirib yurmayman, Xudo saqlasin! Xalq o'rtasida, ilm-fan, san'at dehqonchilikdan, tijoratdan, hunardan yuqori turadi, degan noto'g'ri fikr bor. Bizning mazhab ahllarining rizq-ro'zini mana shu xurofot oziqlantiradi, binobarin, uni tor-mor keltirish siz bilan mening ishimizmas. Xudo saqlasin!

Pasyans o'ynab o'tirganda yoshlarga ham til tekkiziladi.

– Hozirgi vaqtning odamlari juda xashakilashib ketdi, – deydi uhortib qo'yib Mixail Fyodorovich. – Men bu yerda yuksak maqsadlar va boshqa masalalar to'g'risida gapirmayman, loaqal durustroq ishlash, durustroq fikr yuritishni bilsalar ham mayli edi! «G'amging'amgin qarayman avlodimizga», degan gap, darhaqiqat, to'g'ri.

– To'g'ri, juda xashakilashib ketdi, – deb qo'shiladi Katya. – Ayting-chi, keyingi besh-o'n yil ichida sizda bironta atoqli olim yetishganmi?

– Boshqa professorlarda ahvol qandayligini bilmayman, ammo o'zimizning sohamda bunaqasi xotiramga kelmay turipti.

– Shu yoshga kirguncha juda ko'p talabalarni, yosh olimlarinigizni, allaqancha aktyorlarni ko'rdim... Xo'sh? Qahramonga yoki iqtidor egasiga duch kelish u yoqda tursin, loaqal durustroq odamga duch kelish ham menga nasib bo'lmadi. Hamma yoq siyqalik, nodonlik, qalbakilik bilan to'lib-toshgan...

Xashakilik to'g'risidagi bu gaplarning hammasi menga har safar o'z qizim haqida behosdan yaramas bir gap eshitib qolgandek ta'sir qiladi. Da'volarning puchligi va ularning allaqachon siyqasi chiqib ketgan umumiy gaplarga, chunonchi, xashakilik, yuksak maqsadlarning barbod bo'lgani yo bo'lmasa, go'zal o'tmishni maqtash kabi olabo'jilarga asoslanishi ko'nglimga og'ir botardi. Har qanday da'vo, garchi u ayollar o'rtasida aytilsa ham, mumkin qadar ochiq ifodalanishi kerak, aks holda, u da'vo emas, vijdonli odamlarga nomunosib quruq fisq-fasod bo'lib qoladi.

Men kekxa bir odamman. O'ttiz yildan beri xizmat qilaman, ammo odamlarning xashakilashib ketganini, yuksak maqsadlarning yo'qligini sezmayman, shuningdek, hozirgi zamonni o'tmishdan yomon deb bilmayman. Mening darbonim Nikolay endigi talabalarning ilgarigilaridan farqi yo'qligini aytadi. Uning bu masaladagi tajribasi alohida qiymatga egadir.

Basharti, mendan hozirgi shogirdlarimning nimasi yoqmasligini so'rasalar, men bu savolga o'ylab turib qisqa, ammo yetarli darajada aniq javob qaytarardim. Men ularning kamchiligini bilaman, binobarin, umumiy gaplar bilan bosh qotirishga mening hech qanday ehtiyojim yo'q. Men ularning tamaki chekishini, ichkilik ichishini, kech uylanishlarini yoqtirmayman; o'z oralaridagi ochlarning ahvoriga beg'amlik va beparvolik bilan qarashlari va talabalarga yordam jamiyatidan olgan qarzlarini to'lamasliklari ham menga xush kelmaydi. Ular yangi tillarni bilishmaydi, rus tilida noto'g'ri so'zlashishadi; gigiyena darsi beradigan oshnam talabalar fizika darsini yomon bilganlari va meteorologiyadan tamomila bexabar bo'lganlari uchun o'z darsini ikki hissa ortiq o'qishga majbur bo'lgani to'g'risida kuni kecha menga hasrat qilib qoldi. Ular yangi zamon yozuvchilarining ta'siriga, harchand bu yozuvchilar durust bo'lmasalar ham, tez beriladilar-u, Shekspir, Mark Avreliy, Epiktet yoki Paskal kabi klassiklarga butunlay beparvo qaraydilar. Kattani kichikdan ajratishni bilmaslik ularning turmushdagi tajribasizliklaridan kelib chiqsa kerak. Ozmi-ko'pmi ijtimoiy xarakterdagi qiyin masalalarning hammasini (masalan, xaloyiqni ko'chirish) tamomila o'zlarining ixtiyorlarida bo'lgan va ularning vaziyatlariga ko'proq mos keladigan ilmiy tekshirish va tajriba o'tkazish yo'li bilan emas, yordam va raqalari vositasi bilan hal qiladilar. Mustaqillik, erkinlikni his qilish, shaxsiy tashabbus ilm-fan bobida, chunonchi, san'at yoki savdo-sotiq ishlaridagidan kam zarur bo'lmagani holda ular jon-dillari bilan ordinator, assistent, laborant, ekstern bo'lishadi va shu fazilatlarda qirqqa kirguncha qolib ketishga rozi bo'ladilar. Mening shogirdlarim va darsimni tinglovchi kishilar bor, ammo yordamchilarim, ishimni davom ettiruvchi shaxslar yo'q. Shu tufayli men ularni yoqtiraman, ko'nglim quvonadi, ammo ular bilan faxrlanmayman. Va hokazo, va hokazo.

Bu xilda kamchiliklar naqadar ko'p bo'lmasin, irodasi sust va qo'rqq odamlardagina umidsizlik, jirtakilik kayfiyatini tug'dira oladilar. Bu kamchiliklarning hammasi tasodifiy va o'tkinchi xarakterdagi kamchiliklardir, ular turmush sharoitlari bilan chambarchas bog'langan bo'ladilar; bu kamchiliklarning yo'qolib ketishi yoki o'z o'rinlarini yangi kamchiliklarga bo'shatib berishi (chunki turmush kamchiliksiz bo'lmaydi) uchun biron o'n yil kifoya qila-

di. Ana shunda ham bu kamchiliklar irodasi bo'sh kishilarni baribir qo'rqitaveradi. Talabalarning gunohi meni juda ko'p ranjitadi, ammo o'ttiz yil davomida shogirdlarim bilan suhbatlashish, ularga ma'ruza o'qish, bir-birlari bilan bo'lgan munosabatlarini ko'rish va ularni o'z doiralardan tashqari kishilar bilan taqqoslash natijasida yuragimda hosil bo'ladigan shodliklar oldida bu alamlar hech narsa emas.

Mixail Fyodorovich g'iybat qiladi, Katya tinglaydi, tanish-bilishlarni bunchalik yomonlash, aftidan, beg'araz hazilga o'xshab ko'ringani bilan sekin-sekin ularni chuqur jarlikka tortib borayotganini o'zlari ham sezmay qoladilar. Oddiy so'zlarning bora-bora tahqir va haqoratga aylanib ketishini, odamlarga hatto tuhmat yog'dira boshlaganlarini fahmlamaydilar.

– Zap qiziq odamlar bo'ladi-da, – deydi Mixail Fyodorovich. – Kecha o'zimizning anovi Yegor Petrovichnikiga borgandim, qaragam, mediklaringizdan bittasi o'tiripti, obboxolam, uchinchi kurs talabalaridan bo'lsa kerak. Yuzining bichimi Dobrolyubovnikiga o'xshab ketadi. Peshonasida donolik alomatlari mavj uradi. So'zlashib qoldik. «Shunaqa gaplar, yigitcha. Bir yerda o'qib qoldim, allaqanday nemis – nomi xotirimda yo'q – odamning miyasidan ovsarin degan alkoloid yasapti», deyman. Nima deb o'ylaysiz? Chippa-chin ishondi, betida hatto «Biznikilarga qoyil, bo'lib qo'y!» degan ma'nodagi ehtirom alomatlari ko'rinib ketdi. Tunov kuni teatrga borgandim. Mendan xuddi bir qator oldinda, ro'paraginamda qandaydir ikkitasi o'tiripti. Bittasi «biznikilardan», aftidan, huquqshunos ko'rinadi, ikkinchisi paxmoqsoch medik. Medik qip-qizil mast. Sahna-pahnang bilan ishi yo'q. Bemalol mudraydi, ahyon-ahyonda qalqib-qalqib ketadi. Biron aktyor baqirib monolog o'qib qolgudek bo'lsa yoki shunchaki qattiqroq gapirib yuborsa, medik jonivor cho'chib ketadi-da, yonidagi sherigining biqiniga turtib: «Nima? Olja-no-ob, deydaptimi?» deb so'rab qoladi. «Oliyanob», – deb javob qaytaradi «biznikilardan» bo'lgan huquqshunos. «Qandingni u-ur! – deb baqiradi medik. – Olja-no-ob. Qandingni u-ur!» Ko'rasizmi, bu mast ho'kiz teatrga san'at uchunmas, oliyanoblik uchun kepti. Unga oliyanoblik kerak bo'lib qopti.

Katya bo'lsa Mixail Fyodorovichning so'zini tinglarkan, beto'xtov kuladi. Uning qah-qah urib kulishi allaqanday g'alati edi: har gal nafas olganida va nafas chiqarganida xuddi garmon chal-

ganday bir marom va bir maqomda rosa dam oladi. Kulganida ham yolg'iz burnining katagi kuladi. Men bo'lsam kayfim qochgani-dan nima deyishimni bilmayman. Tutaqib ketib, zarda bilan sakrab o'rimdan turaman-da:

– Bo'ldi, to'xtating! Ikkalangiz cho'lqurbaqaga o'xshab, bu yer-da o'tirvolib, nafasingiz bilan havoni bulg'ataverasizmi? Bo'ldi! – deb baqiraman.

Shu so'zdan keyin, ularning g'iybatni tugatishlarini kutmasdan, uyga ketmoqchi bo'lib o'rimdan turaman. Vaqt ham kech bo'lib qolgan: soat o'ndan oshib ketibdi.

– Men yana biroz o'tiraman, – deydi Mixail Fyodorovich. – Ruxsat berasizmi, Yekaterina Vladimirovna?

– Ruxsat beraman, – deb javob qaytaradi Katya.

– Bene¹. Unday bo'lsa ayting, yana bir shisha musallas keltirish-sin.

Har ikkisi sham ko'tarib meni dahlizgacha kuzatib chiqishadi. Po'stinimni kiyayotganimda Mixail Fyodorovich menga gapiradi:

– Keyingi vaqtlarda juda ozib, qarib ketdingiz, Nikolay Stepano-vich. Sizga nima bo'ldi? Kasalmisiz?

– Ha, biroz kasalman.

– Kasal bo'lsayam davolanmaydi... – deb ma'yuslik bilan qo'shib qo'yadi Katya.

– Nega davolanmaysiz? Shunday ham bo'ladimi? O'zini asra-ganni Xudoyam asraydi, degan gap bor, azizim. Uydagilarga sa-lom aytib qo'ying, ko'pdan beri borolmaganim uchun kechirishsin. Yaqinda, chet elga jo'nash oldidan xayrlashgani boraman. Albatta, boraman, kelasi haftaga jo'nayman.

Diqqatim oshib, kasalligim haqidagi so'zlardan yuragimga va-hima tushib, o'zimdan norozi bo'lib, Katyaning uyidan chiqaman. «Darhaqiqat, o'rtoqlarimdan birontasiga ko'rinsammikin?» deb o'zimdan so'rayman. Va shu onning o'zida o'rtog'im ko'kragimga quloq solib ko'rgach, indamasdan deraza yoniga ketishini, keyin bir-pas o'ylab turib men tomonga o'girilishini va yuzidagi haqiqat alo-matlarini sezdirib qo'ymaslikka urinib, beparvo bir ohangda: «Ho-zircha biron jiddiy narsa topmadim, biroq, hamkasb, shunday bo'lsa

¹ Yaxshi (*lot.*).

ham, ishni to'xtatishni maslahat beraman...» deyishini ko'z oldimga keltiraman. Bu narsa meni oxirgi umidimdan mahrum qiladi.

Kimning umid-orzusi yo'q? Endi men o'z kasalimni o'zim aniq-lab, o'zimcha shifolanishga kirishganimda, vaqti-vaqti bilan nodon-ligim zora meni aldayotgan bo'lsa, deb umid qilaman, qonimda to-pilgan oqsil va qand moddalari, dilimning kasalligi, ertalablari ikki marta badanimga yoyilgan shishlar to'g'risida ham xato qilayotgan bo'lsam kerak, deb o'ylab qo'yaman. Ko'ngilga taskin beradigan biron narsani uchratib qolish niyatida, kasallik vahimasiga tushib qolgan kishi singari zo'r berib terapiya darsliklarini o'qiyman, kun sayin dorilarni almashtiraman. Bularning hammasi mayda gaplar...

Osmonni xoh bulut bosgan bo'lsin, xoh oy va yulduzlar chaqna-b tursin, men har safar Katyanikidan qaytganimda ko'kka qarab, tez kunda dunyodan o'tishim haqida o'ylab ketaman. Shunday paytlar-da mening fikrlarim osmon singari yuksak, porloq, ko'rkam bo'lishi kerak edi... Afsuski, bunday emas. Men o'zim to'g'rimda, xotinim, qizim, Gnekker to'g'risida, talabalar va umuman, odamlar haqida o'ylayman, ammo bu o'ylarim yaramas, bachkana va o'zimni alday-digan makkor o'ylar bo'ladi. Mening ayni vaqtdagi dunyoqarashim-ni mashhur Arakcheyev o'zining sirdoshlaridan biriga yozgan xatida aytganidek: «Dunyodagi xayrli narsaning barchasi yomonlikdan xoli emas, yana bundan tashqari, yomonlik yaxshilikdan hamma vaqt ko'p bo'ladi», degan so'zlari bilan ifodalash mumkin. Ya'ni hamma narsa qabih, yashashning foydasi yo'q, o'tgan 62 yillik umrni xayf ketgan, deb hisoblash kerak. Shu xayollar miyamga kelganda to'xtab qolaman-da, ularning tasodifiy, o'tkinchi va yuzaki xayollar ekaniga o'zimni ishontirishga urinaman va shu onning o'zida yana o'ylab qolaman.

«Modomiki, shunday ekan, nima uchun har oqshom o'sha ikkita cho'lqurbaqaning yoniga borging keladi?»

Men bundan keyin Katyanikiga bormaslikka qasam ichaman, ammo ertaga baribir yana borishimni o'zim ham bilaman.

Eshigimning qo'ng'irog'ini burayotganimda, keyin zinadan chi-qayotganimda, endi oilam yo'qligini, uni qaytarishga istak ham qol-maganini sezaman. Ma'lum bo'ladiki, miyamdagi yangi Arakcheyev fikrlari tasodifiy yoki vaqtincha bir narsa emas, butun vujudimni qamrab olgan bir xastalik ekan. Ko'ngil to'la alam, yurak to'la has-

rat, horib-charchab, baayni ustimga ming pud yuk ortib qo'yilgan-dek, oyoq-qo'llarimni arang qimirlatib o'rningga kiraman va tezda uxlab qolaman.

Birozdan keyin yana uyqusizlik...

IV

Yoz keldi, turmush o'zgardi.

Bahavo tongda Liza uyimga kelib hazil bilan:

– Yuring, janobi oliylari, hamma narsa tayyor, – deydi.

Janobi oliylarini tashqariga boshlab chiqib, izvoshga o'tkazishadi-da, allaqayerga olib ketishadi. Izvoshda borarkanman, bekorchilikdan peshlavhalarni o'ngdan chapga qaratib o'qiyman. «Qovoqxona» so'zidan «anoxqovoq» degan so'z hosil bo'ladi. Bironta baronbop familiya bo'larkan, chunonchi: baronessa Anoxqovoq. Keyin go'riston yoqalab sayxon yerdan o'tamiz. Yaqin orada o'zimning ham shu yerda yotishimni bilganim holda, menga go'riston hech qanday ta'sir qilmaydi. Keyin o'rmon oralab yuramiz, so'ngra tag'in sayxon yerga chiqamiz. Qiziqarli biron narsa uchramaydi. Ikki soatli yo'l yurilgandan keyin janobi oliylarini bir bog' ichidagi uying pastki qavatiga olib kirishadi-da, devorlariga havorang qog'oz yopishtirilgan shinamgana uyga joylashtirishadi.

Kechasi hamon meni uyqusizlik qiynaydi, ammo endi ertalab bedor bo'lmasdan, xotinimning so'zlarini eshitmasdan o'rinda yotaman. Men uxlamayman, lekin karaxt bo'lib yotaman, bunday paytlarda kishi uxlamasa ham, tush ko'rayotganini o'zi sezib turadi. Tush paytida o'rimdan turaman-da, har vaqtdagi odatimni qilib, ishga o'tiraman, biroq endi ishlamasdan, Katya yuborgan sariq muqovali fransuz kitoblari bilan o'zimni ovutaman. Rus mualliflarining asarlarini o'qiganda, albatta, ko'proq vatanparvarlik qilingan bo'lar edi, ammo, iqror bo'lamanki, men ularning asarlarini xush ko'rmayman. Ikkita-uchta keksalarni hisobga olmaganda, hozirgi adabiyotning hammasi, nazarimda, adabiyot emas, havas qilmoq lozim-u, lekin korxonasidan chiqqan buyumlardan foydalanish uncha matlub bo'lmagan bir xil kosiblikdek ko'rinadi. Kosiblarning qo'lidan chiqqan eng yaxshi molni ham asl mol deb bo'lmaydi, «biroq» so'zini qo'shmasdan, ularni chin ko'ngildan maqtashga arziymaydi. Keyingi 10-15 yil ichida o'qigan yangi asarlarimning ham-

masi haqida ham shu soʻzni aytishga toʻgʻri keladi: bular orasida birona yaxshisini koʻrmasam, ularni oʻqiganda kishining «Attang!» demasdan iloji yoʻq. Bir xilida aql, oliyanoblik koʻp boʻladi, biroq iqtidor boʻlmaydi; ikkinchisida iqtidor, oliyanoblik koʻp boʻladi, biroq aql boʻlmaydi va nihoyat, yana bir xillarida iqtidor, aql koʻp boʻladi-yu, oliyanoblik boʻlmaydi.

Fransuz kitoblarida iqtidor ham, aql ham, oliyanoblik ham bor, demayman. Ular ham meni qanoatlantirmaydi. Lekin ular rus kitoblari singari kishini zeriktirmaydi. Ijodning asosiy unsuri boʻlgan shaxsiy erkinlik tuygʻusi fransuz kitoblarida kam uchraydigan narsa emas. Rus mualliflarida ana shu narsa koʻrinmaydi. Men birona yangi asarni xotirimga keltirolmaymanki, uning muallifi birinchi sahifadanoq oʻzini har xil shartli tushunchalar va ahdomalar bilan chulgʻab tashlashga urinmagan boʻlsin. Bittasi yalangʻoch badan haqida gapirishdan qoʻrqadi, ikkinchisi psixologik tahlilga shoʻngʻib ketgan boʻladi, uchinchisi «odam bolasiga mehr-shafqatli boʻlish»ni daʼvat qiladi, toʻrtinchisi tarafkashlikda ayblanib qolishdan choʻchib, butun-butun betlarni ataylab tabiat tasvirlari bilan toʻldiradi... Bittasi oʻz asarlarida, albatta, meshchan boʻlishni, ikkinchisi, albatta, zoda-gon boʻlishni istaydi va hokazolar. Uydirmachilikda, ehtiyotkorlikda mualliflarga sira taraf yoʻq, ammo erkinlik, oʻz xohishicha yozish jurʼati aslo koʻrinmaydi, binobarin, bu asarlarda ijod ham yoʻqdir.

Aytganlarimizning hammasi yolgʻiz badiiy adabiyotga taalluqli gaplardir.

Rus tilida yozilgan jiddiy maqolalarga, chunonchi, jamiyatshunoslik, sanʼat va boshqa masalalar bobidagi asarlarga kelsak, men ularni faqat yurak betlamaganidan oʻqimayman. Bolaligimda va yoshlik chogʻlarimda negadir, darbonlardan, teatr kapeldinerlaridan juda qoʻrqardim. Bu qoʻrquv toʻgʻri shu kungacha yuragimda qolgan. Men hali ham ulardan qoʻrqaman. Odamlarning gapiga qaraganda, tushunib boʻlmaydigan narsa qoʻrqinchli koʻrinarmish. Darhaqiqat, darbonlar bilan kapeldinerlarning nima sababdan bunchalik kekkaygan, takabbur va dimogʻdor boʻlishlarini anglash juda qiyin. Jiddiy maqolalarni oʻqirkanman, meni xuddi ana shunday nomaʼlum qoʻrquv bosadi. Maqola mualliflarining haddan ziyod magʻrurligi, yozuvdagi kinoyali ulugʻvor ohang, chet el mualliflari haqida betakalluf gapirish, oʻzini bilimdon koʻrsatib, ustomonlik bilan behuda

narsalarni valaqlash va shu kabi hollarning hammasi meni qo‘rqitadi, men ularni anglamayman. Shularning barchasi shifokorlarimiz va tabiatshunoslarimizning asarlarini o‘qiganda ko‘zingga yaqqol ko‘rinib turadigan kamtarlik va osoyishtalikka sira-sira o‘xshamaydi. Yolg‘iz maqolalargina emas, jiddiy rus kishilari tomonidan tarjima qilingan yoki tahrir etilgan asarlarni ham o‘qiy olmayman. So‘zboshining kibrli, ulug‘vor mazmuni, fikrimni bir yerga to‘plashga xalaqit beradigan tarjimon izohlarining behad ko‘pligi, oliyhimmat tarjimonlar qo‘li bilan maqola yoki kitobning boshidan to oxirigacha sochib yuborilgan so‘roq alomatlari, qavs ichiga olingan «obbo», «ana xolos» so‘zlari, nazarimda, muallifning joniga va men – kitobxonning mustaqilligiga qarshi suiqaasdek tuyuladi.

Ekspert sifatida bir kun meni viloyat sudiga chaqirishgandi; tanaffus vaqtida ekspert sheriklarimdan bittasi prokurorning mahbuslar bilan qo‘pol muomala qilayotganini menga ko‘rsatdi, mahbuslar orasida ikki nafar durustgina ayol ham bor edi. Men sherigimga bu muomala jiddiy maqola mualliflarining o‘zaro muomalalaridan qo‘pol emasligini aytdim, o‘ylaymanki, shu javobim bilan ortiqcha mubolag‘a qilib yubormagan bo‘lsam kerak. Darhaqiqat, bu munosabatlar shunchalar qo‘polki, ular haqida gapirganda kishining yuragi achishadi. Mualliflar o‘zlarining izzat-nafslarini xo‘rlab bir-birlariga va tanqid qilayotgan yozuvchilariga ortiq darajada hurmat va ehtiromlar ko‘rsatadilar yo bo‘lmasa, aksincha, men mana bu xotira daf-tarimda hamda xayolimda bo‘lg‘usi kuyovim Gnekkerni behurmat qilganimdan beshbattar badnom qilishadi. Odamlarni kaltabinlikda, fikriy buzuqlikda va hatto turli jinoiy ishlarda ayblash – jiddiy maqolalarning oddiy bezagidir. Bu esa shifokorlarimizning maqolalarida tez-tez og‘izga olinadigan ultima rationing¹ o‘zginasidir. Masalaga bu xilda qarash yosh qalamkashlarning fe‘l-atvoriga, shubhasiz, juda yomon ta‘sir qiladi. Shu tufayli keyingi 10-15 yil ichida badiiy adabiyotimizga qo‘shilgan yangi asarlardagi erkak qahramonlarning sharobxo‘r bo‘lishi, ayol qahramonlarning esa yetarli darajada iffatli bo‘lmasligi meni zarracha taajjublantirmaydi.

Fransuz kitoblarini o‘qirkanman, ochiq turgan derazaga dam-badam qarab qo‘yaman; derazadan uyimning oldidagi chorbog‘cha-

¹ *Ultima ratio (lot.)* – so‘nggi dalil.



ning panjarasi, ikki-uch tup nimjongina daraxt, chorbog'ning narigi tomonida esa yo'l, dala, ignabarg o'rmon ko'rinib turadi. Men ko'p mahal kiyimlari juldur, oppoq sochli allaqanday o'g'il bola bilan qiz bolaning tirmashib panjaraga chiqishlarini va yaltiroq boshimni bir-birlariga ko'rsatib kulishlarini tomosha qilib o'tirardim. Ularning javdiragan ko'zchalarida: «Anovini qara, kal ekan!» degan ma'noni o'qirdim. Mening shuhratim, martabam bilan hech qanaqa ishi bo'lmagan birdan-bir odamlar faqat shulgina bo'lsa kerak.

Mening oldimga odamlar endi har kuni kelishmaydi. Bu yerga faqat Nikolay bilan Pyotr Ignatyevichning kelib-ketishlarini aytib o'taman. Nikolay odatda biznikiga bayram kunlari keladi; u har kelganida biron narsani bahona ko'rsatsa ham, ammo asl maqsadi meni ko'rib ketish bo'ladi. Har safar kelganida uning kayfi juda baland bo'ladi (qish kunlari hech qachon uning bunday odati bo'lmaydi).

– Xo'sh, nima xizmat? – deb so'rayman Nikolaydan, dahlizga chiqib.

– Janobi oliylari! – deydi u qo'lini ko'ksiga bosib va oshiq kishining zavq-shavqi bilan betimga termilib. – Janobi oliylari! Xudo jazomni bersin! Shu yerda meni chaqmoq urib o'ldirsin! Gaudeamus igitur, Yuvenestus!¹

Shundan keyin u jon-jahdi bilan yelkalarimdan, yenglarimdan, tugmalarimdan o'padi.

– Universitetimizda tinchlik-omonlikmi? – deb so'rayman undan.

– Janobi oliylari! Azbaroyi Xudo...

Nikolay bo'lar-bo'lmasga qasam ichaverib, tezda ko'nglimga tegadi, shundan keyin men uni oshxonaga jo'natib yuboraman, u yerda Nikolayni tushlik bilan mehmon qilishadi. Pyotr Ignatyevich ham biznikiga bayram kunlari ataydan meni ko'rgani va o'z fikrlari ustida maslahatlashgani alohida keladi. Pyotr Ignatyevich har safar biznikiga kelganida oyoqlarini chalishtirishga yo bo'lmasa, stolga suyanishga jur'at qilmasdan, odob saqlab, ozodagina bo'lib, chuqur mulohaza ichida stol yonida o'tiradi; to biznikidan ketgunicha har xil kitob va jurnallardan bilib olgan va o'z nazarida, qiziq hamda

¹ *Gaudeamus igitur, Juvenes (lot.)* – talabalarining lotincha qo'shig'i (mahdiyasi). Tarjimasi: «Yoshlik chog'larida o'ynab qolaylik!»

shavqli ko'ringan yangiliklarni shoshilmasdan, so'zlarni joy-joyiga qo'yib, kitob iboralari bilan, bir maromda so'zlaydi. Bu yangiliklarning hammasi bir-biriga o'xshagan mana bunday voqealardan iborat bo'ladi: bir fransuz bir nimani ixtiro qilgan, ikkinchi bir nemis haligi narsani allaqachon, ya'ni 1870-yilda amerikalik bitta olim tomonidan topilganini isbotlab, fransuzning sirini fosh qilgan, uchinchi yana bir nemis chiqib zarrabinda ko'ringan narsa pigment¹ emas, balki havo pufakchalari ekanini isbotlagan-u, haligi ikkala olimning juda katta xato qilganini ko'rsatib, ularning sharmandasini chiqargan. Pyotr Ignatyevich meni kuldirmoqchi bo'lib biron gap boshlaganida ham, go'yo dissertatsiya yoqlagandek, foydalangan kitoblarini batafsil ko'rsatib, jurnallarning chiqqan vaqti hamda sonini va odamlarning nomini noto'g'ri aytib qo'ymaslikka tirishib, chunonchi, soddagina qilib Pti deb qo'ya qolmasdan, albatta, Jan Jak Pti deb, uzundan-uzoq va mufassal so'zlaydi. Ba'zan biznikida tushki ovqatga qoladigan vaqtlari ham bo'lar edi; shunday paytlarda ham dasturxon ustida o'tirganlarning diqqatini oshirib ovqatni yeb bo'lguncha o'sha g'alati voqealarni so'zlab o'tirardi. Mabodo Gnekker bilan Liza uning oldida fugalar, kontrapunktlar haqida, Brams va Bax to'g'risida gap ochib qolishsa, Pyotr Ignatyevich boshini astagina quyi solib, xijolat chekadi; menga va o'ziga o'xshagan jiddiy odamlar huzurida bunday qabih narsalar to'g'risida gapirilishi uni uyaltiradi.

Hozirgi kayfiyatimda bu odamni ko'raverib, so'zlarini eshitaverib, ko'nglimga urib ketgandek bo'lishi uchun uning suhbatini besh daqiqa davom etishi kifoya. Bu sho'ring qurg'urni ko'rgani ko'zim yo'q. Bir maromdagi mayin ovozi, kitob tili bilan gapirishi madorimni quritib tashlaydi, hikoyalari zehnimni xiralashtiradi... U meni haddan ziyod hurmat qiladi, men bilan so'zlashganda ham faqat ko'nglimni ko'tarish uchun so'zlashadi. Men bo'lsam buning evaziga, baayni uni sehlamoqchi bo'lgandek, yuziga tikilib, ichimda: «Yo'qol, yo'qol, yo'qol...» deyman, ammo sehrim unga kor qilmaydi – o'tiraveradi, o'tiraveradi, o'tiraveradi...

Pyotr Ignatyevich mening uyimda o'tirganida: «Men o'lgach, shu odamni muqarrar o'rimga tayinlashadi», degan fikr bir nafas

¹ Organizmda badan, soch va shu kabilarga rang kirituvchi tabiiy bo'yoq moddasi.

xayolimdan nari ketmaydi. Shundan keyin bechora auditoriyam go‘yo buloqlari qurib qolgan bir vohadek ko‘zimga ko‘rinadi-yu, bu xilda xayollarning tug‘ilishiga mening o‘zim emas, go‘yo Pyotr Ignatyevich aybdordek, u bilan qo‘pol muomala qila boshlayman, keyin qovog‘imni osiltirib gaplashmay qo‘yaman. O‘z odatiga ko‘ra, nemis olimlarini ko‘klarga ko‘tarib maqtashga kirishganida, ilgari-gidek beg‘araz hazil qilib qo‘yaqolmasdan, dimoq-firoq bilan:

– Nemislaringizning hammasi eshakka o‘xshaydi... – deb to‘ng‘illayman.

Bir kuni marhum professor Nikita Krilov Pirogov bilan Revelda¹ cho‘milib turib, suvning benihoya sovuqligidan achchiqlanib: «Ablah nemislar!» deb so‘kinib yuborgan ekan. Mening Pyotr Ignatyevichga aytgan gapim ham xuddi shunga o‘xshardi. Pyotr Ignatyevich bilan juda yomon muomala qilaman. Faqat u jo‘nab ketgach, chorbog‘ panjarasi orqasidan kulrang shlyapasi ko‘zimga ko‘rinib qolganida, orqasidan chaqirib: «Meni kechir, azizim!» degim kelardi.

Tushki ovqatimiz qishdagidan battar ko‘ngilsiz o‘tadi. O‘sha Gnekker deyarli har kuni menikida ovqatlanadi; endi undan nafratlanadigan va jirkanadigan bo‘lib qolganman. Ilgari uning surbetligiga tishimni tishimga qo‘yib chidab kelardim, endi bo‘lsa achchiq-achchiq gaplar bilan uzib-uzib olaman; bu gaplarim xotinim bilan Lizani uyaltiradi. Achchiq ustida ko‘pincha bema‘ni gaplarni ham aytib yuboraman, keyin bu gaplarni nima uchun aytganimni o‘zim ham tushunmayman. Bir kun xuddi ana shunday bo‘ldi, men nafrat bilan Gnekkerning basharasiga uzoq tikilib turdim-da, tomdan tarasha tushgandek tarsillatib gapirdim:

*Vaqti kelar shunqorlar ham tovuqlardan uchar past,
Ammo tovuq bulutlarga aslo parvoz qilolmas...*

Biroq tovuq Gnekkerning aqli shunqor professornikidan allaqancha ortiq bo‘lishi kishiga juda alam qilardi. Xotinim bilan qizimning o‘zi tomonida ekanlarini bilganidan go‘yo: «Miyasi aynib qolgan chol bilan gaplashib nima qilaman?» deganday qilib, zaharxanda so‘zlarimga odob yuzasidan javob qaytarmas yo bo‘lmasa, qiliqlarimga beg‘araz kulib qo‘yaqolardi. Odam bolasining bunchalik pastlashib ketishi kishini taajjublantiradi! Butun ovqat davomida bir

¹ Revel – Estoniya poytaxti Tallinning qadimgi nomi.

kun kelib Gnekkerning firibgar bo'lib chiqishini, xotinim bilan qizim o'z xatolarini anglab pushaymon bo'lishlarini, shundan keyin ularni masxaralab jig'lariga tegishni orzu qilishdan aslo zerikmasdim. Axir, bir oyog'im go'rda turganida, bu xilda bema'ni tilaklar miyamga kelardi.

Endi bizning oilada janjallar ham bo'lib turadi. Ilgari bunday hodisalarni faqat mish-mish gaplardan bilardim. Men uchun qanchalik nomus bo'lmasin, yaqinda, tushlikdan keyin ro'y bergan shunday voqealarning birini shu yerda gapirib o'taman.

Men o'z uyimda cho'buq chekib o'tiraman. Kundalik odati bo'yicha, eshikdan xotinim kirib keladi, keyin o'tirib olib, g'animat issiq kunlardan foydalanib, hozir vaqtning bo'shligida Xarkovga borib Gnekkerning qanday odamligini bilib kelish lozimligini gapiradi.

– Yaxshi, borib kelaman... – deb rozi bo'laman.

Mendan mamnun bo'lgan xotinim o'rmidan turib, eshik tomon yuradi, ammo shu onning o'zida orqasiga-qaytib, yana so'z boshlaydi:

– Kezi kelganda yana bir iltimosim bor. Bilamanki, achchig'ing chiqadi, lekin mening vazifam seni ogohlantirib qo'yish... Ke-chirasan, Nikolay Stepanich, hamma tanish-bilishlarimiz, qo'ni-qo'shnilarimiz Katyanikiga serqatnov bo'lib qolganingni gap qilish-yapti. To'g'ri, u dono, o'qimishli qiz, u bilan hamsuhbat bo'lish, albatta, juda ko'ngilli, bu haqda bahslashib o'tirishning hojati yo'q, biroq shu yoshga kelganingda va bunchalik ijtimoiy mavqeying bo'laturib, o'shaning suhbatidan lazzat olishing, bilasanmi, allanechuk g'alati ko'rinadi... Buning ustiga, nomiyam bulg'anganki...

Butun qonim birdan miyamdanda tovonimga uradi, ko'zlarimdan o't chaqnaydi, sakrab o'rnimdan turaman va ikkala qo'lim bilan boshimni ushlab, yer tepinib benihoya qattiq baqiraman:

– Meni tinch qo'ying! Tinch qo'ying meni! Tinch!

Ehtimol basharam juda dahshatli tusga kirib, ovozim allanechuk o'zgarib ketgan bo'lsa kerak, chunki xotinimning birdan rangi o'chib, u ham allaqanday vahshatli, benihoya qattiq baqirib yuboradi. Bizning shovqin-suronimizga Liza bilan Gnekker yugurib kirishadi, keyin Yegor keladi...

– Meni tinch qo'ying, – deb shang'illayman. – Yo'qoling! Tinch qo'ying meni.

Oyoqlarim butunlay yo'qqa o'xshab uvushib qoladi, allakimning qo'liga yiqilayotganimni sezaman, keyin qulog'imga bir past yig'i ovozi eshitaladi, nihoyat, ikki-uch soat behush bo'lib yotaman.

Endi Katyaga qaytaylik. U har kuni kechga yaqin menikiga keladi. Qo'ni-qo'shnilarim, tanish-bilishlarim, albatta, bu narsadan bexabar qolishmaydi. U mening yonimga bir nafasga kirib, birga sayr qilgani olib ketadi. Katyaning o'ziga qarashli oti va shu yoz sotib olingan yangigina sharaban aravasi bor. Qisqasi, u juda bemalol yashaydi: yaqinda kattagina bir bog'ni dang'illama uyi bilan ijara-ga olib, shahardagi hamma asbob-anjomlarini shu yerga ko'chirib kelgan, ikkita oqsoch, bitta ko'chir tutadi... Men ko'pincha undan so'rab qo'yaman:

– Katya, otangning pullarini sovurib bo'lganingdan keyin qanday kun ko'rasan?

– O'shanda bir gap bo'lar, – deb javob beradi u.

– Bu pullarga bir qadar jiddiy qarash lozim edi, azizam. Ular yaxshi odamning halol mehnati bilan topilgan.

– Siz bu haqda ilgariyam aytgandingiz. Bilaman.

Avval dala yo'lidan, so'ngra mening uyimdan ko'rinib turadigan ignabarg o'rmon orasidan yuramiz. Uch-to'rt oydan keyin, o'lib ketganimdan so'ng bu qarag'aylar, archalar, parrandalar va osmondagi oppoq bulutlarning hammasi mening yo'qligimni sezmasliklarini shayton harchand qulog'imga shivirlab tursa ham, tabiat ko'zimga hamon ilgarigidek go'zal ko'rinadi. Katya ot haydashni yaxshi ko'radi, havoning yaxshiligi, yonida mening o'tirishim uni xursand qiladi. Kayfi chog' bo'lganidan qaltis gaplarni gapirmaydi.

– Siz juda yaxshi odamsiz, Nikolay Stepanich, – deydi u. – Juda nodir insonsiz, sahnada sizning tasviringizni bera oladigan bironta aktyor bo'lmasa kerak. Meni yo bo'lmasa, Mixail Fyodorovichni yomon aktyor ham tasvirlay oladi, sizni esa hech kim tasvirlolmaydi. Sizga mening havasim keladi, juda-juda havasim keladi. Axir, men kimman? Kimman, axir?

U bir nafas o'ylab turib, keyin so'raydi:

– Nikolay Stepanich, men hayotda salbiy hodisaman, a? To'g'rimi?

– To'g'ri, – deb javob qaytaraman.

– Hm... Nima qilishim kerak?

Qanday javob qaytarsam ekan? «Mehnat qil» yoki «Mol-mulkingni faqirlarga ulash», yo bo'lmasa, «O'zlingni anglashga harakat qil», deyish juda oson, shunday deb aytish oson bo'lgani bilan, men unga nima javob qaytarishni bilmayman.

Terapevt¹ oshnalarim bemorni davolashni o'rgatayotganlarida «Har qanday ayrim hodisani individuallashtirish kerak», deb maslahat beradilar. Darsliklarda eng yaxshi chora sifatida tavsiya etiladigan va sinab ko'rish uchun tamomila yaroqli topilgan juda ko'p tadbirlarning ayrim hollarda butunlay yaroqsiz bo'lib chiqishiga iqror bo'lish uchun, bu maslahatni quloqqa olish lozim bo'ladi. Ma'naviy xastalikka kelganda ham masala xuddi shunday.

Biroq javob qaytarish lozim bo'lganidan men unga gapiraman:

– Sening juda ko'p bo'sh vaqting bor, azizam. Albatta, sen biron narsa bilan mashg'ul bo'lishing kerak. Agarda havasing bo'lsa, darhaqiqat, yana artistlikka kiraqolsang bo'lmaydimi?

– Bo'lmaydi.

– Gaplaringning mazmunidan, hatti-harakatlaringdan xuddi ziyon-zahmat tortgan kishiga o'xshaysan. Bu qilig'ing menga yoqmaydi, azizam. O'zing aybdorsan. Agar esingda bo'lsa, sen o'z ishingni odamlarga va usul-tartiblarga achchiqlanishdan boshlading, ammo ularning har ikkisini tuzatish yo'lida hech narsa qilmading. Sen yovuzlikka qarshi kurashmasdan turib, charchab qolding, binobarin, sen kurash qurbonimas, balki o'z zaifliging qurbonisan. To'g'ri, u mahalda sen yosh eding, tajribang yo'q edi. Endi hamma narsa boshqacha bo'lishi mumkin. Chindan ham, artistlikka kirgin! Mehnat qilasan, muqaddas san'atga foyda keltirasan...

– Makkorlik qilmang, Nikolay Stepanich, – deb Katya mening so'zimni bo'ladi. – Keling, birato'la shartlashib qo'yaylik: gapirganda faqat artistlar, aktrisalar, yozuvchilar haqida gapiraylig-u, san'atni o'z holiga qo'yaylik. Siz juda yaxshi va nodir odamsiz, ammo vijdonan san'atni muqaddas deb atash uchun bu sohada ancha narsani tushunishingiz kerak. San'atni anglash uchun sizda na uquv bor, na quloq. Siz hamisha band bo'lgansiz, shu tufayli bunday uquvni orttirishga fursatingiz bo'lmagan. Sirasini aytganda, men san'at to'g'risidagi bu xil gaplarni yoqtirmayman!.. – deb davom etadi u

¹ Ichki kasalliklarni davolovchi shifokor.

asabiylashib. – Yoqtirmayman! Busiz ham uni obdan razillashtirib yuborishgan, umrlari ziyoda bo‘lsin, ishqilib!

– Kim razillashtirib yuborgan?

– Anavilar – sharobxo‘rlik bilan, gazetalar – betakalluf munosabat bilan, aqlli kishilar – falsafa bilan razillashtirishgan.

– Falsafaning bu o‘rinda hech qanday aybi yo‘q.

– Bu aniq. Agar kimda-kim falsafa so‘qsa, bilingki, u odam hech narsa tushunmaydi.

Masalaning ko‘ngilga qattiq tegadigan gapga borib qolmasligi uchun, suhbat mavzusini o‘zgartirishga oshiqaman, keyin ancha yergacha indamasdan boraman. Nihoyat, o‘rmondan chiqib, Katyaning bog‘iga yo‘l olganimizda, yana oldingi masalaga qaytib Katyadan so‘rayman:

– Sen, har holda, menga javob bermading: nima uchun aktrisa bo‘lishni xohlamaysan?

– Nikolay Stepanich, bu ishingiz, endi, juda berahmlik! – deb birdan qip-qizarib, qichqirib yubordi u. – Siz haqiqatni baralla aytib berishimni istaysizmi? Marhamat qiling, agar shuni... siz shuni xohlaysiz! Menda iqtidor yo‘q! Iqtidorim yo‘q, ammo... ammo manmanlik katta! Gap shu!

O‘z kamchiliklarini shu xilda e‘tirof etib, yuzini teskari o‘girib oldi, keyin qo‘llarining titrog‘ini yashirmoqchi bo‘lib siltab-siltab otning jilovini tortdi.

Katyaning bog‘iga yaqinlashib kelayotganimizda, uzoqdan Mixail Fyodorovich ko‘rinib qoldi – u darvoza oldida yurib betoqatlik bilan bizlarni kutardi.

– Yana shu Mixail Fyodorovich! – deydi Katya afsuslanib. – Xudo xayringizni bersin, meni shu odamdan qutqaring! Jonimga tegdi, bemazalashib ketdi... Afti qursin!

Mixail Fyodorovich allaqachon chet elga ketishi kerak edi, ammo hafta sayin o‘z safarini orqaga surib keladi. So‘nggi vaqtlarda unda allaqanday o‘zgarishlar paydo bo‘lgan: basharasi allanechuk so‘lishib, ilgarilari har qancha ichkilikdan mast bo‘lmagani holda, endi ozginagina musallasdan kayfi oshadigan bo‘lib qolgan, uning qop-qora qoshlari asta-sekin oqara boshlagan. Bizning sharaban arava darvoza oldida to‘xtaganida, u o‘zining shodligini va betoqatligini yashirolmaydi. Girdikapalak bo‘lib Katya bilan meni arava-

dan tushirib qo'yadi, to'xtamasdan har xil savollar beradi, kuladi, qo'llarini ishqalaydi. Ilgarilari faqat uning qarashida seziladigan il-tijoli beg'araz nazar tashlashi endi butun yuziga yoyilib ketgan. U shodlanadi va shu onning o'zida o'z shodligidan o'zi uyaladi, har oqshom Katyanikiga kelishga odatlanib qolganidan ham nomus qi-ladi va nima uchun kelganiga bironta bema'ni bahonani sabab qilib ko'rsatishga urinib: «Ish bilan shu o'rtadan o'tib ketayotgandim, kel, bir nafasga kirib chiqay, deb o'yladim», kabi bironta gapni aytadi.

Uchalamiz uyya kiramiz, oldin choy ichiladi, keyin stol usti-da ko'pdan mening ko'zimga o'tirishib qolgan ikki dasta qarta, bir bo'lak katta pishloq, har xil ho'l meva va bir shisha Qrim shampan musallasi paydo bo'ladi. Suhbatimizning mavzusi ham yangi emas, o'sha-o'sha qishdagi gaplar. Universitetga ham, talabalarga ham, adabiyotga ham, teatrga ham bir til tekkizib o'tiladi. Fisq-u fasod-dan havo og'irlashadi, dimiqadi, endi bu havoni, qishdagidek, faqat ikkita cho'lqurbaqa emas, birato'la uchta cho'lqurbaqa zaharlaydi. Mayin va shirador kulgi hamda garmonga o'xshatib qah-qah urish-dan tashqari, xizmatimizni qilib turgan oqsochning baayni vodevil-lardagi¹ generallarnikiga o'xshagan yoqimsiz qiqir-qiqir kulishi ham eshitiladi..

V

Momaqaldiroq, chaqmoq, yomg'ir hamda shamolni boshlab ke-luvchi va xalq o'rtasida «Qiyomat qo'pti» deb ataladigan dahshatli tunlar bo'ladi. Mening shaxsiy hayotimda ham bir marta xuddi ana shunday tun bo'lib o'tgan.

Yarim kechadan oqqanda uyg'onib ketib, to'satdan sakrab o'rnimdan turdim. Nazarimda, negadir behosdan o'lib qoladigan-dek bo'laman. Nega bunday? Tanamda umr bitganini ko'rsatadigan bironta alomat yo'q, ammo to'satdan dahshatli buyuk bir shu'lani ko'rib qo'rqqandek yuragim hovliqadi.

Shoshib-pishib chiroqni yoqaman, grafinni ko'tarib og'zidan suv ichaman, keyin yugurgancha ochiq turgan deraza yoniga bora-man. Tashqarining havosi benihoya yaxshi. Pichan va yana allaqan-day narsaning xushbo'y isi kelib turadi. Chorbog' panjarasi, deraza

¹ *Vodevil* – bir-ikki pardali kichik sahna komediyasi.

yonidagi uyquga tolgan nimjon daraxtlar, yo'l, qop-qora o'rmon mintaqasi ko'rinadi. Hamma yoq jimjit, birona yaproq shitirlamaydi, barchasi menga qarab, qanday o'lishimni kutib turganga o'xshaydi...

Meni dahshat bosadi. Derazani yopib o'rninga yuguraman. Tomirimni ushlab ko'raman. Qo'ldagi tomir barmoqqa sezilmagach, tomirni ikkala chakkamdan, baqbaqamdan qidiraman, yana qo'limni ushlab ko'raman. A'zoyi badanimni ter bosib pilchirab ketgan. Nafas olishim borgan sayin tezlashmoqda, vujudim qaltiraydi, ichimdagi narsalarning hammasi alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Yuzimga, boshimga o'rgimchak uyasi yopishayotgandek tuyuladi.

Nima qilsam ekan? Oilamni chaqiraymi? Yo'q, kerak emas. Xotinim bilan qizim yonimga kirganlarida nima qilishlarini bilmayman.

Boshimni yostiq ostiga yashirib, ko'zlarimni yumib, allanimani kutib yotaman, juda-juda uzoq kutaman...

Belim sovqotib, ichimga tortib ketayotganga o'xshaydi. Ajal go'yo asta-sekin faqat orqa tomondan kelmoqda.

– Kivi-kivi! – Jimjit kechada behosdan qichqiriq eshitaladi, bu tovushning qayerdan eshitalayotganini – o'zimning ko'kragimdanmi yoki ko'chadanmi – bilmayman.

– Kivi-kivi!

Yo Rabbiiy, qanday dahshat! Bir qultum suv bo'lsa, ichardim-u, biroq ko'zimni ochishga, boshimni ko'tarishga yurak betlamaydi. Mening qo'rquvim o'lgudek bema'ni edi, chunki nima uchun qo'rqayotganimni o'zim ham sira anglamayman: yashashni istaganimdanmi yo bo'lmasa, shu kungacha totib ko'rilmagan yangi bir alam meni kutayotgani uchunmi – aslo tushunmasdim.

Yuqoridan, shiftning narigi tomonidan bironing ingrayotganimi, kulayotganimi eshitaladi... Quloq solib turaman. Birpasdan keyin zinadan oyoq tovushi keladi. Kimdir shoshganicha pastga tushib ketadi, keyin yuqoriga ko'tariladi. Bir nafasdan so'ng oyoq tovushi tag'in pastdan eshitaladi; allakim eshigim yonida to'xtab ichkariga quloq soladi.

– Kim u? – deb qichqiraman.

Eshik ochiladi, ko'zlarimni dadil ochib xotinimni ko'raman. Uning rangi o'chgan, ko'zlari yig'idan qizargan.

– Uxlayotganing yo'qmi, Nikolay Stepanich? – deb so'raydi.

– Nima ishing bor?

– Xudo xayringni bersin, pastga tushib Lizani bir ko'rgin. Juda g'alati bo'lyapti...

– Durust... yaxshi... – deb ming'illayman, yolg'iz emasligimdan benihoya mamnun bo'lib. – Yaxshi. Hozir...

Xotininimning so'zini tinglab, orqasidan boraman, ammo hayajondan nima deganini anglamayman. Uning qo'lidagi shamdan zinapoyaga tushgan yaltiroq dog'lar lik-lik o'ynaydi. Ikkalamizning uzun-uzun soyalarimiz titraydi, oyoqlarim choponimning etagiga o'ralishib qoladi, nafasim tiqiladi, orqamdan baayni birov quvlab kelayotgandek, yelkamdan ushlab oladigandek tuyuladi: «Shu yerda, mana shu zinapoyada hozir o'lib qolaman, – deb o'ylayman. – Hozir o'laman...» Xayriyat, zinadan eson-omon tushdik, italyancha deraza qurilgan, qorong'i dahlizdan o'tib, Lizaning ostonasiga qadam qo'ydik. U ich ko'y lakda, yalang'och oyoqlarini pastga osiltirib karavotda o'tirar va beto'xtov ingrar edi.

– Oh, Tangrim... Oh, Tangrim! – deb g'o'ldiraydi u, xotininimning qo'lidagi sham nuridan ko'zlarini qisib. – Chidolmayman, chidolmayman...

– Liza, jon bolam, – deyman. – Senga nima bo'ldi?

Qiz meni ko'rib qichqirib yuboradi va o'zini bo'ynimga tashlaydi.

– Mehribon otajonim... – deydi va kuyib-pishib yig'laydi... – sevikli otaginam... yakka-yolg'iz mehribonim... Bilmayman, menga nima bo'ldi... O'rtanib ketdim.

U meni quchoqlaydi, betimdan o'padi, erkalovchi so'zlarni pichirlaydi. Men bunday so'zlarni qizimning og'zidan bolalik kunlarida eshitardim.

– Tinchlan, jon bolam, Xudo xayringni bersin, – deyman. – Yig'lama. O'zim ham o'rtanib ketyapman.

Men qizimning ustiga biror narsa tashlamoqchi bo'laman, xotininim unga suv ichiradi, ikkalamiz o'rin oldida betartib tipirchilaymiz; yelkam bilan uning yelkasiga turtaman, shu payt bir mahallar birgalashib bolalarimizni cho'miltirganimiz xayolimga keladi.

– Axir, yordam beraqolsang-chi! – deb yolvoradi xotininim. – Bir ilojini qilgin!

Qo'limdan nima keladi? Hech narsa kelmaydi. Qizning dilida allaqanday og'ir dard bor, lekin hech narsa anglamayman, shu sabbdan:

– Hech narsa qilmaydi... Hech narsa qilmaydi... Tuzalib qolasan... Uxla, uxla... – deb valdirayman.

Aksiga olib, hovlimizda birdan it uvlab qoladi. It avval qo'rqapisa, asta-sekin, keyin ikki xil qilib, qattiq uvlaydi. Men itning uvlashi yoki boyqushning sayrashi kabi alomatlariga hech qachon ma'no bermasdim, ammo hozir dilim alam bilan siqiladi, shu sabbdan men itning uvlashini izohlashga oshiqaman.

«Bo'lmagan gap... – deb o'ylayman. – Bir organizmning ikkinchi organizmga ta'siri. Mening qattiq asabiylashganim xotinimga, qizimga, itga o'tgan, bo'lak hech narsa emas... Bir narsani oldindan sezish, oldindan bilish ham ta'sirning shu xilda o'tishidan bo'ladi»...

Lizaga dori yozish uchun birozdan keyin o'z xonamga kelganimda, tezda o'lishim haqida ortiq o'ylamas edim, ammo yuragim shu qadar g'ash, shu qadar noxush ediki, hatto bexosdan o'lib qolmaganimga armon ham qilaman. Men Lizaga nima yozib berishni o'ylab anchagacha xona o'rtasida qaqqayib turaman, shu payt Lizaning ingrashi bosilib qoladi, men ham dori yozmaslikka jazm qilaman, ammo shunga qaramay, hamon serrayib turaman...

Hamma yoq jimjit, shunchalik jimjitki, allaqanday yozuvchi aytganidek, hatto quloqlaring shang'illab ketadi. Vaqt juda sekin o'tadi. Deraza ostidagi oy nuri, go'yo yopishib qolgandek, sira qimirlamaydi... Tong otishiga hali ancha bor.

Bir payt chorbog'ning eshigi g'ijirlab ochildi, kimdir asta-sekin kelib, nimjon daraxtlardan bittasining shoxidan sindirib oldida, o'sha bilan sekingina derazani qoqa boshladi.

– Nikolay Stepanich! – deb pichirlagan ovoz eshutiladi. – Nikolay Stepanich!

Derazani ochaman-u, tushimmi, o'ngimmi, o'zim ham tushunmayman: qora ko'ylak kiygan bir xotin, yop-yorug' oydinga devorga suyanib, deraza ostida turadi. U ko'zlarini katta-katta ochib menga qaraydi. Beti oy nurida baayni marmardan yasalgandek nursiz, mag'rur va sirli ko'rinadi, engagi titraydi.

– Menman... – deydi u. – Men... Katyaman!

Oydinda hamma ayollarning ko'zi katta va qop-qora, odamlarning bo'yi cho'ziq, betlari rangpar ko'rinadi, shuning uchun Katyani daf'atan tanimagan bo'lsam kerak.

– Nima qilib yuribsiz?

– Kechirasiz, – deydi u. – Nimagadir ko'nglim birdan toqat qilib bo'lmaydigan hasratga to'lib ketdi... Chidolmasdan bu yerga kel-dim... Derazangiz yorug' ekan, taqillata qoldim... Kechirasiz... Oh, qanday siqilganimni bilsangiz edi! Siz hozir nima qilyapsiz?

– Hech nima... Uyqusizlik...

– Men allanimani sezganday bo'ldim. Mayli, arzimagan narsa.

Uning qoshlari chimirilib ketadi, ko'zlari yoshdan yaltiraydi, betlari, go'yo nurdan porlagandek, ko'pdan ko'rinmagan menga ta-nish ishonuvchanlik ifodalari bilan yashnab ketadi.

– Nikolay Stepanich! – deydi u yolvorib, ikkala qo'lini menga uzatarkan. – Azizim, sizdan o'tinaman... yolvorib so'rayman... Ba-sharti, mening do'stlik munosabatimdan, sizga bo'lgan hurmatimdan nafratlanmasangiz, bitta iltimosimga rozi bo'ling!

– Qanday iltimos?

– Mening pullarimni o'zingizga oling!

– Ana xolos, nimalarni o'ylab topasan-a?! Pullaringning menga nima keragi bor?

– Biror yerga davolanish uchun borasiz... Davolanishingiz kerak. Olasizmi? Olasiz, a? Azizim, xo'p, deng!

U ishtiyiq bilan mening betimga tikilib qayta-qayta so'raydi:

– Xo'pmi? Olasizmi?

– Yo'q, azizam, olmayman... – deyman. – Rahmat...

U orqasini menga o'girib, boshini quyi soladi. Ehtimol pul to'g'risida bo'lak gap ochishga yo'l qo'ymaydigan bir ohangda ja-vob qaytargan bo'lsam kerak.

– Uyingga borib uxla, – deyman. – Ertaga ko'rishamiz.

– Ma'lum bo'ladiki, siz meni o'zingizga do'st bilmas ekansiz! – deydi u ma'yusgina.

– Men bunday demadim. Biroq pullaring endi men uchun foy-dasiz.

– Kechirasiz... – deydi u ovozini ancha pasaytirib. – Maqsadingizni tushunaman... Menga o'xshagan odamdan... aktrisa bo'lib o'tgan ayoldan pul olishni istamaysiz... Mayli, xayr...



U shunchalik tez yurib ketadiki, hatto xayr deyishga ham ulgurmay qolaman.

VI

Men Xarkovga keldim.

Hozirgi kayfiyatimga qarshi kurashish foydasiz bo'lganidan (bu narsa mening qo'limdan kelmaydi ham), hayotimning so'nggi kunlarini loaqal rasmiy jihatdan benuqson bo'lishiga ahd qildim; modomiki, oilamga nisbatan nohaq ekanman (buni o'zim ham juda yaxshi bilaman), bundan buyon hamma narsani oilam istaganicha qilishga harakat qilaman... Xarkovga borish kerak bo'lsa, Xarkovga boraman. Buning ustiga, so'nggi vaqtlarda har bir narsaga shu qadar beparvomanki, Xarkovgami, Parijgami yo bo'lmasa, Berdichevgami, qayerga borish kerak bo'lsa, men uchun mutlaqo farqi yo'q.

Men bu yerga soat o'n ikkida kelib, bosh cherkov yaqinidagi mehmonxonaga qo'ndim. Vagonda ko'nglim ancha behuzur bo'ldi, shamollab qoldim, endi tik kasalimning xuruj qilishini kutib, boshimni ushlaganimcha karavotda o'tiraman. Shu bugunning o'zidayoq tanish professorlarnikiga borish kerak edi, ammo xohish ham, darmon ham yo'q.

Bir mo'ysafid dahliz xizmatkori kirib, mendan ko'rpa-yostig'im bor-yo'qligini so'raydi. Men uni biron besh daqiqa ushlab turib, bu yerga kelishimning sababchisi bo'lgan Gnekker haqida unga bir qancha savol beraman. Xizmatkor Xarkovda tug'ilib-o'sgan odam ekan. Bu shaharni o'zining besh barmog'idek bilishiga qaramay, Gnekker nomida yuradigan biron ta oilani eslolmadi. Mulklar to'g'risida surishtiraman – uni ham bilmaydi.

Dahlizda soat birga jom uradi, keyin ikkiga, so'ngra uchga... O'limni kutib o'tkazayotgan hayotimning oxirgi oylari, nazarimda, oldingi hamma umrimdan allaqancha uzayib ketgandek ko'rinadi. Ilgari vaqtning bunchalik sekin o'tishiga aslo chidamasdim. Burun vokzalda poyezdni kutish to'g'ri kelib qolganda yoki imtihon olayotganimda chorak soat ham juda-juda ko'p ko'rinardi. Endi bo'lsa tun bo'yi karavotda qimirlamasdan o'tirib, ertaga ham, indinga ham xuddi ana shunday uzun va bema'ni tun bo'lishini o'ylashdan zaracha cho'chimayman...

Dahlizda soat beshga, oltiga, yettiga jom uradi... Qorong'i tushadi.

Chakagim lo'qqillab og'riydi – bu narsa tik kasalimning boshlanishi alomatidir. Turli xayollar bilan vaqtni o'tkazish niyatida, beparvolik balosiga muhtalo bo'lmagan paytlarimdagi eski fikrlarimni eslab o'zimdan: «Nima uchun men, atoqli bir odam, maxfiy maslahatchi bo'laturib, manavi kichkinagina uyda, begona birovning kulrang ko'rpasi to'shalgan karavotda o'tiraman? Nima uchun men jezdan yasalgan mana bu yaramas qo'lyuvarga qarab, dahlizdagi pachavasi chiqib ketgan soatning tiqir-tiqir tovushini eshitib vaqt o'tkazaman? Bularning hammasi mening shuhratimga va odamlar o'rtasidagi oliy mavqeyimga munosibmi, axir?» deb so'rayman. Bu savollaringa o'zimdan o'zim kulib qo'yaman. Bir zamonlar, yoshlik chog'larimda shuhratning qiymatini haddan tashqari oshirib yuborganim, dongdor odamlar go'yo alohida mavqega ega bo'ladilar, deb soddalik bilan o'ylaganlarim endi kulgimni qistatadi. Men mashhur odamman, nomim ehtirom bilan tilga olinadi, mening portretim «Niva», «Vsemirnaya illyustratsiya» jurnallarida bosilib chiqqan, bitta nemis jurnalida hatto o'zimning tarjimai holimni ham o'qiganman. Xo'sh, shularning nima foydasi bor? Endilikda begona bir shaharda, birovning karavotida kaftim bilan og'riq lunjimni ishqalab, yakka-yolg'iz o'tiraman... Oilaviy mojarolar, ijaraxo'rlarning berahmligi, temiryo'l xizmatchilarining qo'polligi, pasport tizimining noqulayligi, bufetlardagi ovqatlarning qimmat va sifatsiz bo'lishi, umumiy jaholat, odamlar o'rtasidagi o'zaro dag'alliklar va bulardan boshqa sanagan bilan tamom bo'lmaydigan yana bir qancha narsalar faqat o'z ko'chasida yashaydigan odamlarga ma'lum bo'lgan har bir meshchanga qanchalik aloqador bo'lsa, menga ham undan kam aloqador emas. Mavqeyimning alohida ahamiyatga egaligi nimadan iborat? Faraz qilaylik, mening shuhratim yer yuzini bosgan bo'lsin, faraz qilaylik, men vatanimning iftixoriga sazovor bo'lgan buyuk qahramon bo'layin; kasalim haqida hamma gazetalarda ma'lumot bosib turishadi, hozirning o'zidayoq yor-do'stlarimdan, shogirdlarimdan, aholidan menga xayrixohlik maktublari kelib turadi, biroq bularning hammasi birovning karavotida yotib dog'-u hasratda, yakka-yolg'izlikda o'lib ketishdan meni qutqarib qololmaydi-ku, axir... Bu to'g'ri, albatta, hech kim aybli emas, gunohkor bandaman, ovozasini ketgan nomimni sira-sira yoqtirmayman. Nazarimda, bu nom go'yo meni aldaganga o'xshaydi. Soat o'nlariga borib ko'zim

uyquga ketadi, tik kasalimning xuruj qilishiga qaramay, ancha mi-riqib uxlayman, agar meni uyg'otmaganlarida yana uzoq uxlardim. Soat birdan o'tganda eshik birdan taqillab qoladi.

– Kim u?

– Shoshilinchnoma.

– Ertaga bersangiz ham bo'lardi, – deb achchiqlanaman, dahliz xizmatkoridan shoshilinchnomani olaturib. – Endi uxlolmayman.

– Kechirasiz. Chirog'ingiz o'chmagan ekan, uyg'oqsiz, deb o'ylabman.

Shoshilinchnomani ochib dastavval uning imzosiga qarayman: xotinimdan. Unga nima kerak ekan?

«Kecha Gnekker bilan Liza yashirincha nikohdan o'tishdi. Orqangga qayt».

Men shoshilinchnomani o'qib qo'rqib ketaman, ammo qo'rquvim uzoqqa cho'zilmaydi. Meni Liza bilan Gnekkerning qilmishlari emas, balki nikoh haqidagi xabarga o'zimning sovuqqonlik bilan qarashim qo'rqitadi. Faylasufflar bilan asl donishmandlar beparvo bo'ladilar, deyishadi. Bu gap noto'g'ri, beparvolik – ruhning falaj bo'lishi, bemahal o'limdir.

Yana o'rnimga yotaman, tag'in qanday xayollar bilan vaqtni o'tkazsam ekan, deb o'ylab ketaman. Nimaning ham xayolini surardim? Nazarimda, xayolimdan o'tmagan biron narsa qolmagan, endilikda hech narsa mening fikrimni qo'zg'atishga qodir bo'lmasa kerak.

Tong otganda tizzamni quchoqlab o'rinda o'tiraman va bekor-chilikdan o'z-o'zimni anglashga tirishaman: «O'z-o'zingni angla» – juda yaxshi va foydali maslahat; afsuski, qadimgi odamlar bu maslahatdan foydalanish usulini ko'rsatishni unutgan ekanlar.

Ilgari xayolimda biron kimsani yoki o'zimni anglash istagi tug'ilib qolganida, insonning hamma ishi shartli bo'lganidan, xatti-harakatni emas, istagini e'tiborga olardim. Sen menga istagingni so'zlasang, men sening kimligingni aytib beraman.

Endi o'zimni imtihon qilaman: men nima istayman?

Men istaymanki, xotinlarimiz, bolalarimiz, yor-do'stlarimiz, shogirdlarimiz bizning nomimizni, qaysi jamiyatga mansubligimizni, yorlig'imizni emas, avvalo, insoniyligimizni sevsinlar. Yana nima?

Istardimki, shogirdlarim ishlarimni davom ettiruvchi bo'lsinlar. Tag'in nima? Istardimki, yuz yildan keyin uyg'onsam-u, loaqal bir ko'zim bilan bo'lsa ham, ilm-fanning nima bo'lganini ko'rsam. Yana o'n yil yashasam... So'ngra nima?

So'ngra hech nima. Ko'p o'ylayman, uzoq o'ylayman, ammo boshqa hech narsani o'ylab topolmayman. Qanchalik o'ylamay, fikrim qanchalik yorqin bo'lmasin, istaklarimda allaqanday muhim narsaning, allaqanday juda ahamiyatli narsaning yo'qligi menga ma'lum bo'ladi. Mening ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqimda, yashashni orzu qilishimda, shu alpozda bironing karavotida o'tirishimda va o'z-o'zimni anglashga intilishimda, har narsalar haqida hosil qilgan fikr, sezgi va tushunchalarimda shularning hammasini jamlab bir ipga bog'laydigan allaqanday umumiy bir narsa no'q. Mening har bir sezgim va har bir fikrim o'z holicha alohida-alohida yashaydi. Ilm-fan, teatr, adabiyot, shogirdlarim haqidagi barcha mulohazalarimda hamda xayolimda chiziladigan jamiki tasvirlarda eng mohir tahliliy va umumiy g'oya yoki tirik insonning Tangrisi deb ataladigan narsa topilmaydi.

Modomiki, shu narsa yo'q ekan, demak, hech narsa yo'q.

Bunday qashshoqlikda ilgari o'zimning dunyoqarashim deb yurgan va hayotimning mazmuni va shodligi deb qaralgan jamiki narsalarning ostin-ustun bo'lishi va tilka-porasi chiqib uchib ketishi uchun jiddiy bir xastalik, o'lim vahimasi, sharoit va odamlarning ta'siri yetarli edi. Shu tufayli hayotimning so'nggi oylarini faqat qullarga hamda vahshiylarga munosib bo'lgan xayol va sezgilar bilan xiralashtirib qo'yganim, hozirda esa beparvo bo'lib tong otganini sezmasdan o'tirishim taajjublanarli emasdi. Modomiki, insonda tashqi ta'sirlarning hammasidan yuqori va kuchli narsa bo'lmas ekan, nafsilamrini aytganda, arzimagan tumov uning tinchligini yo'qotib, har bir parrandani ko'ziga boyqush qilib ko'rsatadi, har bir tovush uning qulog'iga itning uvlashi bo'lib eshitiladi. Shunday bo'lgach, uning butun badbinlik yoki nekbinligi, ulug' fikrlari va arzimagan orzulari bilan birga faqat kasallikning tashqi ifodasi bo'lib qoladi, xolos.

Men yengildim. Modomiki, shunday ekan, fikr yuritishni davom ettirishga, munozara yuritishga hech qanday ehtiyoj yo'q. Oqibat nima bo'lishini jim o'tirib, sabr bilan kutaman.



Ertalab dahliz xizmatkori choy bilan mahalliy gazetaning bir so-nini olib kiradi. Men naridan-beri birinchi betdagi e'lonlarni, bosh maqolani, gazeta va jurnallardan ko'chirib bosilgan parchalarni, xabarlarini o'qib chiqaman... Jumladan, xabarlar bo'limida mana shunday xabarga ko'zim tushadi: «Kecha xat tashuvchi poyezd bilan atoqli olim va muhtaram professor Nikolay Stepanovich falonchi Xarkovga keldi va falon mehmonxonaga qo'ndi».

Chamasi, dongdor nomlar, bu nom egalari aralashmagani holda, alohida yashamoq uchun yaratilsa kerak. Endi mening nomim bamaylixtir Xarkovda kezib yuradi; biron uch oydan keyin zarhal harflar bilan qabr toshiga yozib qo'yilgan bu nom quyosh singari porlab turadi – bu mening ustimni po'panak o't bosgan vaqtda bo'ladi...

Eshigim asta-asta tiqillaydi. Kimningdir menga ishi chiqib qolgan bo'lsa kerak.

– Kim u? Kiring!

Eshik ochiladi, men hayronlikdan bir qadam orqaga tislaniib, shoshib-pishib choponimning etagini bekitaman. Qarshimda Katya turardi.

– Assalomu alaykum, – deydi u, zinadan chiqqanidan og'ir nafas olib. – Kutmaganmidingiz? Men ham... men ham shu yerga keldim.

O'tirib olgach, menga qaramasdan, tutila-tutilla gapida davom etadi:

– Nega salomlashmaysiz? Men ham bugun keldim... Sizing shu mehmonxonada ekaningizni bilib oldingizga keldim.

– Seni ko'rganimdan behad xursandman, – deyman yelkalarimni qisib, – lekin juda hayron qoldim... Sening kelishing baayni tomdan tarasha tushgandek bo'ldi... Nima qilib yuribsan?

– Menmi? Shunday... Otlandim-u, kelaverdim,

Ikkalamiz jim bo'lib qoldik. Keyin u to'satdan shiddat bilan o'rmidan turib, men tomon yurdi.

– Nikolay Stepanich! – dedi u, rangi oqargan holda qo'llarini ko'ksiga qo'yib. – Nikolay Stepanich! Men bu ahvolda ortiq yasholmayman! Yasholmayman! Yolg'iz Xudo haqi, tezroq, shu onning o'zida menga ayting: nima qilayin? Ayting, nima qilishim kerak?

– Men nimayam derdim? – deb hayron bo'lib javob qaytaraman. – Hech narsa deyolmayman.

– Yolvorib so‘rayman, gapiring, axir! – deydi u nafasi tiqilib va a‘zoyi badani titrab. – Qasam ichib aytamanki, ortiq bunday yasholmayman! Toqatim qolmadi!

U o‘zini stulga tashlab, o‘kirib yig‘laydi. Boshini orqaga osiltirib, qo‘llarini mayishtiradi, oyoqlarini tipirchilatadi; shlyapasi boshidan tushib ketib, rezinka ipga osilib qoladi, sochlari to‘zg‘ib ketadi.

– Menga yordam qiling! Yordam qiling! – deb yalinadi u. – Sira-sira toqatim qolmadi.

Safar sumkasidan dastro‘molini oladi, dastro‘mol bilan birga bir qancha xatlar ham qo‘shilib chiqadi. Xatlar tizzasidan polga tushib ketadi. Men ularni yig‘ishtirib olarkanman, bittasida Mixail Fyodorovichning dastxatini tanib qolaman: shu xat ichida behosdan allaqanday «ehtiros...» degan so‘zni o‘qib qoldim.

– Men senga hech narsa aytolmayman Katya, – deyman.

– Yordam bering! – deydi u, ho‘ng-ho‘ng yig‘lab qo‘limdan o‘parkan. – Axir, siz mening otam bo‘lasiz, yakka-yu yagona do‘stim bo‘lasiz! Axir, siz donosiz, bilimdonsiz, ko‘pni ko‘rgansiz, ustoz bo‘lgansiz! Ayting: men nima qilay?

– Vijdonan aytaman, Katya, bilmayman...

Men xijolat ichida esankirab qoldim, Katyaning oh-fig‘onlari jonimdan o‘tib ketdi, zo‘rg‘a tik turardim.

– Kel, Katya, nonushta qilamiz, – deyman zo‘rma-zo‘raki iljayib, – bo‘ldi, yig‘lama! – Keyin shu onning o‘zida eshitar-eshitilmas qo‘shib qo‘yaman: – Men yaqinda o‘laman, Katya...

– Loqaqal bir og‘iz so‘z ayting, bir og‘izgina! – deb yig‘laydi u, qo‘llarini menga uzatib. – Men nima qilay?

– G‘alatisan-a... – deyman g‘o‘ldirab. – Tushunmayman! Shunday aqlli bo‘laturib, qilib o‘tirgan ishingni qara! Yig‘lab o‘tiribsan-a...

Xonani og‘ir sukut bosadi. Katya sochlarini tuzatib, shlyapasini kiyadi, keyin xatlarni g‘ijimlab sumkachasiga tiqadi; bu ishlarning hammasini shoshilmasdan, indamay qiladi. Uning yuzini, ko‘ksini, qo‘lqoplarini ko‘z yoshlari ho‘l qilib yuborgan. Ammo chehrasi endi sovuq, qovog‘i solingandi... Men uning betiga qarab turib, o‘zimning unga nisbatan baxtli bo‘lganimdan uyalib ketaman. Faylasuf og‘aynilarim umumiy g‘oya deb ataydigan tushunchani men faqat hayotimning so‘nggi kunlarida, o‘lim oldida angladim. Bu qiz

bechoraning joni bir umr, o'la-o'lguncha azob-uqubatda o'tadi-ku, axir!

– Kel, Katya, nonushta qilamiz, – deyman.

– Yo'q, rahmat, – deydi u sovuqqina.

Yana bir nafas jimlikda o'tadi.

– Xarkov menga yoqmadi, – deyman. – Juda ko'rimsiz. Allaqanday yoqimsiz shahar ekan.

– To'g'ri, ancha... xunuk shahar... Men bu yerga bir nafasga kelandim... Yo'l-yo'lakay... Shu bugunning o'zida jo'nab ketaman.

– Qayerga?

– Qrimga, yo'g'-e, Kavkazga.

– U yerda qancha turasan?

– Bilmayman.

Katya o'midan turadi, sovuqqina iljayib, betimga qaramasdan, menga qo'lini uzatadi.

«Bundan chiqdi, dafn marosimimda bo'lmas ekansan-da?» deb so'ragim keladi. Biroq u yuzimga qaramaydi, qo'li baayni birovning qo'liga o'xshash sovuq edi. Men uni, bir so'z aytmasdan, eshikka qadar kuzatib qo'yaman... Ana, eshikdan chiqdi, orqasiga qaramay, uzun dahlizdan ketmoqda... Orqasidan qarab turganimni aniq biladi, muyulishda qayrilib qarasa kerak.

Yo'q, qaramadi. Qora ko'ylagi so'nggi marta ko'zga ko'rindi, oyoq tovushi tindi... Alvido, bebaho gavharim!

MENING HAYOTIM

(Bir qishloqining hikoyasi)

I

Boshliq menga: «Muhtaram padaringizni yuzxotir qilib sizni ushlab turibman, bo'lmasa, allaqachon haydab yuborardim», dedi. Men unga javoban: «Men molmasman, janobi oliylari, haydama-sangiz ham o'zim ketaveraman», dedim, shundan keyin: «Bu janobni ko'zimdan yo'qoting, juda g'ashimga tegyapti», deganini eshitdim.

Ikki kundan keyin meni ishdan bo'shatishdi. Demak, voyaga yetganimdan beri men to'qqizinchi marta xizmatdan quvilib, shahar me'mori bo'lgan otamni ko'p dilsiyoh qildim.

Men to‘qqizta mahkamada ishladim, bu xizmatlarning hammasi bir-biriga aynan o‘xshardi; vazifam: qimirlamay o‘tirib xat yozish, bema’ni nasihat va qo‘rs gaplarni tinglash hamda «Qachon ishdan bo‘shatisharkin?» deb kutishdan iborat edi.

Men otamning oldiga kirsam, u kishi ko‘zlarini yumib, orom-kursida bahuzur o‘tirgan ekan. Uning qotma va ozg‘in yuzlaridan mo‘min-qobilligi, qulluq qilishga o‘rganib qolgani yaqqol ko‘rinib turardi; soqoli qirilgani uchun o‘rni ko‘karib ko‘rinar va umuman, yuzi katolik cherkovidagi kekxa organchiga o‘xshardi. Otam salomimga alik olmadi, loaqal ko‘zini ham ochmay:

– Agar bechora onang hayot bo‘lganda, sen shu ahvolding bilan uning boshiga ming-ming kulfatlarni solarkansan. Endi bilsam, uning bemahal vafot etganiyam – Xudoning mehribonligi ekan. Sendan o‘tinaman, ey, badbaxt bola, – dedi u ko‘zini ochib, – qani, aytchi, seni nima qilayin? O‘zing biron maslahat bergin, axir!

Yoshlik chog‘imda qavm-qarindosh va tanish-bilishlarim nima qilishim kerakligini aytishardi: biri – harbiy xizmatga kirishni, ikkinchisi – dorixonada ishlashni, uchinchisi – telegrafchi bo‘lishni maslahat berardi. Hozir yoshim yigirma beshdan oshib, chakka sochimga oq oralab qoldi: harbiy xizmatni ham, dorixonani ham, telegrafni ham iskab chiqqanimdan so‘ng, yer yuzida men bilmagan narsa qolmaganday ko‘rinadi. Endi odamlar maslahat ham bermaydi, meni ko‘rganda uh tortishadi yoki «Essiz yigit», deganday bosh chayqashadi.

– Nima qilib yuribsan? – deb davom etdi otam. – Sen tengi yigitlar biron ishning boshini tutib, biron ijtimoiy mavqega ega bo‘lib oldi. Sen o‘z ahvolingga bir nazar solsang-chi! Proletarsan, gadosan, otang boshiga bitgan balosan!

Otam odati bo‘yicha vaysab ketdi: endigi yoshlar dinsizlik kاسوبatidan rasvo bo‘layotganini, moddiyunchilikka va haddan ziyod manmanlikka berilgani natijasida halokatga uchrayotganini gapirdi; havaskorlar spektakli yoshlarni o‘z burchidan va xususan, dindan chetlatadigan narsa ekanini, shuning uchun buni man etish zarurligini aytdi.

– Ertaga men bilan birga borib, boshlig‘ingdan uzr so‘raysan va minba‘d mundoq qilmaslikka, halol xizmat etishga va‘da berasan.

Sen bir kun ham ijtimoiy mavqesiz yurmasliging lozim, – deb gapni tugatdi.

– Mening gapimga ozroq quloq solishingizni so‘rayman, – dedim ma‘yuslanib, lekin gapim unga kor qilmasligiga aqlim yetardi. – Ijtimoiy mavqe deb siz maqtagan xizmatlarning hammasi – faqat davlatmand va ilmli kishilarga nasib bo‘ladigan narsa. Kambag‘al va ilmsiz odamlar esa yolg‘iz jismoniy mehnat orqasidan kun ko‘radi. Shu odamlardan mening biron ortiq joyim yo‘qku, ota.

– Jismoniy mehnat to‘g‘risida og‘iz ochganingda, gapingdan ahmoqlik va beorlik hidi keladi! – dedi otam achchiqlanib. – Axir, tushunsang-chi, anqov odam, shu qo‘pol jismoniy kuchdan tashqari, senda ruhi ilohiy, nuri muqaddas degan narsa bor; buni tushunish lozim, miyasi yo‘q – kallavaram! Sen ana shu nuri muqaddasning sharofati bilangina eshakdan, tamomiy maxluq va gazandalardan farq qilasan, shuning xosiyati tufayli Xudovandi taolo iltifotiga sazovor bo‘lasan! Eng aziz odamlar ming yillar davomida urinib, bu nurga erishganlar. Sening bobokaloning janobi Poloznev – general o‘tgan, Borodinoda jang qilgan odam; bobong esa – shoir va notiq kishi, zodagonlarning sardori edi; amaking – pedagog, nihoyat, men, otang esa – me‘mor. Butun Poloznevlar ajdodi ko‘z qorachig‘iday asrab kelgan bu muqaddas nurni endi sen so‘ndirmoqchi bo‘lasanmi?

– Rostini aytish kerak, ota, – dedim. – Million-million kishilar jismoniy mehnat bilan shug‘ullanmoqda.

– Mayli, shug‘ullanaversin! Ularning qo‘lidan boshqa ish kelmaydi. Jismoniy mehnatni har qanday odam, hatto o‘taketgan ahmoqlar va jinoyatchilar ham qilaveradi, chunki tamomiy qul-u vahshiylarning peshonasiga yolg‘iz shu mehnat bitilgan, xolos. Biroq muqaddas nur degan narsa kamdan-kam odamlarga nasib qiladi!

Bu munozarani ortiq davom ettirishdan foyda chiqmasligini tushundim, chunki otam o‘ziga bino qo‘ygan odam, doim o‘z fikrini ma‘qullashini, bironvning gapiga mutlaqo ko‘nmasligini bilardim. Otam qora mehnatni nima uchun bu qadar tahqirlab, yerga urishining asl sababini ham men yaxshi bilaman. Uni tashvishlantirgan narsa aslo muqaddas nur to‘g‘risidagi mulohazalar emas, o‘g‘li ishchi bo‘lsa – ovozası shaharga tarqalib, malomatga qolishidan qo‘rqadi. Buning ustiga, hamma tengqurlarim allaqachon universitetni bitirib,

yaxshi-yaxshi joylarga o'rinish olganini, hatto Davlat bank idorasi boshlig'ining o'g'li kollegiya maslahatchisi darajasiga yetganini ko'rib, o'zining yakka-yu yagona o'g'li haligacha so'rrayib yurganiga ori keladi. Gapni cho'zgan bilan foyda bermasligiga, dilim battar siyoh bo'lishiga ko'zim yetib tursa ham, o'jizgina e'tiroz bildirib, gapimga axiyri tushunar, degan umidda o'tiraverdim. Masala juda oddiy va ravshan bo'lib, faqat qaysi yo'l bilan non topishim kerakligi ustida borar edi. Biroq otam shu oddiy narsani ko'rmasdi, lo'nda gapni chuchmallashtirib, qayoqdagi Borodinoni, muqaddas nurni va bir zamonda maza-matrasiz she'r yozgan, hozir esa nom-u nishoni o'chib ketgan amakimni misol keltirar, meni miyasi yo'q – kallavaram, anqov odamga chiqarib, hadeb haqorat qilardi. Men bechora ko'nglimdagi dardimni tushuntirolmay afsuslanardim. Shunday bo'lsa ham otam bilan opamni juda yaxshi ko'raman va bolalik chog'imdan beri shulardan ijozat so'rab ish qilishga odatlanganman. Bu odat suyak-suyaklarimga singib ketgani uchun endi undan qutulishga sira ko'zim yetmay qoldi. Orada gap ko'tarilsa, haqlimanmi-yo'qmi, ishqilib, shular ranjimasin, deb xavotir olib turaman. Mana, bu safar ham otam salgina hayajonlangandi, ingichka bo'yni darhol qizarib ketdi, men esa ko'ngli ozib qolmasin, deb tashvishga tushdim.

– Mashinka bilan birpasda yozib tashlanadigan ishni dim idorada ertadan kechgacha pishillab ko'chirib o'tirishni – yigitlar uchun uyat va haqorat deb bilaman, – dedim. – Buning nimasini muqaddas nur deysiz?

– Baribir bu aqliy mehnat hisoblanadi, – dedi otam. – Bo'ldi endi, bu gapni bas qilaylik. Lekin har ehtimolga qarshi shuni bilib qo'yginki, agar sen xizmatga kirmay, yana o'sha yaramas ishlariga mayl qo'yib yuraveradigan bo'lsang – opang va mening mehr-muhabbatimizdan mahrum bo'lasan, men seni merosdan mahrum qilishga qasamyod etaman!

Men o'z hayotim yo'lida naqadar pokiza va samimiy niyatlarga suyanganimni unga bildirish maqsadida hech qanday g'arazsiz:

– Meros masalasining menim uchun unchalik ahamiyati yo'q, – dedim. – Hozirdan e'tiboran men hammasidan kechdim.

Bu gapni nima uchun otamga qattiq tekkanini o'zim payqamay qoldim.

– Qaysi bet bilan otangga shunday deysan, ahmoq? – deb chin-qirib yubordi otam va odatdagi epchilligini ishlatib, yuzimga ketma-ket ikki tarsaki tortib yubordi. – Haddingdan oshib ketibsan-ku, badbaxt!

Bolalik chog‘imda otam urganda men ikki qo‘limni yonga qilib, ko‘ziga tikilganча qimirlamay turishim shart edi. Bu gal ham men o‘zimni butunlay yo‘qotib, aynan bolalik vaqtimdagiday qimirlamay turishga va ko‘zimni ko‘zidan olmaslikka harakat qildim. Otam ancha qarigan, ozg‘in odam bo‘lgani uchun qo‘llari qayishday qattiq va yomon tegar edi.

Men tislana-tislana dahlizga chiqdim, biroq otam allaqaydan qo‘liga soyabon tushib qolib, bosh-u yelkalarimga bir necha marta ayamay solib qoldi. Bu yerda nima to‘polon bo‘layotganini bilmoqchi bo‘lib, opam mehmonxona eshigini ochib qaradi-yu, ahvolimga achindi va qo‘rqib ketdi, lekin ko‘ngil uchun otamga bir og‘iz ham gapirmay, o‘sha zahotiyuq yuzini o‘girib oldi.

Men idora yuzini ko‘rmaslikka, oddiy ishchi bo‘lib yangi hayot boshlashga uzil-kesil qaror qilgandim. Endi hamma gap qaysi ishni tanlab olishimda qoldi va men bu to‘g‘rida tashvishlanmayman, chunki o‘zim baquvvat, chidamli bo‘lganim uchun eng og‘ir mehnatga ham qobil ekanimni bilaman. Bundan buyon ochlikka, yo‘qlikka qanoat qilishni, oddiy bir ishchi qatorida huzur-halovatsiz umr kechirishim, bir burda nonga muhtoj bo‘lib, tun-u kun pul topish xayolida zir yugurishimga aqlim yetadi. Kim biladi, borib-borib bir kuni men Katta zodagonlar ko‘chasi bilan ishdan qaytayotganimda, aqliy mehnat bilan yashovchi muhandis Doljиковga havasim kelib, pushaymon ham qilarman. Lekim hozir kelgusi kulfat va musibatlarni o‘ylagan sari, negadir zavqlanib, ko‘nglim ochilardi. Bir zamonlar men aqliy mehnat bilan kun ko‘rishni orzu qilgandim, goh o‘qituvchi, goh yozuvchi, goh doktor bo‘lgim kelardi, lekin orzularimning birontasi ro‘yobga chiqmadi. Men har xil zavqlarga qattiq berilgandim, masalan, teatr va kitobxonlikni, ayniqsa, yaxshi ko‘rardim, biroq aqliy mehnatga layoqatim borligini aytolmayman. Gimnaziyada o‘qigan vaqtimda eng yomon ko‘rgan darsim – yunon tili bo‘lib, shuning kasofatidan to‘rtinchi sinfni tashlab ketishga majbur bo‘ldim. Repetitorlar meni beshinchi sinfga tayyorlamochi bo‘lib ko‘p urinishdi. So‘ngra turli mahkamalarda xizmat qilib,

kunning yarmidan ko'pini butunlay bekor o'tkazishga o'rgandim; odamlar buni menga aqliy mehnat deb maqtashardi. O'qish va xizmat sohasidagi vazifalarim uchun bekorchilikdan boshqa narsa darkor bo'lmay qoldi: biron aql ishlatadigan, iqtidor, shaxsiy qobiliyat yoki ijodiy zavq kerak bo'ladigan joyi yo'q edi. Bunday aqliy mehnatdan nafratlanaman va jismoniy mehnatni afzal ko'raman, chunki betashvish, rohat-farog'atda hayot kechirish uchun hech qanday asos yoki vaj bo'lolmasligini yaxshi tushunaman, chunki bu xil mehnatlar bekorchilikning aynan o'zginasi bo'lib, aslida, firibgarlikdan boshqa narsa emas. Haqiqiy aqliy mehnatning nimaligini men hech qachon bilmagan bo'lsam kerak.

Kech kirdi. Biz Katta zodagonlar ko'chasida turardik. Shahrimizning eng katta ko'chasi shu bo'lib, biron tuzukroq bog' bo'lmagani uchun tamomiy kazo-kazolar har oqshom shu yerda sayr qilishadi. Ikki betiga qator teraklar o'tkazilgan bu ajoyib ko'cha qisman tomoshabog' vazifasini ado etadi. Xususan, yomg'irdan keyin teraklardan xushbo'y hid taraladi, uy oldidagi gulzor-u bog'chalarda, devorlar orqasida gullab turgan akas, nastarin, shumurt va olma daraxtlarining shoxlari ko'channing husn-latofatini orttiradi. May oqshomlari yorug' bo'ladi, maysa-ko'katlardan tushgan mayin soya, nastarin gulining muattar hidi, qo'ng'izlarning g'ing'illashi, hamma yoq jimjit, havo ham iliqqina; yil sayin bahor shu zayl takrorlansa ham, har safar kishida yangi-yangi taassurotlar tug'iladi. Men sayr etuvchilarni tomosha qilib, ko'cha eshik oldida turgandim. Bularning ko'pchiligi bilan birga o'ynab-o'sgan bo'lsam ham, hozir ularga aralasholmasdim, chunki ust-boshim ancha xarob bo'lib, bu oliftalar mendan ehtimol or qilardi; kiyimim poyma-poy, shimim tor, etigim qo'polligi uchun meni «makaron kema» deb atashardi. Ijtimoiy mavqeyim bo'lmagani, ko'pincha anchayin qovoqxonalarda bilyard o'ynaganim, buning ustiga, bekordan-bekor ikki marta jandarm zo-bitining oldiga sudrab borishgani natijasida nomim bulg'anib, shaharga tanilib qolgandim.

Ro'paradagi muhandis Doljikovning hashamatli uyida allakim royal chaladi. Qorong'i tushdi, osmonda lip-lip yiltirab yulduzlar ko'rina boshladi. Ana otam, yo'liqqan odamlarning ta'zim-u salomlariga javob qaytarib, sekin-sekin o'tib ketdi. Otam keng soyaboni

qayrilgan eski silindrni¹ kiyib olib, opamning qo‘ltig‘idan tutib bormoqda.

– Qara! – dedi otam opamga, boya meni urgan soyabon bilan osmonni ko‘rsatib. – Osmonga qaragin! Shu yulduzlarning eng kichkinasiyam – ayricha bir olam! Inson – cheksiz koinotga nisbatan kichik bir zarra.

Otam bu gapni shunday ohangda aytdiki, o‘zini anchayin bir zarradan iboratligiga iqror bo‘lishning maqtanadigan nimasi borligiga men tushunolmadim. Inson ham shu qadar no‘noq bo‘ladimi? Afsuski, shu odam shahrimizda birdan-bir me‘mor edi. So‘nggi o‘n besh-yigirma yil ichida bu yerda biron-tuzukroq imorat solinganini bilmayman. Biron kishi unga reja chizib berishni topshirsa, u, avvalo, zal bilan mehmonxonaning suratidan boshlaydi. Bir vaqtlar institutda o‘qiyotgan qizlar raqs tushishni o‘rganmoqchi bo‘lsa, pechkani mo‘ljal qilib olib, so‘ngra boshlarkan. Otam ham huddi shular singari o‘z ijodiy «san‘at»ini zal bilan mehmonxonadan boshlamasa, miyasiga ilhom kelmasa kerak. Zal bilan mehmonxona suratini batamom chizib bo‘lgandan keyin, ovqatlanadigan xona, bolalar bo‘lmasi, kabinet va boshqa hujralarni yoniga qo‘shaveradi. Natijada, har uyga ikkitadan, hatto uchtdan eshik to‘g‘ri kelib, hammasi yo‘lakka o‘xshagan oyoqosti bo‘lib qolardi. Bu sohada yetarli bilim bo‘lmaganini, binokorlik ishining talablarini puxta va chuqur tushunmasligini men aniq bilardim. Otam rejada nimadir yetishmaganini sezib, doim qo‘shimcha narsalar bilan bezashga urinardi. U qurgan imoratlardagi dahlizlar kaftdek, yo‘laklari tor, boloxonaga chiqadigan zinalar qing‘ir-qiyshiq bo‘lib, hali ham ko‘z oldimdan ketmaydi. Boloxona ham shu qadar beso‘naqay bo‘ladimi: tursang – boshing shiftga tegadi, oddiy pol o‘rnida uchta qo‘nqaygan zinani ko‘rasan. Oshxonani, albatta, yerto‘laga tiqishtirmasa, otamning ko‘ngli joyiga tushmaydi, shifti muqarrar gumbazli, poli g‘ishtin bo‘lishi shart. Bu imoratlarning sirtqi ko‘rinishi biram xunuk va beso‘naqayki, hayron qolasan kishi. Hamma binolarning tomi yapasqi va pastakkina bo‘lar, onda-sonda sag‘anaga o‘xshagan mo‘rilar ko‘rinib turar va har qaysisining ustida bittadan qoramtil shamolparak chirillab aylanib turmasa, sira iloji yo‘q edi. Bir-biridan battar va

¹ Silindr shaklidagi erkaklar shlyapasi.

o'xshovsiz shu binolarni ko'rgan sayin esimga otamning eski silindri, so'rraygan gardani tushaveradi. Yillar o'tishi bilan, shahar aholisi ham otamning noshudligiga o'rganib qoldi va bu beso'naqay binolar esa Poloznevlar uslubi bo'lib tanilib ketdi.

Otam o'zining shu beburd uslubini opamning hayotiga ham aralastirdi. Meni Misail, uni Kleopatra deb chaqirar va shuni ham o'zicha bir mansab hisoblardi. Bolalik chog'idan beri opamga osmondagi yulduzlar, qadimgi donishmand-u aziz odamlar, ajdodlarimiz to'g'risida har xil gaplarni uqdiraverib, bechoraning yuragini olib qo'ygandi. Turmush nima, burch nimaligini soatlab unga tushuntirardi. Mana, hozir yoshi yigirma oltiga kirgan bo'lsa ham, to shu damgacha bechorani o'z holiga qo'ymaydi, o'sha nasihatlarini qayta-qayta takrorlayveradi, begona kishini opamning yaqiniga yo'latmay, o'zi bilan olib yuradi. «Axiyri borib, odobli bir yigit topiladi va mening shaxsiy fazilatlarim hurmati uchun qizimga uylanadi», degan xomxayollarni o'ylaydi. Opam otamni sidqidildan yaxshi ko'rar, uning aql-u fazilatlariga batamom ishonar, lekin undan qo'rqardi.

Qorong'i tushdi, borib-borib ko'chada hech kim qolmadi. Ro'paradagi uydan kelayotgan musiqa sadosi ham o'chdi.

Sal o'tmay darvoza lang ochilib, uch ot qo'shilgan izvosh paydo bo'ldi-da, qo'ng'iroqlarini jaranglatganicha o'tib ketdi. Muhandis Doljikov qizi bilan sayr etgani chiqdi. Endi uxlash kerak.

Uyimizdagi tuppa-tuzuk bo'lmamdan kechib, men hozir hovlidagi bir yaramas hujrada turibman. Bu hujra bostirmaga tutashgan va aslida, egar-jabduq qo'yish uchun bobom zamonida solingan bo'lib, devorlariga qoziq qoqilgan edi. Keyinchalik hujraga ehtiyoj qolmaganidan otam o'ttiz yildan beri bu yerga gazetalarini qo'yadigan bo'ldi; gazetaning har olti oylik sonlari alohida muqovalatilib, hech kimga olgani ruxsat etilmasdi. Shu hujrada tursam, otam va mehmonlar ko'zidan chetroqda bo'lishimni hamda «Sen tekinxo'rsan», degan malomatdan qutulishimni bilardim; shuning uchun yaxshigina uydan va u yerda pishiriladigan ovqatlardan kechishga majbur bo'ldim.

Opam meni hujrada kutib turgan ekan. Bechora, otamdan yashirib, bir burda non bilan qittay yaxna go'sht keltiribdi. Oilamizda «Pul – hisobli narsa, tiyinni tejasang – so'm bo'ladi», degan so'z tez-

tez takrorlanardi. Otam uchiga chiqqan xasis bo'lgani uchun bir tiyin ustida talashaverardi; opam bechora esa uning sassiq so'zlaridan iztirob chekar va o'lib-tirilib ro'zg'or xarajatlarini kamaytirishga harakat qilardi. Uyimizda biron marta tuzuqroq ovqat pishirilganini eslolmayman. Opam qo'lidagi likopchani stolga qo'yib, to'shagim ustiga o'tirdi-da, yig'lab yubordi.

– Misail, – dedi u, – bu nima qilganing? – u yuzini yashirmadi; ko'z yoshlari ko'ksiga va qo'llariga tomchilayotganini ko'rdim; chehrasi haddan ziyod g'amgin edi. Birdaniga yuzini yostiqqa burkab olib, o'zini tutolmasdan ho'ngrab yig'lay boshladi. – Tag'in xizmatdan bo'shabsan... – dedi yig'i aralash. – Nihoyatda yomon ish bo'libdi!

– Mening ham dardimni tushunsangiz-chi, opa! – deb yalindim. Uning yig'lashini ko'rib, ko'nglim butunlay buzilib ketdi. Aksiga olib, yermoyi ham tamom bo'lib, lampa tutab ketdi va o'char-o'chmas lipillay boshladi. G'ira-shira yorug'da devordagi qoziqlar vahimali bo'lib ko'rinar, soyalari hadeb lipillardi.

– Bizga rahming kelmaydimi, Misail? – deb so'radi o'rnidan turayotib opam. – Otam bu g'am-u g'ussalardan adoyi tamom bo'ldi, men – xastaman, zo'rg'a yuribman, o'ylayverib, jinni bo'layozdim. Pirovardida, nima bo'lishingni bilasanmi o'zing? – deb qayta-qayta so'rar, qo'llarini cho'zib, yolvorib yig'lar edi. – Sendan so'rayman, jon uka, marhuma onamizmi shafe keltirib so'rayman: yana qaytib xizmatga kirgin, Misail!

– Yo'q, bo'lmaydi, Kleopatra! – dedim. Opam yana biroz qista-sa, gapini qaytarolmasligimga ko'zim yetdi. – Yo'q, mumkin emas!

– Nega? – deb qo'ymadi opam. – Nega? Agar boshlig'ing bilan chiqisholmagan bo'lsang, boshqa biron idoraga xizmatga kir. Masalan, temiryo'lda biron ishga kirsang bo'lmaydimi? Men hozir Anyuta Blagovo bilan gaplashdim. Temiryo'lda, albatta, seni ishga qabul qiladi, deydi, hatto bu to'g'rida o'zi harakat qilmoqchi bo'lib, va'da berdi. Xudo xayringni bersin, Misail, o'ylab ish qilgin! Bir o'ylab ko'rgin, sendan iltimosim shu!

Yana birpas gaplashgandan so'ng men taslim bo'ldim. Yangidan qurilayotgan temiryo'lda xizmat qilish fikri to shu damgacha xayolimga kelmaganini va bu ishga tayyor ekanimni aytdim. Opam

bechora suyunganidan ko'z yoshlari aralash menga kulib boqar, qo'llarimni mahkam qisar va o'zini to'xtatolmay hadeb yig'lardi.

Men yermoyi keltirish uchun oshxonaga bordim.

II

Havaskorlar spektakli, konsert va iona to'plash uchun tomosha qo'yishda shahardagi ishqibozlarning eng birinchisi – Ajoginalar edi. Bu oila Katta zodagonlar ko'chasi o'z hovlisida turardi; tomosha-yu spektakllar hamisha shularnikida o'tkazilib, tashvish-uchi qimlar ham shularga yuklanardi. Uyezdda bularning uch ming botmon yeri va hashamatli qo'rg'oni bo'lib, eng boy zamindorlardan hisoblanar, biroq qishloqni yoqtirmagani uchun qishin-yozin shaharda yashashardi. Oilada ona-yu uch qiz bor edi, onasi novcha bo'y, qotmadan kelgan, sochlari kalta qilib kesilgan muloyimgina bir xonim; inglizcha urfga taassub qilib, kalta kofta bilan silliq yubka kiyadi. Hech kim bu uch qizning ismini aytmas, hamma ularni: kattasi, o'rtanchasi, kenjasi, deb aytaverardi. Uchovining ham engagi cho'ziq va xunuk bo'lib, xira ko'z, bukchaygan qizlar edi; onasiga o'xshab kiyinishar va mudom shi-shilab gapirishardi. Shunga qaramay, ular har bir tomoshaga qatnashib, spektaklda o'ynar, ifodali o'qir, ashula aytar, ishqilib, xayr-ehson tarzida hamisha aralashib turishar edi. Bu qizlar shu qadar jiddiy ediki, biron marta kulganini birov ko'rgan emas, hatto eng kulgili rollarni o'ynaganda ham xuddi hisobchilik qilayotganday xo'mrayib turaverishardi.

Men bu spektakllarni va ayniqsa, repetitsiyalarni juda yaxshi ko'rardim. Repetitsiyalar tez-tez bo'lib turar, hamisha to'polon, shovqin-suron bilan o'tar va tamom bo'lgandan keyin hammani ovqatga taklif etishar edi. Pyesa tanlash hamda rollarni taqsimlash vaqtida men qatnashmasdim. Menga sahna ishlari yuklangandi. Men dekoratsiya chizardim, rollarni ko'chirardim, suffyorlik, grimchilik qilardim; sahna orqasida bulbul bo'lib sayrash, momaqaldiroq kabi gulduratish va shuning singari turli sadolar hammasi menga topshirilgandi. Ijtimoiy mavqeyim va tuzukroq kiyimim bo'lmaganidan, men repetitsiya paytlarida imkon qadar odamlarga aralashmaslikka, ko'pincha sahna ortida bo'lishga harakat qilardim va uyatchanligimdan gapirolmasdim.

Dekoratsiyalarni men Ajoginalarning hovlisida yoki bostirmasi tagida chizardim. Bu ishda menga bir bo'yoqchi doim qarashardi. Ellik yoshlar chamasidagi Andrey Ivanov degan bu odam o'zini bo'yoq ishlarining pudratchisi derdi. Bu novcha bo'yoqchi juda ozib ketgan, ko'kragi cho'kkan, ko'zlarining tagi ko'kargandi, chakka-larida bir parcha et qolmagan va umuman, rang-ro'yi bir holatda bo'lib, odam ko'rsa – qo'rqib ketardi. Bechora allaqanday darmon quritadigan bir dardga chalingandi. Har yil ko'klam va kuzak payt-lari kasali zo'rayib: «O'lim to'shagida yotibdi», degan ovoza bo'lar-di-yu, biroq yotib-yotib tuzalib chiqar va odamlarga: «Yana o'lmasdan qoldim», deb maqtanib yurar edi.

Shahar ahli uni Redka deb chaqirar va ko'p odamlar, uning asl familiyasi shu bo'lsa kerak, deb o'ylardi. U ham men kabi teatrni yaxshi ko'rar va «Spektakl qo'yilarmish», degan xabarni eshitgani hamon, hamma ishlarini yig'ishtirib, dekoratsiya bo'yagani to'ppa-to'g'ri Ajoginalarnikiga kelaverardi.

Opam bilan gaplashgan oqshomning ertasi kuni men ertadan kechgacha Ajoginalarnikida ishladim. Repetitsiya kech soat yetti-ga belgilanib, boshlanishga bir soat qolganda, hamma ishtirokchilar zalga yig'ildi. Uch opa-singil: kattasi, o'rtanchasi va kenjasi – sahnada bo'lib, daftarga yozilgan rollarini yodlashardi. Redka esa egni-da uzun malla palto, bo'ynida sharf, devorga chakkasini suyaganicha boyadan beri sahnaga tikilib, mahliyo bo'lib, qotib qolibdi. Ajogina xonim dam-badam odamlar yoniga borib, biron gap bilan ko'nglini ko'tarishga, ishqilib, zeriktirmaslikka harakat qilmoqda. Xonimning qiziq bir odati bor: odamga qattiq tikilib qaraydi va gapiga sirli tus berib, doim shivirlab gapiradi.

– Dekoratsiya chizish ham juda og'ir narsa, – dedi menga se-kingina. – Biz Mufke xonim bilan endigina xurofot to'g'risida gaplashib turgandikki, eshikdan siz kirib keldingiz. Xudoga ayon: men umr bo'yi xurofot va bid'atlarga qarshi kurashib kelaman. Xizmatkorlarimni har xil irim-sirimlaridan qaytarish niyatida jo'rtta ga uch dona sham yoqaman, eng muhim ishlarimni atayin o'n uchin-chi sanada boshlayman¹.

¹ Uch dona sham yoqishning va o'n uchinchi sananing xosiyati bo'lmaydi, degan irim bor (*tarij.*).

Sochlari novvotday tovlanib, lo'ppigina go'zal bir qiz kirib keldi. Bu muhandis Doljikovning qizi bo'lib, boshdan oyog'igacha Parij kiyimlariga burkangandi. U spektaklda qatnashmasa ham, repetitsiyalarga kelib turar va uning uchun har safar sahnaga maxsus stol qo'yib berilardi. Spektaklga kelganda kiyimlari biram yarashib, xilma-xil turlanib, chaqnab turar, hammani o'ziga mahliyo etar va u birinchi qatorga o'mashib olmaguncha parda ochilmasdi. Bu o'zi poytaxtdan kelgan uddaburo qiz bo'lgani uchun, bizning repetitsiyalarimizga bemalol aralashaverardi; yoqmagani joylarini takabburlik bilan, kulib turib aytib berar, muloyimgina tuzatishga harakat qilardi; umuman, bizning spektakllarimizni anchayin ermak hisoblab, mensimagani sezilib turardi. Uning Peterburg konservatoriyasida o'qib, ashulachi bo'lgani va hatto allaqaysi xususiy operada bir qish ishlagani to'g'risida gap yurardi. Bu qiz menga juda yoqqani uchun repetitsiya va spektakl paytlarida ko'zimni undan uzmay tikilardim.

Men sufflyorlik qilishga tayyorlanib, endigina pyesani qo'limga olgandimki, birdaniga opam kirib qoldi, palto va shlyapasini yechmasdan, to'g'ri mening yonimga keldi.

– Sendan iltimos qilaman, bu yoqqa yur.

Men gapini qaytarmadim. Sahna ortidagi eshik yonida Anyuta Blagovo kutib turgan ekan. U qoramtil to'r tutgan qalpoq kiygan edi. Anyuta sud raisi muovinining qizi bo'lib, otasi deyarli okrug sudi tashkil topgandan beri shahrimizda xizmat qilardi. Anyuta qaddi-qomati kelishgan va xushro'y bo'lgani aksariyat tomoshalarda uni pari yo malak tusida yasatib qo'yilardi, biroq o'zi bundan uyalar, qizarib-bo'zarib zo'rg'a turardi. Anyuta spektakllarda qatnashmas, faqat zarur ishi bo'lsa, repetitsiyaga kelar, biroq zalga kirmasdan shu zahotiyoy qaytaverardi. Bu gal ham shoshib turgani aniq edi.

– Otam siz to'g'ringizda Doljikov bilan gaplashgan ekan, – dedi Anyuta qizarib, yuzimga qaramasdan. – Doljikov sizni temiryo'lda biron xizmatga qabul qilmoqchi bo'libdi. Ertaga shunga borishingiz lozim, o'zi uyda bo'ladi.

Men bu g'amxo'rligi uchun Anyutaga ta'zim qilib, minnatdorlik bildirdim.

– Buni shu yerda qoldirsangiz bo'lardi, – dedi u qo'limdagi pyesani ko'rsatib.



Opam ikkisi Ajogina xonimning yoniga borib, ikki daqiqa chamasi shivir-shivir qilishdi; ora-sira men tomonga qarab-qarab qo‘yishar va nimanidir maslahat qilishar edi.

Ajogina xonim esta-sekin yonimga keldi-da, ko‘zimga tikilib, shunday dedi:

– Darhaqiqat, agar bu narsa asosiy ishlaringizga xalaqit beradigan bo‘lsa, buni boshqa birovga topshirganingiz ma‘qul. Xafa bo‘lmang, mayli boraqoling, do‘stim! Sizni Xudoga topshirdim.

Men u bilan xayrlashdim-u, biroq negadir qattiq xijolatda qoldim. Zinadan tushib kelayotib, opam bilan Anyuta Blagovoni ko‘rdim: ikkisi allanimani gaplashib, shoshilganicha ko‘chaga chiqib ketayotgan ekan. Mening temiryo‘lga ishga kirishimdan boshqa hozir nimani gaplashishlari mumkin?.. Opam umrida repetitsiyaga kelmagan bo‘lib, beruxsat Ajoginanikiga kelganini agar otam bilib qolsa, yaxshi bo‘lmaydi. Hozir shuni o‘ylab, opam xavotirlanishi, vijdon azobida qiynalishi muqarrar, men buni yaxshi bilaman.

Ertasi kuni soat o‘n ikkidan o‘tganda Doljikovnikiga bordim. Xizmatkori meni chiroyli bir uyga boshlab kirdi. Bu joy uning ham mehmonxonasi, ham ish kabineti ekan. Bu yerdagi hamma narsa nafis va go‘zal. Men singari dabdabaga o‘rganmagan kishilar shu g‘alati buyumlarni ko‘rib, o‘zini yo‘qotib qo‘yishi ham mumkin. Qimmatbaho gilamlar, bahaybat divanlar, xilma-xil suratlar, g‘ijim baxmal bilan zar qoplangan ramkalar ko‘zni qamashtiradi; xushro‘y xotinlarning ajoyib fotosuratlarini devorlarga osilgan; erkin qiyofasini, ma‘nodor va go‘zal chehrasini tomosha qilgan odam lazzatlanadi. Mehmonxonaning bog‘ tomondagi balkonga chiqadigan eshigi qiya ochiq: gullayotgan nastarin daraxti, nonushta uchun hozirlangan dasturxon, anchagina shisha va bir dasta gul ko‘rinadi; bahor hidi va qimmatbaho sigaraning isi keladi, barcha narsalar baxt-saodatdan darak berib, bamisoli: mana, ko‘rdingizmi, bu odam astoydil mehnati tufayli dunyoda hech kim ko‘rmagan huzur-xalovatga erishdi, deb Doljikovni maqtayotganday bo‘lardi. Yozuv stoli qoshida muhandisning qizi gazeta o‘qib o‘tirgandi.

– Dadamda ishingiz bormi? – deb so‘radi qiz. – Hammomdalar, hozir kelib qoladilar. Qani, marhamat, o‘tiring!

Men o‘tirdim.



– Siz ro‘paradagi uyda tursangiz kerak? – deb so‘radi u birozdan so‘ng.

– Ha.

– Men har kuni zerikkanimdan derazadan tashqariga qarab tomosha qilaman; buning uchun meni kechirarsiz, – dedi gazetadan ko‘zini olmay. – Ko‘pincha opangizni va sizni ko‘rib turaman. Opangiz istarasi issiqqina qiz ekan, biroq doim o‘ylanib yuradi.

Doljikov kirib keldi; qo‘lidagi sochiq bilan bo‘ynini arta boshladi.

– Dada, janob Poloznev sizni kutmoqda, – dedi qiz.

– Ha, ha, Blagovo aytgandi, – dedi-da, men tomon burildi-yu, ko‘rishmadi. – Xo‘sh, men sizga nima ish berishim mumkin? Mendagi ishlarni bilasizmi? Siz janoblarni, hammangiz ham g‘alati odamlarsiz! – deb baqirib gapirgani, nazarimda, xuddi menga tanbeh berayotganday sezilardi. – Har kuni sizga o‘xshaganlardan kamida yigirmatasi mendan ish so‘rab keladi. Bilmadim, muhandis Doljikovning departamenti bor, deb o‘ylashadimi? Men yo‘l solyapman, mendagi ishga odamning odami chidaydi; menga mexanik, chilangar, duradgorlar, yer qazuvchilar, quduq kavlab suv chiqaruvchi kishilar kerak; sizlar esa – o‘tirib olib xat yozishdan boshqami bilmaysizlar! Hammangiz yozuvchilikka ustasiz, xolos!

Doljikovning chehrasida, hattoki, gilam va oromkursilarida ham baxtiyorlik aks etib turardi. Uning semiz va sog‘lomligiga, qip-qizil yuzi va tog‘day azamat ko‘ksiga havasim keldi. Hozirgina yuvinib, top-toza chit ko‘ylak va cholvor kiyib chiqqan bu odam chinni qo‘g‘irchoqqa o‘xshab, yiltirab turardi. U soqoli jingalak va ixchamgina, bironta oqargan mo‘y ko‘rinmas, qirraburun, qorako‘z odam bo‘lib, ko‘zlari tiniq va o‘tkir edi.

– Qo‘lingizdan nima ish keladi? – deb so‘radi u. – Hech nima kelmaydi, deya qoling! Men muhandisman, davlatim o‘zimga yetadi, biroq temiryo‘l qurishga erishguncha, ona sutim og‘zimga kelgan: oddiy mashinist bo‘lib, parovoz haydaganman, Belgiyada rosa ikki yil vagon moylab, moylovchilik qilganman. O‘zingizdan qolar gap yo‘q, men sizni qaysi ishga qo‘yishimni bilmay qoldim, azizim!

– Albatta, bu gaplaringiz to‘g‘ri-ku... – dedim zo‘rg‘atdan g‘o‘ldirab; haligi tiniq va o‘tkir ko‘zlar tikilib turganidan butunlay boshimni ko‘tarolmay qolgandim.



– Hech bo‘lmasa, bironta apparatni bilasizmi? – deb so‘radi o‘ylanib turib.

– Bilaman, men telegrafxonada xizmat qilganman.

– Hm... Unday bo‘lsa ko‘ramiz. Hozircha Dubechnyaga borasiz. U yerga bir yigitni qo‘yganman, yaramas odam chiqdi.

– Vazifam nimadan iborat bo‘ladi? – deb so‘radim.

– Borganda bilasiz. Hozircha boraturing-chi, keyin o‘zim aytaman. Ammo zinhor ichkilik ichmaysiz va hech qanaqa iltimoslar bilan boshimni qotirmaysiz. Aks holda, haydab yuboraman.

Muhandis loaqal bosh qimirlatib xayrlashmoqni ham ep ko‘rmadi, shekilli, «Gap tamom», deganday qilib mendan uzoqlashdi. Men gazeta o‘qib o‘tirgan qizga va uning takabbur otasiga ta‘zim qildim-da, darhol chiqib ketdim. Ko‘nglim shu qadar ranjigandiki, opam: muhandis qanday qabul qildi, deb so‘raganda, tilim tutilib, hech narsa deyoilmadim.

Dubechnyaga borish harakatida men kun chiqar-chiqmas, barvaqt turib olib, yo‘lga chiqdim. Bizning Katta zodagonlar ko‘chasi hali uyg‘onmagani uchun ko‘chada bironta inson ko‘rinmas, hamma yoq jimjit bo‘lib, yolg‘iz mening tap-tup yuranim eshiltildi. Teraklarga shabnam tushgan, havo muattar hidga to‘lgan edi. Ko‘nglim nihoyatda g‘amgin, shahardan ketgim kelmasdi; chunki men shu shaharda tug‘ilib-o‘sganman va uni yaxshi ko‘raman. Shahrimni men juda go‘zal va dildor sezardim. Mana shu ko‘ringan maysa-yu ko‘m-ko‘k daraxtlarni, charaqlab turgan jimjit ertalabki paytlarni, cherkov qo‘ngiroqlarining vazmin sadolarini yaxshi ko‘rardim, biroq hamshaharlarimning hammasi yoqimsiz, mendan uzoq va hatto yaramas odamlar edi. Men ularni yoqtirmasdim va ularga butunlay tushunolmasdim.

Shahrimzdagi oltmish besh ming kishining nima uchun yashashini va nima bilan tirikchilik qilishini tushunmasdim. Men Kimri shahrining aholisi etikdo‘zlik orqasidan kun kechirishini, Tulaning o‘ziqaynar va miltiq bilan nom chiqarganini, Odessaning dunyoga tanilgan porti borligini bilaman-u, biroq bu shaharning o‘zi nimayu xalqi nima ish qilishiga tushunolmayman. Katta zodagonlardan boshqa tag‘in ikkita ozodaroq ko‘chasi bor; hamma savdogar-u amaldor shu yerda turadi; savdogarlar savdo-sotiq bilan, amaldorlar – g‘aznadan oladigan maosh bilan yashaydi. Qolgan sakkizta ko‘cha esa uch ki-

lometrğa cho'zilib, etagi qirning narigi tomonida tugaydi. Endi bu sakkiz ko'chaning aholisi nima bilan va qanday kun ko'rishiga sira aqlim yetmaydi: bu narsa men uchun mushkul bir jumboq edi. Bu odamlarning nimasini aytasiz? Ishqilib, nomiga turmush, o'lganning kundan kechirgan hayotini tilga olib bo'lmaydi! Bironta tomoshabog', teatr yoki tuzukroq bir orkestr yo'q; shahardagi hamda klub yonidagi kutubxonalarga o'spirin yahudiylardan boshqa hech kim kirmaganidan, yangi kelgan kitob va jurnallar oylab varag'i kesilmay yotaveradi; boy va ziyoli oilalar esa dim, tor uylarda turishar, kanalab ketgan yog'och karavotlarda yotishardi; bolalarini jirkanch va iflos hujralarda saqlab, tag'in uni bolalar bo'lmasi deb atashardi; hatto umr bo'yi shularning xizmatini qilib qarigan qarollari ham uvadaga o'ralib, o'choqboshida yotib ketaverishardi; oddiy kunlari karam sho'rva, ro'zada esa – pista moyiga qovurilgan baliq hidi uyni bosib ketardi. Yegani bemaza ovqat, ichgani yomon suv edi. Ko'p yillardan beri dumaxonada, gubernator idorasida, arxiyereynikida, umuman, hamma joyda odamlar toza va arzon suv keltirish uchun g'aznadan ikki yuz ming qarz olib vodoprovod qurish kerakligini tinmay gapirishardi. Shahrimizda o'ttizga yaqin badavlat kishilar bo'lib, ba'zan bular butun boshli mulklarini qimorga boy berganlarini bilardim, biroq men bu ziqnalarning iflos suvni ichib turib, g'aznadan qarz olish to'g'risida og'iz ko'pirtirib vaysaganiga, nima uchun o'z yonidan sarf qilib qo'yaqolmaganiga aslo tushunmasdim.

Shahrimizda bironta to'g'ri odam borligini bilmayman. Otam ham poradan tortinmas: ma'naviy fazilatlarim uchun beradilar, deb olaverardi; gimnaziyachilar sinfdan sinfga o'tmoq uchun muallimlarning uyida ovqatlanar va ovqat puli degan bahona bilan ularga pora berishardi; harbiy boshliqning xotini askarlikka odam olish vaqti kelganda yigitlardan pora olar, ular tutgan sharobni uyalmay ichaverardi; hatto bir kuni rosa mast bo'lib, cherkovda o'rnidan turolmay qolganini ko'rganman; askar olish paytida doktorlar ham bo'lganicha bo'lib olishardi; shahar doktori va mol doktori bo'lsaku, qassobxona-yu oshxona egalariga soliq solaverib, ko'z ochgani qo'ymasdi; uyezd maktabida uchinchi darajaga yengillik beradigan guvohnomani ochiq-oydin sotishardi; din nazoratchilari o'z qaramog'idagi vaqf vakillaridan, cherkov mutavallilaridan pora olishardi; bironta inson shahar mahkamasiga, hunarmandlar boshqarmasiga

yoki sog‘liqni saqlash sho‘basiga, ishqilib, kishi qaysi idoraga kelmasin – ishini bitirib, to‘g‘ri chiqib ketolmasdi: «Indamay ketaverasanmi?» deb ketidan baqirishardi; bechora iziga qaytib, o‘ttiz-qirq tiyin uzatishga majbur bo‘lardi. Shular orasida goho sud mansabdorlariga o‘xshagan, pora olmaydigan kishilar uchrasa ham, bular o‘taketgan dimog‘dor bo‘lardi; ko‘rishganda zo‘rg‘a qo‘l uchini berar, doim qarta o‘ynar, sharobxo‘rlikdan bosh ko‘tarmas, aql-u idrokdan benasib va o‘lguday sovuq odamlar edi; ko‘pchiligi boy xotinlarni topib olib, xotining davlatida hayot kechirar, istagan buzuqligini qilib, boshqalarni ham yo‘ldan ozdirardi. Faqat qizlar axloq jihatidan pokiza va musaffo edi. Aksariyati ruhan pokiza, halol va to‘g‘ri bo‘lib, oliyjanob maqsadlarga intilardi; biroq bu bechoralar turmushni tushunmas va porani kishining ma‘naviy fazilatlariga uchun beriladi, degan gapga ishonardi; erga tekkandan keyin tez orada qarib, eskilik botqog‘i hamda meshchanlik ikir-chikiri ichida butunlay hokiturob bo‘lib ketardi.

III

O‘sha kezlari biz tomonda temiryo‘l qurilmoqda edi. Hayit va bayram arafalarida shahrimizni chuvrindi odamlar bosib ketardi. Aholi ularni «cho‘yanchi» deb atar va hamma ulardan qo‘rqardi. Ko‘pincha men aft-basharasi qonga bo‘yalgan, boshyalang chuvrindini odamlar mirshabxona mahkamasiga olib ketayotganini ko‘rardim. O‘g‘riligining dalil-isboti uchun o‘ziqaynar yoki yuvib yoyib qo‘yilgan ho‘l ko‘ylakni ko‘tarib borishardi. Bu cho‘yanchilar doim qovoqxona va bozor atrofida g‘ujg‘on o‘ynashar, topganini yeb-ichib, so‘kishar va biron ta fohisha xotin ko‘rinib qolsa, ketidan qiyqirishib, hushtak chalishardi. Bizning baqqollarimiz ham ataylab shu ochofat chuvrindilarga ermak uchun it va mushuklarga sharob ichirar yoki itning dumiga tunuka idish bog‘lab qo‘yib yuborishar edi: hushtak chalishardi, it tumtaraqay qochar, tunuka taraqlagan sari vangillardi, bir baloyi azim quvlayotganday o‘takasi yorilib, shahardan chiqib ketar va majoli qolmay dalada biron joyga borib yiqilardi. Shahrimizda dumini qisib, qaltirab turadigan bir necha it bor edi. Odamlar ularni ermakka bardosh berolmay, jinni bo‘lgan derdi.

Vokzalni shahardan besh chaqirim nariroqda qura boshladilar. Uni shahar yaqiniga qurmoq uchun muhandislar ellik ming so‘m

pora so'raganmish; shahar mahkamasi esa faqat qirq ming bermoqchi bo'libdi, o'n mingga qolganda gap pishmay, vokzal uzoqda qolibdi. Endi hamma: ellik mingga ko'naqolsak bo'lmasmidi, deb pushaymon qilardi, chunki vokzalgacha tosh ko'cha solish kerakligi va bu yo'l ellik mingdan ham qimmat tushishi aniq edi. Temiryo'ning shpal va izlari yotqizilib, allaqachon tayyor bo'lsa ham, hozirchalik faqat yo'l ehtiyoji uchun xizmat qiladigan poyezd qatnab, material hamda ishchilarni tashirdi. Muhandis Doljikov solayotgan ko'priklar va ba'zi stansiya binolari hali bitmaganidan yo'ning batamom ochilishi faqat shunga qarab qolgandi.

Birinchi stansiyaning nomi Dubechnya bo'lib, orasi shahardan o'n yetti kilometr edi. Men piyoda yo'lga chiqdim. Tevarakatrofimdagi bahorgi va kuzgi bug'doyzorlar ertalabki quyosh nuri-da ko'm-ko'k tovlanadi. Yo'lim chiroyli va tekis joylardan o'tgani uchun olisdan vokzal binolari, qo'rg'onlar va yiroqlarda zamindor imoratlari ko'rinardi... Keng dalada ko'nglim orom olardi. Men loaqal shu ertalabki chog'da erkinlik lazzatini betashvish totgim keldi, shuning uchun shaharda bo'layotgan ishlarni o'ylamaslikka, yuragimdagi dard-u alamlarni unutishga harakat qilardim; ko'nglim ovqat tilamasdi. Dunyoda hech narsa menga ochlik singari yomon ta'sir qilgan emas: xayolim eng yaxshi fikrlar bilan band bo'lib turganda, qora bug'doy yormasidan pishirilgan bo'tqa, qovurilgan baliq va kotletlar darhol esimga tushib, xalaqit berardi. Mana, hozir men osmonga tikilib, havoda qimir etmay sayrayotgan to'rg'ay nolasini tinglayman-u, ko'nglim shu topda non bilan sariyog'ni tusab, tag'in xayolni chalg'itadi. Yoki yo'l yoqasida biroz o'tirib dam olay-da, may oyining ajoyib nag'masini tinglay desam – darhol pishirilgan kartoshkaning hidi esimga kelib, fikrimni buzadi. Men barvasta va baquvvat yigit bo'lsam ham, to'yib ovqat yemay, siqilib o'sganman, kun bo'yi meni qiynagan narsa asosan ochlik hissi bo'lgan. Umrin ochin-to'qin o'tganidan men minglab kishilarning faqat bir parcha non uchun ishlab, nima uchun ovqatdan boshqasini tilga olmaganlarini juda yaxshi tushunardim.

Dubechnyada stansiya binosining ichki suvoqlarini hamda suvtortar yonidagi bir yog'och imoratning ustki qavatini tamomlashayotganini ko'rdim. Kun issiq, hamma joyda ohak hidi buruqsir; ishchilar to'p-to'p uyilgan payraxa va supurindilar orasida ivirsib yurar

edi; yo'nalishchi o'z uychasi oldida, rosa kunning tig'ida uxlab yotardi. Atrofda bironta daraxt yo'q. Telegraf simlarining g'ing'illagan sadosi eshitiladi, onda-sonda simga qo'ngan qirg'iyalar ko'rinadi. Men nima qilishimni bilmay, haligi joylarni aylanib yurarkanman: vazifam nimadan iborat, degan savolimga muhandisning: «Borganda ko'rasiz», degan javobi esimga keldi. Biroq bu dashtda nimani ko'rish mumkin? Suvoqchilar menga ishboshi va yana allaqanday Fedot Vasilyev to'g'risida gapirishdi-yu, biroq gaplariga tushunmadim va zerika boshlaganimni sezdim; yuragim shu qadar siqildiki, shu kattakon jasad-u oyoq-qo'llarim soppa-sog' bo'laturib nimaga ishlatishimni, nima qilishimni bilmaganim alam qildi.

Ikki soat chamasi tajanglikda nari borib, beri kelib yurgach, stansiyadan o'ng tomonga qator simyog'och ketganini va bir yarim-ikki chaqirim joyda ko'ringan oppoq toshdevorga borib taqalganini ko'rdim; ishchilar idoraning o'sha yerdaligini aytishdi, shu yoqqa borishim kerakligini angladim.

Bu juda eski va tashlandiq holga tushgan bir qo'rg'on edi. Devori oq xarsang toshdan ishlangan bo'lib, uvalanib ketgan va ba'zi joylari qulay boshlagan edi; imoratga tutashgan hujraning dala tomonida deraza yo'q, tunuka tomi zang bosib, to'zib ketgan, onda-sonda yamalgan joylari ko'rinadi. Darvozadan qaralsa, burgan bosib ketgan kenggina hovli va boydan qolgan qadimgi uy ko'rinadi, derazalariga chiy parda to'silgan, tomi baland, tunukasi zanglab ketgan. Uying o'ng va chap tomonlariga bir xilda ikkita hujra solingan ekan; birining derazalariga taxta qoqib tashlanibdi, ikkinchi hujraning derazalari ochiq, yoniga arqon tortilib, kir yoyib qo'yilibdi, tevaragida buzoqlar yuribdi. So'nggi telegraf xodasi hovliga ko'milgan bo'lib, simlar to'g'ri boyagi derazasiz hujraga kiradi. Eshigi ochiq ekan, asta kirdim. Telegraf apparati turgan stol yonida qop-qora jingalak sochli allaqanday bir janob o'tirardi; egnida parusinadan¹ tikilgan pijak. U xo'mrayib, ko'z qiri bilan menga boqqan bo'ldi-da, biroq shu zahotiyiq iljayib:

– Salom, arzimagan foyda! – deb so'rashdi.

Bu yigit gimnaziya bilan birga o'qigan va popiris chekani uchun ikkinchi sinfdan quvilgan o'rtog'im – Ivan Cheprakov

¹ *Parusina* – kanopdan to'qilgan qalin, pishiq mato.

edi. Bir vaqtlar, kuzakda ikkovimiz sa'va, mayna va to'rg'aylarni tutib, ota-onalarimiz uyg'onguncha saharlab bozorga eltib sotib keldik. Biz chug'urchuq uchib o'tadigan joyda pisib yotardik-da, gala ko'ringan hamon mayda sochma o'q bilan otardik va yarador bo'lib yiqilganini tutib olardik. Ba'zilari tuzalмай rosa azob chekib o'lardi; bu bechoralarning tuni bilan qafasda chiyillab chiqqanlari hali ham qulog'imdan ketmaydi. Tuzalغانlarini bozorga eltib, xaridorga yolg'ondan ont ichib, bu nar, deb bir amallab pullardik. Bir kuni qo'limda bitta chug'urchuq sotilmay qolgandi. Bozorda unga-bunga rosa ishqab ko'rdim va nihoyat, zo'rg'a bir tiyinga sotdim. Pulni cho'ntagimga solayotib: «Arzimagan foyda», deb yuboribman; o'sha-o'sha bo'ldi-yu, ko'chadagi bolalar va hamma gimnaziyachilar meni «arzimagan foyda» deb chaqiradigan bo'ldi; to shu damgacha bolalar va baqqollar ba'zan shuni aytib meni masxara qiladi, biroq bu laqabning qayerdan kelib chiqqani o'zimdān boshqa hech kimning esida qolmagan bo'lsa kerak.

Cheprakovning qaddi-qomati zaif; ko'kragi cho'kkan, bukchaygan, uzunoyoq bir yigit edi. Bo'yinbog'i eshilib ketgan, ichida nimcha yo'q, etigining poshnasi menikidan battar qiyshaygan edi. Ko'zlari onda-sonda bir kiprik qoqar, doim alanglab turar va bir nimani tutib olmoqchi bo'lganday hovliqaverardi.

– Qani, mundaq kel-chi! – dedi u hovliqib. – Oldin gapga quloq sol!.. Aytganday, nimani gapirayotuvdim?

Ikkovimiz uzoq gaplashdik. Turgan uyimiz yaqindagina shularniki bo'lib, kuzda muhandis Doljиковga sotilganini aytib berdi. Muhandis pul saqlashdan ko'ra mulk saqlash kerak, deb, o'lkamizda uch yerda yaxshi-yaxshi mulkni garovdan ajratib, arzonigina qo'lga kiritib olgan. Cheprakovning onasi mulkini sotayotgan paytida ikki yilgacha yonboshdagi hujrada turishni va o'g'liga idoradan biron xizmat berishni shart qilib qo'ygan ekan.

– Puli ko'paygandan keyin oladi-da! – dedi Cheprakov, muhandisni nazarda tutib. – Yolg'iz pudratchilardan shilgan puli ozmunchami? Shilmagan odami yo'q!

So'ngra meni tushki taomga boshlab, bundan buyon u bilan hujrada turishim va onasining uyidan ovqatlanishim lozimligini aytdi.

– Onam ziqna xotin, – dedi u, – lekin sendan ko'p pul olmaydi.

Onasi turgan xonalar juda tor bo'lib, joy sotilgandan keyin katta uydagi jihozlar shu yerga, dahliz va yo'laklargacha tiqib tashlangan ekan. Hammasi qizil yog'ochdan ishlangan qadimgi jihozlar. Cheprakova xonim xo'ppasemiz, ko'zi xitoylarnikiday qiyg'och, yoshi qaytgan bir ayol edi. Men uyga kirganda, deraza oldidagi katta oromkursida paypoq to'qib o'tirgan ekan. Meni xiyla takalluf bilan qabul qildi.

– Onajon, bu yigit Poloznev, – deb tanishtirdi Cheprakov. – Shu yerda xizmat qiladi.

– Siz zodagon oilasidanmisiz? – deb so'radi kampir yoqimsiz, g'alati bir ovoz bilan; semizligidan tomog'ida yog' biqirayotganga o'xshadi.

– Ha, – dedim.

– O'tiring.

Ovqatning mazasi bo'lmadi. Taxir suzma solingan pirog bilan sut oshi qo'yildi; Yelena Nikiforovnaning, ya'ni uy bekasining goh o'ng ko'zini, goh chap ko'zini qisadigan g'alati bir qilig'i bor ekan. Og'zi ovqatdan va gapdan sira tinmasdi, vajohatidan joni yo'q nar-saday, hatto murdaning hidi kelib turardi. Kampir o'lib-o'lmay, qolib-qolmay, qiltirab zo'rg'a yursa ham, burungi dag'dag'asidan sira tushmasdi; bir zamonlar shu zamindor kampirning o'z dehqonlari bo'lgan, eri general o'tgan, qarollari, labbay, begoyim, deb xizmatiga tayyor turgan. Mana, shu tobda ham o'sha davrlaridan qolgan xunuk odatlari esiga tushib, o'g'lini tergamochi bo'lardi:

– Jan!, qoshiq undoq ushlanmaydi, axir!

Yoki ora-sira noz-u tamanno va uh tortishlar bilan, mehmon zerkmasin, deganday, menga gapira boshlardi:

– Bilasizmi, biz qo'rg'onimizni sotdik. Albatta, achinamiz, chunki o'rgangan o'z joyimiz edi, lekin Doljikov Janni Dubechnya stansiyasiga boshliq qilaman, deb va'da bergan, demak, biz ko'chmaymiz, shu yerda qolamiz, o'z qo'rg'onimizday turaveramiz. Muhandis himmatli odam ekan. O'ziyam juda chiroyli deyman, siz nima deysiz?

Ilgari Cheprakovlar boy ekan, biroq general o'lgandan keyin ahvol butunlay o'zgaribdi. Yelena Nikiforovna qo'shnilari bilan

¹ Ruscha «Ivan» ismining fransuzcha (Jean) talqini.

chiqishmay sudlasha boshlabdi, gumashta va ishchilarning haqlariga tirriqlik qilibdi, mulkining talon-toroj bo'lish vahimasiga tushib, hadiksirayveribdi, natijada, o'n yil o'tar-o'tmas, Dubechnya tanib bo'lmaydigan ahvolga tushibdi.

Bu kattakon uyning orqa tomonidagi bog'ni ham burgan va butalar bosib, chakalakka aylangan edi. Men hali mustahkam va chiroyligina bo'lgan ayvondan o'tdim; oynali eshikdan parket polli bir uy ko'rindi, bu mehmonxona bo'lsa kerak; ichkarida qadimgi fortepyano turar, devorlariga qizil yog'ochdan ishlangan katta-katta ramkalardagi o'ymakor suratlar osilgan – boshqa hech narsa yo'q edi. Ilgarigi gulzorlardan faqat sallagul bilan lolalar qolibdi, bular ham endigina o'tlar orasidan bosh ko'tarib, qip-qizil va oppoq gullari zo'rg'a ko'rinardi; yo'l yoqalarida biri-biriga tutashib, zichgina o'sgan qayrag'och va zarang daraxtlarining novdalarini sigir g'ajib tashlabdi. Faqat uy tevaragi serdaraxt bo'lib, bu tomonda qadimgi xiyobondan teraklar, jo'ka va qarag'aylar qolgan va umuman, bu yoqdan qaralganda, bog' chakalakzorga o'xshar, narigi tomoni pichanzor qilish maqsadida daraxtlari kesila boshlaganidan xiyla sayhon bo'lib qolgan, bu yerda og'iz-burunga mezon yopishmas, odam dimiqmas, g'ir-g'ir shamol esib turardi, qanchalik nari borilsa, shunchalik bahavo va keng joylarga chiqilardi, olcha va olxo'rilar tirgovuch qo'yilgan shoxdor olmalar, baland-baland noklar ko'rinardi; noklarning bu qadar bo'ydorligidan nokligiga odam ishon-gisi kelmasdi. Bog'ning bu qismini bizning shahrimizdagi savdogarlar ijaraga olishgandi; mevalarni o'g'ri va chug'urchuqlardan qo'riqlash uchun ovsarroq bir mujikni qorovul qilib qo'yishgan va bu odam chaylada yashardi.

Bog'ning daraxtlari siyraklashib borib, keng pichanzorga chiqilar va etagi ko'm-ko'k qamish va sambit o'sib yotgan daryo bo'yiga tushardi; tegirmon to'g'onining yonboshida suv to'xtab, chiroyligina bir ko'l hosil bo'libdi; o'zi chuqur; baliqning koni; poxol tom ostidagi tegirmon taraqlab, qurbaqalar sayrab turibdi. Ba'zan baliqlar o'ynashib sakraganda oynaday tip-tiniq suv yuzida xilma-xil doiralar paydo bo'ladi, nilufargul ham chayqaladi. Daryoning narigi betida Dubechnya qishlog'i bor. Bu sokin, ko'm-ko'k ko'l kishini o'ziga maftun etar, salqin shabadadan inson bahramand bo'lar edi.

Hozir bu ko'l va tegirmon, bu shifobaxsh daryo bo'ylari muhandis Doljikov qo'liga o'tgandi!

Shunday qilib, men yangi xizmatimni boshladim. Men shoshilinchnomalarni o'zim qabul qilib, o'zim yuborardim; har xil hisobotlar tuzardim, chalasavod ishboshi va ustalar yuborgan talabnoma, shikoyat va bildirgilarni qaytadan ko'chirib yozardim. Lekin kun bo'yi deyarli bo'sh bo'lganimdan shoshilinchnoma kelishini kutib, u yoqdan bu yoqqa yurib turardim yoki biron bolani apparat qoshida qoldirib, bog'ni sayr etardim; bola oldimga borib, apparat chiqilladi, deb xabar berganda, qaytib kelardim. Cheprakova xonimnikida ovqatlanardim. Go'shtni kamdan-kam ishlatishar, aksariyat ovqatlari sutdan bo'lardi, chorshanba va juma kunlari esa faqat yovg'on ovqatga qantarishardi, tag'in uni taqvodorlik belgisi bo'lgan pushtirang likopchalarga suzib kelishardi. Cheprakovaning ko'z qisadigan xunuk qiligi uchunmi, ishqilib, yonida o'tirolmay g'ashim kelaverardi.

Bu yerdagi ish loaqal bir kishiga ham yetmagani uchun Ivan Cheprakov butunlay bo'sh, kun bo'yi yotib uxlar yoki miltig'ini olib, ko'lga o'rdak otgani ketardi. Kechqurunlari qishloqdan yoki stansiyadan mast-alast qaytar va yotish oldidan o'zini oynaga solib baqirardi:

– Assalomu alaykum, Ivan Cheprakov!

Mastligida rangi quv o'chib ketardi, qo'lini ishqalayverar va o'zidan-o'zi kulardi, kulishi biram xunuk, xuddi ot kishnaganday hi-hi-hi qilardi. Ust-boshlarini yechib tashlab, qip-yalang'och holda dalani aylanib chopaverardi. Jirkanmasdan pashshani yutib yuborib: nordongina ekan, deb qo'yardi.

IV

Bir kuni ovqatdan keyin u entikkanicha hujraga chopib kirdi-da:

– Yugur, opang keldi! – dedi.

Men chiqdim. Darvoqe, katta uyni zinatpoyasi oldida shahardan kelgan izvosh turibdi. Opam, Anyuta Blagovo, yana allaqanday harbiycha kitel kiygan janobni ko'rdim; yaqinroq borgach, uni tani dim: bu – Anyutaning akasi – harbiy doktor edi.

– Biz sayil qilib, siz tomonlarni aylanib ketgani keldik, – dedi u. – Maylimi?

Opam bilan Anyuta mening qanday o‘rmashib olganimni so‘ramoqchi bo‘lishdi-yu, negadir indamay menga tikilib turaverishdi. Men ham indamadim. Ikkisi ham bu joy menga yoqmaganini sezdi: opamning ko‘zlari yoshlandi, Anyuta esa qizarib ketdi. Boqqa chiqdik. Doktor hammamizdan oldinda borar va zavqlanib gapirar edi:

– Havoning tozaligini qarang! Xudo haqi, rosa bahavo joy ekan!

Sirtqi ko‘rinishidan bu odam hali talabaga o‘xshardi. Gaplari ham, yurish-turishi ham talabacha, ko‘kintir ko‘zlari ham aynan dilkash talabanikiday beg‘araz, sodda va sho‘xgina edi. Novchadan kelgan sohibjamol singlisining yonida u xipchagina va xiyla zaif ko‘rinardi; soqoli siyrak, ovozi ingichkaroq va yoqimli edi. O‘zi allaqaysi yurtda, polkda xizmat qilar, shu kunlarda ta‘tilga kelgan, kuzda Peterburgga borib imtihondan o‘tib, tibbiyot doktori nomini olish niyatida ekanini gapirib berdi. Hozir xotini va uch nafar bolasi bor ekan. U juda erta, ikkinchi kursda o‘qiyotganidayoq uylangan, biroq oilaviy turmushi behalovat, xotinidan alohida turgani shaharga ovoza bo‘lgandi. Opam tashvishlanib dedi:

– Soat nechchi ekan? Vaqtliroq qaytmasak bo‘lmaydi: dadam ukamni ko‘rib qaytish uchun faqat soat oltigacha ruxsat bergan.

– Uh, dadangazni qarang-u! – dedi doktor chuqur nafas olib.

Men o‘ziqaynar qo‘ydim. Ayvon oldiga gilam yozib, o‘sha yerda choy ichdik; doktor tiz cho‘kib likopchada choy ichar va huzur qilayotganini so‘zlardi. So‘ngra Cheprakov kalitni keltirib, oynali eshikni ochdi, hammamiz uyga kirdik. Ichkari g‘ira-shira yorug‘ va rosa xilvat joy edi, qo‘ziqorin hidi kelar, polini bossang – osti yerto‘laday gursillardi. Doktor fortepyano barmoqbosdilarini bosdi: bo‘sh Tob, qaltiroq, mungli sado eshitildi, lekin sozi hali aynimagandi; doktor tovushini rostlab, allaqanday bir romansni aytib berdi; ashula vaqtda biror barmoqbosdi ishlamay qolsa, oyog‘i bilan hadeb taqillatar va yuzlarini burishtirib g‘ijinardi. Opam uyga qaytishni ham unutib yubordi: u yoqdan bu yoqqa yurar va zavqlanib, hadeb:

– Men xursandman! Juda-juda xursandman! – derdi.

Uning ovozida boshqalar singari ko‘ngli chog‘ bo‘la olishiga ishonmagani va shu topdagi xursandchiligiga o‘zi hayron ekani bilinib turardi. Men uni umrimda birinchi marta shu xilda xursand ko‘rdim. Opam hatto ochilib ketdi. Yuzi chiroyli emasdi: yonbosh-

dan qaralsa – og‘zi va burni cho‘chchayib, xuddi bir nimani puflayotganday bo‘lib turardi, lekin ko‘zlari tim qora, yuzi oppoq, nozik va nafis, chehrasi ma‘yus va yoqimli edi; gapira boshlasa, husni ochilib tobora yashnayverardi. Biz, opa-uka aynan onamizga o‘xshaganmiz: bo‘liq, baquvvat va pishiq bo‘lib o‘sganmiz, biroq dardmandlikdan opamning rangi so‘lg‘in va oqishroq ko‘rinardi; tez-tez yo‘talardi va men uning ko‘zlariga qarab turib, biron jiddiy xastalikka duchor bo‘lganini va bu dardni yashirishga harakat qilayotganini gumon qilardim. Uning hozirgi xursandligi allaqanday samimiy soddalikni, bolalik chog‘imizni eslatardiki, yoshligimizning ajoyib tuyg‘ularini otamning qo‘pollik bilan tarbiyalashi juvonmarg qilgandi: mana hozir men opamda burungi xursandchilik uyg‘onganini sezdim.

Kech kirdi, otlar qo‘shilib, izvosh tayyor qilingach, opam birdaniga jim bo‘lib, ma‘yuslanib qoldi; so‘ngra aybdorlar kursisiga o‘tirayotganday, izvoshga tushdi-da, menga indamay jo‘nab keta-verdi.

«Ajoyib qiz! – deb o‘ylanib qoldim. – Alomat qiz!»

Havoriy Pyotr ro‘zasi kunlari kelib, birato‘la go‘shtsiz ovqatga o‘tib oldik. Xizmatimning tayini bo‘lmaganidan va bekorchilikdan zerikib qoldim, o‘zimdan o‘zim diqqat bo‘lib, bo‘shashib, och holda bog‘da salanglab yurar va bu yerdan ketish uchun qulay payt poylar edim.

Bir kuni kechqurun, ayni hujramda Redka o‘tirgan paytda Doljikov kirib keldi; hamma yog‘ini chang bosgan, basharasi oftobdan qorayib ketgan edi. Muhandis uch kungacha o‘z uchastkalarida bo‘lib, hozir Dubechnyaga parovozda kelgandi. Shahardan aravasi kelguncha gumashtasi bilan qo‘rg‘onni aylanib chiqdi va kerakli buyruqlar berdi; so‘ngra bir soat chamasi hujramizda allaqanday narsalarni yozib o‘tirdi. O‘sha paytda kelgan shoshilinchnomalarga o‘zi apparatda o‘tirib javob qaytardi. Biz uchalamiz qimirlamay qo‘tib turaverdik.

– Hamma yoq tartibsiz! – dedi u nafrat bilan daftarga boqib. – Ikki haftadan keyin men idorani stansiyaga ko‘chiraman; siz janoblarni nima qilishimniyam bilmayman.

– Janobi oliylari, men kuchimning boricha tirishayotibman, – deb yalinganday bo‘ldi Cheprakov.

– Tirishganingizni ko‘rib turibman: faqat maosh olishni bilasiz, – dedi muhandis ko‘zini mendan uzmasdan. – Faqat homiylaringizga ishonasiz, tezroq va osongina yo‘l bilan mansabga erishish payidan bo‘lasiz. Lekin men homiylaringizning yuzxotirini qilib o‘tirmayman. Men uchun hech kim jon kuydirib, o‘rtaga tushgani yo‘q. Temiryo‘l qurish topshirilguncha men oddiy mashinist bo‘lib, parovoz haydaganman, Belgiyada vagonlarga moy quyib, moylovchilik qilganman. Sen nima qilib yuribsan bu yerda, Panteley? – deb so‘radi u shartta burilib Redkadan. – Bular bilan sharobxo‘rlik qilayotgandirsan?

Muhandis hamma kambag‘alni Panteley deb chaqirardi, men bilan Cheprakov singari odamlardan hazar qilar va ro‘y-rost: «Sharobxo‘r, hayvon, ablah», deb haqorat qilaverardi. Umuman, u kichik xizmatchilarga nisbatan qattiqqo‘l bo‘lib, ularga jarima solar, surishtirmay ishdan haydab yuboraverardi.

Nihoyat, kutgan aravasi keldi. Ketayotib, ikki haftadan so‘ng hammamizni ishdan bo‘shatishini aytdi, gumashtasini befahm deb so‘kdi-da, izvoshda taltayib o‘tirib olib, shaharga jo‘nab ketdi.

– Andrey Ivanovich, – dedim Redkaga, – meni o‘z yoningizga olsangiz-chi! Ishchi bo‘lib ishlay qolardim.

– Mayli, men qarshimasman!

Shunday qilib, Redka bilan ikkimiz shahar tomonga yo‘l soldik. Qo‘rg‘on va stansiyadan ancha uzoqlashgach, men unga savol berdim:

– Andrey Ivanovich, rostini ayting-chi: Dubechnyaga kelganingizning sababi nima?

– Avvalo, sheriklarim shu yo‘lda ishlaydi, ikkinchidan, general oyimga foiz to‘lagani boruvdim. O‘tgan yoz shu sudxo‘rdan ellik so‘m qarz olganman, har oy bir so‘mdan shuning ijarasini to‘lab ketaman.

Bo‘yoqchi to‘xtadi, mening tugmachamdan tutib, o‘ylanib:

– Misail Alekseyevich, siz farishtaday begunohsiz, – dedi u. – Agarki, biron oddiy kishi yoki xo‘jayin puliga ijara oladigan bo‘lsa, men uni baloxo‘r, jinoyatchi deb bilaman. Unday odamda halollik, haqiqat bo‘lishi asti mumkin emas.

Redka ozib ketgan, rang-ro‘yi bo‘zargan, vajohatidan odam qo‘rqardi; u ko‘zlarini yumdi, afsuslanib bosh chayqadi va faylasuflar kabi quyidagi so‘zlarni aytdi:

– Ekinni shiradan, temirni zangdan, ko'ngilni egrilikdan asramoq darkor; Xudoyo, osiy bandalaringni O'zing asragaysan!

V

Redka xiyla tajribasiz va ko'p narsaga aqli yetmaydigan odam edi; hamisha o'z holiga qaramay, ortiqcha ish olib qo'yar va hisob-kitobga kelganda xavotirlanar, adashaverardi, natijada, muqarrar zarar ko'rardi. U bo'yar, oyna solar, devorlarga gulqog'oz yopishtirar va hatto tunuka qoqish ishlaridan ham qaytmasdi. Arzimagan bir buyurtma uchun uch kungacha zir yugurib tunukachi qidirgani esimda bor. Lekin Redka eng o'tkir ustalardan edi, ba'zi kunlari o'n so'mga yetkazib pul ishlardi. U negadir ishboshi bo'lishni, pudratchi deb atalishni havas qilardi, agar shu narsa bo'lmaganda, eng puldor odamlardan bo'lishi turgan gap edi.

O'zi ishbay asosda haq olardi, men va boshqa yigitlarga kunbay asosida kuniga yetmish tiyindan to bir so'mgacha to'lardi. Havo ochiq, kun issiq bo'lganidan biz imoratning sirtqi ishlari bilan, asosan tomning tunukalarini bo'yash bilan mashg'ul edik. Ilgari bunday yumushni qilmaganimdan tunukaning issiqligiga chidolmasdim, oyog'imga piyma kiysam – terlab-pishib ketardi. Borib-borib jazirama tunukalarni ham pisand qilmay, bemalol yuradigan bo'ldim. Men endi o'zini mehnat qilishga majbur va mahkum deb bilgan kishilar orasida yashay boshladim; bular aravakash otday ertadan kechgacha ishlab, ko'pincha mehnatning ma'naviy ahamiyatini payqamas va «mehnat» so'zini mutlaqo tilga olmasdi. Ular orasida yuraverib, men ham o'zimni aravakash otdan qolishmasligimni, shu xil ishlarga majbur va mahkum ekanimni tushundim; ko'nglim bundan tasalli topar va hayotim ancha yengillashganday bo'lar edi.

Birinchi kunlari har bir narsa menga qiziq va boshqacha ko'rindi, xuddi o'zimni yangidan tug'ilganday his qildim. Men yerda bemalol yotib ketaveradigan, yalang oyoq yuraveradigan bo'lib qoldim, bundan hatto rohatlanardim. Men oddiy kishilar orasida bemalol yuraverardim; agar ko'chada izvosh otining yiqilganini ko'rsam, yugurib borib, yordamlashib, turg'izib yuborardim va ust-boshim bulg'anadi-yu, degan fikr xayolimga ham kelmasdi. Eng yaxshisi shuki, o'z kunimni o'zim ko'rib, hech kimga og'irligim tushmasdi!

Tom tunukasini moylaganda, agar alifmoy va bo'yoqlari o'zimizdan bo'lsa – katta foyda qilardik; shuning uchun hatto Redka singari eng yaxshi ustalar ham noqulay va og'irligiga qaramay, shu ishga yopishardi. Kalta shimning pochalaridan qip-qizil, ingichka oyoqlari ko'rinib, tomda laylak singari yurardi; goho cho'tka bilan moy surayotib, og'ir nafas olar va menga:

– Azob, azob-u uqubatdan boshqasi biz osiy bandalarga nasib emas ekan! – derdi.

Uning uchun yer nima-yu, qiya tom nima – bemalol yuraverardi. O'zining xastaligiga, rang-ro'yi bir holatda bo'lib, beti murdani-kiday ekaniga qaramay, nihoyatda epatchil edi; eng baland cherkov gumbazlarini va minora uchlarini havoza qurmasdan, narvon qo'yib yoki arqon bog'lab chiqib, qo'rqmasdan moylayverardi, shu qadar baland va qaltis joyda g'oz turib olardi-da, o'zidan-o'zi sevgan so'zlarini takrorlardi:

– Ekinni shiradan, temirni zangdan, ko'ngilni egrilikdan asramoq darkor.

Yoki xayolida allanimalarni o'ylayotganidanmi, ba'zan o'zidan-o'zi gapirib yuborardi:

– Bo'lishi mumkin! Boshga tushsa, ko'z ko'raveradi!

Ishdan charchab uyga qaytganimda darvozalar oldida o'tirgan gumashta, dastyor bolalar hamda ularning xo'jayinlari ketimdan har xil gap tashlab, kulib, masxara qilardi. Oldin bu odamlarning gapi-dan juda bezor bo'ldim, bular ko'zimga baloday ko'rinar edi.

– Arzimagan foyda! – degan ovozlari har tomondan eshitilardi. – Bo'yoqchi! Hoy, oxra!!

Hammasidan ham alam qilgan joyi shuki, boshqalar indamasa ham, kechagina o'zlari kambag'al o'tib, qora mehnat orqali kun kechirgan kishilar bugun meni ayamay masxara qilardi. Shunisiga chidolmasdim. Savdo rastasida, temir-tersak do'koni yonidan o'tib borayotsam, biron bexosdan ustimga suv sochib yubordi, yana bit-tasi menga qarata tayoq uloqtirdi. Soqoli oppoq baliqfurush bir chol esa yo'limni to'sib oldi-da, g'azab bilan yuzimga tikilib:

– Sen ahmoqqa achinmayman! Otangga achinaman! – dedi.

¹ Sariq yoki qizil tusli mineral bo'yoq.

Yor-do'stlarim meni ko'rsa, negadir uyalib teskari qarashadigan bo'ldi. Ba'zilari meni ovsar yoki lo'ttiboz deb o'ylashar, ba'zilari holimga achinishardi, bir xili menga qanday munosabatda bo'lishini bilmas va o'zim ham ularning qandayligini tushunolmasdim. Bir kuni Katta zodagonlarning yonidagi tor ko'chalardan birida kelayotib, Anyuta Blagovoni ko'rib qoldim. Qo'limda ikki dona uzun dastali cho'tka bilan bo'yoq solingan chelak bor edi. Anyuta meni tanigan hamon qizarib ketdi.

– Sizdan o'tinaman: ko'chada men bilan salomlashmang, – dedi ovozi qaltirab, dag'allik va asabiylik bilan menga qo'lini ham bermadi, negadir birdaniga ko'zlari yoshga to'ldi. – Agar shu ishlarni o'zingizga ravo ko'rgan bo'lsangiz – mayli... Men hech narsa demayman, biroq menga yo'liqmasligingizni iltimos qilaman!

Men ortiq Katta zodagonlar ko'chasida turolmay, Makarixaning bir chekkasida yashovchi enagam Karpovnanikiga ko'chib bordim. Bu kampir ko'p mehribon, hamisha ma'yuslanib yurar va tushidan qo'rqr edi, uyga bironta asalari yoki ari uchib kirsa: bu yaxshilikdan darak bermaydi, deb gumonsirayverardi. Mening ishchi bo'lganimni ham: oxiri baxayr emas, deb qo'ya qoldi.

– Boshing kulfatdan chiqmaydi, bolam! – dedi enagam achinib, boshini chayqab. – Baloga qolding!

Enagam uyida asrandi bolasi Prokofiy degan yigit ham turardi. O'ttiz yoshlar chamasidagi bu yigit qassoblik qilar, gavdadan Xudo bergan, lekin o'lguday qovushmagan, sap-sariq bir odam edi. Men bilan dahlizda uchrashib qolsa – darhol yo'l berar va agar kayfi bo'lsa – besh panjasini chakkasiga tirab harbiycha salom berishga urinardi. Kechqurunlari ovqat orasida ketma-ket qadahlarni bo'shatayotib, kekirganini va chalp-chulplarini men taxtadevor orqasidan bemalol eshitib yotardim.

– Onajon! – deb zo'rg'a chaqirardi.

– Nima? – degan ovoz darhol eshitalardi. Karpovna uni juda yaxshi ko'rardi. – Nima deysan, bolam?

– Menga qilgan mehribonchiliklaringizni qaytaraman, onajon! Bu dunyoda sizni umr bo'yi boqaman, o'lganingizdan keyin o'zim ko'maman, butun sarf-xarajatlarni o'z gardanimga olaman. Gapim – gap!

Men doim kun chiqmay turib uyg'onardim va barvaqt yotardim. Biz bo'yoqchilar ovqatni ko'p yeb, qattiq uxlardik, negadir kechasi yuragimiz qattiq urib chiqardi. O'rtoqlarim bilan men inoq edim. Sheriklarim orasida bekordan-bekorga qasam ichish, har gapga: «ko'zim oqib tushsin, juvonmarg bo'lay»ni aralashtirish odat bo'lib ketgan va ertadan kechgacha shundan qulog'im tinmasdi. Shundayligiga qaramay, hammamiz aka-ukaday totuv yashardik, sheriklarim meni dindar gumon qilishar va: otang ham sendan kechib yubordi, deb hazillashardi; bular onda-sonda cherkovga borganini, ko'pchiligi o'n yillab ibodatxona yuzini ko'rmaganini gapirib: «Qushlar orasida zog'chani, insonlar orasida bo'yoqchini Xudo shunday qilib qo'yan», deb o'zlarini oqlamoqchi bo'lardi.

Sheriklarim meni yaxshi ko'rar va hurmat qilardi; aftidan, ichkilik ichmaganim, popiris chekmaganim, tinch va sipo turmush kechirganim ularga yoqqan bo'lsa kerak. Faqat ularga qo'shilib alifmoy o'g'irlamaganim va xo'jayindan choy puli so'ramaganim uchun mendan biroz yotsirashardi. Xo'jayinning alifmoy va bo'yog'ini o'g'irlash bo'yoqchilar orasida rasm bo'lib ketgan va bu narsa o'g'irlikka ham kirmaydi, hatto eng halol odamlardan hisoblangan Redka ham hamisha ishdan qaytganda biroz alifmoy va oqbo'yoq olib ketardi. Choy pulini bo'lsa-ku, Makarixada uyi, joyi bor, tuppatusuk chollar ham uyalmay so'rashaverardi. Men ish boshlanganda yoki tamomlanganda, bir gala sheriklarimning pastkash xo'jayin oldiga borib, «muborak bo'lsin» qilganlariga va bergan yarim tangasi uchun qayta-qayta qulluq qilganlariga g'ashim kelib, uyalganimdan yerga kirib ketgim kelardi.

Bo'yoqchilar xuddi quv vazirlar singari xo'jayinning pinjiga kirib olishardi va deyarli har kuni men Shekspir Poloniysining¹ qiqliqlarini ko'rib turardim.

Xo'jayin osmonga qarab:

- Yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi, – desa, bo'yoqchilar ham:
- Yog'adi, albatta, yog'adi! – deb baravar takrorlashardi.
- Har holda, qora bulut ko'rinmaydi, yog'masa kerak.
- Yog'maydi, janobi oliylari! Rost aytasiz, yog'maydi.

¹ Atoqli ingliz shoiri va dramaturgi Uilyam Shekspirning «Hamlet» asaridagi Poloniy nazarda tutilmoqda. U asarda qirolning maslahatchisi, shu bilan birga, g'iybatchi va ikkiyuzlamachi sifatida tasvirlanadi.



Bular, umuman, buyurtmachilarning orqasidan gapirib, masxara qilishni yaxshi ko'rardi; bironta xo'jayinning ayvonda gazeta o'qiganini ko'rishsa, gap to'qishardi:

– Och qoringa gazeta o'qishini qara! Uyida ovqat ham topilmasa kerak.

Men uyimizga sira bormay qo'ydim. Ko'pincha ishdan qaytgach, opam qoldirgan qisqa va tahlikali xatlarni olib o'qirdim. Bechora opam otam to'g'risida yozar – goh ovqat ustida xayol surib, hech nima yemaganini, goh o'zidan-o'zi galdirab ketganini, goh kabine-tini ichidan berkitib olib, tashqariga chiqmay qo'yganini aytar edi. Bunday xabarlar menga qattiq ta'sir etib, kechalari uxlo olmaydigan bo'ldim va hatto bir kuni yarim kechada Katta zodagonlar ko'chasidan yurib, uydagilarning tinch-omonligini bilmoq uchun dera-zalaridan mo'ralab, ko'p ovora bo'ldim. Yakshanba kunlari opam enaganikiga borish bahonasi bilan yashirincha meni ko'rgani kelardi. Men uni doim ranglari so'lg'in, ko'zlari yig'idan parishon holda ko'rardim; kelishi bilanoq yig'lay boshlardi.

– Otamning bu malomatlarga bardosh bera olishiga ko'zim yetmay qoldi, Misail, – derdi bechora. – Xudo ko'rsatmasin, agar unga bir gap bo'lsa, umring vijdon azobi bilan o'tadi! Bu yaxshimas. Misail! Onamizning muborak xotiralari hurmati, sendan yalinib so'rayman; bu yo'lingdan qayt, ukajon!

– Opajon, onamdan qolgan yagona yodgorim, mehribon opajonim! – deb yalinardim. – Men qanday qilib yo'limdan qaytaman? Bu yo'lga meni vijdonim boshlagan-ku! Buni tushuning, axir!

– Tushunaman, vijdon izmida ekaningni bilaman, Misail, biroq hech kimni ranjitmaydigan, boshqacharoq yo'ldan borsangmikin deyman, uka!

Eshik orqasidan kampirning oh-vohlari eshitaladi:

– He, tavba, tavba! Boshing kulfatdan chiqmaydi endi! Baloga qolding, bolam, baloga qolding!

VI

Yakshanba kunlaridan birida to'satdan doktor Blagovo kirib keldi. Shoyi ko'ylak ustidan kitel kiygan, oyog'ida baland poshnali amerikacha etik. Talabachasiga qo'llarimni mahkam siqib ko'rishdi.

– Sizni ko‘rgani keldim. Har kuni ta‘rifingizni eshitaverib, sizni ko‘rish orzusida edim, yurak chigillarini yozib, bir gaplashgim keldi. Shaharda gapga tushunadigan bironta inson ko‘rinmaydi, zerikib o‘lib bo‘ldim. Aksiga olib, havoning isiganini qarang! – doktor kitelini yechib qo‘ydi. – Qani, azizim, ikkimiz bir gaplashib olaylik-chi!

O‘zim ham rosa zerikib, ko‘pdan beri bo‘yoqchilardan boshqa biron kishining suhbatida bo‘lish orzusida edim, shuning uchun doktorning kelganiga astoydil suyundim.

– Avvalo, men chin ko‘ngildan sizga xayrixoh ekanimni va turmushingizga hurmatimni bildirmoqchiman; haqiqatdan bu hayotingiz hurmatga sazovor desa bo‘ladi. Bu yerdagilar sizni tushunmaydi va bu tabiiy, chunki shahrimizda gapga tushunadigan odamning o‘zi yo‘q, tuzugi ahyon-ahyonda uchraydi, ko‘pchiligi, Gogol aytganday, cho‘chqa bo‘lib, yer titkilaydi. Men o‘sha bog‘ sayliga borganimiz-dayoq kimligingizni ajratib olganman. Siz – oqko‘ngil, halol va pokiza oliyjanob bir kishisiz! Men sizni chindan hurmat qilaman va bu qo‘llaringizni siqmoqni o‘zim uchun ulug‘ bir sharaf deb bilaman! – Doktor hayajonlanib gapira boshladi. – Kishi o‘z hayotida siz kabi keskin va qat‘iy burilish yasamoq uchun eng og‘ir ruhiy holatlarni boshidan kechirgan bo‘lishi shart. Endi shu ajoyib yo‘ldan qaytmaslik va har vaqt o‘z maslagingizga munosib darajada bo‘lishingiz uchun siz tun-u kun aqlan va ruhan tinmay ishlashingiz lozim. Suhbatimizning boshida men sizdan shuni so‘ramoqchiydim: agar siz o‘tkir irodangizni, butun g‘ayratingizni, shu noyob aql-u idrokingizni boshqa bir yo‘lga, masalan, zamonasi kelib, ulug‘ olim yoki mashhur rassom bo‘lish maqsadiga sarf etsangiz – qalay bo‘larkin? Ana shunda hayotingiz chuqur va keng ma‘nolarga erishib, ishingiz hamma tomondan samaraliroq bo‘lmasmidi?

Biz uzoq so‘zlashib ketdik; gapimiz jismoniy mehnatga kelib yetganda, men shundan bir fikrni o‘rtaga tashladim: kuchli odamlar kuchsizlarni ezmasligi uchun, ozchilik ko‘pchilikning qonini kana yoki nasos kabi mudom so‘rmasligi uchun – kuchlig-u kuchsizlar, boy-u kambag‘allar, ishqilib, hamma odam bab-baravar, baholi-qudrat yashash uchun kurashmog‘i, har kim o‘zi uchun ishlamog‘i kerakligini aytdim. Bu maqsadni amalga oshirmoq hamda odamlar orasidagi farqni yo‘qotmoq uchun eng yaxshi chora jismoniy mehnat

ekanini, faqat umumiy va majburiy mehnatgina hammani baxtiyor qila olishini astoydil unga tushuntirmoqchi bo'ldim.

– Demak, sizning fikringizga qaraganda, jismoniy mehnat bilan istisnosiz hamma shug'ullanishi kerak. Shundaymi? – deb so'radi doktor.

– Ha.

– Bordi-yu, hamma odam, shu jumladan, ulug' mutafakkir va mashhur olimlar ham yashash uchun kurashib, har qaysisi o'zi uchun ishlashga, qimmatli vaqtlarini tosh maydalashga, tom bo'yashga sarflaydigan bo'lsa – taraqqiyotimiz uchun jiddiy xavf tug'ilmasmikin? Bunga nima deysiz?

– Nechuk xavf tug'iladi? – deb so'radim. – Axir, taraqqiyot insonning bir-biriga muhabbatidan, axloq qonunlarini bajarishidan iboratmasmi? Agar siz hech kimga zulm qilmasangiz, birovga malol keltirmay, o'z tirikchiligingizni o'zingiz qiladigan bo'lsangiz, tag'in qanaqa taraqqiyot kerak ekan?

– Yo'q, undaymas! – Blagovo qizishib o'midan turdi. – Menga qarang, axir! Agar shilliqqurt ham chig'anog'ida ivirsib o'z shaxsini takomillashtirishga urinsa va axloq qonunlarini titkilay boshlasa – shuyam taraqqiyot hisoblanadimi?

– Nima uchun titkilar ekan? – deb mening jahlim chiqdi. – Hozirgi hayotimizning boshdan oyoq qullik asosiga qurilganini bilasiz. Agar ko'pchilikni ozchilikni boqishga, kiyintirishga, izvoshta olib yurishga, dushmandan himoya qilishga majbur qilinmasa, ya'ni har kim o'z mehnati orqaligina yashaydigan bo'lsa – axir, shuning o'zi taraqqiyotmasmi? Menimcha, inson uchun birdan-bir mumkin va kerak bo'lgan asl taraqqiyot shunday bo'ladi.

– Kishilik jamiyati, ya'ni dunyo miqyosidagi taraqqiyotning chegarasi yo'q; shuning uchun men bizdagi mavjud ehtiyojlardan yoki muvaqqat nazariyalardan kelib chiqqan: «mumkin va kerak» deyilgan taraqqiyotlar to'g'risida bahslashib o'tirishni kulgili deb bilaman.

– Agar, siz aytganday, taraqqiyotning chegarasi bo'lmasa, demak, maqsadlariyam muayyanmas ekan, – dedim. – Inson nima maqsadda yashaganini o'zi bilmasa – g'alati bo'ladi-ku!

– Mayli! Lekin sizdagi «bilimdonlik»dan ko'ra shu «bilimsizlik» insonga ko'proq asqotadi... Men zinadan yuqori chiqaman, bu zina-

ning nomi: taraqqiyot, tamaddun, madaniyat; qayoqqa chiqayotganimni aniq bilmasam ham, to'xtamay chiqaveraman; darhaqiqat, ana shu ajoyib zinning o'zi uchun inson tarmasha, yashashga urinsa arziydi. O'zingiz nima maqsadda yashayotganingizni bilasizmi? Siz birov birovni ezmasligi uchun, rassom bilan unga bo'yoq tayyorlab beruvchi kishi bir xilda ovqatlanishi uchun yasharkansiz. Biroq bu narsa – hayotning eng qizig'i yo'q, ikir-chikirdan iborat bo'lgan meshchanlik tomonimasmi? Nahotki, inson faqat shuni deb yashasa?! Bunday bemaza hayotdan hazar qilmoq kerak. Agar qurt-qumursqalar biri ikkinchisini ezib, zo'ravonlik qilsa, sadqayi sar, sira parvo qilmang, mayliga, bir-birini yeb qirilishaversin! Bizga yuklangan vazifa – bularning tashvishimas; biz g'amxo'rlik qilib qullikdan qutqarganimiz bilan, baribir, ular qirilib chirib ketadi; biz hozir – ko'p zamonlardan keyin insoniyat olamiga nasib bo'lg'usi ulug' va noma'lum kelajak to'g'risida o'ylashimiz kerak.

Blagovo men bilan qizg'in bahslashayotgan bo'lsa ham, allaqanday bir narsadan bezovtalangani sezilib turardi.

– Opangiz kelmaydiganga o'xshaydi, – dedi soatiga qarab. – Kecha u biznikiga borgan va bugun bu yerga kelmoqchiydi. Siz haddeb: qul, qullik, deysiz, – dedi boyagi gapini davom ettirib. – Bularning hammasi ayriча masalalar, lekin umumiy masala-yu savollarni insoniyat asta-sekin, o'z-o'zidan hal qilaveradi.

Suhbatimiz asta-sekinlik masalasiga ko'chdi. Men, yaxshilik yoki yomonlik qilishni har kim o'z bilganicha hal qiladi va bu masalani asta-sekin insoniyat hal qilib berarkan, deb kutib o'tirmaydi, dedim. Bundan tashqari, asta-sekinlikning ikki tomoni bo'ladi. Insonparvarlik g'oyalarning asta-sekin taraqqiyoti bilan bir qatorda, boshqacha g'oyalarning ham asta-sekin o'sib kelayotganini ko'ramiz. Hozir dehqonlik huquqi yo'q, biroq kapitalizm o'sib kelyapti. Hatto ozodlik g'oyalari rosa taraqqiy topgan shu kunlarda ham, xuddi Botuxon zamonasidagidek, ozchilikni boqish, kiyintirish, himoya qilish ishlari yana ko'pchilikning gardanida, o'zlari bo'lsa boyagiday och, yalang'och va himoyasiz yurishibdi. Xilma-xil yangi yo'l va ajoyib fikrlarni targ'ib etuvchi kishilar bo'lsa, shu razil ahvolni tabiiy bilib, ko'z yumib ketaveradi, chunki ezish san'ati ham asta-sekin taraqqiy etadi, ozchilik ko'pchilikni asta-sekin, aldab-aldab qul qilib oladi. Hozir malaylarimizni qadimgiday otxonaga qamab savalashlar yo'q,

albatta, lekin biz qul qilish bobida eng nozik-nozik usullarga ega bo'lib olganmiz va har safar insonni xo'rlarkanmiz – g'alati-g'alati vajlarni keltirib, o'zimizga sira suv yuqtirmaymiz. G'oyalarimiz – g'oyaligicha qolib ketdi. Agar qo'limizdan kelsa-ku, biz xozir, shu o'n to'qqizinchi asrning oxirida, g'oya tomonini surishtirmasdan oq umumiy jirkanch jismoniy hojatlarimizni ham ishchilarga yuklab qo'ya qolardik-da, o'zimizni oqlash uchun uyalmasdan: ulug' zotlar, mutafakkirlar va olimlar qimmatli vaqtlarini hojat ishlariga sarf etadigan bo'lsa – taraqqiyotimizga jiddiy xavf tug'iladi, deb yuraverdik.

Nihoyat, opam ham keldi. Doktorni ko'rishi bilan tipirchilib, hovliqib qoldi va shu ondayoq ketmasa bo'lmasligini, uyda otam kutib o'tirganini aytib shosha boshladi.

– Kleopatra Alekseyevna! – deb yalindi Blagovo, ikki qo'lini astoydil ko'ksiga bosib. – Agar siz men bilan ukangiz yonida yarim soatgina turib kechikib borsangiz, dadangizga bir gap bo'lib qoladimi?

Doktor ochiqko'ngil va quvnoq odam bo'lgani uchun yonidagilarni birpasda o'ziga el qilib olardi. Opam biroz o'ylagandan so'ng, birdaniga chehrasi ochilib, kuldi va o'sha bog' sayilidagiday yashnab ketdi. Biz dalaga chiqib, ko'katzor ichida yonboshlab oldik-da, suhbat aralash uzoqdan shaharni tomosha qila boshladik: kun botish payti bo'lganidan g'arbga qaragan derazalar quyosh nurida zarvaraqday tovlanib, yalt-yalt etardi.

Ana shu uchrashuvdan so'ng har doim opam kelsa, ketidan, albatta, Blagovo ham kirib keladigan bo'ldi. Ikkisining so'rashishini ko'rgan odam: bular tasodifan duch kelib qolishgan bo'lsa kerak, deb gumon qilardi. Doktor bilan mening bahslarimizni opam zehn solib tinglab o'tirar, chehrasidan zavqlanayotgani, ko'ngli iyib, orom olayotgani sezilib turardi va men uning ko'z oldida yetti uxlab tushiga kirmagan yangi bir olamning namoyon bo'la boshlaganini payqardim, opam buning sir-u asrorini bilmoqqa intilardi. Doktor bo'lmagan paytlarda ko'pincha uning jim va ma'yuslanib o'tirganini ko'raman. Hozir ham goho karavotimda o'tirib yig'laydi-yu, biroq sababini bilolmayman: opam menga sirini aytmaydi.

Av gust oyida Redka hammamizni yo'lga chiqishga buyurdi. Shahardan jo'nashimizdan ikki kun avval otam mening qoshimga keldi. U o'tirdi, shoshmasdan va menga qaramasdan qizargan yuzla-

rini artdi, so'ngra shahrimizda chiqadigan «Xabarnoma» gazetasini cho'ntagidan oldi-da, har bir so'zini salmoqlab o'qiy boshladi. Unda Davlat banki mudirining o'g'li, ya'ni mening tengdoshim – hozir davlat palatasi bo'limining boshlig'i qilib tayinlangani xabar berilgandi.

– Ana endi o'z ahvolingga nazar solgin-chi! – dedi otam gazetani yig'ishtirib. – Sen bir gadoy, chuvrindi, ablah bo'lib ketding! Hattoki, meshchan-u dehqonlar odam bo'larmikinman deb ma'lumot olish harakatida, biroq sen bo'lsang – mashhur va mardona Poloznevlar nasl-nasabini xorlab, o'zingni loyga bulg'ayapsan! Lekin men bu yerga sen bilan gap sotishib o'tirgani kelganim yo'q, sendan allaqachonoq qo'limni yuvib qo'ltig'imga artganman, – dedi o'rmidan turayotib, bo'g'iq ovoz bilan. – Men opang qayerdaligini bilmoqqa keldim. Opang qani, ablah? Tushki ovqatdan so'ng uydan chiqib ketgandi, mana, hozir soat yettidan oshdiki, haliyam daragi yo'q. Mendan ijazatsiz tez-tez ketaveradigan odat chiqarib oldi, meni pisand qilmay qo'ydi; hammasi sening kasofating, sening yaramas ta'siring oqibati. Opang qani, deyman?

Yana qo'lidagi o'sha dardisar soyabonga ko'zim tushib, qo'rqib, dovdirab qoldim, maktab bolasi singari otamning savalashini kutib, avvalgiday tayyor turishimga sal qoldi, biroq mening soyabonga qaraganimni payqadi, shekilli, o'zini bosib oldi, urmadi.

– Istaganingcha yashayver! – dedi otam. – Men seni oq qildim! Sendan rozimasman!

– Voy, sho'ring qursin! – deb javrab ketdi enaga. – Peshonang sho'r ekan! Ko'nglim sezib turibdi, bir baloga uchraysan endi, bechora bolam!

Men yo'lda ishladim. Butun avgust oyi tinmay yomg'ir yog'di; kun sovuq, hamma yoq zaxlab ketgandi; daladan don-dun kelmay qoldi. Katta xo'jaliklarda bug'doyni mashina bilan o'rib, bog'lamasdan g'aram-g'aram qilib tashlangandi. Bu g'aramlarning kundan-kunga qorayib, doni unayotganini ko'rib achinardim. Ish juda og'irlashdi, qilgan ishimizni jala yuvib ketdi. Stansiya uylarida turishga ruxsat berilmaganidan, yozda «cho'yanchilar» qazigan iflos va zax yerto'lalarda tiqilishib yashardik; oppoq tong otguncha men sovuqdan qaltirab, uxlamay chiqardim, buning ustiga, bet va qo'llarimda eshakqurt o'rimalayverib, g'ashimni keltirardi. Ko'prik atrofida ishlagan paytlarimizda kechqurunlari «cho'yanchilar» jonimizga tegardi; bu-

lar gala-gala bo'lib bizni urgani kelar va bundan oyoq-qo'llarining chigili yozilganday rohatlanishardi. Bizni do'pposlashar, bo'yoq cho'tkalarimizni o'g'irlashar va ataylab g'azabimizni qo'zg'atib, to'polon, mushtlashish chiqarmoq uchun tayyor ishlarimizni bu- zib ketishar edi; masalan, endigina qo'ldan chiqqan yangi uycha- ga ko'k bo'yoq chaplab, rasvo qilishardi. O'lganning ustiga tepgan, deganday, Redka ham pulimizni vaqtida to'lamaydigan bo'lib oldi. Uchastkadagi hamma bo'yoq ishlarini pudratchi baholab olib, bosh- qa bir odamga o'tkazgan; bunisi – yigirma foiz haq to'lash shar- ti bilan Redkaga topshirib ketgandi. Bundan foyda chiqmasligini hammamiz bilardik, aksiga olib, yomg'ir tinmay, ertadan kechgacha bekor yurardik; Redka esa, ishlasak-ishlamasak, bizga kunbay haq to'lashga majbur edi. Och qolgan bo'yoqchilar uni: qonxo'r, mutta- ham, dinini sotgan, deb so'ka boshladi, do'pposlashlariga sal qoldi; bechora oh tortar, qo'llarini osmonga ko'tarib, najot tilar va kunora Cheprakova xonimdan ijaraga pul so'ragani borardi.

VII

Yomg'ir va loygarchilikni boshlab kech kuzak kirib keldi. Ish- sizlik boshimga tushdi. Men uch kunlab uyda bekor o'tiradigan yoki duch kelgan og'ir ishlardan ham qaytmaydigan bo'ldim; ba'zan ertadan kechgacha tuproq tashib yigirma tiyin pul topib kelardim. Doktor Blagovo Peterburgga jo'nab ketdi. Opam ham kelmaydigan bo'ldi. Redka kasal bo'lib, o'lim to'shagida yotardi.

Ta'bim nihoyatda xira edi. Ehtimolki, bunga ishchi bo'lganimdan keyingina shahar turmushining haqiqiy basharasini ko'ra boshlaga- nim sababdir. Men deyarli har kuni biron yaramas ahvolni ko'rib turar, tepa sochim tikkayib, qattiq g'azablanar edim. Ilgari men un- chalik bilmagan yoki ko'zimga sirdan tuppa-tuzuk ko'ringan ham- shaharlarimning haqiqatda eng pastkash, muttahaam, hech nimadan qaytmaydigan zolim va yaramas odamlar ekanini endi tushun- dim. Bizdek kambag'allarni haqorat etishar, aldashar va haqimiz- ga xiyonat qilishar edi, necha soatlab sovuq dahlizda kutdirishar va umuman, bizni odam qatoriga qo'shishmas edi. Kuzakda men klub qiroatxonasi bilan ikki uyga gulqog'oz yopishtirib berdim. Bir o'ramini yopishtirganim uchun menga yetti tiyindan haq to'lashdi- da, biroq o'n ikki tiyindan qo'l qo'ydirib olishmoqchi bo'lishdi.

Men ko'nmadim. Shu yerda ko'rinishi tuppa-tuzuk, tilla ko'zoynak taqqan bir odam turgandi, o'zi klub kattakonlaridan bo'lsa kerak, menga o'dag'ayladi:

– Agar sen, ablah, gapni cho'zadigan bo'lsang, afti-basharangni majaqlab tashlayman!

Xizmatkor uning qulog'iga shivirlab, men me'mor Poloznevning o'g'li ekanimni aytganda, biroz xijolat bo'lib, qizardi-da, biroq darhol o'zini tutib olib:

– Sadqayi sar! – dedi.

Qassoblar biz ishchilarga hidlangan go'shtni, baqqollar mita bosgan un va shamani pullardi; cherkovga kirsak – mirshab turtkilar, kasalxonada yotsak – feldsher bilan hamshiralar bor-yo'g'imizni shilib olardi, agar kambag'allikdan pora berolmasak – qasddan yuvuqsiz idishda ovqat berishardi; pochtdagi eng past mansabli xizmatchilar hayvonga qilinadigan muomalani bizga ravo ko'rar: «Shoshmasangchi! Nari tur!» deb baqirib so'kishardi. Hatto qo'radagi itlar ham bizni yoqtirmay, jon-jahdi bilan talardi. Lekin o'sha g'arib va og'ir kunlarimda menga eng yomon ta'sir etgan narsa – olamda haqiqat yo'qligi ediki, xalqimiz buni «Xudoni unutishdi», deb ta'birleydi. Tovlamachilak va muttahamlik oralamagan biron kun yo'q edi. Bizga alifmoy sotadigan savdogarlar ham, pudratchi-yu buyurtmachilar ham, hatto o'z sheriklarim ham firib ishlatardi. O'z huquqimiz to'g'risida og'iz ocholmas va hatto ishlagan haqimizni ham orqa eshikdan kelib, boshyalang turib, xuddi sadaqa so'rayotganday olar edik.

Bir kuni kechqurun men klub qiroatxonasi yonidati bir uyda gulgog'oz yopishtirayotgandim, muhandis Doljikovning qizi bir das-ta kitoblarni ko'tarib, shu yerga kirib keldi.

Men unga ta'zim etdim.

– Ha, yaxshimisiz? – dedi u meni tanib va darhol qo'l berib so'rashdi. – Sizni ko'rib, juda xursand bo'ldim.

Qiz kulimsiradi, hayron bo'lib mening jomakorimni, chelakdagi shirach va yerga yoyib tashlagan gulgog'ozlarni birma-bir tomosha qildi. Men qizardim, u ham o'ng'aysizlanib qoldi.

– Sizga bu xilda tikilib qaraganim uchun meni kechirasiz, – dedi u. – Odamlar menga sizni ko'p gapirishdi. Ayniqsa, Blagovo maq-taydi – do'xtirning sizga e'tiqodi juda baland. Opangiz bilan ham

tanishib oldim; xushfe'l, istarasi issiqqina qiz ekan, biroq men: ukangizning oddiylashganiga kuymang, buning hech qanday yomon tomoni yo'q, deb shuncha gapirsam ham tushunmadi. Tirikchilikning aybi yo'q, aksincha, hozir shahardagi eng ajoyib odam sizsiz!

U yana bir karra chelak va gulqog'ozlarga qarab chiqdi-da, gapida davom etdi:

– Men do'xtir Blagovodan siz bilan tanishtirib qo'yishini iltimos qilgandim, biroq u unutdimi yoki vaqti to'g'ri kelmadimi, ishqilib, tanishtirmadi. Qanday bo'lmasin, endi tanishmiz, agar vaqtingizni ayamay va tortinmay biznikiga kelolsangiz – boshim osmonga yetardi. Siz bilan suhbatlashish orzusidaman. Men oddiy bir kishiman, – dedi u menga qo'lini uzatib, – bermalol o'tirib, qaytasiz. Uyda dadam yo'q, u hozir Peterburgda.

Qiz etaklarini shildiratib, qiroatxonaga chiqib ketdi va men uyga qaytgach, ne vaqtgacha uxlolmadim.

O'sha noxush kuzda rahmdil bir kimsa g'arib jonimga oro kirdi. Men uning kimligini bilmasdim. Menga har zamonda goh choy, goh limon, goh pechenye yoki qovurilgan bulduruqlarni yuborib turardi. Karpovna bu narsalarni har safar bir askar olib kelganini aytardi, biroq kim yuborganini u ham bilmasdi; askar hamisha mening sog'lig'imni, vaqtida ovqat yegan-yemaganimni, issiq kiyimim bor-yo'qligini surishtirarkan. Sovuq tushgandan keyin bir kuni men uyda yo'q paytda yana o'sha askar yumshoqqina momiqdan to'qilgan sharfni berib ketibdi. Sharfdan nafisgina, bilinar-bilinmas muattar hid kelardi, men g'amxo'r parining kimligini darhol topdim. Sharfga xuddi Anyuta Blagovoning suygan marvaridgul atiri sepilgandi.

Qishda yana ish ko'payib, ko'nglim asliga keldi. Redka yana tuzaldi va ikkimiz qabriston cherkovidagi ikonostasni andavalab, zarhal surishga tayyorladik. Bu juda ozoda, tinch va bo'yoqchilar aytganiday, unumli ish edi. Bir kunda anchagana pul topish mumkin edi, ishdan charchamasdik, vaqtning o'tib ketganini sezmay qolaridik. So'kinish, kulish, baqirib gapirish bu yerda mutlaqo mumkin emas. Joyning o'zi har qanday kishini sukutga, vazminlikka undaydi, jiddiy va chuqur xayollarga boshlaydi. Turib yoki o'tirib, as-toydil ishlayotgan holatimizmi chetdan ko'rgan odam bizni haykal deb gumon qilishi mumkin; hamma yoqni og'ir sukunat, qabriston jimligi bosgan, hatto bir asbob-uskuna yerga tushsa yoki sham-



chiroqdagi olov chirsillasa – butun cherkov ichi guldurab ketar va biz cho‘chib tushardik. Uzoq jimjitlikni ba‘zan arining uchishiga o‘xshash g‘o‘ng‘illagan ovozlari buzardi; goho bu ovoz qabriston ayvonida biron go‘dakning janozasi sekin-sekin o‘qilayotganiday yoki gumbazga kabutar va yulduzlar suratini solayotgan rassomning ohista sizg‘irganiday eshitalardi; rassom beodoblik qilganini payqab, birpasda jim bo‘lardi; Redka ham goho o‘zidan-o‘zi xo‘rsinib, ko‘nglidagi savollarga javoban: «Hamma narsa bo‘lishi mumkin! Boshga tushsa – ko‘z ko‘raveradi!» deb qo‘yardi; ba‘zan tepamizdagi butxona qo‘ng‘iroqlarining vazmin va ma‘yus sadolari eshitala boshlardi va bu dabdabadan biz bironta boyning o‘ligi kelayotganini payqardik...

Men kunni shu jimjit va g‘ira-shira qorong‘i cherkovda o‘tkazar, uzoq kechalari esa ishlagan pulimga olgan yangi libosimni kiyib olib, bilyard o‘ynashga yoki boloxonada o‘tirib spektakl ko‘rishga chiqib ketar edim. Shu kezlarda Ajoginanikida spektakl va konsertlar qo‘yila boshladi; dekoratsiyalarini hozir Redka yolg‘iz o‘zi ish-lardi. U Ajoginanikida qo‘yilgan pyesa va tomoshalarning mazmunini so‘zlab berganda rosa havasim kelib, ichim kuydi. Ajoginanikiga borgim kelib, o‘lib tursam ham yuzim chidamadi.

Rojdestvo hayitiga bir hafta qolganda, doktor Blagovo Peterburgdan keldi. Yana qadimgi bahs-munozaralarimiz boshlandi; oqshomlari bilyard o‘ynashdan bo‘shamasdik. O‘yin paytida u kamzulinini yechar, ko‘ylak tugmachalarini bo‘shatar va umuman, o‘taketgan ishratparast odamga o‘xshab olishni yaxshi ko‘rardi. O‘zi ko‘p ichmasa ham, ulfatlar orasida shovqin-suron qilaverardi. Yomon va arzon «Volga» qovoqxonasida bir kechada tantivozlikka yigirma besh so‘m sarflab ketaverardi.

Opam yana menikiga qatnay boshladi; har safar ikkisi xuddi bexosdan uchrashganday so‘rashib, hayron bo‘lishardi, biroq men opamning suyunganini, biroz xijolat tortganini sezar va bu uchrashuvlarning tasodifiy emasligini bilar edim. Bir kuni kechqurun bilyard o‘ynayotib, doktor menga shunday dedi:

– Menga qarang, siz nima uchun Doljikovanikiga bormaysiz? Bilasizmi, Mariya Viktorovna qanaqa odam? Unday dono, kamtar, xushfe‘l va go‘zal qiz kamdan-kam yo‘liqadi.

Ko'klamda muhandis meni qay tarzda qabul qilganini unga gapirib berdim.

– Bekorchi gap! – dedi kulib. – Muhandis – o'z yo'liga, qizi – o'z yo'liga. Har holda, azizim, siz uni xafa qilmang, vaqt topib bir boring. Yaxshisi, ertaga kechqurun boraqolaylik. Nima deysiz?

Doktor ko'nmaganimga qo'ymadi. Ertasi kuni kechqurun men yangi libosimni kiydim-da, ko'p istiholalar bilan Doljikovnikiga bordim. Bu gal menga xizmatkori ham unchalik basavlat va takabbur kurinmadi, jihoz-u anjomlari ham o'sha xizmat so'rab kelgan kunimdagidek ko'zimni qamashtirmadi. Meni kutib o'tirgan Mariya Viktorovna o'rmdan turib, xuddi yaqin oshnasiday qarshi oldi, qo'llarimdan mahkam tutib, do'stona ko'rishdi. Egniga yenglari kenggina ko'kimtir movut ko'ylak kiygan, sochlarini yangichasiga tugib olgan edi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas bu xil soch tugish shahrimizda hammaga rasm bo'lib, unga «itquloq» deb nom qo'yishdi. Chakka sochlari silliq qilinib, quloq orqasiga tarab qo'yilganidan Mariya Viktorovnaning yuzlari biroz ochilganday ko'rinardi va shu rang-ro'yidan men uni bu safar xuddi qip-qizil va keng yuzli, aravakashbashara otasiga o'xshatdim. Mariya haqiqatan xushro'y va so'limgina qiz bo'lib, ko'rinishi o'ttizning didini bersa ham, aslida, yigirma besh yoshlardan oshmagandi.

– Doktor baraka topsin-ey, yaxshiyam o'sha bor ekan! – dedi menga joy ko'rsatib. – Agar doktor bo'lmasa, men tomonga sira qadam bosmas ekansiz, deymen! Men zerikib, jinni bo'layozdim. Otam meni yolg'iz tashlab ketaverdi, bu shahri azimda bir o'zim nima qilishimni bilmayman.

So'ngra Mariya hozir qayerda ishlayotganimni, qancha pul olishim va qayerda turganimni surushtira boshladi.

– Siz o'zingiz ishlab topgan pulga qanoat qila olasizmi? – deb so'radi u.

– Ha.

– Siz baxtiyor odam ekansiz! – deb chuqur tin oldi Mariya. – Menimcha, hayotimizdagi hamma balo-kulfatlar faqat oliftagarchilikdan, bekorchilikdan, quruq sanqishdan, aqliy puchlikdan kelib chiqadi, kishiki boshqalar hisobiga yashamoqqa o'rganib olgandan keyin, albatta, bu balolarga giriftor bo'lmay qolmaydi. Tag'in, yolg'ondan gap sotyapti, degan xayolga bormang, men sizga chinini

aytyapman: davlatmand bo'lishning hech qanday qizig'i va halovati yo'q ekan. Harom yo'l bilan topgan davlatingiz orqali do'stlarni ko'paytiring, deyilgan, chunki umuman halol yo'l bilan davlat topib bo'lmaydi va bo'lishiyam mumkinmas.

Uydagi jihozlarga sovuqqina bir nazar tashlab, sanamoqchi bo'lganday qarab chiqdi.

– Uyning qimmatbaho buyumlar bilan jihozlangan, badastir, bemalol va qulay bo'lishida g'alati bir jozibali quvvat bor; bu narsa hatto eng irodasi kuchli kishilarniyam asta-sekin o'ziga tortib oladi. Ilgari otam ikkimiz o'rtacha va oddiy turmush kechirardik. Ana endi qarang! Axir, bir yilda, – dedi u kiftini qisib, – ota-bola yigirma ming sarflaymiz-a! Tag'in bu yer viloyat, agar poytaxtda yashasak – qancha pul ketarkin, deng!

– Hamma jihoz-u qulayliklar faqat davlatmand va ilimli kishilarga muassar bo'ladigan narsa, deb qarash kerak, – dedim, – biroq mening bilishimcha, turmush qulayliklarini eng og'ir va iflos mehnat bilan moslashtirib olib borilsa bo'ladi. Otangiz boy odam, lekin gapiga qaraganda, mashinist ham bo'libdi, oddiy moylovchiyam bo'libdi.

Mariya kuldi va bekorchi gap, deganday boshini chayqadi.

– Dadam ba'zan kvasga non bo'ktirib yeb o'tiradi, lekin bu anchayin injiqligidan yoki xo'jako'rsinga shunaqa qiladi.

Shu topda qo'ng'iroq chalingani eshitildi-da, Mariya o'rnidan turdi.

– Ilimli odamlar ham, boylar ham – hammasi ishlashi lozim, – dedi gapini davom ettirib, – jihoz va qulayliklar hammaga babbaravar bo'lishi kerak. Birovga imtiyoz, birovni kamsitish degan narsaning bo'lishi mumkinmas. Keling, qo'ying endi shu falsafani! Yaxshisi, qiziq-qiziq gaplardan eshitaylik. Bo'yoqchilar to'g'risida menga gapirib bering-chi! Ular qanday odam? G'alatimi?

Doktor keldi. Men bo'yoqchilar to'g'risida gap boshladim-u, biroq yotsirab, uyalaverganimdan hikoyam elshunosning ma'ruzasiga o'xshab, jiddiy va to'mtoqroq chiqdi. Doktor ham ishchilar turmushidan bir nechta latifa so'zlab berdi. U hikoyadagi toifalarni tasvirlab, goh mastlar singari gandraklab chayqalar, goh yig'lar, goh tiz cho'kar va birato'la kayfi oshib qulaganini ko'rsatmoq uchun, cho'zilib polga yotib olardi. Doktor aktyorlikka mohir odam edi va

Mariya Viktorovna uning taqlidlarini tomosha qilarkan, qotib-qotib kulardi. So'ngra u royal chalib, ingichka ovozdah ashula ayta boshladi, Mariya Viktorovna esa kerakli notalarni topib berar va doktor adashganda tuzatib turardi.

– Sizniyam ashula aytadi, deb eshitgandim, rostmi? – deb so'radim.

– Aytganda qandoq! – deb xitob qildi doktor. – Mariya Vitkorovna ajoyib ashulachi, aktrisa-ku! Tag'in «rostmi» deysiz-a! Gapingizni qarang, og'ayni!

– Men ilgari ko'p shug'ullanardim, biroq hozir tashlab yuborganman, – deb javob berdi Mariya Viktorovna.

Mariya pastakkina kursiga o'tirib olib, o'zining Peterburgdagi hayotini so'zlab berdi, u yerdagi mashhur ashulachilarning yuzini, ovozini va ashula aytayotgandagi qiliqlarini qilib ko'rsatdi; albomiga doktorning va so'ngra mening rasmimni soldi, rassomlikda no'noqroq bo'lsa ham, ikkimiz juda o'xshabmiz. Mariya hadeb kulalar, hazillashar, yuzlarini burishtirib masxarabozlik qilar va bu qiliqlari o'ziga haromdan topgan boylik to'g'risidagi gaplardan ko'ra ko'proq yarashardi. Boya menga boylik va jihozlar masalasida aytgan fikrlarining jiddiy emasligini, allakimlarga taassub qilib gapirganini endi payqadim. Mariya ajoyib hajviy aktrisa edi. Men xayolan uni boshqa qizlarga solishtirib chiqdim, hatto go'zal va sipo deb tanilgan Anyuta Blagovo ham unga tenglasholmasdi, tafovut juda katta, orada na'matak bilan atirgulchalik farqi bor edi.

Kechki taom keltirildi. Doktor bilan Mariya Viktorovna qizil musallas, shampah musallasi hamda qahvaga konyak qo'shib icha boshladi; ikkisi do'stlik uchun, aql va taraqqiyot uchun, ozodlik uchun qadah urishtirib ichar, biroq mast bo'lmas, faqat yuzlari qizarib, bekordan-bekorga qotib kulardi. Men ham bo'zrayib o'tiravermaslik uchun qizil musallasdan ichib turdim.

– Iqtidorli, iste'dodli kishilar, – dedi Doljikova, – qanday hayot kechirishni biladi va o'z yo'lini topib yuradi; lekin masalan, menga o'xshash o'rtacha odamlar esa – hech narsani bilmaydi va o'zicha biron ishni eplolmaydi; agar bular biron ijtimoiy oqimni sezib qolsa, o'zini shunga tashlaydi-yu, qaysi tomonga oqayotganini surishtirmay suzib ketaveradi.

– Yo'q narsani qanday qilib sezib qolish mumkin? – deb so'radi doktor.

- Ko‘rinmagan narsani yo‘qqa chiqarmang.
- Undaymasdir. Ijtimoiy oqimni yangi adabiyot o‘ylab chiqargan. Bizda bu narsa mutlaqo yo‘q.

Bahslar boshlandi.

– Bizda hech qanday mustahkam ijtimoiy oqim yo‘q va bo‘lganmas, – dedi doktor baland ovoz bilan. Yangi adabiyot nima desa, quloq solaverasizmi!? U hozir qishlog‘imizda mehnatkash ziyolilar paydo bo‘ldi, deb jar solyapti; shunga ishonsa bo‘ladimi? Jamiki qishloqlarimizni axtarib chiqsangiz, xo‘jako‘rsinga pijak yoki qora syurtuk kiygan, «yana»¹ so‘zida to‘rtta xato qiladigan chalasavod tasqaradan boshqasini topolmaymiz. Madaniy hayot bizda hali boshlanganmas. Bundan besh yuz yil avval odamlarimiz naqadar vahshiy, sharmanda, xor-u zor yashagan bo‘lsa – hozir ham shu ahvol davom etmoqda. Yangi fikr, yangi oqim, deysiz-u, biroq bularning zarracha ahamiyati yo‘q, nochor gaplar; yaramas va past maqsadlarni xaspo‘shlash uchun ataylab shu dabdabali so‘zlar ishlatiladi va buning biron jiddiy tomoni borligiga sira ishonish mumkinmas. Agar siz jamiyatda mustahkam bir oqim boshlanganini sezgan bo‘lsangiz va shu oqimga ergashib boshqalar qatorida siz ham endi o‘z hayotingizni hashoratlarni qullikdan ozod etishga yoki mol go‘shtidan parhez qilishga bag‘ishlamoqchi bo‘lsangiz, men nima deyman. Oyimqiz, bu ko‘y muborak bo‘lsin, deyman, xolos!.. Bizga faqat o‘qish kerak: o‘qish, o‘qish. Mustahkam ijtimoiy oqimlarni hozircha qo‘yib turaylik, chunki biz u oqimlar darajasigacha o‘sib yetganimiz yo‘q, to‘g‘risini aytganda, nimaligiga hali aqlimiz ham yetmaydi.

– Sizning aqlingiz yetmasa, meniki yetadi, – dedi Mariya Viktorovna. – Bugun sizga o‘zi nima bo‘ldi?

– Bizning vazifamiz – o‘qish va uqishdir, mumkin qadar ko‘proq bilim olishga harakat qilishimiz lozim, chunki har qanday jiddiy oqim – bilimi bor jamiyatda boshlanadi, kelgusi insoniyatning baxt-saodatiyam bilimga bog‘liq. Men ilm-fan uchun ichaman!

Mariya Viktorovna biroz o‘ylanib qoldi-da:

– To‘g‘risini aytganda, hayotimizni boshqacharoq yo‘lga solmasak bo‘lmas ekan, – dedi, – to shu damgacha kechirgan hayotimiz – sariq chaqaga arzimaydi. Bu to‘g‘rida gapirmay qo‘yaqolaylik.

¹ «Yeshyo» so‘zini Yekaterina II «ischo» deb yozgan ekan.

Doktor bilan ko'chaga chiqqanimizda, bosh cherkovda soat ikkiga zang urildi.

– Qalay, yoqdimi? – deb so'radi doktor. – Mariya Viktorovna yaxshi qiz, to'g'rimi?

Rojdestvo hayitining birinchi kuni biz Mariya Viktorovnanida mehmonda bo'ldik, so'ngra bayram tugaguncha deyarli har kuni kelib turdik. Uning uyida bizdan boshqa hech kim bo'lmas, shaharda ikkovingizdan boshqa tanishim yo'q, degani to'g'ri edi. Aksar vaqtimiz suhbatda o'tar, ba'zan doktor kitob yoki jurnal keltirar va bizga o'qib berar edi. Umrimda menga yo'liqqan birinchi ma'lumotli kishi – shu doktor edi. Men uning qanchalik bilimi borligini aytolmayman-u, biroq har taraflama ma'lumotga ega ekani har bir gapidan sezilib turardi, u doim o'z bilimini boshqalarga ham bildirishni istardi. Agar u tibbiyot haqida so'z boshlaydigan bo'lsa – shahrimizdagi doktorlarning birontasiga ham o'xshamas, balki kishida tamoman yangi, favqulodda va ajoyib bir taassurot qoldirardi; men bu odam agar istasa, haqiqiy olim bo'la oladi, degan xulosaga keldim. O'sha paytlarda men uchun doktor birdan-bir obro'li kishi bo'lib, menga ta'siri zo'r edi. U bilan uchrashganim sari, bergan kitoblarini o'qiganim sari menda tobora bilim olishga havas oshayotganini sezdim, chunki bilimning og'ir mehnatimni yengil qilishiga, g'amnok ko'nglimga tasalli berishiga umidim bor edi. Borib-borib men, masalan, dunyo oltmish xil oddiy jismdan iborat ekanini, alifmoy bilan bo'yoqning nimaligini tushundim va bu narsalarni bilmasdan to shu damgacha qanday qilib yashab kelganimga hayron qoladigan bo'ldim. Doktor bilan tanishligim ma'naviy jihatdan yuksalishimga ham sabab bo'ldi. Men u bilan tez-tez bahslashib turardim. Odatda, o'z fikrimda qolsam ham, ilgari menga qorong'i bo'lgan ko'p masalalar shu doktor tufayli asta-sekin yorishdi, shunday qilib, men endi vijdonim talablariga mos, aniq, ravshan va muayyan maqsadlarni o'zim uchun belgilab olishga harakat qila boshladim. Biroq shundayligiga qaramay, shahrimizning eng yaxshi va ma'lumotli kishisi bo'lgan shu doktorda ham nuqsonlar ko'p edi. Uning qiliqlarida, oddiy suhbatni doim talashga aylantirib yuborish odatida, yoqimli ovozi va hatto xushmuomalaligida ham allaqanday qo'pollik, seminariyaga mos dag'allik sezilib turardi. Syurtugini yechib tashlab ko'ylakchan qolganini yoki qovoqxonadagi malayga

choy puli tashlaganini ko'rganim sari g'ashim kelar va – ming madaniyatli bo'lganidayam ko'ngli vahshiylicha qolaveribdi, – deb o'ylandim.

Cho'qintirish marosimi kunlari doktor yana Peterburgga jo'nadi. Ertalab u ketdi, tushdan so'ng opam keldi. Po'stinini va qalpog'ini yechmasdan bir nuqtaga tikilganicha indamay o'tiraverdi. Uning rangi o'chgan, tobi yo'q odamday junjekar va zo'rg'a toqat qilayotgani bilinib turardi.

– Shamollab qolganga o'xshaysiz, – dedim. Opamning ko'zlari birdan jiq yoshga to'lib, mendan arazlaganday hech nima demadida, o'rnidan turib, Karpovnaning yoniga chiqib ketdi. Birpasdan keyin men uning alamli hasratlarini eshitdim:

– Enajon, to shu damgacha men nega yashaganman? Nima uchun? Ayting-chi; mening yoshlik hayotim rasvo bo'lmaganmi? Umrinning eng go'zal davri faqat xarajatlarni yozish, choy qo'yish, chaqa sanash, mehmonlarga qarash bilan o'tib ketibdi, men ham shuni bilibman-u, dunyo shu ekan, deb yuraveribman. Axir, men ham odammanmi, yo'qmi, enajon? Mendayam insoniy talab-u tilaklar bor, men yashamoqni istayman, biroq ro'zg'or ishlaridan boshim chiqmaydi, qo'limda bir dasta kalit, yugurganim-yugurgan. Bu nima degan gap? Toqatim qolmadi-ku, axir, enajon!

Opam kalitlarini eshikdan uloqtirib tashlagandi, mening yonimga sharaqlab kelib tushdi. Bular – bufet, oshxonadagi shkaf, yerto'la va choyqutilarning kalitlari bo'lib, onam tirikligida yonidan uzmasdi.

– Voy tavba-yey, tavba! – deb noliy boshladi kampir. – Avliyolarga sig'ingin, bolam!

Opam ketayotib, kalitlarini olmoq uchun mening xonamga kirdi:

– Sen meni kechirgin. Shu kunlarda menga o'zi bir balo bo'ldi, – dedi.

VIII

Bir kuni Mariya Viktorovnanikidan kechroq uyga qaytdim; yap-yangi forma kiygan yoshgina mirshab meni uyda kutar va stol ustidagi kitoblarimni varaqlab o'tirar edi.

– Keldingizmi? – dedi-da, o'rnidan turib, kerishdi. – Men uch marta sizni qidirib keldim. Ertaga ertalab soat to'qqizda gubernatorning oldiga borarkansiz; buyruq shunday, albatta, yetib boring.

Muhtaram gubernatorning buyrug'i olindi va so'zsiz bajariladi, degan mazmunda mendan tilxat olgach, mirshab chiqib ketdi. Mirshabning bunchalik kech kelgani va meni to'satdan gubernator chaqirtirgani ta'bimni juda xira qildi. Yoshlik chog'imdan beri jandarm, mirshab va sud xizmatchilarini ko'rsam, vahima bosaverardi, shuning uchun biron gunoh qilib qo'ygan odamday, o'zimdan-o'zim tashvishlanaverdim. Shu alfozda ko'zimga uyqu kelmadi. Enagam bilan Prokofiy ham xavotir bo'lib, uxlolmadi. Aksiga olib, kampirning qulog'i og'rib ingrayverdi va bir necha bor yig'lab oldi. Prokofiy uxlamaganimni sezib, mening yonimga kirdi-da, ohista stol yoniga borib o'tirdi; uning qo'lida chiroq bor edi.

– Jinday qalampirli sharob ichib olsangiz, yaxshi bo'lardi, – dedi o'ylanib turib. – Agar ichib olsangiz – olamni suv bossa, to'pig'ingizga chiqmaydi. Onamning qulog'igayam ozgina sharob quyilsa – taqqa qolardi og'rig'i.

Kechasi soat ikkidan o'tganda, Prokofiy go'sht olgani kushxonaga jo'nadi. Endi tong otguncha uxlolmasligimga ko'zim yetdi, ertalab soat to'qqizgacha bir amallab vaqt o'tkazish uchun men ham u bilan kushxonaga borishga jazm qildim. Biz qorong'ida fonus tutib borardik, o'n uch yashar chamasidagi Nikolka ismli uning dastyori ketimizdan chana haydab, otni chu-chulab kelardi. Nikolkaning yuzlari sovuqdan ko'karib ketgan, biroq ovozi qaroqchilarnikidan qolishmasdi.

– Sizni gubernator huzurida jazolab, ta'lim bermoqchilar, – deb yo'lda gap boshladi Prokofiy. – Gubernatorlik ilm-ta'limi bor, arximandritchasiyam¹ bor, zobitlik, doktorlik ilm-ta'limi, ishqilib, har bir mansabning o'ziga yarasha ilm-ta'limi bor. Lekin siz o'z ilmingizga rioya qilmaysiz, bunday qilishga sizga ruxsat berilmaydi.

Kushxona qabristonning orqasida bo'lib, ilgari men uni tuzukroq ko'rmagan ekanman. Uning butun dov-dastgohi uchta bostirmadan iborat va atrofi guvaladevor bilan o'ralgandi. Yozda kun isiganda shu yoqdan shamol tursa – atrofni qo'lansa hid bosib, burunni yorguday bo'lardi. Lekin qorong'ida bostirmalar ko'zimga ko'rinmas, faqat go'sht ortgan va bo'sh qaytgan chanalarga duch kelardim; fonus ushlagan odamlarning u yoqdan bu yoqqa yurganini ko'rardim

¹ *Arximandrit* – rohiblarning oliy unvoni va shu unvonga ega bo'lgan rohib.

va chapanichasiga so'kishganini eshitardim, xolos. Prokofiy ham, Nikolka ham baralla baqirishib so'kinishar, umuman, qiy-chuv so'kish va hayqiriqlardan, yo'tal va kishnashlardan boshqasini ajratib bo'lmasdi.

So'yilgan mollarning va go'nglarning hidi burqsirdi; qor erib, loy bilan aralashib ketgan va nazarimda, qon kechib yurganday bo'lar edim.

Chanaga to'ldirib go'sht bosdik-da, bozor sari, qassoblar rastasi tomonga jo'nab qoldik. Tong yorisha boshladi. Birin-ketin savat ko'targan oqsoch xotinlar, keng paltoga o'rangan kampirlar uchray boshladi.

Prokofiy qon sachragan oq peshbandini tutib, boltani qo'lga oldi-da, astoydil qasam ichib, cherkovga qarab cho'qinib, go'shtni o'z narxiga va hatto zarariga sotishini aytib xaridor chaqira boshladi. U toshdan ham, tarozidan ham urar, pulini ortiqcha hisoblab olardi; oqsoch xotinlar ahvolni ko'rib-bilib turishsa ham, qassobning baqirganidan gangib indashmas, faqat qarg'ab ketishaverardi. Vahimali boltasini baland ko'targanda va kundaga urganda – gavdasi surat singari xilma-xil vaziyatda o'zgarib turar va har gal «g'iq» degan ovozi eshitilardi; men shu ahvolda biron kishining boshini yoki qo'lini chopib tashlamasaydi, deb qo'rqa boshladim.

Shunday qilib, men ertalabgi vaqtimni qassobxonada o'tkazib, nihoyat, gubernator oldiga jo'nadim; po'stinimga go'sht va qon hidi urib qolibdi. Ko'nglim shu qadar xira ediki, birov meni bo'ynimdan bog'lab sudrayotganday qadam tashlardim. Gubernator mahkamasi-dagi baland zina va to'shalgan yo'l-yo'l poyandoz hamda yaltiroq tugmali frak kiygan yoshgina amaldor sira esimdan chiqmaydi; u indamasdan, ikki qo'li bilan menga eshikni ko'rsatdi-da, o'zi ma'lum qilgani oldinroq ichkariga kirib ketdi. Men kirgan zal qimmatbaho anjomlarga to'lgan bo'lib, biroq xunuk va o'xshovsiz jihozlangandi, ayniqsa, deraza oralig'iga qo'yilgan ensiz va baland oynalar hamda sap-sariq darpardalar – bu yerdagilarning didsizligini, gubernatorlar almashib tursa ham, zal burungiday qolaverganini yaqqol ko'rsatib turardi. Boyagi amaldor yana ikki qo'llab menga eshikni ko'rsatgach, men ichkariga kirib, kattakon ko'k stol yoniga bordim; stol to'rida bo'yniga Vladimir ordeni taqqan harbiy general o'tirardi.

– Janob Poloznev, sizni chaqirtirishdan maqsad, – deb gap boshladi general. Uning qo‘lida allaqanday bir xat bo‘lib, og‘zi «o» harfiga o‘xshab kattakon ochilardi. – Sizni chaqirishdan maqsad, quyidagi masalani sizga aytib qo‘yish edi. Muhtaram padaringiz siz to‘g‘ringizda gubernator zodagonlar sarkardasi Aleksandr Pavlovichga og‘zaki va xat orqali murojaat qilibdi; siz zodagon bo‘laturib, o‘z nasl-zotingizga noloyiq ishlar bilan shug‘ullanayotganingiz uchun sizni chaqirtirib, biroz tanbeh bermoqlarini iltimos etibdi. Aleksandr Pavlovich masalaga to‘g‘ri yondoshib, sizning bu xil xulq-atvoringiz boshqalargayam ta‘sir etish ehtimolini o‘ylab, manavi xatni menga yuboribdi. Faqat tushuntirish va tanbeh berish bilan sizni yomon yo‘ldan qaytara olishiga ko‘zi yetmaganidan: «jiddiy ma‘muriy choralar ko‘rish kerak» degan maqsadda ushbu xatga o‘z mulohazalarini yozib, menga havola qilibdi va bu mulohazalarini men tamoman quvvatlayman.

General bu gaplarni ohista va mayin ovoz bilan, xuddi meni o‘z boshlig‘i bilib, hurmatlayotganday, menga muloyim-muloyim boqib, tik turgan holda gapirdi. Yuzlarini ajin bosib ketgan, ko‘z taglari salqib, xaltachalar paydo bo‘lgan, sochlari bo‘yalgan va sirdan qaragan odam: qirqdami, oltmishdami – ajratolmasdi.

– Umid qilamanki, – dedi u gapini davom ettirib, – siz, Aleksandr Pavlovichning bu qadar himmatidan, albatta, minnatdor bo‘lsangiz kerak, chunki u menga rasmiy sur‘atdama, og‘aynichilik yo‘li bilan murojaat qilishni lozim ko‘ribdi. Men ham sizni g‘ayrirasmiy ravishda chaqirganman va siz bilan hozir gubernator sifatidamas, otangizning samimiy muxlisi sifatida so‘zlashayotibman. Xullas, sizdan iltimosim shuki, yoki bu qiliqlarni tashlab, o‘z nasl-nasabingizga loyiq biron xizmatga qaytasiz, yo boshqalarniyam yo‘ldan ozdirmaslik uchun, sizni hech kim tanimaydigan boshqa biron joyga ko‘chib ketasiz; ana o‘sha yerda istagan ishingizni qilaverishingiz mumkin. Aks holda, men jiddiy chora ko‘rishga majbur bo‘laman.

U og‘zini ochib, birpas menga tikilib turdi.

– Siz etyemasmisiz? – deb so‘radi.

– Yo‘q, janobi oliylari, men go‘sht yeyman.

General o‘tirdi va allaqanday qog‘ozni oldi; men ta‘zim qilib, chiqib ketdim.

Tushki ovqat vaqtigacha endi ishga borishning keragi ham yo‘q edi. Men uyga qaytib, uxlamochi bo‘ldim, biroq kushxonada ko‘rganlarim va gubernator bilan bo‘lgan suhbatim natijasida ko‘nglim g‘ash, ta‘bim xira bo‘lib, kun bo‘yi uxlolmadim; bir amallab kunni kech qildim-da, xafaligimga chidamay, Mariya Viktorovnanikiga bordim. Men unga gubernator huzurida nima gaplar o‘tganini gapirib berdim. Mariya anqayib tingladi-da, birdaniga shunday haholab kulib yubordiki, sof ko‘ngil, quvnoq odamlargina shunday kula oladi.

– Agar shu gaplarni Peterburgda eshitishsa! – dedi va kula-kula yiqilayozib, zo‘rg‘a stolga suyalib qoldi. – Agar Peterburgda gapirib berilsami!

IX

Endi biz tez-tez, kuniga ikki marta ko‘rishib turadigan bo‘ldik. Mariya deyarli har kuni tushdan so‘ng qabristonga kelar, xoch va marmartoshlarga yozilgan yozuvlarni o‘qib, meni kutib turardi. Ba‘zan cherkovning ichkarisiga kirib, mening ishlashimni tomosha qilardi. Bu yerdagi sukunat, rassomlik va tillakorlik hunarining oddiyligi, Redkaning bamaniligi, men ham boshqalar qatori yolg‘iz nimcha-yu kavush bilan ishlayotganim, sheriklarimdan hech qanday farqim yo‘qligi va hammasi meni sensiragani – Mariya uchun ta‘sirli va tamoman yangi narsa edi.

Bir kuni Mariya kirib turgan paytda yuqorida kaptar suratini solayotgan rassom menga:

– Misail, oqbo‘yoqni uzatib yubor! – dedi.

Men oqbo‘yoqni eltib berib, ingichka shotidan tushib kelayotganimda, ta‘sirlanganidan ko‘zlari yoshga to‘lib, menga qarab turgan Mariya kuldi-da:

– Shu qadar muloyim, jonajon odamsizki! – dedi.

Bolalik vaqtimda bir boyning ko‘m-ko‘k to‘tisi qafasdan chiqib ketgandi; bu chiroyli parranda bir oygacha shahrimizda bog‘dan bog‘ga uchib, yolg‘iz o‘zi adashib yurgani hali ham esimdan chiqmaydi. Mariya Viktorovna menga xuddi o‘sha to‘tishni eslatardi.

– Shu qabristondan boshqa hech yerga borgim kelmay qoldi, – dedi menga kulib. – Shahar jonimga tegib ketdi. Ajoginaniqidagi kitobxonlik, ashulabozlik, shivir-shivirlarni shu kunlarda sira yoq-

tirmaydigan bo'libman; opangiz xilvatparast bo'lib olibdi, Anyuta Blagovo esa o'zidan o'zi mendan bezib qolibdi; teatrnı sevmasam – endi qayoqqa borib, kim bilan gaplashay?

Ust-boshlarimdan bo'yoq va skipidar¹ hidi kelardi, qo'llarim qoraygan bo'lsa ham, uyiga boraverardim va bu ahvolimdan Mariya aslo ranjimas, aksincha, xursand bo'lardi; u meni faqat ish kiyimimda ko'rishni, uni yechmay kirib kelaverishimni istardi, biroq men mehmonxonada jomakor bilan o'tirsam, uyalib, mundir kiygan odamday siqilib ketaverardim, shuning uchun, unikiga boradigan bo'lsam, har safar yangi kiyimimni kiyib olardim. Bu ishim unga yoqmasdi.

– Rostini aytib qo'yaqoling: siz yangi ish, yangi sharoitga o'rganolmayapsiz, – dedi bir kuni u menga. – Ishchi kiyimi sizga qovushmayapti, negadir siqilyapsiz. Ayting-chi, bu narsa hozirgi hayotingizdan qanoatlanmaganingiz va ko'nglingiz shunga chopmaganidanmasmikin? Nahotki, shu xil mehnat va tanlab olgan bo'yoqchilik kasbingiz sizni qanoatlantirsa? – deb so'radi kulib. – Men, albatta, bo'yalgan narsaning chiroyli va mustahkam bo'lishini bilaman, biroq bular hammasi shaharliklarniki, boylarniki-ku! Ming qilgandayam bular uyni bezashdan boshqaga yaramaydigan buyumlar. Siz bir necha marta menga: har kim o'z nonini o'z qo'l kuchi bilan topishi kerak, degandingiz, vaholanki, hozir siz nonmas, faqat pul topayotibsiz. Aytganingizdan qaytmay, o'sha gapning so'zma-so'z ma'nosiga muvofiq ish qilish qo'lingizdan kelmaydimi? Menimcha, o'sha siz aytgan nonning tadorigini qilish, ya'ni yer haydash, ekin ekish, o'rish, yanchish, ishqilib, qishloq xo'jaligiga bevosita aloqador, masalan: mol boqish, yer chopish, uy solish kabi ishlar bilan shug'ullanish kerak...

Mariya yozuv stoli yonida turgan chiroyligina shkafini ochdi-da, shunday dedi:

– Bu gaplarni sizga aytganimning boisi shuki, men sizni o'z sirimga oshno qilmoqchiman! Marhamat! Qishloq xo'jaligiga oid hamma kitoblarim shu yerda. Bu shkafda dalachilik, polizchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, asalarichilik sohasidagi kitoblar bor. Men hammasini astoydil o'qib chiqdim va hozir nazariy tomondan

¹ O'tkir hidli suyuq modda.

bekami-ko'st bilib oldim. Mening eng shirin orzu-umidim: mart oyi kirishi bilan Dubechnyaga ko'chib borish. U yerni jannat desa bo'ladi! Yoki noto'g'rimi? Birinchi yili u yoq-bu yoq bilan tanishib, o'rganib, past-balandini bilib olsam – kifoya, ikkinchi yili astoydil bel bog'lab ishga kirishaman, og'ir-yengiliga, charchaganimga qaramay, o'zim ishlayman. Otam Dubechnyani menga in'om qilmoqchi; ko'nglim nimani istasa – o'shani qilib, shu yerni obod etmoqchiman.

Mariya goh qizarar, goh hayajonidan ko'zlari yoshlanar va kulardi, u Dubechnyadagi hayoti naqadar go'zal va alomat bo'lishini o'ylab, halitdan orzu qilardi. Chindan unga havasim keldi. Mart yaqinlashib, kunlar uzaya boshlagandi, tush payti quyosh qizig'ida tomlardagi qor erib oqar va har yoqdan bahor hidi kelib turardi; ko'nglim meni qishloqqa chorlardi.

Uning, men yaqinda Dubechnyaga ko'chib ketaman, deganini eshitgan hamon darhol shaharda yolg'iz qolishim ko'z oldimga keldi va men shu kitob terilgan shkafni, qishloq xo'jaligini Mariyaga ravo ko'rmay, rashkim kela boshladi. Men qishloq xo'jaligini bilmas va sevmas edim, undagi mehnatni qullarga munosib deb tushunardim; shu fikrimni Mariyaga aytmoqchi bo'lib turib, otam esimga tushib ketdi: otam menga mudom shu gaplarni aytardi, shuning uchun indamay qo'yaqoldim.

Ro'za kirdi. Anchadan beri bedarak bo'lib, yodimdan chiqayozgan muhandis Viktor Ivanovich Doljikov Peterburgdan qaytdi. U loaqal shoshilinchnoma ham bermasdan to'satdan kirib keldi. Odatdagicha men kechqurun kelsam, u yuvinib-taranib, sochsoqolini oldirib bo'lgan, mehmonxonada qiziga allanimani gapirib berayotgan ekan, aftidan, ancha yosharib ketibdi. Mariya tiz cho'kib turgan holda jomadonlardagi sovg'alarni, qutilarni, atir va kitoblarni olib, xizmatkori Pavelga uzatmoqda edi. Muhandisni ko'rishim bilan beixtiyor ortimga tislangandim, biroq u ikki qo'lini menga cho'zib, kulimsiradi va oppoq sadafday tishlari ko'rinib ketdi.

– Ana, o'ziyam keldi! Sizni juda ko'rgim kelib turgandi, yaxshi keldingiz. Marhamat, janob bo'yoqchi! Mariya hammasini gapirib berdi, siz yo'g'ingizda menga rosa maqtab sayradi, eshitdim. Men hamma gapga tushundim va batamom qo'shilaman! – dedi u qo'ltig'imdan tutib. – Idorada poshsholikning qog'ozini nobud qi-

lishdan va peshonaga kokarda¹ taqib yurishdan ko'ra halol ishchi bo'lish ming marta a'lo va afzaldir. Mana shu qo'llar bilan men Belgiyada rosa ishlaganman, so'ngra ikki yil mashinistlik qilganman...

Muhandisning egnida kalta pijak, oyog'ida xonaki shippak bo'lib, yurganda sal oqsoqlanar va qo'llarini hadeb ishqalayverardi. G'ing'illab o'zicha hirgoyi qilar va uzoq yo'l yurib uyiga yetib kelganidan, o'zi o'rgangan va yoqtirgan vannasida cho'milganidan joni kirib, junjikib rohatlanardi.

– Shubham yo'qki, – dedi u menga kechki taom paytida, – ham-mangiz ham tuppa-tuzuk, yoqimtoy va ajoyib odamlarsiz, bunga shubham yo'q, biroq jismoniy mehnatni ushlangiz ham yoki mujiklarni ozod etishga kirishsangiz ham, negadir oqibati mazhabparastlikka aylanib ketadi. Siz ham taqvodor mazhabparast emasmi, axir? Sharob ichmay o'tiribsiz. Bu taqvodorlikmasmi, axir?

Muhandisning ko'ngli uchun men sharobdan ichdim. Musallasni ham ichdim. Biz muhandis keltirgan pishloq, kolbasa, pashtet, pikuli² va xilma-xil taomlarni yeb, u yo'q vaqtda chet eldan keltirilgan musallaslarni ichib o'tirdik. Ajoyib musallaslar edi. Musallas bilan sigaralarni u negadir boj to'lamay chet eldan olib kelaverardi; ikra va sur baliqlarni allakim tekinga yuborib turardi; o'tirgan uyiga ijara puli to'lamas, chunki uy egasi yo'l uchun yermoyi yetkazib berish kafolatini olgan bo'lib, xushomadga uyini tekinga berib qo'ygandi. Umuman, ota-bola ikkisi menda shunday taassurot qoldirdiki, dunyodagi jami shirin taom-u yaxshi buyumlar shular uchun yaratilgan ekan, deb gumon qildim.

Men ular bilan bordi-keldini davom ettiraverdim, biroq ilgari-giday ko'nglim chopmasdi. Men muhandisdan andisha qilardim va u uyda bo'lsa, yayrab o'tirolmasdim. Uning tip-tiniq va o'tkir ko'zlariga botinib qarayolmasdim, gapirsa, siqilaverardim va g'ashim kelardi; yaqindagina shu to'q va qip-qizil odam xo'jayinim bo'lganini, menga haddan tashqari qo'pollik qilganini, ko'nglimni qattiq ranjitganini o'ylasam, tinkam qurib ketardi. To'g'ri, u meni belimdan tutib, yelkamga qoqqanlari, turmushimni maqtab, ko'nglimni ko'tarib gapirganlari rost, biroq ichidan meni ilgarigiday yomon ko'rishini, odam qatori ko'rmasligini va qizining ro'yxotiri – mening

¹ Formali furajkaga qadaladigan nishon.

² Pikuli – ziravorlab, sirkalab maydalangan sabzavot.

kelib-ketishimga chidaganini sezardim. Men endi ilgarigiday kulib-o'ynab, istaganimcha gapirolmadim, borgan sari yotsirab, shu ahvol davom etaversa, menga ham, o'z malayi Pavel singari Panteley nomini qo'yishdan toymasa kerak, deb o'ylardim. Mendagi provinsial meshchanlik oriyatim uyg'ona boshladi. O'zim bo'yoqchi bir proletar bo'lsam-u, butun shahar xalqi ajnabiy qatorida ko'rgan va menga tamoman yot bo'lgan boynikiga har kuni borib qimmatbaho musallaslarini ichsam, xilma-xil lazzatli taomlarini yesam – bu qanday gap? Vijdonim bunga chidamasdi. Muhandisnikiga borayotganimda uchragan odamdan or qilib, haqiqatan taqvodor odam singari yerga qarab olardim; qaytganda esa qornim to'qligi uchun o'zimdan-o'zim uyalardim.

Men qiziga oshiq-u shaydo bo'lib qolishdan qo'rqardim. Ko'chada ketayotganimda ham, ishlab turganimda ham, sheriklarim bilan gaplashayotganimda ham Mariya Viktorovna bir daqiqa xayolimdan ketmasdi; kechqurun unikiga qanday borishimni, uning ovozi, yurish-turishlarini o'ylayverardim. Unikiga boradigan bo'lsam – o'zimni har gal enagamning qing'ir ko'zgisiga solib, rosa taranar, bo'yinbog'imni qayta-qayta buzib bog'lardim, nazarimda, kiyimim sira yarashmaganday bo'lib, o'zimdan-o'zim siqilardim-da, nega bu qadar injiqman, deb o'zimni koyirdim. Uyiga kelganimda goho narigi xonadan turib u: shoshmang, kiyinib olay, deb iltimos qilardi va men kiyimlarining shitir-shitirini eshitib turib hayajonlanardim, nazarimda, men turgan pol cho'kib ketayotganday bo'lardi. Ko'chada biron xotinning qorasini uzoqdan ko'rib qolsam, muqarrar unga taqqoslardim; o'sha kezlarda xotin-qizlarimizni sharmsiz, o'zini tutolmaydigan, kiyim kiyishni bilmaydigan, shudi yo'q bir dardisar deb tushungandim, taqqoslaganim sari ko'nglim quvonib: Mariya Viktorovna hammasidan ham afzal, deb faxrlanardim. Kechalari men uni tushimda ko'rardim: doim ikkimiz birga bo'lardik.

Bir kuni kechki ovqat mahalida muhandis ikkimiz butun boshli omarni¹ yeb qo'yibmiz. Uyga qaytgach, muhandisning taom ustida ikki marta menga «azizginam» deb murojaat qilgani esimga tushdi; o'ylab turib, bu uydagilar meni egasidan adashgan baxtsiz ko'ppak singari erkalayotganiga, meni anchayin ermak qilib olishganiga va jonlariga tekkanimda, itday haydab yuborishlariga aqlim

¹ *Omar* – katta dengiz qisqichbaqasi.

yetdi. O'zimdanda o'zim uyalib, yer yorilmadiki, kirib ketsam! Go'yoki xo'rlanib tahqir etilganday, ko'ksimni biron pichoqlaganday, jonim halqumimga kelgandi. Ana shunda bu ahvolga xotima berish uchun osmonga qarab qasam ichdim.

Ertasi kuni Doljikovnikiga bormadim. Kech kirib, rosa qorong'i tushib, yomg'ir quyayotgan paytda Katta zodagonlar ko'chasi uylarining derazalariga birma-bir qarab chiqdim. Ajoginalarnikida hamma uxlagan, faqat eng chetdagi derazadan yorug'lik tushardi; bu Ajogina kampir edi, nazarimda, xurofotga qarshi kurashib, uchta sham yoqib olib, o'z bo'lmasida biron nima tikib o'tirardi. Bizning uyda chiroq o'chiq edi, qarshimizdagi Doljikovning derazalaridan chiroq tushib tursa ham, gul va pardalar to'sganidan ichkarida nima bo'layotganini ko'rib bo'lmasdi. Men ko'chada ko'p o'ylandim, muzday mart yomg'iri hamma yog'imni ivitib yubordi. Otam klubdan qaytib, darvoza qoqqanini eshitdim, birozdan so'ng ichkarida chiroq yondi-da, chiroq tutgan opamni ko'rdim; opam tez-tez yurib kelar va yo'l-yo'lakay qalin sochlarini bir qo'llab tuzatardi. So'ngra otam kirdi va mehmonxonaning u burchidan bu burchiga borib-ke-lib, nimalarnidir gapirib, qo'llarini ishqalay boshladi; opam qimirlamay oromkursida o'tirar va boshqa narsalarni o'ylab, uning gaplariga quloq solmas edi.

Ikkisi chiqib ketdi, chiroq o'chdi... Men burilib muhandisning uyiga qaradim, undagi chiroqlar ham o'chgandi. Qop-qorong'i va yomg'irli kechada men g'urbatda yurgan g'aribday yolg'iz va ojiz ekanimni, taqdir taqozosi bilan kimsasiz qolganimni sezdim, hozirgi yolg'izligim, shu tortayotgan azob-u uqubatlarim hamda kelajakdagi serjafu hayotim oldida – bu qilayotgan ishlarim, umidlarim, to shu damgacha gapirgan va o'ylaganlarim – hammasi ham oddiy bir narsa ekanini tushundim. Afsuski, insonning ishi bilan fikri uning tortgan g'am-u g'ussalariday katta va kuchli bo'lmas ekan! Shu amlardan so'ng men nima bo'lishining mulohazasiga bormasdan, o'zimdanda-o'zim Doljikov darvozasidagi qo'ng'iroq simini kuchim boricha tortib yubordim, sim uzilib ketdi va men, birontasi chiqib tanib qolmasaydi, deb yosh bola singari orqamga qaramay chopa boshladim. Ko'chani oxiriga borib, nafasimni rostlamoq uchun to'xtab quloq soldim: faqat yomg'irning shuvillashini va uzoqdan qorovulning cho'yan urayotganini eshitdim.

Men bir haftagacha Doljikovnikiga bormadim. Yangi liboslarimni sotilib ketdi. Bo'yoq ishlari uchramay qoldi, men yana to'g'ri kelgan og'ir va iflos ishlarni bajarib, o'n yoki yigirma tiyin topadigan, ochin-to'qin yuradigan mushkul ahvolda qoldim. Sovuqda tizza bo'yi loy kechib, jo'rttaga ko'nglimni vayron etib, xotiralarni unutishga urinardim, go'yo muhandisnikida yegan pishloq va konservalarim uchun o'zimdanda o'ch olardim; ko'nglim vayron bo'lib, och-nahor ivigan holda boshimni yostiqa qo'yishim bilan darhol ajoyib, jozibali manzaralar ojiz xayolimni qoplab olardi va men sevganimga, ishq balosiga giriftor ekanimga taajjublanardim va nihoyat, iqror bo'lardim. Bu og'ir turmushdan butun vujudim qaytaga yosharib, kuchga to'lganimni sezib, shirin va qattiq uyquga ketardim.

Bir kuni kechqurun bevaqt qor bo'raladi-da, shimoldan shamol turib, yana qish bo'lib qoldi. O'sha oqshom ishdan qaytib kelib, uyimda Mariya Viktorovnanini ko'rdim. U po'stin kiygan, ikki qo'lini muftasiga¹ solib o'tirgan edi.

– Nima uchun menikiga bormaysiz? – deb so'radi ma'nodor va tiniq ko'zlarini menga tikib; men esa suyunganimdan qizarib-bo'zarib, uning qarshisida otam urmoqchi bo'lgandagi holatimda qotib qoldim. Mariya yuzlarimga tikilib qaradi-da, men nima uchun xijolat bo'lganimni payqadi.

– Nima uchun menikiga bormaysiz? – deb takrorladi u. – Agar borgingiz kelmasa, mana, men o'zim keldim.

Mariya o'rmidan turib, yonimga keldi.

– Meni tashlab ketmang, – dedi-da, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. – Men yolg'izman, hech kimim yo'q!

Yuzini muftasi bilan to'sib, yig'i aralash iltijo qildi:

– Yolg'izman! Turmushda halovat qolmadi, men qon yutyapman, dunyoda sizdan boshqa mening hech kimim yo'q. Meni tashlab ketmang!

Mariya ko'z yoshlarini artmoqchi bo'lib, ro'molchasini izlar-kan, ohista kulimsiradi; ikkimiz ham anchagacha indolmay qoldik, so'ngra men uni quchoqlab o'pdim; qalpog'idagi to'g'nag'ichning uchi tegib, yuzim biroz qonadi.

Ikkimiz ko'pdan beri jonajon do'stlardek shirin-shirin suhbatlashdik...

¹ *Mufta* – ayollarning qishda ikki yoqdan ikki qo'lni tiqib yuradigan yengchasi.

Ikki kundan so'ng Mariya meni Dubechnyaga jo'natdi va bundan men nihoyatda mamnun bo'ldim. Vokzalga ketayotganimda va so'ngra vagonga o'tirganimda, o'zimdan-o'zim xursand bo'lib kulardim, odamlar meni mast deb gumon qilib, qarab qo'yishardi. Qor yog'ib, ertalabki paytlari izg'irin ko'tarilar, biroq yo'llar erib, hamma yoq qoraygan va havoda zog'chalar chag'illab, to'da-to'da bo'lib uchib yurardi.

Oldin men Masha bilam ikkimiz uchun Cheprakova xonimning ro'parasidagi yon hujradan joy tayyorlamoqchi bo'lgandim, biroq bu uy ko'pdan beri kaptarxona va o'rdakxona qilib qo'yilgani uchun, inlarni buzmasdan uni tozalab chiqish mumkin bo'lmadi. Noiloj chiyiparda tutilgan katta uyning yoqimsiz xonalariga joylashishga to'g'ri keldi. Mujiklar bu uyga palata deb nom qo'yishgandi, unda o'n ikkitadan ortiq xonalar bo'lib, bitta fortepyano bilan tomدا yotgan o'yinchoq kursidan boshqa hech qanday jihozi yo'q edi. Agar Masha shahardagi hamma jihozlarini keltirib, shu uyga joylaganda ham, baribir bu yerdagi huvillagan bo'shliq va xunuklikdan qutulib bo'lmasdi. Men derazalari boqqa qaragan uchta kichik-kichik bo'lmani tanladim-da, ertadan kechgacha shularni tozalash, derazalariga oyna solish, devorlariga gulqog'oz yopishtirish, poldagi darz va kovaklarni yamash bilan ovora bo'ldim. Bu ishlar yengil va ko'nglimga juda mos tushgandi. Ora-sira yugurib, muz ko'chganini bilmoq uchun daryo bo'yiga borardim; nazarimda, chug'urchuq kelganday bo'lardi. Kechalari Mashani o'ylab shirin xayollar ichida yotganimda, kalamushlarning yugurganiga, shamol guvillab tunukani taraqlatganiga zavq bilan quloq solardim; chordoqda alvasti yo'talyotganday bo'lardi.

Qor qalin edi; mart oxirlarida ust-ustiga yog'ib, uyilib ketdi-da, to'satdan eriy boshlab, suvlar sharillab oqib, tezda g'oyib bo'ldi, aprel kirar-kirmas bog'da chug'urchuq chug'urlab, sariq kapalaklar ham ko'rindi. Ajab xushhavo, iliq kunlar boshlandi. Men har kuni kechga yaqin Mashaning kelishini kutib, yo'lga chiqardim; endi quriy boshlagan yumshoqqina yo'lda oyoqyalang yurishning rohatini kamdan-kam odam biladi! Anchagina yurgach, o'tirib olib, uzoqdan shaharni tomosha qilardim-u, yaqiniga borishga yuragim betlamas-

di, chunki qorasini ko'rsam, bezovta bo'laverardim. Tanish-bilishlar bu ishqiy sarguzashtimni eshitishsa, nimalar deyishini bilgim kelardi. Otam nima derkin? Hayotim borgan sari murakkablashib, tizgini qo'limdan ketganini va hayot meni boshim oqqan tomonga olib ketayotganini o'ylasam, qattiq xijolat tortardim. Men endi qanday qilib ovqat topishning g'amini yemasdim, qay xilda kun kechirishini o'ylamasdim, rostini aytsam, o'sha kezlarda nimani o'ylaganimni eslolmayman ham.

Masha aravada kelardi; men darrov yoniga chiqib olardim-da, ikkimizning kayfimiz chog', jonimiz kirib, Dubechnyaga kelardik. Ba'zan kun botguncha kuta-kuta zerikib, xafa bo'lib, nima uchun kelmaganiga tushunolmay, uyga qaytganimda, to'satdan darvoza oldida yoki bog'da jonajon Masha meni poylab turganini ko'rardim. Bu safar poyezd bilan yo'lga chiqqani va stansiyadan to'g'ri piyoda kelgani ma'lum bo'lardi. Bu – men uchun haqiqiy bayram edi! Qo'lida oddiy soyabon, boshida durracha, oyog'ida chet eldan olingan boshmoq; sodda ko'ylagi yarashgan, qaddi-qomati bejirim; umuman, Masha – meshchan qiz rolini o'ynovchi iqtidorli aktrisa edi. Biz o'z xo'jaligimizni qarab chiqib, kim qaysi uyda turishini, qayerda xiyobon, qayerda poliz bo'lishini, qayerga asalari qutilari qo'yilishini aniqlardik. Anchagina tovuq, o'rdak, g'oz boqdik va bu parrandalar o'zimizniki bo'lganiga suyunardik. Ekish uchun sulii, yo'ng'ichqa, qoraqiyoy, qora bug'doy va sabzavot urug'lari tayyorlangandi; ikkimiz bu urug'larni tez-tez tekshirib turar va qancha hosil berishini gaplashar edik. Mashaning menga aytgan so'zlarini g'oyatda ma'noli va ajoyib fikrlar deb bilardim. U kunlar hayotimning eng baxtli davri edi.

Aksilpasxa bayramidan¹ keyin, Dubechnyadan uch chaqirim nariroqda bo'lgan Kurilovka qishlog'idagi cherkovda ikkimiz nikohdan o'tdik. Masha to'yimizning dabdabasiz o'tishini istardi; uning xohishiga muvofiq, yangalar o'miga dehqon yigitlar kuyovo'ra bo'lishdi, bitta dyakon² xutba o'qidi; cherkovdan qaytishda kichkina shaldiroq tarantaga³ tushdik, aravani Mariya o'zi haydab kel-

¹ Nasroniyalarda: Pasxadan so'ng bir hafta o'tib, yakshanba kuni o'tkaziladigan bayram nomi.

² Pravoslav cherkovida: ruhoniylarining quyi unvoni.

³ *Tarantas* – odam tashiydigan to'rt g'ildirakli arava.

di. Shahardagilardan yolg'iz opam – Kleopatra bor edi; biz unga to'ydandan uch kun oldin xat yozgandik. Opam egniga yangi oq kuy-lak, qo'llariga qo'lqop kiyib kelgandi. Boyaqish nikoh o'qilayotgan paytda xursandligini, cheksiz mehr-muhabbatini ichiga sig'dirolmay, onalar singari sekin-asta yig'lardi. Bizning baxtiyor ekanimizni ko'rib, o'zi ham baxt-saodat sharbatini totayotganday suyungani-dan kulardi. Men nikoh o'qilayotganda opamga ko'z qirida boqib, dunyoda uning uchun ishqdan, insoniy muhabbatdan yuksak narsa yo'qligini va bu muhabbat to'g'risidagi orzularini oshkor etolmas-ligini, biroq sevgisi qizg'in, chin va cheksiz ekanini tushundim. U Mashani quchoqlab, ketma-ket o'par va o'z xursandligini qanday qilib izhor etishini bilmay, hadeb men to'g'rimda:

– Bu juda oqko'ngil, juda oliyjanob yigit! – derdi. Opam jo'nash oldidan usti-boshini almashtirib kiyib oldi-da, xoli gaplashib olmoq uchun meni boqqa taklif etdi.

– Otam xat yozmaganing uchun sendan ancha ranjidi, – dedi u. – Uning roziligini olsang bo'lardi. Lekin, chinini aytganda, eshitib, juda suyundi. Bu uylanish jamiyat nazarida uning obro'yini ko'taradi va Mariya Viktorovnaning ta'siri ostida turmushga jiddiy-roq qaraydigan bo'ladi, dedi. Har oqshom biz sendan gap ochamiz. Kecha otam: «Bizning Misail» deb ismingni tilga olganda, men juda suyunib ketdim. Aftidan, bir narsaga jazm qilganga o'xshaydi va bilishimcha, oliyjanoblik qilib, o'zi sen bilan yarashmoqchi bo'lsa kerak. Yaqin kunlar ichida kelib qolsayam, ajabmas.

U meni bir necha bor shoshib-pishib cho'qintirdi-da:

– Hay, seni Xudoga topshirdim, baxt yor bo'lsin! – dedi. – Anyuta Blagovo juda aqlli qiz, uylanishingni eshitib: ukangni Xudo yana bir sinovdan o'tkazmoqda, dedi. Kim biladi deysan?! Oilaviy turmushni faqat rohatdan iborat deb bo'lmaydi, uning azob-u uqubatlariniyam bo'ladi. Busiz mumkinmas.

Masha ikkimiz opamni uch chaqirimcha joyga kuzatib bordik; qaytishda sayr qilib yurganday, sekin-sekin va gaplashmay keldik. Masha qo'limdan ushlab kelardi; ko'nglim ravshan, endi muhabbat-dan gap ochishni istamasdim. Nikohdan o'tgandan so'ng yana ham yaqin, yana ham qadrdon bo'lganimizni va dunyoda endi hech narsa bizni ajratolmasligini sezardik.

– Opang yoqimtoygina qiz ekan, – dedi Masha, – biroq bechora qiynoqda qolgan odamga o‘xshaydi. Otang juda zolim bo‘lsa kerak.

Opam bilan men qanday tarbiyalanganimizni, yoshlik umrimiz azob ichida o‘tganini so‘zlab berdim. Otam yaqinda ham meni urgani eshitib, Mariya seskanib tushib, pinjimga kirib oldi.

– Bas, u yog‘ini aytma! – deb to‘xtatdi meni. – Bu mudhish narsa.

U endi mendan sira ayrilmasdi. Biz uch xonali katta uyda turar va kech kirishi bilan narigi bo‘sh yotgan xonaga chiqadigan eshikni, xuddi u yoqdan biron balo borday qo‘rqib, mahkam berkitib olar edik. Men tong yorishishi bilan o‘rnimdan turib, darhol biron ish qilishga kirishardim. Men arava tuzatardim, bog‘da yo‘l solardim, jo‘yak chopardim, tom tunukasini moylardim. Suli ekish payti kelganda yer haydashga, mola bosishga, urug‘ sochishga astoydil harakat qilib, xizmatkorlardan qolishmay aralashib ishlayverardim; men rosa charchardim, yomg‘ir va izg‘irin sovuqdan yuzlarim, qo‘l-oyoqlarim jazillar, tushimda haydalgan shudgorlarni ko‘rib chiqardim. Lekin dala ishlari meni qiziqtirmadi, chunki men qishloq xo‘jaligini bilmas va uni yoqtirmas edim; bunga mening ota-bobolarim dehqon o‘tmagani va kindik qonim shaharda to‘kilgani sabab bo‘lsa kerak. Tabiatga muhabbat qo‘ygandim, men dalani, pichanzorlarni, ekinzor-u polizlarni suyardim, biroq oriq otni chu-chulab, omoch bilan yer haydayotgan chuvrindi kiyimli, ivigan, qiltiriq bo‘yin mujikni men vahshiyona dag‘al va qo‘pol kuchning namunasi deb hisoblardim va yoqtirmasdim; uning o‘xshovsiz va beso‘naqay harakatlariga har safar nazar solganimda – odamlar olov nimaligini bilmagan qadimgi afsonaviy zamonlarni beixtiyor o‘ylardim. Podada yurgan dahshatli buqadan, qishloq ko‘chasidan tasir-tusur chopib o‘tgan yilqilardan ham qo‘rqardim, hattoki shoxli qo‘chqor, erkak g‘oz, qopong‘ich it va umuman, salgina kattaroq, kuchli va asovroq hayvonlar ham, nazarimda, o‘sha vahshiyona qo‘pol kuchning namoyoni bo‘lib ko‘rinaverardi. Bu dardisar xayollar meni, ayniqsa, havo o‘zgargan va haydalgan shudgor tepasida qora bulut o‘ralashgan paytlarda rosa bezovta qilardi. Masalaning muhimi shu ediki, men qanday yer haydab, qanday urug‘ sepayotganimga ikki-uch kishi qarab turganini ko‘rsam – bu qilayotgan mehnatimga hech qanday zaruriyat va eh-

tiyoj yo'qligini, shunchaki ermak uchun ishlayotganimni anglardim-da, pushaymon bo'lardim. Shuning uchun men ko'pincha hovlida boshqa biron ish bilan mashg'ul bo'lishni, xususan, tom tunukasini bo'yashni afzalroq ko'rardim.

Men bog' va pichanzordan o'tib, tegirmonimizga borardim. Tegirmon Kurilovka qishloqlik bug'doyrang, qorasoqol, chiroyli va pahlavonbashara Stepan degan mujikka ijaraga berilgandi. Tegirmon ishlarini u yomon ko'rar va bu kasbni umuman qizig'i hamda nafi yo'q deb bilar, faqat uyidan bezor bo'lgani uchun tegirmonda turishga majbur ekanini aytar edi. Stepan sarroj bo'lgani uchun hamisha undan qatron va charm hidi kelardi. Gapni yoqtirmas, bo'shang va kamharakat odam edi, daryo bo'yida yoki ostonada o'tirib, nuqul «lay-la-lay» deb ashula aytardi. Ba'zan uni ko'rgani xotini bilan qaynonasi Kurilovka qishlog'idan kelishar, ikkisi ham oppoqqina, suzilgan va yuvosh xotin edi; bular egilib ta'zim qilishar va uni «siz, Stepan Petrovich» deb sizlashardi. Stepan bo'lsa na ularning ta'zimiga, na gapiga javob berar, so'rashmay-netmay bir chetga chiqib o'tirardi-da, bemalol «lay-la-lay»ini aytaverardi. Shu ahvolda bir soat, ikki soat gap yo'q, so'z yo'q o'tiraverardi. Qaynonasi bilan xotini shivirlasha-shivirlasha o'milaridan turar va burilib qararmikin, degan umidda anchagacha unga mahtal bo'lib turishardi-da, nihoyat, yana egilib ta'zim qilib va mungli ovoz bilan:

– Xayr bo'lmasa, Stepan Petrovich! – deb ketaverishardi.

So'ngra Stepan keltirilgan tugunchadagi non va ko'ylaklarini yig'ishtirayotib xo'rsinar va ular ketgan tomonga imo qilib:

– Zoti xotin-da! – deb qo'yar edi.

Ikki toshli tegirmon tun-u kun tinmay ishlardi. Ko'pincha Stepanga qarashib turardim, umuman, bu yerdagi ishlar menga juda yoqardi, agar u biron joyga boradigan bo'lsa, tegirmonda o'zim qolaverardim.

XI

Issiqqina ochiq kunlar ketidan yog'ingarchilik boshlandi; butun may ichi yomg'ir tinmay, havo sovib ketdi. Tegirmon parraging shuvillashi va yomg'irning shildir-shildiri kishini zeriktirar va uyqusini keltirar edi; pol tinimsiz chayqalib turar, tegirmonni un hidi bosib ketardi, bu ham mudroq bostirardi. Xotinim kalta po'stin, er-

kakcha baland poshnali etik-kalish kiyib olib, kuniga ikki marta ke-
lib-ketar va hadeb nolir edi:

– Shuyam yoz bo‘ldimi? Oktyabr oyidayam bu qadar loygarchi-
lik bo‘lmas!

Ikkimiz birgalikda choy ichar, shovla pishirar yoki kun bo‘yi
yomg‘ir tinishini kutib indamay o‘tirar edik. Bir kuni Stepan alla-
qaysi bayrambozorga bormoqchi bo‘lib ketdi. Masha ham mening
yonimda, tegirmonda yotib qoldi. O‘rnimizdan turib u yoq-bu yoqni
qarasak – soat nechaligini bilib bo‘lmaydi: osmonni qora bulut qop-
lab olibdi; faqat Dubechnya tomondan har zamonda xo‘roz qichqir-
gani va pichanzorda tartarqush sayragani eshitilardi; vaqt juda erta
bo‘lib, tong otmay uyg‘onibmiz... Biz, er-u xotin ko‘l bo‘yiga borib,
kecha Stepan qo‘ygan savatto‘mi suvdan tortib oldik. To‘rda bitta
kattakon olabug‘a baliq pitirlar, qisqichbaqa qisqichini ko‘tarib hur-
payardi.

– Qo‘yib yubor, – dedi Masha. – Shu jonivorlar ham bizdek
baxtiyor yashasin.

Biz juda erta turib, hech ish qilmaganimiz uchun, nazarimda, kun
uzayib ketganday va umrimda bunchalik uzun kun bo‘lmaganday
ko‘rinardi. Kechqurun Stepan keldi, men uyga qaytdim.

– Bugun otang kelgandi, – dedi Masha.

– Qani o‘zi? – deb so‘radim.

– Qaytib ketdi. Men qabul qilmadim.

Mening indamay turib qolganimni, otamga rahmim kelganini
fahmlab, shunday dedi:

– Odam degan subutli bo‘lmog‘i lozim. Men otangni qabul qil-
madim va bundan buyon tashvishlanib, kelib ovora bo‘lmasin, deb
ayttirdim.

Bir daqiqadan so‘ng men darvoza tashqarisiga chiqib, otamga
uzr aytmoq uchun shahar tomon jo‘nadim. Yo‘l loy va toyg‘onchiq,
havo sovuq edi. To‘ydan keyin birinchi marta xafa bo‘lib, yura-
gim siqilayotganini sezdim, bugungi uzundan-uzoq bemaza kundan
charchagan miyamda: ehtimol bu xilda yashashim to‘g‘rimasdir, men
yanglishgandirman, degan fikr paydo bo‘ldi. Men charchadim, bora-
bora bo‘shanglik va erinchoqlik meni yengdi-da, yurishga, o‘ylashga
toqatim qolmadi, yana biroz yurdim-da, qo‘l siltab, qaytib keldim.

Muhandis kelganini va hovlining o'rtasida baqirib gapirayotganini ko'rdim; ustida qalpoqdor charm paltosi bor edi.

– Jihozlar qani? Bu yerda empayr uslubidagi chiroyli jihoz, surat, guldonlar bor edi, qorasiyam qolmabdi-ku! Men bu mulkni jihozlari bilan sotib olganman, qani ular?

Uning yonida katta xizmatkori Moisey telpagini qo'lida mijiqlab turardi; bu ozg'in, cho'tir, bitko'z, bir yoq beti solqigansimon, yigirma besh yashar chamasidagi bo'zraygan bir yigit edi.

– Siz janobi oliylari, bu mulkni jihozsiz olgandingiz, – dedi u zo'rg'atdan ovozi chiqarib. – Mening esimda bor.

– Ovozingni o'chir! – deb baqirib yubordi muhandis qizarib, titroq bosib; uning ovozi bog'da aks sado berib, jaranglab takrorlandi.

XII

Bog'da yoki qo'rada men biron ish qilayotgan bo'lsam – Moisey qo'llarini orqasiga qilib, kichkina shum ko'zlarini menga tikib, tepamda bo'zrayib turardi. Uning bu qiligi shu qadar jonimga tekkan-diki, g'ashim kelib, darhol ishni tashlab ketishga majbur bo'lardim.

Mana shu Moisey general xonimning o'ynashi ekanini Stepan bizga gapirib berdi. Odamlar qarzga pul so'rab kelganda, oldin Moiseyga murojaat qilganlarini payqadam; bir kuni allaqanday qopqora bir mujik, aftidan, ko'mirchi bo'lsa kerak, uning oyog'iga yiqilib yalinayotganini ko'rdim; ba'zan o'zaro shivirlashib, xonimga bildirmay o'zi pul beraverardi, men shundan so'ng uning ham o'z puli bo'lib, sudxo'rlik bilan shug'ullanishini tushundim.

Moisey hamisha bizning boqqa kirib, derazamiz tagida miltiq otar, yerto'lamizdan uni-buni o'g'irlab ketar, otlarimizni so'ramasdan olib ishlataverardi; biz qattiq g'azablanardik, bora-bora Dubechnya bizniki ekaniga ishonmay qoldik.

Bu ahvoldan Mashaning rangi o'chib:

– Shu ifloslar bilan yana bir yarim yil qanday qilib yashaymiz? – derdi.

General oyimning o'g'li Ivan Cheprakov temiryo'lda chipta nazoratchisi bo'lib ishlardi. Qish ichi u anchagina ozgan, darmoni qurigan va endi bir qadah sharobga mast bo'lib, soyada tursa, qaltirayverar edi. Nazoratchilik formasini yomon ko'rar va kiyimidan or qilib yursa ham, sham o'g'irlab sotish imkoniyati borligi uchun,

bu xizmatni qulay deb bilar edi. Men Mashaga uylanib, Dubechnyaga xo'jayin bo'lib qolganimga u tushunolmay, boshi qotgan va nima qilishini bilmas edi; goh menga rashki kelar, goh o'ziga ham shu xilda omad boqishidan umidvor bo'lib, ko'nglini ovutib yurardi. Yonidan Masha o'tib qolsa, zavqlanib unga tikilar, hozir qanday taomlar yeyayotganimni surishtirar va uning qotma, xunuk basharasi goh ma'yuslanib, goh iljayib, suqatoyligini bildirib qo'yar edi, panjalari ham o'sha taomlarni sezayotganday o'zidan-o'zi harakatga kelib, qimirlayverardi.

– Menga qara, arzimagan foyda, – deb hovliqib qolardi Cheprakov, ketma-ket popiris tutatib; u o'tirgan joyga sira son kirmasdi, chunki bitta popirisni yondirmoq uchun o'nta gugurt chaqib tashlaganidan hamma yoq ivirsib ketardi. – Bilasanmi, hozir mening hayotim rasvo bo'lgan. Har qanday arzimagan praporshchik¹ ham sensirab: «Hoy, nazoratchi! Sen – falon! Sen – tugun!» deb menga do'q qilaveradi. Vagonlarda turli-tuman gaplarni eshitaverib, bo'lganimcha bo'ldim, og'ayni; bilsam – bu turmushmas – rasvogarchilik ekan. Meni rasvo qilgan – onam! Vagonda bir do'xtir menga: buzuq otanalarning bolasi, albatta, yo sharobxo'r, yo jinoyatchi bo'ladi, dedi. Demak, hamma kasofat onamda ekan!

Bir kuni u gandiraklab hovliga kirib keldi. Shirakayf ko'zlarini alanglatib, og'ir-og'ir nafas olardi: Ivan goh kular, goh yig'lar va alahlayotgan odamday allanimalarni aytib o'zidan-o'zi chuldirar edi; uning bosh-kefi yo'q nutqidan men: «Mening onam! Qani onam?» deganini angladim; u olomon orasida onasini yo'qotib qo'ygan boladay ho'ngrab yig'lar edi. Men uni boqqa yetaklab kirdim-da, daraxt tagiga yotqizib qo'ydim; Masha ikkovimiz kun bo'yi va kechasi tong otguncha navbatma-navbat yonida qorovullik qilib chiqdik. U lohaslanib, bezovta bo'lganda, terlab-bo'zarib ketgan jirkanch basharasiga Masha qarab turib:

– Shu ifloslar bizning qo'ramizda yana bir yarim yil turadimi, a? – deb g'azablanardi. – Bunga qanday chidab bo'ladi? Bu rasvogarchilik-ku!

Dehqonlarning bizga qilgan qilg'iliklarini aytmaysizmi! Kelganimizdan beri biron kun boshimiz tashvishdan chiqmadi, baxt-

¹ Eng kichik zobit.

saodat istagan ko'nglimiz shu go'zal bahor oylaridan bahramand bo'lolmadi. Ularning xiraligi hafsalani sovutdi. Xotinim maktab ochish harakatiga tushdi. Men oltmish bola uchun maktab rejasini chizib berdim, zemstvo¹ mahkamasi uni tasdiqladi, biroq maktabni bizdan uch chaqirim naridagi Kurilovka qishlog'ida ochishga maslahat berdi; darvoqe, Kurilovka maktabiga to'rt qishloqdagi, shu jumladan, bizning Dubechnyadagi bolalar qatnab o'qir va imorati juda tor, eskirib ketgan, pollari chirib, o'pirilay deb turgan edi. Mart oyining oxirida Mashani o'z ixtiyoriga muvofiq Kurilovka maktabiga vasiy qilib tayinlashdi va shundan so'ng aprel oyida uch marta dehqonlarni majlisga yig'dik. Har majlisda bu maktabning torlik qilganini, eskirganini va yangi bino qurish zarurligini tushuntirib gapirdik. Zemstvo mahkamasining a'zosi va xalq maktablari inspektori kelib, bular ham rosa tushuntirishdi. Har yig'indan keyin dehqonlar bizni o'rab olib, bir chelak sharobga pul so'rab qistashardi; odamlar ichida kuyib-pishib, charchab ketardik, ahvoldan norozi va biroz o'sal bo'lib, uyga qaytardik. Mujiklar talasha-talasha maktab uchun yer ajratib berishdi va qurilish materiallarini shahardan o'z aravalarida tashib berishni zimmalariga oldi. Bahorgi ekinlarni ekib bo'lgandan so'ng, dastlabki yakshanba kuni Kurilovka bilan Dubechnyaning aravalari poydevorga g'isht keltirish uchun jo'nadi. Tong otar-otmas yo'lga chiqqan aravalar kechasi allamahalda qaytdi; mujiklar mast edi va toza qiynalغانlarini aytib, nolishardi.

O'chakishganday butun may oyi yomg'ir bilan sovuqdan qutulmadik. Yo'llar buzilib, loygarchilik boshlandi. Shahardan qaytgan har bir arava qo'ramizga kirib o'tishni odat qilib oldi. Bu rasvogarchilikni ko'ring! Oldin darvozadan qorni osilgan, oldingi ikki oyog'ini kergan ot ko'rinadi; ichkariga kiraverishda egilib-bukilib ketadi; so'ngra uning ketidan tegarchigiga ortilgan yigirma gazli ho'l va shilliq xodalar sudralib kiraveradi; uning yonida yomg'irdan o'ranib olgan, etaklari beliga qistirilgan, oyoq ostidagi loy-u balchiqlarni parvo qilmay, shaloplatib kelayotgan mujikni ko'rasiz. Shu ahvolda ikkinchi arava ham taxta ortib kirib keladi, uning ketidan xoda

¹ *Zemstvo* – inqilobdan ilgari Rossiyada: chekli huquqqa ega bo'lgan turli mahalliy muassasalar nomi.

ortgan uchinchisi, to'rtinchisi... qo'ying-chi, sekin-sekin uyning oldi ot, xoda, taxtalar bilan to'lib, qadam bosgani joy qolmaydi. Boshi burkangan, ko'ylagi qistirilgan erkag-u ayollar bizning deraza to-monga xo'mrayib tikiladi, shovqin soladi va Mashaning chiqishini talab etadi, so'kkanlari bermalol eshitilib turadi. Moisey bo'lsa biz-ning boshimizga kelgan bu sharmandalikni maza qilib, chetdan to-moshasini ko'rardi.

– Endi tashimaymiz! – deb baqiradi mujiklar. – Qiynalib, o'lib bo'ldik! O'ziyam tashib ko'rsin!

Mashaning ranglari o'chib, shoshib qoladi va uyga bostirib ki-rishlaridan qo'rqib, darhol yarim chelak sharobga pul chiqaradi; shundan so'ng shovqin pasayib, uzun xodalar birin-ketin hovlidan chiqib ketadi.

Men imorat tepasiga bormoqchi bo'lsam, xotinim xavotir ola-verardi:

– Mujiklar yomon. Senga biror zarar yetkazishlari mumkin. Yo'q, shoshmay tur, o'zim birga bormasam, ko'nglim tinchimaydi.

Shunday qilib, biz Kurilovkaga birga borardik, borib yetishimiz bilan duradgorlar choy puli so'rardi. Yog'ochlar chopilib tayyorlandi va endi poydevorini ko'tarish payti keldi, biroq g'isht teradigan usta-lar kelmaganidan ish to'xtab qolib, duradgorlar ming'illay boshladi. Nihoyat, teruvchilar kelganda, qum yo'qligi ma'lum bo'ldi; qum ke-rak bo'lishi hech kimning xayoliga kelmabdi. Ahvolimizning tang-ligidan foydalanib, mujiklar: bir arava qumga o'ttiz tiyindan bera-san, deb turib olishdi; qum olinadigan daryo bo'yi bilan imorat orasi chorak chaqirim kelmasa ham, aytganini berishga majbur bo'ldik; kamida besh yuz arava qum ishlatildi. Oradagi anglashilmovchilik-larning, so'kinish-u tilanishlarning nihoyati yo'q edi; xotinim becho-ra qattiq g'azablanar, Tit Petrov degan yetmish yashar pudratchi esa qo'lidan ushlab:

– Manavinisiga qara! Sen bu yog'iga qara! – derdi. – Oldin sen qumni tayyor qil, men o'n odamni boshlab kelib, ikki kunga qolmay bitiraman. Sen bu yog'idan boxabar bo'l!

Qum ham taxt qilinib, ikki kun o'tdi, to'rt kun, bir hafta o'tdiyamki, odamdan darak yo'q: poydevor o'rni boyagiday ariq-cha-ariqcha bo'lib yotardi.

– Bu ahvolda jinni bo‘lish hech gapmas! – deb tutaqardi xotinim. – Bu qanday odamlar? Bu nima degan gap?

O‘sha ish yurishmagan, serjanjal kezlarda ba‘zan muhandis Viktor Ivanovich kelib qolardi. U birtalay musallas-u yemaklarini ko‘tarib kelar va rosa yeb-ichib to‘yib olgach, ayvonda yotib uxlar va baralla xurрак otar edi. Bu ahvolni ko‘rgan mujiklar boshlarini chayqab:

– Yo tavba! – deb taajjublanardi.

Masha dadasining kelganiga suyunmas, umuman, unga ishonmas va shunday bo‘lsa ham, undan maslahat so‘rab turardi; muhandis xomush va lanj bo‘lib uyqusidan uyg‘onardi-da, bizning xo‘jaligimizni yomonlayverardi yoki shu Dubechnyani sotib olganiga pushaymon bo‘lib, undan qancha ziyon ko‘rganini gapira boshlaganda, bechora Mashaning siqilib, ma‘yuslanganini sezardim. Masha dadasiga hasrat qilar, biroq u hadeb esnayverar va: mujikni shilish kerak, derdi.

Bizning bu turmushimizni komediya deb atar va bu narsaga betayin injiqlik, to‘qlikka sho‘xlik, deb qarardi.

– Men uning shunaqa qilig‘ini bir karra ko‘rganman, – dedi men-ga Mashadan gap ochib.– Bir yili opera ashulachisi bo‘lish ko‘yiga tushib, uydan ketib qolgan; men uni rosa ikki oy izlabman deng, azizim, yolg‘iz shoshilinchnomaning o‘ziga ming so‘mim ketgan.

U meni endi mazhabparast deb ham atamas, janob bo‘yoqchi deb ham chaqirmasdi, mening ishchi bo‘lib hayot kechirganimni ilgari maqtagan bo‘lsa ham, hozir yoqtirmasdi.

– Siz g‘alati odamsiz! Sal g‘alatiroq odam ekansiz! Ishqilib, aytganim kelmasin-u, lekin oxiri pachavangiz chiqishi muqarrar!

Masha kechalari behuzur bo‘lib, notinch uxlaydigan, karavot yonidagi deraza oldida o‘tirib olib, allanimalarni o‘ylaydigan bo‘lib qoldi. Avvalgi kechki taom mahalidagi kulishlari, yoqimli qiliq va boqishlari yo‘qolib ketdi. Men azobda edim; yomg‘ir yog‘a boshlasa, har bir tomchisi sochma o‘qday yuragiga qadaldardi va men Mashaning oyog‘iga yiqilib, bu yaramas havo uchun uzr so‘ragim kelardi. Hovlida mujiklar shovqinlashsa ham, men o‘zimni aybdor sezaverardim. O‘tirgan joyimdan necha soatlab qo‘zg‘almay, faqat Mashani, uning naqadar oliyjanob va ajoyib odam ekanini o‘ylardim. U kabinetda jimjit ishlashni, uzoq o‘tirib kitob o‘qishni, biror narsa-

ni o'rganishni yaxshi ko'rardi; Masha xo'jalik masalalarini kitobdan, faqat nazariy tomondan bilganiga qaramay, o'z bilimi bilan hammani hayratda qoldirar va bergan maslahatining birontasi zoye ketmas, xo'jaligimizga yaxshi foyda keltirardi. Buning ustiga, Mashadagi did va farosatni, oliyjanoblik va oliyhimmatlilikni aytmysizmi! Bu fazilatlar faqat yuksak tarbiya olgan kishilarda bo'lishi mumkin!

To'g'ri va sog'lom fikrli bu dono xotin uchun janjal-u tashvishlardan chiqmagan bizning hozirgi tartibsiz turmushimiz – turmush emas, chinakam bir azob edi; men buni aniq bilar va kechalari uxlamay, o'ylanaverar, o'pkam to'lib, yig'laguday bo'lib chiqar edim. Nima qilishimni bilmay boshim qotgandi.

Men atayin Masha uchun shahardan kitob-u gazetalar, konfet-u gullar keltirardim, yonimga Stepanni olib baliq ovlardim, yomg'irda bo'yningacha muzday suv kechib, necha soatlab yelimbaliq izlardim, ishqilib, bu tansiq taomdan Masha xursand bo'lsin, deb jon kuydirardim; mujiklar oldida o'zimni xor etib, yalinib-yolvorib shovqin-suron ko'tarmasliklarini so'rardim, sharob quyib ichirar, pul bilan aldar, har xil va'dalar berar edim. Qilmagan noma'qulchiligim qolmadi.

Axiyri, yomg'ir tindi, yerlar quridi. Ertalab barvaqt, soat to'rtlarda turaman, boqqa chiqaman – gullarda shabnam yaltiraydi, qushlar sayraydi, arilar g'o'ng'illaydi, osmonda bulutdan asar ko'rinmaydi; bog', pichanzor, daryoni tomosha qilsang, bir-biridan go'zal! Lekin mujiklar, aravalar yoki muhandis esga tushsa – yurak orqaga tortib ketadi. Masha ikkimiz poyga aravasiga tushib olamiz-da, sulilarni ko'rib kelgani jo'naymiz. Aravani Masha haydaydi, men keyinida o'tiraman; kiftlari ko'tarilib, shamol sochlarini o'ynatadi.

– O'ng tomondan o't! – deb baqiradi duch kelganlarga.

– Xuddi aravakashga o'xshaysan-a! – dedim unga bir kuni.

– O'xshasam, ajab bo'пти! Bobom, axir, muhandisning otasi, aravakash o'tgan. Eshitganing yo'qmidi? – deb so'radi men tomon burilib va o'sha zahotiyuq aravakashlarning baqirishini va ashula aytishini ko'rsatib berdi.

– Xudoga shukur! – deb qo'ydim ichimda bu gapni eshitib. – Xudoga shukur!

Yana mujiklar, aravalar, muhandis esimga tushdi...

XIII

Velosiped minib doktor Blagovo keldi. Opam ham tez-tez ke-
lib turadigan bo'lib qoldi. Yana jismoniy mehnat, taraqqiyot to'g'-
risidagi, insoniyat olamiga nasib bo'lg'usi ulug' va noma'lum
kelajak to'g'risidagi bahslarimiz qizib ketdi. Doktor bizning xo'ja-
ligimizni yoqtirmasdi, chunki bu narsa bahslashishimizga xalaqit
berardi; haydash, o'rish, buzoq boqish kabi ishlar erkin inson uchun
munosib emasligini va turmush uchun kurashdagi bu xil og'ir, qo'pol
yumushlarni odamlar kelgusida hayvonga va mashinaga yuklayaja-
gini, o'zlari faqat ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanajagini gapirardi.
Opam esa dam-badam ketishga ruxsat so'rar va agar barvaqt ketol-
masa yoki yotib qolguday bo'lsa, vahima bosib, hovliqaverardi.

– Tavba-yey, yosh bolaga o'xshaysiz-a! – derdi Masha. – Buna-
qa qilishingiz juda g'alati-ku, axir!

– Rost aytasiz, g'alati, – derdi opam, – men g'alati ekanini bilib
turibman; biroq o'zimni bosolmasam, nima qilay, axir? Nazarimda,
chakki ish qilayotgan odamday, ko'nglim g'ash bo'laveradi.

Chalg'ida pichan o'rishga o'rganmaganim uchun a'zoyi badanim
og'rib qoldi; kechqurunlari ayvonda gaplashib o'tirib, birdan uxlab
qolaveradigan bo'ldim. Atrofimdagilar buni ko'rib, haholab kuli-
shardi. Meni uyg'otib, ovqat yegani o'tirgizishardi, meni mudroq
bosaverar, chiroqni, likopchani, o'tirganlarning yuzini ko'rib, ovo-
zini eshitardim-u, hech narsani anglolmasdim. Erta tongda tetik va
dadil bo'lib uyg'onardim-da, kun bo'yi pichan o'rish yoki imoratda
ishlash uchun ketaverardim.

Men bayram kunlari uyda qolib, xotinim bilan opamning bir
nimani mendan sir tutayotganini, hattoki, o'zlarini mendan xoliroq
tutishga harakat qilganlarini sezdim. Xotinim menga avvalgiday
yaxshi, shirin muomala qilar, biroq o'z fikrini menga aytmas edi.
Dehqonlarga nisbatan g'azabi tobora oshganini, turmush uning uchun
kundan kunga og'irlashganini aniq bilardim-u, biroq nima uchun
menga o'z dardi-hasratlarini gapirmay qo'rganiga tushunolmasdim.
Mendan ko'ra doktor bilan ko'proq gaplashadigan bo'lib qoldi va
men sababini bilolmadim.

Bizning gubernamizda pichan va g'alla o'rish payti kelganda
kechqurunlari o'roqchilar yig'ilishib, xo'jayinning hovlisiga keladi-

gan bir odat bor edi; xo'jayin ularga sharob quyib berardi; yoshgina qizlarning bir stakan sharobni bemalol ichganini ko'rardim. Biz bu odatga rioya qilmasdik; o'roqchi erkaklar va xotinlar qorong'i tushguncha sharob kutib hovlimizda turishardi-da, so'ngra so'kib-so'kib qaytib ketishardi. Masha qovog'ini solib, indamay bunga chidab turar yoki achchiqlanar va doktorga sekingina:

– Bular odammi? Vahshiy, pecheneglar-ku!! – der edi.

Yangi kelgan odamni qishloqdagilar yoqtirmasdi, maktabga kelgan yangi bolani eskilar chiqishtirmaganday, bizdan begonasirasha-verdi, sira do'st bo'lolmadik.

Oldin bizni pulini qayoqqa qo'yishni bilmaganidan shu mulkni olgan ahmoq va laqma odamlarga yo'yishdi. Masxara qilib, rosa kullishdi.

Bizning bog' va o'rmonlarimizda bemalol mollarini boqar, jo'rttaga sigir va otlarimizni qishlog'iga haydab olib ketar va so'ngra: moling ekinimni yedi, deb haq talab qilishar edi. Bir gala qishloqlar hovlimizga kelib: o'rayotganda chegarani buzibsiz, Bisheyevka, Semenixa qishlog'iga qarashli yerlarni ham qo'shib o'rib yuboribsiz, deb g'avg'o ko'tarishardi; biz esa o'z yerlarimizning chegarasini aniq bilmaganimiz uchun gaplariga ishonib, jarima to'lardik; keyin surishtirib qaracak, bu yerlar o'zimizniki bo'lib chiqardi. O'rmonimizdagi daraxtlarning po'stlog'ini shilib ketishardi. Dubechnyada ruxsatsiz sharob sotish bilan shug'ullangan bir tamagir xizmatkorlarimizni aldadab, yo'ldan ozdirar va shular bilan til biriktirib, bizga xiyonat qilard: aravalarimizning yap-yangi g'ildiragini olib, o'rmiga eskisini solib qo'yar, bo'yinturuqlarni o'g'irlab ketib, yana o'zimizga sotar edi. Lekin hammasidan ham Kurilovkadagi maktab qurilishining ahvoli juda achinarli edi; kechasi xotinlar taxta, g'isht, koshin va tunukalarni o'g'irlab ketishardi; ellikboshi bir-ikkita xolis kishini yoniga olib, uylarini tintar, dehqonlar yig'ilishib, har bir o'g'riga ikki so'm jarima solishga qaror qilardi-da, so'ngra bu yig'ilgan pulga sharob olishib ichishar edi.

Masha bu gapni eshitganda, jig'ibiyroni chiqib, doktorga yoki opamga:

¹ *Pecheneglar (bijanaklar)* – VIII–XII asrlarda Yevropaning sharqiy janubida ko'chmanchilik qilib yurgan qadimgi turkiy qabilalar.

– Bularning hayvondan farqi yo‘q! Bir balo! Baloyi azim! – deb hasrat qilardi.

Men Mashaning shu maktab qurilishiga: chakki kirishdim, deb bir necha marta pushaymon yeb noliganini eshitdim.

– Shuni bilingki, – deb uqdirardi doktor, – agar maktab solsangiz va umuman, savob ishlar qilsangiz – siz mujiklar uchunmas, madaniyat uchun, kelajak uchun xizmat qilgan bo‘lasiz. Shuning uchun mujiklar qanchalik nodon bo‘lsa, maktab solishning zaruriyatini ham shunchalik ortadi. Buni tushunish kerak!

Lekin doktorning gaplarida qandaydir ikkilanish borligini sezar dim va o‘zi ham Masha singari mujiklarni yomon ko‘rsa kerak, deb o‘ylardim.

Masha ko‘pincha opam bilan birga, tegirmonga borar va ketayotib: Stepanning husnini tomosha qilib kelamiz, deb kulishardi. Stepani tushgur erkaklar orasida yuvosh va kamgap, lekin xotinlarni ko‘rsa, rosa shilqimligi va gapdonligi tutib, jag‘i tinmas ekan. Bir kuni daryoga cho‘milgani kelib, bexosdan gaplarini eshitib qoldim. Masha bilan Kleopatra oppoq kiyimda suv bo‘yidagi tol tagida, soyada o‘tirar, yonlarida Stepan, qo‘llari orqasida, ularga gap ma‘qullamoqda edi. U bunday derdi:

– Mujiklar odammi? Odammas, xuddi hayvon, hammasi muttaha. Kechirgan kuni qursin! Shuyam turmushmi? Yolg‘iz yemoqni, ichmoqni bilishadi, arzon ovqat bo‘lsa bas, qovoqxonaga kirvolib, baqirishaveradi! Na bir yaxshi suhbat, na tuzuk muomala, na tartib degan narsa bo‘lmasa! Nodonlikdan boshqa gap yo‘q. O‘ziyam iflos, xotiniyam iflos, bolalariyam; ustidagi kiyimini yechmay yotaveradi, sho‘rvaga qo‘lini tiqib, kartoshkani olib yeydi, suvarak tushgan kvasni shimiraveradi – hech bo‘lmasa, olib ham tashlamaydi.

– Hammasiga kambag‘allik sabab, – deb aralashdi opam.

– Kambag‘allik deysiz-a! To‘g‘ri, qashshoqlik, muhtojlik yo‘qmas, biroq muhtojlik ham har xil bo‘ladi, boyvuchcha. Masalan, kishi qamoqxonaga tushsa, yoki, Xudo ko‘rsatmasin, ko‘r, shol bo‘lsa – unda gap boshqa. Lekin oyoq-qo‘li, es-hushi butun, kuch-quvvati joyida, Xudoning dargohida sog‘-salomat yurgan bo‘lsa – tag‘in nima kerak? Bu hammasi sho‘xlikdan, nodonlikdan, boyvuchcha, kambag‘allikning bunga aloqasi yo‘q. Masalan, siz juda yaxshi, bilimdon nasablardan bo‘lganingiz uchun ularga rah-

mingiz kelib, yordam qilsangiz, rasvolikka o'rganganidan bergan pulingizni ichib qo'yadi yoki undan ham battarini qilib, shu pulga qovoqxona ochadi-da, xalqni shila boshlaydi. Tag'in siz, kambag'alchilik, deysiz. Unday bo'lsa, boy mujikning ahvoli yaxshimi? Boylariyam, kechirasiz-u, cho'chqaning o'zi. O'lguday baqiroq, qo'rs, qo'pol, to'nka nima-yu, u nima: semirib, tarvaqaylaganidan yurolmaydi, bunaqa to'ng'izning basharasiga qo'yib yuborging keladi. Dubechnyalik anavi Larion boymasmi? O'rmoningizdagi daraxt po'stlog'ini shilib olishda kambag'allarga dars beradi; og'zi shaloq, bolariyam shunaqa, ko'proq ichib qo'ysa – balchiqqa mukka tushib, uxlayveradi. Hammasi bir-biridan battar iflos. Bular bilan qishloqda birga yashash nima-yu, do'zaxda kuyish nima! Qishloq, desa, jonim halqumimga keladi; Xudoyimga shukurki, qornim to'q, ustim but, otliq askarda xizmatni ado etganman, uch yil ellikboshilik qilib ko'rdim, mana, endi o'zimga xon, ko'lankam maydon: qayerda xohlasam, o'sha yerda yashayman. Qishloqda turishni xohlamayman, meni hech kim majbur qilolmaydi. Xotining bor, deyishadi, xotining bilan bir uyda yashashing shart, deyishadi. Shunaqami? Men xotinimga qarol bo'lib yollanmaganman, ixtiyor o'zimda.

– Rostini ayting-chi, Stepan, xotiningizga sevib uylanganmiz? – deb so'radi Masha.

– Qishloqda sevgi nima qiladi? – deb javob berdi Stepan jilmayib. – Agar, boyvuchcha, bilmoqchi bo'lsalar, rosti, ikkinchi uylanishim. Men o'zim kurilovkalikmasman, asli zalegoshchalikman, Kurilovkaga ichkuyov bo'lib kelganman. Bizlar besh og'a-ini edik, otam ro'zg'orimizni ajratishga rozilik bermagani uchun men, xayr, deb uydan chiqib ketdim va begona qishloqqa ichkuyov bo'lib keldim. Birinchi xotinim yoshgina o'lib ketdi.

– Nima bo'lib o'ldi?

– Nima bo'lib o'lardi – o'zining esi yo'qligidan. Bekorga yig'layverardi, shu ahvolda ozib sarg'ayib ketdi. Husnni ocharmish, deb allaqanday ko'katlarni ko'p ichdi, o'shanda dori ichini kuydirib yuborgan bo'lsa kerak. Ikkinchisi kurilovkalik, shuyam xotinmi? Qishloqi, zoti mujik bo'lgandan keyin o'zi nima bo'lardi? Shuni menga unashtirishmoqchi bo'lishganda, o'ylab turib: yoshgina, oppoqqina, ozoda odamlar ekan, deb ko'naqoluvdim. Onasi pokiza xotin ekan, qahva icharkan, hammasidan ham bularning ozodaligi

yoqdi. Shunday qilib, uylandim, ertasi kuni ovqat yegani o'tirdik, men qaynonamdan qoshiq so'rasam, qoshiqni qo'li bilan artib, menga uzatsa bo'ladimi? Ana xolos! Qoyilman ozodagarchiligingizga! – dedim o'zimcha. Bir yil shular bilan turdim-da, chidolmadim, uydan chiqib ketdim. Asli, shaharlik xotinga uylansam bo'larkan, – dedi u biroz o'ylanib turib. – Xotin erning yordamchisi, deyishadi. Menga yordamchining nima keragi bor? O'zim o'zimga yordam qila olaman, menga gaplashadigani kerak, bir xil bidi-bidisimas; bama'nisi va ko'nglingni gap bilan eritadigani kerak. Orada shirin-shirin suhbat bo'lmagandan keyin turmush turmush bo'ladimi?

Stepan birdaniga jim bo'ldi va shu zahotiyoq jonga tekkan, be-maza «lay-la-lay» eshitildi. Demak, u meni ko'rib qoldi.

Masha tez-tez tegirmonga borib turar va chamamda, Stepanning suhbatidan lazzatlanar edi; Stepan mujiklarni astoydil yomonlardiki, Masha bunga ishonar va uning oldiga borgisi kelaverar edi. Tegirmondan qaytib kelayotganida, bog'da qorovullik qilgan ovsar mujik hamisha unga:

– Palashka opa! Salom, Palashka opa! – deb baqirar va it bo'lib ketidan vovullardi.

Masha esa atayin to'xtab, xuddi ovsarning bu vovullashida biron ma'no borday, diqqat bilan basharasiga tikilardi. Bu ovsar qorovul ham unga Stepan singari ta'sir etgan bo'lsa, ajab emas. Uyga kelsa, albatta, biron xunuk xabarga duch kelardi: yo qishloq g'ozlari karam-zorni payxon qilib tashlaganini, yo Larion uzangini o'g'irlaganini eshitardi-da, hayronlikdan kifllarini qisib, kulimsirab:

– Bu odamlardan boshqa nimaniam kutarding?! – deb qo'yardi.

Masha g'azablanaverar va hammasini ko'ngliga tugib yurardi, men esa, aksincha, sekin-sekin mujiklarga o'rgana boshladim, shularning oldiga borgim kelaveradigan bo'ldi. Ularning ko'pchiligi asabiy, serjahl, tahqirlangan kishilar bo'lib, xayoli parishon, nodon, tushunchasi past va dunyobexabar kishilar edi; hammasining ko'rgan-bilgani unumsiz yer, og'ir turmush, qora non bo'lib, undan narisiga aqli yetmasdi; bular doim quvlik qilmoqchi bo'lardi-yu, biroq eplolmasdi. Hisobni ham tuzuqroq bilishmasdi. Bular o'laqolsa yigirma so'mga rozi bo'lib pichaningizni o'rmaydi, lekin yarim chelak sharobning daragini eshitsa – yopirilib keladi, vaholanki, yigirma so'mga to'rt chelak sharob beradi. Haqiqatan bular orasida

ifloslik, sharobxo'rlik, ahmoqqarchilik, aldash borligi to'g'ri, lekin shularga qaramay, umuman, mujiklar hayotining negizi mustahkam va sog'lom ekani sezilib turadi. Omoch ketida ivirsib yurgan mujik qanchalik beso'naqay ko'rinmasin, nechog'li sharobxo'rlik dardiga giriftor bo'lmasin, yaqindan mundoq razm solib qaralsa, unda eng kerakli, eng muhim bir fazilat borligi ma'lum bo'ladi; mujik yer yuzida eng ulug' narsa – haqiqat ekaniga va faqat haqiqatning barchaga najot berishiga ishonadi, shuning uchun dunyoda hamma narsadan ko'ra ko'proq adolatni yaxshi ko'radi; biroq bunday ishonch Masha bilan doktorda yo'q edi. Men xotinimga faqat oynadagi dog'nigina ko'rayotganini, lekin asosiy narsani, ya'ni oynaning o'zini payqamayotganini gapirsam, indamay jim turaverar yoki Stepanning «lay-la-lay» ashulasini boshlar edi... Shu qadar soddadil va oqila bir xotinning rangi o'chib, fig'oni chiqib, mujiklarning sharobxo'rligi va aldoqchiligini doktorga astoydil yomonlab gapirayotganini eshit-sam, bunchalik xayoli faromush va unutuvcchan bo'lganiga taajjublanardim. Axir, o'z otasi – muhandis ham rosa ichadi-ku! Shu Dubechnya xilma-xil nayrang, vijdonsizlik va aldashlar orqasida sotib olingan-ku! Qanday qilib buni unutish mumkin?

XIV

Opamning hayoti ham g'alati bir tarzda kechardi va mendan butun sir-asrorini yashirardi. Ko'pincha Masha ikkisi shivir-shivir qilishar, men yoniga borguday bo'lsam, qisilib-qimtinib qolar va gunohkor odamday ko'zlari javdirardi; ko'ngli bezovtaga, qo'rqqanga va uyalganga o'xshardi. Opam men bilan xoli qolmaslikka yoki bog'da yolg'iz uchrashmaslikka harakat qilar, shuning uchun Mashadan bir qadam ham ajramas edi va men u bilan juda kam, faqat ovqat mahallarida gaplashardim.

Bir kuni kechqurun qurilishdan qaytishda bog' ichi bilan yurdim. Qorong'i tusha boshlagandi. Kattakon olma daraxti tagida bir soya singari jimjit aylanib yurgan opamni ko'rib qoldim. U mening kelayotganimni sezmedi. Egnida qop-qora kiyim, to'xtovsiz u yoq-bu yoqqa borib-kelar va boshini yerdan ko'tarmasdi. Daraxtdan tap etib olma tushdi, opam cho'chib, to'xtab qoldi va qo'llari bilan chakklarini ushladi. Shu vaqtda men uning yoniga keldim.

Birdan mehr-muhabbatim mavjlanib, ko'zlarim jiq yoshga to'ldida, negadir onamiz, yoshlik chog'larimiz esimga tushib ketdi, men uni bag'rimga bosib, o'pdim.

– Sizga nima bo'ldi, opajon? – deb so'radim. – Ko'pdan beri azob chekayotganingizni sezib yuribman. Ayting, sizga nima bo'ldi?

– Men dahshatli bir dardga yo'liqqanman... – dedi zo'rg'a qal-tirab.

– Sizga nima bo'ldi? Xudo xayringizni bersin, mendan yashirmang! – deb yolvordim.

– Xo'p, endi yashirmayman, senga chinini aytib beraman. Sendan yashiraverib, jonim halqumimga keldi! Misail, ishq dardiga giriftorman... – dedi u eshitilar-eshitilmas. – Men sevaman, sevaman... Men baxtiyorman, biroq hadeb vahima bosaveradi...

Birov kelayotganga o'xshadi, daraxtlar orasida shohi ko'ylak, baland etik kiygan doktor Blagovo ko'rindi. Shu olma daraxti tagida uchrashishga va'da qilgani ma'lum bo'ldi. Uni ko'rgan zahotiyopam xuddi doktorni birov olib ketadiganday hovliqib yugurdi va:

– Vladimir! Vladimir! – deb entikib, o'zini butunlay yo'qotib qo'ydi.

Opam doktorning pinjiga kirib, yuzlariga tikilib qoldi va men shu kunlarda ancha rangi o'chib, ozib qolganini endi payqadim. Ozgani ko'yлагining uqali yoqasidan bilinib turardi: ilgari ingichka va cho'ziq bo'yniga yopishib turgan yoqasi – endi ancha salqib qolgandi. Doktor uyalib, shoshib qoldi, biroq darhol o'zini tutib, uning sochlarini silab:

– Bo'ldi, bo'ldi!.. – deb ovutishga urindi. – Nega bunchalik xafa bo'lasan? Mana, keldim-ku!

Uyalganimizdan bir-birimizga zo'rg'a qaradik; so'ngra uchovimiz birga ketdik, o'shanda doktor yo'l-yo'lakay menga shunday dedi:

– Bizda hali madaniy hayot boshlangani yo'q. Chollar, hozir hech narsa bo'lmasayam, qirqinchi va oltmishinchi yillardagi ko'rganbilganlari bilan o'zlarini ovutishaveradi; lekin ular – chollar, siz bilan biz yoshmiz, miyalarimiz qarilik maraziga hali yo'liqqani yo'q, biz bu xil xomxayollar bilan o'zimizni ovutolmaymiz. Rus tarixi sakkiz yuz oltmish ikkinchi yilda boshlandi, biroq mening bilishimcha, Rossiyada madaniyat davri hali boshlangancha yo'q.

Lekin doktorning bu mulohazalari unchalik qulog'imga kirmasdi. Opamning sevgisiga ishongim kelmas va begona kishining qo'lidan ushlab, yuzlariga mayin boqib, yonida ketayotganiga taajjublanar edim, xolos. Opam juda asabiy, yurak oldirgan va ezilgan bir kimsa, ixtiyori o'zida emas, shu ahvoli bilan xotin, bola-chaqali bir kishini yaxshi ko'rsa – oqibati nima bo'larkin? Men qattiq achindim, biroq nimaga achinganimni bilmasdim, doktorning borligiga negadir g'ashim keldi va bu muhabbatning oqibati nima bo'lishini o'ylab-o'ylab topolmadim.

XV

Masha ikkimiz Kurilovkadagi maktabning bitish munosabati bilan duoyi-fotiha marosimiga jo'nadik.

– Kuz, kuz, kuz keldi... – derdi ma'yuslanib Masha atrofqa qarab. – Yoz ham o'tdi-ketdi. Parrandalar ham ko'rinmaydi, ko'kargan narsadan yolg'iz tol qolibdi, xolos.

To'g'ri, yoz ham o'tib ketdi. Hali havo ochiq, kun issiq ekaniga qaramay, ertalab anchagina sovuq bo'lganidan podachilar po'stinini kiyib olishgandi, bog'imizdagi qo'qongullarga tushgan shabnam kun bo'yi ko'tarilmasdi. Allaqanday mungli tovushlar hadeb eshiti-laverar va buning uchib ketayotgan turnalar ovozi yoki deraza qopqalaridagi zanglagan oshiq-moshiqlarning g'ijirlaganimi, bilib bo'lmasdi, lekin kishining ko'ngli yayrar va yashagisi kelaverar edi.

– Yoz tamom bo'ldi... – dedi Masha. – Endi qilgan ishlarimizning yakunini ko'rib chiqsak ham bo'lar. Ikkimiz ko'p ishladik, ko'p o'yladik, natijada ancha o'sdik, kamolotga erishdik. Balli, azamatlar, deydigan darajaga yetdik; lekin bu yutuqlarimiz atrofdagilar hayotiga qisman bo'lsayam ta'sir etdimi, biron kishiga foyda keltirdimi? Yo'q. Jaholat, jismoniy ifloslik, sharobxo'rlik, bolalarning o'lishi – hammasi ilgarigiday qolaverdi. Sen yer haydaganing, ekin ekaning bilan, men pul sarflaganim, kitob o'qiganim bilan – biron tasining ahvoli tuzalgani yo'q. Demak, biz faqat o'zimiz uchun ishlabmiz, o'zimizni o'ylabmiz, xolos.

Bu xil mulohazalardan mening miyam gangib, nimani o'ylashimni bilmay qoldim.

– Biz avvaldan to oxirigacha samimiyat bilan ishladik, – dedim, – kimki samimiy bo'lsa – o'sha haqli, o'shaniki to'g'ri.

– Men undanmas deyaqmanmi? Albatta, biz haqli edik, biroq to‘g‘ri niyatlarimizni noto‘g‘ri amalga oshirdik. Avvalo, shu ishga kirishish usullarimizning o‘zi noto‘g‘rimasmi, axir? Biz odamlar uchun foydali ishlar qilish niyatida edik, biroq dastlabki qadami-mizni yer-mulk sotib olishdan boshlaganimizdayoq o‘z yo‘limizni o‘zimiz to‘sib qo‘ydik va ularga biron yordam qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ldik. So‘ngra agar sen mujik singari ishlab, mujik kabi kiyinib, shu xilda taomlar yeydigan bo‘lsang, demak, sen mujikning og‘ir turmushini, beso‘naqay ust-boshini, chordevor uyini va ahmoqona soqol qo‘yishini to‘g‘ri hisoblagan va el ichida shuni tasdiqlab bergan bo‘lasan; chunki tuppa-tuzuk odamki, mujikka taqlid qilgandan keyin mujik ham: o‘zimizni to‘g‘ri ekan, deydi-da!.. Ikkinchi tomondan, faraz qilaylik, sen shular orasida ko‘p vaqtgacha, uzoq davr, hatto umr bo‘yi ishlading va pirovardida, ba‘zi bir amaliy natijalarga erishding, deylik. Sen erishgan bu natijalar yoppasiga nodonlikni, ochlik-yalang‘ochlikni yoki boshqa razolatlarni yengolarmidi? Yo‘q. Bu ofatlar zo‘r kuch va uning qarshisida erishgan natijalaring zarraday bir gap! Bu ishda boshqacharoq kurash usullari, kuchli, dadil va shoshilinch choralar darkor. Agar haqiqatan foyda yetkazish niyating bo‘lsa – oddiy faoliyat doirasidan shartta chiqib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri omma orasida ishlashga harakat qil! Avvalo, jar solib, qizg‘in tashviqot yurgizish lozim. Masalan, musiqaning nima uchun bu qadar tez tarqalishiga, shunchalik ommabop va kuchli ekaniga sabab qayerda? Sabab musiqa yoki ashulachida, chunki u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ming-ming kishilarga, ommaga ta‘sir etadi. E, aziz va jonajon san‘at! – dedi u xayolan zavq bilan osmonga boqib. – San‘at belingga qanot bo‘lib, uchirib, yiroq-yiroqlarga olib boradi! Kimning joniga dunyodagi ifloslik, ikir-chikirlar tekkan bo‘lsa, kimki, g‘azablangan yoki ranjigan, ko‘ngli nafratga to‘lgan bo‘lsa – u odam faqat san‘atdan, go‘zallikdan orom olishi, ko‘ngli taskin topib, qanoat hosil qilishi mumkin.

Biz Kurilovkaga yetganimizda, osmon tiniq, ajoyib xushhavo edi. Birmuncha qo‘ralarda don yanchilmoqda va hamma yoqdan somon hidi kelardi. Chetanlar orqasidagi chetandaraxt mevasi pishgan va qaysi tomonga qaralmasin, hamma yoqda oltinday sarg‘aygan yoki qizargan daraxtlar ko‘rinadi. Cherkovda qo‘ng‘iroq chalinmoqda,

odamlar xoch va butlarni ko'tarib, salovat aytib, maktab tomonga bormoqda. Havo musaffo, osmonda kaptarlar balandlab uchardi.

Sinfda ibodat qilindi. So'ngra kurilovkalik dehqonlar Masha – ikona, dubechnyaliklar – kattakon bo'lka non bilan zarhal tuzdon taqdim etishdi. Ko'ngli erib, Masha yig'lab yubordi.

– Agar oramizdan chakki gaplar o'tgan bo'lsa yoki xafa qilgan bo'lsak, bizni kechirasiz, – dedi bir chol va Masha bilan menga ta'zim qildi.

Uyga qaytishda Masha qayta-qayta burilib, maktab tomonga qaradi; men bo'yagan va oftobda yaraqlab turgan ko'm-ko'k tunuka tom uzoqlardan ko'rinardi. Men Mashaning nigohidan maktab bilan vidolashayotganini sezdim.

XVI

Kechqurun Masha shaharga otlandi.

So'nggi kunlarda tez-tez shaharga boradigan va u yerda yotib qoladigan odat chiqardi. U yo'q paytlari men hech nima qilolmasdim, qo'lim bo'shashib ishga bormasdi; ko'zimga shu kattakon hovlimiz allaqayday qovushmagan, xunuk bir xarobazorga o'xshab ko'rinaverar, bog' esa huvillab qolar va usiz uy-joy, daraxt, otlar, umuman, hamma narsa men uchun begona bo'lib qolardi.

Men uydan chiqmasdan, Mashaning stoli qoshida o'tirar, qishloq xo'jaligiga oid kitoblar solingan shkafga tikilar edim; ilgari arzanda bo'lgan bu kitoblar endi keraksiz, mung'ayib ko'rinardi. Necha soatlab o'tirib, yettiga, sakkizga, to'qqizga zang urguncha, qop-qora, qorakuyaday kuz qorong'iligi olamni o'rab olguncha, men uning eski qo'lqopiga yoki xat yozadigan pat qalamiga, yo bo'lmasa, kichkina qaychisiga qarab o'tirardim va hech ishga qo'lim bormasdi; ilgari yer haydash, pichan o'rish, yog'och kesish kabi ishlarni yolg'iz uning xohishi uchungina qilib kelganimni endi aniq tushundim. Mabodo, Masha menga: chuqur quduqni tozalaysan, desa, bel bo'yi suvda ivishimga qaramay, quduqqa tushaverar va buning keragi bormi-yo'qmi – surishtirmas edim. Mana, endi yonimda Masha bo'lmagach, Dubechnyaning buzilib, yorilgan imoratlari, huvillagan qo'ralari, sharaqlagan deraza qopqoqlari, tungi va kunduzgi o'g'rilari menga baloday tuyula boshladi, nazarimda, endi hech bir ishning hojati yo'qday ko'rinaverdi. Rost, ko'nglimki buzilib, mendan ixtiyor ke-

tayotganini, Dubechnyadagi rolim ado etilib, menga bu yerda boshqa vazifa yo'qligini, men ham shkafdagi kitoblar singari keraksiz bo'lib qolganimni sezib turgandan keyin ishlashimning, tashvishlanishimning va kelajak to'g'risida o'ylashimning nima hojati bor edi? Voh, shu qadar iztirobli bir tun ediki, men yolg'izlikda daqiqa sayin vahima bosib, quloq solardim, nazarimda, hozir birov kirib kelib: ket bu yerdan, deydiganday, o'zimdan-o'zim hadiksirab, azob ichida zo'rg'a tong ottirdim. Men Dubechnyaga emas, o'z sevgimga achindim; muhabbatimning ham xazon payti kelganini tushundim. Sevish va sevilish qanday yuksak bir baxt, lekin shu yuksaklikdan qulayotganingii sezish – dunyoda eng og'ir musibatdir!

Ertasi kuni kechqurun Masha shahardan keldi. Allanimadan ko'ngli g'ash ekani sezilib tursa ham, yashirdi va derazaga qishki romlar qo'yilganidan norozi bo'lib:

– Bu ahvolda odam dimiqib o'ladi-ku! – dedi.

Men ikkita romni olib tashladim. Ko'nglimiz ovqat tusamasa ham, o'tirib ovqatlandik.

– Tur, qo'lingni yuvib kel, – dedi xotinim, – bo'yoq hidi kel-yapti.

Ovqatdan so'ng Masha shahardan olib kelgan rasmlı jurnallarnı ikkimiz birga ko'zdan kechirdik. Yangi urfga oid surat va bichiqlar chizilgan ilovasi ham bor edi. Masha hozircha chala-chulpa ko'rib, keyin bafurja qarab chiqish uchun bir chetga olib qo'ydi; biroq kengina etaklari qo'ng'iroqqa o'xshagan, yenglari kattakon bir ko'ylak unga yoqdi, shekilli, birpas zehn solib turdi-da:

– Bu chakkimas, – deb qo'ydi.

– To'g'ri, bu ko'ylak senga juda yarashadi, – dedim. – Juda yarashadi!

Bu sulukat Mashaga yoqqani uchun men chin ko'nglimdan quvondim va shu xira suratni astoydil ko'zdan kechirdim, og'zim shirin gaplardan to'xtamadi:

– Juda ajoyib, rosa chiroyli ko'ylak ekan! Sohibjamolim, dur-u noyobim Masha! Azizam Masha!

Ko'z yoshim tirqirab, suratga toma boshladi.

– Erkatoyim Masha!.. – derdim hamon. – Qadrdonim, aziz jonim Masham...

U borib yotdi, men yana bir soatcha o'tirib, jurnaldagi rasmlarni tomosha qildim.

– Romlarni olib chakki qilding, – dedi u yotoqxonadan turib. – Uy sovib ketarmikin, deyman. Guvillab shamol kirishini qara!

Men jurnalning oxiridagi qurama xabarlar orasidan arzon siyoh tayyorlash usulini va dunyoda eng katta javohir to'g'risidagi ma'lumotni o'qib chiqdim. Boya Mashaga yoqqan ko'ylak suratiga yana ko'zim tushdi-da, shuni kiysa, ballarda naqadar yashnashini ko'z oldimga keltirdim: ochiq kiftlari, qo'lida yelpig'ichi, zeb-ziynat, ajoyib savlat, musiqa, suvratlar va adabiyot sohasidagi bilimlar, hammasi o'ziga rosa yarashib, gullatib yuborsa kerak. Xayolan shularni tasavvur etarkanman, uning hayotidagi rolim naqadar kichkina ekanini angladim.

Bizning uchrashuvimiz, bu oilaviy hayotimiz uning uchun bir epizodday o'tdi-yu ketdi, bunaqa uchrashuvlar shu chaqqon, zo'r iste'dodli xotinning umrida hali ko'p bo'lishi mumkin. Olamda bor tansiq narsalar uning xizmatiga tayyor ekanini va u tekinga olishini men ilgari aytib o'tgandim, hattoki g'oyalarni ham, san'at, adabiyotni ham o'z turmushiga rang-barang tus beradigan bir zavqqa va tomoshaga aylantirib olgandi; men esa u tomoshadan bu tomoshaga uni olib kelgan bir izvoshchisi bo'lib qolibman. Endi mening unga keragim yo'q, meni yolg'iz tashlab, uchib ketishi aniq.

Xayol meni shu yerga olib borganda, xuddi ko'nglimdagi alam-larga jo'r bo'lganday hovli tomondan:

– Voydo-o-od! – degan ovoz eshitildi.

Bu chiyillagan xotinchka tovushni masxara qilganday, shamol ham chiyillab o'zini mo'riga urdi. Yarim daqiqacha vaqt o'tgach, yana shamol aralash haligi ovoz hovlining narigi tomonidan kelayotganday bo'ldi:

– Voydo-o-od!

– Misail, eshitingmi? – deb so'radi xotinim ohistagina. – Eshit-yapsanmi?

Masha yotgan joyidan turib, yolg'iz ichko'ylakda, sochlari to'zgan holda mening oldimga chiqdi-da, qop-qorong'i derazaga tikilib, quloq sola boshladi.

– Allakimni bo'g'ishyapti! – dedi. – Bir kami shu yetmay turuvdi.

Men miltiqni olib, tashqariga chiqdim. Hovli zim-ziyo qorong'i, shamol kishini qulatadigan darajada kuchli edi. Men darvoza yoniga borib, quloq soldim: daraxtlar guvillashi, shamolning hayqirig'i va bog' tomonda ovsar qorovul itining g'inshigani eshitilardi. Darvoza tashqarisi zimiston, temiryo'lda bironta chiroq ko'rinmasdi. Birdaniga bultur idora bo'lgan hujra tomondan bo'g'iq ovoz eshitildi:

– Voydo-o-od!

– Kim u? – deb baqirdim.

Ikki kishi olishmoqda. Biri itarib sudraydi, ikkinchisi tiralib bo'y bermaydi, ikkisi ham halloslab qolibdi.

– Qo'yvor! – dedi bittasi, ovozidan Ivan Cheprakov ekanini tanidim; xotincha tovush bilan dodlayotgan shu ekan. – Qo'yvor, la'nati, yo'qsa, qo'llaringni tishlab olaman!

Ikkinchisi Moisey ekan. Men ularni ajratdim va o'zimni tutolmay Moiseyning basharasiga ikki marta qo'yib yubordim. U yiqildi, o'rnidan turar-turmas, yana urdim.

– Ular meni o'ldirmoqchi bo'ldi, – deb g'o'ldiradi Moisey. – Oyimning sandiqchasini ochmoqchiykanlar... Men bu kishini hujraga qamab qo'yimasam – tinchlik bermaydi.

Cheprakov o'lguday mastligidan, meni tanimadi; yana dodlamoqchi bo'layotgan odamday, hadeb chuqur nafas olardi.

Men ularni tashlab, uyga qaytdim; xotinim kiyinib olib, joyida yotibdi. Bo'lgan voqeani unga gapirib berdim, Moiseyni urganimni ham yashirmadim.

– Qishloqda yashash qo'rqinchli, – dedi u. – Tunning uzunliginiyey, Xudo ko'rsatmasin...

– Voydo-o-od! – yana eshitildi baqir-chaqir birozdan so'ng.

– Borib, ularni tinchitay, – dedim.

– Yo'q, kerakmas, bir-birining go'shtini yeyishaversin, – dedi Masha jirkanganday bo'lib.

U shiftga tikilib olib, hadeb quloq solardi, men esa qimirlamay, gapirishga jur'at etolmay va tashqarida dodlaganlari uchun ham, tunning bu qadar uzunligi uchun ham men aybdorday, yonida pisib jim o'tirardim.

Masha ham indamay yotaverdi va men tezroq tong otishini toqatsizlanib kutdim. Masha endigina hushiga kelgan odam singari alanglab boqardi, shu qadar esli, tarbiyali, pokiza xotin bo'laturib,

rasvo qishloqning bir burchagiga kelib turganiga, shu pastkash, yaramas odamlar to'piga qayoqdan ham aralashib qolganiga, nechuk o'zini shu darajada yo'qotib qo'rganiga, hatto shu insonlardan biriga ko'ngil qo'yib, yarim yildan ko'proq u bilan umr kechirganiga, endi ko'zi ochilib, hayron bo'layotganga o'xshardi. Nazarimda, endi Masha uchun men kim-u, Moisey kim, Cheprakov kim – hech qanday farqi, ahamiyati yo'q edi; endi bu yer ham, ahdi nikoh ham, xo'jalik ham, kuzgi yog'ingarchilik ham – hammasi mast-alastning voydodlagan ovozi ichida aralash-quralash bo'lib, uning uchun zaracha qimmatini qolmadi; xo'rsinib nafas olganida yoki o'nnglanib yotmoqchi bo'lib qo'zg'alganida, yuziga tikilsam, uning yuragi siqilib: «Qachon tong otarkin-ey!» deganday bo'layotganini sezardim.

Ertalab Masha jo'nab ketdi.

Men yana uch kun uni kutib Dubechnyada turdim, so'ngra hamma buyumlarimizni bir uyga taxlab, eshigini qulfladim-da, men ham shaharga ravona bo'ldim. Men muhandis darvozasi yonidagi qo'ng'iroqni tortgan mahalimda kech kirgan va Katta zodagonlardagi fonarlar yoqilgandi. Pavel chiqib, uyda hech kim yo'qligini, Viktor Ivanovichning Peterburgda ekanini, Mariya Viktorovna, ehtimol, Ajoginanikiga repetitsiyaga ketganini aytdi. O'sha kuni Ajoginanikiga qay ahvolda borganim, zinadan chiqayotganimda yuragim hovliqib, entikkanlarim va bu san'at qasrining salobati bosib, ichkariga kirolmay yuqori ayvonda uzoq turib qolganim sira esimdan chiqmaydi. Zaldagi stolcha ustida, royal tepasida, sahnada sham yonib turibdi; hamma joyda uchtadan sham, birinchi spektakl ham o'n uchinchi sanaga tayinlanib, birinchi repetitsiyasi bugun dushanbaga to'g'ri kelibdi – bu ham xosiyati yo'q kun hisoblanadi. Ajoginaning xurofotga qarshi kurashgisi kelsa – nima qilsin, axir!.. Teatr san'atining hamma havaskorlari bekami-ko'st to'plangan, katta, o'rtancha va kenja qizlar sahnada daftarlarga qarab, rollarni yodlamoqda; Redka esa bir chetda devorga chakkasini tirab, sahnaga mahliyo bo'lib tikilganicha, repetitsiya boshlanishini kutmoqda. Hamma yoq burungiday.

Men uy bekasi bilan ko'rishmoq niyatida u tomonga yura boshlagandim, birdaniga hamma imlab, qo'l siltab, joyimdan qo'zg'almasligimni tushuntirdi.

Zal jimjit bo'ldi. Royal qopqog'i ochildi, allaqanday xirako'z bir xonim kelib o'tirdi-da, notalarni titkilay boshladi, ana shundan so'ng royal oldida yasangan, go'zal Masham paydo bo'ldi; uning go'zalligi ham tamoman boshqacharoq bo'lib, u endi ko'klamda mening ol-dimga, tegirmonga kirib kelgan Mashaga butunlay o'xshamasdi. Masha ashula boshladi:

Nechun seni sevaman, ey, oydin kecha?

Ikkimiz tanishganimizdan beri men uning ashula aytganini endi eshitdim. Ovozi yaxshi, shirali va kuchli edi, ashulasini eshitib tu-rib men shirin, xushbo'y, yetilgan qovun yeyayotganday lazzatlan-dim. Ashula tugadi, hamma chapak chaldi. Masha mamnun bo'lib kulimsirar, ko'zlari tinmay o'ynab turardi; notalarni varaqlasa yoki ko'ylagini tuzatsa, qafasdan qutulgan qush erkinlikda qanotlarini rostlayotganday ko'rinardi. Quloq orqasiga qarata taralgan sochla-ri, yuzlarida o'ynagan g'ururlik alomati husniga yarashmas, yuzini xunuk qilib ko'rsatardi; nazarimda, u endi bu yerdagilarni otga teng bilib, pisand qilmay, hammaning basharasiga: «Hayt, jonivorlar!» deb baqirib yuboradiganday ko'rinardi.

O'sha tobda rang-ro'yi va qiliqlari aravakash bobosiga tortgan bo'lsa ham, ajab emas.

– Sen ham shu yerdamisan? – deb so'radi menga qo'l berib. – Ashulamni eshitdingmi? Qalay, senga yoqdimi? – Mening javob be-rishimni kutmay, gapida davom etdi: – Kelganing juda yaxshi bo'ldi. Bugun kechasi men Peterburgga jo'namoqchiman, ko'p yurmayman. Ruxsat etasanmi?

Yarim kechada men uni vokzalga kuzatib chiqdim. To shu dam-gacha unga keraksiz savollar bermaganim uchunmi, bilmadim, ne-gadir meni astoydil suyib bag'riga bosdi va xat yozib turishga va'da qildi; men esa uning qo'llarini mahkam qisib, qayta-qayta o'pdim, o'pkam to'lib, bir og'iz gap aytolmadim.

U jo'nab ketdi, men uzoqlashayotgan poyezd chiroqlariga tikil-ganimcha joyimda uzoq turib qoldim. Xayolan men uni erkalatar va sekin pichirlab o'zimcha shunday der edim:

– Azizam Masha! Jonajon Masha!..

O'sha kechasi Makarixa ko'chasiga borib Karpovnanikida yotib qoldim; ertalab turib Redka ikkimiz qizini uzatayotgan bir savdogar-ning jihozlarini yangitdan tuzatishga kirishdik...

XVII

Yakshanba kuni tushdan so'ng menikiga opam kelib, ikkimiz birga choy ichdik.

– Men hozir juda ko'p o'qiydigan bo'ldim. – Menikiga kelayotib shahar kutubxonasi olib kelgan kitoblarini ko'rsatdi opam. – Xotining bilan Vladimirga rahmat, o'zimning kimligimni tushunishga shular sabab bo'lishdi. Shular meni qutqazdi, endi men o'zimni inson ekanimni seza boshladim. Ilgari men ba'zan tuni bilan uxlolmay: «Voy, bir haftada shuncha qand yeyilibdi-ya! Voy, bodringning tuzi sho'r bo'lib qolmasin!» deb tashvishlanib uxlolmasdim. Hozir ham uxlolmayman, lekin endigi o'ylarim, fikrlarim tamoman boshqacha. Umrimning yarmi shu qadar qo'rqqoqlik va ahmoqona ishlar bilan o'tib ketgani alam qiladi. O'tgan umrimdan jirkanaman, orim keladi, otamni endi o'z dushmanimday ko'rib qoldim. O', xotiningdan biram minnatdormanki! Vladimirmi aytmaysanmi! Juda alomat odam ekan! Mening ko'zimni shular ochdi.

– Kechalari uxlolmasligingiz yaxshi bo'lmapti, – dedim.

– Meni kasal demoqchimisan? Soppa-sog'man. Vladimir tekshirib ko'rdi: «Otdaysan», dedi. Gap sog'likdamas, buning unchalik ahamiyati yo'q... Qani, ayt-chi: gapim to'g'rimi?

Opam ma'naviy jihatdan yordamga muhtoj ekani ravshan, chunki Masha jo'nab ketdi, doktor Blagovo Peterburgda, shaharda mendam bo'lak «to'g'ri» deydigan, ko'ngliga dalda beradigan hech kimi yo'q edi. U mening yuzlarimga astoydil tikilib, ko'nglimdagi gaplarni, nima fikrda ekanimni bilmoqchi bo'lardi; agar men o'ylanib, indamasam, u darhol o'zidan hadiksirar: «Ichida meni koyiyapti», deb gumonsirar va xafa bo'lar edi. Shuning uchun men doim hushyor bo'lib: «To'g'rimi?» deb mendan so'ragan hamon «To'g'ri», deb javob berishga va uni chindan hurmat qilganimni izhor qilishga urinardim.

– Yangilikdan xabaring bormi? Ajoginanikida menga rol berishdi, – dedi u. – Men ham sahnaga chiqmoqchiman. Men endi rostakamiga yashamoqchi, turmush sharbatini bekami-ko'st totmoqchiman. Menda iqtidor yo'q, rolim ham o'n satrdan iborat. Ming qilgandayam, bu narsa, har holda, kuniga besh marta choy quyib o'tirishga va oshpaz xotinning qancha qand yeganini tekshirishga qaraganda

darajasi baland, oliyjanob ish-ku! Otam ham mening kimligimni bilib qo'ysin-da, axir. Qachongacha indamay ketaveraman?!

Choydan so'ng u mening to'shagimga cho'zildi va birmuncha vaqtgacha ko'zlari yumuq holda yotdi; rangi ancha o'chgandi.

– Darmonim yo'q, – dedi boshini ko'tarib. – Vladimir, shaharda yashagan xotin va qizlar ishlamagani uchun hammasi kamqon bo'ladi, degandi. Asl dono odam ekan Vladimir! Rost aytadi, juda to'g'ri gap. Ishlash kerak!

Ikki kundan so'ng opam daftarini olib, Ajoginanikidagi repetitsiyaga keldi. U qora ko'ylak kiygan, bo'yniga marvarid-marjon, ko'ksiga qimmatbaho to'g'nag'ich, quloqlariga javohir ko'zli zirak taqqan va uzoqdan qatlama somsaga o'xshardi. Uni ko'rganim hamon uyalib ketdim: bu qadar didsizligi meni hayratda qoldirdi. Opamning bekorga zirak va javohir taqib, g'alati kiyinib kelganini boshqalar ham sezdi; ba'zilari iljayib qo'yishdi, hatto bittasi:

– Misrlik Kleopatra keldilar, – deb piching qildi.

Opam oqsuyaklar tabaqasidan ekanini ko'rsatishga, o'zini erkin va bemalol tutishga urinardi, biroq har bir harakatining yasamaligi, o'ziga sira yarashmasligi ko'rinib turardi; yarashgan qiliqlarini, sodda va suyumligini tamoman yo'qotib qo'yibdi.

– Men hozir dadamga: repetitsiyaga boryapman, deb to'g'risini aytdim, – dedi u mening yonimga kelgach. – Seni oq qildim, deb ketimdan baqirib qoldi; sal bo'lmasa, urmoqchiydi. Rolimniyam ep-lolmadim, – dedi u daftariga qarab. – Endi, albatta, adashaveraman... Shunday qilib, chek tashlandi, toleni ko'ramiz endi, – dedi u qattiq hayajonlanib. – Qani, tole nima derkin...

Nazarida, hamma unga tikilib qarayotganday, shunday muhim ishga jur'at etgani uchun hammasi qoyil bo'lib, endi undan ajoyib ishlar kutayotganday, o'zidan o'zi hovliqardi; lekin men bilan u singari mayda-chuyda va arzimagan kishilarga hech kimning qaragisi ham kelmasligini, ko'zi ham uchmasligini unga tushuntirmoq mahol edi.

Uchinchi pardagacha opam bo'sh edi; u qishloqdan kelgan mehmon – yanga rolini o'ynashi, ya'ni eshik oldida o'g'rincha gap tinglayotgan kishi bo'lib turishi va so'ngra yodlangan monologini aytishi kerak edi. Sahnaga chiqishiga ham ancha borligidan va odamlar nari-beri yurib tinchiguncha, choy ichish, o'qish, bahslar-

dan bo'shaguncha kamida bir yarim soat yonimdan qo'zg'almadi, u g'o'ldirab rolini takrorlar va diqqat bo'lib daftarini mijiqlar edi, xolos; nazarida, hamma unga tikilib, qachon sahnaga chiqishini sabrsizlanib kutayotganday, qo'llari qaltirab, hadeb sochlarini tuza-tar va menga bunday der edi:

– Albatta, adashaman... Ko'nglim shu qadar qorong'iki, chiroq yoqsang, yorishmaydi! Meni vahima bosyapti, hozir chiqarib, dorga osishadiganday qo'rqib ketyapman.

Axiyri, uning navbati keldi.

– Kleopatra Alekseyevna, chiqing! – dedi rejissyor.

Opam sahnaning o'rtasiga borib turdi; uni tamoman vahima bosib, ranglari o'zgargan, yuzlari xunuklashgan, sira qovushmasdi; shu ahvolda yarim daqiqa chamasi qimirlamay tek turib qoldi; faqat qu-log'idagi kattakon ziraklari tebranardi.

– Birinchi marta daftarga qarab aytilsayam bo'ladi, – dedi allakim.

Uning titrayotgani va titrog'idan gapirolmay, daftarini ocholmay turgani va xayoli mutlaqo rolda emasligi menga ravshan bo'ldi; endigina yoniga yetib bormoqchi va ko'ngliga dalda bermoqchi edimki, birdaniga cho'kkalab o'tirib qoldi-da, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Odamlar yugurib kelishdi, hamma yoqni shov-shuv bosib ketdi, yolg'iz men pardaga suyanganimcha turar, nima bo'lganiga hayron, nima qilishimni bilmas, hech nimani tushunmas edim. Opamni turg'izib, olib ketishganini ko'rdim. Yonimga Anyuta Blagovoning kelganini ko'rdim; ilgari men uni zalda ko'rmagan ekanman, mana, hozir qayoqdan paydo bo'lganini bilmay qoldim. Boshida to'r tutgan shlyapasi, har safargiday ishi zarur odamday shoshib-pishib turardi.

– Men unga, sen ishtirok etmay qo'yaqol, devdim! – dedi Anyuta jahli chiqib, qizarib, har so'zida tutilib-tutilib. – Bu – o'jarlikdan boshqa narsamas! Siz uni to'xtatishingiz lozim edi!

Kalta yengli kalta kofta kiygan Ajogina xonim yugurib keldi; u yapaloq tortib, ozib ketgan, ko'ksiga popiris kuli to'kilgan edi.

– Do'stim, chatoq bo'ldi-ku! – dedi u har safargiday yuzlarimiga qattiq tikilib va barmoqlarini qisirlatib. – Yaxshi ish bo'lmadi! Opangiz homilador ekan... Bo'yida bo'p qopti! Tezroq olib keting, o'nnoniy sizdan...



Xonim hayajonidan entikib-entikib nafas olardi. Bir chetda turgan onasiga o'xshash yapaloq va ozg'in uch qiz ham qaltirashib, bir-biriga yopishib olishgan, go'yo uylarida turmadan qochgan biron jinoyatchini tutib olishganday vahima bosib, birato'la gangib qolishgan edi. Ana sharmandalik! Olabo'ji keldi!.. Hammasi vahimaga tushib qoldi. Aytganday, shu mo'tabar oila umr bo'yi xurofotga qarshi kurashib kelgandi-ku! Nega endi munchalik bezovta bo'laverarkin? Aftidan, bu oiladagilar xurofotning va odamzod adashishining boisi faqat uch shamda, o'n uchinchi sanada va dushanba kunida deb tushungan ekan-da!

– Sizdan o'tinaman... o'nnoniy... – deb qayta-qayta takrorladi Ajogina xonim.

Har safar «aynalay» so'zini aytmoqchi bo'lsa, lablarini yig'ib, burishtirib olganidan «o'nnoniy» bo'lib eshitilardi.

– O'nnoniy, tezroq uyga olib boring.

XVIII

Birpasdan so'ng opam ikkimiz zinadan tushdik. Men uni paltom etagi bilan yopib olgandim; biz fonarsiz ko'chalardan, yo'liqqan kishidan bekina-bekina, shoshib-pishib borardik va qochib borayotgan odamga o'xshardik. Opam yig'isidan to'xtadi va yoshsiz ko'zlarini tikib, menga qaray boshladi. Men uni Makarixa ko'chasiga olib bormoqchi bo'ldim, orasi yigirma daqiqalik yo'l edi; shu ozgina vaqt ichida biz butun hayotimizni bosh-oyoq eslab chiqqanimizga, hamma narsani gaplashib, bu ahvolda nima qilish kerakligini o'ylab ulguriganimizga hayron qolaman...

Endi bu shaharda turishimiz mumkin emasligini bilib, men biroz pul jamg'argach, boshqa biron yerga ko'chib ketishga qaror qildik. Ba'zi uylarda odamlar yotgan, ba'zilarida qarta o'ynab o'tirardi; biz bu uylarni nihoyatda yomon ko'rar va hatto qo'rqar edik, shu mo'tabar oilalardagi vahshiylik, xurofot to'g'risida, undagi ko'ngli tosh, pastkash odamlar to'g'risida, boya bizdan o'takasi yorilib qo'rqib ketgan teatr havaskorlari to'g'risida ikkimiz uzoq gaplashdik. Shu ahmoq, johil, yalqov va muttahamlarning, Kurilovkadagi sharobxo'r va mutaassib mujiklardan yoki hayvonlardan nima farqi bor, deb qayta-qayta so'rardim o'zimdan, shular singari hayvon ham biron tasodifiy voqeani ko'rsa, hurkib, tipirchilab qoladi, chun-

ki hayvon fahm-farosatdan mahrum. Bular ham bamisoli bir hayvon edi. Agar opam shu ahvoli bilan uyda turadigan bo'lsa, oqibati nima bo'lishini kim biladi? Har safar otam bilan gaplashganida yoki har kuni tanishlarini uchratganida, vijdonan qiynalaverib, adoyi tamom bo'lmasmikin? Ana shunda qavm-qarindoshlari xorlab, asta-sekin chetlatib tashlagan bechora tanishlar, qiynoqdan jinni bo'lgan itlar, bolalar tiriklayin patlarini yulib, suvga tashlagan chumchuqlar va yoshligimdan beri bu zolim shaharda men uchratgan ne-ne jabr-u jafolar hammasi ko'z oldimdan birma-bir o'ta boshladi. Men endi shu oltmish ming kishining nima uchun yashab, nega ibodat qilib, Injil tilovat qilganini, nima maqsadda kitob-u jurnal o'qiganini tamoman tushunmay qoldim. Axir, to shu damgacha yozilgan va aytilgan so'zlar bu insonlarga biron foyda bermagandan keyin, bundan yuz yoki uch yuz yil ilgari naqadar ko'ngli qora, ozodlikni sevmagan bo'lsa, hozir ham o'sha ahvolicha qolib ketgandan keyin, endi ibodat-u Injilning, kitob-u jurnalning nima nafi bor? Pudratchi-duradgor umr bo'yi shaharda imorat quradi-yu, lekin to o'la-o'lguncha «galereya» so'zini «galdareya» deb yuraveradi; xuddi shunga o'xshab, oltmish ming kishi ham ota-bobolaridan tortib, haqiqat, muruvvat, shafqat, ozodlik so'zlarini rosa hijjalaydi-yu, biroq azondan kechgacha gapirgani – yolg'on, bir-birini qiynagani-qiynagan, ozodlikni-ku, jon-jahdi bilan yomon ko'radi, baloyi azim, deb bilishadi.

– Demak, taqdirim hal bo'ldi, – dedi opam uyga yetganimizda. – Ro'y bergan voqeadan so'ng, men endi u yerga borolmayman. Xudoga shukur, qaytaga yaxshi bo'ldi. Ko'nglim endi orom topdi!

Opam o'sha zahotiy o'ringa yotdi. Kipriklarida yiltirab yosh ko'rinsa ham, o'zini baxtli sezayotgani bilinib turardi; u shirin va chuqur uyquga ketdi. Men endi haqiqatan ko'ngli orom topganiga ishonдим. Bechora ko'pdan beri bu xilda rohatlanib uxlamagan bo'lsa kerak!

Shunday qilib, ikkimiz birga turib qoldik. Opam hadeb ashula aytar va kayfi chog', xursand ekanini gapirardi; kutubxonadan kitoblar keltirardim, lekin o'qilmasdan, yana qaytarib eltib berardim, chunki u endi kitob o'qiyolmaydigan bo'lib qolgandi, yolg'iz kelgusi hayot to'g'risida o'ylagisi, shundan gapirgisi kelardi. Mening kiyimlarimni yamayotib yoki o'choqboshida Karpovnaga qarashayotib, goh ashula aytar, goh o'z Vladimirdan gap boshlar, uning aq-

lini, yoqimli qiliqlarini, rahmdilligini va favqulodda olim kishi ekani maqtab ketardi, men esa doktorni yomon ko'rib qolgan bo'lsam ham, opamning gapini ma'qullab o'tiraverardim. U endi ishga kirib, mustaqil yashashni, o'z kunini o'zi ko'rishni istardi va:

– Sog'ayib ketsam, o'qituvchi yoki feldsher bo'laman, pollarni, kir-chirlarni o'zim yuvaveraman, – derdi.

Bo'yidagi bolasini nihoyatda yaxshi ko'rardi; u hali dunyoga kelmay turib, uning ko'zlari qanaqa, qo'llari qanaqa, kulishlari qanaqa bo'lishini gapirib o'tirardi. Ko'pincha bola tarbiyasi masalasida gapirishni yaxshi ko'rardi; olamda eng yaxshi odam Vladimir bo'lgani uchun, opamning bola tarbiyasi to'g'risidagi tamomiy mulohazalari ham, bola otasiga o'xshagan chiroyli bo'lsin, degan gapdan nariga o'tmasdi. Gapiraverar, gapi aslo tugamas va o'z gaplaridan o'zi jonlanib, xursand bo'lar edi. Ba'zan unga qo'shilib, negadir, men ham suyunardim.

Uning xayolparastligi menga ham yuqqanga o'xshardi. Men ham kitob o'qimaydigan, hadeb xayol suraveradigan bo'lib qoldim: kechqurunlari, charchaganimga qaramay, qo'llarimni cho'ntakka solib olib, uyda u yoqdan bu yoqqa yuraverar va Mashadan gap ochar edim:

– Sizningcha, qachon kelarkin? – deb so'radim opamdan. – Tez kelarmikin? Menimcha, Rojdestvogacha kelib qolsa kerak. U yoqda nimayam bor?

– Shu choqqacha xat yozmaganiga qaraganda, tez orada kelib qolar, deyman.

– Rost aytasiz, – deb fikrini quvvatlardim-u, lekin Mashaning endi bu shaharda hech qanday ishi qolmagani menga oyday ravshan edi.

Men Mashani g'oyat sog'ingandim, o'zimni o'zim aldayverib, ovutaverib sabrim tugadi, endi boshqalar meni aldab, tasalli berishini istardim. Opam o'z doktorini, men esa Mashamni kutardim, ikkimiz to'xtamasdan gapirib, kulishaverar va Karpovnaniig uyqusiga xalaqit berayotganimizni sezmas edik. Kampir yotgan joyida hadeb g'udranardi:

– Ertalab o'ziqaynari qurg'ur shig'illab ashula qildi-ya! Voh, buyam yaxshilikkamas, bolalarim, yaxshilikkamas!

Biznikiga xat tashuvchi bilan Prokofiydan boshqa hech kim kirmasdi; xat tashuvchi opamga doktorning xatini keltirib turar, Prokofiy esa ba'zan kechki payti kirar va opamga tikilardi-da, indamay chiqib ketardi, so'ngra uyida turib g'o'ldirayotgani eshitalardi:

– Har bir tabaqadagi odam o'z izzatini bilishi, o'z yo'lidan yurishi lozim, kimki manmanlikka berilib, buni tushungisi kelmasa, pirovardida, falokatga yo'liqadi.

Prokofiy «falokat» so'zini ko'p ishlatardi. Rojdestvodan keyin, bir kuni bozordan o'tib ketayotsam, u meni do'koniga chaqirdi, qo'l berib so'rashmadi ham, qandaydir bir muhim masala to'g'risida gaplashmoqchi ekanini aytdi. O'zi sovuqdan va ichgan sharobidan qizarib ketgandi; do'kon peshtaxtasi yonida qonga bo'yalgan pichoq ushlab, qaroqchibashara dastyori Nikolka turardi.

– Men ko'nglimdagi gapni sizga aytmoqchiydim, – deb so'z boshladi Prokofiy. – Bu ahvolga indamay ketaversak bo'lmaydi, chunki o'zingizga ma'lum, bunaqa falokat sizgayam, bizgayam gap tegizishi mumkin. Oyim bo'lsa, o'zingizga ma'lum, ko'ngilchan odam: opangiz ikkiqat ekan, boshqa kvartira topib chiqib ketsin, deb aytolmaydi, men ham endi toqat qila-qila bo'ldim, chunki u kishining xulq-atvori menga yoqmay qoldi.

Men uning gapiga tushundim va do'kondan chiqdim. O'sha kuniyoq opam ikkimiz Redkanikiga ko'chib bordik. Izvoshga pulimiz yo'qligidan, piyoda ketaverdik; bor-yo'g'imizni bir tugunchaga joylab, men orqamga ko'tarib oldim; opamning qo'lida hech narsa bo'lmasa ham, harsillar va hadeb yo'talardi, qachon yetamiz, deb qayta-qayta so'rardi.

XIX

Axiyri, Mashadan xat keldi.

«Qadrdon va himmatli M. A. – deb boshlangandi bu xat, – oqko'ngil, yuvosh qari bo'yoqchining ta'rificha – «farishtaday begunoh» do'stim! Xayr endi, men otam bilan Amerikaga – ko'rgazmani tomosha qilmoqqa boradigan bo'ldim. Bir necha kundan so'ng men ummonni ko'raman, Dubechnyadan bu shunchalik yiroqki, o'ylasam vahima bosadi! U juda uzoq, osmon singari bepoyon, o'sha tomonlarga borgim, ozodlikda yayragim keladi, men hozirdanoq hovliqib, g'olibona suyuna boshladim, xatimning bunchalik pala-partish

yozilganiga sabab ham shu. Qadrdon va himmatli do'stim! Endi ixtiyorimni o'zimga bering, boshimni ochib qo'ying, men bilan sizni bog'lab turgan ipni uzib tashlang. Sizni taniganim, bilganim zoye ketmadi, qaytaga ilohiy bir nur kabi butun borlig'imni, hayotimni yoritdi, lekin sizga tekkanim – xato bo'lib chiqdi, siz ham buni yaxshi tushunasiz. Men o'z xatomni anglab, endilikda ko'p azoblanmoqdaman va shuning uchun siz, himmatli do'stim oldida tiz cho'kib, menga ijozat berishingizni va qanotlarim ustida og'ir tosh bo'lib turgan shu ikkalamizning xatomizni tuzatishga rozi ekaningizni men ummonga jo'nagunimcha, juda tezlikda telegraf orqali bildirishingizni so'rayman. Otam bu ishning rasmiy tomonlaridan sizni unchalik tashvishlantirmaslikka va'da qildi, ovoragarchilik va kamko'stlarini o'zi to'g'rilyadigan bo'ldi. Demak, to'rt tomonim ochiq, ixtiyorim o'zimdami endi? Hami?

Baxtli bo'ling, Xudoyim sizni o'z panohida asrasin, toleyingizni baland qilsin, mening gunohimdan o'ting.

O'zim sog'-salomatman. Pulni po'choqday sochayotibman, be-ma'ni ishlar bilan ovoraman va menday nobop xotinga bola bermagani uchun har qadamda Xudoga shukur qilaman. Men hozir ashulachi bo'lganman va bu sohadagi muvaffaqiyatim yomon emas, lekin bu oddiy havaskorlik emas, men bu ishga jiddiy kirishganman, buni o'z manzirim, o'z qarorgohim deb bilaman va qolgan umrimni shunga bag'ishlamoqchiman. Dovud payg'ambarning uzugida: «Dunyo – bevafo, umr – beboqo», degan so'zlar yozilgan ekan. Kishi xafalansa, bu so'zdan xursand tortar, xursand bo'lsa – ma'yuslanib, xafa bo'lar ekan. Men ham shunday bir uzuk yasattirib oldim, unga yahudiy harflari bilan haligi hikmatli so'zlar yozilgan; bu narsa meni zavq-shavqlardan asrasa kerak. Dunyo bevafo ekan, o'tib ketarkan, hech narsadan nom-u nishon qolmas ekan, demak, insonga hech narsa kerak bo'lmas ekan. Birdan-bir kerak narsa – o'zini erkin, ozod his qilish ekanini men endi tushundim, chunki ozod inson uchun dunyoda hech narsa, hech qanday narsa kerak emas... Aloqa ipini uring. Sizni va opangizni bag'rimga qattiq bosaman. Meni kechiring va umrbod ko'nglingizdan chiqarib tashlang. M.»

Opam bir uyda, Redka ikkinchi uyda yotardi; u tag'in kasal bo'lib, endigina tuzala boshlagandi. Xuddi men xat olgan chog'da, opam bo'yoqchining uyiga sekingina o'tib ketdi, borib yoniga o'tirdi-da,

kitob o'qiy boshladi. Opam har kuni bo'yoqchiga Ostrovskiy yoki Gogol asarlaridan o'qib berar, u esa bir nuqtaga tikilib olib, kulmasdan, boshini chayqab quloq solar va ora-sira o'zicha g'o'ldirab ko'yardi:

– Hammasi to'g'ri! Hammasi bo'ladigan gap!

Agar pyesada biron xunuk, yaramas voqea to'g'risida gap ketayotgan bo'lsa, u darhol barmog'i bilan kitobni turtib ko'rsatar va zaharxanda qilib:

– Mana egrilik! Egrilik shunaqa bo'ladi; kasofatini ko'rdingizmi? – derdi.

Bu pyesalarning mazmuni va axloqiy tomonlari naqadar murakkab va mohirlik bilan yozilgani Redkani juda qiziqtirar va bunga qoyil qolardi, biroq muallifning familiyasini sira aytmasdi:

– Qanday qilib u shuncha gapni boplab yozgan ekan-a?

Opam bu safar pastgina ovoz bilan bir betini o'qidi-da, ortiq o'qiyolmay to'xtadi: ovozi yetmay qoldi. Redka uning qo'llaridan ushladi-da, qaqragan lablarini qimirlatib, eshitilar-eshitilmas, bo'g'iq ovoz bilan gapira boshladi:

– To'g'ri odamning ko'ngli musaffo va bo'rday oq bo'ladi, egriniki esa jilvir toshday qop-qora bo'ladi. To'g'rining ko'ngli alifmoyday ravshan va toza, egriniki esa qora moyday rasvo bo'ladi. Mehnat qilmoq kerak, g'am-g'ussalarni, dard-alamlarni ko'rmoq kerak; kimki mehnatni, kulfatni bilmasa – oxiratdan mahrum bo'ladi. Voh, undaylarning holiga! To'q va sho'xlar, zo'r-u zo'ravonlar, boy-u badavlatlar, sudxo'r-u hannotlar ming-ming pushaymon yer, hammasi jannatdan benasib bo'lur! Ekinni shiradan, temirni zangdan...

– Ko'ngilni egrilikdan asramoq darkor, – deb tamomladi opam va kulib yubordi.

Men xatni qaytadan o'qib chiqdim. Xuddi shu paytda oshxonaga askar kirib keldi; bu – o'sha bizga allakimdan haftada ikki marta choy, fransuz bo'lka va chil keltirib turadigan askar edi. Shu kunlarda ish yo'qligidan, mening kun bo'yi uyda bo'sh o'tirganimdan va bizning qiynalayotganimizdan bu bo'lkalarni yuboruvchi g'amxo'rabardor bo'lsa kerak.

Men opamning askar bilan gaplashganini va xursand bo'lib kulgani eshitdim. So'ngra u yonboshlab olib, bo'lkadan yeya boshladi va menga shu gaplarni aytdi:

– O’sha sen xizmat etishni istamay, bo’yoqchilikka kirganing-dayoq, biz, Anyuta Blagovo ikkimiz to’g’ri ish qilganingni bilganmiz va senga qoyil qolganmiz, biroq o’z fikrimizni ochiq aytishga qo’rqdik. Nega odam o’ylaganini, yurakdagi muddaolarini ochib gapirolmaskin-a? Ayt-chi, Misail, qanday kuch insonni shu qadar istiholachi va qo’rqoq qilib qo’ygan? Misol uchun, Anyuta Blagovoni olib qaraylik. U seni sevadi, sidqidildan yaxshi ko’radi, sen haqli ekaningni biladi: meniyam opasiday yaxshi ko’radi, haqli ekanim-niyam biladi, ehtimol, menga havasiyam kelar, lekin bizning qoshimizga kelolmaydi, allaqanday bir kuch kelgani qo’ymaydi, shuning uchun bizdan qochib yuribdi, qo’rqadi.

Opam qo’llarini ko’ksiga qo’yib, zavqlanib so’zlay boshladi:

– U seni shu qadar sevadiki, agar sen bilsang edi! Anyuta o’z ishqini yolg’iz mengagina oshkor etgan, uniyam qorong’i xiyobonga kirib gapirib bergandi. Ba’zan bog’dagi qorong’i xiyobonga meni boshlab borardi-da, seni naqadar aziz bilganini, senga cheksiz muhabbat qo’yganini gapirar, hasrat qilar edi. Mana, ko’rasan, Anyuta umrbod erga chiqmaydi, chunki u faqat seni sevadi. Unga rahming keladimi endi?

– Ha.

– Bo’lkalarni o’sha yuborgan. G’alati qiz, rost, nimasini yashiradi? Men ham g’alati va ahmoq edim, ana, o’sha yerdan ketoldim-ku! Endi hech narsadan qo’rqmayman, ko’nglimdagi o’y va gaplarimni ochiq-oydin aytolaman, xullas, baxtiyorman. Uyimizda yashagan vaqtlarimda baxt nimaligini bilmasdim, endi-chi? Hozirgi baxtimni qirolichanikiga alishmasman!

Doktor Blagovo keldi. U doktorlik unvonini yoqlagan va hozir bizning shahrimizda bo’lib, otasinikida dam olmoqda edi; u yaqin orada Peterburgga ketmoqchi ekanini aytardi. Doktor terlama kasaliga va yana, chamamda, vabo kasaliga qarshi emlash masalasi bilan shug’ullanmoqchi edi; chet elga borib, bilim va tajribasini oshirmoqchi, so’ngra kafedrani egallab, dars bermoqchi bo’lardi. U hozir harbiy xizmatini tashlab, rosmana yunggazlama pijak bilan kenggina shim kiygan va chiroyli bo’yinbog’ taqib olgandi. Opam uning to’g’nog’ichi va ilmatugmalarini, qip-qizil shohi dastro’molini zavqlanib tomosha qilardi, u ham oliftagarchilikka ro’molchasini pijakning old cho’ntagiga solib, atayin uchini chiqarib qo’yardi. Bir

kuni bekorchilikdan opam ikkovimiz uning kostyumlarini xayolan hisoblab, bo'lmaganda, o'nta kostyumi bor, degan qarorga keldik. Doktor opamni avvalgiday yaxshi ko'rgani aniq edi, lekin loaqal hazil-mutoyiba bilan uni biron marta, Peterburgga yoki chet elga olib boraman, deganini eshitmaganman va men opam o'lmay tirik qolsa, nima qilishini, bola nima bo'lishini ochiqchasiga tasavvur etolmasdim. Lekin opam havoyi xayollardan bo'shamas, o'z kelajagi to'g'risida jiddiyroq o'ylagisi kelmasdi va:

– Mayli, istagan joyiga boraversin, hatto butunlay unutib yuborsayam mayli, ishqilib, o'zi baxtiyor bo'lsa – men xursand; shu ko'rganlarim menga yetib ortadi, – derdi bechora.

Odatda, u har safar biznikiga kelganda opamning sog'lig'ini sinchiklab tekshirar va ko'zi oldida sutga dori tomizib ichishini talab etardi. Bu gal ham o'shanday qildi: uning kasalini tekshirdi va bir stakan sut ichirdi; shundan so'ng butun uy ichini kreozot¹ hidi bosib ketdi.

– Balli, oqila! – dedi doktor qo'lidagi stakanni olayotib. – Senga ortiqcha gapirish mumkinmas, so'nggi vaqtlarda zag'izg'onday jag'ing tinmaydigan bo'lib qolibdi. Qani, jim yot!

Opam kulib yubordi. So'ngra doktor Redka yotgan uyga chiqdi; men ham shu yerda edim, erkalatganday kiftimga qoqib qo'ydi.

– Xo'sh, qariya, ahvol qalay? – deb so'radi engashib bemordan.

– Janobi oliylari... – dedi Redka zo'rga lablarini qimirlatib, – janobi oliylari, gapirmasam bo'lmaydi... tepamizda Xudo bor, hamma muqarrar o'lim bor... Ruxsat etsangiz, men rostini aytay, eshiting: janobi oliylari, siz jannat yuzini aslo ko'rmaysiz!

– Nima qilay endi? – deb hazillashdi doktor. – Do'zaxgayam odam kerak, axir!

Birdaniga o'zidan-o'zi es-hushimga bir balo bo'ldi: xayol meni chalg'ita boshlaganini sezdim; xuddi tush ko'rayotgan odamday, go'yoki, qish kuni, qorong'i tun emish-da, men kushxona hovlisida turibman, yonimda Prokofiy, og'zidan sharob hidi keladi... Cho'chib, ko'zlarimmi ishqab, zo'rg'a o'zimga keldim-u, biroq o'sha zahoti tag'in xayol olib ketdi: nazarimda, yana gubernator qoshiga so'roq bergani ketayotganmishman... Na ilgari, na keyinchalik bunday ah-

¹ Yog'och yoki toshko'mirdan olinadigan o'tkir hidli suyuq moysimon modda.

vol ro'y bermagandi va men buni asablarim qattiq charchaganidan ko'raman. Qiziq narsa: tush bo'lib tushga o'xshamaydi... kushxonani ham aylanib chiqdim, gubernator oldida ham bo'ldim... lekin hammasini bilib turibman, bekorchi xayol ekanini o'zim sezib turibman.

O'zimga kelib, mundoq qarasam, uydan chiqib ketibman: doktor ikkimiz ko'chadagi fonar tagida turganimizni ko'rdim.

– Bechora Kleopatra! – dedi u va ko'zlaridan yuziga yosh oqa boshladi. – Tuzalishiga sira umid yo'q, azizim, lekin o'zi buni bilmaydi, quvonadi, kuladi, xolos. Redka meni nihoyatda yomon ko'rib qolibdi: shuni sen rasvo qilding, demoqchi, hadeb shunga shama qiladi. Bir hisobda, unikiyam to'g'ri, biroq mening ham o'zimga yarasha tushuncham bor va o'tgan ishga mutlaqo pushaymonmasman. Chunki ishq bor narsa va hammamiz sevmog'imiz lozim, to'g'rimi? Muhabbat bo'lmasa, hayot ham bo'lmasdi; kimki, ishq-muhabbatdan qo'rqsa, undan qochadigan bo'lsa, u erkin odammas.

Sekin-sekin boshqa mavzularga o'tdi, ilm-fan to'g'risida, Peterburgdagilarga yoqqan o'z dissertatsiyasi to'g'risida so'zladi; u rosa qizishib, gapga tushib ketgan va endi opamni ham, meni ham, o'z qayg'ularini ham tamoman unutib yuborgandi; hayot uni ham maf-tun etgandi. Unisi Amerika va hikmatli uzukka, bunisi doktorlik unvoniyu olimlik mansabiga berilib ketdi, yolg'iz men bilan opam ikkimiz aslimizcha qoldik, deb o'yladim.

Doktor bilan xayrlashib, men fonarga yaqinroq bordim-da, bo-yagi xatni yana bir qayta o'qib chiqdim. So'ngra, aynan hozirgi-day bo'lib, Mashaning ko'klamda ertalab mening qoshimga, tegir-monga kelgani, qishloqi oddiy xotinlar singari po'stin orasiga kirib olib uxlagani, yana bir kuni ertalab suvdan baliq tortib olganimiz, o'shanda daryo bo'yidagi tollar tagida jalada qolganimiz va rosa ku-lishganimiz birma-bir ko'z oldimdan o'tdi...

Katta zodagonlardagi bizning uyda chiroq ko'rinmasdi. Men eski odatim bo'yicha devordan oshib tushdim-da, lampochka olish uchun orqa eshikdan oshxonaga kirdim. Oshxonada hech kim yo'q edi; otam kelishiga qo'yilgan o'ziqaynar pech yonida shig'illab tu-rardi. «Otamga endi kim choy quyayotgan ekan?» deb o'yladim. Lampani olib hujraga kirdim-da, eski gazetalarni ostimga to'shab yotdim. Devordagi qoziqlar burungidan ham xunuk ko'rinar va so-yalari lipillayverardi. Ancha sovuq edi. Xayolimda opam kirib kela-

yotganday va menga taom keltirayotganday bo'ldi, lekin hozir uning bemor ekani va Redkanikida yotgani esimga tushdi; devordan oshib tushib, muzday hujraga kirib yotganim menga g'alati ko'rindi. Esim og'ib, xayolim qochib, ko'zimga bo'lmag'ur narsalar ko'rinaverdi.

Qo'ng'iroq chalindi. Bolalik chog'imdan beri uning sadolari menga juda tanish bo'lib qolgan: oldin simi devorga suykalib shittirlaydi, so'ngra oshxonadagi qo'ng'iroq kalta-kalta jaranglab, nola qilayotganday bo'ladi. Demak, otam klubdan qaytib keldi. Men o'rnimdan turib, oshxona tomonga ketdim. Oshpazimiz Aksinya kampir meni ko'rgani hamon negadir yig'lab yubordi.

– Bolajonim! – dedi u ohista. – Jonginam! Xudoga shukur!

Kampir hayajonidan peshbandining etagini mijiqlay boshladi. Derazada meva aralash sharob solingan chirpit shishalar ko'rinardi. Men do'lchani to'lg'azib quydim-da, yutoqqan odamday biryo'la shimirdim, chunki ichgim kelib turgandi. Aksinya endigina stol va o'rindiqlarni yuvib chiqqan ekan, shuning uchun hamma yoqdan yoqimli hid kelib turardiki, odatda bunday is pokiza oshpazlar ishlagan shinam oshxonalardagina bo'ladi. Bolalik chog'larimizda mana shu yoqimli hid va chirillagan chigirtka ovozi bizni o'ziga tortaverardi va bu yerga kelmasak, turolmasdik, chunki oshxona cho'pchak eshitadigan, poshsho-poshsho o'ynaydigan ajoyib bir joy edi...

– Kleopatra qani? – deb so'radi Aksinya shivirlab, shoshib-pishib va nafasi to'xtab. – Qalpog'ing qani, otaxon? Xotining Piterga ketib qolganmish, rostmi?

Aksinya onam borida ham shu uyda xizmat qilgan va bir zamonlar men bilan Kleopatrani jomashovga solib cho'miltirgan edi. To shu damgacha bizni bola hisoblar va shuning uchun nasihat qilib turishni lozim ko'rar edi. Ko'rishmaganimizdan beri ko'nglida yig'ilib qolgan hamma gap va o'z mulohazalarini chorak soat ichida menga batamom so'zlab berdi. Doktor masalasiga kelganda, agar unga do'q qilib ko'rilsa yoki ustidan yaxshilab ariza berilsa, arxiyerey birinchi nikohni bekor qilib berishini, Kleopatraga uni majburan uylantirish mumkinligini gapirdi; Dubechnyani xotiningga bildirmay sekingina sotishni va pulini o'z nomimga bankka qo'yishni maslahat berdi; agar opam ikkimiz dadamning oyog'iga yiqilib, astoydil tavba qil-sak, gunohimizdan o'tishi mumkinligini aytdi; arvohtar yo'liga tilovat qildirish zarurligini eslatdi...

– Qani, bor, bolam, otang bilan gaplashgin, – dedi u dadamning yo‘talgan ovozi eshitgach, – boraqol, yalingin, tuzukroq ta‘zim qilgin, bo‘yning uzilib qolmas.

Men otamning oldiga kirdim. U stol qoshida o‘tirib, gotik uslubidagi derazalari va yo‘g‘on-yo‘g‘on minbarlari bor bir dala-hovlining rejasini chizmoqda edi; minoralar o‘t o‘chirish idorasidagi qorovul turadigan baland tomga o‘xshab qolibdi va umuman, bu chizma bilan solingan imoratning juda ham o‘xshovsiz va xunuk bir narsa bo‘lishi muqarrar edi. Men kabinetga kirgach, chizma menga ko‘rinib turadigan joyda to‘xtadim. Otamning oldiga nima uchun kirganimni o‘zim bilmasdim, lekin uning qotma yuzlariga, qizargan bo‘yniga va devordagi soyasiga ko‘zim tushgani hamon, Aksinya o‘rgatganday, yugurib borib, oyoqlariga yiqilgim keldi; biroq haligi chizmadagi gotik derazalar va yo‘g‘on minoralar meni bu rayimdan qaytardi.

– Xayrli kech, – dedim.

U boshini ko‘tarib menga bir qaradi-yu, tag‘in chizmaga engashib oldi.

– Nega kelding? – deb so‘radi birozdan so‘ng.

– Men opamning og‘ir kasal bo‘lib yotganini aytish uchun keldim. Yaqinda o‘ladi, – dedim xirillab.

– Shundaymi? – deb chuqur nafas oldi otam va ko‘zoynagini olib stolga qo‘ydi. – Nima eksang, shuni o‘rasan, deyishgan. Nima eksang, – deb takrorladi o‘rmdai turayotib, – shuni o‘rasan. Esingda bormi, bundan ikki yil avval mening oldimga kelganing? Xuddi mana shu joyda men senga yalinib: bu yo‘lingdan qayt, deb Xudoning zorini qilgandim, burch nima, or-nomus nimaligini, ota-bobolarimiz tomonidan yuklangan vazifalarni, ularning urf-odatlarini muqaddas bilishimiz zarurligini senga ko‘p tushuntirgandim. Ana o‘shani bir esga olishingni so‘rardim. Gapimga quloq soldingmi? Yo‘q. Sen maslahatimga yurmading, menga o‘chakishib, yaramas fikrlaringni ma‘qullayverding; buning ustiga, o‘z rasvoliging kamlik qilganday, opangniyam shu rasvo yo‘lga kirishga majbur qilding, iffat va nomusi poymol etilishiga sabab bo‘lding. Endi ikkovingiz ham qiy-nalyapsiz. Shundaymi? Nimani eksang – shuni o‘rasan!

Otam gapirayotib u yoqdan bu yoqqa tiimay yurib turardi. U meni: tavbasiga tayanib keldi va opa-uka qo‘shilishib uzr so‘rashmoqchi,

deb gumon qilgan bo'lsa kerak. A'zoyi badanim uvishib, bezgak tuta-yotganday qaltirardim, xirilloq ovoz bilan zo'rg'a gapirdim:

– Men ham bir karra esga olishingizni so'rardim – xuddi mana shu joyda turib: arzimni eshiting, ota, oldin tushuning, nima uchun va qanday qilib yashashimizni birgalikda o'ylab chiqaylik, deb ya-linib Xudoning zorini qilmadimmi? O'shanda siz biron javob berish o'rniga avlod-ajdodlarimizning, she'r yozgan bobomizning ta'rifiga tushib ketgandingiz. Mana, hozir ham men sizga: yolg'iz qizingiz qattiq betob, tirik qolishidaa umid yo'q, deb tursam, tag'in o'sha avlod-ajdodlar, urf-odatlardan gap ochasiz... Odam degan qarib, ajali yaqinlashib, yana besh-o'n yil umr ko'rishi dargumon bo'lib qol-gandan keyin biroz vazmin va dono bo'ladi-da, nahotki, o'sha kalta-fahmligicha o'tib ketaversa!

– Bu yerga nega kelding? – deb zarda bilan so'radi, aftidan, kal-tafahmligiga shama qilganim ko'ngliga haqoratday tekkandi.

– Bilmayman. Men sizni yaxshi ko'raman, oramiz shu qadar uzoqlashib ketganiga nihoyatda achinaman, shuning uchun keldim. Men haliyam sizni yaxshi ko'raman, lekin opam sizdan umidini tamom uzgan. U hozir ham, kelgusida ham mutlaqo kechirmaydi. Agar nomingiz esiga tushsa, nafratlanadi va o'tgan umridan, hayot-dan yuz o'girgisi keladi.

– Bunga kim aybdor? – deb baqirib yubordi otam. – Sen, yolg'iz sen aybdorsan, badbaxt!

– Xo'p, men aybdorman, mayli, – dedim. – Aybim ko'p eka-niga iqrorman, lekin sizning shu hayotingizdan nima foyda? Bizni nega shunaqa turmushga majbur etasiz? Axir, bu judayam bemaza, bema'ni turmush-ku, ota! Axir, shu o'ttiz yildan beri qurilgan uylar-da bironta ma'nili odam yashaganini ko'rmaymanki, men undan qay xilda yashashni, aybdor bo'lmaslik yo'llarini o'rgansam! Shaharni boshdan-oyoq qidirilsa, bironta halol kishi topilmaydi. Mana shu la'nati uylaringizda yashagan bag'ritosh odamlar bechora onalarni, gunohsiz qizlarni tiriklayin go'rga tiqmoqda, bolalariga zulm qil-moqda... Bechora onajonim! – dedim tutaqib. – Sho'rlik opaginam!.. Faqat qartadan, sharobdan karaxt bo'lgan kishilargina, g'iybat-u razolatga, munofiqlikka o'rgangan kishilargina yoki o'n yillab o'z chizmachiligidan narisini ko'rgisi kelmagan zotlarga bu uylarda yashiringan mudhish ahvolni ko'rmasligi mumkin. Shahrimiz barpo

bo'lgandan beri necha yuz yillar o'tgandir, biroq to shu kungacha vatanga foyda keltirgan bironta kishi chiqdimi? Loaqal bittayam yo'q! Biron yangilikning, sal-pal tetik ish yoki biron ravnaq fikrning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymagansizlar, g'unchaligida bo'g'ib, poy-mol qilib tashlagansizlar! Bu shaharimas, baqqollar, qovoqxonachilar, amalparastlar, munofiqlar uyasi va agar buni shu zahoti yer yutib ketsa, hech kim achinmas ham edi.

– Senga quloq solib o'tirishni istamayman, badbaxt! – dedi-da, stol ustida yotgan chizg'ichni qo'liga oldi otam. – Sen mastsan! Shu ahvolda otang oldiga keldingmi, ablah?! Oxirgi marta senga aytaman va buni sharmanda opanggayam aytib qo'y: sizlarga hech narsa bermayman, beradi, deb umidvor ham bo'lmanglar! Bevosh farzandlarimdan men kechganman, endi o'z qilmishlaridan, o'jarlik va o'zboshimchaligidan azob chekayotgan bo'lishsa – sadqayi sar! Men aslo achinmayman. Kelgan tomoningga ketaverishing mumkin! Xudo sizlarni shu ko'yga solib, menga bunchalik jazolarni ravo ko'rgan bo'lsa, bunisigayam shukur qilarman va bechora Ayub¹ singari men ham og'ir mashaqqatdan, tinimsiz mehnatdan tasalli toparman. Sen toki tuzalmaguningcha, zinhor va zinhor ostonamga qadam bosa ko'rma! Men to'g'risini aytdim, har bir gapim foydalidir va agar sen o'z nafingni tushunmoqchi, yaxshilik degan narsani bilmoqchi bo'lsang, ilgari va hozir aytgan gaplarimni butun umr unutmasliging lozim.

Men qo'l siltadim-u, chiqib ketdim. So'ngra o'sha kechasi va ertasi kuni menga nima bo'lganini eslolmayman.

Men ko'chalarda boshyalang daydib yurganmishman, mast odam singari gandiraklab baqirib ashula aytganmishman, gala-gala bolalar ketimdan ergashib:

– Arzimagan foyda! Arzimagan foyda! – deb qichqirishganmish.

XX

Agar men ham zargarga uzuk buyurtmoqni havas etsam, mana shu so'zlarni muqarrar yozdirardim: «Dunyo – vafodor. Hech narsa nom-u nishonsiz ketmaydi». Men dunyoda hech narsa nom-u nishonsiz va zoye ketmasligiga, qilgan eng kichkina ishimizning ham,

¹ Muqaddas kitoblardagi Ayyub alayhissalom nazarda tutilmoqda.

qo'rgan har bir qadamimizning ham hozirgi turmushimiz va kelajak hayotimiz uchun ahamiyati borligiga qattiq ishonganman.

Kechirgan kunlarim, tortgan mashaqqatlarim zoye ketmadi. Boshimga tushgan ne-ne kulfat-u malomatlarini va mendagi sabr-u toqatni ko'rgan kishilarning toshyuraklari endi eriy boshladi. Hozir meni arzimagan foyda deb chaqirmaydigan, masxara qilib kulmaydigan bo'lishdi; savdo rastasidan o'tsam – endi hech kim ustimga suv sochib yubormaydi. Mening ishchi bo'lganimga hammasi o'rganib qoldi. O'zim oqsuyaklardan bo'laturib, bo'yoq solingan chelak ko'tarib yurganimni yoki oynasozlik qilayotganimni endi hech kim aybaga qo'shmaydi; aksincha, ishlari chiqsa, darhol meni chaqirishadi. Redkadan keyingi o'tkir usta va eng yaxshi pudratchi deb endi hamma meni biladi: u yaqindagina tuzalib chiqdi va hali ham cherkov gumbazlarini avvalgiday havozasiz bo'yayveradi-yu, lekin yigitlarga gapi o'tmay qoldi; uning o'rmiga hozir men shaharni aylanib, buyurtma qidirib yuraman, odamlarni o'zim ishga olib, o'zim pullarini to'layman, anchagina foiz to'lash sharti bilan sudxo'rlardan pul qarz olaman, pudratchilik boshimga tushgandan keyingina arzimagan buyurtma uchun Redka nega uch kunlab tunukasoz axtarib, shaharda zir yugurganlarini endi tushundim, hozir hamma meni hurmat qiladi, sizlab gapirishadi, ishlayotgan uylarimda choy keltirib berishadi va qorinlari ochmadimikin, ovqat yermikinlar, borib so'ra, deb tez-tez xizmatkorlarini yuborib turishadi. Ko'pincha bolalar va ayniqsa, qizlar ishlayotgan joyimga kelib, hayron va g'amgin bo'lib, tepamda qarab turadi.

Bir kuni men gubernatorning bog'ida ishlab, bog'dagi shiyponni marmar tusga bo'yayotgandim. Gubernator bog'ni aylanib, shiyponga keldi-da, bekorchiligidan meni gapga sola boshladi. Bir paytlar meni chaqirtirib tergaganini uning esiga soldim. Oldin birpas yuzimga tikilib turdi, keyin og'zini «o» harfiga o'xshatib ochdi-da, kiftlarini qisib:

– Yodimda yo'q! – dedi.

Men xiyla qartayganman, kamgap, jiddiy va serjahl bo'lib qolganman, avvalgi kulgim, quvonchlarim yo'qolib ketgan; men ham xuddi Redkaga tortganmishman, nasihat qilaverib ishchi sheriklarimni rosa zeriktirarmishman.

Mening sobiq xotinim Mariya Viktorovna hozir chet elda yashaydi, muhandis otasi esa sharqiy gubernalarning birida temiryo'l solish va mulk sotib olish bilan ovora. Doktor Blagovo ham chet elda. Dubechnya yana o'z egasi – Cheprakova xonimga o'tib ketdi; sotgan narxidan yigirma foiz kamiga muhandisdan qaytib oldi. Moisey hozir shlyapa kiyib olgan; u poyga aravasiga tushib, tez-tez shaharga kelib turadi va doim bank oldida to'xtaydi; garovdan ajratib, g'alati bir qo'rg'onni sotib olganmish, hozir Dubechnyani ham sotib olish payiga tushgan va bankka hadeb kelaverishining boisi shundanmish. Ivan Cheprakov esa ko'p vaqtlargacha shaharda daydib, hech ishning boshini tutmay rosa sharobxo'rlikka berilib ketdi. Oldin men uni o'zimizga qo'shib olib, ishga aralashtirib ko'rdim; bir qancha vaqtgacha oramizga kirib, tom tunukalarini bo'yash, oyna solish singari ishlarga qo'li kelib qoldi, hatto mazasiga tushunib, rosmana bo'yoqchilar qatorida alifmoy o'g'irlashga, choy puli so'rashga, mastbozlik qilishga o'rganib qolgandi. Lekin ish darrov joniga tegdi, Dubechnyasini sog'inib ketib qoldi. Shundan keyingina yigitlar uning g'alamis niyatlarini menga gapirib berishdi. Ivan yigitlarni avrab, kechasi borib, Moiseyni o'ldirib, general xonimning mol-davlatini o'g'irlab kelishga sudrab ko'ribdi.

Otam qarib, bukchayib qolgan; kechqurun o'z uyi atrofida sayr qilib yuradi. Men unikiga bormay qo'ydim.

Vabo kezlari Prokofiy baqqollarni qalampirli sharob va qatron bilan davolab, rosa pul ishlab oldi; qassobxonasiga o'tirib olib, doktorlarni yomonlagani uchun darra bilan xo'p savalashibdi; men bu xabarni shahrimizda chiqadigan gazetadan o'qidim. Dastyor Nikolka vabodan o'lib ketdi. Karpovna hali ham tirik, Prokofiydan burungiday qo'rqadi va haliyam uni yaxshi ko'radi. Doim meni ko'rsa, g'amgin boshini chayqaydi-da, xo'rsinib qo'yadi:

– Peshanang sho'r ekan, bolam!

Har kuni ertalabdan kechgacha ish bilan bandman. Bayram kunlari kelsa, havo ochiq bo'lsa, men kichkinagina jiyanimni ko'tarib uydan chiqib ketaman. Opam sho'rlik o'g'il bola kutgandi, biroq qiz tug'ildi. Sekin-asta, shoshmasdan yurib, qabriston tomonga yo'l olaman. U yerga yetgach, men uchun eng aziz bo'lgan qabr tepasida uzoq turib qolaman va bu tuproq ostida onasi yotganini jiyanimga gapirib beraman.



Ba'zan qabr yonida Anyuta Blagovoni uchrataman. Ikkimiz so'rashimiz va uzoq vaqt jim turib qolamiz yoki Kleopatra va uning qizchasi to'g'risida gaplashamiz, dunyoning qayg'u va alamlaridan hasratlashamiz. So'ngra qabristondan chiqamiz-da, indamay yo'lga tushamiz; o'shanda Anyuta ataylab, yonimda ko'proq bo'lish uchun jo'rttaga sekin-sekin qadam bosadi. Jiyanim shod-u xurram, oftobdan ko'zlarini qisib, kulib turib, jajji qo'lchalarini unga cho'zadi; biz darhol to'xtaymiz va bu shirin qizaloqni ikkimiz to'yib-to'yib erkalatamiz.

Shaharga yetgach, Anyuta Blagovo bezovta bo'ladi, qizarib-bo'zarib xayrlashadi-yu, bir o'zi ketadi, men ketidan qarab qolaman. Endi uchragan odamlarning bittasi ham shu basavlat, qovog'i soliq qariqizning hozirgina men bilan qabristondan kelganiga va hatto yo'lda bolani o'ynatib, erkalatganiga ishonmasa kerak.

MUJIKLAR

I

Moskvadagi «Slavyan bozori» mehmonxonasining yugurdagi Nikolay Chikildeyev og'rib qoldi. Uning oyog'i tortishib, siltanglab yuradigan bo'ldi. Bir kuni patnida yaxna go'sht, no'xat qo'yib borayotganda yo'lakda qoqilib, yiqilib tushdi. Xizmatdan chiqib ketishga to'g'ri keldi. O'zining va xotining pullarini dori-darmonga sarf qilib, ovqatga ham puli qolmadi, ishsizlikdan zerikdi, so'ngra, o'z qishlog'imga borsam, yaxshi bo'lar, deb o'yladi. O'z uyingda kasallik ham bilinmaydi, xarajat ham kam; uyda bo'lsang, har bir devor suyaydi, degan gap bejiz emas, axir.

Nikolay kechki payt o'z qishlog'i Jukovoga kirib keldi. Bolalik chog'lari esiga tushganda, tug'ilib-o'sgan uyi xayolida yorug', dildor, bag'rikengdek ko'ringandi; endi uyga kirarkan, hatto qo'rqib ketdi: yorug' deb o'ylagan joyi nihoyatda qorong'i, tor va iflos edi. Nikolay bilan kelgan xotini Olga va qizi Sasha uyning salkam yarmini egallagan, is va pashshadan qorayib ketgan beso'naqay pechkaga qarab hayron bo'lardi. Pashshaning soni-sanog'i yo'q! Pechka qiyshaygan, devorlarning yog'ochlari egri-bukri, uy xuddi hozir qulab tushadigandek. Ikonalar turadigan burchakda shisha yorliqlari, gazeta parchalari yopishtirilgan – bular go'yo surat o'miga qo'yilgan.

Kambag'allik, qashshoqlik! Uyda kattalardan hech kim yo'q, hamma o'roqda. Pechka ustida yoshi sakkizlarga borgan mallasoch, aftangori kir bir qiz beparvogina o'tiribdi. U kelganlarga aqalli qaramadi. Pastda oq mushuk kosovga surkalib turardi. Sasha:

– Ma, pish-pish-pish, – deb mushukni chaqirdi.

Pechka ustidagi qiz:

– Mushugimiz kar bo'lib qolgan, eshitmaydi, – dedi.

– Nega?

– Shunday. Urib kar qilishgan.

Nikolay bilan Olga dastlabki ko'rinishdanoq bundagi turmushning qanday ekanini fahmladilar, ammo tugunlarini yerga qo'yib, indamay ko'chaga chiqdilar. Ularning uyi chekkadan uchinchi bo'lib, ko'rinishi eng xarob, eng eski kulbayi vayrona edi; ikkinchi uy ham ularnikidan yaxshi emas, lekin uchinchisi tunuka tomli, oynalariga parda tutilgan edi. Bu uyning oldi to'silmagan, o'zi alohida turibdi; bu qovoqxona ekan. Uylar bir qator tizilgan, butun qishloq jimjit, xomush, hovlilardan ko'rinib turgan tol, qarag'ay, chetan daraxtlari qishloq manzarasini chiroyli va yoqimli qilib turibdi.

Dehqon uylarining naryog'ida soy bo'yiga qarab tushgan jarlik bor edi, bu jarlik baland va tikka bo'lib, ba'zi joylarda tuproq tagidan kattakon toshlar chiqib turibdi. Bu toshlar, kulollar kavlagan chuqurlar yonida, jar bag'rida aylanma yolg'izoyoq yo'llar bor; siniq idishlarniig qora, qizil parchalari to'p-to'p bo'lib uyilib yotibdi, pastdagi keng yalanglik ko'm-ko'k o'lanzor; o'lanzorning o'ti o'rilgan, hozir dehqonlarning mollari o'tlab yuribdi. Qishloqdan bir chaqirimcha narida buralib-buralib oqqan soy bo'yida barradek sabzalar yashnaydi, soyning narigi yog'ida yana keng o'lanzor, mollar o'tlab, qator-qator oppoq g'ozlar yuribdi, so'ngra u yoqda ham bu tomondagidek baland qir, qir tepasida qishloq, qishloqda besh gumbazli cherkov, nariroqda zamindorning uyi.

Olga cherkovga qarab cho'qingach:

– Sizlarning joylaringiz yaxshi ekan, yayraydigan yer ekan, ey Xudo! – deb qo'ydi.

Xuddi shu paytda kechki ibodatga qo'ng'iroq chalindi (shanba oqshomi edi). Pastda chelakda suv olib kelayotgan ikki nafar kichkina qiz qo'ng'iroq ovozini eshitish uchun cherkovga qayrilib qaradilar.

Nikolay xayol surib:

– «Slavyan bozori»da ovqat vaqti bo'ldi... – deb qo'ydi.

Nikolay bilan Olga jar bo'yida o'tirib kunning botishini, suvda, cherkovning oynalarida, tip-tiniq, sof va salqin, muloyim havoda qip-qizil osmonning tovlanib turishini – Moskvada hech qachon bo'lmaydigan bu manzarani tomosha qildilar. Quyosh botgach, poda mo'rab, bo'kirib o'tdi. Narigi tomondagi g'ozlar uchib keldi, hamma yoq jim bo'ldi, havodagi sokin shu'la so'ndi, qorong'i tusha boshladi.

Bu orada Nikolayning otasi bilan onasi, chol-kampir qaytib keldilar. Ikkovining bo'yi baravar, munkaygan, tishlari tushgan, ikkovi ham ozg'in. Soyning narigi yog'ida zamindornikida ishlagan kelinlar – Marya bilan Fekla ham keldi. Kiryak degan o'g'illarining xotini Maryaning olti nafar bolasi bor, harbiy xizmatga olingan Denis degan o'g'illarining xotini Feklaning ikki bolasi bor edi. Nikolay uyga kirib bola-chaqalarni, so'ri ustida, belanchakda, uying har yog'ida, burchak-burchaklarda uymalashib yurgan katta-kichik gavdalarni, chol bilan kampirning qora nonni suvga botirib qanday ishtaha bilan yeyayotganlarini ko'rganidan keyin kasal holda, pulsiz, buning ustiga, bola-chaqasi bilan bu yerga kelib chakki qilganini fahmladi – bekor qilibdi!

So'rashib bo'lganidan keyin:

– Kiryak og'am qayoqda? – deb so'radi.

– Savdogarnikida, o'rmonda qorovullik qiladi, o'zi yomon mujikmas-u, biroq juda yomon ichadi, – deb javob berdi otasi.

Kampir ko'ziga yosh olib:

– Uddaburo chiqmadi. Mujiklarimizning peshonasi sho'r. Uyga tashib kelmasdan, uydan tashib ketadilar. Aybimizni bekitib nima qilamiz, Kiryak ham ko'p ichadi, chol ham ichadi, qovoqxonadan beri kelmaydi, Xudoning qahriga qoldik, – dedi.

Mehmonlar kelgani uchun o'ziqaynar qo'ydilar. Choydan baliq isi kelardi, qand mijilgan va sarg'aygan, non va idish-tovoqlar ustida suvaraklar yuribdi. Ichishga odam jirkanadi, gaplar kishini ranjitadi – muhtojlik, kasallik to'g'risidagina so'zlashadi. Bir piyoladan choy ichilgani ham yo'q ediki, bir mahal hovlidan mast odamning bo'kirgani eshitildi:

– Ma-arya!

– Kiryakka o'xshaydi, – dedi chol, – ana o'ziyam kelib qoldi.

Hamma jim bo'ldi. Birozdan keyin xuddi yer tagidan kelganday haligi dag'al bo'kiriq yana eshitildi:

– Ma-arya!

Katta kelin Maryaning rangi o'chdi, pechka yoniga borib tiqildi. Keng yag'rinli, durkun, kuchli va xunuk xotinning qo'rqishi g'alati ko'rindi. Uning qizi, pechka ustida beparvo o'tirgan haligi qiz to'satdan baqirib yig'lab yubordi.

Chiroyli, keng yag'rinli, baquvvat Fekla qizni jerkib:

– Vabo tekkur, sen nega yig'laysan? Joning chiqmasin, o'ldirmas! – deb baqirdi.

Nikolay choldan surishtirib bilsa: Marya o'rmonda Kiryak bilan birga turishga qo'rqar, eri har gal ichib mast bo'lganda, Maryani yo'qlab kelib, shovqin-suron ko'tarib, xotinini hech ayamasdan urarkan.

Naq eshik tagida yana:

– Ma-arya! – degan bo'kiriq eshitildi.

Marya birov uni muzdek suvga pishib olgandek, entika-entika:

– Xudo xayr bersin, jigarlarim, qutqazib oling, mehribonlarim, unga topshirib qo'ymang... – deb g'o'ldiradi.

Uydagi bolalarning hammasi, ularga qarab Sasha ham yig'lab yubordi. Mast kishining yo'talgani eshilib, baland bo'y, qorasol, quloqchin kiygan kishi kirib keldi; chiroq xira yonganidan yuzi ko'rinmagani uchun dahshatli tuyuldi. Bu Kiryak edi. U xotiniga yaqin kelib uning yuziga qulochkashlab bir musht urdi. Xotini esa kaltakdan gangib, churq etmay o'tirib qoldi, shu ondayoq burnidan qon keldi.

Chol pechga chiqarkan:

– Ana sharmandalik, uyat, nomus. Mehmonlar oldida-ya. Qanday battollik! – deb g'o'ldiradi.

Kampir bukchayganicha nimanidir o'ylab indamay turardi. Fekla belanchak tebratardi... Kiryak, chamasi, o'zining bunday dahshatli ekanini bilib va bundan quvonib Maryani qo'lidan ushlab eshikka sudradi, battarroq qo'rqitmoq uchun hayvondek bo'kirdi, ammo shu chog' mehmonlarga ko'zi tushib to'xtadi.

Kiryak xotinini qo'yib yuborib:

– Ha, kepsizlar... Tug‘ishgan og‘am bola-chaqasi bilan kepti... – dedi.

Gandiraklab turib qip-qizil mast ko‘zlarini yirib ikonaga cho‘qindi-da, yana gap ochdi:

– Og‘am ota uyiga bola-chaqasi bilan kepti... Moskvadan kepsizlar-da. Poytaxtdan, shaharlar onasi Moskvadan keldim, deng... Aybga buyurmaysizlar...

O‘ziqaynarga yaqin joyda o‘rindiqqa o‘tirib, likopchadan ho‘p-lab-ho‘plab choy ichdi. Boshqalar indamay o‘tirardi... O‘n piyolaga yaqin choy ichdi, so‘ngra o‘rindiqqa suyanganicha xurрак ota boshladi.

Yotar vaqt bo‘ldi. Nikolay kasal bo‘lganidan unga chol yoniga, pechka ustiga joy solib berdilar; Sasha yerda yotdi. Olga ayollar bilan yotgani saroyga kirib, Maryaning yoniga yotarkan:

– Ey, o‘rgilay, ko‘zyoshi qayg‘uni yuvmaydi! Sabrdan o‘zga chorang yo‘q. Aziz kitoblarda, agar birov o‘ng betingga ursa, chap betingniyam tutib ber... deyilgan, ey, o‘rgilay, – dedi.

So‘ngra Moskvada, mehmonxonada cho‘ri bo‘lganini salmoqlab gapirib berdi.

– Moskvaning uylari katta, bir ming olti yuzta butxona bor, o‘rgilay; uylarda badavlat odamlar turadi, hammalari chiroyli, kelishgan, boadab!

Marya Moskva u yoqda tursin, loaqal o‘zining uyezd shahriga ham bormaganini gapirib berdi. Marya o‘qimagan, duolarning hech qaysisini, hatto «Bizning osmondagi otamiz»ni ham bilmas edi. Marya ham, nariroqda bularning gapiga quloq solib o‘tirgan ikkinchi kelin Fekla ham nihoyatda nodon bo‘lganlaridan hech narsaga tushunmasdi. Ikkovi ham erlarini yoqtirmasdi. Marya Kiryakdan qo‘rqar, uning oldida turganda qo‘rqqanidan qaltirar va qachonki u bilan birga tursa, undan sharob va tamaki hidi buruqsib turganidan, boshi karaxt bo‘lar edi. Fekladan, eringni sog‘inmaysanmi, deb so‘rashganda:

– Qo‘ying o‘shani! – deb javob berardi.

Gaplari tugab jim bo‘ldilar...

Kun salqin, bostirma oldida xo‘roz qichqirib uxlatmas edi. Tongning ko‘kimtir nuri har teshikdan ko‘rinib turgan chog‘da Fekla sekin-asta o‘rnidan turib eshikka chiqdi, so‘ngra yalangoyoq shipil-lab qayoqqadir ketdi.

II

Olga cherkovga borarkan, Maryani ham birga olib ketdi. Ular so'qmoqdan borib o'lanzorga qarab tushayotganlarida, xursand edilar. Olgaga bu yerning kengligi yoqar edi. Marya bo'lsa ovsinini yaqin qarindoshdek bilardi. Kun chiqdi. Uyqudan karaxt bo'lgan qirg'iy o'lanzor tepasidan pastlab uchmoqda, soy usti xira, unda-bunda tuman tentirab yuradi, ammo soyning narigi tomonidagi quyosh shu'la tashladi, cherkov yarqirab turibdi, zamindor bog'ida zog'chalar chag'illaydi.

– Chol tuzuk, lekin kampir serjahl, urishaveradi. O'zimizning bug'doyimiz hayitgacha yetdi, endi qovoqxonadan un sotib olib yeb turibmiz, shuning uchun kampirning jig'ibiyroni chiqyapti, ko'p non yeysizlar, deb jahl qiladi, – dedi Marya.

– Ey, o'rgilay. Sabr qil, boshqa chora yo'q. Kitobda, barcha ojiz va bechoralar, g'am-g'ussada qolganlar, sabr qilinglar, deyilgan.

Olga salmoqlab so'zlar, yurganda taqvodor xotinlarga o'xshab tipirchilab, tez yurar edi. Har kuni otinlardek qiroat bilan Injil o'qir, o'qiganining ko'piga tushunmasa ham, muqaddas so'zlarga kelganda, ko'ngli buzilib yig'lab, «magar» «tokaygacha» kabi so'zlarni yuragi ezilib, hazin tovush bilan aytar edi. U Xudoga, Bibi Maryamga, aziz-avliyolarga ishonar, dunyoda na oddiy odamlarga, na nemislarga, na lo'lilarga va na yahudiylarga, xullas, hech kimga ozor berib bo'lmaydi, hatto hayvonlarga ham ozor yetkazgan kishining sho'ri quriydi, deb bilardi, muqaddas kitoblarda shunday yozilgan, der va shuning uchun bu muqaddas kitoblarni o'qiganda, garchi so'zlariga tushunmasa ham, ko'ngli buzilib, yuzi yorishib, rahm-shafqat alo-matlari paydo bo'lardi.

– Sen qayerliksan? – deb so'radi Marya.

– Men vladimirlikman. Moskvaga borib kelganimga ancha bo'lgan, sakkiz yoshimda.

Soyga yaqinlashdilar. Soyning narigi bo'yida, suv yoqasida qandaydir bir xotin yechinmoqda edi. Marya u xotinni tanib:

– Bizning Fekla-ku, – dedi, – soyning narigi bo'yidagi boyning hovlisiga borib kelayotgandir. Unda boyning gumashtalari bor. Shunday sho'x, qaqaJonki, asti qo'yaver!

Qoraqosh, sochlari yoyilgan, yosh, durkun qizdek Fekla soy bo'yidan o'zini suvga tashlab, oyoqlari bilan suvni shaloplatib suza ketdi, to'lqinlar har tomonga yoyildi.

Marya yana:

– Benihoya sho'x, – dedi.

Soy ustida lapanglab turgan yolg'izoyoq yog'ochko'prik bo'lib, ko'prik tagida zog'orabaliqlar galalashib suzardi. Suvga engashib turgan mayda butalar bargida shudring tomchilari yarqiraydi. Havo ilidi, ko'ngil quvonadi. Naqadar go'zal tong! Agar muhtojlik, muqarrar, dahshatli qashshoqlik bo'lmasa, bu dunyoda yashash nechog'li go'zal bo'lardi! Agar orqaga qayrilib qishloqqa bir qaralsa, kechagi hodisalar darhol esga tushadi, bu yerning afsonaviy go'zalligi, xursandchilik nash'asi bir lahzada yo'qoladi.

Cherkovga kelishdi. Marya ichkariga kirgani botinolmay eshik oldida to'xtab qoldi. Garchi ibodatga chaqirgan qo'ng'iroq soat sakizdan oshganda chalingan bo'lsa-da, tik turaverdi va shu turganicha sira o'tirmadi.

Injil o'qilayotganda butun xaloyiq alg'ov-dalg'ov bo'lib, cherkovga kirib kelgan zamindorlar oilasiga yo'l berdi; oq ko'ylak, soyaboni keng shlyapa kiygan ikki qiz bilan matros kostyumi kiygan qizil yuzli, semizgina bir bola kirib keldi. Ularning kelishi Olgaga ta'sir qildi. U birinchi qarashdayoq bular odamshavanda, o'qimishli, ko'hlik kishilar ekan, deb qo'ydi. Marya bo'lsa, kelganlar odam emas, yo'l bermaguday bo'lsa, uni bosib-yanchib ketadigan balo-qazodek, ularga zimdan xo'mrayib, ma'yuslanib qaradi.

Dyakon yo'g'on tovush bilan bir so'zni o'qisa, Maryaning nazarida eri «Ma-arya» deb bo'kirganday bo'lardi va cho'chib tushardi.

III

Mehmonlarning kelgani qishloqqa yoyildi, shuning uchun ibodatdan keyin ularni ko'rgani ancha odam keldi. Leonichevlar ham, Matveyevichlar va Ilichovlar ham Moskvada xizmat qilgan qarindoshlarini ko'rgani keldi. Jukovo qishlog'idan chiqqan savodli bolalarning hammasini Moskvaga eltib, oshxona va mehmonxonalarga xizmatkorlikka berardilar (soyning narigi tomonidagi qishloq bolalarini esa faqat nonvoyxonaga berardilar); bu narsa qadimdan, kre-

postnoylik zamonidan beri rasm bo'lib qolgan, u zamonda Jukovo qishlog'ida bo'lgan Luka Ivanovich degan bir dehqon nuqul o'z ham-qishloqlarini xizmatga olar ekan. Qilgan ishlari hozir cho'pchakka aylanib qolgan bu odam Moskvadagi klublarning birida bufetchilik qilardi. Uning keltirgan odamlari o'rmashib olganlaridan keyin o'z qarindoshlarini chaqirib olib, ularni qovoqxona va restoranlarga joylashtirar ekanlar. Shu sababdan, haligacha atrofdagi qishloqlarning odamlari Jukovo qishlog'ini «Malayobod» yoki «Yuvindixo'ra» derdi. Nikolayni o'n bir yoshida Moskvaga eltib, u vaqtda «Ermitaj» bog'ida kapeldinerlik qiluvchi va Matveyevichlar oilasidan bo'lgan Ivan Makarich o'miga o'rmashtirib qo'ygandilar. Endi Nikolay Matveyevichlarga minnatdorlik bilan bunday derdi:

– Ivan Makarich mening valine'matim bo'lgan, uni kecha-yu kunduz duo qilish – mening vazifam, chunki men uning orqasidan odam bo'ldim.

– Ey, bolam, – dedi ko'zyoshi aralash Ivan Makarichning opasi, novcha, oriqlik kampir, – ulardan hech xat-xabar yo'q.

– Qishda Omonda¹ xizmat qilgandi. Hozir shahardan tashqarida allaqanday bir bog'damish, keksayib qoldi! Ilgari yozda kuniga o'n so'm ishlagan kunlari bo'lardi. Hozir har yerdayam ishning mazasi yo'q, qariganda azobga qoldi.

Kampirlar va xotinlar Nikolayning piyima kiygan oyog'iga, oppoq rangiga qarab, xafalanib:

– Uddaburomassan, Nikolay Osipich, topishingda maza yo'q! Na chora! – dedilar.

Hamma Sashani erkalatardi. Sasha o'n birga qadam qo'yan bo'lsa-da, bo'yi yoshiga yarasha emas, pakana, o'zi oriqlik, ko'rgan kishi uni yettiga kirgan, deydi. Oftobda qoraygan, sochlari pala-partish qirg'ilgan, uzun va keng etakli ko'ylak kiygan, boshqa qizlar orasida oppoqqina, shahloko'z, sochining uchiga qizil lenta bog'lagan Sasha bir qadar qiziq ko'rinar, xuddi daladan tutib, uyga olib kelingan jonivorga o'xshardi.

– Qizim o'qishniyam biladi! – deb maqtandi Olga, qiziga mu-loyimgina qarab. – Qani, o'qi-chi, qizim! – dedi unga burchakda turgan Injilni olib berib. – Sen o'qi, qolganlar eshitsinlar.

¹ Omon – 19-asrning 90-yillarda Moskvadagi bir restoran egasining familiyasi.

Injil eski, og'ir charm muqovasining chetlari to'zigan edi. Undan shunday bir hid keldiki, uyga rohiblar kirganday bo'ldi. Sasha qoshlarini chimirib qiroat bilan boshladi:

– «Munajjimlar jo'nab ketganlaridan so'ng, Xudovandning bir farishtasi Yusufga tushida ko'rinib: «O'rmingdan tur! – dedi. – Chaqaloq bilan onasini olib, Misrga qoch va men senga biror narsa aytmagunimcha, u yerda qolgin...»

– Chaqaloq bilan onasini... – deb takrorladi Olga va hayajonidan qip-qizarib ketdi.

«Aytmagunimcha» iborasini eshitganda, Olga o'zini tutolmay yig'lab yubordi. Unga qarab avval Marya, so'ngra Ivan Makarichning opasi ham yig'lab yubordi. Chol yo'taldi va nevarasiga dasturxondan biror narsa olib bermoqchi bo'lib javdiradi: hech narsa topolmay, qo'l siltadi. Shundan so'ng Injil o'qish yakunlanib, ta'sirlanib, ko'ngli buzilgan qo'shnilar Olga va Sashadan mamnun bo'lib tarqaldilar.

Bayram munosabati bilan hamma kun bo'yi uyda qolishdi. Eri ham, kelinlari ham, nevaralari ham acha deb ataydigan kampir butun ishni o'zi qilishga tirishardi. Pechni ham o'zi yoqdi, o'ziqaynarni ham o'zi qo'ydi. Hatto yerto'laga ham o'zi tushar, keyin «Ishlayverib o'lib bo'ldim», deb shikoyat qilar edi. Biron kishi bekor qolmasligi, birovning ortiqcha emasligi, chol va kelinlar bekor o'tirmasligining g'ami ham uning ustida. Qo'shni qovoqxona egasining g'ozlari nazarida chorvoqqa kelayotganday bo'ladi. Kampir darhol uzun tayoq olib yugurib chiqadi-da, o'zi singari burushgan va nimjon karami yonida yarim soatcha chinqirib vaysaydi. Nazarida, jo'jalarga sor tegayotganday bo'lib, urishib-qarg'ab sorni haydashga tutinadi. U ertadan kechgacha achchiqlanar hamda vaysar edi, ko'pincha shunday shovqin ko'tarardiki, ko'chadan o'tib borayotgan kishilar to'xtab qarashardi.

O'z choliga ham yaxshi muomala qilmasdi. Uni goh yalqov, goh baloga uchragur, derdi. Chol ham ephilgina, ishonchli odam emasdi, agar kampir shunday qilib turmasa, u hech ishlamas, pechkaning ustiga chiqib gaplashib o'tiraverar edi. U o'g'liga o'zining allaqanday dushmanlaridan, qo'shnilaridan yetgan amlardan hasrat qilib, ezmalik bilan uni zeriktirardi.

U biqinini ushlab turib:



– Shunaqa... Bayramdan so‘ng oradan bir hafta o‘tib, pudini o‘n uch tiyindan pichan sotdim. O‘z ixtiyorim bilan... shunday qilib... xo‘p, demak, men pichanni o‘z ixtiyorim bilan olib boraman, hech kim bilan ishim yo‘q. Shu vaqtda qarasam, yo‘ldagi qovoqxonadan oqsoqol Antip Sedelnikov chiqib qoldi. «Qayoqqa olib boryapsan bu xashak-pashakni?» deb qulog‘imning tagiga bir tarsaki tushirdi, – derdi.

Kayfi tarqagan Kiryakning boshi qattiq og‘rir va akasidan xijolat bo‘lar edi.

Kiryak karaxt boshini qimirlatib:

– Sharobning oqibati shu. Ey Xudo-yey! Akalar, opalar, gunohimni kechiring, Iso haqi, o‘zim ham pushaymonman, – derdi.

Bayram munosabati bilan qovoqxonadan sho‘r baliq sotib olib, uning kallasidan sho‘rva qaynatildi. Qiyom vaqtida hamma choy ichgani o‘tirib, choyni uzoq, to terlaguncha ichishdi. Hamma choy icha-icha xuddi shishib ketganday ko‘rinardi. Shundan so‘ng sho‘rvani katta bir tog‘oraga quyib o‘rtaga qo‘ydilar. Hammalari shu bir tog‘oradan ichdilar. Sho‘r baliqni esa kampir yashirib qo‘ydi.

Kechqurun kulol jar bo‘yida o‘t yoqib, kuvachalarni xumdonga soldi. Pastdagi o‘tloqda qizlar qo‘shiq aytishdi. Garmon chalishdi. Soyning narigi yuzidagi xumdonga ham o‘t yoqilgan. Unda ham qizlar qo‘shiq aytdilar. Qo‘shiq uzoqdan ohangdor va mungli eshitilardi. Qovoqxonada va uning atrofida mujiklar g‘ala-g‘ovur ko‘tardi. Badmastlik bilan poyma-poy ashula aytishar va shunday so‘kishardiki, uni eshitganda Olga bir irg‘ib tushib:

– Voy, sho‘rim qursin! – derdi.

So‘kishlarning hech tinmagani, bir oyog‘i go‘rda bo‘lgan chollarning hammadan ko‘ra qattiqroq va uzoqroq so‘kinishlari Olgani hayratda qoldirdi. Bolalar va qizlar esa bu so‘kinishlarni eshitib, hech uyalmas, aftidan, yoshlikdanoq bunga o‘rganib qolgan edi.

Vaqt yarim kechadan o‘tdi. Soyning bu va narigi yuzidagi xumdonlarda o‘t o‘chdi. Pastdagi o‘tloqda va qovoqxonada hamon o‘yin-kulgi davom etardi. Chol bilan Kiryak mast, bir-birini suyab, bir-birini turtkilab, Olga bilan Marya yotgan omborning oldiga kelishdi.

– Qo‘y, – derdi chol yolborib, – qo‘y... yaxshi, royish xotin... Gunoh bo‘ladi...

- Ma-arya! – deb qichqirdi Kiryak.
– Qo‘y... gunoh... bu yomon xotinmas.
Ikkovi saroy yonida biroz turib, so‘ngra ketishdi.
– Sevaman men dala gullarini, chamanzorda gullar terishni, –
deb chol chinqirib birdaniga ashula boshladi.
So‘ngra tupurdi. Yomon bir so‘kindi-da, uyga kirib ketdi.

IV

Kampir Sashani polizni qo‘riqlagani qo‘yib, g‘ozlarni kirgizma, deb buyurdi. Issiq avgust kuni edi. Qovoqxona egasining g‘ozlari galalashib narigi yondan polizga kirsalar bo‘lardi-ku, ammo hozir qovoqxona yonida to‘kilib yotgan sulini terib yeyish bilan ovora edi. Faqat bir nar g‘oz, kampir tayog‘ini ko‘tarib kelmayotibdimi, deganday bo‘ynini cho‘zib qarab qo‘ydi. Boshqa g‘ozlar past tomondan kelishi mumkin edi, ammo bular hozir soyning narigi yog‘idagi o‘tloqda qator-qator tizilishib, o‘tlab yurar edi. Sasha birpas turdida, zerikdi. G‘ozlar kelmaganidan keyin jar bo‘yiga qarab ketdi.

Sasha u yerda Maryaning katta qizi Motkani ko‘rdi. Motka katta bir toshning ustida turib, cherkovga qarardi. Marya o‘n uchta tuqqan, ammo bulardan faqat oltitasi qolgan. Bularning hammasi qiz, eng katta qizi sakkiz yoshda edi. Motka yalangoyoq, uzun ko‘ylak kiyib, oftob qizig‘ida turardi. Oftob uning miyasini qaynatar, ammo buni sezmay, toshday qotib turar edi. Sasha uning yoniga borib, cherkovga qarab bunday dedi:

– Cherkov – Xudoning uyi. Odamlar chiroq, sham yoqadilar, Xudoning esa qizil, ko‘k, zangori, ko‘zga o‘xshagan shamchirog‘i bor. Kechasi cherkovda Xudo yuradi: uning yonida Bibi Maryam bilan Xudo sevgan Nikolay do‘q, do‘q, do‘q qadam tashlaydi... Qorovul qo‘rqadi, vahima bosadi! – Sasha onasining gapiga o‘xshatib: – Keyin-chi, o‘rgilay, qiyomat bo‘lganda hamma cherkovlar osmonga ko‘tarilib ketadi, – dedi.

– Qo‘n-g‘i-roq bi-lan-mi? – dedi Motka yo‘g‘on ovoz bilan, har bir hijoni bo‘lib.

– Qo‘ng‘iroq bilan. Qiyomat bo‘lganda yaxshi odamlar jannatga kiradi, yomonlar, badjahllar, o‘rgilay, do‘zaxga tushadi. O‘tda yonadi. Doim yonadi, o‘rgilay. Mening onamga, Maryagayam Xudo: «Sizlar hech kimni xafa qilmagandingiz, shuning uchun o‘ng yoqqa,

jannatga boringlar», deydi, Kiryak bilan kampirga esa: «Sizlar chap yoqdagi do'zaxga boringlar», deydi. Ro'za tutmay, go'shtli ovqat yeganlar ham do'zaxga tushadi.

U ko'zlarini katta-katta ochib yuqoriga – osmonga qaradi-da, shunday dedi:

– Kiprik qoqmay osmonga qara, farishtalarni ko'rasan.

Motka ham osmonga qaradi – oraga bir lahza jimlik cho'kdi.

– Ko'ryapsanmi? – so'radi Sasha.

– Ko'rinmaydi, – dedi Motka do'rillab.

– Men ko'ryapman. Kichkina farishtachalar uchib yuribdi, qanotlari kichkinagina: xuddi chivinning qanotiday lip-lip qiladi.

Motka yerga qarab biroz o'ylandi-da, so'ngra:

– Kampir o'tda yonadimi? – deb so'radi.

– Yonadi, o'rgilay.

Katta toshdan to pastgacha bir tekisda qiyalanib tushgan jarlikning yonbag'rida barra o'tlar o'sgan, bu o'tlar shunday mayinki, ushlaging yoki ustida yotging keladi. Sasha yotib, pastga qarab dumaladi, Motka ham tumtayib turib, yerga yotdi va pastga qarab dumalangandi, etagi yelkasigacha ko'tarildi.

– Kulgim qistayapti! – dedi Sasha sevinib.

Yana yumalash uchun ikkovi yuqoriga chiqdi. Shu vaqtda chiyillagan tanish bir tovush eshitildi. Ana endi qo'rqishni ko'ring! Tishsiz, qoqsuyak, bukchaygan kampir uzun tayog'ini ko'tarib polizdan g'ozlarni quvar va qichqirar edi:

– Hamma karamni rasvo qildi! Qurib ketkurlar, qirilgurlar, Xudoning qahriga uchragurlar, yaramaslar, joning chiqqurlar!

U qizchalarni ko'rib qolib tayog'ini tashladi, so'ngra yerdan xipchin oldi-da, qoqsuyak, tayoqdek qattiq va dag'al qo'llari bilan Sashaning bo'ynidan ushlab ura ketdi. Sasha kaltak zarbidan va qo'rqqanidan yig'ladi. Shu vaqtda bir g'oz lapanglab, bo'ynini cho'zib kampirning oldiga keldi-da, g'oq-g'oq, dedi. So'ngra g'ozlar oldiga qaytib borganda go'yo kampirga g'oq-g'oq deganini ma'qullaganday, ular ham g'ag'illashdi. Keyin kampir Motkani tutib olib urdi. Motkaning etagi yana yelkasigacha ko'tarildi. Sashaning xo'rliigi kelib, kampirni chaqqani uyga kirdi. Uning ketidan Motka ham kirdi, u arillab yig'lar, ko'z yoshini artmas, yuzi suv sepilganday shalabbo edi.

– Voy o‘lay! Meni Xudo urdi, – dedi Olga hayron bo‘lib, ular uyga kirganda.

Sasha bo‘lgan voqeani ayta boshladi. Shu vaqtda qarg‘ay-qarg‘ay, shovqin solib kampir keldi. Feklaning achchig‘i chiqdi, uyda g‘ovur-g‘uvur ko‘tarildi.

– Zarari yo‘q, zarari yo‘q! U buving, unga jahl qilsang, gunohkor bo‘lasan. Hechqisi yo‘q, qizim, – dedi Olga oppoq oqarib, avzoyi buzilib, Sashaning boshini siladi.

Doimiy shovqin-suron, ochlik va badbo‘y hidlar joniga tekkan hamda ota-onasi tufayli xotini bilan qizi oldida xijolatga qolgan Nikolay pechdan oyog‘ini osiltirib, titrab-qaqshab, yig‘lamsirab onasiga:

– Uni urishga haddingiz sig‘maydi! Uni urishga hech haqqingiz yo‘q! – dedi.

– Pechka ustidan tushmay harom o‘l, iltozi, sen tekinxo‘rlarni bu yerga qaysi ofat keltirdi?! – deb baqirdi Fekla g‘azab bilan.

Sasha, Motka va boshqa hamma qizlar pechkaning burchagiga o‘tib, Nikolayning orqasida g‘uj bo‘lishib, indamay, gapga quloq solishar va qo‘rquvdan yuraklarining dukillashi eshilib turar edi. Oilada kasali uzoqqa cho‘zilgan va tuzalish umidi bo‘lmagan kishi bo‘lsa, shunday daqiqalar bo‘ladiki, yaqinlari dillarida unga o‘lim tilaydilar va faqat bolalargina yaqin kishilarining o‘limidan qo‘rqib, shu haqda o‘ylaganda, vahimaga tushadilar. Qizlarning nafasleri ichiga tushib Nikolayga ma‘yus qarashdi va ichlarida: bu yaqin kunlarda o‘ladi, deb unga ko‘ngil ko‘taradigan, rahm-shafqatli biron so‘z aytgilari va yig‘lagilari keldi.

Nikolay xuddi himoya kutganday Olganing pinjiga kirdi va sekin, titroq tovush bilan:

– Jonim Olga, bu yerda turishga toqatim qolmadi, Xudo xayringni bersin, opang Klavdiya Abramovnaga xat yoz, bor bisotini sotsin, garovga qo‘ysin, bizga pul yuborsin. Bu yerdan ketamiz. E Xudo!.. Yana bir Moskvani ko‘rsam, armonim yo‘q, tushimda ko‘rinsayam mayli! – dedi.

Kech bo‘lib, uyga qorong‘i tushgach, shunday diqqinapas bo‘ldiki, gapirish ham qiyin edi. Badjahl kampir qora nonning chetini suvga botirib bir soatcha so‘rib o‘tirdi. Marya sigirini sog‘ib, paqirda sut olib kelib o‘rindiqqa qo‘ydi. Kampir sutni shoshilmas-

dan, ro'za bo'lgani uchun hech kim ichmaydi, deb xotirjam bo'lsa kerak, paqirdan kuvachalarga quydi. Faqat kichkina likopchaga Feklaning bolasiga ozgina quyib berdi. Kampir bilan Marya kuvalchalarni yerto'laga olib tushib ketganda, Motka birdan qo'zg'alib, pechning ustidan osilib tushdi-da, qoqnon to'g'ralgan yog'och kosa turgan o'rindiqning oldiga kelib, likopchadagi sutdan kosaga jinday quydi.

Qampir uyga qaytib kelib, yana o'sha qora nonning chetini kemira boshladi. Sasha bilan Motka esa pechning ustida o'tirib, unga qarashar va uning ro'zasi buzilganidan, endi do'zaxga tushadi, deb xursand bo'lardilar. Ikkovi tinchlanib, uxlagani yotdi. Sasha tushida qiyomatni ko'rdi: xumdonday katta pechka yoqilgan, sigirga o'xshash shoxli qop-qora dev, kampir boya g'ozlarni haydaganiday, uzun tayoq ushlab, kampirni o'tga haydar edi.

V

Hayit kechasi soat o'n birdan oshganda pastdagi o'tloqda sayr qilib yurgan qiz va yigitlar to'satdan qiy-chuv ko'tarib qishloqqa qarab yugurishdi; jar tepasida o'tirganlar avval nima bo'lganini payqamadilar.

– O't tushdi! O't tushdi! Yondik! – deb baqirgan ovozlar eshitildi.

Yuqorida turganlar qayrilib qarab, dahshatli, juda g'alati bir manzarani ko'rishdi. Eng chetdagi uylarning poxol tomi ustida odam bo'yi alanga buralib yonib turibdi, undan xuddi favvoraday har tomonga uchqunlar sochilmoqda. Olov lovillab bir lahzada butun tomga tutashdi va o'tning charsillagan ovozi eshitildi.

Oyning yuzi xiralandi, lopillab turgan qip-qizil shu'la butun qishloqni bosdi, yerda tutunning qora ko'lankasi yuradi, har yoqdan qurum hidi keladi. Pastda yugurib yurganlarning nafasi bo'g'ildi, qaltirab, bir-birlarini turtishib yig'lashib, gaplashishga tillari kelmas, o'tning ravshan nuridan yaxshi ko'rolmay, bir-birlarini tanimas edi. Hamma yoq vahima ichida edi. Tutun aralash o't ichida kaptarlar uchib yurishi, qovoqxonadagilar yong'indan bexabar, bemalol garmon chalib, ashulani baralla qo'yib o'tirishi, ayniqsa, vahimali edi.

Birov bo'kirib:

– Semyon akaning uyi kuydi, – dedi.

Garchi yong'in qishloqning narigi chekkasida bo'lsa-da, Marya uyning oldida betoqatlik bilan yig'lab, titrab-qaqshab qo'llarini ishqab yuribdi. Nikolay oyog'iga piyma kiyib chiqdi, go'daklar ham ko'ylakchan yugurib chiqdilar. O'nboshining uyi oldidagi cho'yanni chaladilar. Dang-dung, dang-dung... ovozi ko'kka yoyildi, tinmay dang'illash yurakni orziqtirar, badanni jimirlatar edi. Kampirlar ikonalarni ko'tarib chiqdilar. Hovlilardagi qo'y, sigir va buzoqlarni darvozadan ko'chaga haydab yubordilar, sandiq, po'stak, bo'chkalarni tashqariga olib chiqdilar. Uyurda otlarni tepib zarar yetkazganidan yilqiga qo'shmay qo'yilgam qora ayg'ir yechib yuborilgach, tepinib, kishnab bir-ikki marta qishloqning u boshidan bu boshiga chopib o'tdi, birdan arava oldida to'xtab, orqa oyog'i bilan aravani tepa boshladi.

Soyning narigi tomonidagi cherkovda qo'ng'iroq ham chalindi.

Yongan uy oldi issiq va shunday yorug' ediki, yerdagi o'to'lanlarning har biri ko'rinardi. Tashqariga chiqarilgan sandiqlardan birining usgida cho'michburun, qalpog'ini qulog'igacha bostirib kiygan, egnida nimcha ilgan Semyon o'tirardi. Semyonning xotini muk tushib, hushsiz, ingrab yotardi. Saksonlarga borib qolgan, bo'yi bir qarich, soqoli ikki qarich degandek, uzun soqolli pakana bir chol qo'lida oq tugun bilan boshyalang shu orada yuribdi, chol shu yerlik bo'lmasa-da, yong'inga sabab bo'lganga o'xshaydi. Uning tepakal boshida o'tning shu'lasi aks etadi. O'zi va sochlari lo'lidedek qop-qora oqsoqol Antip Sedelnikov bolta bilan uy oldiga kelib darchalarni urib tushirdi, so'ngra negadir uyning eshigi oldidagi ayvonchani buza boshladi. U:

– Xotinlar, suv! Moshinani keltir! Aylantir! – deb qichqirardi.

Yaqindagina qovoqxonada kayf surib o'tirgan kishilar suv sepadigan mashinani sudrab keldilar. Bularning hammasi mast, gandraklab yiqilar, hammalarining yuzlarida ojizlik ifodasi bor, ko'zlari yoshlangan edi.

Oqsoqol ham mast, u:

– Qizlar, suv! Bu yoqqa bur! – deb qichqirardi.

Xotin-qizlar pastdagi buloqqa tushib chelak va bo'chkalarni to'ldirib suv keltiradilar, suvni mashinaga quyib yana yugurgan-cha suvga ketadilar. Olga ham, Marya ham, Sasha ham, Motka ham suv tashidilar. Xotinlar ham, bolalar ham mashinani bosmoqdalar,

mashinaning ichagi pishillab, suv sepib turibdi. Oqsoqol suvni hali eshikka, hali derazaga qaratib, ba'zida barmog'i bilan to'sadi va shu sababdan suv batarroq pishillaydi. Har tomondan:

– Qandingni ur, Antip! Barakalla! – degan ovozlari chiqadi.

Antip bo'lsa uyining dahliziga, o't ichiga kirib, u yerdan qichqiradi:

– Moshinani bos! Nasroniylar, g'ayrat qiling, bunday balodan saqlasin!

Mujiklar g'uj-g'uj bo'lib, angrayib, o'tga qarab turadilar. Nima qilishni hech kim bilmas, hamma hayron, atrofda esa poxol, bug'doy bog'lari g'aram-g'aram edi. Kiryak bilan otasi – Osip chol ham shu yerda, ikkovining ham kayfi taraq. Chol bunday bemalol kayf surib yurganidan xijolat tortganday yerda yotgan xotinga qarab:

– Onaxon, muncha o'zingni qiynaysan? Uying xatga olingan. Hukumat puli. Qayg'urib nima qilasan?! – dedi.

Semyon har kimga bir gapirib, o'tning nimadan chiqqanini so'zlaridi:

– Tugun ko'tarib yurgan haligi mo'ysafid general Jukovning xizmatkori... Xudo rahmatiga olgur generalimizning oshpazi edi. Kechqurun kelib: «Bir kecha qo'nib ketay...» deb so'radi... Ma'lumki, bir stakandan sharob ichdik, o'zingiz bilasiz-ku... Xotinim o'ziqaynar qo'ymoqchi bo'ldi, mo'ysafidga choy berish kerak edi. Bemahalda falokat bosib, o'ziqaynarni dahlizga qo'ygan ekan, karnayidan chiqqan olov shirdagi poxolga urib, shu falokat bo'ldi, o'zimizning yonib ketishimizga sal qoldi. Mo'ysafidning qalpog'iyam o'tda qoldi, falokat bosdi.

Cho'yanni tinmay chalyaptilar, soyning narigi yog'idagi cherkovning qo'ng'irog'i ham har damda chalinib turibdi. Olga o'tda yarqirab, olov alangasidan qizargan qo'ylarga va tutun ichida uchib yurgan qizg'ish kaptarlarga vahima bilan qarab, hali pastga, hali yuqoriga harsillab chopardi. Uning nazarida, qo'ng'iroqning ovozi tig'parrondek yuragiga qadalayotganday, yong'in sira tugamaydiganday, Sashasi yo'qolib qolganday edi... Uyning shifli gumburlab qulab tushganda, endi butun qishloq yonib tushadi, degan fikr uning tinkasini quritdi, suv tashishga darmoni qolmay, chelagini yoniga qo'yib, jar bo'yida o'tirib qoldi. Uning yonida pastroqda bir talay xotinlar o'tirib, azaga kelganday yig'lashardi.

Shu paytda narigi tomondagi zamindorning gumashta va xizmatkorlari ikki aravada o't o'chiradigan mashina keltirdilar. Tugmalari ochiq oq kiyim kiygan yoshgina bir talaba ham keldi. Boltalar bilan uyni buza ketdilar. Yonib turgan yog'ochdevorga narvon qo'yib, birdaniga besh kishi chiqdi. Hammadan avval haligi talaba chiqdi. U qip-qizargan, bo'g'ilib baqirar, o't o'chirishning mashqini olgan odamga o'xshar edi. Uyning yog'ochlarini, og'ilxona va chetan devorni buzib tashladilar, g'aram qilib qo'yilgan yaqindagi pichanni tashib ketdilar. To'plangan xaloyiq orasidan:

– Buzdirmang! Buzgani qo'yma! – degan tovushlar chiqdi.

Kiryak g'ayratga kirib, narigi tomondan kelganlarning uyni buzishlariga yo'l qo'ymaslik uchun, dadillik bilan uyga qarab yurdi. Lekin zamindorning xizmatkorlaridan biri uni qaytarib, bo'yniga bir soldi. Boshqalar kulishdi. Xizmatkor yana bir urdi, Kiryak yiqilib tushdi, emaklab orqasiga qaytdi va odamlar orasiga kirib ketdi.

Narigi tomondan shlyapa kiygan chiroyli ikki qiz keldi – haligi talabaning singillari bo'lsalar kerak. Qizlar nariroqda turib, o'tni tomosha qiladilar, uydan buzib chiqarilgan yog'ochlar yonmasa ham tutab yotardi, talaba suv sepadigan ichakni goh bu yog'ochlarga, goh odamlarga, goh suv tashiyotgan xotinlarga qaratib suv sochar edi.

Qizlar xavotir olib, yigitdan koyingandek:

– Jorj!¹ Jorj! – deb qichqirardilar.

O't o'chdi. Odamlar tarqala boshlaganlarida tong yorishib qolgandi, hammaning rangi o'chib, so'rraygan... Osmonda yulduzlar so'nib, tong endi yorishib kelayotgan chog'da hamisha shunday ko'rinadi. Mujiklar tarqalib ketayotganda hazillashib kular, general Jukovning oshpazini mazax qilib, uning kuygan qalpog'ini askiyaga olardi. Ular yong'in chiqarib, o'ynashgilari bor, yong'inning bunday tez tugaganidan hatto achinganday ko'rinadilar.

Olga talabaga qarab:

– Boyvachcha, siz o't o'chirishga usta ekansiz. Bizning Moskvaga borarkansiz, u yerda har kuni o't tushib turadi, – dedi.

Qizlardan biri:

– Siz moskvalikmisiz? – deb so'radi.

¹ Ruscha «Georgiy» ismining fransuzcha talqini.

– Balli. Erim «Slavyan bozori»da ishlardi. – Sovuqdan qaltirab, onasi pinjiga tiqilib turgan Sashani ko'rsatib: – Bu qizim, u ham moskvalik, – dedi.

Qizchalar talabaga fransuzchalab bir nima dedilar, u Sashaga bir tanga berdi. Osip chol buni ko'rgach, iljayib, yuzida tamagirlik alomati paydo bo'ldi.

– Boyvachcha, Xudoga shukurki, shamol bo'lmadi, shamol turganda bir soatga qolmay yonib tushardik, – dedi u talabaga qarab. So'ngra ovozin andak pasaytirib, uyalinqirab yana so'z qotdi: – Martabangiz ulug' bo'lsin, saxiy janoblar, ertalab sovuq, andak ilin-qirab olsak, yaxshi bo'lardi. Iltifot ko'rsatib yarim shisha sharobga yetadigan xayr qilsangiz.

Unga hech narsa berishmadi, u g'o'ldirab koyindi-da, uyiga qarab ketdi. Olga jar bo'yida turib, haligi ikki aravaning kechikdan o'tishini, boyvachchalarning o'lanzordan borishlarini tomosha qilib turdi. Narigi yoqda ularning foytunlari turibdi. Olga uyga qaytib kelgach, shodlik bilan eriga shunday dedi:

– Shunday yaxshi, shunday chiroyligi, asti qo'yaverasiz! Qizchalar hurga o'xshaydi.

Uyqusirab turgan Fekla jahl bilan:

– Yer yutsin ularni! – dedi.

VI

Marya o'zini baxtsiz hisoblar va o'ziga o'lim tilar edi. Fekla esa bu turmushdan rozi, qashshoqlik, ifloslik, tinimsiz so'kish unga yoqardi. Nima bersalar, surishtirmasdan yer, to'g'ri kelgan joyda yotib ketaverar edi. Yuvindini shundoqqina ostonaga to'kib, to'kkan yuvindisini yalangoyoq bosib ketaverardi. U Olga bilan Nikolayni birinchi kundanoq yomon ko'rib qoldi, buning sababi shu ediki, Fekla yaxshi ko'rgan bu turmushni ular yomon ko'rardilar.

– Ko'raman, bu yerga kelib nima yerkinsiz, moskvalik aslzodalari! Ko'raman! – derdi Fekla ularning holiga kulib.

Sentyabr oyining boshida, bir kuni ertalab Fekla birdaniga ikki chelak suv ko'tarib keldi, sovuqdan qip-qizarib, husniga husn qo'shilgandi. Bu paytda Marya bilap Olga o'tirib, choy ichmoqda edi.

Buni ko'rgan Fekla ularga tekkizib:

– Ha, qandchoy ichinglar! – deb qo‘ydi. So‘ngra chelaklarni yerga qo‘yarkan, zarda bilan Olgaga yana gap qotdi: – Boyvuchchalarni qarang! Har kuni choy ichishni xo‘p odat qilib olishipti! Choy ichaverib tag‘in qorinlaring yorilmasin! Moskvada xo‘p yayrab, semirib yurgan-da, semiz, baqaloq!

So‘ngra obkash bilan Olganing yelkasiga shunday tushirdiki, ikki ovsin chapak urib:

– Voy, sho‘rim qursin, – deb qoldi.

So‘ngra Fekla soy bo‘yiga ketayotib, shunday baland ovoz bilan qarg‘ab ketdiki, uyda o‘tirganlarga aniq eshitildi.

Kech kirdi. Uzun kuz kechasi boshlandi. Uyda ipak o‘rardilar. Fekladan boshqa hamma ipak o‘rash bilan mashg‘ul. Fekla soyning narigi tomoniga ketgan. Ipakni yaqindagi fabrikadan olardilar. Hammalari bir bo‘lib haftada yigirma tiyindan ortiq pul ishlamas edi.

– Janoblar qo‘lidaligimizda yaxshi edi, – dedi chol ipak o‘rarkan. – Vaqtida ishlab, vaqtida uxlab, vaqtida ovqat yerdik. Tushda karam sho‘rva bilan bo‘tqa, kechqurun yana shu ovqat. Bodring bilan karam mo‘l, xohlaganingcha yeyaver. Qattiqqo‘llik ham baravj edi. Har kim o‘z ishini bilardi.

Faqat bitta chiroq tutab, xira yonib turardi. Birov chiroq oldini to‘sisib, oynaga soya tushsa, oydin ravshan ko‘rinardi. Osip chol salmoqlab, ozodlikdan ilgari¹ dehqonlarning qanday yashaganlarini, hozir bunday muhtojlik, bunday qashshoqlik ichida qolgan joylarda bir zamonlar tozi itlar bilan ov qilinib, ov vaqtida mujiklarga sharob ichirganlarini, ovda ushlangan parrandalarni aravalarga solib Moskvadagi boyvachchalar uchun olib ketganlarini, yomonlarni darra bilan urib, Tver muzofotiga badarg‘a qilinganini, yaxshi odamlarga ko‘p in‘omlar qilinganini gapira ketdi. Kampir ham undan-bundan gapirib berdi. Kampir hech narsani unutmabdi, ko‘rganlarining hammasi esida. Kampir eri buzuq, fohishaboz bo‘lsa-da, o‘zi juda taqvodor bo‘lgan bekasi to‘g‘risida so‘zlab berdi. Uning hamma qizlari nojo‘ya odamlarga tekkan. Biri sharobxo‘rga, biri meshchanga tekkan ekan, yana bittasini olib qochib ketganlar (u mahalda yosh bo‘lgan kampir qizni olib qochishga yordam bergan ekan), qizlari-

¹ Bu yerda: 1861-yili, Aleksandr II zamonida dehqonlarni krepostnoylik huquqidan ozod qilinmasdan ilgari aholi nazarda tutilmoqda.

ning hammasi onalari singari dog'-hasrat bilan tez kun ichida o'lib ketgan ekan. Kampir bularni esga olib, hatto o'pkasi to'lib, ko'zyosh ham qilib qo'ydi.

To'satdan birov eshikni qoqishi bilan hammalari cho'chib tushdilar.

– Osip amaki, bir kecha uyingga qo'ndir!

General Jukovning oshpazi, qalpog'i yong'inda kuygan, pakana, tepakal mo'ysafid kirib keldi. U o'tirib gap tingladi-da, bo'lib o'tgan har xil voqealarni eslab, gapga kirishdi. Nikolay pechka ustida oyog'ini osiltirib o'tirib, mo'ysafidning so'zlarini tinglar va nuqul janoblar zamonida qanday ovqatlar pishirilganini so'rar edi. Bitki¹, kotlet, har xil sho'rvalar, qovurmalaridan gaplashdilar, hamma narsa esida yaxshi turgan oshpaz bu vaqtda pishirilmaydigan ovqatlar nomini aytardi. Chunonchi, buqa ko'zidan pishiriladigan «nahori» degan ovqat ham bor ekan.

– Mareshal degan kotlet u vaqtdayam bo'larmidi? – deb so'radi Nikolay.

– Yo'q.

Nikolay nazarga ilmaganday boshini chayqab:

– Ey, sizlar ham oshpazmi?! – deb qo'ydi.

Qizlar pechka ustida turib, baqrayganча pastga boqar, ular butli osmondagi yulduzlardek uymalashib, juda ko'pday ko'rinardi. Aytilayotgan gaplar ularga yoqar, ular uh tortib, hayajonlanib turar, quvonchdan va qo'rqqandan ranglari o'char edi. Hammadan ham qiziq voqeani gapirgan kampirning so'zini ular nafaslarini ichga olib, qimirlagani ham qo'rqib, jim tinglardilar.

Hamma hech narsa demay, jimgina uxlashga yotdi; xotiralardan ko'ngillari bezovta bo'lib, hayajonga kelgan keksalar yoshlikning yaxshiligi to'g'risida xayol surib ketdilar, nima bo'lsa-da, yoshlikdan unutilmas shodlik, dildor xotira qoladi, keksalik qanday sovuq, qanday mash'um, o'lim yaqinlashib kelmoqda, uni hatto o'ylamagan yaxshi! Chiroq o'chdi... Qorong'ilik, oyning yorug'ida yarqirab turgan ikki darcha, jimlik, belanchakning g'irchillashi negadir umrning o'tganini, o'tgan umrni aslo qaytarib bo'lmasligini eslatardi... Odam mudrab, andak o'zini unutishi bilan birov yelkasiga tegib ketib,

¹ Yumaloq kotlet.

yuziga dam urib uyg'otadi-yu, shu bilan uyqu qochadi, butun badani uvushgan, o'lim xayoli miyadan sira chiqmaydi. U yonboshga aylansa, o'lim esidan chiqadi, lekin muhtojlik, ovqat g'ami, uning qimmatlashgani to'g'risidagi eski fikrlar boshdan ketmaydi, ammo saldan keyin umrning o'tgani, uni qaytarib bo'lmasligi yana esga tushadi... Oshpaz uh tortib:

– Ey Parvardigor! – deb qo'ydi.

Birov sekin-sekin oynani chertdi. Fekla qaytib kelgan bo'lsa kerak. Olga o'rmidan turdi, esnab, shivirlab duo o'qidi va eshikni ochdi, so'ngra dahliz eshigining tambasini tortib chiqardi. Lekin hech kim kirmadi, faqat ko'chadan gurillab sovuq kirdi va oying yorug'i tushdi. Ochiq eshikdan jimjit bo'sh ko'cha, osmonda suzib ketayotgan oy ko'rindi.

– Kim? – dedi Olga.

– Men, – degan javob eshitildi.

Eshik oldida qip-yalang'och Fekla devorga suyanib turardi. Sovuqdan qaltirab, tishi tishiga tegmas, oy yorug'ida oppoq, chiroyli va g'alatiroq ko'rindi. Badanidagi soyalar, terisidagi oying jilvasi, ayniqsa, qora qoshlari va dirkillab turgan ko'ksi aniq, ravshan ko'rinardi.

– Anov tomondagi battollar kiyimlarimni yechib olib, shu holimda qo'yvordilar... Qip-yalang'och keldim. Biror kiyim keltir, – dedi Fekla.

Olga ham qaltirab, sekingina:

– Uyga kirsang-chi! – dedi.

– Chol-kampir bilib qolmasinlar.

Darvoqe, kampir bezovtalanib, valdiray boshlagach, chol ham: «Kim u?» deb so'radi. Olga o'z yubkasi bilan ko'ylagini keltirib Feklaga kiydirdi, so'ngra ikkisi eshikni tiqillatmasdan, sekingina uyga kirdilar.

Kampir kim kelganini fahmlab jahl bilan:

– Senmisan, silliq? Ha, sayoq yurmay juvonmarg bo'lgur! – deb qarg'adi.

Olga Feklani o'rarkan:

– O'rgilay, mayli, mayli, xafa bo'lma, – deb shivirladi.

Yana jimlik boshlandi. Uyda hammaning uyqusida halovat yo'q, har kimni bir balo bezovta qilardi. Cholning beli og'rir, kampir

tashvish va jahldan, Marya qo'rquvdan, bolalar qo'tir va ochlikdan uxlolmas edi. Bu kun ham ularning uyqusida halovat bo'lmadi. Hamma bezovta bo'lib ag'anar, uyqusirar, suv ichgani turardi.

Fekla to'satdan dag'al ovoz chiqarib, ho'ngrab yubordi, ammo darhol o'zini bosib oldi, faqat piqillab yig'lagani tobora pasayib, bora-bora o'chdi. Goh-goh soyning narigi yog'idagi soatning jaranglagani eshitaladi; ammo soat g'alati: avval beshga, keyin uchga jom uradi. Oshpaz uh tortib:

– Ey Parvardigor! – deb qo'ydi.

Derazadan qaraganda oydinmi yoki tong otib qoldimi, bilish qiyin edi. Marya turib tashqariladi, u hovlida sigir sog'arkan: «Xo'-o'sh, xo'-o'sh» degani eshilib turibdi. Kampir ham tashqariga chiqdi. Uy ichi qorong'i bo'lsa-da, buyumlar ko'rinardi.

Kechasi bilan uxlagan Nikolay pechdan tushdi. Ko'k sandiqchasidan xizmatda kiyadigan to'nini olib kiydi, so'ngra deraza oldiga kelib, yenglarini rostlab, etagini ushlab boqqach, iljaydi. So'ngra to'nini avaylab yechdi-da, sandiqqa solib qo'ygach, yana yotdi.

Marya qaytib kelib pechga o't yoqdi. Aftidan, uyqusi chala bo'lsa kerak, yurgan yo'lida esnardi. Tushida biror narsa ko'rganmi yoki kechagi xotiralar esiga tushdimi, pechka oldida huzur qilib bir kerishdi-da:

– Yo'q, har qalay, erkinlik yaxshi, – deb qo'ydi.

VII

To'ra keldi – mirshabboshini qishloqda to'ra deb atardilar. Uning qachon va nega kelishi bir hafta ilgari qishloqqa ma'lum bo'lardi. Jukovoda atigi qirq xonadon bo'lsa-da, podsholik xazinasiga va zemstvoga to'lanadigan boqimonda ikki ming so'mdan oshib ketgandi.

Mirshabboshi qovoqxonaga kelib tushdi. Bunda u ikki stakan choy simirgach, oqsoqol uyiga piyoda jo'nadi. Oqsoqolning uyi oldida boqimondasi bor bir talay odam to'planib turardi. Oqsoqol Antip Sedelnikov yosh, o'ttizdan sal oshgan, serjahl bo'lib, kambag'al, soliqlarni vaqtida to'lamasa ham, doim boshliqlar tarafini olardi. Oqsoqolliги o'zini yupantirib, qo'lida hukmronligi borligi yoqsa kerakki, buni qattiqqo'llik bilan namoyish etardi. Yig'inlarda undan hamma qo'rqar, uning aytganidan chiqmas edi. Ba'zida ko'chada yoki qovoqxona oldida bironta mastni ko'rib qolsa, qo'l-oyog'ini

bog'lab avaxtaga qamardi, bir kuni hatto Osip o'rmiga – yig'imga kelib, qarg'ayvergan kampirni ham avaxtaga bir kecha-kunduzga qamab qo'ygandi. U shaharda turmagan, hech kitob o'qimagan bo'lsada, allaqayerlardan har xil dabdabali so'zlarni bilib olib, gapirganda bu so'zlarni takrorlashni yaxshi ko'rardi, bularni odamlar yaxshi tushunmasa ham, oqsoqolni hurmat qilardi.

Osip soliq daftarini ko'tarib, oqsoqolning uyiga kirib kelganda, ikki chakkasidan uzun chakkasoqol qo'ygan, kulrang kamzul kiygan, ozg'in mo'ysafid uyning to'rida stolda o'tirib bir narsa yozardi. Uy ozoda, devorlarga turli jurnallardan qirqib olingan har xil suratlar yopishtirilgan, ikonalar osilgan, ko'zga ko'rinarli joyda eski bulg'or podshosi Battenbergning¹ surati osilgan. Stol oldida Antip Sedelnikov qo'llarini qovushtirib turibdi.

Gal Osipga kelganda Antip mirshabboshiga qarab:

– Janobi oliylari, bu kishining bir yuz o'n to'qqiz so'm qarzi bor. Hayit oldida bir so'm berganicha, boshqa bir chaqayam bergani yo'q, – dedi.

Mirshabboshi Osipga qarab so'radi:

– Jigarim, nega bunday qilding?

Osip hovliqib gap boshladi:

– Rahm-shafqat qiling, janobi oliylari, o'tgan yili lutoretskiylik boy «Pichaningni menga sot», deb juda qistab qo'ymadi. Sotsam – sotay, dedim. Yuz pudcha pichanni bola-chaqam to'qaydan o'rib qo'ygandi, sotish uchun. Shunday qilib, bitishdik... Hammasi joyida, o'z xohishimiz bilan bitishdik...

Osip oqsoqol ustidan arz qilmoqchi bo'lib, boshqa mujiklarni guvohga chaqirgan tarzda gapirib, bir ularga qarar, terlab-pishib, ko'zlari jovdirar, g'azablanar edi.

Mirshabboshi Osipga qarab:

– Nima deyayotganingni tushunmayman, – dedi. – Men sendan nega boqimandani to'lamading, deb so'rayman... Hech qaysingiz to'lamaysiz, sizlar uchun men javobgar bo'laymi?

– Qurbim yetmaydi!

Oqsoqol gap qotib:

¹ Aleksandr Battenberg – 1879-yili rus podshosi Bulg'oriya taxtiga o'tkazgan nemis to'rasi. 1886-yilda Aleksandr III g'azabiga duchor bo'lib, taxtdan kechib, Bulg'oriyani tashlab kegishga majbur bo'lgan.

– Janobi oliylari, bu gaplar tagsiz, Chikildeyevlar bechoralar toifasidan, bu to‘g‘ri, lekin marhamat qilib boshqalardan so‘rasangiz, hammasining sababi bor – sharobxo‘rlar, so‘ngra hammalari juda havoyi bo‘lib ketganlar. Hech narsaga tushunmaydilar, nodonlar, – dedi.

Mirshabboshi allanarsalar yozdi-da, so‘ngra Osipga qarab, xuddi suv so‘rayotganday ohistagina, koyimasdan:

– Bor yo‘qol, – dedi.

Birozdan keyin mirshabboshi ketdi. U yo‘tala-yo‘tala jo‘ngina shaldiroq aravasiga chiqayotganda, hatto uning cho‘zinchoq qoqsuyak orqasiga qaraganda ham, Osip, oqsoqol, Jukovo qishlog‘idagi boqimandalar ham allaqachon esidan chiqqani, faqat o‘zining yumushlari bilan mashg‘ulligi ko‘rinib turardi. Mirshabboshi bir chaqirim joyga ham bormasdan, bir mahal Antip Sedelnikov Chikildeyevlar uyidan o‘ziqaynar ko‘tarib chiqib qoldi, uning ketidan kampir chinqirib, harsillab kelardi.

– Bermayman! Qurib ketkur, bermayman, dedimmi, bermayman!

Antip qadamini katta-katta tashlab, ildam kelmoqda, munkaygan kampir bo‘lsa entikib, yiqilib-surilib g‘azab bilan uning ketidan boradi. Kampirning ro‘moli yelkasiga tushgan, ko‘kish sochlarini shamol uchirar edi. Kampir birdaniga to‘xtadi-da, xuddi qo‘zg‘olon ko‘targan xotindek ko‘kragiga mushtlab, dod-voy ko‘tarib, baqira boshladi:

– Nasroniylar, Xudodan qo‘rqanlar! Sho‘rim qursin, poymol bo‘ldim! Do‘stlar, bular dastidan dod! Voy, voy, voy, bolalarim, dodimga yeting.

Oqsoqol kampirga jiddiy tusda:

– Hoy, kampir, aqlingni yo‘qotma! – dedi.

Chikildeyevlarning uyi o‘ziqaynarsiz butunlay befayz bo‘lib qoldi. O‘ziqaynardan ajralish uyning or-nomusini tahqir etish va haqorat qilishday tuyuldi. Oqsoqol stol, hamma o‘rindiq, hamma xurmachalarni olib ketganda bunchalik huvillab qolmasdi. Kampir shovqin solar, Marya yig‘lar, unga qarab qizlar ham yig‘lar edi. Chol o‘zini aybdor bilib, bir burchakda g‘amgin va xomush o‘tirardi. Nikolay ham jim. Kampir Nikolayni yaxshi ko‘rar va unga rahmi kelar edi, lekin endi rahm-shafqatni ham unutib, to‘satdan uning ustiga

o'dag'aylab bordi va mushtini basharasiga niqtab, ta'na qila boshladi:

– Hamma balo senda, yozgan xatlaringda, «Slavyan bozori»da oyiga ellik so'm topaman, deb maqtanarding, nega bizga ko'proq pul yubormading?! Nega kelding? Yana bola-chaqang bilan kelibsan! O'lib qolsang, ko'mishga pul qani?..

Nikolay, Olga va Sashaga qaragan odam achinardi.

Chol yo'talib qalpog'ini qo'liga oldi-da, oqsoqolnikiga qarab ketdi. Qorong'i tushib qolgandi. Antip Sedelnikov pechka oldida o'tirib lunjini shishirib, bir narsani payvand qilardi. Is-tutun buruqsirdi. Chikildeyevlarning bolalariga o'xshagan ozg'in, irkit bolalari yerda uymalashib yuribdi. Sepkil yuzli, qorni chiqqan xunukkina xotini ipak o'rayapti. Bu oila qashshoq va bechora, yolg'iz Antipgina chiroyli, azamat yigitdek edi. Kursi ustida qatorasiga beshta o'ziqaynar turibdi. Chol Battenberg suratiga qarab cho'qingach, aytdi:

– Antip, rahming kelsin, o'ziqaynarni ber! Iso payg'ambar haqi, ber!

– Uch so'm olib kelsang, olasan.

– Qurbim yetmaydi!

Antip lunjini shishirib o'tni puflar, o't lovullab yonar va o'ziqaynarlarda shu'lasini ko'rinar edi. Chol qo'lidagi qalpog'ini g'ijimlar, biroz o'ylab keyin yana:

– Ber! – dedi.

Qorachadan kelgan oqsoqol bu onda qop-qorayib jodugarga o'xshab ketdi. Oqsoqol Osipga jahl bilan qarab, bidirladi:

– Har narsa qilsa, zemstvo boshlig'i qiladi. Yigirma oltinchida bo'ladigan katta majlisda og'zakimi yoki ariza yozibmi, shikoyat qilaqol.

Osip hech narsaga tushunmadi, lekin shu bilan qanoat hosil qilib, uyga qaytib ketdi.

Oradan o'n kuncha o'tgandan keyin mirshabboshi yana kelib, bir soatcha turdi-da, qaytib ketdi. Bu kunlarda izg'irinli qora sovuq edi. Soyning suvi muzlagan bo'lsa ham, qor yoqqani yo'q, odamlar yo'lsizlikdan juda qiynalib qolgandi. Bir kuni hayit arafasida kechqurun Osipning qo'shnilari gaplashib o'tirgani keldilar. Hayit oqshomida yumush qilish gunoh bo'lganidan, chiroq yoqmasdan, qorong'ida o'tirdilar. Anchagina noxush xabarlar bor edi. Chunon-



chi, boqimonda uchun ikki-uch xonadonning tovuqlarini tortib olib, bo'lis mahkamasiga yuborgan ekanlar, ularga qaraydigan odam bo'lmaganidan harom o'lib qolibdi. Bir necha qo'yning oyoqlarini bog'lab aravaga solib yuborgan ekanlar, har qishloqda aravadan aravaga solib bir qo'yni o'ldirib qo'yibdilar. Endi ayb kimda, deb mojaro qilib o'tirishibdi.

– Kimda bo'lardi, zemstvoda-da, – derdi Osip.

– Albatta, zemstvoda!

Zemstvoning nimaligini hech qaysilari bilmasalar-da, butun aybni zemstvoga yuklardilar, boqimondalar mojarosida ham, jabr-zulmlarda, hosilsizlikda ham zemstvoni ayblardilar. Fabrika, do'kon va karvonsaroylari bo'lgan badavlat mujiklar zemstvoga vakil bo'lib, qaytib kelganlaridan keyin norozi bo'lib, fabrika va qovoqxonalarda zemstvoni so'ka boshladilar va shundan beri zemstvoni so'kish odat bo'lib qoldi.

Xudo qor bermayapti, o'tin keltiray desak, qatqaloqdan na piyoda yurib bo'ladi, na otlig, deyishardi. Ilgari, bundan o'n besh-yigirma yil avval Jukovo qishlog'ida bo'ladigan suhbatlar ancha qiziq bo'lardi. U vaqtda har bir kekxa kishining qiyofasida allaqanday sir borday, qandaydir bir narsani biladiganday, allanarsalarni kutganday ko'rinardi. Oltin muhrli yorliqlar, yer taqsimlash, yangi yerlar, yombilar to'g'risida allaqanday kinoya bilan so'zlashardi. Endi jukovoliklarning hech qanday sirli so'zlari yo'q, butun turmushlari ro'yobda, kaft ustida: muhtojlik, ochlik, qor yog'magani haqida so'zlashadi, xolos...

Gap sob bo'lib, jim bo'ldilar. So'ngra yana tovuqlar, qo'ylar eslariga tushib, aybdor kimligi to'g'risida mojaro qila boshladilar.

Osip xafalanib:

– Zemstvo aybli-da, boshqa kim bo'lardi, – deb qo'ydi.

VIII

Qishloqning katta cherkovi olti chaqirim naridagi Kosogorovoda bo'lib, odamlar bu joyga faqat ishi tushganda, ya'ni bolalariga nom qo'yish, nikoh o'qitish, janoza o'qish lozim bo'lganda borardi. Ibadat qilishga soyning narigi betidagi cherkovga borishardi. Bayram kunlarida, havo ochiq kunlarda qizlar yasanib, gala-gala bo'lib kun-

duzi ibodatga borardi. Qizlar rang-barang – qizil, ko‘k, sariq ko‘ylak kiyib, o‘lanzordan o‘tib borayotganlarida, ularga qarasangiz, ko‘ngil shodlanardi. Havo bulut bo‘lgan kunlari hammalari uyda o‘tirardi. Zakotni cherkovning jilovxonasida berardilar. Ro‘za tutmaganlar bo‘lsa, hayit kuni ruhoniy xoch ko‘tarib, uyma-uy yurib, o‘n besh tiyindan yig‘ib olardi.

Chol Xudoga ishonmas va shu sababdan aslo esiga olmasdi. G‘ayritabiiy hodisalarga ishonar va lekin buni yolg‘iz xotinlarga tegishli deb bilar edi. Uning oldida dindan yoki mo‘jizadan gapir-salar va unga bironta savol berilsa, hushyoqmaslik bilan chakkasini qashib:

– Kim biladi deysan-a! – deb qo‘yardi.

Kampir Xudoga ishonardi-yu, lekin undagi bu ishonch aniq va ravshan emasdi. Uning xayoli alg‘ov-dalg‘ov, gunohlar, o‘lim, iymonni saqlash esiga tushdi deguncha, muhtojlik va tashvishlar darrov xayolini olib qochardi-da, hozirgina o‘ylab turgan narsalarni esdan chiqarardi. Duolarni esdan chiqarib qo‘ygan, kechqurunlari yotar oldidan ikonalar qoshiga kelib, shivirlab:

– Qozon shahridagi aziz-avliyolarga, Smolensk shahridaga aziz-avliyolarga, Bibi Maryamga sig‘inaman... – derdi.

Marya bilan Fekla cho‘qinar, har yili ro‘za tutar, ammo hech narsaga tushunmas edilar. Bolalariga ibodatni o‘rgatmas, Xudo to‘g‘risida hech narsa demas, hech qanday odob-qoida o‘rgatmas, faqat ro‘zada go‘shli va sutli ovqat yedirmas edilar. Boshqa oilalarda ham shunaqa, Xudoga ishongan, tushungan odam kam edi. Lekin shunday bo‘lsa-da, hamma muqaddas kitoblarni hurmat qilar, sevar edi, biroq kitob yo‘q, o‘qib tushuntirib beradigan odam topilmas edi, shuning uchun ham Olga ba‘zida Injil o‘qiganidan uni izzat-ikrom qilib, u bilan Sashani sizlab gapirishardi.

Olga qo‘shni qishloqlarga va ikki monastir, yigirma yetti cherkovi bo‘lgan uyezd shahridagi jomelarda bo‘ladigan ibodat va tantanaga ko‘p borardi. Olga merovroq edi, shu sababdan toat-ibodatga ketganida bola-chaqasini butunlay unutar, so‘ngra uyiga qaytayotganida eri bilan qizi borligi esiga tushib, shodlanar va xursandlikdan iljayib:

– Xudo marhamat qildi! – der edi.

Qishloqda bo'lgan har bir ish uning nazdida qabohat edi va diqqatini oshirardi. Bayramlarning hammasida: Ilyos payg'ambar, Uspenye¹, Hosil bayrami kunlari ichishardi.

Birinchi qor kuni Jukovo qishlog'ida bayram qililib, erkaklar uch kun muttasil ichishdi. Jamoa pulidan ellik so'mni ichkilikka sarf qildilar, so'ngra har xonadondan sharob puli yig'ib oldilar. Bayramning birinchi kunida Chikildeyevlarning qo'yi so'yildi, ertalab ham, tushda ham, oqshom ham bearmon edilar, so'ngra bolalar kechasi uyg'onib ham edilar. Kiryak uch kungacha xo'p ichdi, hatto qalpog'i bilan etigini ham sotib ichdi. Maryani shunday do'pposladiki, bechoraga suv sepib zo'rg'a o'ziga keltirdilar. Keyin hamma xijolat tortib, o'z qilmishidan o'zi jirkandi.

Malayobod, deb nom chiqargan Jukovo qishlog'ida ham ozib-yozib bir kuni katta diniy bayram bo'ldi. Avgust oyi edi, xoch, tug' va alamlarni ko'tarib, qishloqma-qishloq aylantirib chiqdilar. Bu marosim Jukovoga keladigan kuni havoni bulut bosdi; qizlar ertalab rang-barang kiyim kiyib, yasanib, peshvoz chiqishdi. Kechga yaqin xoch ko'tarib, boshlab kelishdi, shu chog' soyning narigi betidagi cherkov qo'ng'irog'i chalindi. Qishloqning o'z odamlari va begonalar to'planib, ko'cha to'ldi. Shovqin-suron, to'polon, qiy-chuv... Chol, kampir, Kiryak, hammalari xochga qo'l cho'zib, unga iltijo qilib, ko'zlarini jovdiratib, yig'lab:

– Madadgohimiz! Volidayi mehribonimiz! – dedilar.

Xuddi hammaning qulfi dili ochilib, yer bilan osmon o'rtasi bo'sh emasligini birdaniga anglagandek, boylar va zolimlar egallamay qolgan narsalar ham borday, xo'rlik va haqoratlardan, qullik iskanjasidan, toqat qilib bo'lmaydigan haddan tashqari muhtojlikdan, dahshatli sharobdan himoya qiluvchi mehribon borday tuyulardi. Marya ho'ngrab:

– Pushti panohimiz! Volidayi mehribonimiz! – deb yig'lardi.

Toat-ibodat tugadi, xochlarni olib ketdilar, barcha ishlar yana iziga tushdi, qovoqxonadan yana haqorat va mastlarning g'alvalari eshtilaverdi.

¹ *Uspenye* – nasroniylarda: Bibi Maryamning qazo kuni munosabati bilan o'tkaziladigan marosim.

O'limdan faqat badavlat mujiklar qo'rqardilar. Ular boyigan sari dillari susayib, Xudoga, oxiratga ishonmasdilar. Yolg'iz, qiyomatda nima qilaman, degan xayolda qo'rqanlaridan cherkovda chiroq yoqar, goho ibodatga borib qo'yar edilar. Kambag'alroq mujiklar o'limdan qo'rqmasdi. Chol bilan kampirning yuziga: yoshingni yashading, u dunyo safariga otlanaver, derdilar, bunga ular xafa ham bo'lmasdi. Nikolaydan hech andisha qilmay, uning oldida Feklaga, Nikolay o'lsa, ering Denisga ijozat bo'lur, askarlikdan bo'shab keladi, degan gaplarni aytardilar. Marya bo'lsa o'limdan qo'rqish u yoqda tursin, o'lim tez kelmayapti, deb afsuslanar, bolalari o'lsa, suyunar edi.

O'limdan qo'rqmasalar ham, lekin har xil og'riqlardan juda qattiq qo'rqardilar. Kampirning qorni og'rib, eti uvishib qolguday bo'lsa, darhol pechga chiqib, o'ranib yotib olardi-da: «O'l-dim, o'l-dim!» deb voy-voylashga tushardi. Chol darrov ruhoniynikiga yugurar, ruhoniy kampirning boshida kalima aytib, kampirga o'limlik kiyim kiydirardilar. Tumov, chipqon, qursoq og'rig'i va qornidan yurakka o'tib ketadigan gijjalar to'g'risida ko'p gapirishardi. Tumovdan juda yomon qo'rqishar, shuning uchun hatto yozda ham qalin kiyimlar kiyar va pechga chiqib isinardilar. Kampir davolanishni yaxshi ko'rardi, shu sababdan, kasalxonaga ko'p qatnar va bunda doim – yoshim yetmishdamas, ellik sakkizda, derdi. Kampir xayolida, do'xtir yoshimni bilib qolsa, kasalimni davolamay, o'ladigan vaqting bo'lib qopti, qaratib nima qilasan, deydi, deb qo'rqardi. Kasalxonaga borganida odatda ikki-uch qiz bolani yoniga olib erta bilan ketib, kechqurun ochiqib va achchiqlanib, o'ziga tomizg'i dori, qizlariga surtadigan dori olib qaytardi. Bir borganida Nikolayni ham olib bordi, so'ngra Nikolay ikki haftagacha tomizg'i dorini ichib, ancha yengillashdim, deb yurdi.

Kampir o'ttiz chaqirim atrofdagi doktor, feldsher va tabiblarning hammasini tanir, lekin ularning bittasini ham yoqtirmas edi. Hayit kuni ruhoniy xoch ko'tarib uyma-uy yurib, zakot yig'ib yurganda, ruhoniy bilan birga kelgan kichik ruhoniy kampirga, shaharda ilgari harbiy feldsher bo'lgan bir mo'ysafid bor, juda yaxshi davolaydi, shu kishiga ko'ring, deb maslahat berdi. Kampir kichik ruhoniyning aytganini qilib, dastlabki qor yog'ishi bilan shaharga borib, sersoqol, uzun kiyim kiygan, yuzining ko'k tomirlari chiq-

qan, cho'qingan¹ bir mo'ysafidni olib keldi. Xuddi shu kezda uyda xalfalar ishlardi. Vahimali ko'zoynak taqqan mashinachi chol latta-puttalardan yamab-yasqab nimcha tikmoqda, ikki yigitcha kigiz etik bosmoqda edi. Sharobxo'rliги uchun ishdan bo'shatilib, uyga kelib qolgan Kiryak mashinachi yonida o'tirib xomut yamardi. Uy tiqilinch, havosi buzuq, rutubatli. Cho'qingan Nikolayni ko'rib, banka qo'yishni buyurdi.

Cho'qingan Nikolayga banka qo'ydi, mashinachi chol bilan Kiryak va qizlar tomosha qilib turdi, nazarlarida, kasalning chiqib ketayotganini ko'rganday bo'lishdi. Ko'kragiga qo'yilgan bankalarning etini so'rib, sekin-sekin qora qonga to'lib borayotganini Nikolay ham ko'rdi va badanidan, darhaqiqat, allanarsa chiqib ketayotganini sezib, suyunganidan iljaydi.

– Yaxshi ekan, Xudo shifo bersin, – dedi mashinachi.

Cho'qingan tabib o'n ikkita banka qo'ygach, so'ngra yana o'n ikkita qo'ydi-da, choy ichib, jo'nab ketdi. Nikolayni qaltiroq bosdi, xotinlar aytganday, bujmayib, yuzi bir burda bo'lib qoldi. Barmoqlari ko'kardi. Ko'rpaga o'ranib, po'stinini ustiga tashlasa ham isimadi. U kechga yaqin o'sal tortdi, yerga yotqizing, moshinachi tamaki chekmasin, deb injiqlik qildi, so'ngra jim bo'ldi, ertalab uzildi.

IX

Evoҳ, qanday uzun, qanday qahraton qish!

Yil boshida o'z bug'doylari sob bo'lib, shundan beri unni sotib olardilar. Endi uyiga kelib qolgan Kiryak kechqurunlari shovqin-suron ko'tarib, hammani qo'rqitar, ertalab bosh og'rig'i va xijolatdan qiynalar edi. Uni ko'rgan kishining rahmi kelardi. Og'ilxonada och qolgan sigir kecha-kunduz mo'rab, kampir bilan Maryaning yuragini ezardi. Aksiga olib, sovuq hech yumshamadi, qor ko'p yog'ib tepa-tepa bo'lib ketdi, qish cho'zildi. Hayit arafasida qattiq izg'irin turib, qor yog'ib berdi.

Ammo har qalay qish o'tdi. Aprel boshida kunduzi havo isib, kechalari sovuq bo'lib turdi. Qish bo'sh kelmay turibdi. Lekin bir kun issiq bo'lib, qish yengildi, ariqlarga suv keldi, qushlar sayradi. O'lanzorni, soy bo'yidagi butalarni bahor suvi bosdi. Jukovo

¹ Bu yerda: nasroniy diniga kirgan kishi nazarda tutilmoqda.

qishlog'i bilan soyning narigi tomoni o'rtasidagi joylarning hammasini suv bosib, katta ko'l hosil bo'ldi, ko'lda gala-gala yovvoyi o'rdaklar paydo bo'ldi. Ko'klamda kunning qizarib botishi, barqut bulutlar har kun kechqurun kutilmagan bir hodisa ko'rsatardi. Kunning botishidagi shu rang va shu bulutlarning suratda ko'rganda kishi ishonmaydigan ajoyib hodisalar ro'y berdi.

Turnalar, birga yur, deb chaqirganday, mungli ovoz bilan qichqirib, tez uchib bormoqda. Olga jar bo'yida turib, toshqin suvga, kunga, go'yo yasharganday yaraqlab turgan cherkovga anchagacha qarab qolardi, ko'zlaridan yosh oqar, qayoqqa boshi og'sa, shu yoqqa, hatto dunyoning narigi chekkasigacha ketgisi kelganidan, yuragi siqilib shoshardi. Moskvaga qaytib ketib, oqsoch bo'lishga, Kiryak ham u bilan birga borib qorovullikka kirishga jazm qilib qo'ygan. Koshki, tezroq ketishning iloji bo'lsa!

Yo'llar qurib, havo andak ilishi bilan yo'lga tushdilar. Olga va Sasha orqalarida to'rvolari, oyoqlariga chipta kavush kiyib, tong g'ira-shira otishi bilan uydan chiqdilar. Marya ham chiqib ularni kuzatib qo'ydi. Kiryak kasal bo'lganidan bir hafta keyinroq jo'namoqchi bo'ldi. Olga erini esiga olib so'nggi marta cherkovga qarab cho'qindi; yig'lab yubormasa ham, yuzi burishib, kampirlar-nikidek xunuklashdi. Qish ichi Olga ozib, xunuklashib, sochlari biroz oqardi, chehrasidagi avvalgi muloyim, yoqimli tabassum o'rnida tortgan qayg'u-alamlar dog'i ko'rinar, qarashlari so'niq, ojiz, harakatsiz, o'zi merov bo'lib qoldi. Qishloq va mujiklardan ajralgisi kelmasdi. Nikolayning jasadini ko'tarib ketayotganlarida har uy oldida to'xtab, duoyi-fotiha qilganlari, uning qayg'usiga qo'shilib, hammaning yig'lagani yodiga tushdi. Yoz va qish ichi shunday og'ir damlar, shunday qiyin kunlar bo'ldiki, odamlar hayvonlardan battar yashagandek, ular bilan birga yashamoq dahshatli ko'ringandi. Ular dag'al, insofsiz, iflos, doim mast, bir-birlarini hurmat qilmaganlaridan doim urishardilar, bir-birlaridan qo'rqadilar va shubhalanadilar. Qovoqxona ochib xaloyiqni sharobxo'rlikka o'rgatgan kim? Mujik. Jamoa pulini, maktab va cherkov pulini ichkilikka sarf qilib qo'ygan kim? Mujik. Qo'shnisining molini o'g'irlagan, birovlar-nikiga o't qo'ygan, bir shisha sharob uchun sudda yolg'on guvohlik bergan kim? Zemstvo yig'inlarida, boshqa majlislarda mujiklarga qarshi gapirgan kim? Mujik. Shunaqa, ular bilan birga turish dah-

shat, biroq har holda ular ham odam, ular ham qayg'u-hasrat tortadilar, ular ham odam bolalaridek yig'laydilar. Ularning turmushida besabab hech narsa yo'q. Kechalari a'zoyi badanlarini og'ir mehnat og'ritadi, shiddatli qahraton qishlar, barakasiz hosil, tor-tanqislik ularni qiynaydi, lekin ularga hech qayerdan yordam va najot yo'q. Boyroq va zo'rroqlari ularga yordam qilolmaydi, chunki bularning o'zlari dag'al, insofsiz, sharobxo'r, bular ham jirkanch so'zlar bilan so'kishadi. Eng kichik amaldor yoki har bir boyning gumash-tasi mujiklarga bexonumon, darbadarlardek muomala qiladi, hatto oqsoqollarni, ruhoniy boshliqlarni ham sensirab gapiradi va bunga haqqim bor, deb o'ylaydi. Zotan, yulib-yulqamoq, haqorat qilmoq, do'q qilib qo'rqitmoq uchun qishloqqa kelib-ketadigan manfaatparast, ochko'z, buzuq va dangasa odamlardan yordam yoki yaxshilik kutib bo'ladimi?

Qishda Kiryakni savalagani olib ketayotganlarida chol bilan kampirning qanday bechora va ojiz holda turganlari Olganing esiga tushdi. Endi Olganing bu kishilarga rahmi kelib, yuragi ezilib, yo'lda borarkan, qishloq uylariga qayta-qayta qaradi.

Marya uch chaqirim joygacha kuzatib borgandan keyin xayrlashdi, cho'k tushib, yuzini tuproqqa urib, faryod ko'tardi:

– Yana yolg'iz qoldim, bechora, sho'rlik boshim, yana yakka qoldim...

Marya anchagacha shu holda yig'lab qoldi. Olga va Sasha Maryaning tiz cho'kib, ikki qo'li bilan boshini ushlab, kimgadir ta'zim qilganini, uning boshi ustida zog'chalar uchib yurganini anchagacha ko'rib bordilar.

Kun ko'tarilib, havo isidi. Jukovo qishlog'i uzoqda qoldi. Yo'l yurishning nash'asi bor. Olga bilan Sasha qishloqni, Maryani unutdilar, vaqtlari chog', har narsa ko'ngillarini ochardi. Goh eski qo'rg'onlar uchraydi, qator-qator simyog'ochlar ufqda g'oyib bo'lib, allaqayoqlarga ketadi, simlarning guvillashida ham sir bor. Goh uzoqda, ko'm-ko'k daraxtlar ichida qo'rg'onchalar ko'rinadi, u vaqt nam havo, kunjut isi keladi va negadir unda baxtli kishilar turgandek tuyuladi. Goh dalada tanho oqarib yotgan ot suyagi uchraydi. To'rg'aylar tinmasdan sayraydi, bedanalar bir-birini chaqiradi. Qiziloyoq birov zang bosgan mixni sug'urayotganday chig'illaydi.

Tush paytida Olga bilan Sasha katta qishloqqa keldilar. Bundagi katta ko'chada general Jukovning oshpazi bo'lmish chol uchrab qoldi. Chol issiqdan terga botgan, qip-qizil tepakal boshi oftobda yaltiraydi. U ham, Olga ham bir-birlarini tanimadilar, so'ngra ikkovlari birdaniga qayrilib qarab, bir-birlarini tanisalar ham, so'zlashmasdan har qaysisi o'z yo'liga ketaverdi. Olga boyroq, yangiroq ko'ringan uyning ochiq derazasi tagida to'xtab ta'zim qilgach, ingichka ovozi xonish qilganday baland ko'tarib, tilandi:

– Nasroniylar, Xudo yo'liga xayr-ehson qilinglar, rahmingiz kel-sin, ota-bobolaringizni Xudo rahmat qilsin, tani-joningiz sog' bo'lsin.

Sasha ham onasini aytganini takrorladi:

– Nasroniylar, Xudo yo'liga xayr-ehson qilinglar, rahmingiz kel-sin, ota-bobolaringizni Xudo rahmat qilsin...

NOMA'LUM ODAM HIKOYASI

I

Men bir vaqtlar Peterburg amaldorlaridan Orlov degan odamga malay bo'lganman. Sababini hozir mufassal gapirib o'tirishim o'rinsiz, shuning uchun voqeani aytib qo'ya qolaman. Uning yoshi o'ttiz beshlarda bo'lib, ismi Georgiy Ivanich edi.

Bu Orlovga men uning otasi tufayli malay tushgandim. Otasi mashhur davlat arbobi bo'lganidan men uni o'z ishimning jiddiy dushmani hisoblardim. Mening mo'ljalimcha, o'g'lining uyida yashab yursam, qulog'imga ilingan gap-so'zlar, stolda ko'zim tushgan qog'oz va xatlardan otasining rejalari va niyatlarini mukammal o'rganishim mumkin edi.

Odatda, ertalab soat o'n birda men turgan malayxonada elektr qo'ng'irog'i jiringlab, boyvachchaning uyg'onganini bildirardi. Men tozalangan etik va kiyim-boshlarni ko'tarib yotoq bo'lmasiga kirganimda, Georgiy Ivanich o'rnida qimirlamay o'tirar, uyquga to'yish o'rniga, charchagani bilinib turar, o'zining uyg'onganiga hech qanday xursandlik alomati ko'rsatmasdan, bir nuqtaga tikilardi. Men unga kiyinish uchun yordam berardim. U esa zo'rg'a qimirlar, indamas va mening borligimga e'tibor bermas edi. So'ngra yuvinib, boshi ho'lligicha, toza atir hidlarini anqitib, qahva ichgani yemakxonasiga

kirardi. U stol yonida o'tirib qahva ichar, gazetalarni varaqlar, men va oqsoch xotin Polya esa ta'zim bilan eshik yonida turib, unga ko'z tashlar edik. Ikkita kap-katta odam jiddiy e'tibor bilan uchinchi bir odamning qahva ichishiga va qoqnon qarsillatishiga ko'z tashlab turishi, albatta, kulgili va xunuk bir hol. Lekin o'zim ham shu Orlov singari zodagon va ma'lumotli kishi bo'lsam-da, eshik oldida tikka turishdan hech bir xo'rlik sezmasdim.

O'sha chog'da menda sil kasali boshlangan bo'lib, shu bilan birga, allaqanday, muhim bir holat ham ro'y bergandi. Bilmayman, kasallik ta'siri ostidami yoki o'sha paytda o'zim sezmasam-da, menda boshlangan dunyoqarashning o'zgarishi ostidami, kun sayin men oddiy, tor fikrli kishi hayoti bilan yashashni ehtiros va tajanglik bilan xohlab qolgandim. Men jonim tinch bo'lishini, sog'liqni, yaxshi havo va to'qlikni tusab qolgandim. Men xayolparastga aylanmoqda edim va har bir xayolparast singari menga nima kerakligini o'zim ham bilmasdim. Dam monastirga ketgim va u yerda kun bo'yi darcha yonida o'tirib, daraxtlarni va dalalarni tomosha qilgim kelar, dam besh botmon yer sotib olib, zamindor bo'lib yashashimni tasavvur etar, dam o'zimga ilm bilan shug'ullanishga va albatta, biror viloyatda universitet professori bo'lib olishga so'z berar edim. Men dengiz flotining iste'foga chiqqan leytenanti edim; xayolimda dengiz va men dunyo sayohatiga chiqqan eskadramiz¹ va korvetimiz² jonlanardi. Madori³ o'rmonda kezib yurganda yoki Bangol ko'rfazida quyosh botishini tomosha qilganda, quvonchdan entikib va ayni zamonda o'z yurtimni sog'inib, intizorlik tortgan noyob tuyg'ularni yana bir karra his etgim kelardi. Mening tushimga tog'lar, xotin-qizlar, musiqa ovozlari kirardi va men xuddi yosh bola singari qiziqsinish bilan yuzlarga tikilar, ovozlarga quloq solar edim. Endi eshik oldida turib, Orlovning qahva ichishiga qarab turganimda, o'zimni malay emas, dunyoda bor narsaga qiziquvchi, hatto Orlovga ham qiziqib qarovchi bir odam deb his etardim.

Orlovning tashqi qiyofasi peterburgcha bo'lib, yelkalari tor, beli cho'ziq, chakkasi cho'kkan, ko'zlarining rangi noaniq, xira; soch, soqol va mo'ylovlari nimsariq edi. Uning basharasi yiltillagan, urin-

¹ *Eskadra* – harbiy dengiz floti va aviatsiyasining yirik qo'shilmasi.

² *Korvet* – uch machtali yelkanli kema.

³ Bu yerda: tropik ma'nosida.

gan va yoqimsiz edi. Uxlagan yoki fikrga cho'mgan vaqtda basharasi, ayniqsa, yoqimsiz bo'lib ketardi. Tashqi qiyofasini tasvirlab o'tirishning hojati ham yo'q bo'lsa kerak; buning ustiga, yana Peterburg – Ispaniya emas, bu yerda erkaklarning tashqi qiyofasi hatto ishq-muhabbat masalalarida ham katta ahamiyatga ega bo'lmaydi; bu narsa faqat savlatli malaylarga va ko'chirlarga kerak. Orlovning basharasi va sochlaridan gap ochganimning sababi shuki, uning tashqi qiyofasida tilga olishga arziydigan bir narsa bor, ya'ni Orlov qo'liga, qanday bo'lmasin, biror gazeta yoki kitob olganda yoki biror kishi bilan uchrashganda, uning ko'zlari istehzoli tabassum qila boshlar va butun qiyofasi yengil, beozor masxara tusini olar edi. Biror narsani o'qib chiqish yoki eshitish oldidan unda har safar xuddi yovvoyining qalqoni singari biror kesatiq tayyor turardi. Bu xil kesatish unga eskidan odat bo'lib, so'nggi vaqtlarda uning yuzida irodasidan tashqari xuddi bir refleks tarzida paydo bo'lardi. Lekin bu to'g'rida keyinroq so'zlaymiz.

Soat birga bong urganda, u o'zining qog'oz to'la portfelini istehzoli qiyofa bilan qo'lga olib, xizmatga jo'nardi. Uyda tushlik qilmasdi va soat sakkizdan keyin qaytardi. Men kabinetdagi lampani va shamlarni yoqardim, u esa oromkursiga o'tirib, oyog'ini stulga uzatib taltayib, kitob o'qishga tushardi. Deyarli har kun o'zi bilan yangi kitoblar keltirar yoki unga do'kondan yuborishardi. Men turadigan malayxonaning burchaklarida, karavotimning ostida o'qilib tashlangan ruscha kitoblardan boshqa yana uch xil tildagi juda ko'p kitoblar yotardi. U haddan tashqari tez o'qirdi. Sen nima o'qiyotganingni aytasang, kimligingni aytib beraman, degan gap bor. Balki bu gap to'g'ridir, lekin o'qigan kitoblariga qarab Orlovga baho berish mumkin emasdi. Uning o'qiganlari allaqanday moshkichiri edi. Falsafani ham, fransuz romanlarini ham, siyosiy iqtisodni ham, moliya kitoblarini ham, yangi shoirlarni ham, «Posrednik» nashriyoti bosib chiqargan kitoblarni ham, barchasini u bir xilda tez va bir xilda istehzoli ko'z qarashlari bilan o'qib chiqardi.

Soat o'ndan so'ng u qunt bilan kiyinardi, ko'pincha fuqarochoa kostyum kiyar, har zamonda bir, kamer-yunkercha¹ mundirini kiyar va uydan jo'nab ketardi. Uyga tong otishga yaqin qaytardi.

¹ *Kamer-yunker* – chor Rossiyasida va ba'zi monarxiya davlatlarida: saroy ahllariga berilgan quyi unvon va shu unvondagi kishi.

Biz ikkimiz tinch va ahil yashardik, oramizda hech qanday ang-lashilmovchilik yo‘q edi. Odatda, u mening borligimni sezmaganday turar, meni odam qatori sanamasa kerak, men bilan so‘zlashganda chehrasida istehzo ko‘rinmas edi.

Men uni faqat bir marta jahli chiqqanini ko‘rdim. Bir kuni – bu voqea men uning uyiga xizmatga kirganimdan bir hafta keyin bo‘lgandi – qandaydir bir ziyofatdan u kech soat to‘qqizlarda qaytdi; uning chehrasida injiqlik va toliqish alomati ko‘rinardi. Men uning orqasidan kabinetdagi shamlarni yoqish uchun kirganimda, u menga:

– Uy ichidan allanarsaning hidi kelyapti, – dedi.

– Yo‘g‘-e, havo toza, – deb javob qaytardim.

– Men senga, sassiq hid kelyapti, deyapman, – dedi u jahli chiqib.

– Men har kuni darchalarni ochib qo‘yaman.

– Gap qaytarma, ahmoq! – deb qichqirdi u.

Men ranjdim, unga javob qaytarmoqchi bo‘ldim, agar o‘z xo‘jayinini mendan ko‘ra yaxshiroq biluvchi Polya aralashmaganda edi, Xudo biladi, bu mojaro nima bilan tamom bo‘lardi.

– Rostdan ham, allaqanday yomon bir hid bor! – dedi Polya qosh-larini chimirib. – Qayerdan bo‘lsa ekan? Stepan, mehmonxonaning darchalarini ochib, pechkaga o‘t yoq!

Polya, voy, sho‘rim qursin, deb bezovta bo‘lib, yugurib-yelib, yubkalarini shildiratib, purkagichni vishillatib, hamma xonalarga atir sepib chiqdi. Orlovning hamon kayfi buzuq edi; u, aftidan, jahli chiqqanini bildirmaslik uchun o‘zini tutib, stol oldida o‘tirib, jadal xat yozmoqda edi. Bir necha satr yozgandan so‘ng, zarda bilan po‘ng‘illab, xatni yirtib tashladi-da, yana yoza boshladi.

– Diydorlari qursin! – deb g‘udulladi u. – Milsiz xotiraga ega bo‘lishimni istaydilar!

Nihoyat, xat yozilib tamomlandi; u stoldan turdi-da, menga shunday dedi:

– Sen Znamenskaya ko‘chasiga borasan va mana shu xatni Zinaida Fyodorovna Krasnovskayaning o‘z qo‘liga topshirasan. Lekin dastlab darbondan uning eri, ya‘ni janobi Krasnovskiy uyiga qaytdimi, deb so‘raysan. Agar eri uyda bo‘lsa, xatni bermasdan, qaytib kelaver. To‘xta! Bordi-yu, agar xonim, mening uyimda biror kimsa

bormi, deb so'rasa, soat sakkizdan beri uning uyida allaqanday ikki janob o'tirishibdi, bir nimalar yozishyapti, degin.

Men Znamenskaya ko'chasiga jo'nadim. Darbon menga, janob Krasnovskiy hali kelgani yo'q, dedi, men uchinchi qavatga chiqib bordim. Baland bo'yli, semiz, chakkasochlarini qop-qora qilib o'stirgan qoramtir malay menga eshik ochdi. Malay bilan malay qay tarzda gaplashsa, xuddi shu tarzda menga nima kerakligini sustkashlik va qo'pollik bilan so'radi. Men javob bermasdanoq, zaldan dahlizga qora qo'ylakli xonim chiqib keldi. U menga ko'zlarini suzib qaradi. Men:

– Zinaida Fyodorovna uydamlar? – deb so'radim.

– Men bo'laman, – deb javob qaytardi xonim.

– Georgiy Ivanichdan xat keltirdim.

U betoqatlik bilan xatni ochdi va ikkala qo'li bilan ushlab, olmos ko'zli uzugini ko'z oldimda yarqiratib o'qishga tushdi. Sal cho'ziq iyagi, momiqday oppoqqina yuzlariga va uzun qop-qora kipriklariga qarab turdim. Ko'rinishidan bu juvonnini yigirma beshlarda desa bo'lar.

– Salom ayting va tashakkur bildiring, – dedi xonim xatni o'qib tugatgach. So'ng muloyimlik va quvnoqlik bilan, o'zining ishonmaganidan uyalganday so'radi: – Georgiy Ivanichning uyida biror kimsa bormi?

– Qandaydir ikki odam, – deb javob qaytardim. – Nimadir yozishmoqda.

– Salom ayting va tashakkur bildiring, – deb takrorladi xonim va boshini yoniga tashlab, yurgan yo'lida xatni o'qiganicha, sekin ichkariga kirib ketdi.

Xotinlar bilan kam uchrashganimdan, bir ko'rishdayoq u juvon menga yoqib qoldi. Uyga piyoda qayta turib, men uning yuzini, xushbo'y atir hidlarini xotirladim va xayol surib ketdim. Men qaytib kelganimda Orlov uyda yo'q edi.

II

Shunday qilib, men xo'jayin bilan tinch va ahil yashardim, lekin men malaylikka kirayotganimda qo'rqqan nopok, haqoratli narsalar mavjud edi va har kun o'zini sezdirib turardi. Men Polya bilan chiqisholmasdim. Bu xotin semiz va tantiq bir maxluq edi. Orlovni janob

deb bilib hurmatlar, malay bo'lganim uchun menga tahqir ko'zi bilan qarar edi. Ehtimol, haqiqiy malay yoki oshpazning ko'ziga bu xotin juda jozibali ko'rinar: ikki beti qip-qizil, qomati g'ozday, ko'zlari suzuk, badani semizligidan so'liqillab ketgan. U yuziga upa surtar, qoshlarini va lablarini bo'yar, beldamcha bog'lab belini xipcha qilalar va tangalardan yasalgan bilaguzuk taqardi. Maydaqadam, bedana yurish qilardi; yurgan chog'ida eshilib yoki yelkalari va orqalarini qilpillatardi. Yubkalarining shuvillashi, beldamchani chirsillashi, bilaguzuklarining jaranglashi va labga surtilgan bo'yoq va boyvachchadan o'g'irlab sepib olingan atirning badbo'y hidi ertalab u bilan birga bo'lmalarni yig'ishtirib yurganimda menda shunday bir tuyg'u qo'zg'atardiki, go'yo men u bilan birlikda jirkanch bir ish qilayotganday bo'lardim.

Polya bilan birlikda o'g'irlik qilmaganim uchunmi, yoki unga oshiq bo'lishga hech bir xohish ko'rsatmaganimdan nafsni koyibmi, yoki men yot bir odam ekanimni sezibmi, birinchi kundanoq meni yomon ko'rib qoldi. Noshudligim, xizmatkorga o'xshamaganim, kasalim uning g'ashini keltirar va nafratini qo'zg'ar edi. O'sha chog'da men qattiq yo'talardim, ko'p vaqt kechalari uning uyqusiga xalaqit berardim, chunki ikkovimizning bo'lmamiz birgina taxtadevor bilan ajratilgandi, shuning uchun har kun ertalab Polya menga:

– Sen yana meni uxlatmading. Sen kasalxonada yotishing kerak, senga jannoblarning uyida yashashni kim qo'yibdi? – derdi.

U men odam emasligimga va o'zidan benihoyat tuban turganimga shunchalik ishonardiki, xuddi qullar oldida cho'milishdan uyalagan Rim matronalari¹ singari, mening oldimda ichki ko'yilagi bilan yuraverdi.

Bir kuni tushlik vaqtida (biz har kuni qovoqxonadan sho'rva bilan qovurma olardik) mening kayfiyatim chog', ko'nglim xayol surishga moyil bo'lib turganda, so'radim:

– Polya, siz Xudoga ishonasizmi?

– Bo'lmasa-chi!

– Demak, siz, – deb davom etdim, – qiyomat-qoyim bo'lishiga va har qaysimiz o'z qilg'iliklarimiz uchun Xudoga javob berishimizgayam ishonarkansiz-da?

¹ *Matrona* – qadimgi Rimda: hurmatga sazovor bo'lgan ayol, oila boshlig'i.

Polya javob qaytarmadi, faqat burnini jiyirib qo'ydi. Men esa bu safar uning to'qlik aks etgan sovuq ko'zlariga qarab, bus-butun, mukammal bu vujudning Xudosi ham, vijdoni ham, qonuni ham yo'qligiga ishonдим, agar bordi-yu, menga bironi o'ldirish, o't qo'yish yoki o'g'irlik qilish kerak bo'lsa, pulga ham undan yaxshi sherik topolmasdim.

Odatdan tashqari bir sharoitda, buning ustiga, sensirashga va har doim yolg'on gapirishga (uyda o'tirgan bo'lsa ham, «Xo'jayin uyda yo'q», deyishga) o'rganmaganimdan, Orlovning uyida yashash bir haftagacha juda og'ir bo'ldi. Malay kiyimida men o'zimni so-vut kiyganday sezardim. Lekin keyinchalik ko'nikib qoldim. Xuddi chinakam malay kabi xushomadgo'ylik qilar, xonalarni yig'ishtirar, yugurib-yelib har qanday topshiriqlarni bajo keltirar edim. Zinaida Fyodorovnaning uyiga Orlovning borgisi kelmagan chog'larda yoki borishga va'da qilib, unutgan chog'da men Znamenskaya ko'chasiga jo'nar, xonimning o'z qo'liga xat topshirib turib, yolg'on to'qir edim. Natijada, men malaylikka kirayotganda kutgan narsam hech amalga oshmasdi; bu yangi hayotimning har bir kuni men uchun va ishim uchun zoye ketardi, chunki Orlov hech qachon o'z otasi haqi-da gapirmasdi, uning mehmonlari ham gapirmasdilar, mashhur dav-lat arbobining ishlari to'g'risida men hamon ilgarigiday gazetalardan va o'rtoqlariga yozilgan xatlardangina bilardim. Kabinetda mening topib o'qiganim yuzlab xat va qog'ozlar men qidirgan narsaga hatto yaqinlashib ham kelmasdi. Orlov o'z otasining dongdor faoliyatiga butunlay beparvo edi va qiyofasidan u go'yo bu faoliyat to'g'risida hech gap eshitmaganday yoki otasi allaqachonlar o'lib ketganday edi.

III

Payshanba kunlari biznikiga mehmonlar kelardi.

Men restoranga chiqib biqinqovurma buyurtirardim va Yeliseyevga telefonda gapirib, bizga ikra, pishloq, ustritsa va hokazolar yuborishini so'rardim. O'yin qartalari sotib olardim. Polya esa ertalabdan choy idishlarini va kechlik zeb-u ziynatlarini tayyorlab qo'yardi. Rostini aytganda, mana shu kichkinagina harakat bizning bekorchilik bilan o'tuvchi hayotimizni biroz bezatardi.

Faqat uch kishi mehmon bo'lib kelardi. Eng savlatli va eng jozibali mehmon Pekarskiy familiyasi, novcha, qotmaroq, qirq besh yoshlardagi, uzun to'tiburun, qorasoqol va tepa sochi to'kilgan bir odam edi. Uning ko'zlari katta, chaqchaygan, chehrasi jiddiy, yunon faylasufiga o'xshash o'ychan edi. U temiryo'l idorasida va bankda xizmat qilardi, qandaydir muhim bir hukumat idorasida huquqshunos bo'lib ishlardi, vasiy sifatida juda ko'p xususiy kishilar bilan ish yurgizar, tanlovda raislik qilar edi va hokazo... Mansab darajasi uncha katta emas, kamtarlik qilib o'zini advokat deb atar, lekin uning ta'siri juda katta edi. Mashhur doktor, yo'l direktori yoki muhim bir amaldorning huzuriga navbatsiz kirish uchun uning birgina tashrif qog'ozchasi yoki kichkina bir xati kifoya edi. Aytishlariga ko'ra, uning tavsiyasi bilan hatto to'rtinchi darajali xizmatga ham kirish va har qanday yomon ishni bosdi-bosdi qilib yuborish mumkin edi. U juda aqlli odam hisoblanardi, biroq uning aqli qandaydir ayricha, g'aroyib bir aql edi. U bir lahza ichida yodaki, qalam yoki jadvalsiz 213 ni 373 ga ko'paytira olar yoki sterlingni markaga¹ aylantirar edi, temiryo'l va moliya ishini juda yaxshi bilar, ma'muriy ish sohasida unga ma'lum bo'lmagan sir yo'q edi; fuqarolik ishi yuzasidan, aytishlaricha, u eng usta advokat edi, u bilan da'volashish oson emasdi. Lekin mana shu nihoyatda aqlli kishi hatto ba'zi ahmoq odam ham biladigan ko'p narsalarga butunlay tushunmasdi. Masalan, u kishilarning nega zerikishini, yig'lashini, otishib, hatto bir-birlarini o'ldirishini, shaxsan o'zlariga daxli bo'lmagan narsalar hamda voqealar to'g'risida nima uchun tashvishlanishlarini va Gogol yoki Shchedrinni o'qiganda nima uchun kulishlarini mutlaqo tushunolmasdi... Fikr va tuyg'u sohasida yashiringan barcha mavhum narsalar uning uchun zerikarli va xuddi kar odamga chalingan musiqa singari edi. Kishilarga u faqat ish nuqtai nazaridan qarar, ularni qobiliyatli va qobiliyatsiz deb ikki qismga taqsimlar edi. Unda boshqacha taqsimlash yo'q edi. Vijdonlilik va serandishalik – faqat qobiliyat nishonasi, deb bilardi. Ichkilikbozlik, qartabozlik, buzuqlik qilsa ham mayli, lekin ishga xalaqit yetkazmasin. Xudoga ishonish nodonlik, ammo din saqlanishi kerak, chunki xalq uchun bir boshvoq kerak, agar boshvoq bo'lmasa, u ishlamay qo'yadi. Jazolar

¹ *Sterling* – ingliz pul birligi; *marka* – nemis pul birligi.

faqat qo'rqitish uchun kerak. Dala-hovliga ko'chib chiqishning hojati yo'q, chunki shaharda turish ham juda yaxshi va hokazolar... U tul edi va bolalari ham yo'q edi, lekin juda kengchilik bilan yashar, kvartiraning o'ziga yilida uch ming so'm to'lar edi.

Ikkinchi mehmon yoshlardan chiqqan amaldagi davlat maslahatchisi Kukushkin edi. Uning bo'yi past, qiyofasi o'taketgan yoqimsiz, tanasi yo'g'on, semiz, yuzlari esa ozg'in edi. Uning og'zi ochilib turar, qirilgan mo'ylovlari lok bilan yelimlab qo'yilganga o'xshar edi. Bu odamning harakatlari kaltakesaksimon edi. Eshikdan kirishda mayda qadam qo'yib, o'rmalaganday bilanglab kirardi va xiqillab, tishining oqini ko'rsatib kulardi. Allakimning qoshida u mahsus topshiriqlar amaldori edi, garchi katta maosh olsa ham, hech ish qilmas, ayniqsa, yozda uning uchun turli xizmat ta'tillari o'ylab topganlarida, juda ham maza qilardi. Bu odam o'zining ilik-iltigigacha emas, undan ham battarroq, eng so'nggi tomchi qonigacha mansabparast edi, shunday bo'lsa ham o'ziga ishonmagan, o'z mansabini faqat suyak tashlashlarga asoslovchi past bir mansabparast edi. Birorta chet el ordeni uchun yoki gazetalarda uning biror ma'raka yoki ibodatda yuqori martabali kishilar bilan birga bo'lganini bosib chiqarishdari uchun, u har qanday tubanlikka, yolborishga, xushomadgo'ylik qilishga, va'daga tayyor edi. Qo'rqoqligidan u Orlov bilan Pekarskiyga xushomadgo'ylik qilar, chunki ularni kuchli odam deb bilardi. Polyaga va menga ham xushomadgo'ylik qilar, chunki biz boobro' odamning uyida xizmat qilardik. Har safar men uning po'stinini yechib turganimda, u hiqillab kular va mendan: «Stepan, uylanganmisan?» deb so'rar, so'ngra menga alohida e'tibor berganday bo'lib turli beadab gaplarni aytar edi. Kukushkin Orlovning kamchiliklarini, buzuqliklarini, davlatini maqtardi; Orlovga yoqish uchun o'zini shafqatsiz mazaxchi va xudosiz ko'rsatar, boshqa joyda o'zi qulday ta'zim etadigan kishilarni Orlovga qo'shilib tanqid qilar edi. Kechki ovqat mahalida xotin-qizlar va ishq-muhabbat haqida so'z ketganda, u o'zini juda usta va ayyor xotinboz qilib ko'rsatmoqchi bo'lardi. Umuman, aytib o'tish kerakki, Peterburg takasaltanglari o'zlarining ajoyib tabiatlari to'g'risida gap sotishni yaxshi ko'radilar. Ba'zi bir yoshlardan chiqqan amaldagi davlat maslahatchisi o'z uyidagi oshpaz xotin yoki Nevskiyda salanglab yurgan birorta boyaqish ayolni erkalatishdan nariga o'tmaydi-yu, lekin uning lofiga quloq solsang,

u Sharqning va G'arbning butun qilvirliklarini biladi, o'nlarча yashirin jamiyatlarning faxriy a'zosi va allaqachonlar mirshabning ko'z ostiga olingan. Kukushkin o'zi to'g'risida uyalmay-netmay shu qadar yolg'onlar to'qirdiki, unga ishonish tugul, uning to'qima gaplariga quloq ham solmasdilar.

Uchinchi mehmon – hurmatli olim generalning o'g'li, Orlovning tengdoshi, uzun sochli, xira ko'zli, oltin gardishli ko'zoynak taqqan, oq-sariqdan kelgan Gruzin edi. Uning pianinochining barmoqlari kabi uzun, qonsiz barmoqlari hamon esimda; umuman, uning qaddiqomatida mashshoqlarga xos allaqanday o'ynoqilik bor edi. Odatda, bu xil qomatli odamlar orkestrda muhim sozni chaladilar. U yo'talar, boshi og'rir, umuman, kasalmand va zaif ko'rinar edi. Ehtimol uni uyida yosh bola singari kiyintirsalar va yechintirsalar kerak. U huquqshunoslik bilim yurtini tamomlab, dastlab sud mahkamalarida xizmat qilgan, so'ng uni senatga ko'chirganlar: bu yerdan ketgach, yordam va himoya bilan davlat mulklari vazirligida xizmatga o'mashgan va tez kunda bu joydan ham ketib qolgan. Men o'sha xizmatda ekanimda, u Orlovning bo'limida ishlar mudiri bo'lib xizmat qilardi, lekin yana tez kunda sud mahkamasiga ko'chishi to'g'risida gapirar edi. Xizmatga va o'zining o'rindan o'ringa ko'chib yurishlariga u had-dan tashqari yengiltaklik bilan qarardi, uning qoshida mansablar, ordenlar, maoshlar haqida jiddiy ravishda gapirilganda, u oqko'ngillik bilan jilmayib, Prutkov¹ iborasini takrorlab: «Davlat xizmatidagina haqiqatni anglaysan!» derdi. Uning afti burishgan, nihoyatda rashkchi, kichkinagina xotini va besh nafar ozg'in bolasi bor edi; xotiniga xiyonat qilar, bolalarini faqat ko'rgandagina suyib-erkalar, umuman, oilaga ancha beparvo va unga nisbatan hazil-mutoyiba bilan qarardi. Uy ichi bilan qarzga botib yashar, kim ko'rinsa, qayerda qulay kelsa, hatto o'z boshliqlaridan va darbonlaridan ham qarz olaverar edi. Bu odam bo'shangtabiat, o'ziga butunlay beparvo, yalqov, qayoqqa va nima uchunligini bilmasdan oqimga qarab ketayotgandi. Uni qayoqqa sudrasalar, shu yoqqa ketaverardi. Agar uni biror o'g'rixona yoki qimorxonaga boshlasalar ham ketaverardi, oldiga musallas qo'ysalar ichardi, qo'ymasalar ichmasdi; agar uning qoshida xotinlarni yo-

¹ *Kozma Prutkov* – A. K. Tolstoy va aka-uka Jemchujnikovlar birgalashib yozgan she'rlari, qisqa iboralari ostiga shu nomni taxallus qilib qo'yanlar (*tarj.*).

monlasalar, u ham o'z xotinini yomonlardi, xotinim hayotimni zaharladi, deb ishontirmoqchi bo'lardi, agar xotinlarni maqtasalar, u ham o'z xotinini maqtardi va: «Men o'z mushtipar xotinimni juda yaxshi ko'raman», derdi. Uning po'stini yo'q edi, doimo bolalar bo'lmasining hidi kelib turadigan katta sholro'molni egniga tashlab yurardi. Kechlik vaqtida u nimalarnidir o'ylab, nonni yumaloqlab, qizil musallasni ko'p ichib o'tirgan chog'da unda g'alati bir xususiyat borligiga va buni ehtimol o'zi ham sezishiga, lekin kundalik tashvish va bo'lmag'ur ishlar bilan o'ralashib u narsani tushunib, qiymatiga yetmaganiga ishonay-ishonay deb qolardim. U biroz royal chalishni bilardi. Gohida royal yoniga o'tirib ikki-uch akkord olardida, ohista kuylardi:

Ne hozirlar menga kelajak?!¹

Lekin shu ondayoq, xuddi cho'chiganday, o'rnidan turib, royaldan nariroqqa ketardi.

Mehmonlar, odatda, soat o'nlarga to'planishardi. Ular Orlovning kabinetida qarta o'ynashardi, men bilan Polya esa ularga choy berardik. Mana shunda men malaylikning butun xalovatini tota bildim. To'rt-besh soat davomida eshik yonida tikka turib, stakanlarning bo'shab qolmasligini kuzatish, kuldonlarni almashtirish, qo'ldan tushirilgan bo'r yoki qartani olib berish uchun yugurib borish, ayniqsa, tikka diqqat bilan kutib turib, na gapirishga, na yo'talishga, na kulishga jur'at etish, ishoningki, eng og'ir dehqonchilik mehnatidan ham mushkulroqdir. Men qachonlardir bo'ronli qish tunlarida to'rt soatlab vaxtada² turganman, buning oldida vaxtada turish ancha yengil.

Soat ikkigacha, ba'zan uchgacha qarta o'ynashardi, so'ng kerishib yemakxonaga kechlik uchun yoki Orlovning aytishicha, nafsni orom oldirish uchun kirishardi. Kechlik ustida xo'p gap sotilardi. Gap sotish odatda shundan boshlanardiki, Orlov ko'zlarini kulimsiratib turib, birorta tanishi to'g'risida, yaqinda o'qib chiqqan kitobi to'g'risida, yangi bir tayinlov yoki loyiha to'g'risida so'z ochardi; xushomadgo'y Kukushkin uning gap maromiga jo'r bo'lar va o'sha chog'dagi mening kayfiyatimga zid, eng jirkanch bir g'iybat

¹ A.S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin»idan.

² Vaxta – kemada navbatchilik, posbonlik, soqchilik.

boshlanardi. Orlov va do'stlarining istehzolariga chegara yo'q edi, bu istehzo hech kimni va hech narsani ayamasdi. Din haqida gaplashsalar – istehzo, falsafa haqida, hayotning ma'nosi va maqsadlari haqida gapirsalar – istehzo, birortalari xalq to'g'risida masala ko'tarsa ham – istehzo. Peterburgda ayrim bir toifa odamlar borki, ular turmushning har bir hodisasiga, albatta, kulib qaraydilar: ular hatto och odamning yonidan yoki o'zini o'ldirgan odam yonidan ham birorta bo'lmag'ur gap aytmasdan o'tolmaydilar. Lekin Orlov va uning do'stlari kulgi yo kalaka qilishmas, balki istehzo bilan gap sotardilar. Ularning aytishicha, Xudo yo'q. O'lgandan so'ng odam bus-butunligicha yo'qoladi; o'lmas odamlar faqat fransuz akademiyasidagina bor. Chinakam huzur-xalovat yo'q narsa va bo'lishi ham mumkin emas, chunki u kishining bekami-ko'stligiga bog'liqdir, kishining bekami-ko'stligi esa mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Rossiya ham xuddi Eron singari zerikarli va qashshoq bir mamlakat. Ziyolilardan umid yo'q; Pekarskiyning fikriga ko'ra, ziyolilarning juda ko'pchiligi qobiliyatsiz va hech narsaga yaroqsiz kishilardan iborat. Xalq esa ichkilikka berilib, yalqovlanib, o'g'rilikni kasb etgan va tushkunlikka uchragan. Bizda fan yo'q, adabiyot g'aliz, savdo esa faqat firibgarlik bilan tirik: «aldamasang – sotolmaysan». Ularning bari gaplari shu xilda, bari kulgili edi.

Ichilgan musallasdan kechlik oxirida xushkayf bo'lib, xushchaqchaq gaplarga ko'chishar edi. Gruzinning oilaviy hayotidan, Kukushkin qozongan g'alabalardan yoki Pekarskiy ustidan kuli-shardi; go'yo Pekarskiyning harajatlar yoziladigan daftarchasidagi bir sahifaga shunday yozilgan emish: *Xayr-saxovat ishlari uchun*. Ikkinchisi esa: *Jismoniy ehtiyojlar uchun*. Vafodor xotin yo'qligi haqida gapirishar; garchi eri qo'shni kabinetda o'tirgan bo'lsa ham, biroz ustalik ishlatgandan so'ng shu uyning o'zidan chiqmasdanoq sho'xlikka uchmaydigan xotin sira yo'q emish. Yoshgina qizchalar ham buzilib ketgan, hamma narsaning fahmiga yetadi. Orlov gimnaziyada o'qiydigan o'n to'rt yashar bir qizning xatini saqlab qo'ygan: bu qiz gimnaziyadan qaytayotib, «Nevskiyda bir zobitni ilintirgan», zobit qizni o'z uyiga olib ketgan-da, kechasi javobini bergan. Qiz esa darrov dugonasiga xat yozib, o'z xursandchiligini o'rtoqlashmoqchi bo'lgan. Axloq pokizaligi hech qachon bo'lmagan, aftidan, keragi ham yo'q; insoniyat hozirga qadar usiz ham juda yaxshi kun ko'rib

keldi, deb gaplashardi. Buzuqchilik deb atalgan narsaning zararlari, shubhasiz, mahovat qilingan. Bizning jazo nizomimizda ko'rsatilgan buzuqlik Diogenning faylasuf hamda o'qituvchi bo'lishi uchun xalaqit bermagan; Sezar bilan Sitseron ham buzuq bo'lganlar va ayni zamonda ulug' kishilardir. Chol Katon¹ yoshgina ayolga uylandi, shunday bo'lsa ham o'taketgan taqvodor va axloq nazoratchisi hisoblanaveradi. Soat uch yoki to'rtta mehmonlar tarqalar yo bo'lmasa, hammalari birga shahar tashqarisiga yoxud Zobitlar ko'chasiga qandaydir Varvara Osipovnanikiga jo'nardi, men esa o'z malayxonamga kirib bosh og'rig'i va yo'taldan qiynalib, ko'p vaqt-gacha uxlolmasdim.

IV

Orlovga xizmatga kirganimdan keyin uch hafta o'tgach, yakshanba kuni ertalab kimdir qo'ng'iroq chaldi. Soat o'ndan oshgandi. Orlov hali uxlab yotardi. Men eshikni ochgani chiqdim. Qanchalik hayratda qolganimni ifoda etolmayman: eshik oldidagi zinapoyada yuziga ipak parda tashlagan bir xonim turardi.

– Georgiy Ivanich uyg'ondilarmi? – deb so'radi u.

Ovozidan bu xotin Znamenskaya ko'chasida turuvchi, men xat etib bergan Zinaida Fyodorovna ekanini tanidim. Javob bergan-bermaganim esimda yo'q, men xonimni ko'rib dovdirab qolgandim. Xonimga javobimning hojati ham yo'q edi. Bir lahzada yonimdan lip etib o'tdi-da, hozirgacha hidi burnimdan ketmagan atir islarini dahlizda anqitib, ichkari kirib ketdi. Qadam tovushlari ham jim bo'lib qoldi. Har holda, yarim soatgacha hech narsa eshitilmadi. Biroq yana qo'ng'iroq jiringladi. Bu safar boy xonadonning xizmatkoriga o'xshagan olifta bir qiz bilan bizning darbon harsillab ikki chamadon va yuk savatchasini olib kirdilar.

– Bu Zinaida Fyodorovnaga, – dedi qiz.

Boshqa biror so'z aytmasdan qaytib ketdi. Bularning barchasi sirli hodisa bo'lganidan, o'z xo'jasining sho'xliklariga hurmat bilan qaragan Polyada iljayish qo'zg'atardi; go'yo u «Biz mana shunaqamiz!» deganday qilib, u yon-bu yonga oyoq uchida o'tardi. Nihoyat,

¹ Qadimgi Rim siyosatchisi va yozuvchisi Mark Porsiy Katon nazarda tutilmoqda.

qadam tovushlari eshitildi: Zinaida Fyodorovna shoshilib dahlizga chiqdi-da, malayxonamning eshigida meni ko'rib:

– Stepan, Georgiy Ivanichning liboslarini bering, – dedi.

Men libos va etiklarni ko'tarib Orlov qoshiga kirganimda, u ayiq terisiga oyoqlarini osiltirib karavotda o'tirardi. Uning butun vujudi xijolat tortayotganini ko'rsatardi. Meni u sezmas va o'z malayining fikriga qiziqmas edi. Aftidan, u o'zidan o'zi, o'zining «vijdon nazari» oldida xijolat tortar va uyalar edi. Kiyindi, yuvindi, so'ngra cho'tka va taroqlarni olib ivirsib yurdi, go'yo shu fursatdan ahvolni o'ylab ko'rish va bir fikrga kelish uchun foydalanardi, uning xijolatligi va o'zidan noroziligi hatto orqasidan ham sezilib turardi. Qahvani ikkovlari birga ichdilar. Zinaida Fyodorovna qahva qaynatgichdan o'ziga va Orlovga qahva quygach, tirsaklarini stolga qo'ydi-da, kulib yubordi.

– Hamon ishongim kelmaydi, – dedi u. – Uzoq sayohatda yurib, mehmonxonaga qaytib kelgach, endi yo'lga chiqish kerakmasligiga kishi hamon ishonmay turadi. Kishi huzur qilib nafas oladi.

Sho'xlik qilgisi kelib turgan qizchaday harakatlar bilan ohista uh tortdi-da, yana kulib yubordi.

– Siz meni kechiring, – dedi Orlov gazetalarga imo qilib. – Qahva ichib turganda, gazeta o'qish menga odat bo'lib qolgan. Lekin ikki ishni birdan qilolaman: ham o'qishim, ham tinglashim mumkin.

– O'qiyvering, o'qiyvering... Odatlaringiz va erkingiz o'zingizda. Ammo nechun kayfiyatingiz buzuq? Siz har doim ertalab shunday qiyofada bo'lasizmi yoki faqat bugun shundaymi? Siz xursandmasmisiz?

– Aksincha. Lekin, ochig'ini aytsam, biroq dovdirab qoldim.

– Sabab? Mening hujumimga hozirlanish uchun yetarli vaqtingiz bor edi. Men har kuni sizga xavf solib turgandim.

– Shunday, lekin men shu xavfingizni xuddi bugun amalga oshirilishini kutmagandim.

– Men o'zim ham kutmagandim, biroq yaxshi bo'ldi. Yaxshi bo'ldi, azizim. Og'riq tishni birdan sug'urib tashlash kerak, vassalom.

– Shunday, albatta.

– Eh, jonginam! – dedi xonim, ko'zlarini pirpiratib. – Har ishning oxiri baxayr bo'lsin! Ammo oxiri yaxshi bo'lguncha qancha

hasrat chekildi! Siz mening kulganimga qaramang: men xursandman, baxtiyorman, lekin kulgidan ko'ra ko'proq yig'lashga moyilman. Kecha men zo'r urushga bardosh berdim, – xonim so'zini fransuzcha davom ettirdi. – Menga naqadar og'ir bo'lganini birgina Xudoning O'zi biladi. Mening kulganimga ishonmaganim sababdir. Men hozir go'yo siz bilan o'ngimdamas, tushimda qahva ichib o'tirganga o'xshayman.

So'ng u yana fransuzcha gapirib, kecha eri bilan ajrashganini aytib berdi, uning ko'zlari dam yoshga jiq to'lar, dam kulib Orlovga mahliyo bo'lib tikilardi.

Xonimning aytishiga ko'ra, eri ko'pdan beri gumonsirab yurgan, lekin ochiq gaplashishdan tortingan, tez-tez janjallar bo'lib turgan va odatda janjal eng avjiga chiqqan paytda, eri birdan jim bo'lib qolar va o'z kabinetiga kirib ketarkan, chunki achchiq ustida o'z shubhasini gapirib qo'yishdan yoki xotinining gap boshlab qolishidan qocharkan. Zinaida Fyodorovna esa o'zini gunohkor, hech narsaga arzimaydigan, dadil va jiddiy qadam bosishga layoqatsiz sezarkan, shuning uchun kun sayin o'zini ham, erini ham yomon ko'rib, xuddi do'zaxga tushganday azoblanib yurarkan. Biroq kechagi janjal vaqtida eri yig'lamsiragan tovush bilan: «Bu mojarolar qachon tamom bo'larkin, ey Xudoyim?» deb o'z kabinetiga kirganda, u xuddi sichqonni quvlagan mushukday erining ketidan yugurgan va eshikni yoptirmasdan turib, «Sirayam seni ko'rarga ko'zim yo'q!» deb qichqirgan. Shundan so'ng eri uni kabinetga kirgizgan va Zinaida Fyodorovna hamma gapni ochiq gapirgan, boshqa odamni yaxshi ko'rganini bo'yniga olgan, bu boshqa odam o'zining haqiqiy, eng qonuniy eri ekanini va shu bugunning o'zidayoq, hech narsaga qaramasdan, garchi unga zambarakdan to'p otsalar ham, shu odamning uyiga ko'chib ketishni vijdoniy burchim hisoblayman, deb aytgan.

Orlov ko'zini gazetadan uzmasdan turib xonimning so'zini kesdi:

– Sizning romantik tomirchangiz yaxshi teparkan!

Xonim kulib yubordi va hamon qahvaga qo'l uzatmasdan, gapini davom ettirdi. Uning ikki beti cho'g'day yashnab ketgani uchun biroz tashvishga tushdi va men bilan Polyaga xijolat tortib qaradi. Xonimning so'nggi gaplaridan men bildimki, eri unga ta'na va do'q

bilan javob qaytargan va oxiri yig'lab yuborgan, demak, to'g'risini aytganda, xonim emas, eri zo'r urushga bardosh bergan.

– Shunday, azizim, asablarim qo'zg'alib turgan chog'da hamma ish joyida edi, – deb gapida davom etdi xonim, – lekin kech kirishi bilan ruhim tushib ketdi. Siz, Jorj, Xudoga ishonmaysiz, men esa salpal ishonaman va qasos qaytishidan qo'rqaman... Xudo bizdan sabr-qanoatni, himmatni, fidokorlikni talab qiladi, men esa sabr-qanoatdan bosh tortib, turmushni o'z bilganimcha qurmoqchiman. Yaxshimi shu? Banogoh shu qilig'im Xudoga yoqmasa-chi? Kechasi soat ikkida erim mening qoshimga kirib, shunday dedi: «Siz keta ko'rmang. Men sizni janjal bilan, mirshab orqali chaqirtirib kelaman». Biroz o'tgandan so'ng qarasam, yana u xuddi ko'lankaday eshik og'zida turibdi. «Menga rahmingiz kelsin. Sizning qochib ketishingiz mening xizmatimga zarar yetkazishi mumkin». Bu so'zlar menga qattiq ta'sir qildi, men bu so'zlardan go'yo o'tmaslashib qoldim, qasosning boshlanishi shu bo'lsa kerak, deb o'yladim, qo'rqanimdan qaltirab, yig'lay boshladim. Ustimga ship ag'darilayotganday, meni mirshabga olib ketayotganday va siz meni yomon ko'rib qolayotganday, xullas, Xudo biladi, yana nimalar tuyulib ketdi! Monastirga yoki biror yerga hamshiralikka ketaman, baxtiyorlikdan voz kechaman, deb o'yladim, lekin shu ondayoq siz meni sevganingizni va sizdan tashqari biror ish qilishga haqqim yo'qligini esladim, hamma narsa boshimda chuvalasha boshladi, men esam ma'yuslanib, nima o'ylashni va nima qilishni bilmasdim. Lekin quyosh chiqqandan so'ng yana ko'nglim yorishib ketdi. Ertalab turdim-da, siznikiga qarab jo'nadim. Oh, naqadar azob chekdim, azizim! Ikki kecha mijja qoqqanim yo'q!

Xonim charchagan va hayajonlangan edi. Bir vaqt ichida uning ham uxlagisi, ham tinimsiz gapirgisi, ham kulgisi, ham yig'lagisi va o'zini ozodlikda his etish uchun restoranga borib nonushta qilgisi kelar edi.

Qahvadan so'ng hamma uylarni g'irillab aylanib chiqqach:

– Kvartirang juda shinam, – dedi xonim, – lekin qo'rqamanki, ikkimiz uchun torlik qiladi. Sen menga qaysi xonani berasan? Menga manavi xona yoqadi, chunki bu xona sening kabinetning bilan yonma-yon.

Soat birdan so'ng xonim kabinet yonidagi xonada qayta kiyinib, shu bo'lmani o'ziniki qilib oldi-da, so'ng Orlov bilan nonush-taga jo'nadi. Ular tushlikni ham restoranda o'tkazdilar, nonushta bilan tushlik o'rtasidagi uzoq vaqtni esa do'konma-do'kon yurib o'tkazdilar. Men yarim kechgacha do'konlarning gumashtalari va yugurdaklariga eshik ochib, ulardan har xil mollarni qabul etib turdim. Keltirilgan narsalar ichida bir katta toshoyna, pardozi stoli, karavot va bizga keraksiz choy idishlari bor edi. Bir to'da katta-kichik mis kastyullar ham keltirdilar, bu kastyullarni biz bo'm-bo'sh va sovuq oshxonamizdagi tokchalarga qator terib qo'ydik. Choy idishlarini ochgan chog'imizda Polyaning ko'zlari o'ynab ketdi va menga uch marta nafrat ham qo'rquv bilan qarab qo'ydi, aftidan, shu chiroyli piyolachalardan birini dastavval o'zi emas, balki meni o'g'irlyaydi, deb gumon qildi. Juda qimmatbaho, lekin noqulay, ayollarga xos yozuv stoli keltirdilar. Chamasi, Zinaida Fyodorovna bizning uyda ro'zg'or tuzatib, mahkam o'tirib olish niyati bo'lsa kerak.

Xonim bilan Orlov soat o'nga qadam qo'yganda qaytishdi. Favqulodda va jasur bir ish qilgani, ehtiros bilan sevgani va go'yo ehtiros bilan sevilganidan gerdayib ketgan Zinaida Fyodorovna ko'zlari suzilib, qattiq va orombaxsh uyqu oldidan o'z yangi hayotidan laz-zatlanmoqda edi. Baxtiyorlikdan erib ketgan xonim qo'llarini qattiq qisar, hamma ish joyida deb bilar va abadiy sevimiga ont ichar edi. Ichilgan bu ontlar va meni ham o'lguday, abadiy yaxshi ko'radi, deb soddadillik bilan, bolalarcha ishonishlar xonimni besh yosh yashartirgandi. Xonim chiroyli safsatalar so'zlar va o'z ustidan kular edi.

– Ozodlikdan yuksak baxt-saodat yo'q! – derdi xonim, birorta jiddiy va muhim gap aytmochi bo'lib. – Axir, o'ylab ko'rsang, qanday bema'nilik! Biz o'z shaxsiy fikrimizga, hatto u fikr oltin bo'lsayam, qiymat bermaymiz, ammo turli ahmoqlarning fikrini qiymatlaymiz. Men so'nggi damlarga qadar o'zgalarning fikridan qo'rqib kelardim. Lekin o'z fikrimga quloq solib, o'z bilganimcha yashashga ahd qilgan zamonim, ko'zim ochildi, men o'zimdagi ahmoqona qo'rquvni yengdim, endi men baxtliman va barchaga ham xuddi shunday baxt tilayman.

Lekin shu ondayoq xonimning fikr tartibi uzilib, yangi kvartira to'g'risida, devorga yopishtiriladigan gulqog'ozlar, otlar, Shveytsariya ham Italiyaga sayohat to'g'risida gapira ketdi. Orlov esa resto-

ran va do'konlarni kezib charchagandi, men ertalab sezgan uning sarosimalanishi hamon aks etib turardi. U mamnun bo'lganidan emas, ko'proq odob yuzasidan jilmayardi. Xonim biror narsa haqida jiddiy gapirib turganda, Orlov «Ha, shunday!» deb istehzo bilan tasdiqlardi.

Xonim menga:

– Stepan, tezroq bir yaxshi oshpaz toping, – dedi.

– Oshxona to'g'risida shoshilish kerakmas, – dedi Orlov, menga sovuqqina nazar tashlab. – Avval yangi kvartiraga ko'chib olish kerak.

U hech qachon o'z uyida oshxona ham, otxona ham tutmasdi, o'zining aytishicha: «uyda ifloslik tarqatishni» yoqtirmasdi, men bilan Polyani esa o'z kvartirasida faqat zaruratdan saqlardi. Oilaviy o'choq deb atalgan narsa o'zining odatdagi shodliklari va xafagarchiliklari bilan uning ta'biga to'g'ri kelmas, yaramas narsa sifatida uni xafa qilardi. Homilador bo'lish yoki bolali bo'lish va ular to'g'risida gapirish, uningcha, bo'lmag'urlik, meshchanlik edi. Shuning uchun ham endi bu ikki zotning bir uyda qanday murosa qilib turishi meni juda qiziqtirib qoldi; xonim uyga, ro'zg'orga berilgan, turli mis kastyullar saqlaydi, yaxshi oshpaz ham otlar to'g'risida o'ylaydi. Orlov esa ko'p vaqt o'z o'rtoqlariga: durust, pokiza odamning uyida xuddi harbiy kemadagi singari hech bir ortiqcha narsa bo'lishi kerak emas, na xotin, na bola, na latta-putta va na oshxona jihozlari, derdi.

V

Endi men sizga birinchi payshanba kuni nima bo'lganini so'zlab beraman. Shu kun Orlov bilan Zinaida Fyodorovna Kontan yoki Donon restoranida tushlik qilishdi. Uyga faqat birgina Orlovning o'zi qaytib keldi. Zinaida Fyodorovna esa, so'ng bilishimcha, to uyimizga mehmonlar kelib-ketguncha vaqtni o'tkazish uchun Peterburg tomonlardagi kekxa murabbiyasi yoniga ketgan ekan. Orlov o'z o'rtoqlariga xonimni ko'rsatgisi kelmasdi. Bu narsani men ertalab qahva ustida xonimga Orlov uning osoyishtaligi tufayli payshanba kungi mehmondorchilikda bo'lmasligini uqtirayotganida tushungandim.

Mehmonlar odatdagicha deyarli bir mahalda yetib keldilar.

– Xonim ham uydalarmi? – deb so‘radi mendan pichirlab Kukushkin.

– Yo‘qlar, – deb javob qaytardim.

Kukushkin mug‘ombirlik bilan ko‘zlarini yiltillatib, sirli tabassum qilib, sovuq qo‘llarini ishqalab ichkariga kirdi. Xushomadgo‘ylik va laganbardorlik bilan butun tanasini silkillatib turib, Orlovga:

– Tabriklayman. Lubnon yong‘oqlari yanglig‘ o‘sib-unib, ko‘payishlaringizni orzu etaman, – dedi.

Mehmonlar yotoqxonaga kirib, u yerdagi ayol tuflisi, ikki karavot orasiga solingan gilam va karavotda osilib turgan kulrang ayollar ko‘ylagi to‘g‘risida askiyabozlik qildilar. Ishq-muhabbatdagi butun rosmama ishlarni yomon ko‘ruvchi o‘jar yigit nogahondan, juda osonlikcha va soddalik bilan bu xotinning qarmog‘iga ilinib qolgani uchun kulishib, xursand bo‘lishdi.

Cherkovlarda ishlatiladigan eski slavyanacha so‘zlar bilan yoqimsiz oliftagarchilik qilishga yomon odatlangan Kukushkin:

– Birovning holiga sen kulma zinhor, sening holinggayam kulguvchilar bor, – deb bir necha marta takrorladi va yotoqxonadan chiqib, kabinet yonidagi xonaga kirishayotganda, barmog‘ini labiga tekkizib: – Jim! – dedi. – Tss! Bu yerda Margarita o‘zining Fausti haqida shirin xayol suradi.

Shu gapi bilan go‘yo juda kulgili gap aytganday o‘zidan-o‘zi qotib-qotib kulardi. Gruzinning musiqasevar yuragi bu xil kulgiga chidolmas deb, men uning yuziga tikildim. Lekin adashgan ekanman. Uning yoqimtoy, ozg‘in chehrasi xursandligidan charaqlab turardi. Qarta o‘ynashga o‘tirgan chog‘larida u duduqlanib va kulgidan entikib: endi Jorjinkaga o‘z oilaviy baxtiyorligining bekami-ko‘stligi uchun bitta chilim bilan gitara olish qolibdi, xolos, dedi. Pekarskiy ham durustgina kulardi-yu, lekin uning jiddiy qiyofasidan Orlovning yangi ishqiy voqeasi unga yoqmagani ko‘rinib turardi. U nima hodisa yuz berganini aniqroq tushunolmasdan hayron edi. Uch davra qarta o‘ynab bo‘lganlaridan keyin u hayronlik bilan so‘radi:

– Xonimning eri nima bo‘ldi?

– Bilmayman, – deb javob berdi Orlov.

Pekarskiy barmoqlari bilan o‘zining uzun soqolini qashib, o‘ylanib ketdi va to kechlikkacha indamadi. Kechlikka o‘tirganlarida u sekin-asta har bir so‘zni cho‘zib turib, shunday dedi:

– Umuman aytganda, kechirasan, men har ikkalangizgayam tushunolmayman. Siz ikkalangiz bir-birlaringizni yaxshi ko‘rishingiz va Injilda yozilgan yettinchi nasihatni istagancha buzishingiz mumkin edi – men buni tushunaman. Shunday, bu menga tushunarli. Lekin o‘z sirlaringni xonimning eriga oshkor qilish nega kerak? Shu narsa kerakmidi?

– Baribirmasmi?

– Hm-m... – deb o‘ylanib qoldi Pekarskiy. – Senga aytadigan bir gapim bor. Hurmatli do‘stim, – dedi fikrini sezilarli darajada to‘p-lab, – agar men qachondir ikkinchi marta uylansam va sening xayolingga mening xotinim bilan yurish tushib qolsa, shunday qilinki, men hech narsani sezmayin. Kishining turmush tartibini buzib, obro‘yini to‘kkandan ko‘ra, uni aldamoq birmuncha vijdonliroqdir. Men tushunaman. Siz ikkovingiz ochiqdan-ochiq turmush qurib, haddan tashqari vijdonli va murosasoz ish qildik, deb o‘ylaysiz, lekin shu bilan... xah... oti nimaydi? Shu romantizm bilan men hech bir kelisholmayman.

Orlov hech qanday javob qaytarmadi. Uning avzoyi buzuq edi, gapirishga xushi kelmadi. Pekarskiy o‘z noroziligini davom ettirib, barmoqlari bilan stolga urib, biroz o‘ylanib:

– Men har holda ikkovingizgayam tushunmayman. Sen talabammasan, xonim ham kambag‘al toifadanmas. Har ikkovingiz ham puldor odam. O‘ylaymanki, sen xonim uchun alohida kvartira topib berishing mumkin edi, – dedi.

– Yo‘q, topib berolmasdim. Turgenevni o‘qib ko‘r-chi.

– Nima uchun men uni o‘qishim kerak? Men allaqachonlar o‘qiganman.

– Turgenev o‘z asarlarida, har bir oliyjanob, sof fikrli ayol sevgan erkagi bilan dunyoning bir chekkasiga bo‘lsayam ketsin va uning g‘oyalariga xizmat etsin, deb o‘rgatadi, – dedi Orlov ko‘zlarini istehzo bilan suziltirib. – Dunyoning bir chekkasi, deyilgani, shoirona erkinlik bilan aytilgandir, aslida: butun dunyo o‘zining hamma chekkalari bilan sevgan erkakning kvartiriga joylashgandir. Shu sababdan, o‘zingni sevgan ayol bilan bir kvartirada yashamaslik – demak, uning yuksak niyatlarini rad etish va yuksak maqsadlariga hamdamlashmaslikdir. Shunday, aziz do‘stim, Turgenev yozishga yozgan, lekin men uning o‘rniga javob berishim kerak.

– Bu o‘rinda Turgenev nima qilib yuribdi, tushunmayman, – dedi ohista Gruzin va yelkalarini qisib qo‘ydi. – Esingizdami, Jorjinka, «Uchta uchrashuv»da kech oqshom yigit Italiyaning bir joyida ketayotganda, birdan uning qulog‘iga: «Kel, go‘zal, sirdoshlashib, hamdardlashaylik ushbu chog‘», degan ovoz eshitiladi, – Gruzin xirgoyi qildi va: – Yaxshi! – dedi.

– Lekin axir xonim senikiga zo‘rlab ko‘chib kelmagandir, – dedi Pekarskiy. – Sen o‘zing shuni xohlagandirsan?

– Ana xolos! Men xohlash u yoqda tursin, shunday voqea bo‘lishini hatto xayolimgayam keltirmagandim. Xonim, senikiga ko‘chib boraman, deb gapirgan chog‘larida men, shunchaki hazil-lashdi, deb o‘ylardim.

Hamma kulib yubordi.

Orlov go‘yo o‘zini oqlash uchun majbur qilinayotganday bir ohangda gapini davom ettirdi:

– Men shunday bo‘lishini xohlamasdim. Men Turgenev tasvirlagan qahramonmasman, agar menga, qachon bo‘lmasin, Bulg‘oristonni ozod qilish kerak bo‘lib qolsa, mening yonimda, albatta, biror xonim bo‘lishining hojati yo‘q. Men ishq-muhabbatga, avvalo, tanimning ruhimga zid bo‘lgan past bir ehtiyoji sifatida qarayman. Bu ehtiyojni mulohaza bilan qanoatlantirish kerak yoki undan mutlaqo bosh tortish kerak, aks holda, u sening hayotingga xuddi o‘zi singari nopok narsalarni kiritadi. Shu ehtiyojni qondirish azobmas, rohat bo‘lishi uchun men uni chiroyli qilishga, ko‘pgina xomxayollar bilan bezantirishga urinaman. Agar xotinning chiroyli va jozibador ekanini bilmasam, u xotinning oldiga bormayman: agar ishtiyoqim baland bo‘lmasa ham bormayman. Faqat mana shunday sharoitlardagina bir-birimizni aldab ovuntirolamiz, go‘yo biz sevimli va baxtiyormiz. Biroq men mis kastyullarni, taralmagan boshni yoki betimni yuvmagan, kayfim buzilgan chog‘da meni ko‘rishlarini xohlashim mumkinmi? Zinaida Fyodorovna soddadilligidan menga umrim bo‘yi yashirinib, qochib yurgan narsalarimni sevdirmoqchi bo‘ladi. Mening kvartirimdan oshxona va kirxonalarning hidi kelib turishini istaydi. Xonim dabdaba bilan yangi kvartiraga ko‘chmoqchi, o‘z otlarini qo‘stirib sayr etmoqchi, mening liboslarimni sanab va mening sog‘ligim haqida g‘amxo‘rlik qilib umr o‘tkazmoqchi; xonim har daqiqada mening shaxsiy hayotimga aralashishni, mening

har bir qadamimni kuzatib turishni va ayni zamonda «Odatlaringiz va erkingiz o'zingizda», deb chin yurakdan ishontirmoqchi bo'ladi. Xonim biz har ikkovimiz endigina turmush qurgan yoshlar singari tez fursatda sayohatga chiqishimizgayam ishonib yuribdi, boshqacha aytganda, xonim kupedayam, mehmonxonalaridayam sira ajralmasdan yonimda yurmoqchi, vaholanki, yo'lda men kitob o'qishni yaxshi ko'raman, gaplashishni esa o'lguday yomon ko'raman.

– Sen xonimni gapga ko'ndir, – dedi Pekarskiy.

– Qanday qilib? Xonim mening gapimga tushunadi, deb o'ylaysanmi? Kechirasan, bizning fikrlarimiz yer bilan osmoncha farq qiladi! Xonimning fikricha, ota va onadan yoki erdan qochib, sevgan erkaknikiga ketish – mardlikning cho'qqisidir, menimcha esa bu – yosh bolalik. Uningcha, xushtorlik, erkak bilan topishish – yangi turmush boshlash demakdir, menimcha esa bu hech narsamas. Xonimning hayotidagi asosiy ma'no – sevgi bilan erkakdan iboratdir, bu uning bema'ni bir falsafasi bo'lsa kerak. Sevgi ovqat yoki kiyim singari, faqat oddiy bir ehtiyoj ekaniga, er va xotinlar yomonligidan dunyo halok bo'lmasligiga, buzuq va xotinboz bo'lish bilan ayni zamonda daho va oliyjanob odam bo'lish mumkinligiga, ikkinchi tomondan esa muhabbat lazzatidan bosh tortish bilan ayni zamonda yovuz va hayvon bo'lish mumkinligiga xonimni ishontirib ko'ring-chi! Hatto eng past tabaqa hozirgi madaniy odam, masalan, farang ishchisi, bir kunda ovqatga o'n su¹, ovqat oldidagi musallasga besh su, xotinga beshdan o'n sugacha sarf etadi, o'zining aql va asablarini esa butunicha ishga beradi. Zinaida Fyodorovna esa muhabbat uchun bir su to'lamaydi-yu, lekin butun jon-tanini unga fido etadi. Men, basharti, uni gapga unatmoqchi bo'lsam, u bunga javoban yurakdan nola qilib, men uni halok etganimdan, turmushda endi hech narsasi qolmaganidan zorlanadi.

– Sen unga hech narsa gapirma, – dedi Pekarskiy, – faqat bir kvartira olib ber qo'y, vassalom.

– Bu aytishga oson...

Birpas jim qoldilar.

– Lekin xonim juda dilbar, – dedi Kukushkin. – Xonim juda go'zal. Bu xil xotinlar, men abadiy sevimliman, deb tasavvur etadilar va ishq-muhabbatga astoydil beriladilar.

¹ Fransiyada: pul birligi.

– Biroq yelkada bosh ham bo‘lishi kerak, – dedi Orlov, – o‘ylab ko‘rish kerak. Kundalik turmushdan bizga ma‘lum bo‘lgan va juda ko‘p roman hamda dramalarning sahifalariga kirgizilgan barcha tajribalar bir og‘izdan tasdiq etadilarki, tuppa-tuzuk odamlarning ham har qanday xiyonatlari va o‘ynashbozliklari, eng boshidagi muhabbat qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ikki yildan, ko‘p bo‘lsa, uch yildan ortiq davom etmaydi. Bu narsani xonim tushinishi kerak. Chunki butun shu ko‘ch-ko‘chlar, qozon-tovoqlar, abadiy muhabbat va jona-jonlikka umidlar – o‘zini hamda meni laqillatishni istashdan boshqa narsamas. Xonim juda dilbar va juda go‘zal – shubha yo‘q! Biroq u hayotimning aravasini to‘ntarib tashladi; hozirgacha arzimasi va safsata hisoblagan narsalarimni xonim jiddiy masala darajasigacha ko‘tarishim uchun majbur etyapti, men hech qachon Xudo hisoblamaganim – sanamga ibodat etmoqdaman. Xonim – go‘zallik va latofatning namoyandasi bo‘lsayam, lekin endi xizmatdan uyga qaytayotgan chog‘imda ko‘nglim behuzur bo‘lib ketadi, go‘yo uyda meni allaqanday noqulaylik kutayotganday, go‘yo pechkachilar hamma pechkalarni buzib, g‘ishtlarni uy o‘rtasiga to‘plab qo‘yganday tuyuladi. Xullas, men muhabbat uchun endi pulmas, o‘z tinchligim va o‘z asablarimning bir qismini bermoqdaman. Bu esa bo‘lmag‘ur ishdir!

– Afsuski, bu yovuz niyatli kishining gaplarini xonim eshitmayotir! – deb oh urdi Kukushkin va teatrdagiga o‘xshatib: – Hurmatli janob, men sizni shu fusunkor nozaninni sevish majburiyatidan ozod etaman! Men sizdan Zinaida Fyodorovnani tortib olaman! – dedi.

– Mumkin... – dedi Orlov beparvolik bilan.

Kukushkin ingichka tovush bilan, butun tanasini silkillatib, yarim daqiqacha kuldi-da, so‘ng:

– Qarab turasiz, men hazillashganim yo‘q! Lekin so‘ngra Otello rolini o‘ynab yurmang! – dedi.

Hamma Kukushkinning ishq-muhabbat bobida charchamasligi, xotinlar uchun xo‘rozligi, erlar uchun xavfliligi to‘g‘risida va shu buzuqligi uchun u dunyoda shaytonlar uning go‘shini kabob qilishi to‘g‘risida gapira ketdilar. Kukushkin esa indamasdan, ko‘zini suziltirib o‘tirardi, tanish xonimlarning nomi aytilganda, u sinchalog‘i bilan po‘pisa qilib, o‘zgalarning sirini fosh etish mumkin emas, deganday bo‘lard. Orlov birdan soatga qarab qo‘ydi.

Mehmonlar tushundilar-da, ketishga otlandilar. Esimda borki, musallasdan mast bo'lib qolgan Gruzin bu safar zerikarli darajada uzoq kiyindi. U kambag'al oilalarda bolalar uchun tikiladigan kapotga¹ o'xshash paltosini kiyib, yoqasini ko'tardi-da, uzundan-uzoq allanimani gapirdi; so'ng gapiga quloq solmayotganlarini ko'rib, bolalar xonasining hidi kelib turgan katta sholro'molni yelkasiga tashladi-da, yolvoruvchi, aybdor qiyofasi bilan, mendan qalpog'ini topib berishimni iltimos qildi.

– Jorjinka, farishtam mening! – dedi u muloyimlik bilan. – Azizim, mening gapimga kirsangiz, hozir shahardan tashqariga jo'naymiz!

– Jo'nayvering, men borolmayman. Men endi uylanganlar qatoridaman.

– Xonim juda yaxshi, xafa bo'lmaydi. Mehribon boshlig'im mening, boraylik! Havo joyida, muzday izg'irin esib turibdi... Rost gap, siz birpas sayr etib kelishingiz zarur, hozir kayfingiz buzuq, kim biladi...

Orlov kerishib va esnab, Pekarskiyga qarab o'ylanib turib so'radi:

– Sen borasanmi?

– Bilmadim. Borsam ham bo'ladi.

– Ichib mast bo'lsam-chi? Xo'sh, mayli, boraman, – dedi Orlov birmuncha ikkilanishdan so'ng. – To'xtab turing, men hozir pul olib chiqaman.

U kabinetiga kirib ketdi, uning ketidan esa katta sholro'molni sudrab Gruzin ergashdi. Birpasdan so'ng har ikkovlari ham dahlizga qaytishdi. Mast va xursand Gruzin o'n so'mlik qog'ozni qo'lida g'ijimlab turardi.

– Ertaga hisoblashamiz, – dedi u, – xonimning qo'li ochiq, ach-chiqlanmaydi... Qizim Lizochkaga shu xonim ism qo'ydirgan, men yaxshi ko'raman boyaqishni. Oh, azizim! – deb xursandlik bilan kuldi va birdan peshonasi bilan Pekarskiyning orqasiga munkaydi. – Eh, Pekarskiy, jonginam! Advokatissimus, qoqsuyakning o'zginasi, lekin xotinlarni yaxshi ko'rsa kerak...

– Semizlariniyam, deb qo'ying, – dedi Orlov po'stinini kiyayotib. – Endi jo'naymiz, tag'in ostonada duch kelib qolmaylik.

¹ *Kapot* – bu yerda: xotinlarning xalatga o'xshash uy kiyimi.

– Kel, go‘zal, sirdoshlashib, hamdardlashaylik ushbu chog‘! – deb xirgoyi qildi Gruzin.

Nihoyat, jo‘nab ketishdi. Orlov uyga uxlagani qaytmasdan, ertasi kun tushlik mahalida keldi.

VI

Zinaida Fyodorovnaning bir vaqtlar otasi hadya qilgan tilla soati yo‘qolib qoldi. Bu yo‘qolish xonimni ajablantirdi va cho‘chitib qo‘ydi. Yarim kungacha u hamma bo‘lmalarni aylanib, stol va derazalarni sarosimalik bilan qarab yurdi, lekin soat xuddi suvga cho‘kkanday ko‘rinmasdi.

Bu hodisadan uch kun o‘tgandan so‘ng, Zinaida Fyodorovna allaqayerdan qaytgach, dahlizda hamyonini unutib qoldiribdi. Baxtimdan aylanay, shu safar uning yechinishiga men emas, Polyax ko‘maklashgandi. Hamyon esga tushib qidirganimizda, allaqachon dahlizdan yo‘qolgandi.

– Ajabo! – deb hayron qolardi Zinaida Fyodorovna. – Juda yaxshi esimda borki, izvoshchiga haq to‘lash uchun cho‘ntagimdan olgandim-u... so‘ng mana shu yerga oyna yoniga qo‘ygandim. G‘alati bo‘ldi-ku!

Men o‘g‘irlamagandim, lekin go‘yo men o‘g‘irlaganday va qo‘lga tushib qolganday bo‘ldim. Hatto ko‘zlarimdan yosh ham chiqib ketdi. Tushki ovqat chog‘ida Zinaida Fyodorovna Orlovga fransuzchalab gapirdi:

– Uyimizda arvohtar paydo bo‘libdi. Men bugun dahlizda hamyonimni yo‘qotgandim. Hozir qarasam, stolimning ustida yotibdi. Lekin arvohtar bu nayrangni bekorga ko‘rsatmadilar. Ish haqlari uchun bir dona tilla tanga bilan yigirma so‘mlik qog‘oz pulni olib qolganlar.

– Dam sizning soatingiz yo‘qoladi, dam pulingiz... – dedi Orlov. – Nima uchun mening hech narsam yo‘qolmaydi?

Bir daqiqadan so‘ng Zinaida Fyodorovna arvohtar ko‘rsatgan nayrangbozlikni unutgandi va o‘tgan hafta o‘ziga pochta qog‘ozi buyurtma qilib, yangi manzilini aytishni unutganini, qog‘ozni do‘kon eski kvartirasiga – eriga jo‘natganini, eri esa shunga o‘n ikki so‘m to‘lashi kerakligini kulib-kulib gapirib bermoqda edi. So‘ng birdan xonimning ko‘zi Polyaxga tushdi-yu, unga sinchiklab qarab qoldi.



Shuning bilan baravar xonim qizarib ketdi va shu darajada xijolat tortdiki, darrov gapni boshqa tomonga burib yubordi.

Men kabinetga qahva keltirgan chog'imda, Orlov yelkasini kamindagi o'tga toblab turar, xonim esa uning ro'parasida oromkursida o'tirar edi.

– Men sirayam buzuq kayfiyatda emasman, – derdi xonim fransuzchalab. – Lekin men endi fikr yuritib, hamma narsani tushunib oldim. Men senga bu xotinning mening soatimni qaysi kuni va hatto qaysi soatda o'g'irlaganiniyam aytishim mumkin. O'! – deb kulib yubordi xonim mendan qahvani olayotib. – Endi, nima sababdan mening ro'mollarim va qo'lqoplarim tez-tez yo'qolib turganiniyam tushundim. Ixtiyor o'zingda, lekin men ertaga bu olahakkaning javobini berib yuboraman-da, Stepanni o'z xizmatchim Sofyani olib kelishga yuboraman. U xotin o'g'rimas va uning vajohatiniyam bu qadar jirkanchmas.

– Hozir kayfiyatingiz buzuq. Ertaga kayfingiz o'zgaradi: biror narsani gumonsiraganingiz uchun kishini ishdan haydash mumkinmasligini tushunasiz.

– Men gumonsiraganim yo'q, aniq ishondim, – dedi Zinaida Fyodorovna. – Manavi badbaxt proletarni, sizning malayingizni shubha ostiga olib yurganimda, birorta so'z demadim. Siz menga ishonmaganingiz uchun juda xafa bo'laman, Jorj.

– Agar ikkimiz biror narsa to'g'risida turlicha o'ylarkanmiz, bu – sizga ishonmaslikmas. Mayli gapingiz to'g'ri bo'lsin, – dedi Orlov o'tga o'girilib va popirisini o'tga tashlab, – lekin har holda tashvishga tushishning keragi yo'q. Umuman, ochig'ini aytganda, mening shu kichkina ro'zg'orim sizga bu qadar jiddiy tashvish va besaranjomlik solishini kutmagandim. Bir dona tilla tangangiz yo'qolibdi, sadqayi sar, mendan yuz tilla olmaysizmi, lekin uyda-gi tartibni o'zgartirish, ko'chadan yangi xizmatkor xotin olish va to uyga o'rganguncha kutib yurish, bu hammasi uzoq, ko'ngilsiz va mening xarakterimga to'g'ri kelmaydi. Bizning hozirgi xizmatchi xotinimiz, to'g'risi, semiz va ehtimol qo'pol, ro'mol singari narsalarni olar ham, lekin juda odobli, intizomlidir, uni Kukushkin chimchilab olsayam chinqirmaydi.

– Xullasi, siz undan ajralgingiz kelmaydi... Shunday deb qo'yaqoling.

– Siz rashk qilyapsizmi?

Zinaida Fyodorovna uzil-kesil:

– Ha, men rashk qilyapman! – dedi.

– Tashakkur.

– Ha, men rashk qilaman! – deb takrorladi xonim va ko‘zlariga yosh oldi. – Yo‘q, bu rashkmas, rashkdan ham battar... Nomini aytishga qiynalib turibman. – Xonim ikki chakkasini ushlab, qizishib davom etdi: – Siz, erkaklar, shu qadar iflos bo‘lasizlar! Bu mudhishdir!

– Bu o‘rinda, hech bir mudhish narsa yo‘q.

– Men ko‘rganim yo‘q, bilmayman, lekin aytadilarki, siz, erkaklar yoshlikdayoq ishni xizmatkor xotinlardan boshlaysizlar-da, so‘ng shunga odatlanib qolib, hech qanday jirkanish sezmaymiz. Men bilmayman, bilmayman, lekin hatto o‘qiganman... Jorj, sen, albatta, haqlisan, – dedi xonim Orlovning yoniga kelib va gapni erkalanish va yolborish ohangiga solib, – chindan ham bugun mening kayfiyatim buzuq. Lekin sen tushunishing kerakki, mening boshqa ilojim yo‘q. U xotindan men jirkanaman va qo‘rqaman. Uni ko‘rish menga og‘ir.

Orlov hayronlik bilan yelkalarini qisib va kamin yonidan siljib:

– Nahotki, siz shunday mayda-chuydalardan yuqori turolmaysiz? Axir, bundan osoni yo‘q: uni ko‘rmagan kishi bo‘lib yuravering, shunday qilsangiz, undan jirkanmaysiz ham, arzimagan narsaga bir talay mojaro ko‘tarishingiz ham kerak bo‘lmay qoladi, – dedi.

Men kabinetdan chiqib ketdim, shuning uchun Orlovning qanday javob eshitganini bilmayman. Lekin nima bo‘lmasin, Polya biznikida qoldi. Shundan so‘ng Zinaida Fyodorovna Polyaga hech ish buyurmaydigan bo‘ldi, aftidan, uning xizmatidagi kun kechirishga urinardi. Agar Polya unga biror narsa uzatib qolsa yoki hatto bilaguzuklarini jingillatib, etaklarini shuvillatib yonboshidan o‘tib qolsa ham, xonim bir seskanib tushardi.

Men o‘ylaymanki, agar Gruzin yoki Pekarskiy Orlovdan Polyani bo‘shatib yuborishni so‘raganlarida edi, u ikkilanmasdan, izoh berib o‘zini qiynab ham o‘tirmasdan darrov bo‘shatib yuborardi; u barcha beparvo kishilar singari gapga ko‘nadigan edi. Biroq Zinaida Fyodorovnaga bo‘lgan munosabatlarida u nechundir hatto eng mayda masalalarda ham tentaklikkacha yetkazib o‘jarlik qilardi. Men bilib

turardim: agar biror narsa Zinaida Fyodorovnaga yoqqan bo'lsa, albatta, Orlovga yoqmaydi. Xonim do'kondan qaytib, yangi kiyimlarini unga ko'rsatib maqtansa, u ko'z qiri bilan qarab qo'yardi-da, kvartirada qancha ortiqcha narsa bo'lsa, havo shuncha kam bo'ladi, deb sovuq javob qaytarardi. Ba'zan biror yoqqa borish uchun tayyorlanib, yaxshi kostyumlarini kiyib va Zinaida Fyodorovna bilan xayrlashib bo'lib, birdan o'jarlik qilib uyda qolardi. Shunday chog'da menga u o'zini faqat baxtsiz deb sezish uchun uyda qolgan-day ko'rinardi.

Zinaida Fyodorovna esa yasama qayg'u bilan va ayni zamonda xursandligi ichiga sig'may so'rardi:

– Nima uchun bormay qoldingiz? Nega? Siz kechqurunlari uyda o'tirmaslikka o'rganib qolgansiz, mening uchun o'z odatlaringizni o'zgartirishingizni istamayman. Men o'zimni gunohkor sezib o'tirmasligim uchun, istasangiz, marhamat qilib boravering.

– Birov sizni gunohkor qilyaptimi? – derdi Orlov.

Mojaro qurboni qiyofasida o'z kabinetidagi oromkursiga yalpayib o'tirib, ko'zini qo'li bilan to'sib, kitob o'qishga tushardi. Lekin tez orada kitob qo'lidan tushib, o'zi oromkursida o'tirgan joyida qo'poldan-qo'pol buralardi va yana ko'zlarini xuddi oftobdan to'sganday to'sardi. Endi u chiqib ketavermagani uchun achinganday edi.

– Kirsam maylimi? – derdi Zinaida Fyodorovna ohista kabinetga kirib. – O'qiyapsizmi? Men esa sog'inib qoldim va bir daqiqaga... sizni ko'rgani kirdim.

Esimda bor, bir kuni kechqurun ham xuddi shunday qo'rqa-pisa kabinetiga kirib kelgandi, ishi o'ngidan kelmadi; xonim Orlovning oyog'i yoniga, gilamga cho'kkaladi, uning jur'atsiz, muloyim harakatlaridan Orlovning avzoyini tushunmagani va qo'rqqani ko'rinib turardi. Orlovga xushomad qilish uchun bo'lsa kerak, xonim qo'rqa-pisa:

– Siz esa hamon o'qib yotibsiz... – deb gap boshladi. – Bilasizmi, Jorj, ishingiz o'ngidan kelishining siri nimada? Siz juda o'qimishli va aqllisiz. Qo'lingizdagi qanaqa kitob?

Orlov javob qaytardi. Bir necha daqiqa jimlikda o'tdi, lekin bu daqiqalar menga juda uzoq tuyuldi. Men mehmonxonada turib, har ikkovini kuzatar, yo'talishga ham qo'rqar edim.

– Men sizga bir nima aytmoqchiydim... – deb qo‘ydi Zinaida Fyodorovna ohista va kuldi. – Aytaymi? Siz balki kularsiz va buni xomxayol dersiz. Gap shundaki, bugun siz uyda men uchun... shu oqshomni men bilan birga o‘tkazish uchun qoldingiz, deb... juda-juda o‘ylagim keladi. Shundaymi? Shunday o‘ylashim mumkinmi?

– O‘ylayvering, – dedi Orlov ko‘zlarini to‘sib. – Faqat mavjud narsalargina emas, yo‘q narsalar to‘g‘risidayam o‘ylaydigan odam haqiqatan baxtlidir.

– Siz uzundan-uzoq bir nima dedingiz, men unchalik tushunmadim. Boshqacha aytganda, baxtli kishilar quruq xayol bilan yashaydilar, demoqchidirsiz? Ha, bu to‘g‘ri. Men kechqurunlari sizning kabinetingizda o‘tirib, xayolan uzoqlarga parvoz qilishni yaxshi ko‘raman... Xayol surmoq yoqimli bo‘ladi... Keling, Jorj, bir-birimizga eshittirib xayol suramiz!

– Men institutda bo‘lmaganman va bu ilmni o‘qimaganman.

– Kayfiyatingiz joyidamasmi? – deb so‘radi Zinaida Fyodorovna Orlovning qo‘lini ushlab. – Ayting, nima uchun? Siz shunday kayfiyatda bo‘lganingizda men qo‘rqaman. Tushunmayman, boshingiz og‘riydimi yoki mendan xafamisiz...

Yana jimlikda bir qancha uzun daqiqalar o‘tdi.

– Nega siz o‘zgarib qoldingiz? – dedi xonim sekingina. – Nima uchun siz Znamenskaya ko‘chasida turgan vaqtimdagiday muloyim va xushchaqchaq bo‘lmaysiz? Uyingizda bir oydan beri yashayman, biroq biz hali birga yashamaganday ko‘rinamiz, hali hech narsa to‘g‘risida durustroq gaplashganimiz ham yo‘q. Har gal siz menga qiziqchilik bilan yoki xuddi muallim singari sovuq va uzun javob qaytarasiz. Qiziqchiliklaringiz ham allaqanday sovuq... Nima uchun siz men bilan jiddiy gaplashmaysiz?

– Men har doim jiddiy gaplashaman.

– Xo‘sh, keling, hozir gaplashaylik. Xudo xayringizni bersin, Jorj... keling?

– Xo‘p, gaplashamiz. Lekin nima to‘g‘risida?

– O‘zimizning turmushimiz to‘g‘risida, kelajak to‘g‘risida gaplashamiz... – dedi Zinaida Fyodorovna xayolchanlik bilan. – Men hamon turmush rejalarini tuzmoqdaman, hamon tuzmoqdaman, shuning uchun o‘zimni juda yaxshi sezmoqdaman! Jorj, men shu savoldan boshlayman: qachon siz xizmatingizni tashlaysiz?

Orlov qo'lini peshonasidan olib, so'radi:

– Nima uchun xizmatni tashlash kerak?

– Sizning qarashlaringiz bilan xizmatda bo'lish yaramaydi. Siz o'z o'ringizdamassiz.

– Mening qarashlarim? – deb so'radi Orlov. – Mening qarashlarim? E'tiqodim va tabiatim bo'yicha men oddiy bir amaldorman. Shchedrin qahramonlaridan. Siz, albatta, meni boshqa biror kishi o'rnida qabul qilasiz, gapim to'g'ri bo'lsa kerak?

– Yana qiziqchilikka olasiz, Jorj!

– Hecham. Xizmatim balki meni qanoatlantirmas, lekin har holda, boshqa biror narsaga nisbatan mening uchun yaxshidir. Men shu xizmatda o'rganib qolganman, odamlar ham xuddi o'zim singari odamlar; men u yerda har holda ortiqchamasman va o'zimni durust sezaman.

– Siz xizmatni yomon ko'rasiz, xizmat sizning ko'nglingizga urgan.

– Shundaymi? Agar men xizmatdan bo'shasam, sizga eshittirib xayol surishga tushib, boshqa bir dunyoga parvoz ursam, sizningcha, o'sha dunyo men uchun xizmatga nisbatan sevimliroq bo'ladimi?

– Menga qarshilik ko'rsatish uchun siz hatto bo'yingizga bo'hton taqishgayam tayyorsiz, – deb xafa bo'ldi Zinaida Fyodorovna va o'rnidan turdi. – Men shu gapni boshlaganim uchun pushaymondaman.

– Nega siz achchiqlanasiz? Siz xizmat etmaganingiz uchun men xafalanayotganim yo'q-ku! Har kishi o'z ta'biga qarab yashaydi.

– Siz o'z ta'bingizcha yashayapsizmi? Siz erkinmisiz? Umr bo'yi o'z e'tiqodlaringizga zid qog'ozlar yozish, – deb davom etdi Zinaida Fyodorovna, ma'yuslik bilan qo'llarini o'ynatib, – boshliqlarga itoat qilish, ularni yangi yil bilan tabriklash, so'ngra qarta, qarta va yana qarta, bundan ham zo'rrog'i esa ko'nglingizga yoqmagan tartiblarga xizmat etish – yo'q, Jorj, yo'q! Bu qadar qo'pol hazil qilmang. Bu mudhishdir. Siz g'oyaviy odamsiz, faqat g'oya uchun xizmat qilishingiz kerak.

– Chindan ham siz meni boshqa biror odam o'rnida ko'ryapsiz, – dedi Orlov uh tortib.

Zinaida Fyodorovna yig'lamsirab gapira ketdi:

– To‘g‘ridan-to‘g‘ri, men sen bilan gaplashishni xohlamayman, deb qo‘yaqoling! Siz mendan jirkanasiz, tamom-vassalom.

– Quloq soling, azizam, – dedi Orlov nasihatimiz, oromkursidan ko‘tarilib turib. – Siz o‘zingiz meni aqlli, o‘qimishli odam deb atadingiz. O‘qimishli odamni yana o‘qitish – faqat buzishdangina iborat. Siz meni g‘oyaviy odam deb ataganingizda nazarda tutganingiz – barcha g‘oyalari kattasidan kichkinasigacha menga yaxshi ma‘lum. Demak, agar men xizmatni va qartani shu g‘oyalardan ustun ko‘rarkanman, ehtimol bunga biror asosim bordir. Bu bir. Ikkinchidan, siz, menga ma‘lum bo‘lishicha, hech qachon hech qanday xizmatda bo‘lmagansiz, shuning uchun davlat xizmati haqidagi fikrlaringizni faqat turli latifalardan va yaramas qissalardan olgan bo‘lishingiz mumkin. Shuning uchun har ikkimiz hozirdan boshlab qat‘iy ravishda shartlashib qo‘ysak, yomon bo‘lmasdi: ko‘pdan beri bizga ma‘lum narsalar to‘g‘risida yoki biz bexabar narsalar to‘g‘risida minba‘d gapirmaylik.

Zinaida Fyodorovna qo‘rqib ketganday orqaga chekindi:

– Nima uchun siz men bilan bu xilda gaplashyapsiz? Nima uchun? Jorj, Xudo xayringizni bersin, o‘ylab ko‘ring!

Xonimning tovushi qaltirab turib, o‘chib qoldi: xonim, aftidan, ko‘z yoshlarini tiyib turmoqchi edi-yu, lekin birdan ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Jorj, azizim, sho‘rginam quridi! – dedi xonim fransuzchalab va shoshib Orlov huzurida cho‘kkalab, boshini uning tizzasiga qo‘ydi. – Men azob chekib, charchab, tolib, tamom bo‘ldim, toqatim qolmadi... Bolaligimda yomon ko‘rganim – buzuq o‘gay ona qo‘lida edim, so‘ng erim, endi siz... siz... Siz mening devonavor muhabbatimga istehzo va sovuqlik bilan javob qaytarmoqdasiz... Buning ustiga, yana bu qo‘rqinchli, behayo xizmatchi xotin! – davom etdi xonim yig‘lab. – Ha, ha, men ko‘rib turibman: men sizga xotinmas, do‘st hammas, muhabbat qo‘ygani uchun hurmatsiz bo‘lib turgan bir ayol... Men o‘zimni o‘ldiraman!

Bu so‘zlar va bu yig‘i Orlovga bunchalik kuchli ta‘sir etishini kutmagandim. U qizarib ketdi, o‘tirgan joyida besaranjomlanib qimirladi va uning yuzida istehzo o‘rniga betayin, bolalarcha qo‘rquv ko‘rindi. U o‘zini yo‘qotib, xonimning sochlarini va yelkalarini silab:

– Jonginam, gaplarimga tushunmabsiz, Xudo haqi, kechiring meni, o‘tinaman. Nohaq xafa qilibman... o‘zimdan nafratlaman, – deb g‘o‘ldiradi.

– Men o‘zimning shikoyatlarim va nolishlarim bilan sizni ranjitmoqdaman... Siz nomusli, oliyjanob... noyob odamsiz, men bunga har lahzada iqorman, lekin meni shu kunlarda qayg‘u-hasrat azobladi...

Zinaida Fyodorovna Orlovni mahkam quchoqladi va uning yuzidan o‘pdi.

– Faqat yig‘lamang, o‘tinaman, – dedi Orlov.

– Yo‘q, yo‘q... Men endi yig‘lab to‘ydim, ancha yengillashib oldim.

Orlov o‘tirgan joyida hamon bezovta qimirlab turib:

– Xizmatchi xotinga kelganda esa ertagayoq uydan yo‘qolsin... – dedi.

– Yo‘q, qolaversin, Jorj! Eshitdingizmi? Men endi undan qo‘rqmayman... Mayda-chuydadan yuqori turish kerak va ahmoqona gaplarni o‘ylash kerakmas. Siz haqsiz! Siz – noyob... favqulodda odamsiz!

Ko‘p o‘tmay xonim yig‘idan to‘xtadi. Kipriklarining ho‘lini ham artmay, Orlovning tizzasida o‘tirib, ohista tovush bilan unga bolalik va yoshlik xotirotlariga o‘xshash ta’sirli bir voqeani gapirib, qo‘li bilan uning yuzlarini silar, o‘par va uning uzuk taqilgan qo‘llarini hamda zanjirli jevakchani tomosha qilar edi. Xonim o‘zining gapiga, sevgan kishining yaqinligiga berilib ketgan bo‘lsa kerak, boyagina to‘kkan ko‘z yoshlari yuragini bo‘shatib, g‘uborini ketkazganidanmi, nihoyatda yoqimli va samimiy gapirardi. Orlov esa xonimning oltinday sochlarini o‘ynar va labini ohista tekkizib, uning qo‘llarini o‘pard.

So‘ng kabinetda choy ichishdi va Zinaida Fyodorovna qandaydir xatlarni tovush chiqarib o‘qib berdi. Soat birga bong urganda uxlagani chiqib ketdilar.

Shu kechasi mening biqinim qattiq og‘ridi, tong otguncha isinolmasdan va uxlolmasdan chiqdim. Orlovning yotoqxonadan chiqib o‘z kabinetiga ketganini ham eshitib yotgandim. Kabinetida bir soatcha o‘tirgandan so‘ng, qo‘ng‘iroq chalib meni chaqirdi. Og‘riqdan va charchoqdan dunyo yuzidagi barcha rasm-rusm va odob qoidala-

rini unutib, kabinetga birgina ichki kiyimda va oyoqyalang kirdim. Xalat kiygan va boshiga tungi qalpog'ini qo'ndirgan Orlov eshik og'zida meni kutib turmoqda edi.

– Seni chaqirganda kiyinib kelishing kerak, – dedi u qat'iy. – Boshqa sham keltirib ber.

Men kechirim so'ramoqchi edim, lekin birdan qattiq yo'talim tutib qoldi va yiqilib ketmaslik uchun bir qo'lim bilan eshik yondorini ushlab qoldim.

– Kasalmisiz? – deb so'radi Orlov.

Tanishganimizdan beri endi u birinchi marta meni sizlagan bo'lsa kerak. Xudo biladi, nima uchun sizladi ekan. Ehtimol, ichki kiyim bilan va yo'taldan o'zgarib ketgan qiyofam bilan men o'z rolimni yomon o'ynagan va malayga uncha o'xshamay ketgan bo'lsam kerak.

– Kasal bo'lsangiz, nima uchun xizmatga kirdingiz? – so'radi u.

– Ochdan o'lmaslik uchun, – deb javob qaytardim.

Orlov o'z stoli yoniga keta turib, asta g'o'ldiradi:

– Obbo, bunchayam razolat ko'p ekan!

To kamzulimni kiyib, shamdonga yangi sham o'rashtirib va yondirib kelgunimcha, u stol yoniga o'tirib, oyoqlarini oromkursiga uzatib, kitob o'qish bilan shug'ullandi.

Mutolaaga sho'ng'ib ketgach, men chiqdim, endi uning qo'lidan kitob allamahalgacha tushmasdi.

VII

Shu satrlarni yozib turganimda, menda bolalikdan tarbiyalangan ta'sirchanlikdan kulgi bo'lishdan hayiqish qo'limdan ushlab qolmoqda; erkalatgim va shirin so'zlar aytgim kelib turgan paytda men samimiy bo'lolmayman. Xuddi mana shu hayiqish va odatlanmaganim vajidan men o'sha mahalda yuragimda nimalar bo'lganini ochiq-oydin tasvirlab berolmayman.

Men Zinaida Fyodorovnaga oshiq bo'lmagandim. Lekin mendagi oddiy insoniy tuyg'u Orlovning sevgisiga nisbatan ancha yangi va quvonchli edi.

Ertalabki chog'lar etik cho'tkasi yoki supurgi bilan ishlab turganimda, qachon xonimning ovozi yoki qadamini eshitarkinman, deb yuragim ezilardi. Xonim qahva ichgan va nonushta qilgan

chog'da undan ko'z uzmay qarab turish, dahlizda po'stinchasini uzatish va kichkina oyoqchalariga kalish kiydirib qo'yish (kalish kiydirganimga, xonim mening yelkamga suyanib turardi), so'ngra qachon darbon pastdan qo'ng'iroq chalib, xonimning kelganidan xabar berarkin, deb intizorlik bilan kutish, sovuqdan qip-qizargan, muzdek, xuddi qordan upa qo'yilganday yuzlariga ro'para bo'lib, eshik oldida kutib olish, sovuq yoki izvoshchi haqida entikib gapirgan tovushlarini eshitish – bularning barchasi men uchun naqadar muhim ekanini bilsangiz edi! Men bironi yaxshi ko'rib qolishni, o'z oilamga ega bo'lishni va bo'lajak xotinimning ham shunday yuzi, shunday tovushi bo'lishini istardim. Men bu to'g'rida ovqat chog'ida ham, meni biror yoqqa yuborganlarida ko'chada ham, tunda uxlamagan chog'larimda ham xayol surardim. Orlov ayollarning latta-puttalarini, bolalarni, oshxona, mis kastyullarni jirkanish bilan o'zidan nariroqqa otib tashlardi, men esa bu narsalarning barchasini yig'ishtirar, orzu bilan ardoqlar, sevar, taqirdan o'tinar edim va mening xayolimda xotin, bolalar bo'lmasi, bog'chadagi so'qmoqlar, uy... jonlanib ko'rinardi.

Agar men xonimni sevib qolsam, u ham meni sevib qolishini xayolimga ham keltirolmasdim, lekin bu mulohaza meni bezovta qilmasdi. Mening odatdagi mehribonlikka o'xshagan odobli va mu'loyim sezgimda Orlovga nisbatan na rashk, na hasad bor edi. Chunki men singari mayib odamning shaxsiy baxtiyorligi faqat xayoldagina bo'lishi mumkinligini tushunardim.

Zinaida Fyodorovna kechalari Jorjga ko'z tikib kitob sahifalarini varaqlamasdan, harakatsiz tikilib o'tirgan chog'larda yoki uydanda Polya yurib o'tgani uchun cho'chib, rangi oqarib ketgan chog'larda men unga qo'shilib iztirob chekardim va shu og'ir dardni tezroq davolash kerak, tezroq shunday bir ish qilish kerakki, bu uyda payshanba kunlari kechlik vaqtida gapiriladigan hamma gaplarni xonim bilishi kerak, degan fikrlar xayolimga kelardi, lekin buni qanday amalga oshirish kerak? Borgani sari ko'proq ko'z yoshlarini ko'rishga to'g'ri kelardi. Birinchi haftalarda xonim, hatto Orlov uyda bo'lmagan chog'larda ham kulib va qo'shiq aytib yurardi, lekin ikkinchi oyga o'tgandan so'ng uyimizni g'amginlik bosib qoldi, bu g'amginlik faqat payshanba kunlari buzilardi.

Samimiy bo'lmagan bir jilmayishi yoki o'pishi uchun xonim Orlovga turli xushomadlar qilar, huzurida tiz cho'kar, xuddi kuchukcha singari surkalar edi. Xonimning yuragiga qil sig'may turgan bo'lsa ham, lekin oyna yonidan o'tayotganda o'ziga bir qarab qo'ymasdan, sochlarini tuzatmasdan o'tolmasdi. Xonimning hamon yasan-tusanlarga qiziqishi va sotib olgan narsalariga o'zida yo'q xursand bo'lishi menga g'alati tuyulardi. Bu narsalar uning chinakam g'amginligiga yarashmasdi. Xonim so'nggi urfni kuzatib borar va o'zi uchun qimmatbaho ko'ylaklar tiktirar edi. Kim uchun va nima uchun? To'rt yuz so'mga tushgan bir yangi ko'ylak hamon esimdan chiqmaydi. Bizning kundalik yollanib ishlovchi ayollarimiz o'z yonlaridan ovqat yeb, bajargan og'ir mehnatlari uchun bir tanga pul olganlari chog'da, Venetsiya va Bryusseldagi uqa to'quvchi ayollarga kuniga faqat yarim frankdan haq to'lab, qolganini buzuqlik bilan topadilar, deb qo'yilgan chog'da, ortiqcha va keraksiz bir ko'ylakka to'rt yuz so'm to'lash insofdan emasdi; Zinaida Fyodorovna ham bu narsaga tushunmaganiga hayron qolardim va menga alam qilardi. Lekin xonim uydan chiqib ketishi bilanoq, men hamma narsani kechirar, hamma narsani bir sabab bilan izohlar va pastki qavatdan darbonning qo'ng'iroq chalishini, ya'ni xonimning qachon kelishini kutib o'tirar edim.

Xonim menga malay, zoti past degan tarzda muomala qilardi. Itni silash va ayni zamonda unga beparvo bo'lish mumkin; menga ish buyurishar, so'roqlashar, lekin mening borligimga ahamiyat berishmas edi. Uy egalari men bilan keragidan ortiqcha gaplashishni odobsizlik deb bilishar; agar men tushlik vaqtida xizmat qilib turib, gapga aralashsam yoki kulib yuborsam, albatta, meni jinniga chiqarishar va ishdan bo'shatib yuborishar edi. Biroq har holda Zinaida Fyodorovna menga iyibroq muomala qilardi. Meni biror joyga jo'natib turganday yoki yangi lampa bilan qanday muomala qilishni tushuntirganda va shunga o'xshash biror vaziyatda uning yuzlari odatdan tashqari ochiq, mehr-shafqatli bo'lar, ko'zlari to'ppato'g'ri mening yuzimga tikilar edi. Shu mahallarda har safar menga xonim Znamenskaya ko'chasiga xat tashib yurganlarimni minnatdorlik bilan xotirlaganday ko'rinardi. Xonim qo'ng'iroq jiringlatib meni chaqirgan vaqtlarida meni xonimning jazmani deb bilgan va shuning uchun yomon ko'rgan Polya zaharxanda qilib:

– Yugur, seni o‘zingniki chaqiryapti, – derdi.

Zinaida Fyodorovna menga past nazar bilan qarar va bu uyda o‘zidan boshqa xo‘rlangan inson yo‘q deb gumon qilar edi. Men malay bo‘lsam ham, uning firoqida kuyayotganimni va har kuni o‘zimdan yigirma martalab, kelajakda xonimning holi nima kechadi va bu ishlar nima bilan tamom bo‘ladi, deb so‘raganimni bilmasdi. Ishlar kun sayin sezilarli ravishda yomonlashmoqda edi. Bir kecha xizmat to‘g‘risida gaplashganlaridan keyin, ko‘zyoshlarni yomon ko‘ruvchi Orlov xonim bilan ortiqcha gaplashishdan cho‘chib qoldi. Agar Zinaida Fyodorovna tortishib yoki yolvorib qolsa, yoki yig‘lamoqchi bo‘lsa, Orlov darrov biror bahona topib o‘z kabinetiga kirar, yoki butunlay uydan chiqib ketardi. Orlov borgan sari uyda kamdan-kam tunar va uyda undan ham kamroq tushlik qilar edi. Payshanba kunlari u endi o‘z o‘rtoqlaridan biror yoqqa olib borishlarini so‘rardi. Zinaida Fyodorovna avvalgiday o‘z oshxonasi, yangi kvartira va chet ellarga sayohat to‘g‘risida orzu qilar, lekin orzulari orzuligicha qolmoqda edi. Tushlikni restorandan keltirardilar, kvartira masalasini Orlov to chet eldan qaytib kelguncha qo‘zg‘amaslikni so‘radi, sayohatga esa to sochlari uzunroq o‘smaguncha chiqish mumkin emasligini, chunki uzun sochsiz mehmonxonama-mehmonxona yurish va g‘oyaga xizmat etish mumkin emasligini aytdi.

Buning ustiga, Orlovning yo‘qligida kechqurunlari uyimizga Kukushkin kelib turadigan bo‘lib qoldi. Uning avzoyida biror narsa sezilmasa-da, biroq bir mahal Zinaida Fyodorovnani Orlovdan tortib olish to‘g‘risidagi gaplarini esimdan chiqarolmasdim. Kukushkinga choy va qizil musallas ichirardik, u hiqillab kular va yoqimli bir narsa aytmoqchi bo‘lib, fuqarolik nikohi har jihatdan cherkov nikohidan afzal turadi, asliga qaraganda, hozir barcha insofli odamlar Zinaida Fyodorovna huzuriga kelib, uning oyog‘iga ta‘zim qilishlari kerak, der edi.

VIII

Yangi yil arafasi zerikarli, birorta yomon ish bo‘ladiganday, dilgiriklik bilan o‘tdi. Yangi yil arafasida, ertalab qahva ichib turganda, Orlov to‘satdan o‘zining mehnat ta‘tiliga ketayotganini, boshliqlar uni allaqaysi bir gubernani taftish etib turgan senator yoniga ayrim topshiriqlar bilan jo‘nayotganini e‘lon qildi.

– Borgim yo‘q, lekin hech qanaqa bahona topolmay qoldim! – dedi u afsuslanib. – Jo‘nash kerak, hech iloji yo‘q.

Bu yangilikni eshitib, bir nafasda Zinaida Fyodorovnaning ko‘zlari qizarib ketdi.

– Ko‘p vaqtgami? – deb so‘radi xonim.

– Besh kunga.

– Men ochig‘ini aytsam, sening yo‘lga chiqishingdan xursandman, – dedi xonim biroz o‘ylab, – ko‘ngling ochilib keladi. Yo‘lda birortasiga xushtor bo‘lib, so‘ngra menga so‘zlab berarsan.

Xonim Orlovni hech bir qismaganini va u o‘z xohishicha ish ko‘rishi mumkin ekanini har bir qulay fursatda bildirib o‘tishga urinardi. Lekin oq iplar bilan tikilgan, baxyasi ochiq ko‘rinib turgan bu sodda siyosat hech kimni aldolmas, faqat Orlovning erkin emasligini yana bir marta eslatib o‘tardi.

– Men bugun kechqurun jo‘nayman, – dedi u va gazeta o‘qishga tutindi.

Zinaida Fyodorovna uni vokzalga kuzatmoqchi bo‘ldi, lekin u, men Amerikaga ketayotganim yo‘q va besh yilgamas, faqat besh kunga, hatto undan ham ozga ketyapman, deb xonimni qaytardi.

Soat yettidan so‘ng xayrlashdilar. Orlov xonimni bir qo‘li bilan quchoqlab, peshonasidan va lablaridan o‘pdi.

– Aqlli bo‘l, mensiz zerikib qolma, – dedi u muloyim va samimiy ohangda. – Seni Yaratganning O‘zi asrasin!

Uning bu so‘zlari menga ham ta‘sir qildi.

Xonim uning chehrasini esda mahkamroq saqlab qolish uchun yuzlariga astoydil termuldi, so‘ng muqom bilan bo‘ynidan quchoqlab, boshini uning ko‘kragiga qo‘ydi.

– O‘rtamizda o‘tgan anglashilmovchiliklar uchun kechirgin, – dedi xonim fransuzchalab. – Agar er-xotin bir-birini sevsa, janjalsiz turolmaydi, men esa seni telbalarcha sevaman. Esingdan chiqarma... Tez-tez telegrafdan yozib tur.

Orlov xonimni yana bir marta o‘pdi-da, hech so‘z aytmasdan, tashvish bilan uydan chiqdi. Uy eshigi bekilgach, u zinapoyaning o‘rtasida to‘xtab, sarosimalanib, yuqoriga qaradi. Menga tuyulishicha, shu vaqtda agar yuqoridan birorta tovush eshitilganda edi, u qaytib, uyga kirardi. Lekin tinchlik edi. U shinelini tuzatdi-da, qat‘iyatsizlik bilan pastga tusha boshladi.

Ko'cha eshigi oldida ko'pdan izvoshchilar kutmoqda edi. Orlovning o'zi bir izvoshga o'tirdi, men esa chamadonlar bilan ikkinchi izvoshga o'tirdim. Sovuq qattiq edi, chorraha joylarda gulxanlar tutamoqda edi. Izvoshning tez yugurishidan sovuq shamol yuzlarimni va qo'llarimni achitar, nafasimni bo'g'ar edi, men ko'zlarimni yumib, o'ylardim: xonim naqadar oliyjanob bir xilqat! Naqadar yaxshi ko'radi! Hozirgi vaqtda hatto keraksiz narsalarni ham hovlima-hovli yig'ishtirib, uni yaxshi niyatlar bilan sotishmoqda, singan oyna ham yaxshi matoh hisoblanmoqda, lekin chiroyli, yosh, aqlli va odobli ayolning muhabbati kabi qimmatbaho, noyob bir matoh bekordan-bekorga nobud bo'lmoqda. Qadimgi bir jamiyatshunos har qanday ahmoqona muhabbatga ham bir kuch sifatida qaragan va bu kuchni ustalik bilan yaxshi tomonga yo'naltirish mumkinligini aytgan. Bizda esa oliyjanob, go'zal bir muhabbat tug'ilishga tug'iladi-yu, lekin hech yoqqa yo'naltirilmaydi, anglanmaydi va qabihlik orqasida bir ojizlik sifatida halok bo'ladi. Nechun shunday?

Izvoshchilar kutilmaganda to'xtadilar. Men ko'zimni ochdim va biz Sergiyevskaya ko'chasida Pekarskiy yashaydigan katta uy oldida turganimizni ko'rdim. Orlov chanadan tushib, uyga kirib ketdi. Besh daqiqadan so'ng eshik og'zida Pekarskiyning boshyalang xizmatkori ko'rindi va sovuqdan qaltirab turib, menga qichqirdi:

– Qulog'ing karmi? Izvoshchilarning javobini berib, o'zing yuqoriga chiq. Chaqirishyapti!

Hech narsa tushunmasdan, men ikkinchi qavatga ko'tarildim. Men Pekarskiyning kvartirasida ilgari ham bo'lgandim, ya'ni dahlizda turib, ichkari zalni ham ko'rgandim. Nam va qorong'i ko'chadan kirganimda har gal bu kvartira o'zidagi surat romlari, bronzalar va qimmatbaho uy jihozlarining yarqirashi bilan meni hayratda qoldirdi. Endi men mana shu yarqiragan zalda Gruzinni, Kukushkinni va birozdan so'ng Orlovni ko'rdim.

– Gap bunday, Stepan, – dedi u mening yonimga kelib, – men bu yerda juma yoki shanba kungacha qolaman. Agar xat va shoshilinch noma kelsa, har kuni shu yerga keltirib ber. Uyga borgach, albatta, mening jo'nab ketganimni va salom aytganimni bildirasan. Xudo oq yo'l bersin.

Uyga qaytib kelganimda, Zinaida Fyodorovna mehmonxonadagi so‘richada yotib, nok yemoqda edi. Qandilda faqat bir sham yonmoqda edi.

– Poyezdga kechikmadingizmi? – deb so‘radi Zinaida Fyodorovna.

– Kechikmadik. Salom aytishni buyurdilar.

Men ham o‘z malayxonamga kirib yotdim. Qiladigan ishim yo‘q edi, kitob o‘qigim ham kelmasdi. Men ajablanmas, achchiqlanmas, faqat Orlovning bu aldanchiligi nimaga kerak bo‘lganini tushunish uchun o‘z aqlimni yugurtirmoqda edim. Axir, bu yo‘sinda faqat o‘spirinlar o‘z mahbubalarini aldaydi, xolos. Nahotki, ko‘p kitob o‘qigan va ko‘p narsaga aqli yetadigan odam bundan ko‘ra bama‘nirq biror narsa o‘ylab topolmadi? E‘tirof etishim kerakki, men uni aql-farosati joyida deb bilardim. Agar unga o‘z vazirini yoki boshqa bir kuchli odamni aldash zarur bo‘lganda, u, albatta, ancha kuch va mahorat sarf qilgan bo‘lardi, lekin hozir esa bir ayolni aldash uchun, aftidan, u kallasiga dastlab kelgan narsani ishlata qolgan; aldash muvaffaqiyatli chiqsa – yaxshi, chiqmasa – hechqisi yo‘q, ikkinchi marta ham bosh qotirib yurmasdan, xuddi shunday oson va tez yolg‘onlash mumkin.

Yarim kechasi, yuqorigi qavatda, yangi yilni qarshilab, stullarni surishib, «Ura!» deb qichqirib bo‘lganlaridan so‘ng, Zinaida Fyodorovna kabinet yonidagi bo‘lmadan menga qo‘ng‘iroq chaldi. Xonim yotaverib bo‘shashgan holda stol yonida o‘tirar va bir parcha qog‘ozga nimadir yozar edi.

– Shoshilinchnoma yuborish kerak, – dedi u va jilmaydi. – Tezroq vokzalga boring va bu shoshilinchnomani izma-iz jo‘natishlarini iltimos qiling.

Ko‘chaga chiqqandan so‘ng, men boyagi bir parcha qog‘ozda quyidagini o‘qidim: «Yangi yil, yangi baxt bilan tabriklayman. Tezroq telegrafdan yoz, juda sog‘inib ketdim. Go‘yo asrlarcha vaqt o‘tdi. Telegraf orqali minglab bo‘sa va yuragimni yuborish mumkin bo‘lmaganiga achinaman. Vaqting xush o‘tsin, quvonchim. Zina.»

Men bu shoshilinchnomani jo‘natib, ertasiga erta bilan tilxatni topshirdim.

IX

Hammasidan yomoni, Orlov o'ylamay-netmay, Polyaga ham o'z aldanchiligining sirini bildirib, unga Sergiyevskaya ko'chasiga ko'ylak keltirib berishni buyurdi. Shundan keyin Polyaga Zinaida Fyodorovnaga men tushunmagan bir nafrat va zaharxandalik bilan qarar, quvonchidan o'z bo'lmasida ham, dahlizda ham piqirlab kulardi.

– Bas endi, izzatniyam bilish kerak! – derdi u shodlik bilan. – O'zing tushunishing kerak...

U Zinaida Fyodorovna bizning uyda uzoq yashamasligini sezar, fursatni qo'ldan bermaslik uchun ko'ziga nima ko'rinsa – atir shishalar, toshbaqa kosasidan yasalgan sochto'g'nog'ichlar, ro'mollar, boshmoqlargacha o'g'irlardi. Yangi yilning ikkinchi kuni Zinaida Fyodorovna meni o'z bo'lmasiga chaqirib, menga pichirlab, qora ko'ylagi yo'qolganini xabar qildi. So'ng oppoq oqargan, cho'chigan va achchiqlangan holda hamma bo'lmalarni kezib, o'z-o'zi bilan gaplashib yurdi:

– Qanday ish bu? Yo'q, bu qanday ish? Axir, bu quloq eshitmagan sharmandalik-ku!

Tushlik vaqtida xonim o'ziga sho'rva quymoqchi edi, lekin qo'llari qaltirab quyolmadi. Xonimning lablari ham titrardi. U titroqning bosilishini kutib dam sho'rvaga, dam somsaga noiloj tikilib turdi-da, chidab turolmasdan birdaniga Polyaga qaradi:

– Siz, Polyaga, chiqib ketishingiz mumkin, – dedi xonim. – Stepan bir o'zi tursa bas.

– Mayli, men ham turaveraman, – deb javob qaytardi Polyaga.

– Bu yerda turishingizning hojati yo'q. Siz bu uydan butunlay keting... Butunlay! – deb davom etdi Zinaida Fyodorovna, kuchli hayajon bilan o'rnidan turib. – O'zingizga boshqa ish topishingiz mumkin. Hozir chiqib keting!

– Boyvachchaning buyrug'isiz ketolmayman. Meni ishga olgan boyvachcha. U kishi nima buyursalar, shu bo'ladi.

– Men ham sizga buyuraman! Men bu uyning bekasiman! – dedi Zinaida Fyodorovna va qip-qizarib ketdi.

– Ehtimol, siz bekayamdirsiz, lekin meni ishdan faqat boyvachcha bo'shatoladi. Meni ishga olgan o'sha kishi.

– Siz bir daqiqayam bu yerda qolmaysiz! – deb qichqirdi Zinaida Fyodorovna va lipopchaga pichoq bilan urdi. – Siz o‘g‘ri xotinsiz! Eshitdingizmi?

Zinaida Fyodorovna stol ustiga qog‘ozsochiqni tashlab, kishining rahmi keladigan va azob chekkan bir qiyofa bilan jadal yurib yemakxonadan chiqib ketdi. Polyaxo‘ngra yig‘lab va allanima deb g‘o‘ldirab, u ham chiqib ketdi. Sho‘rva bilan kaklik go‘shiti sovib qoldi. Negadir shu damda menga stol ustida turgan restoran ovqatlari qashshoq, o‘g‘irlab olinganday va Polyaxo‘xshash ko‘rindi. Lipopchadagi ikki somsaning ko‘rinishi eng rasvo va jinoyatkorona edi. Bu somsalar go‘yo shunday derdi: «Bugun bizni restoranga qaytarib olib ketadilar, ertaga esa yana tushlik vaqtida birorta amaldor yoki mashhur ashulachining dasturxoniga qo‘yadilar».

Polyaning xonasidan mening qulog‘imga quyidagilar eshitildi:

– Boyvuchcha xotinning kattaligini qara! Agar men boyvuchcha xotin bo‘laman desam, allaqachon bo‘lardim, lekin nomusim bor! Ko‘ramiz hali, qaysimiz oldin ketarkinmiz! Shunday!

Zinaida Fyodorovna qo‘ng‘iroq chaldi. U o‘z xonasida, burchakda, xuddi jazo berib burchakka o‘tqizib qo‘yilganday o‘tirardi.

– Shoshilinchnoma keltirmadilarmi? – deb so‘radi u.

– Keltirganlari yo‘q.

– Darbondan so‘rab ko‘ring, balki shoshilinchnoma bordir. Lekin uydan chiqib ketib qolmang, – dedi xonim mening orqamdan, – yakka o‘zim qolsam, qo‘rqaman.

So‘ngra men soat sayin pastdagi darbon yoniga yugurib, shoshilinchnoma yo‘qmi, deb surishtirib turdim. Ne balo kun bo‘ldi, ochig‘ini aytganda! Zinaida Fyodorovna Polyani ko‘rmaslik uchun o‘z xonasida tushlik qilar, choy ichar va shu joyning o‘zidayoq «E» harfiga o‘xshash kalta divanda uxlar edi, to‘shagini ham o‘zi yig‘ishtirardi. Dastlabki kunlarda shoshilinchnoma topshirgani men qatnab yurdim, lekin javob kelavermagach, xonim menga ishonmasdan, shoshilinchnoma yuborishga o‘zi boradigan bo‘ldi. Xonimga qarab turib, men ham toqatsizlik bilan shoshilinchnoma kutadigan bo‘lib qoldim. Men, Orlov qandaydir biror yolg‘onni o‘ylab topar, masalan, birorta stansiyadan shoshilinchnoma yuborishga buyurar, deb umid qilgandim. Agar u qarta o‘ynashga juda ham berilib ketmagan yoki boshqa birorta xotinga xushtor bo‘lib qolmagan bo‘lsa, deb

o'ylardim, u chog'da, albatta, Gruzin va Kukushkin biz to'g'rimizda uning esiga solib qo'yishar. Lekin biz behuda kutardik. Barcha haqiqatni ochiq aytib berish uchun men kuniga besh marta Zinaida Fyodorovnaning yoniga kirardim, biroq xonim menga echkiday termular-di, yelkalari osilib tushgan, lablari allanimalarni shivirlardi, shuning uchun men bir so'z ham aytmadan, qaytib chiqib ketardim. Rahmdillik va shafqat mendagi mardlikni bo'shashtirib qo'yan. Polya parvoyi falak, quvnoqlik va mamnunlik bilan boyvachchani kabinetini, yotoqxonasini yig'ishtirar, shkaflarni titar, idish-tovoqlarni taraqlatar edi, Zinaida Fyodorovnaning eshigi yonidan o'tayotganda esa birorta qo'shiq aytar va yo'talib ketardi. Xonimning yashirinishi o'tirishi Polyaga yoqardi. Kechqurun Polya allaqayoqqa ketardi, kechasi esa soat ikki yoki uchda qaytib kelib, qo'ng'iroqni chaldirdi, men unga eshikni ochishim va yo'talim haqida uning tanbehlarini eshitishim kerak edi. Shu ondayoq ikkinchi qo'ng'iroq eshitalardi, men kabinet yonidagi bo'lmaga yugurardim, Zinaida Fyodorovna eshikdan boshini chiqarib so'rardi: «Kim qo'ng'iroq chaldi?» O'zi esa mening qo'limga qarab – shoshilinchnoma yo'qmikin, deganday tikilardi.

Nihoyat, shanba kuni pastki qavatdan qo'ng'iroq chalinib, zina-poyada tanish ovoz eshutilgach, xonim shu daraja quvonib ketdiki, quvonchidan yig'lab yubordi: Orlovni qarshi olishga yugurib bordi va quchoqlab oldi, ko'kraklarini, yenglarini o'pdi va tushunib bo'lmaydigan allanimalarni gapirdi. Darbon chamadonlarni olib kirdi, Polyaning quvnoq tovushi eshildi. Xuddi biron ta'tilga kelganday edi.

– Nima sababdan telegrafdan xabar bermading? – so'radi Zinaida Fyodorovna quvonchidan og'ir nafas olib. – Nima sababdan? Men qiynalib ado bo'ldim, zo'rg'a tirik qoldim... E Xudoyim!

– Sababi juda oddiy! – dedi Orlov. – Senator ikkimiz birinchi kuniyoq Moskvaga jo'nab ketdik, men sening shoshilinchnomalaringni olmadim. Tushlikdan so'ng men, jonginam, bu to'g'rida to'la hisob beraman, hozir esa uxlash kerak, uxlash va uxlash... Vagonda ezilib qoldim.

Tun bo'yi uning uxlamagani ko'rinib turardi: qarta o'ynagan va ko'p ichgan bo'lsa kerak. Zinaida Fyodorovna uni o'rniga yotqizib chiqdi, so'ngra biz hammamiz to'kechgacha oyoq uchida yurdik.

Tushlik juda xotirjamlik bilan o'tdi. Lekin qahva ichish uchun kabinetga kirib ketganlaridan so'ng mojaro boshlandi. Zinaida Fyodorovna allanima to'g'risida tez-tez shivirlab fransuzchasiga gapirib ketdi, uning gaplari xuddi ariqchadagi suvday jildirardi, so'ng Orlovning qattiq uh tortgani va so'zlari eshitildi.

– Voy Xudo! – dedi u fransuzchalab. – Nahotki, mana shu yovuz niyatli xizmatkor xotin to'g'risida doimiy g'ingshishdan boshqa yangiroq gapingiz yo'q?

– Lekin, azizim, bu xotin narsalarimni o'g'irlash ustiga, menga qo'pol gaplar ham gapirdi.

– Ammo nechun o'sha xotin mening narsalarimni o'g'irlamaydi va menga qo'pol so'zlar gapirmaydi? Nima sababdan men hech qachon xizmatchi xotin, qorovul, malay singari odamlarning bor-yo'qligini sezmayman? Jonginam, siz injiqlik qilyapsiz va xarakterga ega bo'lishni istamayapsiz... Men hatto siz homilador bo'lgansiz, deb gumon qilyapman. Men sizga xizmatchi xotinni bo'shatishni taklif etganimda, siz uning qolishini talab qildingiz, endi esa men uni haydab yuborishimni so'rayapsiz. Bunday mahallarda men ham o'jar odamman: injiqlikka men ham injiqlik bilan javob qaytaraman. Siz uning ketishini istasangiz, men qolishini istayman. Bu usul sizni asabiylikdan davolashning birdan-bir usulidir.

– Bas endi, bas! – dedi qo'rqqanidan Zinaida Fyodorovna. – Bu to'g'rida gapni to'xtatamiz... Ertagacha qoldiramiz. Endi menga Moskva haqida gapirib ber... Moskvada nima gap?

X

Ertasi kun – 7-yanvar. Cho'qintirgan ota Yuhanno kuni edi. Orlov nonushtadan keyin qora frak kiyib, nishon taqib, ism qo'yish kuni bilan tabriklash uchun otasining yoniga jo'nashga hozirlandi. Soat ikkida jo'nash kerak edi. Orlov kiyinib tayyor bo'lganda, soat endi bir yarim edi. Yarim soat vaqtni nimaga sarf etish kerak? U mehmonxonada yurar va qachonlardir bolaligida otasiga hamda onasiga o'qigan tabrik she'rlarini ifodali o'qirdi. Tikuvchi xotin uyiga yoki do'konga borishga hozirlangan Zinaida Fyodorovna ham shu yerda o'tirar va unga tabassum bilan quloq solar edi. Bilmadim, o'rtalarida gap nimadan boshlandi, lekin men Orlovga qo'lqopini

keltirib bergan chog'da, u Zinaida Fyodorovna qarshisida turar va mijg'ov, yolborgansimon qiyofada so'zlar edi:

– Xudo haqi, butun avliyo-anbiyolar haqi, allaqachondan beri hammaga ma'lum va mashhur narsalar to'g'risida hech gapirmang! Aqlli-hushli xonimlarimizning, ko'pdan beri hatto gimnaziyachining ham ko'ngliga urgan narsalar to'g'risida ma'nodor bir tarzda jon kuydirib gapirishlarini baxtsizlik deyishdan boshqa iloj yo'q! Oh, agar siz bizning er-xotinlik dasturimizdan barcha mana shu jiddiy masalalarni o'chirganingizda edi, qanday yaxshi ish qilgan bo'lardingiz!

– Biz ayollar o'z shaxsiy fikrimizga ega bo'lishga jur'at etmaymiz.

– Men sizga to'la erkinlik beraman, hammaga bab-baravar bo'ling, istagan mualliflardan o'qiyvering, lekin bir narsaga kelganda menga yengillik bering, mening huzurimda faqat ikki narsa haqida: biri – kiborlar jamiyatining yaramasligi haqida, ikkinchisi – nikoh kamchiliklari haqida so'zlamang. Tushunib olishingiz kerak, axir. Savdogarlar, ruhoniylar, meshchan va mujiklar, turli-tuman Sidor va Nikitalar yashagan tabaqaga qarama-qarshi qo'yish uchun doim kiborlar jamiyatini yomonlaydilar. Har ikkala tabaqayam men uchun jirkanch, lekin agar menga vijdonan har ikkalasidan birini tanlashga taklif etsalar, men hech bir o'ylab o'tirmasdan, kiborlar jamiyatini tanlardim va bu qilmishim aldamchilik va qing'irlik bo'lmasdi, chunki mening tabiatim har jihatdan unga moyildir. Bizning jamiyatimiz ham yaramas, ham qup-quruqdir, lekin biz har holda durustgina fransuzcha gaplashamiz, biror narsa o'qib turamiz va hatto eng qattiq janjallashgan vaqtimizda ham bir-birimizning tumshug'imizga tushirmaymiz. Sidor, Nikitaga o'xshash janobi oliylari o'rtasida esa xunuk-xunuk gaplar, so'kishlar, qovoqxona axloqi va cho'qindilikning to'la bema'nigarchiliklari ko'rinib turadi.

– Mujik va savdogar sizni boqmoqda.

– Xo'p, shunday bo'lsa, nima? Bu ahvol faqat meningmas, ularning ham yomon tomonini bildiradi. Ular meni boqsalar va ikki bukilib ta'zim qilsalar, demak, boshqacha muomala etish uchun ularning aql va farosatlari yetishmasligini ko'rsatadi. Men hech kimni so'kmayman va maqtamayman, aytmoqchi bo'lamanki, kiborlar jamiyati va pastki tabaqa – ikkoviyam yaxshi. Qalbim va aqlim bi-

lan men har ikkovigayam qarshiman, lekin tabiatim kiborlar jamiyatiga moyil. Xo'sh-sh, endi nikohdagi chatoqliklarga kelsak, – deb davom etdi Orlov soatga qarab, – allaqachon tushunishingiz kerak ediki, hech qanday chatoqlik yo'q, hozircha faqat nikohga nisbatan notayin talablar bor. Nikohdan siz nima istaysiz? Qonunlimi-qonunsizmi, yaxshimi-yomonmi, ishqilib, hamma qo'shilish va birga yashashning birgina mohiyati bor. Siz, xonimlar faqat mana shu mohiyat uchun yashaysiz, shu mohiyat sizning joningiz, agar o'sha bo'lmasa, yashashingizning ham ma'nosi bo'lmasdi. Sizga mana shu mohiyatdan boshqa hech narsa kerakmas va siz undan bahra olmayapsiz, lekin turli qissalarni o'qiganingizdan beri, to'g'ridan-to'g'ri bahra olishga uyaliq qoldingiz, shuning uchun siz u tomon-bu tomonga yugurib, boshingizni gangitib erkaklarni almashtirasiz va shu qilmishingizni oqlash uchun nikohdagi chatoqliklar haqida gap ochasiz. Agar siz boyagi mohiyatni, eng katta dushmaningizni, shaytoningizni chetga surishni istamas ekansiz, qullarcha uning so'ziga kiraverarkansiz, bu haqda qanday jiddiy gap ochish mumkin? Siz nimaiki gapirmang, barchasi yolg'on va qing'irlik bo'ladi. Men sizga ishonmayman.

Men izvoshchidan xabar olgan darbon yoniga ketdim, qaytib kelganimda, janjal boshlangandi. Dengizchilar aytganidek, shamol kuchaymoqda edi. Zinaida Fyodorovna mehmonxonada kuchli hayajon bilan yurib:

– Ko'rib turibmanki, siz meni o'z surbetligingiz bilan hayron qoldirmoqchisiz. Gaplaringizni eshitishdan jirkanaman. Xudo va kishilar oldida pokman, tavba qiladigan joyim yo'q: erimning uyidan chiqib, sizning huzuringizga kelganim uchun faxrlanaman. Faxrlanishimning rostligi uchun o'z or-nomusimni shafe keltirib qasamyod etaman, – dedi.

– Xo'p, juda yaxshi!

– Agar siz vijdonli, insofli odam bo'lsangiz, mening qilimshim bilan faxrlanishingiz kerak. Minglab odamlar borki, xuddi men singari ish qilmoqchi bo'lsalar-da, lekin qo'rqqoqlik yoki mayda niyatlar tufayli jur'at etolmaydilar, shuning uchun bu qilimshim meni va sizni minglab shu xil odamlardan yuqori ko'taradi. Lekin siz yaramas odamsiz. Siz ozodlikdan qo'rqasiz va birorta johil odam or-nomusli ekaningizni sezib qolmasin deb cho'chib,

sof yurak intilishlarini kalaka qilasiz. Siz meni o'z oshnalaringizga ko'rsatishdan qo'rqasiz. Siz uchun men bilan birga ko'chada yurishdan yomonroq jazo yo'q... Nima? Shu gapim to'g'rimasmi? Nima uchun siz hozirgacha meni o'z otangizga va o'z jiyaningizga tanishtirmadingiz? Nima uchun? Yo'q, bu ahvol ko'nglimga urib ketdi, axir! – deb qichqirdi Zinaida Fyodorovna va yer tepib qo'ydi. – Men o'z huquqimga tegishli narsani talab etaman. Marhamat etib, meni o'z otangizga tanishtiring!

– Agar sizga otam kerak bo'lsa, o'zingiz tanishavering. U har kuni ertalab soat o'ndan to o'n yarimgacha qabul qiladi.

– Qanday past odamsiz! – dedi Zinaida Fyodorovna umidsizlikdan esankirab. – Basharti, siz shu gapni jo'rttaga gapirgan bo'lsangiz ham, bu muomalangizning qattiqligi uchunoq sizdan nafratlanish mumkin. O, naqadar pastkash odamsiz!

– Biz hamon tevarak-atrofdan aylanib yuribmiz-u, lekin ishning chinakam o'zagidan gaplashmayapmiz. Ishning o'zagi shundaki, siz xato qilgansiz, lekin xatongizni ochiqdan-ochiq bo'yingizga olishni istamayapsiz. Siz meni qahramon sifatida gumon etgansiz va tasavvuringizda mening qandaydir favqulodda g'oya va yuksak maqsadlarim borday ko'ringan, lekin tekshirishda ko'rindiki, men eng rosmana bir amaldor, qarta o'ynovchi qimorbozman va hech qanday g'oya-poyalarga hushim yo'q. Men bo'm-bo'shligi, puchligi va yaramasligidan g'azablanib qochib chiqqaningiz – chirik kiborlar jamiyatining arzanda haromzodasi bo'laman. Siz bo'yingizga oling va adolatli bo'ling: mendan achchiqlanmang, o'zingizdan achchiqlaning, chunki menmas, siz o'zingiz xato qilgansiz.

– To'g'ri, men bo'ynimga olaman: xato qilganman!

– Mana endi juda yaxshi bo'ldi. Eng muhim masala hal bo'ldi, Xudoga shukur. Agar mumkin bo'lsa, endi naryog'iga quloq soling. Men sizning darajangizgacha ko'tarilolmayman, chunki haddan ortiq buzilib qolganman; siz ham mening darajamgacha tuban tusholmay-siz, chunki judayam yuqoridasiz. Demak, faqat birgina chora bor...

Zinaida Fyodorovna chuqur tin olib, birdan qog'ozday oqarib, shoshilib so'radi:

– Nima chora?

– Mantiqni yordamga chaqirish lozim bo'ladi...

– Georgiy, nima uchun meni qiynaysiz? – dedi Zinaida Fyodorovna yig‘lamsiragan tovush bilan birdan ruschalab. – Nima uchun? Mening iztiroblarimni tushunsangiz-chi...

Orlov ko‘zyoshlardan qo‘rqib, shoshganicha kabinetga kirib ketdi va negadir, bilmadim, xonimning ko‘nglini yanada qattiqroq og‘ritmoqchi bo‘ldimi yoki shu xil paytlarda odatda nima qilinishi kerakligini esladimi, eshikni ichkaridan qulflab oldi. Xonim voydodlab, ko‘ylaklarini shildiratib uning ketidan yugurdi.

– Bu qanday qiliq? – deb so‘radi xonim eshikni taqirlatib. – Bu qanday qiliq? – takrorladi xonim ingichka, g‘azabdan uzilib-uzilib turgan tovush bilan. – Hali siz shunaqamisiz? Bilib qo‘yingki, men sizni yomon ko‘raman, sizdan jirkanaman! O‘rtamizda hech narsa qolmadi! Tamom!

Qahqaha aralash chinqirib yig‘lash eshitildi. Mehmonxonadagi stol ustidan kichkina bir narsa tushib ketib, sindi. Orlov kabinetdan ikkinchi eshik orqali dahlizga chiqib, qo‘rqa-pisa atrofiga qarab, shoshilib shinelini va silindrini kiyib, chiqib ketdi.

Yarim soat o‘tdi, bir soat o‘tdi, xonim hamon yig‘lardi. Xonimning otasi ham, onasi ham, qarindoshlari ham yo‘qligi esimga tushdi; xonim bu uyda o‘zini yomon ko‘ruvchi bir odam bilan narsalarini o‘g‘irlovchi Polya o‘rtasida yashaydi – shu jihatdan ham, xonimning turmushi menga juda g‘urbatli bo‘lib ko‘rindi! Nima uchun ekani ni o‘zim ham bilmasdan mehmonxonaga, xonimning yoniga kirdim. Zaif, ko‘maksiz, sochlari chiroyli, mening ko‘zimga latiflik va go‘zallik namunasi bo‘lib ko‘ringan xonim xuddi bemor singari azob tortmoqda edi. U yuzini yashirib, kushetkada yotar va a‘zoyi badani titrar edi.

– Xonim, do‘xtir chaqirib kelaymi? – deb so‘radim ohista.

– Yo‘q, kerakmas... Hechqisi yo‘q, – dedi xonim va menga yoshlangan ko‘zlari bilan qaradi. – Boshim sal og‘riyapti... Rahmat.

Men chiqib ketdim. Kechqurun esa xonim xat ketidan xat yozar va meni dam Pekarskiy yoniga, dam Kukushkin yoniga, dam Gruzin yoniga yuborardi, oxiri qayerga borib bo‘lsa ham Orlovni tezroq topib, unga xat topshirishimni buyurdi. Har gal men xatni qaytarib olib kelganimda, xonim xuddi isitmada alahlaganday goh koyir, goh yolborar, goh qo‘limga pul tutqizar edi. Xonim kechasi bilan uxlamasdan, mehmonxonada o‘tirib, o‘zi bilan o‘zi gaplashib chiqdi.

Ertasi kun Orlov tushlik vaqtida qaytib keldi va ikkovlari yarashdilar.

Bu voqeadan keyingi birinchi payshanba kuniyoq Orlov o'z o'rtoqlariga turmushi o'ta daraja og'ir ekanidan zorlandi; u ko'p chekar va achchiqlanib gapirar edi:

– Bu turmushmas, jon azobi. Ko'z yoshlari, oh-fig'onlar, ma'nodor gaplar, uzr so'rab yolborishlar, yana ko'zyoshi va oh-fig'onlar, natijada esa endi mening kvartiram yo'q, o'zim ham qiyalib ketdim, xonimniyam qiynavordim. Nahot shu ahvolda yana bir yoki ikki oy yashashga to'g'ri kelarkin? Nahot? Axir, shunday bo'lishiyam mumkin!

– Sen xonim bilan gaplashib ko'r, – dedi Pekarskiy.

– Urinib ko'rdim, lekin eplolmadim. Mustaqil, o'z muhokamasiga ega odam bilan har qanday achchiq haqiqatni dadil gaplashish mumkin, biroq bu o'rinda esa irodasiz, xaraktersiz, mantiqsiz bir zot bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Men ko'zyoshlarga chidab turolmayman, ko'zyoshlar meni qurolsizlantiradi. Xonim ko'z yoshi to'kkan chog'da, men abadiy sevaman deb ont ichishga va o'zim ham ko'z yoshi to'kishga tayyorman.

Pekarskiy tushunmadi, o'ylanib, o'zining keng peshonasini qashlab qoldi va bunday dedi:

– Agar sen xonimga alohida kvartira qilib bersang, durust bo'lardi. Axir, bu juda oson-ku!

– Xonimga kvartiramas, men kerakman. Ortiqcha gapning nima hojati bor? – deb uh tortdi Orlov. – Men faqat tuganmas gaplarni eshitaman-u, lekin dardimga hech bir davo ko'rmayman. Chindan ham men gunohsiz gunohkor bo'lib qoldim. Qo'ziqorin bo'lsang, savatga tush. Umr bo'yi qahramonlik rolidan bo'yin tovlab keldim, Turgenev romanlarini yomon ko'rib yurardim, endi birdaniga, xuddi masxara qilganday, haqiqiy qahramon qatoriga qo'shilib qolibman. Chin so'z bilan ishontiramanki, men hech qanday qahramonmasman, men bunga shaksiz dalillar keltiraman, biroq menga ishonmaydilar. Nima uchun ishonmaydilar? Chindan ham mening tashqi qiyofamda birorta qahramonona xislat bo'lsa kerak.

– Siz yana gubernalarni tekshirgani jo'nab ketaqoling, – dedi Kukushkin kulgi bilan.

– To'g'ri, faqat shu chora qoldi, xolos.

Mana shu gapdan bir hafta o'tib Orlov yana uni senator yoniga mehnat ta'tili qilganlarini e'lon qildi va shu kuni oqshomdayoq chadonlari bilan Pekarskiy yoniga jo'nadi.

XI

Ostonada etagi yergacha tekkan uzun po'stin va qunduztel-pak kiygan oltmish yoshlardagi bir chol turardi.

– Georgiy Ivanich uydami? – deb so'radi u.

Dastlab men bu odamni ba'zan Orlov qoshiga Gruzingga berilgan mayda qarzlarni undirish uchun kelib turadigan sudxo'rlardan biri deb o'yladim, lekin u dahlizga kirib, po'stinini yechgandan so'ng, men fotosuratlardan yaxshi tanib olganim – quyuuq qoshlarni va jips yumilgan g'alati lablarni hamda formali frakka taqilgan ikki qator yulduzlarni ko'rdim. Men uni tanidim: bu odam Orlovning otasi, mashhur davlat arbobi edi.

Men unga, Georgiy Ivanich uyda yo'q, deb javob qaytardim. Chol lablarini mahkam qisdi va o'ylanib, menga o'zining qotma, tishsiz chehrasini burdi.

– Men xat yozib qoldiraman, – dedi u. – Meni ichkari uyga kuzat.

U dahlizda kalishini qoldirib, uzun, og'ir po'stinini yechmasdan, kabinetga kirdi. Kabinetda yozuv stoli oldidagi oromkursiga o'tirib qo'liga qalam olishdan ilgari qo'llari bilan ko'zlarini xuddi quyoshdan to'sganday to'sib (avzoyi buzilgan paytlarda uning o'g'li ham xuddi shunday qilardi), uch daqiqacha nima to'g'risidadir o'yladi, uning yuzi qayg'uli, o'ychan bo'lib faqat qari va dindor kishilarning qiyofasida aks etgan itoatkorlik bor edi. Men orqada turib, uning yarg'og'iga va bo'ynining chuqurchasiga tikildim, mana shu zaif, kasal chol shu payt endi mening qo'limda ekani kunduzday ravshan edi. Axir, butun kvartirada mendan va mening dushmanimdan boshqa hech kim yo'q edi. Agar men birozgina jismoniy kuch ishlat-sam, so'ng asl maqsadimni yashirish uchun uning soatini o'g'irlab, orqa eshikdan chiqib qochsam, men malaylikka kirayotganda mo'ljallagan narsamdan ko'proq ish qilgan bo'lardim. Men, bundan ko'ra qulayroq fursat to'g'ri kelavermas, deb o'ylamoqda edim. Le-kin o'ylaganimni amalga oshirish o'miga, men butunlay beparvolik bilan dam uning yarg'og'iga, dam po'stiniga tikilar va bu odamning

yagona o'g'liga bo'lgan munosabatlari haqida, boylik hadam mansab bilan taltaygan kishilarning, ehtimol o'lgisi kelmasligi haqida bafurja o'ylamoqda edim.

– Sen o'g'limnikida ko'pdan beri xizmat qilasanmi? – deb so'radi u, qog'ozga yirik harflar bilan yozib turib.

– Uchinchi oy, janobi oliylari.

U xat yozishni tamomlab, o'rnidan turdi. Men uchun hali ham vaqt bor edi. Men o'zimni shoshiltirar va avvalgi dushmanligimning bir qatrasini bo'lsa ham yuragimdan siqib chiqarishga urinib mushtlarimni qisar edim; yaqindagina men uning naqadar otashin, o'jar va toymas dushmani bo'lganimni esladim... Lekin gugurtni uvalanadigan toshga surib yondirish qiyin edi. Qarigan, g'amgin yuz va yulduzlarning sovuq jilosi menda yer yuzidagi hamma narsaning bebaqoligi, tez kunda o'lish to'g'risida keraksiz fikrlar qo'zg'atdilar.

– Xayr, birodar! – dedi chol va telpagini kiyib, chiqib ketdi.

Menda o'zgarish yuz berganiga shubhalanish mumkin emasdi: men boshqa odamga aylangandim. O'zimni tekshirib ko'rish uchun xotirlay boshladim, lekin shu ondayoq meni vahima bosdi, go'yo men birdan qorong'i, zax bir burchakka ko'zim tushganday bo'ldi. O'z o'rtoqlarimni, tanishlarimni esladim va dastlab, hozir ulardan bi-rortasini ko'rib qolsam, qizarib va o'zimni yo'qotib qo'yaman, deb o'yladim. Men endi kimman? Nima to'g'risida o'ylashim kerak va nima qilishim kerak? Qayerga borayin? Men nima uchun yashay-man?

Men hech narsaga tushunmasdim, faqat bir narsani aniq bilar-dim: tezroq o'z yuklarimni yig'ishtirib, bu uydan ketishim kerak. Uyga chol kelib-ketgunicha mening malayligimda biron maqsad bor edi, endi esa malay bo'lib yurish kulgili edi. Mening ko'z yoshla-rim ochilgan chamadon ichiga to'kilmogda edi, chidab bo'lmas darajada g'am bosmogda edi, lekin yashash istagi zo'r edi! Men o'zimning qisqa umrimga odamzodning kuchi yetadigan barcha nar-salarni sig'dirishga va quchog'imga olishga tayyor edim. Mening ham gapirgim, ham o'qigim, ham biror joydagi katta zavodda bolg'a urib ishlagim, ham vaxtada turgim, ham qo'sh haydadagim kelardi. Ko'nglim Nevskiyga ham, dalalarga ham, dengizga ham, ishqilib, ko'nglimga kelgan har bir joyga tortardi. Zinaida Fyodorovna uyga

qaytgach, men unga eshikni ochishga yugurdim va ayricha bir nazokat bilan uning po'stinini yechdim. Eng so'nggi marta!

Choldan tashqari, shu kun uyimizga yana ikki kishi keldi. Kechqurun, qorong'i tushganda, Orlov uchun allaqanday qog'ozlarni olishga to'satdan Gruzin kirib keldi. U stolni ochib, kerakli qog'ozlarni oldi-da, naycha qilib o'rab, menga berdi va dahlizdagi qalpog'i yoniga qo'yishimni buyurdi, o'zi esa Zinaida Fyodorovnaning yoniga kirib ketdi. Xonim mehmonxonadagi so'richada qo'llarini boshi ostiga qo'yib yotardi. Orlov taftish o'tkazgani jo'nab ketganiga besh yoki olti kun bo'lgan, uning qachon qaytib kelishi hech kimga ma'lum emas, xonim endi shoshilinchnoma yubormas va kutmas edi. Hamon uyda yashovchi Polyani go'yo ko'rmas edi. Xonimning ehtirossiz, juda ham oqarib ketgan yuzlarida men «Mayli!» degan ma'noni o'qir edim. Endi xonim, xuddi Orlov singari, o'jarlikdan baxtsiz bo'lishni istardi. Xonim o'ziga va dunyodagi hamma narsaga achchiq qilib kun bo'yi qimirlamasdan so'richada yotar, o'ziga faqat yomonlik istar va faqat yomonlikni kutar edi. Ehtimol xonim Orlovning qaytib kelishini, u bilan, albatta, janjal bo'lishini, so'ng uning ko'ngli sovishini, xiyonat qilishini, keyin ikkovlarining ajralib ketishlarini tasavvur qilmoqda va balki bu uqubatli fikrlar unga rohat baxsh etmoqda edi. Lekin xonim haqiqatni bilganda, nima qilardi?

– Men sizni yaxshi ko'raman, kelin, – dedi Gruzin salomlashib va xonimning qo'lini o'pib. – Siz juda ochiqko'ngilsiz! Jorjinka esa jo'nab ketib qoldi, – deb yolg'onladi u. – Jo'nab ketdi, berahm!

Gruzin uh tortib o'tirdi va muloyimlik bilan xonimning qo'lini siladi.

– Biror soat yoningizda o'tirishga ruxsat eting, azizam, – dedi u. – Uygaborgim kelmadi. Birshovlarnikiga borishga hali erta. Bugun Birshovlarnikida Katyaning tug'ilgan kuni, juda yaxshi qizcha!

Men unga bir stakan choy va konyak quyilgan grafincha keltirdim. U asta, uncha xohlamasdan choyni ichib bo'ldi-da, stakanni menga uzatib turib, sekin so'radi:

– Og'ayni, oz-moz tamaddi qilish uchun... biror narsangiz yo'qmi? Men hali tushlik qilganim yo'q.

Uyda hech narsa yo'q edi. Men restoranga chiqib, unga odatdagi bir so'mlik tushlikdan keltirib berdim.

– Sizning sog‘lig‘ingiz uchun, azizam! – dedi u Zinaida Fyodorovnaga va ichkilikdan bir qadah ichdi. – Siz ism qo‘ygan kichkina qizim sizga salom aytadi. Boyaqish hozir shirincha kasali bilan og‘rib qoldi! Eh, bolalar, bolajonlar! – deb engil nafas oldi u. – Nimaiki demang, kelin, har holda, lekin ota bo‘lish yoqimlidir. Bu sezgi Jorjinkaga tushunarlimasdir.

U yana ichdi. Ozg‘in, rangi oppoq, ko‘kragiga yosh bolalarning peshbandi singari qog‘ozsochiq tutib olgan Gruzin ishtaha bilan ovqatni yer va qoshlarini ko‘tarib, dam Zinaida Fyodorovnaga, dam menga aybdor boladay termilar edi. Go‘yo ovqat keltirib bermaganimda, u yig‘lab yuborar edi. Qorni to‘ygach, ko‘ngli ochildi va kulgi aralash Birshovlar oilasi haqida nimanidir so‘zlay boshladi, lekin gaplari zerikarli chiqqanini va Zinaida Fyodorovnaning kulmaganini sezib, jimib qoldi. Negadir birdan o‘rtaga dilsiyohlik tushdi. Ovqatdan so‘ng har ikkovlari ham mehmonxonada birgina lampaning yorug‘ida indamay o‘tirishdi: Gruzin uchun yolg‘on gaplarni gapirish og‘ir edi, xonim esa undan allanimani so‘rashni istar, lekin og‘iz juftlolmas edi. Shu ahvolda yarim soat o‘tib ketdi. Gruzin soatga qaradi.

– Endi ketsam ham bo‘lar.

– Yo‘q, o‘tira turing... Gaplashadigan gap bor.

Yana jim bo‘lib qolishdi. Gruzin royal qoshiga o‘tirdi, bir barmoqbosdini bosdi, so‘ng chalib xirgoyi qildi: «Ne hozirlar menga kelajak?» Lekin odati bo‘yicha shu ondayoq o‘rnidan turib, boshlarini silkitdi.

– Biror narsa chalib bering, yoshulli, – deb iltimos qildi Zinaida Fyodorovna.

– Nima chalay? – deb so‘radi Gruzin yelkalarini qisib. – Hammasiniyam esdan chiqarganman. Allaqachonlar tashlab yuborganman.

Go‘yo xotiriga olayotganday, shiftga tikilib, ajoyib bir ohang bilan Chaykovskiyning ikki pyesasini juda yoqimli qilib va juda ustalik bilan chalib berdi. Uning chehrasi har galgiday – ma‘nodor ham emas, bema‘no ham emasdi; razil va iflos sharoitda ko‘rishga o‘rganganim – shu odamning bunchalik yuksak va menga nasib bo‘lmagan yuqori ruhiy ko‘tarinkilikka, shu qadar poklikka ega ekanini menga bir mo‘jizaday ko‘rindi. Zinaida Fyodorovnaning yuziga

qon yugurib va hayajonlanib, mehmonxona ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

– Birpas sabr qing, agar esimga tushsa, sizga bir narsa chalib beraman, – dedi Gruzin. – Men uni violonchelda chalganlarini eshitgandim.

Dastlab sekin-sekin, terma qilib, so'ngra ishonch bilan Sensansning «Oqqush qo'shig'i» asarini chalib yubordi. Chalib bo'lgach, yana bir marta takrorladi.

– Ajoyib-a? – so'radi u.

Hayajonlangan Zinaida Fyodorovna uning yonida to'xtab, so'radi:

– Yoshulli, menga do'stlarcha rostini ayting: men to'g'rimda nimalar o'ylaysiz?

– Nima desam bo'larkin? – dedi Gruzin qoshlarini chimirib. – Men sizni yaxshi ko'raman va siz haqingizda faqat yaxshi narsalarni o'ylayman. Agar siz umuman o'zingizni qiziqtirgan masala yuzasidan gapirishimni istasangiz, – deb davom etdi u tirsagini qoqib va qovog'ini osiltirib. – Bilasizmi, jonginam... Ko'ngil moyil tomonga erkinlik bilan ketaverish yaxshi kishilarga har qachon baxtiyorlik beravermaydi. Kishi o'zini erkin va ayni zamonda baxtiyor sezishi uchun, bilishimcha, hayotning berahm, dag'al va o'z mutaassibliyida ayovsiz ekanini o'z-o'zidan yashirmasligi kerak va uning o'z qiymatiga yarasha javob qaytarish kerak, boshqacha aytganda, kishiyam xuddi shu hayot singari dag'al va erkinlik tomon intilishida rahmsiz bo'lmog'i kerak. Men shunday o'ylayman.

– Kuchim yetarmidi! – deb g'amgin iljaydi Zinaida Fyodorovna. – Men horib qoldim, yoshulli. Men shu qadar horiganmanki, o'zimni qutqazish uchun barmog'imniyam qimirlatolmayman.

– Monastirga bora qoling, kelin.

Bu gapni u hazillashib gapirdi, lekin bu gapdan so'ng Zinaida Fyodorovnaning ko'zlariga, so'ngra Gruzinning ko'zlari ham jiqqa yoshga to'ldi.

– Xo'sh-sh, – dedi Gruzin, – o'tirsak o'tiraveramiz, lekin ketish ham kerak. Xayr, kelinginam, azizam. Xudo sog'liq ato etsin.

U xonimning har ikki qo'lini o'pdi va ohista siladi-da, erta-indin, albatta, yana kelishini so'zladi. Dahlizda u o'zining bolalar kamzulchasiga o'xshash paltosini kiyib turib, menga choychaqa berish

uchun anchagacha cho'ntaklarini kavlashtirdi, lekin hech narsa to-polmadi.

– Xayr, azizim! – dedi u g'amginlik bilan va chiqib ketdi.

Bu odam ketgandan so'ng qoldirgan kayfiyatni hech qachon esimdan chiqarmayman. Zinaida Fyodorovna hamon hayajonlanib, mehmonxonada u yoqdan bu yoqqa yurmoqda edi. Yotmasdan yurishining o'zi ham yaxshilik nishonasi edi. Men xonim bilan ochiqdan-ochiq gaplashib olish uchun hozirgi kayfiyatdan foydalanmoqchi va shu ondayoq butunlay uydan ketmoqchi edim, lekin Gruzinni kuzatishim bilan yana qo'ng'iroq jiringladi. Kukushkin kelgandi.

– Georgiy Ivanovich uydami? – deb so'radi u. – Keldimi? Yo'q, dedingmi? Afsus, afsus! Unday bo'lsa, kirib xonimning qo'lchalarini o'paman-da, ketaman. Zinaida Fyodorovna, mumkinmi? – deb qichqirdi u. – Men qo'lingizni o'pib ketmoqchiman. Kechirasiz, kech kelib qoldim.

U mehmonxonada ko'p o'tirgani yo'q, o'n daqiqacha o'tirdi, xolos, lekin menga ko'pdan beri o'tirganday va hech qachon ketmaydiganday ko'rindi. Men g'azab va alamdanda lablarimni tishlardim, hatto endi Zinaida Fyodorovna ham ko'zlarimga yomon ko'rinar edi. Garchi uning yonida xonimning zerikib o'tirgani ko'rinib tursada, «Nega xonim uni o'zidan naribroq quvmayapti?» deb achchiqlardim.

Unga po'stin kiydirib turgan chog'imda, u mendan xursandligini bildirish uchun, men xotinsiz qanday chidab yurganimni so'radi.

– Lekin men o'ylaymanki, sen og'zingni ochib o'tirmasang kerak, – dedi u kulib. – Sen Polyax bilan apoq-chapoq bo'lsang kerak... Shayton!

Hayotdagi tajribamga qaramasdan, men u mahalda hali kishilarni yaxshi bilmasdim. Shu jihatdan ko'p vaqt men chumolini tuyaday qilib ko'rgan yoki muhim bir narsaga hech ko'zim tushmagan bo'lishi mumkin. Kukushkinning kulishi va menga xushomad qilishi bekorga emasday ko'rindi: men malay bo'lganim uchun, kechqurunlari, Orlov yo'qligida uyimizga uning kelib turishini va Zinaida Fyodorovna bilan yarim kechgacha o'tirishini o'zga malayxona va oshxonalarda laqillab gapirishimni umid qilyaptimikin? Mening g'iybatlarim tanishlarining qulog'iga yetgach, u ko'zlarini xijolat

tortgansimon yerga tikib va sinchalog'i bilan do'q ursa ham ajab emas. Balki uning o'ziyoq, deb o'yladim, uning kichkina sovuq yuziga tikilib turib, xuddi shu kunning o'zida qarta o'ynab turgan chog'da, bexosdan og'zidan chiqarib yuborganday Zinaida Fyodorovna allaqachon Orlovdan tortib olib qo'ydim, deb so'zlamasmikin?

Kunduz kuni, chol kelgan mahalda yetishmagan nafrat endi vujudimni qurshab oldi. Kukushkin chiqib ketgach, men charm kalishlarining sudralishiga quloq solib turib, uning orqasidam xayrma'zurga birorta qo'pol haqorat jo'natgim keldi-yu, lekin o'zimni tutib qoldim. Zinapoyada qadam ovozlari tingach, men dahlizga qaytdim va nima qilganimni o'zim ham bilmasdan, Gruzin unutib qoldirgan qog'oz o'ramini ushladim-da, o'qday pastga qarab yugurdim. Paltosiz, boshyalang ko'chaga chiqdim. Sovuq emas, lekin laylak qor yog'moqda va shamol esmoqda edi.

– Janobi oliylari! – deb qichqirdim Kukushkini quvib borayotib. – Janobi oliylari!

Kukushkin fonar yonida to'xtadi va hayron bo'lib orqasiga qaradi.

– Janobi oliylari! – dedim hansirab. – Janobi oliylari!

Aytishga so'z topolmasdan, men uning yuziga qo'limdagi qog'oz o'rami bilan ikki marta urdim. Hech narsa tushunmasdan va hatto taajjublanmasdan (men uni shu daraja shoshirib qo'ygandim), u yelkasi bilan fonarga suyandi va qo'llari bilan yuzini berkitdi. Shu paytda yonimizdan qandaydir harbiy doktor o'tib qoldi va men birovni urib turganimni ko'rди, lekin faqat hayronlik bilan bizga qarab qo'ydi-da, nari ketaverdi.

Men uyali ketdim va qaytib uy tomon yugurdim.

XII

Boshim qordan ho'llanib, halloslab yugurib kelib, malayxonaga kirdim va darrov frakni yechib tashlab, pijak va palto kiydim-da, chamadonimni dahlizga olib chiqdim. Qochish kerak! Biroq ketishdan avval tezgina o'tirib, Orlovga xat yozishga kirishdim:

«Sizga o'zimning qalbaki pasportimni qoldiraman, – deb boshladim, – uni esdalik uchun saqlashingizni o'tinaman, janobi qalbaki odam, Peterburg amaldori!»

Birovning uyiga begona nom bilan kirib olish, malaylik niqobi ostidan birovning ichki hayotini kuzatish, keyinchalik kutilmaganda yolg'onlarni fosh etish uchun hamma narsani ko'rib va eshitib yurish – bularning barchasi o'g'irlikka o'xshaydi, deb aytasiz, albatta. To'g'ri, lekin hozir oliyjanoblik bilan ishim yo'q. Men sizning o'nlarча kechlik va tushliklaringizda bo'ldim, o'sha paytlarda siz istaganingizni gapirdingiz va qildingiz, men esa eshitishga, ko'rib tursam ham indamaslikka majbur edim, men bu xizmatlarni sizga bekordan-bekorga taqdim etishni istamayman. Buning ustiga, yoningizda sizga xushomad qilmasdan, haqiqatni gapiruvchi birorta tirik jon yo'qligi uchun, hech bo'lmasa, malay Stepan chiroyli tumshug'ingizni yuvib qo'ysin, dedim».

Xatni bunday boshlash menga yoqmadi, lekin tuzatgim ham kelmadi. Axir, baribir emasmi?

Qora pardalar osilgan katta derazalar, o'rin, polda yotgan g'ijim frak va ho'l oyoqlarimning izlari qahrli va qayg'uli ko'rinardi. Jimjitlik ham allaqanday o'zgacha edi.

Ko'chaga boshyalang va kalishsiz yugurib chiqqanimdan bo'lsa kerak, isitmam juda ko'tarilib ketdi. Yuzlarim lovillab yonar, oyoqlarim og'rir edi... Boshim og'irlashib stolga munkayar, fikrlarimda esa allaqanday ikkilanish bor edi, go'yo miyamdagi har bir fikrning ketidan uning soyasi kezmoqda edi.

«Men kasal, zaif, ruhan ezilganman, – deb davom ettirdim, – shu sababli, istaganimcha yozolmayman. Birinchi daqiqalarda ko'nglimda sizni haqoratlash va pastga urish xohishi bor edi, lekin endi sezishimcha, bu narsaga haqqim borgan o'xshamaydi. Siz bilan men – har ikkimiz ham tubanlikka qulab tushganmiz, endi ikkimiz ham o'rnimizdan turolmaymiz. Mening xatim garchi juda o'tkir, kuchli va dahshatli yozilganida ham, har holda tobutning qopqog'ini taqillatganga o'xshab ketar edi: qancha taqillatma – o'lik uyg'onmaydi! Har qanday kuchanish endi sizning la'nati sovuq qoningizni isit olmaydi va bu narsani siz mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz. Bas, shunday ekan, men nima uchun yozishim kerak? Lekin boshim va yuragim yonmoqda, men yozishni davom ettirmoqdaman, negadir hayajonlanmoqdaman, go'yo bu xat hali sizga va menga najot beradiganday ko'rinmoqda. Isitmadan boshimdagi fikrlar bir-biriga qovushmaydi, qalam hali qog'oz ustida ma'nosiz kezmoqda,

ammo mening sizga bermoqchi bo'lgan savolim ro'paramda laxcha cho'g'day yaqqol turmoqda.

Nechun men barvaqt bo'shashdim va quladim, izohlash qiyin emas. Men Injildagi pahlavon singari yelkamga G'azo darvozalarini ko'tarib, ularni tog' cho'qqisiga olib chiqmoqchi bo'ldim, lekin charchaganimdan so'ng, mening yoshligim va sog'lig'im abadiy so'ngandan so'ng, sezib qoldimki, bu darvozalarni ko'tarish menga to'g'ri kelmas ekan, men o'zimni bekor aldagan ekanman. Buning ustiga, men to'xtovsiz, qattiq og'riq sezib turardim. Men ochlikni, sovuqni, kasallikni, qamoqni boshdan kechirdim; shaxsiy baxtiyorlikni ko'rmadim va bilmayman, biror boshpanam yo'q, xotirotlarim juda og'ir, vijdonim ko'pincha ulardan qo'rqadi. Lekin siz nima sababdan tubanlikka quladingiz? Umringizning bahor chechaklari to'la ochilmasligiga qanday iblisona shum sabablar xalaqit berdi? Nima sababdan siz hali yashashga boshlamasdan turib, Xudoyi taolo ato qilgan shakl-shamoyilni irg'itib tashlashga shoshildingiz va qo'rqoq bir hayvonga aylandingizki, bu hayvon o'zining hurishidan o'zi qo'rqqani uchun ham boshqalarni qo'rqitadi. Siz hayotdan qo'rqasiz, kun bo'yi parquvda o'tirib, chilim chekuvchi osiyolik singari qo'rqasiz, siz ko'p o'qiysiz va sizga ovro'pacha frak juda yarashadi, lekin har holda siz o'zingizni sof osiyocha, xonlarcha g'amxo'rlik va mehribonlik bilan ochlikdan, sovuqdan, jismoniy urinishlardan, og'riqdan va tashvishdan asraysiz, sizning joningiz chopon ichiga juda erta yashirinib olgan, har bir sog'lom va risoladagi odam kurash olib boradigan haqiqiy hayot va tabiat qarshisida siz o'zingizning qo'rqoqligingizni ko'rsatib qo'ydingiz. Yotish-turishingiz juda yumshoq, shinam, issiq va qulay, lekin juda zerikarli! Shunday, xuddi turmada yolg'iz o'tirganday, tars yorilib ketguday, zulmatga cho'kkanday zerikarli bo'lsa-da, lekin siz bu dushmandan ham yashirinishga urinasiz: siz sutkasiga sakkiz soatlab qarta o'ynaysiz.

Sizning istehzongiz-chi? O, men uni juda yaxshi tushunaman! Jonli, erkin, tetik fikr serhavas va serhafsula bo'ladi; yalqov, behavas aqlga u dushmandir. U sizning tinchligingizni buzmasligi uchun, siz minglab o'z tengqurlaringizga o'xshab, uni yoshlikdan qisib qo'ygansiz. Siz hayotga istehzoli qarash bilan qurollanib olgansiz, shuning uchun qisinqi, cho'chitilgan fikrsiz to'sib qo'ygan panjaradan sakrab o'tishga jur'at etolmaydi, go'yo ipidan ignasi-

gacha sizga ma'lum bo'lgan hamma g'oyalar ustidan masxarabozlik qilgan paytlaringizda, siz jang maydonidan sharmandalarcha qochgan, lekin uyalganini bekritish uchun urushni va botirlikni mazahlagan qochoqqa o'xshaysiz. Bezbetlik alamni bostiradi. Dostoyevskiyning qaysi bir qissasidagi chol o'zining sevgan qizi oldida haqli bo'lolmagani uchun uning suratini oyoqlari bilan toptaydi, siz esa yaxshilik va haqiqat g'oyalari ustidan razillarcha, ifloslarcha kulmoqdasiz, chunki bu ulug' dargohga qaytish uchun kuchingiz yetmaydi. Sizning tubanlikka tushib ketganingiz to'g'risidagi har qanday samimiy va haqqoniy ishora ham sizga qo'rqinchlidir. Shuning uchun ham siz jo'rttaga atrofingizni xushomadgo'y odamlar bilan qurshagansiz. Ko'z yoshlaridan qo'rqishingiz ham aslo bejiz emas, hech bejiz emas!

O'rni kelganda, sizning ayollarga munosabatingiz to'g'risida aytay. Uyatsizlik bizga tanamiz va qonimiz bilan birga meros qolgan, o'zimiz ham uyatsizlikda tarbiya topganmiz, lekin insongarchiligimizning ma'nosi mana shu hayvongarchiligimizni yengishdadir. Voyaga yetganingizdan so'ng, sizga barcha g'oyalar ma'lum bo'lgach, siz haqiqatni ko'rmasdan ilojingiz yo'q edi; siz uni bilgandingiz, lekin uning ketidan bormadingiz, aksincha, undan qo'rqib ketdingiz; shundan so'ng o'z vijdongingizni aldash uchun: «Men aybdor emasman, balki xotinning o'zi aybdor, shu xotin ham xuddi mening unga munosabatlarim kabi pastkash», deb baralla ovoz bilan o'zingizni ishontira boshladingiz. Sovuq va behayo latifalar, toychoqday kish-nab hirlinglashlar, nikohning mohiyati va nikohga bo'lgan nomuayyan talablar haqidagi sizning sanoqsiz nazariyalaringiz, farang ishchisi xotin uchun to'laydigan o'n su pul, doim xotinlarning mantiqi, aldamchiligi, zaifligi va hokazolar to'g'risida gapirishingiz – mana shularning hammasi xotin bilan sizning munosabatlaringiz bir darajada turishi uchun xotinni yerga urib, loyga tiqish uchun o'lib-tirilib qilingan harakatlarga o'xshamaydimi? Siz – zaif, baxtsiz, yoqimsiz bir odamsiz».

Sen-Sansning Gruzin chalib bergan pyesasini esga olishga urinib, Zinaida Fyodorovna mehmonxonada royal chala boshladi. Men borib to'shakka yotdim, lekin ketish vaqti yetganini eslab, zo'rg'a o'rnimdan ko'tarilib, og'ir va qaynoq boshim bilan yana stol yoniga o'tirdim.

«Lekin bir savol bor, – davom ettirdim. – Nima sababdan biz charchaganmiz? Boshda shu qadar ehtirosli, jasur, oliyjanob, Xudoga ishonuvchi kishilar o'ttiz-o'ttiz besh yoshga yetar-yetmas, nima sababdan bus-butun tamom bo'lamiz? Nima uchun biri sil bo'lib so'nadi, ikkinchisi o'zini otib o'ldiradi, uchinchisi esa sharob va qarta bilan o'zini ovutmoqchi bo'ladi, to'rtinchisi esa qo'rquv va qayg'uni yashirish uchun pokiza va so'lim yoshligidagi portretini oyog'i ostiga tashlab, bezbetlik bilan toptaydi? Nima uchun biz bir marta qulagandan so'ng, o'rnimizdan ko'tarilishga urinmaymiz, bir narsani yo'qotgach, ikkinchisini qidirmaymiz? Nima uchun?»

Dorga osiladigan qaroqchi o'lishiga bir soat qolganiga qaramasdan, ko'ngliga hayot quvnoqligini, jasur va to'q umidlarni sig'dira oladi. Sizning oldingizda esa hali uzoq yillar bor va men ham ehtimol hali tez o'lmasam kerak. Agar hozir ko'rib turganimiz tush, mudhish bosirinqirash bo'lsa-yu, haqiqatimiz kuchidan biz yangi, pokiza, quvvatli mag'rur bo'lib ketsak, nima bo'lar ekan?.. Shirin xayollar meni kuydirmoqda va men hayajondan zo'rg'a nafas olmoqdaman. Mening juda-juda yashagim keladi, hayotimizning muqaddas, yuksak va osmon gumbazi singari yuksak va tantanali bo'lishini istayman. Biz yashaymiz! Quyosh bir kunda ikki marta chiqmaydi, umr ham ikki marta berilmaydi, umringizning qolgan qismini mahkam ushlang va uni halokatdan qutqaring...»

Bundan ortiq men birorta so'z ham yozmadim. Boshimda fikrlar ko'p edi, lekin ular yoyilishib ketar va satrlarga sig'mas edi. Xatni tamomlamasdan, men uning ostiga mansabimni, ism va familiyamni yozdim-da, kabinetga kirdim. Qorong'i edi. Paypaslab stolni topdim-da, xatni qo'ydim. Qorong'ida uydagi jihozlarga qoqinib taraqlatgan bo'lsam kerak. Mehmonxonadan bezovta tovush eshitildi:

– Kim u?

Stoldagi soat yoqimli jarangi bilan soat tungi bir bo'lganini bildirdi.

XIII

Qorong'ida men hech bo'lmaganda yarim daqiqacha eshikni paypasladim, so'ngra sekin ochib, mehmonxonaga kirdim. Zinaida Fyodorovna tirsagiga suyanib kushetkada yotar va menga tikilar edi. Gapirishga botinmay, men sekin yonboshidan o'tib ketdim, xonim

esa ko'z qarashlari bilan meni kuzatdi. Men biroz zalda turdim-da, yana xonimning yonidan o'tdim, xonim esa menga diqqat va hayronlik bilan, hatto qo'rquv bilan tikildi. Nihoyat, men to'xtadim va zo'rg'a:

– U qaytib kelmaydi! – dedim.

Xonim shoshilib oyoqqa qalqdi va hech narsa tushunmay menga tikildi.

– U qaytib kelmaydi! – deb takrorladim va yuragim qattiq dukilab ketdi. – U qaytib kelmaydi, chunki Peterburgdan ketgani yo'q. U Pekarskiyning uyida yashab yuribdi.

Xonim tushundi va menga ishondi, men buni uning birdan oqarib ketgan yuzlaridan, birdan qo'llarining qo'rquv va yolborish bilan ko'ksiga qovushtirganidan bildim. Bir lahza xonimning xotirida uning yaqin o'tmishi jonlandi, xonim tushundi va butun haqiqatni yaqqol, ravshan ko'rdi. Lekin ayni zamonda u mening malay ekanimni, zoti past ekanimni esladi... Sochlari hurpaygan, yuzlari isitmadan, ehtimol, ichkilikdan qip-qizargan, allaqanday rasvo kiyimdagi bir ablah ichki hayotimga qo'pol ravishda aralashdi, deb xonim xafa bo'ldi. Menga jahl bilan:

– Sizdan so'raganim yo'q. Yo'qoling bu yerdan, – dedi.

– O, ishoning menga! – dedim qizishib, xonim tomonga qo'limni cho'zib. – Men malaymasman, men ham xuddi sizday erkin odamman!

Men o'z ismimni aytdim va xonim gapimni kesmasin yoki chiqib ketib qolmasin, deb shoshilganimdan tez-tez o'zimning kimligimni va nima uchun bu yerda yashayotganimni tushuntirdim. Bu yangilik xonimga avvalgidan ko'ra kuchliroq ta'sir qildi. Avval xonimda har holda umid bor edi, malay yolg'on gapirgan, xato yoki ahmoqlik qilgan, deb o'ylashi mumkin edi, endi-chi, men o'zimni tanitgandan keyin xonimning hech qanday shubhasi qolmadi. Xonimning baxtsiz ko'z qarashlaridan, keksarib o'z muloyimligini yo'qotgan yuzlarining birdan o'zgarib, xunuklashib ketishidan, xonim hozir haddan tashqari qiynalayotganini va mening bu gapni boshlashim yaxshi bo'lmaganini bilsam ham, boshlagan gapimni qiziqish bilan davom ettiraverdim:

– Senator va taftish degan narsalar sizni aldash uchun o'ylab topilgandi. Yanvar oyidayam u xuddi hozirgiday hech qayoqqa

jo'namay, Pekarskiyning uyida yashagandi, men esa u bilan har kun ko'rishgan va sizni aldashga ishtirok etgan edim. Siz ularga og'ir tushardingiz, sizning bu yerda turishingizni yomon ko'rardilar, sizdan kulardilar... Agar ularning sizni va sizning muhabbatingizni qanday masxara qilganlarini eshitib qolganingizdaydi, bu yerda bir daqiqayam qolmasdingiz! Qoching bu yerdan! Qoching!

– Xo'sh, nima qilay? – dedi xonim titroq tovush bilan va qo'li bilan sochlarini silab qo'ydi. – Xo'sh, nima qilay?

Xonimning ko'zlari jiqqa yoshga to'lgandi, lablari titrardi, butun qiyofasi hayron qolarli darajada oqarib ketgan va g'azabga to'lgan edi. Orlovning qo'pol va pastkash aldoqchiligi xonimni g'azablantirar, unga nafratli va kulgili bo'lib ko'rinar edi; xonim jilmayardi va bu jilmayish menga yoqmasdi.

– Xo'sh, nima qilay? – deb takrorladi xonim va yana qo'li bilan sochlarini siladi. – Mayli. U meni xo'rlikdan o'ladi deb o'ylaydi, menga esa bu... kulgili. Bekorga u qochib yuribdi. – Xonim royaldan nari ketdi va yelkalarini qisib dedi: – Bekorga... qochib, begona kvartiralarda yashirib yurgandan ko'ra, ochiq-yoriq gaplashish osonroq edi. Mening ko'zlarim bor, men o'zim ham ko'pdan beri ko'rib turgandim... Uzil-kesil gaplashish uchun faqat uning qaytib kelishini kutardim.

So'ngra xonim stol yonidagi oromkursiga o'tirib, boshini divanning tutqichiga qo'yib, achchiq-achchiq yig'ladi. Mehmonxonadagi qandilda faqat bir sham yonardi, xonim o'tirgan oromkursi atrofi qorong'i edi, lekin men xonimning boshi va yelkalari silkinib-silkinib turganini, sochlari yoyilib ketib bo'yni, yuzi va qo'llarini berkitganini ko'rdim... Xonimning maromli, bir tekis, yuvosh, oddiy ayolcha yig'isida tahqir etilgan g'urur, alam, endi tuzatib bo'lmaydigan va ko'nikib ham bo'lmaydigan chorasizlik va umidsizlik sezilib turmoqda edi. Mening hayajonlangan, iztiroblanib turgan yuragim xonimning yig'i tovushiga aks sado bermoqda edi. Men endi o'z kasalimni ham, dunyodagi barcha narsani ham unutilib, mehmonxonada u yoqdan bu yoqqa yurar va o'zimni yo'qotib g'o'ldirar edim:

– Bu qanday bo'lmag'ur hayot?.. O, bunday yashash mumkinmas! Mumkinmas! Bu hayotmas, telbalik va jinoyatdir.

P.S. Buyumlaringizni yubordim».

Orlov yuborgan sandiq va savatlar xuddi shu mehmonxonada turardi, ularning orasida mening arzimas chamadonim ham bor edi.

– Demak, – dedi Zinaida Fyodorovna va oxirini gapirmadi.

Biz jim qoldik. Xonim xatni qo‘liga olib, ikki daqiqacha ko‘z oldida tutib turdi. Shu chog‘ uning yuzida, kecha ikkimiz gaplasha boshlaganimizdagi kabi, g‘urur, nafrat ifodasi paydo bo‘ldi. Xonimning ko‘zlarida yosh ko‘rindi, lekin bu yoshlar qo‘rqishdan, alam qilgandan emas, g‘urur va g‘azabdan kelgan yoshlar edi.

– Quloq soling, – dedi xonim, shiddat bilan o‘rnidan turib va men uning yuzini ko‘rmasligim uchun deraza yoniga ketib. – Men shunday qarorga keldim: ertagayoq siz bilan birga chet elga jo‘nayman.

– Juda soz. Men bugun bo‘lsayam jo‘nashga tayyorman.

– Meni safarbar eting. Siz Balzakni o‘qiganmisiz? – deb so‘radi xonim birdan menga o‘g‘irilib. – O‘qiganmisiz? Uning «Gorio ota» romanining oxirida qahramon qir tepasidan Parijga qarab turib: «Endi biz o‘chimizni olamiz!» deydi va shundan so‘ng yangi hayot boshlaydi. Men ham shunday, vagondan eng so‘nggi marta Peterburgga qaraganimda, unga: «Endi biz o‘ch olamiz!» deyman.

Bu so‘zni aytgach, xonim o‘zining shu haziliga kulib qo‘ydi va negadir butun vujudi seskanib ketdi.

XV

Venetsiyada menda zotiljam og‘riqlari boshlandi. Kechqurun vokzaldan «Vauer» mehmonxonasiga suzib kelayotganimizda shamollab qolgan ekanman. Birinchi kundanoq yostiqaqa bosh qo‘yib, ikki hafta yotishga to‘g‘ri keldi. Kasal vaqtimda har kuni ertalab Zinaida Fyodorovna o‘z xonasidan mening yonimga, birga qahva ichish uchun kelardi, so‘ngra menga fransuzcha va ruscha kitoblarni tovush chiqarib o‘qib berardi, bu kitoblarni biz Venadan anchagina sotib olgandik. Bu kitoblar menga ko‘pdan tanish yoki qiziqarli emasdi, ammo yonboshimda muloyim, yoqimli ovoz yangrab turgani uchun bu mutolaalarning hammasidan: men yolg‘iz emasman, degan mazmun chiqardi. Xonim sayr etishga borar, och kulrang ko‘ylak va yengil poxol shlyapa kiyib, bahor quyoshidan bahramand, xushchaqchaq qaytib kelar va yonimga o‘tirib, engashib

yuzimga yaqin kelib, Venetsiya haqida biror narsa gapirar yoki kitob o'qib berar edi – men huzur qilar edim.

Kechasi sovqotardim, og'rig'im qo'zg'ardi, zerikardim, lekin kunduz kuni hayot gashtini surardimki, bundan yaxshi ibora topish mumkin emas. Ochiq derazalarga, balkon eshiklariga sochilib turgan porloq va qaynoq oftob shu'lalari, pastdan eshitilib turgan shovqinlar, eshkaklarning suvda shopillashi, cherkov qo'ng'iroqlarining jarangi, tush payti otilgan zambaraklarning aks sado bilan gumburlashi va to'la-to'kis erkinlikni sezish menga ajoyib ta'sir ko'rsatmoqda edi. Men ikki yonboshimda kuchli, keng qanotlar sezardimki, bu qanotlar meni, Xudo bilsin, qayoqlarga parvoz qildirardi. Endi mening hayotim bilan yonma-yon borayotgan ikkinchi bir hayot borligini o'ylashdan, yosh, chiroyli va boy, lekin zaif, tahqirlangan yolg'iz bir vujudning xizmatkori, soqchisi, do'sti va zarur yo'ldoshi ekanimni o'ylashdan goho qancha xursandlik tug'ilar, qancha go'zal tuyg'ular uyg'onar edi! Sening sog'ayishingni bayramni kutganday kutib yuruvchi odamlar borligini bilganda, hatto kasal bo'lib yotish ham yoqimlidir. Bir marta eshik orqasida xonimning doktorim bilan shivirlashganini eshitdim, xonim yonimga kirganda, ko'zlari yoshdan nam edi – bu yomon bir alomat edi – lekin men erib ketdim va ko'nglim yengil tortdi.

Nihoyat, menga balkonga chiqishga ruxsat berildi. Quyosh va dengizdan esgan yengil shabboda mening xasta tanimga yoqar, uni erkalatar edi. Men pastga, dengiz sathiga, xotinlarday tannoqlik bilan bir tekis va ulug'vor suzib yurgan, xuddi odamday bu asl va nafis madaniyatning barcha zeb-ziynatlarini sezganday ko'ringan, men ko'pdan beri bilgan chiroyli qayiq'larga ko'z tikaman. Dengiz hidi keladi. Qayerdadir tor chalinmoqda va qo'sh ovoz bilan ashula aytishmoqda. Qanday yaxshi! Ho'l qor yog'ib turgan va yuzlarga shatirlatib urib turgan bir mahalgi Peterburg kechasiga sira o'xshamaydi! Mana, agar kanal osha to'ppa-to'g'ri ko'z tashlansa, dengiz sohili ko'rinadi; ufqdan keng dengiz sathi bo'ylab oftob shu'lalari shu qadar o'tkir, jimirlab o'ynaydiki, ko'z qamashadi. Men yoshlikda ko'rgan jonajon dengiz tomon ko'nglim talpinadi. Yashashni istayman! Yashashni istayman, xolos!

Ikki haftadan so'ng istagan yerimga bora oladigan bo'ldim. Men oftobda o'tirishni, tushunmasam ham, qayiqchining gapiga quloq so-

lishni va aytishlariga ko'ra, go'yo Dezdemona yashagan uyga soatlarcha tikilib turishni yaxshi ko'rardim – bu uy sodda, g'ussali yosh qizlar qiyofasiday ko'rinardi, ipak to'r singari yengil edi, shu qadar yengil ediki, xuddi uni bir qo'l bilan joyidan siljitish mumkinday edi. Kanova¹ mozori yonida uzoq vaqt turar va hasratli arslon haykalidan ko'zlarimni uzmas edim. Boshliqlar saroyida esa boyaqish Marino Feleroni² qora bo'yoq bilan bo'yab tashlangan burchakka borgim kelaverardi. Rassom, shoir, dramaturg bo'lish yaxshi, deb o'ylardim, lekin agar bunga mening kuchim yetmasa, mistitsizm³ bilan shug'ullanganim ham yaxshi. Mistitsizm yoki so'fiylik o'zining betashvish osoyishtaligi, birorta e'tiqodning, garchi kichkina parchasi bilan bo'lsa ham, ko'ngilni to'ldirib, qanoatlantirib turishi bilan maroqlidir.

Kechqurun ustritsa yedik, musallas ichdik va qayiqqa tushib sayr etdik. Bizning qora qayig'imiz tebranib turgani va uning ostida suvning mayin shildiragani hamon esimda. U yon-bu yonda, suv sathida yulduzlar va qirg'oqdagi chiroqlar aks etadi. Bizning yaqinimizda rango-rang osilgan chiroqlari suv betida aks etib turgan bir qayiqda allaqanday kishilar o'tirishar va ashula aytishar edi. Qorong'i qo'ynidan gitara, skripka, ud ovozlari, xotin va erkaklarning tovushlari eshitiladi. Zinaida Fyodorovna oqargan, jiddiy va hatto qahrli chehra bilan, lablarini va qo'llarini mahkam qisib, mening yonimda o'tirardi. Xonim nima to'g'risidadir o'ylardi, hatto qoshlarini ham qimirlatmas, mening gaplarim qulog'iga kirmasdi. Yuzlari, o'tirishi va harakatsiz, ma'nosiz ko'z qarashlari haddan ortiq g'amgin, eslagan narsalari mudhish, qor singari sovuq edi, tevarakda esa qayiq-lar, chiroqlar, musiqa. «At-to!.. At-to!..» degan shiddatli va ehtirosli qichqiriqlar bilan aytilgan qo'shiqlar – shu qadar hayot qarama-qarshiliklari! Xonim shu yo'sinda qo'llarini qisib toshday qotib, g'amgin yuz bilan o'tirgan chog'da, go'yo menga biz ikkovimiz qadimgi uslubda yozilgan «Sho'rpehona ayol», «Tashlab ketilgan yor» yoki

¹ *Kanova Antonio (1757–1822)* – italyan haykaltaroshi.

² *Marino Falero yoki Faleri (1274–1355)* – qarib qolgan chog'ida respublikaning birinchi mansab kursisiga o'tirgan, o'zining fojiali hayoti bilan mashhur bo'lgan Venetsiya rahbarlaridan.

³ *Mistitsizm, mistika* – g'ayritabiiy olamga, ilohlar va ilohiy kuchlarga, insonning ilohiyot olami bilan aloqa qila olishiga ishonishdan iborat ta'limot.

shu xildagi biror romanda ishtirok etayotganday ko‘rinardi. Ikkovimizdan birimiz: xonim – sho‘r peshona, tashlangan ayol, men esa – vafodor, sodiq bir do‘st, xayolparast, agar ta‘bir joiz bo‘lsa, ortiqcha odam, yo‘talish, xayol surish va o‘z-o‘zini qurbon qilishdan boshqa narsaga yaramaydigan, layoqatsiz, toleyi past odam... Lekin mening qurbonlarim hozir kimga kerak, men nimani qurbon qilishim mumkin, degan savol qo‘zg‘aladi.

Kechki sayr-tomoshadan keyin biz har safar xonimning xonasida choy ichar va suhbatlashar edik. Biz hali bitmagan eski yaralarga qo‘l tekizishdan qo‘rqmasdik, aksincha, men Orlovning uyidagi hayotimni gapirsam yoki menga ma‘lum bo‘lgan va mendan yashirin qolishi mumkin bo‘lmagan munosabatlar haqida ochiqdan-ochiq gapirsam, hatto huzur qilardim.

– Ayrim paytlarda men sizni yomon ko‘rib ketardim, – derdim. – Orlov injiqlik qilsa, sizning ra‘yingizga yursa-yu, yolg‘onlasa, men sizning hech narsani ko‘rmasligingizdan, ochiq-oydin narsani tushunmasligingizdan hayron bo‘lardim. Uning qo‘llarini o‘pardingiz, xushomad qilardingiz...

– Men... qo‘llarini o‘pgan va tiz cho‘kkan vaqtimda uni sevardim... – derdi xonim qizarib.

– Nahotki, uning ko‘nglidagini bilish shunchalik qiyin edi? Yaxshi sfinks? Sfinks – kamer-yunker! Men sizdan hech gina qilmayman, Xudo saqlasin, – deb davom etdim, men o‘zimning dag‘alroq ekanimni, o‘zgalar ko‘nglini ovlashda zarur bo‘lgan kiborlar jamiyatiga xos odob va xushmuomala menda yo‘qligini sezib turardim: ilgari, to men xonim bilan tanishguncha o‘zimda bu kamchilikni sezmasdim. – Biroq siz nega sezmadingiz? – deb takrorladim, lekin bu safar sekinroq va hadiksirabroq gapirdim.

– Siz mening o‘tmishimni yomon ko‘rishingizni aytmoqchi bo‘lasiz, siz haqsiz, – dedi xonim qattiq hayajonlanib, – siz alohida kishilar toifasiga kirasizki, bunday kishilarni oddiy arshin bilan o‘lchab bo‘lmaydi, sizning axloqiy talablaringiz odob doirasidan hech chiqmaydi, shu sababdan ham men sizning kechirolmasligingizni tushunaman. Men sizni yaxshi tushunaman, lekin ba‘zan qaramaqarshi gapirsam, bu sizga qaraganda mening narsalarga boshqacha qarashimni bildirmaydi; eski safsatalarni gapirishimning sababi – o‘zimning eski ko‘ylaklarimni hali kiyib eskitirmaganimdan va eski

fikrlarning qoldig'idandir. O'zim ham o'tmishimni, Orlovni va unga bo'lgan sevgimni hozir yomon ko'raman. Qanday sevgi edi bu? Hozir hatto bularning barchasi kulgiga o'xshaydi, – dedi xonim deraza yoniga kyolib, pastdagi kanalga qarab. – Bu sevgilarning bari faqat vijdonni susaytiradi va yo'ldan ozdiradi. Hayotning mazmuni faqat bir narsada – kurashdadir. Qabih ilonning boshini poshna ostiga olib, g'irchillatib yanchish kerak. Hayotning mazmuni mana shu. Bir shuning o'zidagina mazmun bor yoki bo'lmasa, mazmun butunlay yo'q.

Men xonimga o'z boshimdan kechgan voqealarni aytib, haqiqatan ajoyib sarguzashtlarni tasvirlab berdim. Lekin so'nggi vaqtlarda menda yuz bergan o'zgarish to'g'risida biror so'z ham og'zimdanda chiqarmadim. Xonim har gal mening gaplarimga zo'r diqqat bilan quloq solar va qiziq joylari kelganda, qo'llarini ishqalab, go'yo shu xil sarguzasht, vahima va shodliklarni boshidan kechirolmaganiga afsuslanganday bo'lar, lekin birdan o'ylagan cho'mib ketar, o'z-o'zi bilan ovora bo'lar edi, shunda xonimning chehrasidan mening gapimga quloq solmayotganini ko'rardim.

Men kanal tomondagi derazalarni berkitib, xonimdan, o't yoqaymi, deb so'rardim.

– Yo'q, qo'yavering, sovqotganim yo'q, – derdi xonim sust tabassum bilan, – men faqat juda bo'shshib ketdim. Bilasizmi, men so'nggi vaqtlarda go'yo juda aqlli bo'lib ketganga o'xshayman. Hozir menda ajoyib, asl fikrlar paydo bo'ladi. Men masalan, o'tmish to'g'risida, o'zimning o'sha vaqtdagi turmushim to'g'risida... umuman, kishilar to'g'risida o'ylagan chog'imda, bu narsalarning hammasi birga to'planib, birgina o'gay onamning timsoliga aylanadi. O'gay onam – qo'pol, behayo, berahm, qallob, buzuq va buning ustiga, yana af'yunxo'r edi. Otam zaif va bo'shang bo'lib, mening onamga pul uchun uylangan, oxiri sil qilib o'ldirgan, ikkinchi xotinini, mening o'gay onamni esa o'lguday yaxshi ko'rgan... Qanday azoblar chekmadim men! Gapirgan bilan ado bo'lmaydi! Shuning uchun aytyapmanki, hammasi bir obrazga aylanib ketadi... Menga alam qiladi: nechun o'gay onam o'lib ketdi! Hozir u bilan uchrashishni istardim!..

– Nechun?

– Shunday, bilmayman... – dedi xonim kulib va boshlarini chiroyli silkitib. – Xayrli tun, yaxshi tush ko‘ring. Sog‘ayib keting. Tuzaldingiz deguncha, ishlarimiz bilan shug‘ullanamiz... Xayr.

Men xayrlashib, eshikni ochay deb turganimda, xonim so‘radi:

– Siz nima deysiz? Polya hamon uning uyida yashab yurganmi-kin?

– Ehtimol.

Shundan so‘ng men o‘z xonamga chiqib ketdim. Shu ahvolda biz bir oy yashadik. Bulutli kunlardan birida, tush payti ikkovimiz mening xonamda dengiz tomondan kelayotgan bulutlarga va moviy tusga kirgan kanalga indamasdan tikilib, yomg‘ir yog‘ishini kutmoqda edik, bir chekkadan ensiz, qalin yomg‘ir qatlami qirg‘oqni xuddi doka singari qoplagandi, shu payt birdan ikkimiz ham zerikib qoldik. Shu kunning o‘zidayoq biz Florensiyaga jo‘nab ketdik.

XVI

Bu voqea kuz fasli Nitsada yuz berdi. Bir kun ertalab, men xonimning xonasiga kirgan chog‘imda, xonim oromkursida, oyog‘ini oyog‘iga qo‘yib, ikki bukilib, qo‘llari bilan yuzini berkitib, xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘lamoqda edi, uning uzun, taralmagan sochlari tizzasiga tushib turardi. Hozirgina ko‘rib kelganim va shu to‘g‘rida so‘zlab bermoqchi bo‘lganim – ajoyib-g‘aroyib dengiz taassuroti mendan nari ketdi, yuragim og‘riqdan siqildi.

– Nima uchun yig‘layapsiz? – deb so‘rardim.

Xonim bir qo‘lini yuzidan ayirib, chiqib ketishimga ishora qildi.

– Axir, nega yig‘layapsiz? – deb takrorladim va tanishganimizdan beri birinchi marta uning qo‘lini o‘pdim.

– Yo‘q, yo‘q, hechqisi yo‘q! – dedi xonim shoshilib. – Oh, hechqisi yo‘q, hech... chiqib ketaqoling... ko‘rib turibsiz-ku, men kiyinmaganman.

Men juda hayronlik bilan chiqib ketdim. Ko‘pdan beri menga hamdam bo‘lmish tinchlik va qayg‘usiz kayfiyat achinish tuyg‘usi bilan zaharlangandi. Xonimning o‘zi yakka yig‘lamasligi, men bilan hamdardlashishi uchun uning oyog‘iga yiqilib, unga o‘lguday yolvorgim kelardi. Dengizning bir tekis shovqini endi mening qulog‘imga vahimali bir vahiy singari eshitildi va men yangi ko‘z yoshlari, yangi hasrat va yo‘qotishlarni ko‘rdim. Xonim nega yig‘layapti, deb savol

berardim, uning yuzini va iztirobli qarashini ko'z oldimga keltirib, xonimning homiladorligi esimga tushdi. Xonim o'z homiladorligini kishilardan ham, o'zidan ham yashirishga urinardi. Xona ichida u keng ko'ylak yoki ko'krak burmalari do'mpaytirilgan koftacha kiyib yurar, biror yerga borganda esa belini shu qadar qisib bog'lardiki, shuning uchun sayr chog'ida ikki marta behush bo'lib yiqilgandi. Xonim men bilan hech qachon o'z homiladorligi to'g'risida gaplashmasdi. Bir kuni men xonimga, doktor bilan maslahat qilinsa, durust bo'lardi, degan mazmunda gap boshlagandim, u juda qizarib ketdi va bir so'z demadi.

Keyinroq xonimning yoniga kirganimda, u kiyingan va sochlari taralgan edi.

– Bo'ldi, bo'ldi! – dedim uning yig'lab yuborguday bo'lib turganini ko'rib. – Qani, yuring, dengiz bo'yiga borib, gaplashamiz.

– Men gaplasholmayman. Kechirasiz, men hozir shunday bir kayfiyatdamanki, o'zim yolg'iz o'tirgim kelyapti. Sizdan o'tinib so'rayman, Vladimir Ivanovich, bundan boshqa vaqtda mening yonimga kirmoqchi bo'lsangiz, avval eshikni taqillating.

Bu «avval» so'zi menga qandaydir boshqacha, xotin kishiga xos bo'lmagan tarzda eshitildi. Men chiqib ketdim. Peterburgdagi singari la'nati kayfiyat qaytib keldi va mening butun orzularim isiqdan qovjiragan yaproq singari burishib, jizg'anagi chiqdi. Men yana o'zimning yolg'izligimni, o'rtamizda hech qanday yaqinlik yo'qligini sezdim. Men xonim uchun xuddi anavi xurmo daraxtida tasodifan osilib turgan o'rgimchak uyasiday narsa, har lahzada shamol uchirib ketishi mumkin. Men musiqa chalilib turgan bog'ga chiqib aylandim, qimorxonaga kirdim. Bu yerdagi haddan ortiq yasangan, atir hidlari anqib turgan xotinlarga ko'z yugurtirdim, har bita xotin menga qarab, go'yo: «Sen yolg'izsan, juda soz...» deganday ko'rinardi. So'ngra men ayvonga chiqdim va uzoq vaqt dengizni tomosha qildim. Olisda, ufq tomonda birorta ham yelkan ko'rinmasdi. Chap qirg'oqda qizg'ish tuman ichidan tog'lar, bog'lar, minora va uylar ko'rinar, barchasida quyosh nurlari o'ynardi, lekin barchasi begona, beparvo, allaqanday chalkash edi.

XVII

Xonim avvalgiday har kuni ertalab mening yonimga qahva ichish uchun kelardi, lekin endi biz tushlikni birga qilmasdik; xonimning aytishicha, ovqat yegisi kelmasdi, faqat qahva, choy va po'rtaxol, qand-qurs singari mayda-chuydalar bilan oziqlanardi.

Endi kechqurunlari gaplashib o'tirmaydigan bo'lib qoldik. Bilmayman, nima uchun shunday bo'ldi. Xonim yig'lab o'tirganda kirib gap so'raganimdan keyin uning munosabati boshqacharoq bo'lib qoldi, xonim menga beiltofot qarab, hatto istehzo bilan meni negadir «taqsirim» deb atay boshladi. Ilgari xonimga vahimador, hayron qolarli, qahramonona bo'lib ko'ringan va unda hasad va zavq qo'zg'atgan sarguzashtlarim endi unga aslo ta'sir etmasdi, odatda xonim mening gapimni eshitib bo'lib, yengilgina kerishar va:

– Shunday, taqsirim, Poltava yonida ish katta – hamyon latta bo'lgandi bir vaqtlar, – derdi.

Hatto shunday bo'lardiki, men xonim bilan kun bo'yi ko'rishmasdim. Ba'zan aybdor kishiday eshikni asta-sekin tiqirlatsam, javob bo'lmasdi; yana qaytib tiqirlatsam ham jimlik... So'ng eshik yonida quloq solib turardim. Lekin yonboshimdan o'tib ketayotgan bir xizmatchi xotin sovuqqina qilib: «Xonim chiqib ketganlar», – deydi. So'ng mehmonxonaning dahlizi bo'ylab yuraveraman... Allaqanday inglizlar, ko'ksi lorsillagan xonimlar; frak kiygan yugurdaklar... Men butun dahliz bo'ylab cho'zilgan yo'l-yo'l gilamga uzoqroq tikilib qolsam, bu xotinning hayotida g'alati, balki qalbaki rol o'ynaganim va bu rolni o'zgartirish endi qo'limdan kelmasligi ko'nglimdan o'tadi. Shundan so'ng o'z honamga yuguraman, to'shakka yotib olib o'ylaymaman, o'ylayman, lekin hech narsa o'ylab topolmayman, faqat bir narsa ravshan ko'rinadiki, yashashni istayman! Xonimning yuzi qanchalik xunukroq va sezgisizroq bo'la borsa, shunchalik u menga yoqadi va men ikkimizning bir-birimizga yaqinligimizni shunchalik kuchliroq va qattiqroq sezaman. Mayli, men «taqsir»ni bo'lay, mayli, bu yengiltak, beiltofot ohang davom etsin, mayli, istaganing bo'lay, lekin faqat meni tashlab ketma, joninam. Men endi yolg'iz qolishdan qo'rqaman.

So'ngra men yana dahlizga chiqaman, hayajon bilan quloq solaman... Men tushlik ovqatni ham yemayman, qanday kech kirganini

ham sezmayman. Nihoyat, soat o'ndan oshganda tanish qadamlar eshitiladi va zinapoya yonidagi muyulishda Zinaida Fyodorovna ko'rinadi. Yonimdan o'tayotib:

– Aylanib yuribsizmi? – deb so'raydi xonim. – Tashqariga chiqsangiz, yaxshiroq edi... Xayrli kech!

– Nahot, endi biz bugun ko'rishmaymizmi?

– Kech kirib qolganga o'xshaydi, lekin ixtiyoringiz.

Xonim ketidan xonaga kirib turib so'radim:

– Ayting-chi, qayerda bo'ldingiz?

– Qayerda bo'lardim? Monte-Karloda edim, – xonim cho'ntagidan o'ntacha oltin tangalarni chiqarib dedi: – Mana, taqsimim. Yutib oldim. Ruletka o'ynadim.

– Lekin endi o'ynamassiz.

– Nima uchun? Men ertagayam boraman.

Men xonimning behuzur, kasalmand qiyofada homiladorligini yashirish uchun belini qattiq qisgancha, asal ustida uymalashgan pashshalar singari tilla tangalar atrofini qurshagan buzuq xotinlar, aqldan ozgan kampirlar orasida qarta stoli oldida turishini ko'z oldimga keltirdim. Xonimning nima uchundir mendan yashirincha Monte-Karloga ketganini esladim.

– Men sizga ishonmayman, – dedim bir kuni. – Siz u joyga bormaysiz.

– Tashvish tortmang. Ko'p pul yutqizmayman.

– Gap yutqizishdamas, – dedim afsuslanib. – Siz o'sha yerda qimor o'ynagan chog'ingizda, oltinlarning yiltirashi, o'sha yerdagi qari va yosh xotinlarning hammasi, hamma vaziyat – ishchining mehnatini, joni-jahdi bilan ishlab to'kkan terini ablahlarcha, razilarcha masxaralashdan iborat ekani xayolingizga kelmadimi?

– Agar o'ynamasam, bu yerda nima ish qilaman? – deb so'radi xonim. – Ishchining mehnati, jon-jahdi bilan ishlab to'kkan teri kabi so'zlaringizni keyingi safargacha saqlab qo'ying, hozir esa o'zingiz gap boshlaganingiz uchun, menga davom ettirishga ruxsat bering; masalani ko'ndalang qo'yishga ruxsat eting: men bu yerda nima qilay?

– Nima qilmoq kerak? – dedim yelkalarimni qisib. – Bu so'roqqa birdan javob berish mumkinmas.

– Men sizdan vijdonan javob berishingizni o‘tinaman, Vladimir Ivanovich, – dedi xonim va jahli chiqdi. – Men bu so‘roqni sizga umumiy gaplarni eshitish uchun berganim yo‘q. Men sizdan so‘ramoqdaman, – deb davom etdi xonim shapalog‘i bilan stolga bir maromda urib, – men bu yerda nima qilishim kerak? Faqat bu yerda, Nitsadaginamas, umuman, nima qilishim kerak?

Men indamasdan, derazadan dengizga qaradim. Yuragim qattiq o‘ynamoqda edi.

– Vladimir Ivanovich, – dedi xonim ohista, entikib nafas olib; xonimga gapirish og‘ir edi. – Vladimir Ivanovich, agar siz o‘zingiz muayyan bir ishga ishonmas ekansiz, unga qaytishni o‘ylamas ekansiz, nechun... nechun siz meni Peterburgdan bu yerga sudrab keldingiz? Nega va‘da berdingiz va nega menda telba umidlar qo‘zg‘atdingiz? Sizing e‘tiqodlaringiz o‘zgardi, siz boshqa odam bo‘lib qoldingiz, hech kim sizni buning uchun ayblamaydi, e‘tiqodlar har doim kishi ixtiyoridamas, lekin... Vladimir Ivanovich, Xudo haqi, nima sababdan siz samimiymassiz? – deb davom etdi xonim asta, menga yaqin kelib. – Men shu oylar ichida ovoz chiqarib xayol surganimda, alahlaganimda, o‘z rejalarimdan xursand bo‘lib, maroqlanganimda, o‘z hayotimni yangi usulga ko‘chirayotganimda, siz nima uchun menga haqiqatni gapirmadingiz, indamadingiz, balki hikoyalaringiz bilan meni quvvatlab, o‘zingizni bus-butun menga xayrixoh ravishda ko‘rsatdingiz? Nima uchun? Bu narsa nima uchun kerak edi?

– Sharmanda bo‘lganimni iqror etish qiyin, – dedim o‘girilib, lekin xonimning yuziga qaramadim. – To‘g‘ri, men ishonchimni yo‘qotdim, toliqdim, ruhim tushdi... Samimiy bo‘lish og‘ir, judayam og‘ir, shuning uchun men indamagandim. Boshimdan o‘tkazgan savdolarni Xudo hech kimning boshiga solmasin.

Men hozir yig‘lab yuboradiganday ko‘rindim-da, indamay qoldim.

– Vladimir Ivanovich, – dedi xonim va mening ikki qo‘limdan ushladi. – Siz ko‘p narsani ko‘rgansiz va ko‘p narsani boshdan kechirgansiz, mendan ko‘ra ko‘proq bilasiz; yaxshilab o‘ylab ko‘ring va menga ayting: men nima qilayin? Menga o‘rgating. Agar endi qadam bosishga va orqangizdan boshqalarni ergashtirib ketishga kuchingiz yetmasa, hech bo‘lmasa, qayoqqa yurish kerakligini menga

ko'rsatib bering. Xo'p deng, axir, men tirik, sezgisi va aqli bor bir odamman. Noqulay ahvolga tushib qolish... allaqanday bo'lmag'ur bir rolni o'ynash... men uchun og'ir. Men sizdan gina qilmayman, sizni ayblamayman, faqat o'tinib so'rayman.

Choy keltirdilar.

– Xo'sh, nima deysiz? – deb so'radi Zinaida Fyodorovna, menga stakanni uzatib turib. – Menga nima maslahat berasiz?

– Tuynukdan tushgan shu'lani quyosh deb bo'lmaydi, – deb javob berdim. – Mendan boshqa odamlar ham bor, Zinaida Fyodorovna.

– Bor bo'lsa, o'shalarni menga ko'rsating, – dedi xonim darrov. – Mening sizdan o'tinib so'rayotganim ham faqat shu xolos.

– Men yana aytmoqchimanki, – davom etdim, – g'oyaga turli sohadayam xizmat qilish mumkin. Bir sohada adashgan, ishonchni yo'qotgan bo'lsangiz, ikkinchi bir sohani topish mumkin. G'oyalar dunyosi keng va bepoyondir.

– G'oyalar dunyosi! – dedi xonim va yuzimga kulib qarab qo'ydi. – Yaxshisi, bu to'g'rida gapirmay qo'yaqolaylik... Nimaniyam gapirardik...

Xonim qizarib ketdi.

– G'oyalar dunyosi! – deb takrorladi xonim va qog'ozsochiqni bir chetga irg'itib tashladi, yuzlari esa qahrli, jirkanuvchi tus oldi. – Sizning barcha mana shu go'zal g'oyalaringiz, bilishimcha, muqarrar va zaruriy bir ishga olib boradi, ya'ni men sizning ma'shuqangiz bo'lishim kerak. Sizga keragi mana shu. G'oyalar bilan shug'ullangan holda, eng nomusli, eng g'oyali kishining ma'shuqasiga aylanmaslik g'oyalarni tushunmaslik ekan-da. Ishni mana shundan, ya'ni ma'shuqalikdan boshlash kerak... Qolganlari esa o'z-o'zidan qo'shilaverar ekan-da.

– Siz achchiq ustida gapiryapsiz, Zinaida Fyodorovna, – dedim.

– Yo'q, men samimiy gapiryapman! – deb qichqirdi xonim, og'ir nafas olib. – Men sidqidildan gapirdim.

– Balki siz samimiy gapirgandirsiz, lekin yanglish gapirdingiz. Sizning gapingizni eshitish menga og'ir.

– Men yanglishibman-da! – deb kulib yubordi xonim. – Boshqa birov gapirsayamki, siz gapirmang, taqsim. Mayli, men sizga

qo'pol, beodob muomala qilgan bo'lib ko'rinarman, lekin qanday bo'lmasin, siz meni sevasizmi? Sevasiz-ku, axir!

Men yelkalarimni qisdim.

– Yelkalaringizni qissangiz, qisaverasiz! – dedi xonim kulib. – Kasal yotgan chog'ingizda men sizning alahlaganingizni eshitganman, so'ng doimiy oshiqona ko'zqarashlaringiz, oh-vohingiz, yaqinlik, ruhiy birlik to'g'risida xush niyatli gaplaringiz... Lekin eng muhimi, nima uchun shu vaqtgacha samimiy emasdingiz? Nima uchun siz bor narsani yashirib, yo'q narsa to'g'risida gapirib yurdingiz? Qanday g'oyalar meni Peterburgdan ergashtirib chiqish uchun sizni majbur etganini avvalboshdanoq aytib qo'yaqolganingizda, men nima qilishimni bilgan bo'lardim. Men o'sha vaqtdayoq zahar ichib qo'yaqolardim va hozirgi bema-za komediya ham bo'lmasdi... E, nimaniam gapiray! – deb xonim menga qo'l siltadi va o'tirdi.

– Siz buzuq niyatlari bor degan tarzda gapiryapsiz, – deb xafa bo'ldim.

– Xo'sh, mayli endi. Bo'lar ish bo'ldi. Men sizning niyatlaringizdan gumonsiraganim yo'q, sizning hech qanday niyatingiz bo'lmaganini gapiryapman. Agar niyatlaringiz bo'lganda edi, menga ma'lum bo'lardi. G'oya bilan sevgidan boshqa sizda hech narsa yo'q. Hozir g'oya bilan sevgi, istiqbolda esa – kamina, ya'ni ma'shuqa. Hayotdayam, romanlardayam ish shu tartib bilan boradi... Mana, siz Orlovni yomonlardingiz, – dedi xonim va kaftini stolga urdi, – lekin uning fikriga qo'shilishga kishi majbur bo'ladi. Uning g'oyalarni yomon ko'rishi bejizmas.

– U g'oyalarni yomon ko'rmaydi, ulardan qo'rqadi, – deb qich-qirdim, – u qo'rqoq va yolg'onchi.

– Xo'p, mayli! U qo'rqoq, yolg'onchi va meni aldab ketdi, lekin siz-chi? Ochig'ini gapirganim uchun kechirasiz: siz kimsiz? Orlov meni aldadi va Peterburgda tashlab ketdi, siz esa meni aldab, bu yerga tashladingiz. Lekin Orlov aldoqchilikka g'oyalarni aralashtirgani yo'q, siz esa...

– Xudo haqi, nima uchun siz bunday deysiz? – deb vahimaga tushdim va boshim qotib, shoshilganimcha xonimning yoniga keldim. – Yo'q, Zinaida Fyodorovna, yo'q, bu orsizlik, bu xil umidsizlanish yaramaydi, menga quloq soling, – deb davom etdim. Shunda

birdan boshimda sal yiltillagan va har ikkimizga ham najot berishi mumkinday ko‘ringan bir fikrga suyanib dedim: – Menga quloq soling. Men o‘z umrimda ko‘p narsa ko‘rdim, agar hozir xotirlasam, boshim aylanadi. Lekin endi miyam bilan, og‘riq ruhim bilan chuqur tushundimki, insonning vazifasi bitta, u ham bo‘lsa yo yaqin kishisiga fidokorona muhabbat qo‘yish, yoki boshqa hech narsa. Biz mana shunga qarab borishimiz kerak. Bizning vazifamiz mana shunda. Mening ishonchim mana shunday!

Yana men rahmdillik to‘g‘risida, hech narsani ko‘ngilga olmaslik to‘g‘risida gapirmoqchi edim, lekin tovushim birdaniga samimiy ohangini yo‘qotdi va men xijolatga tushdim.

– Yashagim keladi! – dedim sidqidildan. – Yashagim keladi! Men tinchlik, osoyishtalikni istayman, mana shu dengizni va sizning yonimda bo‘lishingizni istayman. O, men sizdayam mana shu ehtiros bilan yashash istagini qo‘zg‘atishni istardim! Siz hozirgina sevgi to‘g‘risida gapirdingiz. Lekin men uchun faqat yonimda bo‘lishingiz, ovozingizni eshitish va jamolingizni ko‘rish kifoya...

Xonim qizarib ketdi va mening gapimni kesish uchun shoshilib:

– Siz hayotni yaxshi ko‘rasiz, men esa uni yomon ko‘raman. Demak, ikkimizning yo‘limiz har xil, – dedi.

Xonim o‘ziga choy quydi, lekin bir ho‘plam ham ichmay yotoqxonasiga kirib ketdi.

– Men o‘ylaymanki, biz shu gaplarni yig‘ishtirib qo‘ysak, yaxshi bo‘lardi, – dedi xonim yotgan joyidan. – Men uchun endi hamma narsa tamom bo‘ldi, menga hech narsa kerakmas... Ortiqcha gapning hech keragi yo‘q!

– Yo‘q, hammasi tamom bo‘lgani yo‘q!

– Bas endi, mayli!.. Bilaman! Ko‘nglimga urdi... Bas.

Men birpas turdim, burchakdan burchakka yurdim-da, dahlizga chiqib ketdim. So‘ngra, yarim kechadan keyin xonimning eshigi yoniga kelib, quloq solgandim, yig‘i tovushi aniq eshitildi.

Ertasi kun ertalab yugurdak menga kiyim uzatayotib, tabassum bilan, o‘n uchinchi xonadagi xonimni dard tutayotganini xabar qildi. Men chala-chulpa kiyinib, hovliqib, Zinaida Fyodorovnaning yoniga yugurdim. Xonimning xonasida doktor, doya va Darya Mixaylovna degan xarkovlik rus xotin bor edi. Efir dorisining hidi kelib turardi. Ostonadan hatlab o‘tishim bilan xonim yotgan bo‘lmadan ohista ing-

ragan tovush eshitildi, go'yo bu tovushni Rossiyadan shamol uchi-rib kelganga o'xshadi, Orlov, uning istehzosi, Polya, Neva daryosi, laylakqor, soyabonsiz izvosh va ertalabki sovuq osmonni tomosha qilganimda ko'nglimga kelgan bashorat esimga tushdi va: «Nina! Nina!» degan faryod eshitinganday bo'ldi.

– Siz xonimning yoniga kirib chiqing, – dedi xarkovlik xotin.

Men o'zimni xuddi chaqaloqning otasiday sezib, Zinaida Fyodorovnaning yoniga kirdim. Xonimning rangi oppoq oqargan, ozg'in, boshida to'r kulo'ta, ko'zini yumib yotardi. Esimdaki, shu mahal xonimning chehrasida ikki xil ko'rinish bor edi: biri – beparvo, sovuq, so'lg'in ko'rinish, ikkinchisi – boshidagi oq kulo'ta bolalarni-kiga o'xshab, noilojlik aks etib turardi. Xonim mening kirganimni bilmadi, bilgan bo'lsa ham, e'tibor bermadi. Men tik turib xonimga qaradim va kutdim.

Birdan xonimning yuzi og'riqdan qiyshaydi, ko'zlarini ochib, nima hodisa bo'lganini bilishga uringanday menga qaradi... Uning yuzlarida nafrat aks etdi.

– Iflos, – deb shivirladi xonim.

– Zinaida Fyodorovna, – deb chaqirdim astagina.

U menga beparvo va sust qaradi-da, ko'zlarini yumib oldi. Men birpas turgach, chiqib ketdim.

Kechasi Darya Mixaylovna menga qiz tug'ilganini, lekin qizning onasi og'ir ahvolda ekanini xabar qildi; so'ng dahlizda yugur-yugur, shovqin-suron bo'ldi. Mening yonimga yana Darya Mixaylovna rangi o'chgan holda kelib, barmoqlarini qisirlatib, shunday dedi:

– O, naqadar mudhish! Do'xtir, xonim zahar ichgan bo'lsa kerak, deb gumon qilyapti. O, bu yerda ruslar yomon ish qilyaptilar!

Ertasi kun tush paytida Zinaida Fyodorovna uzildi.

XVIII

Ikki yil o'tdi. Sharoit o'zgardi, men yana Peterburgga keldim, endi bu yerda yashirinmasdan yashashim mumkin edi. Men endi ta'sirchanlikdan va ta'sirchan bo'lib ko'rinishdan cho'chimasdim. Zinaida Fyodorovnaning qizi mening otalik hislarimni yoki to'g'rirog'i, xudojo'ylik hislarimni uyg'otib yuborgani uchun men butunlay shu hislarga berilib ketdim. Men qizchaga o'z qo'lim bilan ovqat berar, cho'miltirar, uxlashga yotqizar va kechalari ham undan

ko'zimni uzmas edim, agar enaga qo'lidan tushirib yuborayotganday ko'rinib qolsa, birdan qichqirardim. Mening oddiy hayotni istashim vaqt o'tishi bilan tobora kuchliroq, tashvishliroq bo'ldi, lekin butun orzum Sonyadan edi, go'yo menga kerakli narsani, nihoyat, shu qizchadan topgandim. Men bu qizchani telbalarcha yaxshi ko'rardim. Bu qizchada men o'z hayotimning davomini ko'rardim, nihoyat, bir kuni men o'lganimda, novcha, oriq, uzun soqolli tanam qaro yer ostiga kirganda, mening hayotim mana shu moviy ko'zlarda, novvotrang ipakday sochlarda va yuzlarimni mehr bilan silab, bo'ynimdan quchoqlovchi do'mboqqina pushtirang qo'lchalarda davom etishini gumon qilibgina qolmay, sezardim va qariyb ishonardim.

Sonyaning taqdiri meni cho'chitardi. Uning otasi Orlov edi, tug'ilish shahodatnomasida esa Krasnovskaya deb yozilgandi, bu qizning dunyoda borligini biluvchi va shunga qiziquvchi birdan-bir odam men bo'lsam, o'zim zo'rg'a yurardim. Qizcha to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish kerak edi.

Peterburgga kelishimizning ikkinchi kuniyoq men Orlov yoniga bordim. Chakkasoqollari sap-sariq, mo'ylovsiz, aftidan, nemisga o'xshagan yo'g'on bir chol menga eshikni ochdi. Mehmonxonani yig'ishtirib yurgan Polya meni tanimadi, lekin Orlov darrov tanidi.

– Ha, isyonchi janoblari! – dedi u menga qiziqsinib qarab va kulib. – Qanday shamol uchirdi?

U hech o'zgarmagandi: hamon o'sha yiltillagan, yoqimsiz yuz va o'sha istehzoli boqish. Stolda ham xuddi ilgarigi singari allaqanday yangi bir kitob yotar, kitob ichiga dandonsop pichoq shaklida yasalgan xatcho'p qistirilgandi. Aftidan, u men kelishim oldidan o'qib turgan bo'lsa kerak. U meni o'tqizgach, tamaki chekishga taklif qildi va faqat juda yaxshi tarbiya ko'rgan kishilarga xos sipogarchilik bilan, mening qiyofam va qotma qomatim qo'zg'atgan yoqimsiz tuyg'uni yashirib turib hech o'zgarmaganimni, hatto soqolim juda o'sib ketganiga ham qaramasdan, tanish osonligini gapirdi. Ob-havo to'g'risida, Parij to'g'risida gaplashdik. O'zini va meni qiynab turgan og'ir so'roqdan tezroq qutulish uchun so'radi:

– Zinaida Fyodorovna vafot etdimi?

– Ha, vafot etdi, – dedim.

– Tug'ish chog'idami?

– Ha, tug‘ish chog‘ida. Do‘xtir o‘limining sababini boshqacha gumon qildi, lekin... siz uchun ham, men uchun ham, xonim tug‘ishdan o‘ldi, deb o‘ylash betashvishroqdir.

U odob yuzasidan uh tortdi va jim qoldi. Rahmatli xonim xotirasi uchun bir nafas sukut davom etdi.

– Shunday. Mening uyimda esa hamma narsa eskicha, hech qanday ortiqcha o‘zgarish yo‘q, – dedi u shoshib, kabinetga ko‘z yugurtirganimii ko‘rib. – Otam, o‘zingiz bilasiz, iste’foga chiqqan, anchadan beri dam olib yotibdi, men esa hamon eski o‘rnimdaman. Pekarskiy esingizdami? U hamon boyagiday. Gruzin o‘tgan yil bo‘g‘ma kasalidan vafot etdi... Kukushkin esa o‘sha-o‘sha, tez-tez sizni esga olib turadi. Aytmoqchi, – deb davom etdi Orlov uyalgan-simon yerga qarab, – Kukushkin sizning kimligingizni bilgandan keyin go‘yo siz unga hujum qilib, uni o‘ldirmoqchi bo‘lganingizni... va u zo‘rg‘a qutulganini har joyda so‘zlab yurdi.

Men indamadim.

– Eski xizmatkorlar o‘z xo‘jayinlarini esdan chiqarmaydilar... Siz juda yaxshi keldingiz, – deb hazillashdi Orlov. – Balki musallas yoki qahva icharsiz? Hozirlashga buyuray.

– Yo‘q, rahmat. Men sizning yoningizga juda bir muhim ish bilan keldim, Georgiy Ivanich.

– Men muhim ishlarni yaxshi ko‘rmaydigan odamman. Lekin shunday bo‘lsayam, xizmat ko‘rsatishdan xursandman. Nima xizmat?

– Bilasizmi, – deb boshladim hayajon bilan, – hozirgi vaqtda rahmatli Zinaida Fyodorovnaning qizi mening qo‘limda... Hozirgi kungacha men uning tarbiyasi bilan shug‘ullanib keldim, lekin ko‘rib turibsizki, yaqin o‘rtada men abadiy ko‘z yumaman. Men shu qizchani biror joyga o‘rmashtirib, ko‘nglimni tinchitib ketish fikridaman.

Orlov sal qizardi, qovog‘ini soldi va o‘ng‘aysizlanib menga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi. Unga «muhim ish»dan ko‘ra ham mening abadiy ko‘z yumishim haqidagi so‘zlar ko‘proq ta’sir etdi.

– Rost, bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rish kerak, – dedi u ko‘zlarini xuddi quyoshdan berkitgansimon to‘sib. – Rahmat sizga. Qiz, dedingizmi?

– Ha, qiz. Ajoyib qiz!

– Shunday: U, albalta, kuchukmas, odam... Ma'lumki, jiddiy o'ylab ko'rish zarur. Men ishtirok etishga tayyorman va... sizdan juda minnatdorman.

U o'rnidan turdi, tirnoqlarini tishlab u yon-bu yonga yurdi va surat yonida to'xtadi.

– Bu to'g'rida o'ylab ko'rish kerak, – dedi u sekin, menga orqasini o'girib turib. – Men bugun Pekarskiynikiga boraman va undan Krasnovskiy yoniga borib kelishini iltimos qilaman. O'ylaymanki, Krasnovskiy uzoq bosh qotirib o'tirmasdan qizchani olishga rozi bo'lar.

– Lekin, kechirasiz, men bilmayman, bu ishga Krasnovskiyning nima dahli bor, – dedim o'rnimdan turib va kabinetning ikkinchi burchidagi surat yoniga kelib.

– Axir, qizcha uning familiyasida-ku, – dedi Orlov.

– To'g'ri, ehtimol u qonun bo'yicha bolani o'ziga olishga majburdir, men bilmayman, lekin men sizning yoningizga, Georgiy Ivanich, qonun to'g'risida gaplashish uchun kelganim yo'q.

– To'g'ri, to'g'ri, siz haqsiz, – dedi u darrov mening gapimga qo'shilib. – Men bo'lmag'ur gapni gapirganga o'xshayman. Lekin siz tashvish tortmang. Biz bu masalani sixniyam, kabobniyam kuydirmay muhokama etib ko'ramiz. Bir qarorga kelmasak, ikkinchisiga, ikkinchisi bo'lmasa, uchinchisiga to'xtalib, xullas, bu nozik masalani hal etamiz. Pekarskiy hamma ishni to'g'rilaydi. Siz marhamat qilib, manzilingizni qoldiring, nimaiki qarorga kelsak, sizga darrov yozib yuboramiz. Qayerda turasiz?

Orlov manzilimni yozib olgach, yengil nafas oldi va kulib turib:

– Qanday ish bu, Xudoyim, kichkina qizning otasi bo'lmoq?! Lekin Pekarskiy hamma ishni to'g'rilaydi. Uning miyasi joyida. Siz Parijda qancha turdingiz? – deb so'radi.

– Ikki oycha turdim.

Biz jim qoldik. Orlov, aftidan, mening yana qizcha to'g'risida gap boshlashimdan cho'chigan bo'lsa kerak, diqqatimni boshqa tomonga tortish uchun shunday dedi:

– Siz, ehtimol, yozgan xatingizni esdan chiqarmagandirsiz. Men bu xatni saqlab qo'yganman. Sizning o'sha chog'dagi kayfiyatingizni tushunaman va rostini aytsam, shu xatni hurmat qilaman. La'nati, sovuqqon, osiyolik, ot kulgisi deb ishlatgan so'zlaringiz

juda yaxshi va xarakterlidir, – u istehzoli jilmayib gapida davom etdi: – Garchi uzluksiz tortishuv mumkin bo‘lsa-da, lekin bu xatdagi asosiy fikr haqiqatga yaqindir. Ya’ni, – deb tutilib qoldi u, – fikrning o‘zi bilanmas, sizning masalaga bo‘lgan munosabatingiz, sizning jo‘shqinligingizga nisbatan bahslashish mumkin. To‘g‘ri, mening hayotim qolipdan chiqqan, buzilgan, hech narsaga yaramaydi, yangi hayot boshlashga esa qo‘rqoqlik xalaqit beradi, bu o‘rinda siz mutlaqo haqsiz. Ammo bu narsani yurakka yaqin olishingiz, hayajon va umidsizlikka tushib qolishingiz bahonamas, bu o‘rinda siz mutlaqo haqlimassiz.

– Tirik odam o‘zining va atrofdagilarning halok bo‘layotganini ko‘rganda hayajonlanmasdan, tashvishga tushmasdan iloji yo‘q.

– Kim iloji bor deydi?! Men mutlaqo beparvolikni targ‘ib etayotganim yo‘q, men hayotga beg‘araz munosabatda bo‘lishni istayman. Munosabat qancha beg‘araz bo‘lsa, xatoga yo‘l qo‘yish xavfi shuncha oz bo‘ladi. Masalaning ildiziga qarash kerak va har hodi-sadan hamma sabablarning sababini qidirish kerak. Biz zaiflashib ketdik, tubanlashdik, nihoyat, razolatga uhradik, bizning avlodimiz nuqul asabiylashgan va injiq odamlardan iborat, bizning topib olgan gapimiz charchoq, zaiflashish to‘g‘risida, xolos. Lekin bunga siz va men aybdormasmiz, butun boshli bir avlodning taqdiri bizning xohishimizga bog‘liq bo‘lishi uchun biz juda kichkinalik qilamiz. Bu o‘rinda, kattaroq, umumiyroq, biologik nuqtai nazardan kattagina ichki ma‘nosi bo‘lgan sabablar bor, deb o‘ylash kerak. Biz asabiy kishilarmiz, lattaday bo‘shashganmiz, yo‘limizdan qaytganmiz, lekin ehtimol bu ahvol bizdan keyin yashovchi avlodlar uchun kerakli va foydali bo‘lib chiqar. Kishining biror tola mo‘yi Xudoyi taoloning amridan tashqari bo‘lmaydi, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, tabiatdagi va insonlar o‘rtasidagi hodisalar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Hammasining biror sababi va zaruriyati bor. Garchi shunday ekan, bizning ortiqcha tashvishlanishimizning va kuyib-yonib xatlar yozishimizning nima hojati bor?

– Shundaylikka-ku shunday, – dedim o‘ylab. – Men so‘nggi avlodlarga osonroq va ravshanroq bo‘lishiga ishonaman; bizning tajribamiz ularga xizmat etadi. Biroq faqat kelgusi nasllar uchunmas, ulardan mustaqil yashagimiz ham keladi, axir. Odam bir marta umr

ko'radi va shu umrni quvnoq, mazmunli, chiroyli o'tkazgisi keladi. Ko'zga ko'rinarli, mustaqil, oliyanob rol o'ynaging keladi. Kelgusi nasllar bizning har birimiz to'g'risida: ular arziyas kishilar edilar yoki undan ham battar edilar... demasliklari uchun katta ishlar qilg-ing keladi. Tevaragimda bo'lib turgan ishlarning maqsadga muvofiq va zarurat ekaniga ishonaman, lekin bu zarurat bilan mening nima ishim bor, nima uchun mening shaxsim barbod bo'lishi kerak?

– Xo'sh, nima qilish kerak? – deb Orlov uh tortdi va o'rmidan turib, go'yo bizning suhbatimiz endi tamom bo'lganiga ishora qilg-anday bo'ldi.

Men qalpog'imni qo'lga oldim.

– Atigi yarim soat o'tirdik, xolos. Lekin qancha masalalarni hal etdik, qarang-a! – dedi Orlov meni dahlizgacha kuzatayotib. – Shunday qilib, men boyagi to'g'risida urinaman... Bugunoq Pekarskiy bilan ko'rishaman. Ko'nglingiz to'q bo'lsin.

Men kiyinguncha u to'xtab kutib turdi, aftidan, hozir ketishimni o'ylab xursand bo'lmoqda edi.

– Georgiy Ivanich, xatimni menga qaytarib bering, – dedim.

– Xo'p bo'ladi!

U kabinetga kirib ketdi va bir daqiqadan so'ng xatni olib chiqdi, men tashakkur bildirib, chiqib ketdim.

Ertagisi kun undan xat oldim. Xatda u meni masalaning muvaffaqiyatli hal bo'lishi bilan tabriklagandi. Pekarskiyga tanish bir ayol bor, deb yozgandi u, shu ayol qaramog'ida bolalar bog'chasiga o'xshash bir pansion bor, shunga hatto eng kichkina bolalar ham qabul qilinadi. Shu ayolga butkul ishonish mumkin, lekin u bilan kelishuvdan ilgari, Krasnovskiy bilan gaplashib olish yomon bo'lmaydi – rasmiyatchilik shuni talab etadi. Tezda Pekarskiy huzuriga borishni va agar bor bo'lsa, tug'ilganlik guvohnomasini birga olib borishni maslahat bergandi. *«Dargohi xizmatigizda bo'lgan kaminan-gizning samimiy hurmati va izhori sadoqatini qabul qilgaysiz...»*

Bu xatni o'qiganimda, Sonya stolda o'tirar va xuddi o'z taqdiri hal bo'layotganini sezganday menga diqqat bilan kiprik qoqmasdan tikilib turar edi.

OLTINCHI PALATA

I

Kasalxona hovlisida kichikroq bir imorat turibdi, atrofini o‘rmon singari qirqqiz, qichitqon, yovvoyi alaf bosib ketgan. Tomning tunukasi zanglagan, mo‘risining yarmi qulab tushgan, kiraverishdagi zinapoya taxtalari chirib, o‘t bosib ketgan, suvog‘ining izigina qolgan. Imoratning oldi kasalxonaga, orqasi dalaga qaragan, daladan uni kasalxonaning ustiga mix qoqilgan kulrang devori ayirib turadi. O‘tkir uchlari yuqoriga qarab turgan shu mixlar va shu devor, shu imoratning o‘zi ham – bizda faqat kasalxona va turma binolariga xos – juda befayz va xunuk ko‘rinardi.

Agar qichitqon lovullatishidan qo‘rqmasangiz, bu imoratga tor so‘qmoq yo‘ldan borib, ichidagi ahvolni ko‘raylik. Birinchi eshikni ochib, dahlizga kiramiz. Devor ostida, pechka yonida kasalxonaning eski-tuskilari uyulib yotibdi. To‘shaklar, ilma-teshik eski choponlar, ishtonlar, ko‘k yo‘lli ko‘ylaklar, hech narsaga yaramaydigan eski poyabzallar – bu yirtiq-yamoqlar bir-biriga qorishgani holda chirib, nafasni bo‘g‘adigan sassiq hid chiqarib yotadi.

Eski-tuskilarning ustida esa doim cho‘bug‘ini tishlab, harbiy xizmatdan bo‘shagan, formasiga yopishtirilgan belgilarning rangi o‘chib ketgan keksa askar Nikita yotadi. Uning yuzi ozg‘in, qovog‘i soliq, o‘siq qoshlari va qizil burni chehrasiga yovvoyi ovcharka qiyofasini berib turadi; o‘rta bo‘yli, ko‘rinishidan qotma va chayir; lekin jussasi bahaybat, mushtlari ham juda baquvvat. Uning o‘zi dunyoda hamma narsadan ko‘ra ko‘proq intizomga berilgan, shuning uchun ham, odamlarni urish kerak, degan fikrga qattiq ishonadigan, nima buyurilsa, darhol bajaradigan, soddadil va befahm kishilardan biri. U odamlarni ko‘kragi, yelkasi, yuzi-ko‘zi demay, duch kelgan joyiga uradi va shusiz bu yerda intizom bo‘lmaydi, deb ishonadi.

Agar dahliz hisobga olinmasa, undan keyin haligi binoga, katta, keng uyga kirasiz. Uyning devori xira ko‘k rangga bo‘yalgan, mo‘risiz uydagidek shiftini qurum bosgan – bu yerda qishda pechkalardan tutun qaytishi va is chiqishi shubhasiz. Ichki tomonidan temir panjara o‘rnatilib derazalar rasvo kilingan. Pol bo‘yalmagan, zirapchalari chiqib yotibdi. Uydan achigan karam, qora chiroq, qandala

va shiptir hidi keladi. Bu hid dimog'iga urilgan kishi dastlab yirtqich hayvonlar katagiga kirgandek bo'ladi.

Uyda polga mixlab qo'yilgan karavotlar turibdi. Karavotlarda egnilariga ko'k xalat, boshlariga qadimgi qalpoq kiygan odamlar yotibdi, ba'zilar o'tiribdi. Bular – jinnilar.

Hammasi bo'lib ular besh kishi. Faqat bittasi kiborlardan, qolganlari meshchanlar. Eshikdan kiraverishdagi birinchi kishi novcha bo'yli, ozg'in, yiltillab turgan sariq mo'ylovli, meshchancha boshini qo'llariga tirab, yig'idan qizargan ko'zlarini bir nuqtaga tikib o'tiribdi. U kecha-yu kunduz g'amgin xo'rsinadi va boshini chayqab-chayqab qo'yadi, alam bilan jilmayadi; suhbatga kam qatnashadi va odatda savolga javob bermaydi. Ovqat berilsa, beixtiyor yeydi. Tinmasdan qiynalib qisqa-qisqa yo'talishiga, ozg'inligiga va yanoqlarining yallig'lab turishiga qaraganda, unda sil kasali endi boshlanganga o'xshaydi. Uning naryog'ida cho'qqisoqol, zanjilarga o'xshash qop-qora jingalak sochli, juda pitrak chol joylashgan. Kunduzlari u palatada derazalar orasida qatnaydi yoki to'shagida chordon qurib o'tirib, tinmasdan to'rg'ayga o'xshab hushtak chaladi, xirgoyi qiladi va qiqir-qiqir kuladi. U kechalari Xudoga sig'ingani, ya'ni mushtumi bilan ko'kragiga urgani va barmog'i bilan eshikni kovlagani turganida ham bolalarcha quvnoq va pitrak bo'ladi. Bu Moiseyka degan juhud, qalpoq tikadigan ishxonasiga yigirma yilcha avval o't tushgach, es-hushidan ayrilib qolgan tentak.

6-raqamli palatadagilardan yolg'iz shungagina hovliga, hatto kasalxonada hovlisidan ko'chaga chiqishga ruxsat berilgan. U kasalxonaning qadrdon kishisi va beozor, beziyon tentagi. Allaqachonlardan buyon ko'chalarda uni bolalar va itlar bilan qurshalgan holda ko'rishga odatlanilgan shaharning masxarabozi bo'lgani uchun bunday huquqdan ko'p vaqtdan buyon foydalansa kerak. U ko'chalarda egniga chopon, boshiga g'alati qalpoq, oyog'iga tufli kiyib, ba'zan yalangoyoq, hatto ishtonsiz ham yuraveradi. Eshik va do'konlar oldida to'xtab, bir tiyin so'raydi. Bir yerda unga kvas, ikkinchi yerda non, uchinchi yerda bir tiyin berishadi. Shunday qilib, u odatda, xonasiga qorni to'yib va boyib qaytadi. Olib kelgan narsasining hammasini Nikita tortib oladi. Bu qiliqni askar dag'allik bilan astoydil cho'ntaklarini ag'darib va Xudoni o'rtaga solib, bun-

dan so'ng juhudni aslo ko'chaga chiqarmay qo'yishini va dunyoda tartibsizlikdan ko'ra yomon ko'rgan ishi yo'qligini aytib qiladi.

Moiseyka sermanzirat. O'rtoqlariga suv beradi, uxlab yotgan bo'lsalar, ustlarini yopib qo'yadi, ko'chadan ularga bir tiyindan pul keltirishni, yana hammasiga bittadan yangi qalpoq tikib berishni va'da qiladi; so'l tomonda yotgan falaj qo'shnisiga qoshiq bilan ovqat yedirib qo'yadi. Bu ishlarni u ichi achiganidan yo biror odamgarchilik yuzasidan emas, o'ng tomonidagi qo'shnisi Gromovga taqlid etib, beixtiyor, unga bo'ysunganidan qiladi.

Ivan Dmitrich Gromov o'ttiz uch yoshga kirgan kishi; o'zi kiborlardan, ilgari sud noziri va gubernator kotibi bo'lgan, hozir ta'qib vasvasasi degan dardga muhtalo. U g'ujanak bo'lib o'rnida yotadi yo sayr qilayotgan odamdek uying u boshidan bu boshiga qatnaydi, juda kam o'tiradi. U qandaydir bir noma'lum narsani kutib, doim hayajon ichida, vahima changalida, diqqat qilib turadi. Agar dahlizda biron sharpa sezsa yo hovlida biron tovush eshitsa, bas, darrov boshini ko'taradi va: meni olib ketgani kelayotgan bo'lmasinlar, meni izlayotgan bo'lmasinlar, deb quloq soladi. Shunday paytda uning yuzida qattiq bezovtalik va nafrat aks etadi.

Menga uning yanoqlari chiqqan, keng, hamisha xomush va zahil, ko'p vaqtlardan buyon vahima bilan kurashib, azob chekib kelayotgan qalbini oyna kabi o'zida aks ettirib turgan yuzi juda yoqadi. Uning yuz burishtirishlari g'alati, biron og'riqning natijasiga o'xshaydi; lekin chuqur va haqiqiy iztirob iz tashlagan latif chehrasida idrok va zakiylik alomati bor. Ko'zlarida yoqimtoylik, salomatlik jilvasi ko'rinadi. Uning o'zi menga ma'qul, yoqimli, sermulozamat va Nikitadan boshqa hammaga juda odob bilan muomala qiladi. Biror kishining qoshig'i yoki tugmasi tushib ketsa, sakrab turib olib beradi. Har kuni ertalab o'rtoqlariga salom beradi. O'rniga yotarkan, ularga xayrli kech tilaydi.

Diqqati doimo qattiq ishlab turishi va yuz burishtirishlaridan tashqari, uning jinniligi yana shundan iboratki, ba'zan u kechqurunlari choponga o'ranib, a'zoyi badani qaltirab, tishi tishiga tegib takillab, xonaning u boshidan bu boshiga va karavotlar orasida tez-tez yura boshlaydi. Go'yo uni qattiq bezgak tutayotganga o'xshaydi. To'satdan to'xtab, o'rtoqlariga qarab qolishidan qandaydir juda muhim gap aytmoqchi bo'lgani bilinadi, lekin so'zimga quloq solish-

maydi yoki tushunishmaydi, degan xayolga boradi, shekilli, chidamsizlik bilan bosh silkitadi-yu, yana yuraveradi. Lekin tezda soʻzlash istagi barcha mulohazalardan gʻolib keladi-da, u oʻzini qoʻyib yuborib, qizgʻin va ehtiros bilan soʻzlaydi. Uning soʻzlari tartibsiz, xuddi alahlashga oʻxshash qisqa-qisqa, shiddatli, baʼzan tushunib boʻlmaydi. Shunisi borki, soʻzlarida ham, tovushida ham qandaydir gʻoyat yaxshi bir ohang bor. Soʻzlayotganda uning jinniligi va insonligi namoyon boʻlib turadi. Uning telbalik soʻzlarini yozib anglatish qiyin. U inson razilligi, haqiqatni boʻgʻuvchi jabr-zulm, yana vaqti kelib yer yuzida boʻladigan goʻzal hayot va har daqiqa zolimlarning ahmoqligi va berahmligini uning yodiga solib turgan derazalardagi temir panjaralar haqida soʻzlaydi. Uning soʻzlaridan hali zamoni oʻtmagan eski, tartibsiz va qovushmagan ashulalardan tuzilgan qurama pyesa hosil boʻladi.

II

Bundan 12–15 yillar avval, shaharning eng katta koʻchalaridan birida, oʻz hovlisida Gromov degan oʻziga toʻq obroʻli bir mansabdor boʻlib, uning Sergey va Ivan degan ikkita oʻgʻli bor edi. Sergey toʻrtinchi kurs talabasi ekan, sil boʻldi-yu, toʻsatdan oʻlib qoldi. Bu oʻlim Gromov oilasi ustiga toʻsatdan tusha boshlagan bir qancha baxtsizliklarning boshlanishi boʻldi. Sergeyning vafotidan bir hafta keyin keksa otasi qalbaki hujjatlar yasagani va hukumatning pulini yeb qoʻygani uchun sudga berildi va shu orada terlama boʻlib, turma kasalxonasida oʻldi. Uyi va butun mollari kimoshdi savdosi bilan sotilib, Ivan Dmitrich bilan onasi hech narsasiz qoldi.

Ilgari, otasi bor mahalda Ivan Dmitrich Peterburgda yashab, universitetda oʻqiyotgan chogʻida har oyda uyidan kelgan 60–70 soʻmni olib turar, muhtojlik nimaligini bilmas edi. Endi esa hayotini qatʻiy ravishda oʻzgartirishga toʻgʻri keldi. Arzimagan pul uchun ertadan kechgacha dars berish, xat koʻchirish kerak, shunga qaramay, ochintoʻqin qoldi. Chunki topgan pulining hammasini onasiga yuboradi. Ivan Dmitrich bunday turmushga dosh berolmadi, ruhi tushib, koʻngli sinib, oʻqishni yigʻishtirdi-da, uyiga ketdi. Bu yerda, oʻz shaharchasida tanishlari orqali uyezd maktabiga oʻqituvchi boʻlib kirdi. Lekin oʻrtoqlari bilan chiqisholmadi, oʻquvchilarga yoqmadi, tez kunda ishdan boʻshadi. Onasi oʻldi. U yarim yilcha ishsiz yurdi,

kuni faqat non-suv bilan o'tdi, so'ng sud noziri bo'lib o'rmasdi, kasalligi uchun ishdan bo'shatilguncha shu joyda xizmat qildi.

U hech qachon, hatto yigitlik, talabalik chog'ida ham sog'lom ko'rinmasdi. Qachon qarama, rangi ketgan, nimjon, salga shamolaydigan, chipxo'r, kamuyqu edi. Bir qadah musallas ichsa, darrov boshi aylanib, esini yo'qotib qo'yardi. Unda odamga aralashish mayli zo'r bo'lsa-da, o'zining tezligi va badgumonligi tufayli hech kim bilan oshna bo'lolmas, do'sti ham yo'q edi. Shahar aholisi haqida tahqir bilan so'zlab, ularning qo'pol nodonligi va g'aflat bosib, hayvonlarcha yashashi menga qabih va jirkanch tuyuladi, derdi. U ingichka ovoz bilan qichqirib, qizishib, doim astoydil yo nafratlanib va jahli chiqib, yo zavq bilan va taajjublanib so'zlardi. U bilan nima haqda so'zlashmang, gapni shu tomonga aylantirardi: shahar dim, kishi zerikadi, jamiyatda yuksak maqsad yo'q, hayotni jabr-zulm, fahsh, olchoqlik bilan turli shaklga kirgizib bema'ni kun kechiradi, muttahamlarning egni butun, qorni to'q, vijdonli odamlar ochinto'qin yashaydi; jamiyatga maktab, to'g'ri yo'lga boshlovchi mahalliy gazeta, teatr, ommaviy kitobxonlik, ilmiy kuchlarning bir o'ringa to'planishlari zarur; jamiyatning ongi shunchalik oshirilmog'i kerakki, o'z nuqsini ko'rib, kayfi uchib ketsin, derdi. U odamlar haqida fikr yuritganda quyuq bo'yoqlarni beradi, boshqa ranglarni inkor qilib, faqat oq bilan qoradan foydalanadi; uning fikricha, insoniyat muttahamlarga va to'g'ri odamlarga bo'linadi; o'rta xili bo'lmaydi. Xotinqizlar va muhabbat haqida doim ehtiros va zavq bilan so'zlaydi-ku, ammo o'zi biron marta oshiq bo'lmagan.

Fikrlarining keskinligi va o'zining asabiyligiga qaramay, shaharliklar uni suyushadi, erkalatib, orqasidan Vanya deb atashadi. Uning nazokati, sermulozamatligi, serandishaligi, go'zal axloqi, nimdoshgina kamzuli, zaif ko'rinishi va oilaviy baxtsizligi hammasi bir bo'lib kishida unga nisbatan qandaydir rahmdillik uyg'otadi: buning ustiga, o'zi ko'p kitob o'qigan, yaxshigina ma'lumotli va shaharliklarning fikricha, hamma narsadan xabardor, go'yo jonli lug'at edi.

U juda ko'p kitob o'qigan. Hamisha klubda o'tirar, asabiy holda kichkina soqolini o'ynab kitobmi, jurnalni varaqlardi; yuziga qarab turilsa, kitob o'qiyotganga emas, bir narsani chala chaynab yutayotganga o'xshardi. O'qish ham uning nosog'lom odatlarining biri, de-



yish mumkin, chunki qo'liga nima tushsa – bulturgi gazetami, taqvimmi – bir zayilda ishtiyoq bilan darhol o'qishga tutinardi. Uyida bo'lsa, kitobni doim yotib o'qirdi.

III

Kuz kunlarining birida ertalab palto yoqasini ko'tarib qo'yib tor ko'cha, pastqam joylarda loy shaloplatib Ivan Dmitrich ijro varaqa bo'yicha qandaydir meshchandan pul undirgani ketayotgandi. Bugun ertalab ham odatdagicha uning ta'bi xira. Tor ko'chalarning birida oyoqlariga kishan urilgan ikki mahbus bilan miltiq ko'targan to'rt askar uchradi. Ilgari ham Ivan Dmitrich shu singari mahbuslarni tez-tez uchratardi va har gal ular buning ko'nglini g'ash qilib, yuragini ezardi. Lekin bu galgi uchrashuv unda qandaydir alohida, ajoyib bir ta'sir qoldirdi. Nimagadir to'satdan uning ko'ngliga meni ham shularga o'xshatib, oyog'imga kishan urib, xuddi shu taxlitda loyda turmaga haydab ketishlari mumkin, degan gap keldi. Meshchanning uyida birpas o'tirgach, uyga qaytarkan, pochtaxona oldida o'ziga tanish mirshab nozirini uchratdi, nozir salomlashdi-da, birgalashib bir necha qadam yurdi, negadir bu voqea unga shubhali tuyuldi. Uyga kelib kechgacha haligi mahbuslar, miltiqli askarlar hayolidan nari ketmadi, anglab bo'lmaydigan bir vasvasa o'qishga va fikrni bir joyga to'plashga halaqit berdi. Kechqurun uyiga chiroq yoqmadi, tunni uxlamay, meni qamoqqa olib, kishanga solishlari va turmaga qamashlari mumkin, degan xayol bilan o'tkazdi. U hech qanday gunohi yo'qligini biladi va bundan so'ng ham hech kimni o'ldirmasligi, o't qo'yimasligi va o'g'irlik qilmasligiga ishonchi komil; lekin kishi o'zi bilmay turib yoki g'ayriixtiyoriy ravishda gunoh qilishi qiyinmi, tuhmatga qolish, qolaversa, sud xatosi-chi? Axir, xalqning asriy tajribasi: turmaga tushmayman, devona to'rvasini ilmayman, dema, degani bejiz emas-ku. Ayniqsa, sudyalarning hozirgiday ish olib borishida xato qilishlari juda aniq, yana bunda hayron bo'larli hech gap yo'q. Boshqalarning azobiga ish, xizmat yuzasidangina qaraydigan odamlar, masalan: sudyalar, mirshablar, doktorlar borib-borib shu qadar siyqa bo'lib ketishadiki, ishi tushgan odamga, harchand rasmiy muomala qilmayman, desalar ham qo'llaridan kelmaydi: bu jihatdan ular uy orqasida qo'y va buzoq so'yib qonga parvo qilmaydigan dehqondan farq qilmaydi. Shaxsga rasmiyatchilik, beparvolik bilan

munosabatda bo‘linarkan, bugunoq bir odamni barcha huquqlaridan, bor-yo‘g‘idan mahrum qilib, surgunga yuborish uchun sudyaga faqat bitta narsa kerak, u ham bo‘lsa vaqtdir. Ishning ba‘zi rasmiy jihatlarga rioya qilishga ketadigan vaqt (o‘sha rasmiyatlar uchun sudyaga oylik to‘lanadi), so‘ng – ish tamom. Qani undan keyin temiryo‘ldan ikki yuz chaqirim uzoqdagi bu kichkina, iflos shaharchada adolat va himoyatni izlab ko‘r-chi! Turli jabr-zulm, jamiyat tomonidan go‘yo shunday qilinishi lozim bo‘lgan bir ezgulikday qarshi olinib, har bir insof yuzasidan qilingan ish, masalan, birovni oqlash haqidagi hukm ularni qanoatlantirmay, intiqom uyg‘otgan yerda, haqiqat to‘g‘risida o‘ylashning o‘zi kishi kularli bir hol emasmi?

Ertalab Ivan Dmitrichning yuragini vahim olib, peshonasini sovuq ter bosgan va har daqiqada kelib, qamoqqa olib ketishlariga qattiq ishongan holda o‘rnidan turdi. Kechagi qoraxayollar bugungacha nari ketmagan ekan, deb o‘ylardi u, demak, bir gap bor-da. Axir, bekordan bekorga kishining boshiga bunday xayol kelmaydi-ku.

Mana, mirshabning sekin-sekin yurib deraza yonidan o‘tishi bejiz emas. Ikki kishi uy oldida to‘xtab, jim turibdi. Nega ular indamaydi?

Shu zayilda Ivan Dmitrich uchun mudhish kechalar va kunduzlar boshlandi. Deraza yonidan o‘tuvchilar va hovliga kiruvchilarning hammasi josus va izquvar bo‘lib ko‘rinaverdi. Odatda choshgoh paytida mirshabboshi ikki otli izvoshda ko‘chadan o‘tardi; o‘zining shahar yonidagi bog‘idan mirshabxonaga boradi, lekin har gal Ivan Dmitrichning nazarida u odatdagidan qattiqroq ot choptirayotgandek, ayrim bir tarzda: xuddi shaharda bir yangi xavfli gunohkor paydo bo‘lganini aytishga shoshilayotgandek ko‘rinardi. Ivan Dmitrich har qo‘ng‘iroq tovushidan, har darvoza taqillashidan cho‘chib tushadi, bekanikida har bir yangi odamni ko‘rganda, ko‘ngli qattiq g‘ash bo‘ladi; agar jandarm yoki mirshabga duch kelib qolsa, kulimsiraydi va beparvo bo‘lib ko‘rinish uchun hushtak chala boshlaydi. U butun-butun kechalarni qamoqqa olib ketishlarini kutib, mijja qoqmay o‘tkazadi, lekin uy bekasining nazariga uxlayotgandek ko‘rinish uchun qattiq xurрак tortib, og‘ir nafas olib chiqadi; modomiki, ko‘ziga uyqu kelmas ekan, vijdon azobi qiynayotgan bo‘ladi-da, gunohkor hisoblanishi uchun naqadar kuchli dalil, faktlar va sog‘lom mantiq uni bu vahimalarning hammasi – bo‘lmag‘ur gap va savdo-

yilik, agar masalaga chuqurroq qaralsa, qamoqqa olinishidan, turmaga qamalishdan qo'rqarli hech gap yo'q – ko'ngil xotirjam bo'lsa bas, deb ishontirar edi-ku, lekin qanchalik chuqurroq, mantiqliroq fikr yuritsa, vasvasa shunchalik kuchayib, battarroq qiynardi. Bu esa bir darvishning qo'l urilmagan o'rmon daraxtlarini kesib, o'ziga joy hozirlamoqchi bo'lganiga o'xshardi: darvish qanchalik jon otib bolta ursa, o'rmon shunchalik tez o'sib, quyuqlashaveribdi. Nihoyat, Ivan Dmitrich buning befoydaligini ko'rib, o'ylashga butunlay xotima berdi, o'zini birato'la vahima va umidsizlik changaliga tashladi.

U yakkalikka berilib, o'zini odamlardan chetga torta boshladi. Ilgari ham aslo didiga o'tirmaydigan xizmati, endi butunlay joniga tegdi. Negaki, qanday qilib bo'lmasin, qo'lga tushirishadi, bildirmasdan cho'ntagimga pul solib qo'yib, keyin topib, pora oldi, deyishadi yoki o'zim bilmay qolib hukumat qog'ozlarida yasama hujjatga teng keladigan xatoga yo'l qo'yaman, yo birovning pulini yo'qotib qo'yaman, deb qo'rqardi. Qiziq bir hol: boshqa vaqtda hech qachon uning zehni bunchalik o'tkir va ijodkor bo'lmagandi, endi esa o'z ozodligi va nomusiga bo'ladigan tahdidan jiddiy xavfsirab, har kun minglab turli-tuman vajlar o'ylab chiqaradi. Lekin shunisi borki, undagi tashqi olamga, jumladan, kitobga qiziqish ancha susaydi va yaxshigina ovsar bo'lib qoldi.

Bahorda yerdan qor ketgach, qabriston yonidagi jardan bir o'g'il bola va bir kampirning chala irigan o'ligi chiqdi. Belgilarga ko'ra, ularni birov o'ldirgandi. Butun shaharda haligi o'liklar va ularning noma'lum qotillari haqida gap tarqaldi. Ivan Dmitrich meni o'ldirgan demasinlar, deb ko'chaga chiqib iljayib yurdi, tanishlari bilan uchrashib qolguday bo'lsa, qizarib-bo'zarib, zaif va himoyasiz odamlarni o'ldirishdan ko'ra qabihroq gunoh yo'qligiga ishon-tirishga urinardi. Lekin bu xomxayol ham tinkasini quritdi va biroz o'yladi-da: mening ahvolimda eng yaxshisi – bekaning yerto'lasida bekinib yotish, deb bildi. Yerto'lada kechgacha o'tirdi, kechani ham o'tkazib, ertasiga kun bo'yi chiqmadi, juda sovuq edi, qorong'i tushishini poylab, xuddi o'g'riga o'xshab, asta chiqib uyga kirdi. Tong otguncha uy o'rtasida qimir etmasdan tik turib, quloq solib chiqdi.

Ertalab kun chiqmasdan bekaning uyiga pechka tuzatadigan ustalar kelishdi. Ivan Dmitrich ularning oshxonadagi pechni tuzatgani kelganini yaxshi biladi, lekin vasvasa unga: bular usta kiyimida kel-

gan mirshablar, deydi. U sekin-asta uyidan chiqdi-yu, vahima ichida, boshyalang, kamzulsiz ko'cha bo'ylab chopib ketdi. Orqasidan itlar vovullab quvladi, qayerdadir orqadan birov qichqirdi, yel vizillab qulog'ini bitirdi va Ivan Dmitrichga butun dunyodagi jabr-u zulm bir bo'lib, orqasidan quvlayotganday tuyuldi.

Uni ushlab olishdi, u yga olib kelishdi va bekasini doktor chiqirishga yuborishdi. Doktor Andrey Yefimich – bu kishi to'g'risida keyin gapiramiz – Ivan Dmitrichning boshiga latta ho'llab yopishni buyurdi va dafna-olcha suvini yozib berdi, qayg'uli holda bosh chayqab, bekaga, bundan so'ng kelmayman, chunki aqlidan ozayotgan odamlarga xalaqit berib bo'lmaydi, deb ketdi. Uyda yotishga va davolanishga hech narsasi yo'qligidan, tezgina uni kasalxonaga yuborishdi, u yerda, teri-tanosilga uchragan bemorlar palatasiga yotqizildi. U tun bo'yi uxlamas, xarxasha qilar, bemorlarni bezovta etardi, Andrey Yefimichning buyrug'i bilan tezda 6-raqamli palataga ko'chirildi.

Bir yildan so'ng Ivan Dmitrich shaharda butunlay hammaning esidan chiqdi va bekasi bostirma tagidagi chanaga olib borib tashlagan kitoblarini bolalar tashib ketdi.

IV

Ivan Dmitrichning chap tomondagi hamxonasi aytib o'tganim – juhud Moiseyka; o'ng tomondagisi esa juda semiz, dumaloq bo'lib qolgan, yuzida hech qanday fikr ifodasi yo'q, zehndan mahrum bir kishi. Bu – ko'p vaqtdan buyon fikr etish, sezish xususiyatlarini yo'qotib qo'ygan kamharakat, xo'ra va iflos bir hayvon. Undan hamisha ko'ngil ozdiradigan qo'lansa hid kelib turadi.

Uning joyini tozalaydigan Nikita mushtumini ayamay, kuchining boricha juda qattiq uradi, bu yerda kishining vahmini keltiradigan narsa uni urishlari emas – bunga odatlanish mumkin – haligi befahm hayvonning tayoqqa qarshi na tovush, na harakat, na ko'zlarida biror ifoda aks ettirish bilan javob qaytarmay, bezrayib, faqat og'ir bo'chkadek sal-pal qo'zg'alib qo'yishidir.

6-raqamli palatada istiqomat qiluvchilarning beshinchisi va so'nggisi – bir vaqtlar pochtda xat saralovchi bo'lib ishlagan ushoqqina, ozg'in, yoqimli, lekin yuzida makkorlik aks etib turgan sariq sochli meshchan. Uning xushnudlik bilan boqayotgan ma'noli,

xotirjam ko'zlariga qaraganda, ko'nglida qandaydir juda muhim va yoqimli maxfiy siri bordek ko'rinadi. Uning yostig'i va to'shagi tagida bir narsasi borki, uni hech kimga ko'rsatmaydi. O'g'irlab yoki tortib olishadi, deb qo'rqqanidan emas, uyalganidan ko'rsatmaydi. Ba'zan deraza yoniga boradi-da, o'rtoqlariga orqasini o'girib, ko'kragiga nimadir taqadi, keyin boshini egib qaraydi, agar o'sha topda uning yoniga borilsa, xijolat tortib ko'kragidan haligi narsani yulib oladi. Lekin uning sirini bilish qiyin emas.

– Tabriklang, – deydi u ko'pincha Ivan Dmitrichga qarab, – men ikkinchi darajadagi yulduzli Stanislav ordeni bilan mukofotlanishga tavsiya etilibman. Ikkinchi darajali yulduz faqat chet elliklarga berilardi, lekin men uchun negadir istisnoga yo'l qo'yishmoqchi, – deb hayron bo'lib, yelkalarini uchirib kulimsiraydi, – buni qarang, to'g'risini aytsam, hech kutmagandim!

– Men bu narsalarga tushunmayman, – deydi Ivan Dmitrich homushgina.

– Lekin bilasizmi, men ertami-kechmi, axir, nimaga muvaffaq bo'laman? – deb davom etadi sobiq xat saralovchi, ayyorlik bilan ko'zlarini qisib. – Men, albatta, Shvetsiyaning «Qutb yulduzi»ni olaman. Shunday ordenki, kiroyi ovora bo'lganingga arziydi. Oq nishon, qora lentali juda chiroyli orden.

Ehtimol boshqa hech yerda hayot shu joydagidek bir zayilda o'tmasa kerak. Falaj bilan semiz kishidan boshqa bemorlar ertalab turib dahlizga chiqib, katta chelakda yuz-qo'l yuvishadi va choponlarining bariga artishadi; undan keyin Nikita bosh binodan keltirgan choydan qo'rg'oshin do'lchada ichishadi. Bir kishiga bir do'lchadan ortiq choy berilmaydi. Tush paytida nordon karam sho'rva bilan bo'tqa yeyishadi, kechqurun kunduzgidan qolgan bo'tqani yeyishadi. Ovqat orasidagi vaqtda yotishadi, uxlashadi, derazadan qarashadi va uyning u burchidan bu burchiga yurishadi. Har kun ahvol shu. Haligi sobiq xat saralovchi ham faqat bir xil orden haqida so'zlaydi.

Oltinchi palatadagilar yangi odamni kamdan-kam ko'radi. Yangi jinni bo'lganlarni doktor ko'pdan beri qabul qilmay qo'ygan, borib jinnixonalarni ko'radigan havaskorlar esa bu dunyoda juda oz. Bu yerga har ikki oyda bir marta sartarosh Semyon Lazarich keladi. Uning qanday qilib jinnilarning sochini olishi va Nikitaning qay taxlitda unga yordam berishi, har gal mast bo'lib, kulimsirab keta-

yotgan sartareshni ko'rganda bemorlarning qanchalik jon titrog'iga tushishlari haqida so'z ochmaymiz.

Bu yerga sartareshdan o'zga hech kim kelmaydi. Bemorlar har kuni faqat Nikitani ko'rishga mahkum.

Aytmoqchi, yaqinda butun kasalxonaga anchayin ajab xabar tarqaldi.

6-raqamli palataga doktor kelib turadigan bo'libdi, degan ovoza tarqaldi.

V

Ajib xabar!

Doktor Andrey Yefimich Ragin – o'ziga yarasha xo'p yaxshi odam. Aytishlaricha, u yoshligida ancha xudojo'y bo'lib, ruhoniy mansablardan birida xizmat qilishga tayyorlanib yurgan ekan. 1863-yilda gimnaziyani tamomlagandan keyin, diniy akademiya-ga kirmoqchi bo'libdi, lekin jarroh va tib olimi bo'lmish otasi zaharxandalik bilan undan kulib, agar ruhoniy bo'lsang, aslo o'g'lim demayman, debdi. Bu gapning qanchalik to'g'ri ekanini bilmayman, lekin Andrey Yefimichning o'zi tib ilmiga va umuman, maxsus fan-larga mayli hech qachon bo'lmaganini necha bor aytgandi.

Har qalay, tibbiy fakultetni bitirgandan keyin ruhoniy bo'lmadi. Xudojo'ylik ham qilmadi, hozirgi qiyofasi ruhoniylarga qancha kam o'xshasa, doktorlikni boshlagan chog'larida ham xuddi shunday edi.

Uning ko'rinishi qo'pol, dag'al, dehqonlarga o'xshaydi, yuzi, soqoli, yotiq sochlari, mustahkam hamda beo'xshov jussasi, katta yo'llardagi badnafs va o'jar davangirdek mayxonachini eslatadi. Badjahl ko'rinadigan yuzi mayda-mayda ko'k tomirlar bilan qoplangan, ko'zlari kichik-kichik, burni qip-qizil. Baland bo'yli, keng yag'rinli bo'lish bilan birga, oyoq-qo'llari ham bahaybat, katta: agar bir musht ursa, chilparchin qiladiganga o'xshaydi. Ammo ko'p ehtiyot va ohistalik bilan sekin-sekin qadam qo'yadi; agar tor yo'lakda duch kelib qolsangiz, u, albatta, sizdan oldin to'xtab yo'l beradi va kutganingizcha yo'g'on tovush bilan emas, ingichka ovoz bilan «Kechirasiz!» deydi. Uning bo'yniga kichikroq shish tushgan, o'sha shishi ohorlangan qattiq yoqa taqishga xalaqit beradi, shu sababdan doim chitdanmi, oq surpdanmi, yumshoqqina ko'ylak kiyib yuradi. Umuman, doktorchasiga kiyinmaydi. Bitta kostyumni o'n yillab eg-

nidan tushirmaydi, juhud do'konidan olingan yangisi ham uning eg-nida xuddi eski va g'ijim bo'lgan kiyimga o'xshab ko'rinadi; bitta kostyumda bemor ham qaraydi, ovqat ham yeydi, mehmonga ham boraveradi; lekin bu pishiqligidan emas, ust-boshiga butunlay aha-miyat bermasligidan.

Andrey Yefimich ushbu shaharga ish qabul qilmoqchi bo'lib kel-ganida bu «hayriya mahkamasi» juda yomon ahvolda edi. Palata-lardagi, yo'laklardagi, hovlidagi qo'lansa hiddan kishining ko'ngli ozardi. Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar, bemorlarga qarovchi ayollar va ularning bolalari kechasi palatalarda bemorlar bilan birga yotishardi. Qandala, suvarak, sichqonlarning ko'pligidan dod deyi-shardi. Jarrohlik bo'limidan saramas kasali arimasdi. Butun boshli kasalxonada ikkitagina skalpel bo'lib, bitta ham termometr yo'q, van-nalarga kartoshka solib qo'yilgandi. Kasalxona noziri, xo'jalik beka-si va feldsher bemorlarning narsalarini o'g'irlardi. Andrey Yefimich-dan oldingi doktor haqida bo'lsa, kasalxonaning spirtini o'g'irlab sotardi, bemor ayollar va bemorlarga qarovchi ayollardan o'ziga butun boshli haram qilib olgandi, deyishadi. Shaharda bu tartibsiz-liklarni juda yaxshi bilishadi, hatto mubolag'a qilib so'zlashadi-ku, lekin sovuqqonlik bilan qarashadi; ba'zilar kasalxonada faqat mesh-chanlar bilan dehqonlar yotishadi, ular norozi bo'lishmaydi, chunki uylarida kasalxonadagidan yomonroq sharoitda turishadi; ularni bul-duruq berib boqsinmi, deyishadi. Yana bir xillari, zemstvo yordam bermasa, shaharning o'z kuchi bilan yaxshi kasalxona tutish qiyin gap; Xudoga shukur, yomon bo'lsayam, kasalxona bor-ku, deyishadi. Yaqinda dunyoga kelgan zemstvo, shaharning o'z kasalxonasi bor-ku, deb shaharda ham, shaharga yaqin joyda ham shifoxona ochmadi.

Andrey Yefimich kasalxonani ko'zdan kechirib chiqqandan ke-yin, bu muassasa axloqsizlik o'chog'i va shu yerda yashovchilarning sog'ligiga haddan tashqari zararli, degan xulosaga keldi. Uning fik-riha, amalga oshirish mumkin bo'lgan ishning eng yaxshisi – be-morlarni erkinlikka chiqarib yuborib, kasalxonani yopib qo'yish edi. Lekin u shunday xayolga bordi: bu narsa yolg'iz mening ixtiyorimda emas, yana bunday qilishning foydasi ham bo'lmaydi; agar ma'naviy va moddiy ifloslikni bir joydan chiqarib tashlasangiz, ikkinchi joy-ga borib tushadi; o'zi yemirilib bitishini kutish kerak. Buning us-tiga, hamon odamlar shunday kasalxona ochib, chidab kelishayot-

gan ekan, demak, o'zlariga kerakdir-da, turmushdagi xurofotlar va shu singari yaramas va qabih ishlar ham kerak, chunki bora-bora go'ngdan qora tuproq hosil bo'lgandek, bulardan ham bir ezgulik paydo bo'ladi. Yer yuzida biron yaxshi narsa yo'qki, u o'zining yaralishida ifloslikdan kelib chiqmasin.

Ishni qabul qilib olgach, Andrey Yefimich haligi tartibsizliklarga ko'rinishidan ancha beparvolik bilan qaradi. Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar va bemorlarga qarovchi ayollardan bundan so'ng palatalarda yotmasliklarinigina iltimos qildi, yana kasalxonaga asbob-uskunalar solingan ikkita shkaf qo'ydi; ammo nozir, xo'jalik bekasi, feldsher va jarrohlik bo'limidagi saramas kasali o'z joylarida qolishdi.

Andrey Yefimich idrok va halollikni g'oyat sevadi, lekin atrofida halol va ongli turmush yaratishga irodasi yetmaydi, o'z huquqiga ishonmaydi. Buyurish, man qilish va majbur qilishning mutlaqo uddasidan chiqolmaydi. Go'yo asti qattiq gapirmaslik va buyruq fe'lini butunlay ishlatmaslik uchun og'ziga so'z olganga o'xshaydi. «Ber» yoki «Olib kel» deyish uning uchun mashaqqat; gorni ochgan chog'larida botinolmasdan bir yo'talib qo'yadi-da, so'ng oshpaz xotinga, «Choy ichib olsammikin-a» yoki «Ovqatlanib olsammikin-a», deydi. Kasalxona noziriga, o'g'irlikni to'xtat, deyish yo uni haydab yuborish, yo bo'lmasa, haligi tekinox'rlilik vazifasini butunlay yo'qotib qo'ya qolish aslo qo'lidan keladigan ish emas. Andrey Yefimichni aldayotganlarida, munofiqlik bilan maqtayotganlarida yoki qo'l qo'ydirish uchun yasama hujjat tutganlarida qisqichbaqa singari qip-qizarib ketadi va o'zini aybli his etadi, shunday bo'lsa ham, hujjatga qo'l qo'yadi; agar bemorlar unga ochlikdan yoki bemorlarga qarovchi ayollarning qo'pol muomalasidan shikoyat qilishsa, u xijolat bo'ladi va gunohkor odamday:

– Yaxshi, yaxshi, hali surishtirib ko'raman... Ehtimol biron ang-lashilmovchilik o'tgandir... – deb qo'yadi.

Yangi kelgan chog'larida Andrey Yefimich jon kuydirib ishladi. Har kun tush paytigacha bemor qabul qildi, operatsiyalar qildi, hatto doyalik tajribasi bilan ham shug'ullandi. Xotinlar u to'g'risida: juda diqqat bilan qaraydi, kasalni, ayniqsa, bolalar va xotinlar kasalini yaxshi biladi, deyishardi. Lekin vaqt o'tishi bilan ishning bir xildaligi va chamasi, natijasizligi uni zeriktirdi. Bugun o'ttiz nafar

bemorni qabul qilsang, ertaga qarabsanki, o'ttiz besh nafari tayyor, uning ertasiga qirq nafari, shu tahlitda kundan kunga, yildan yilga ko'payaveradi, shaharda esa o'layotganlarning soni kamaymaydi, bemorlar kelishni qo'ymaydi. Ertadan tushgacha qabul qilinadigan qirq nafar bemorga jiddiy yordam berishning hech imkoni yo'q, demak, g'ayriixtiyoriy ravishda aldash bo'lib chiqadi. Hisobot yili o'n ikki ming qatnab davolanuvchi bemor qaralibdi, demak, oddiy qilib aytganda, o'n ikki ming kishi aldanibdi. Og'ir bemorlarni palataga yotqizib, ularni ilm-fan qoidasi bilan davolashning yana iloji yo'q, chunki qoida bo'lgani bilan, ilm-fan yo'q; agar falsafa so'qishni qo'yib, boshqa doktorlar singari ezmalik bilan qoida bo'yicha ish olib bormoqchi bo'linganda ham, buning uchun ifloslik emas, avvalo, ozodalik va sof havoli joy, sassiq, achigan karam sho'rva emas, yaxshi ovqat, o'g'rilar emas, haqiqiy yordamchilar kerak.

Hamon o'lim har kimning boshida bor ekan, nega endi ularning o'lishiga xalaqit berish kerak? Bironta savdogar yoki amaldor dunyoda besh-o'n yil ortiqroq turdi nima-yu, turmadi nima? Agar tabobatning maqsadi dori-darmon berib chekayotgan azobni yengillashtirish, deb o'ylansa, unda o'z-o'zidan shunday savol kelib chiqadiki, xo'sh, nega yengillashtirish kerak? Birinchidan, azob chekish kishini kamolga yetkazadi, deydilar, ikkinchidan, agar insoniyat chindan ham o'zi chekayotgan azoblarini habdori va tomchilar bilan yengillashtirishga o'rgansa, din va falsafadan voz kechadi, shu kungacha turli falokatlardan saqlanishnigina emas, hatto baxt-saodatni ham ulardan topib yuradi-ku.

Pushkindek odam o'limi oldidan qattiq azob chekkanda, sho'rlik Haynedek odam necha yillab falaj bo'lib yotganda, hayoti har qanday mazmundan yiroq bo'lgan qandaydir Andrey Yefimich yo Matryona Savishna dard tortsa, nima bo'пти? Ular dard tortmaganda, hayotlari tamomila bekorchi va amyobalar hayotiga o'xshab qolmaydimi?

Mana shunday muhokamalar bilan ezilib, Andrey Yefimichning hafsalasi pir bo'ldi va kasalxonaga kunda kelmaydigan bo'lib qoldi.

VI

Uning hayoti shunday o'tadi: ertalab soat sakkizda o'midan turadi, kiynadi va choy ichadi. Undan keyin kabinetiga kirib kitob o'qiydi yo kasalxonaga ketadi. Bu yerda, tor va qorong'i yo'lakda

qatnab davolanuvchi bemorlar qabul vaqtini kutib o'tirishadi. Ularning oldilaridan g'isht to'shalgan polni etiklari bilan to'qillatib, kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar va bemorlarga qarovchi ayollar u yoqdan bu yoqqa yurishadi, ozg'in bemorlar xalatga o'ranib o'tib turadi, o'liklarni va iflos idishlarni olib o'tishadi, bolalar yig'laydi, shamol g'irillab u yoqdan bu yoqqa esib turadi. Andrey Yefimich isitmasi baland, sil, umuman, ko'ngli nozik bemorlar uchun bunday joyda turish g'oyat og'irligini yaxshi biladi, lekin nima qilsin? Qabulxonada uni baqaloq, soqol-mo'ylovlarini taqir qirdirgan, toza va to'la yuzli, harakatlari salmoqli, yangi, kengroq kostyum kiygan, feldsherlardan ko'ra ko'proq senatorga o'xshaydigan Sergey Sergeich kutib oladi. Bu kishi shaharda keng miqyosda tajriba qiladi, oq bo'yinbog' taqadi va o'zini mutlaqo tajribasiz doktorlardan a'loroq deb hisoblaydi. Qabulxonada, burchakda kiot¹ ichida sanam osig'liq, tagida og'ir shamchiroqlar. Uning yonida muqaddas kitobni qo'yish uchun qiya qilib ishlangan oq jildli kursicha; devorlarida aziz-avliyolarning suvrati va Svyatogorsk monastirining manzarasi, ularning atrofiga qurib qolgan bo'tako'zdan gulchambarlar taqilgan. Sergey Sergeich dindor, shuning uchun ham zeb-ziynatni yaxshi ko'radi. Haligi sanam ham uning harakati bilan qo'yilgan; har yakshanba kuni bemorlardan bittasi uning buyrug'i bilan qabulxonada tovush chiqarib akafist² o'qiydi, duo tugagach, Sergey Sergeich o'z qo'li bilan isiriq solib, hamma palatalarga tutatib chiqadi.

Bemorlar ko'p, vaqt oz, shuning uchun butun ish qisqa-qisqa savol berish va uchuvchan malham singari biron surtadigan dori yoki surg'i berish bilan chegaralanadi. Andrey Yefimich engagini mushtiga tirab xayol surib o'tiradi va beixtiyor savol beradi. Sergey Sergeich ham shu yerda bo'ladi, qo'llarini bir-biriga ishqab, har zamonda gap qistirib qo'yadi:

– Kasal bo'lyapmiz, yo'qchilikka qarab ketyapmiz, – deydi u, – Xudoga yaxshi sig'inmaganimizdan bo'lyapti. Shunday!

Qabul vaqtida Andrey Yefimich hech qanday operatsiya qilmaydi; u ko'pdan beri bu ishni tark etgan, qonni ko'rsa, ko'ngli behuzur bo'ladi. Agar bolaning og'zini ochib tomog'ini ko'rmoqchi

¹ Ikona (sanam), but qutisi.

² O'qilayotganda hamma tik turadigan duo.

bo'lganda bola chirqirab qo'llari bilan o'zini himoya qilsa, quloqlari bitib, boshi aylanib ketadi va ko'zlarida yosh paydo bo'ladi. U nari-beri dori yozib berib, xotinga, bolani tezroq olib ket, deb qo'l siltaydi.

Qabul qilarkan, bemorlarning tortinchoqligi, merovligi yonidagi olifta Sergey Sergeich, devordagi rasmlar va o'zining yigirma yildan beri berib kelayotgan bir xildagi savoli darrov ko'ngliga tegadi. Beshta-olti nafar bemorni ko'radi-yu, ketadi: qolganlarini feldsher-ning o'zi qabul qiladi.

Ko'p vaqtlardan beri uyda bemor qabul qilmaydigan bo'lib ketgani va hech kim bezovta qilmasligini o'ylab, Xudoga shukur qiladi va uyiga kelish bilan Andrey Yefimich kabinetiga kirib, stol yoniga o'tirib, kitob o'qishga tushadi. U juda ko'p va doim zavq bilan o'qiydi; oyligining yarmi kitob olishga ketadi. Olti xonali uyning uchtasi kitob va eski jurnallar bilan to'la. U ko'proq falsafa va tarix asarlarini sevadi: tibbiy asarlardan faqat «Vrach»nigina oladi, o'shani ham hamisha oxiridan boshlab o'qiydi. Bir necha soatlab, dam olmay o'qisa ham, charchamaydi. U bir vaqtlar Ivan Dmitrich o'qigani singari tez va shiddat bilan o'qimaydi, shoshmasdan, u yoq-bu yog'ini o'ylab, tushunmagan yo ko'ngliga yoqqan joylarida to'xtab-to'xtab o'qiydi. Kitobning yonida doim bir grafinchada sharob va tuzlangan bodringmi, olmami, likopchasiz, stolga yozilgan movut ustida yotadi. Har yarim soatda u ko'zini kitobdan uzmay turib, bir qadah sharob quyib ichadi, so'ng timiskilab haligi bodringni topib, undan tishlab qo'yadi. Soat uchda sekingina oshxona eshigiga yaqinlashadi va bir yo'talib qo'yib:

– Daryushka, ovqat yeb olsammikin-a... – deydi.

Tozalik tomoniga ahamiyat berilmay pishirilgan, jo'ngina ovqatdan keyin Andrey Yefimich ikki qo'lini ko'ksiga qovushtirib xonadan xonaga o'tib va xayol surib yuradi.

Soat to'rtga jom uradi, keyin beshga chaladi, u hamon yuradi va xayol suradi. Goh-gohida oshxonaning eshigi g'ichirlaydi va undan Daryushkaning uyqudan bo'rtgan qip-qizil basharasi ko'rinadi.

– Andrey Yefimich, pivo ichadigan vaqtingiz bo'lmadimi? – deydi u havotir olib.

– Yo'q, hali vaqt bor... – deydi u, – sal turib ichay... sal turib...

Odatda, kechga tomon pochta mudiri Mixail Averyanich keladi. Butun shaharda yolg'iz shu kishining ulfatchiligi Andrey Yefimichga yoqadi. Mixail Averyanich bir zamonlar juda boy zamindor bo'lgan va otliq askarda xizmat qilgan edi. Lekin bor-yo'g'ini boy berib, keksayganida muhtojlik orqasidan pochta idorasida ishlashga majbur bo'ladi. Uning ko'rinishi sog'lom va tetik, chiroyli, oppoq chakasoqli, go'zal xulqi va jaranglagan yoqimli ovozi bor. U rahmdil va ziyrak, lekin tajang. Agar pochtaga kelganlardan birontasi norozi bo'lsa, ko'nmasa yoki muhokama qila boshlasa, Mixail Averyanich burilib, titrab-qaqshab, tovushining boricha «Bas qil!» deb qichqiradi. Shuning uchun ham allaqachonlardan beri pochta bo'limi kishi borishga qo'rqadigan idora deb nom chiqargan. U Andrey Yefimichni ma'lumotli va oliyjanob bo'lgani uchun yoqtiradi hamda hurmat qiladi, boshqa fuqarolarga esa juda yuqoridan qo'li ostidagi odamlardek qaraydi.

– Mana, men ham keldim! – deydi u Andrey Yefimichning oldiga kirarkan. – Hormang, azizim! Joningizgayam tekkandirman, a?

– Aksincha, juda xursandman, – deydi doktor. – Siz kelsangiz, doim xursand bo'laman.

Do'stlar kabinetda divanga o'tirishadi va bir qancha vaqt jim qolishib, popiris chekishadi.

– Daryushka, bizga pivo bo'lsaydi! – deydi Andrey Yefimich.

Birinchi shishani ham jim o'tirib: doktor – xayolga botib, Mixail Averyanich esa, xuddi ko'nglida aytadigan qiziq gapi bor odamday, xushnudlik bilan ichishadi. Suhbatni hamisha doktor boshlaydi.

– Qanday achinarli hol, – deydi u boshini qimirlatib, shoshmasdan sekingina, hamsuhbatining ko'zlariga qaramay. U hech qachon birovning ko'ziga qaramaydi, – juda-juda achinarli hol, hurmatli Mixail Averyanich, bizning shahrimizda aql yurgizadigan, qiziqarli suhbatni yoqtiradigan va shunga qobiliyati bor odamlar yo'q. Bu bizlar uchun g'oyat katta mahrumiyat. Hatto ziyolilar ham razillikdan ustun turolmaydilar; ulardagi tushuncha, siz ishonishingiz mumkinki, past tabaqa odamlar tushunchasidan yuqorimas.

– Haq gap. To'g'ri aytasiz.

– O'zingizga ma'lumki, – deb davom etadi doktor sekingina, salmoqlab, – dunyoda inson aqlining yuksak ma'naviy namoyandalaridan boshqa hammasi arzimmas, qizig'i yo'q narsalar. Aql – inson

bilan hayvon o'rtasiga qat'iy chegara qo'yadi hamda insonning ilohiyligiga ishora qiladi va unga aslida bo'lmagan bir qadar abadiylik baxsh etadi. Bundan chiqdi, huzur-halovat beradigan, yagona manba aql ekan. Modomiki, atrofimizda aqlni ko'rmas va eshitmas ekanmiz, demak, biz huzur-halovatdan mahrummiz. To'g'ri, bizda kitoblar bor, lekin kitob jonli suhbat va aloqaning o'rnini bosolmaydi. Agar ruxsat etsangiz, uncha muvofiq o'xshatish bo'lmasayam, shunday deyish mumkin: kitoblar nota-yu, suhbat – ashula.

– Haq gap.

Jim qolishadi. Oshxonadan Daryushka chiqadi, eshik oldiga keladi-da, siymosida hech qanday ma'no aks etmagan holda, mush-tini yuziga tirab quloq soladi.

– Oh! – deb chuqur nafas oladi Mixail Averyanich. – Hozirgilar-da aql bor, deysizmi?!

So'ngra u qadim zamonda odamlar qanday yaxshi, qiziq va shodiyona hayot kechirganini, Rossiyada aqlli, ziyolilar bo'lganini, ularning nomus va do'stlik tushunchasini qanchalik yuksak darajaga ko'targanlarini so'zlab beradi. Vekselsiz¹ qarz berishardi va muhtojlikda qolgan o'rtoqqa yordam qo'li cho'zmaslik ayb hisoblanardi. Qanday harbiy safarlar, hodisalar, to'qnashuvlar, qanday o'rtoqlar, qanday xotinlar bo'lardi! Kavkaz-chi – naqadar ajoyib o'lka! Batalyon komandirining xotini-chi, alomat xotin edi, kechqurunlari zobitcha kiyinib olib, otga minib, yolg'iz o'zi toqqa chiqib ketardi. Uning qishloqda qandaydir bir knyaz bilan ishq-muhabbat mojarolari bor deyishardi.

– Voy Xudo, – deydi Daryushka chuqur nafas olib.

– Ishchilarimizni ayting! Yegan ovqatlarimizni ayting! Qanday jasur liberallar edik!

Andrey Yefimich quloq soladi-yu, eshitmaydi; pivoni xo'plab qo'yib, allanima to'g'risida o'ylaydi.

– Aqlli odamlar va ularning suhbatini tez-tez tushimga kirib turadi, – deydi u to'satdan Mixail Averyanichning so'zini bo'lib. – Otam meni xo'p o'qitdi-yu, lekin oltmishinchi yillardagi oqim ta'siri ostida do'xtir bo'lishga majbur qildi. Agar o'sha vaqtlarda uning

¹ Veksel – qarz hujjati, pul qarz olganlik haqidagi tilxat.

so'ziga quloq solmaganimda, hozir fikr o'chog'ining xuddi marka- zida bo'lardim, deb o'ylayman. Ehtimol biron fakultetning a'zosi bo'lardim. Albatta, aql ham abadiymas, o'tkinchi, lekin siz mening nima uchun unga moyilligimni bilasiz. Hayot – alamli bir dom. Fikr- lovchi inson ulg'ayib, aqli kamolga yetganda, beixtiyor o'zini qutu- lishning iloji bo'lmagan bir domga ilinganday his qiladi. Haqiqatan, uning ixtiyoridan tashqari, qandaydir tasodiflar orqasida yo'qdan bor bo'lib, olamga keladi... Nega? U nega mavjudligining ma'nosini va maqsadini bilishni istaydi – unga aytilmaydi yoki aql bovar qil- maydigan so'zlarni aytishadi; taqillatadi – unga eshik ochmaydilar; o'lim ham uning ixtiyoridan tashqari keladi. Mana, turmadagi ki- shilar, umumiy baxtsizlik tufayli kishilar bir joyga to'planganlaridan ancha yengil tortganday bo'ladilar, hayotda ham tahlil va umumiy xulosa chiqarishga moyil odamlar bir yerga yig'ilishib, erkin va sha- rafli g'oyalarini o'rtoqlashish bilan vaqt o'tkazanlarida haligi dom sezilmaydi. Bu jihatdan aql hech qiyosiz huzur-halovatdir...

– Haq gap.

Andrey Yefimich hamsuhbatining ko'zlariga qaramay, asta va to'xtab-to'xtab aqli odamlar va ularning suhbatini haqida so'zlaydi. Mixail Averyanich bo'lsa diqqat bilan quloq soladi va unig fikriga qo'shilib, «Haq gap», deb o'tiradi.

– Siz ruhning abadiyligiga ishonasizmi? – deydi to'satdan pochta mudiri.

– Yo'q, hurmatli Mixail Averyanich, ishonmayman va ishoni- shimga asos ham yo'q.

– To'g'risini aytsam, men ham shubha qilaman. Unday desam, men sira o'lmaydiganga o'xshayman. O'zimga o'zim, hoy, chol, o'lim yaqin, desam, ko'nglimda qandaydir boshqa bir ovoz, ishon- ma, o'lmaysan, deydi.

Soat to'qqizdan o'tgach, Mixail Averyanich ketadi. Dahlizda po'stinini kiyayotib, chuqur nafas olib:

– Buni qarang, taqdir bizlarni qanday qorong'i burchakka kel- tirib tashladi! Hammasidan ham kishiga alam qiladigani shuki, hali shu yerda o'lamiz ham. Oh!.. – deydi.

VII

Do'stini jo'natgach, Andrey Yefimich stol yoniga o'tiradi, yana o'qishga kirishadi. Kechqurungi va undan keyin tungi sukunatni tiq etgan tovush buzmaydi. Vaqt ham doktor bilan birga kitob ustida to'xtab, qotib qolganday, shu kitobdan, yashil qalpoqli lampadan o'zga hech narsa yo'qdek tuyuladi. Inson aqlining harakatini ko'rib mehri tovlangani va zavq qilganidan doktorning qo'pol va beo'xshov yuzlarida asta-asta tabassum paydo bo'ladi. Oh, nechun inson abadiy yashamaydi, deb o'ylaydi u, miyaning markazlari, miyaning egri-bugri burmachalari nechun, ko'rish quvvati, so'zlash qobiliyati, ko'ngil, daho nechun? Modomiki, bularning hammasi tuproqqa aylanishga va nihoyat, Yer kurrasining qobig'i bilan birgalikda so'vishga, so'ng million yillar davomida ma'nosiz, maqsadsiz bir tarzda quyosh atrofida aylanishga mahkum ekan, u holda hamon sovib, undan keyin Yer bilan birga aylanib yurish uchun insonni buyuk va deyarli ilohiy aqli bilan yo'qdan bor qilishning, so'ng uni masxara qilgandek, loyga aylantirishning mutlaqo keragi yo'q edi.

Modda almashishi! Bu soxta abadiylik bilan o'zini o'zi ovutish qanday qo'rqqoqlik?! Tabiatda ro'y berayotgan g'ayrisuuuriy jarayonlar inson qiladigan ahmoqqarchiliklardan ham tuban, chunki ahmoqqarchilikda oz bo'lsa ham tushuncha va iroda bor, bu jarayonlardachi, mutlaqo hech narsa yo'q. Faqat o'z fazilatini bilishdan ko'ra, o'lim oldida qo'rqish hissi ko'proq bo'lgan qo'rqoqlar: mening jasadim vaqti bilan ko'katda, toshda, baqada... qaytadan yashaydi, deb o'zini yupatadi. O'zining abadiyiligini modda almashishida ko'rish xuddi qimmatbaho skripka sinib, ishdan chiqqanda, endi g'ilofining istiqboli baland bo'ladi, deyishday bo'lmag'ur gap.

Soat jom chalganda Andrey Yefimich biroz o'ylash uchun oromkursiga suyanib, ko'zlarini yumadi. Kitobdan o'qilgan yaxshi fikrlar ta'siri ostida beixtiyor o'zining o'tmishiga va hozirgi hayotiga nazar tashlaydi. O'tmishi jirkanch, yaxshisi, uni eslamaslik kerak. Hozirgisi ham o'shaning o'zi. U yaxshi biladiki, uning fikri so'ngan Yer kurrasi bilan birga Quyosh atrofida aylanayotganda, doktorning uyi bilan yonma-yon katta binoda, odamlar darddan va jismoniy ifloslikdan siqilib, zorlanib yotishadi: balki birov uxlamay hasharotlar bilan kurashayotgandir, birovga saramas kasali yuqa boshlagandir,

yo bo'lmasa, qattiq bog'langan yaraning og'rig'iga chidolmay oh-voh qilayotgandir; balki bemorlar o'zlariga qarovchi ayollar bilan qarta o'ynab sharob ichishayotgandir. Hisobot yilida o'n ikki ming kishi aldangandi; kasalxonaning butun ishi bundan yigirma yil oldin qanday bo'lsa, hozir ham o'shanday, o'g'rilik, razillik, ig'vogarlik, quda-andachilik, ochiq muttahamlik asosiga qurilgan, kasalxona hali ham buzuq axloqli va bemorlarning sog'lig'i uchun g'oyat zararli bir joy. U temir panjara o'rnatilgan 6-raqamli palatadagi bemorlarni Nikita do'pposlashini va Moiseykaning har kun shaharga borib gadoylik qilishini yaxshi biladi.

Ikkinchi tomondan, so'nggi yigirma besh yil ichida tabobat ilmi-da katta o'zgarish bo'lganini u juda yaxshi biladi. U oliy maktabda o'qib yurgan chog'larida, tibbiy ilm ham tez kundayoq alkimyo va metafizikaning kuniga uchraydi, deb o'ylardi, endi kechalari kitob o'qirkan, tabobat uning ko'nglini iyydiradi va hayron qoldiradi, hatto zavqini keltiradi. Haqiqatan, qanday kutilmagan porloq hodisa, qanday inqilob!

Antiseptika yordami bilan hatto ulug' Pirogov umid ham etolmagan operatsiyalar qilinayotir. Oddiy zemstvo doktorlari tizza bo'g'imini kesishga jur'at qilishadi, ko'richak kasali operatsiyasidan yuz kishidan bittasigina o'ladi, tosh kelish kasalini tuzatish shunchalik oddiy gap bo'lib qolganki, u haqda hatto yozilmaydi. Zaxm tag-tugi bilan davolanmoqda. Nasldan o'tish nazariyasi, gipnotizm, Paster va Koxlarning kashfiyotlari, sog'liqni saqlash va hisobot olib borilishi, bizning rus zemstvo tabobati-chi? Psixiatriya va uning bemorlarni hozirgacha guruhlarga bo'lishi kasalni aniqlash usullari hamda davolashi – avvalgiga nisbatan butun boshli Elborus¹. Hozir jinnilarning boshiga sovuq suv quyilmaydi va maxsus ko'ylaklar ham kiygizilmaydi; ularni tuppa-tuzuk sharoitda tutishadi, hatto gazetalarining xabar berishiga qaraganda, ularga tomoshalar va bazmlar qilib berisharmish. Andrey Yefimich biladiki, hozirgi nuqtai nazarlar va talablarga qaraganda 6-raqamli palata singari qabih joy faqat temiryo'ldan ikki yuz chaqirim narida, shahar boshlig'i va butun kattalaridan tortib doktorni avliyo biladigan, og'izlariga eritilgan

¹ «Elborus» – pochta yuklari va yo'lovchi tashuvchi g'ildirakli rus paroxodi. Qrim hamda rus-turk urushida foydalanilgan.

qo'rg'oshin quyib yuborganda ham, unga hech tanqidsiz ishonish kerak, deydi chalasavod meshchanlardan iborat yerda bo'lmasa, boshqa joyda-chi, odamlar va gazetalar allaqachon bu kichkina Bastiliyaning¹ titig'ini chiqarib yuborgan bo'lardi.

«Xo'sh nima bo'пти? – deb o'ziga savol beradi Andrey Yefimich ko'zlarini ochib. – Shulardan nima chiqdi? Antiseptika-yu Kox, Pasterlar, deylik, ishning asli hech o'zgargani yo'q. O'sha kasallik, o'sha o'lim, hammasi eski holicha turipti. Jinnilarga bazmlar va tomoshalar qo'yib berishgani bilan ozod qilib yuborishmapti-ku. Demak, hammasi ovoragarchilik va bo'lmag'ur gap. Venaning eng yaxshi kasalxonasi bilan mening kasalxonam orasida, aslida, hech qanday farq yo'q».

Lekin achinish va hasadga o'xshash bir his uning beparvo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bu charchoqdan bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Boshi og'irlashib kitob sari egiladi, yumshoq bo'lsin, deb yuzini qo'llariga qo'yadi va o'ylaydi:

«Men zararli ishga xizmat qilmoqdaman va o'zim aldayotgan odamlardan oylik olmoqdaman, men vijdotsizman. Lekin mening o'zimni olinsa, hech gapmas, faqat zarur bo'lgan ijtimoiy yovuzlikning bir bo'lakchasiman: uyezd boshliqlarining hammasi zararli kishilar, bekorga oylik olishadi... Demak, halol mehnat qilmanim uchun menmas, davr aybdor... Bundan ikki yuz yil keyin tug'ilganimda, boshqacha odam bo'lardim».

Soat uchga jom urganda, u chiroqni o'chiradi va yotog'iga kiradi, uning uxlagisi kelmaydi.

VIII

Bundan ikki yilcha oldin zemstvoning sahiyligi tutib ketdi va zemstvoning o'z kasalxonasi ochilguncha shahar kasalxonasida tibbiyot xodimlari ko'paytirilsin, deb qaror chiqarib, yordam tarzida yiliga uch yuz so'mdan pul tayin qildi hamda Andrey Yefemichga yordamchi qilib uyezd doktori Yevgeniy Fyodorich Xobotov chaqirtirildi. U hali juda yosh yigit – o'ttizga ham bormagan – baland bo'yli, qorachadan kelgan, yanoqlari chiqqan va ko'zlari kichik; eh-

¹ *Bastiliya* – 1370–1381-yillari Parijda qurilgan qal'a, keyinchalik davlat jinoyatchilari saqlanadigan qamoqxonaga aylantirilgan.

timol ota-bobolari boshqa xalqdan bo'lsa kerak. U shaharga bir tiyin pulsiz, kichkinagina chamadon ko'tarib, yosh va xunuk juvon bilan birga keldi, uni xizmatchim, deb yuradi. Xotinning qo'lida emizikli bolasi ham bor. Yevgeniy Fyodorich soyabonli furajka, qo'nji uzun etik kiyib yurar, qishda bo'lsa kalta paxtalik kiyardi. U feldsher Sergey Sergeich va xazinachi bilan inoq bo'lib ketdi. Boshqa mansabdorlarni oqsuyaklar deb, negadir ulardan o'zini tortib yuradi. Uning butun boshli uyida faqat bitta – «Vena kasalxonasining 1881-yilgi yangi retseptlari» degan kitobi bor. Bemor ko'rgani borganida hamisha o'sha kitobni olib boradi. Kechqurunlari klubda bilyard o'ynaydi, qartani bo'lsa yoqtirmaydi. Gap orasiga «g'alva», «sirkali mantifoliya», «vahima qilma» singari jummalarni qistirishni juda yaxshi ko'radi.

U haftada ikki marta kasalxonaga boradi, palatadagi bemorlarga qaraydi, uncha-muncha bemor ham qabul qiladi. Antiseptika va qon so'rg'ich bankalarning butunlay yo'qligi juda ham fe'lini aynitadiyu, lekin Andrey Yefimichni tahqirlash bo'lib tuyulishidan qo'rqib, yangi tartib kirgizmaydi. O'zining hamkasbi Andrey Yefimichni keksa firibgar hisoblaydi, mol-dunyosi juda ko'p bo'lsa kerak, deb o'ylaydi va unga hasadi kelib yuradi. Jon deb uning o'miga o'tirar edi-da.

IX

Bahor kunlaridan birida, kechqurun, mart oyining oxirlarida, yerdan qor ketib kasalxona bog'ida maynalar sayragan chog'da doktor do'sti pochta mudirini darvozagacha kuzatib qo'ygani chiqdi. Gadoylik qilib kelayotgan juhud Moiseyka xuddi shu paytda hovliga kirib keldi. U boshyalang, sarpoychan oyog'ining uchiga kalish ilgan, qo'lida sadaqalar solingan to'rvasi bor edi.

– Bir tiyin ber! – dedi u doktorga, sovuqdan titragan holda kulimsirab. Yo'q deyishga odatlanmagan Andrey Yefimich o'n tiyin berdi.

«Bu yaxshimas, – deb o'yladi doktor uning to'piqlari qizarib ketgan oriq oyog'iga qarab, – loygarchilik».

Achinishga ham, jirkanishga ham o'xshash bir his o'yg'ondi-da, Andrey Yefimich dam uning yarg'oq boshiga, dam to'piqlariga qaraganicha yahudiyning orqasidan palataga kirdi. Doktor kirishi bilan yirtiq-yamoq ustida yotgan Nikita irg'ib turib, qomatini rostladi.

– Salom, Nikita, – dedi Andrey Yefimich muloyimlik bilan. – Bir iloj qilib shu yahudiya etik-petik berilsaydi, bo‘lmasa – shamollab qolar.

– Xo‘p bo‘ladi, janobi oliylari. Nozirga aytaman.

– Shunday qilgin. Mening nomimdan so‘ragin. Meni aytdi degin.

Dahlizdan palataga kiradigan eshik ochiq edi. Ivan Dmitrich karavotda yotgan joyda yonboshladi va hayajon ichida begona tovushga quloq soldi, birdan doktorni tanib qoldi. G‘azabiga chidolmay bor vujudi larzaga keldi, irg‘ib turdi va qip-qizarib, tutaqqanicha ko‘zlari olaygan holda yugurib palataning o‘rtasiga keldi.

– Do‘xtir keldi! – deb qichqirdi va qah-qah urib kuldi. – Niho-yat! Afandilar, tabriklayman, do‘xtir bizlarni kelib ko‘rishni loyiq topipti! La‘nati gazanda! – dedi chinqirib, palatadagilar hech qachon ko‘rmagan g‘azab ichida yer tepib. – O‘ldirish kerak bu gazandani! Yo‘q, o‘ldirish kamlik qiladi! Hojatxonaga cho‘ktirib yuborish kerak!

Bu so‘zlarni eshitgan Andrey Yefimich dahlizdan palataga qaradi va muloyimlik bilan:

– Nima uchun? – dedi.

– Nima uchun? – deb qichqirdi Ivan Dmitrich, titrab xalatiga o‘ranganicha o‘dag‘aylab va xezlanib unga yaqin bordi. – Nima uchun? O‘g‘ri! – dedi nafrat bilan lablarini xuddi tupurmoqchi bo‘lganday qilib. – Muttaham! Jallod!

– Tinchlaning, – dedi Andrey Yefimich, aybi bor odamdek kulim-sirab. – Ishoning, men hech qachon hech narsa o‘g‘irlamaganman, boshqa jihatlarni bo‘lsa, juda oshirib yubordingiz, deyman. Mendan qattiq xafa bo‘lganga o‘xshaysiz. Sizdan o‘tinib so‘rayman, tinchlaning, iloji bo‘lsa, qizishmasdan ayting, nega mendan xafasiz?

– Nima uchun meni bu yerda tutib o‘tiribsiz?

– Kasalligingiz uchun.

– Ha, kasalman. Lekin o‘nlab, yuzlab jinnilar ozodlikda yurishibdi-ku, axir, chunki janoblari nodonliklari orqasida ularni sog‘lardan ajratolmaydilar. Nega endi men va manavi sho‘rliklarga hamma uchun bu yerda o‘tirishimiz kerak? Siz, feldsher, nozir va kasalxona xodimidan deb yurgan ablahlarning hammasi axloq jihati-dan bizlarning har birimizdan qiyos qilib bo‘lmas darajada tubansiz, nega biz o‘tiramiz-u, sizlar o‘tirmaysiz? Qani mantiq?

– Bu yerda gap axloq yoki mantiqdamas. Hammasi tasodifga bog‘liq. Kim o‘tirg‘izilgan bo‘lsa, o‘sha o‘tiribdi, kim o‘tirg‘izilmagan bo‘lsa, yuribdi, mana shu mening do‘xtirligim va sizning ruhiy xastaligingizda axloq ham, mantiq ham yo‘q, faqat tasodif xolos...

– Bunday bema‘ni gaplarga tushunmayman... – dedi to‘ng‘illab Ivan Dmitrich va karavotga o‘tirdi.

Nikita doktorning yonida tintishdan uyalib o‘z holiga qo‘ygan Moiseyka o‘rniga burda nonlar, danaklar, qog‘ozlarni yoydi va hali ham sovuqdan titragan holda tez-tez cho‘ziq ohang bilan yahudiy tilida nimalarnidir so‘zlay boshladi. Ehtimol, o‘zicha, do‘kon ochdim, deb o‘ylagandir.

– Meni bo‘shatib yuboring, – dedi Ivan Dmitrich, uning tovushi qaltirab ketdi.

– Iloji yo‘q.

– Xo‘sh, nima uchun? Nega?

– Chunki bu mening ixtiyorimdamas. O‘ylab ko‘ring, bo‘shatib yuborishimning sizga nima foydasi bor? Boring. Yo mirshab, yo shahar ahlidan bironyasi sizni ushlab yana shu yerga olib keladi.

– Ha, ha, bu to‘g‘ri gap... – dedi Ivan Dmitrich va peshonasini ishqadi. – Bu dahshatli! Endi men nima qilay, axir? Nima?

Ivan Dmitrichning tovushi, uning yuz burishtirishlari, idrok aks etib turgan chehrasi Andrey Yefimichga yoqib qoldi. Uni erkalatgisi, yupatgisi keldi. Ivan Dmitrichning yoniga, karavotiga o‘tirdi, biroq o‘ylab turib:

– Siz, nima qilay, deyapsiz, – dedi. – Siz uchun yaxshisi – bu yerdan qochish. Lekin, afsuski, foydasi yo‘q. Tutib olishadi. Qachonki jamiyat ruhiy bemorlardan, jinoyatchilardan va umuman, birga bo‘lish o‘ng‘aysiz deb hisoblanadigan odamlardan o‘zini chetga tortsa, unga chora yo‘q. Endi sizga bitta yo‘l: shu yerda turishim zarur, deb o‘zingizga tasalli berasiz.

– Bu yerda turishimning hech kimga keragi yo‘q-ku.

– Modomiki, turma, jinnixonada degan joylar bor ekan, axir, kimdir o‘tirishi kerak-da. Siz bo‘lmasangiz, men bo‘lmasam – yana birov. Shoshmang, bir zamonlar kelib turma, jinnixonada degan narsalar yo‘q bo‘lib ketadi, o‘shanda derazalardagi temir panjaralar ham, bu cho‘ponlar ham bo‘lmaydi. Albatta, ertami-kechmi shunday vaqt keladi.

Ivan Dmitrich istehzo bilan jilmaydi.

– Hazillashypsiz, – dedi u ko‘zlarini qisib. – Siz singari va yordamchingiz Nikita singari janoblarning kelajak zamon bilan mutlaqo ishi yo‘q, lekin xotirjam bo‘lsin, muhtaram afandim, yaxshi zamonlar, albatta, keladi! Mayli, mening og‘zimdan yaramas so‘zlar chiqayotgandir, kuling, lekin yangi hayot tongi otadi, haqiqat yuzaga chiqadi va bizning ko‘chadayam bayram bo‘ladi! Men ko‘rolmayman, o‘lib ketaman, lekin kimlarningdir evara, chevarasi ko‘radi. Jon-dilim bilan ularni tabriklayman, shodlanaman, ular uchun shodlanaman! Olg‘a! Xudo yor bo‘lsin, do‘stlar!

Ivan Dmitrich ko‘zlarida alanga chaq nab o‘rnidan turdi va qo‘llarini deraza tomon cho‘zganicha tovushida hayajon aks etdirib davom etdi:

– Mana shu panjaralar orqasidan turib fotiha beraman! Yashasin haqiqat! Shodlanaman!

– Men shodlangudek bir sabab ko‘rayotganim yo‘q, – dedi Andrey Yefimich, garchi Ivan Dmitrichning harakatlari unga artistlarga o‘xshab ko‘ringan bo‘lsa ham, juda yoqadi. – Turma va jinnixonalar yo‘qoladi, to‘g‘ri, siz aytganingizdek, haqiqat ham yuzaga chiqadi-yu, lekin narsalarning asli o‘zgarmaydi-da, tabiat qonunlari shu holicha qolaveradi. O‘shandayam odamlar kasal bo‘ladi, qariydi, hozirgiga o‘xshab o‘laveradi. Hayotingizni har qanday porloq yog‘du yoritmasin, axir, bir kun sizni tobutga solib, og‘zini mixlab, chuqurga tashlaydilar.

– Abadiylik-chi?

– Be, qo‘ysangiz-chi!

– Siz ishonmaysiz-ku, mayli, men ishonaman. Yo Dostoyevskiy, yo Volter, kimdir bittasi: agar Xudo bo‘lmaganida, Uni odamlarning o‘zi o‘ylab chiqarardi, deydi. Agar abadiylik yo‘q bo‘lsa, ertami-kechmi, insonning buyuk aqli uni o‘ylab topadi, men shunga qattiq ishonaman.

– Ma‘qul gap, – dedi Andrey Yefimich, kayfi chog‘ bo‘lganidan kulimsirab. – Sizning ishonganingiz yaxshi. Bunday ishonchi bo‘lgan odam devor orasiga shuvab tashlagandayam yashashi mumkin. Siz biron yerda bilim olgandingizmi?

– Ha, men oliy maktabda o‘qirdim, lekin tamomlamaganman.

– Siz fikr qiladigan chuqur mulohazali odamsiz. Har qanday sharoitda yashasangiz ham, o‘zingizni yupatolasiz. Hayotni yaxshi anglashga intiladigan chuqur va hurfikr hamda dunyoning bo‘lmag‘ur ikir-chikiriga butunlay nafrat bilan qarash – mana shu ikki ne‘matdirki, inson bundan buyuk narsani ko‘rganmas. Garchi siz uch qavat temir panjara ichida pinhon bo‘lsangiz ham, unga erisholasiz. Diogen bo‘chkada yashagan, shundayam yer yuzidagi hamma podsholardan baxtli bo‘lgan.

– Diogeningiz ahmoq edi, – dedi Ivan Dmitrich qayg‘uli ohang bilan. – Nega menga Diogen, yana qandaydir hayotni yaxshi anglashlar haqida so‘zlayapsiz? – dedi u to‘satdan ensasi qotib va irg‘ib turdi. – Men hayotni sevaman, ehtiros bilan sevaman! Meni biron ta‘qib qilayotir degan dardga muhtaloman, mudom qattiq qiynaydigan qo‘rquv changalidaman. Lekin shunday daqiqalar ham bo‘ladiki, hayotga tashna bo‘laman, yana shunda jinni bo‘lib qolishdan qo‘rqaman. Juda yashagim keladi, juda!

U hayajon ichida bir qur palataning u boshiga borib keldi-da, tovushini pasaytirib so‘z qotdi:

– Xayol surganimda ko‘zimga allanimalar ko‘rinadi. Oldimga qandaydir odamlar keladi, qulog‘imga cholg‘u ovozlari eshitaladi, nazarimda, qandaydir o‘rmonlarda, dengiz bo‘ylarida yurgandek sezaman o‘zimni va hayotning ikir-chikirlari, harakatlari bilan juda band bo‘lgim keladi... Ayting-chi, qani, u yoqda qanday yangiliklar bor?.. – deb so‘radi Ivan Dmitrich. – Nima gaplar?

– Siz shahar to‘g‘risida so‘rayapsizmi? Yo umumanmi?

– Mayli, avval shahar to‘g‘risida so‘zlab bering, so‘ng umuman.

– Nima bo‘lardi? Shaharda kishi benihoyat zerikadi... bir og‘iz so‘z qotguday yo so‘zga quloq solguday odam yo‘q. Yangi kelgan odamlar ham yo‘q. Aytmoqchi, yaqinda Xobotov degan yosh do‘xtir keldi.

– U men borligimda kelgandi. Qalay, bitta ablahdir-da?

– Ha, madaniyatsiz odam. Bilasizmi, shunisi qiziqki... Umuman, qarab tursangiz, poytaxtamizda aql-idrokda turg‘unlik yo‘q, harakat bor, demak, u yerda haqiqiy odamlar ham bo‘lishi kerak, lekin negadir bu yerga har gal shunday odamlarni yuborishadiki, ko‘rmasam, deysan kishi. Baxtsiz shahar!

– To‘g‘ri, baxtsiz shahar! – deb chuqur nafas oldi Ivan Dmitrich va kulib yubordi. – Umuman-chi? Gazeta, jurnallarda nimalar yozilyapti?

Palata qorong‘ilashib qolgandi. Doktor o‘rnidan turib chet ellarda va Rossiyada nimalar yozayotganlari, hozir qanday fikriy oqimlar borligini so‘zlay boshladi. Ivan Dmitrich g‘oyat diqqat bilan tinglab, savollar berayotgandi, lekin to‘satdan bir mudhish ish yodiga tushganday boshini ushladi va doktorga orqasini o‘girib yotib oldi.

– Nima bo‘ldi sizga? – dedi Andrey Yefimich.

– Endi siz mendan biron og‘iz ham so‘z eshitmaysiz! – dedi Ivan Dmitrich qo‘rslik qilib. – Qo‘ying meni?

– Sabab?

– Aytdim-ku; qo‘ying! Muncha endi?!

Andrey Yefimich kiftlarini uchirdi, uh tortib, chiqib ketdi. Dahlizdan o‘tarkan:

– Shu yer bir tozalansaydi, Nikita... Juda sasib ketibdi! – dedi.

– Xo‘p bo‘ladi, janobi oliylari.

«Qanday yoqimli yigit! – deb o‘yladi Andrey Yefimich uyiga ke layotib. – Shu yerda turganimdan buyon gap-so‘zga tushunadigan odamni uchratganim shu bo‘lsa kerak. U muhokama qiloladi va zarur narsalarga qiziqadi».

Kitob o‘qiyotganda va yotar vaqtida ham Ivan Dmitrich haqida o‘yladi, ertasiga ertalab uyg‘onib, kecha aqlli va ajoyib yigit bilan tanishgani yodiga tushdi, ilojini topsa, uning yoniga yana bir kirib-chiqishga jazm qildi.

X

Ivan Dmitrich xuddi kechagidek vaziyatda, boshini qo‘llari orasiga olib, oyoqlarini g‘ujanak qilib yotgandi. Yuzi ko‘rinmasdi.

– Salom, do‘stim, – dedi Andrey Yefimich. – Uxlayotganingiz yo‘qmi?

– Avvalo, men sizning do‘stingizmasman, – dedi Ivan Dmitrich yostiqqa yuzini bosib yotganicha, – ikkinchidan, behuda urinyapsiz: mendan biron og‘iz ham so‘z eshitilmaysiz.

– Qiziq... – dedi Andrey Yefimich xijolat tortib. – Kecha bir yaxshi, totuvlik bilan so‘zlashayotgandik, lekin nimagadir to‘satdan

xafa bo'ldingiz va suhbatni to'xtatib qo'ydingiz... Ehtimol, og'zimdanda biron noshoyon so'z chiqdimi, yo bo'lmasa, sizning aqidangizga to'g'ri kelmaydigan fikrni aytib qo'ydimmi...

– Shunaqa deng, ishondim-qo'ydim-da, a, sizga? – dedi Ivan Dmitrich boshini ko'tarib, hayajon ichida istehzo bilan doktorga qarab; uning ko'zlari qizargandi. – Josuslikni, sir olishni boshqa joyga borib qiling, bu yerda ketmaydi. Nima uchun kelganingizni kechayoq bilgandim.

– Qiziq xayol! – dedi doktor jilmayib. – Demak, sizning bilishingizcha, men josus ekanman-da?

– Ha, bo'lmasa-chi... Men uning qo'liga sinash uchun topshirilganimdan keyin do'xtirmi-josusmi – baribir.

– E-ha, haqiqatan afv etingiz... Qiziq odam ekansiz-ku!

Doktor uning karavoti yonidagi kursichaga o'tirdi-da, uni aybsitib bosh chayqadi.

– Xo'p, aytaylik, siz haq bo'ling, – dedi u, – aytaylik, men munofiqlik qilib sizni so'zdan tutib mirshabga bermoqchiman. Sizni qamoqqa olishsin, so'ng sud ham qilishsin. Xo'sh, o'sha sudda va turmada sizga shu yerdagidan yomon bo'ladimi? Agar boshqa shaharga, hatto surgunga yuborsalar, shu hujrada o'tirishingizdan yomonmi? Menimcha, yomonmas... Demak, nimadan qo'rqasiz?

Aftidan, bu so'zlar Ivan Dmitrichga ta'sir qildi, shekilli, sekin turib o'tirdi.

Soat kechki besh edi – bu Andrey Yefimich odati bo'yicha o'z uyida xonadan xonaga o'tib yuradigan va Daryushka undan, pivo ichadigan vaqtingiz bo'lmadimi, deb so'raydigan kez edi. Tashqarida havo sof, sokin edi.

– Men ovqatdan so'ng aylanib kelish uchun chiqqandim, huzuringizga kirgim keldi, – dedi doktor. – Bahor bo'lib qoldi.

– Hozir qaysi oy? Martmi? – deb so'radi Ivan Dmitrich.

– Ha, martning oxiri.

– Hovli loydir?

– Yo'q, uncha loymas. Bog' yo'llari selgib qolgan.

– Endi aravaga tushib biron yerga, shahardan tashqariga chiqsam, – dedi Ivan Dmitrich, qizargan ko'zlarini uyqudan turgan odamday ishqab, – so'ng uyim, issiqqina, saranjom-sarishta kabinetimga qaytib kelib... keyin tuzukroq do'xtirga bosh og'riqni da-

volatsam... ko'pdan beri insonlarcha yashaganim yo'q. Bu yer juda yomon! Chidab bo'lmaydigan darajada yomon!

Kechagi vasvasadan keyin charchagan, lanj va ancha xafsalasizlik bilan so'zlardi u. Barmoqlari titrar va yuzidan boshining qattiq og'riyotgani bilinib turar edi.

– Issiqqina, saranjom-sarishta kabinet bilan shu palataning o'rtasida hech qanday farq yo'q, – dedi Andrey Yefimich. – Kishi-ning huzur-halovati tashqi sharoitdama, uning o'zida bo'ladi.

– Ya'ni?

– Oddiy odamlar rohatni yoki azobni tashqi sharoitdan, masalan, aravadan, kabinetdan, fikr etuvchi kishi esa o'zidan kutadi.

– Boring, bu falsafani Gretsiyada targ'ib qiling, u yer issiq va noranja hidiga to'la, bu yerning bod havosi to'g'ri kelmaydi. Kim bilan Diogen haqida so'zlashgandim? Siz bilan bo'lsa kerak?

– Ha, kecha men bilan.

– Diogen kabinet va issiq uyga muhtoj bo'lganmas; u yerda bu-larsiz ham issiq. Bo'chkaga tush-da, po'rtaxol va zaytun mevasini yeb yotaver. Agar Rossiyada turishga to'g'ri kelganda bormi, de-kabrdama, may oyidayam uy talab bo'lib qolardi-ku. Sovuq shun-doq ham ta'sar qilsinki...

– Yo'q. Sovuqni va umuman, barcha og'riqlarniyam sezmaslik mumkin. Mark Avreliy: «Og'riq – odamning og'riq haqidagi tu-shunchasi, irodangni kuchaytirib, mana shu tushunchani o'zgartir, orqaga tashla, nolishni to'xtat, og'riq yo'qoladi», deydi. Haq gap. Donishmand yoki umuman, fikr qiluvchi mulohazali odam faqat azobdan nafratlanishi bilan boshqalardan farq qiladi; u doim mam-nun va hech narsaga taajjublanmaydi.

– Demak, men azob chekkanim, norozilik bildirganim va inson razilligiga taajjublanganim uchun ahmoq ekanman-da.

– Bu gaplaringiz ortiqcha. Agar siz durustroq o'ylab ko'rsangiz, bizlarni tahlikaga soladigan sirtqi narsalarning qanchalik arzi-masligini anglab olasiz. Hayotni anglab olishga intilish kerak, hamma baxt – ana shunda.

– Anglash... – deb yuzlarini burishtirdi Ivan Dmitrich. – Sirtqi, ichki... Kechirasiz, men buni tushunolmayman. Faqat shuni bila-manki, – dedi u o'rnidan turarkan, g'azab bilan doktorga qarab, – shuni bilamanki, Xudo meni issiq qon va asablardan yaratgan, shun-

day! Organik to'qima agar yashashga qobiliyatli bo'lsa, sirtidan bo'ladigan har bir ta'sirga e'tibor berishi kerak. Men e'tibor qilaman! Og'riqqa – dodlash va yig'lash bilan, razillikka – nafrat, qabihlikka – g'azablanish bilan javob qilaman. Menimcha, hayot deb asli o'zi mana shular aytilsa kerak. Organizm naqadar taraqqiy topmagan bo'lsa, shu qadar sezgirligi oz va tashqi ta'sirga shunchalik sust javob qiladi, qanchalik taraqqiylashgan bo'lsa, shunchalik sezgir bo'lib, voqelikka tez va g'ayrat bilan e'tibor qiladi. Shuniyam bilmay bo'ladimi? Do'xtir-ku, shunaqangi oddiy narsalarni bilmaydi! Azob chekishga nafrat bilan qaramaslik uchun, doim mamnun bo'lish uchun, hech narsaga hayron qolmaslik uchun mana shunday holga tushish kerak, – dedi Ivan Dmitrich, vujudini yog' bosib, semirib ketgan mujikni ko'rsatib, – yoki kishi o'zini azob bilan shunday pishitishi kerakki, har qanday sezish qobiliyati, ya'ni boshqacha qilib aytganda, yashamay qo'yishi kerak. Kechiring, men na mutafakkirman, na faylasuf, – deb davom etdi Ivan Dmitrich tutoqib, – va bu to'g'risida hech narsaga tushunmayman. Fikr yuritguday holim yo'q.

– Aksincha, fikr yuritishingiz juda soz.

– Siz kulgili ravishda taqlid qilayotgan stoiklar¹ ancha durust odamlar edi, lekin ularning ta'limoti bundan ikki ming yil oldin bir joyda qotib qoldi, bir qadam ham oldinga siljigani yo'q va siljimaydi, chunki hayotga tatbiq qilib bo'ladigan qulay ta'limotmas. U faqat butun umrini o'lib-tirilib turli ta'limotlarni o'rganish, totib ko'rish bilan o'tkazadigan ozchilik o'rtasida shuhrat qozondi, ko'pchilik unga tushunmadi. Boylikka, hayotdagi qulayliklarga loqaydlikni va azobga, o'limga nafrat bilan qaramaslikni targ'ib qiluvchi ta'limotga ko'pchilik mutlaqo tushunmaydi, chunki bu ko'pchilik o'z hayotida boylik nima, turmushdagi qulaylik nimaligini hech qachon bilmaganmas; azob chekishga nafrat bilan qaramaslik ular uchun hayotga nafrat bilan qarash, degan gap, chunki insonning vujudi ochlik, yalang'ochlik, alam, ayriliqni sezishdan va hamletchasiga o'limdan qo'rqishdan iborat. Hayot mana shu sezgilarda: uni og'ir ko'rish, yoqtirmaslik mumkin, lekin undan nafratlanib bo'lmaydi. Mana

¹ *Stoik* – yunon va rim falsafasida moddiyunchilik bilan g'oyaviylik o'rtasida turgan ratsionalcha falsafiy ta'limot – stoitsizm tarafdori.

shundoq, takror aytamanki, stoiklarning ta'limoti hech qachon yuzaga chiqmaydi. Axir, ko'rib turibsizki, dunyo paydo bo'lgandan to shu kungacha kurash, og'riqqa sezgirlik, chetdan bo'lgan ta'sirga javob qaytarish qobiliyati o'sib bormoqda...

Ivan Dmitrich birdan fikrining arqonini yo'qotib qo'ydi-da, xunob bo'lib, peshonasini ishqadi.

– Bir muhim narsa aytmoqchiydim, adashib ketdim, – dedi u. – Nima edi? Ha! Shuni aytmoqchiydim; stoiklardan bittasi o'zining yaqin bir odamini ajratib olish uchun qul bo'lib sotilgan. Buni qarang, demak, stoik ham sirtdan bo'lgan ta'sirga e'tibor qilibdi, yaqin kishing uchun jondan kechishdek oliyjanob ishni qilish uchun azobga qarshi qo'zg'aluvchan, rahmdil bo'lish kerak. Bu turmada o'qib bilganlarimniyam esimdan chiqarib qo'ydim. Bo'lmasa, yana biron narsani xotirlardim. Isoni olsak-chi? Iso voqelikka yig'lash, kulish, qayg'urish, achchiqlanish, hatto g'ussa chekish bilan javob qilgan; u azobga qarshi kulib bormagan va o'limga ham nafrat bilan qaramagan, Hefsiman bog'ida, meni bu balo-qazodan saqla, deb ibodat qilgan-ku.

Ivan Dmitrich kulib yubordi-da, o'tirdi.

– Faraz qilaylik, insonning huzur-halovoti chetdamas, uning o'zida bo'lsin, – dedi u. – Faraz qilaylik, azob chekishga nafrat bilan qaraylik-da, hech narsaga hayron qolmaylik. Xo'sh, siz nimaga asoslanib buni targ'ib qilyapsiz? Siz donishmandmisiz? Faylasufmisiz?

– Yo'q, faylasufmasman, ammo bu narsani har bir kishi targ'ib qilishi lozim. Chunki bu oqilona gap.

– Yo'q, men shuni bilmoqchimanki, nega siz anglab olish, azob chekishga nafrat bilan qarash singari masalalarda o'zingizni bilimdon hisoblaysiz? Siz azob chekib ko'rganmisiz? Azob nimaligini bilasizmi? Kechirasiz, bolaligingizda sizni savalashganmi?

– Yo'q, mening ota-onam urib jazolashni yomon ko'rardi.

– Otam meni ayamay urardi. Mening otam badjahl, bo'ynigacha sarg'ayib ketgan, so'rraygan, qirraburun, bavosil bir mansabdor edi. Qani, sizning to'g'ringizda so'zlashaylik. Umringizda sizni birov chertmagan, hech kim qo'rqitib, yuragingizni olib qo'ymagan, buqadek sog'lomsiz. Otangizning bag'rida katta bo'lgansiz va uning puliga o'qigansiz, so'ng darhol ishi oz, daromadi zo'r o'ringa o'tirib

olgansiz. Yigirma yildan ortiq tayyor xizmatchisi o'tin-cho'pi, chirog'igacha tekin uyda yashagansiz. Buning ustiga, qancha va qanday ishlash yoki hech ish qilmaslik o'z ixtiyoringizda bo'lgan. O'zingiz tabiatan yalqov, po'k odamsiz, shuning uchun ham turmushingizni hech narsa bezovta qilmaydigan va joyidan qo'zg'atmaydigan qilib tuzgansiz. Ishni feldsher va o'shanga o'xshash ablalarga topshirib, o'zingiz issiqqina tinch uyda o'tirib, pul yig'ib, kitob o'qigan bo'lib, har xil bo'lmag'ur yuksak fikrlarning va (*Ivan Dmitrich doktoring qip-qizil burniga qarab oldi*) ichkilikning kayfini surgansiz. Qisqasi, siz hayotni ko'rmagansiz va mutlaqo bilmaysiz ham, voqelikni bo'lsa faqat nazariy ravishda bilasiz. Azob chekishga nafrat bilan qarashingiz va hech narsaga taajjublanmasligingiz sababi juda oddiy: hayotning ikir-chikirlari ichki va tashqi hayotga, azob chekishga va o'limga nafrat bilan qarash, anglab olish, haqiqiy saodat – bularning hammasi rossiyalik yalqov uchun juda mos falsafa. Masalan, bir mujik xotinini urmoqda, siz unga qarab turaverasiz. O'rtasiga tushishning nima keragi bor? Qo'yaver, uraversin, ertami-kechmi, ikkoviyam o'ladi, buning ustiga, urayotgan kishi urish bilan u odamnimas, o'zini haqorat qiladi, deysiz. Ichib mast bo'lib yurish ahmoqlik, beodoblik, lekin ichsang ham – o'lasan, ichmasang ham – o'lasanmish. Xotin kishi keladi, tishim og'riyapti... deydi. Xo'sh, nima bo'пти? Og'riq – og'riq haqidagi tushuncha, uning ustiga, bu dunyoda kasal bo'lmay o'tmaydi kishi, hammamiz ham o'lamiz, shuning uchun, xotin, yo'lingdan qolma, mening o'ylashimga va ichkilik ichishimga xalaqit berma, deyiladi-da. Yosh yigit nima qilish va qanday yashash haqida maslahat so'raydi, boshqa kishi bo'lsa javob berishdan oldin o'ylab ko'rardi, sizning javobingiz tayyor: anglab olishga yoki haqiqiy saodatga intil. Bu xayoliy «haqiqiy saodat» nima? Bunga, albatta, javob yo'q. Bizlarni bu yerda panjara ichiga qamab chiritchishmoqda, holdan ketguncha azob berishmoqda, bu juda yaxshi va oqilona ish, chunki shu palata bilan yaxshi va issiq kabinetning orasida hech qanday farq yo'qmish. Qulay falsafa: ish ham yo'q, vijdon ham sof, ham o'zingni dono odamday sezasan... Yo'q, afandim; bu na fikr, na falsafa, na dunyoga keng nigoh bilan qarash. Bu – yalqovlik, afsungarlik, alahlash... To'g'ri! – dedi-da, Ivan Dmitrich yana achchiqlandi. – Azob chekishga nafrat bilan qaramaysiz, agar

barmog'ingizni eshik qisib qolguday bo'lsa, tovushingizning bori-cha dodlardingiz!

– Bordi-yu, dodlamasam-chi? – so'radi Andrey Yefimich salgina jilmayib.

– Shundaymi, dodlamaysiz-a! Mana, agar birdan falaj bo'lib qolsangiz yoki bironta ahmoq, surbet o'zining mansabi va amaldan foydalanib, xalq o'rtasida sizni haqorat qilsa va unga hech qanday jazo berilmasligiga ko'zingiz yetsa, ana unda boshqalarni hayotni anglab olishga va haqiqiy baxtga yo'llash nimaligini bilib qo'yardingiz.

– Bu qiziq gap, – dedi Andrey Yefimich zavq bilan kulib va qo'llarini bir-biriga ishqadi. – Sizning shu zayl xulosa chiqarishlaringiz menga juda yoqadi, haligina menga juda qoyil qoldiradigan baho berdingiz. To'g'risini aytsam, siz bilan suhbatlashish menga g'oyat katta rohat baxsh etadi. Xo'p, men sizning so'zlaringizni tingladim, endi siz ham mening so'zlarimga quloq soling...

XI

Bu suhbat yana bir soatcha cho'zildi va aftidan, Andrey Yefimichga qattiq ta'sir qilgan bo'lsa kerakki, har kuni shu yerga keladigan bo'lib qoldi. U ertalab va ovqatdan keyin kelar, ko'pincha qorong'i tushguncha ham Ivan Dmitrich bilan suhbatlashib o'tirardi. Dastlabki kunlarda Ivan Dmitrich undan o'zini tortar va yomon niyat bilan kelib yuribdi, deb shubhalanib, uni yoqtirmasligini ochiqdan ochiq aytardi, keyinchalik o'rganib qoldi va qo'rs so'zlikning o'rniga sal ayab, istehzo aralash muomala qiladigan bo'ldi.

Tez kundayoq kasalxonada, doktor Andrey Yefimich oltinchi raqamli palataga kirib yurarmish, degan ovoza tarqaldi. Na feldsher, na Nikita, na bemorlarga qarovchi ayollar – hech kim uning nima uchun bu yerga kirishining, necha soatlab bu yerda qolib ketishining, nima haqida so'zlashishining va nega dori yozib bermay chiqib ketishining tagiga yetolmasdi. Uning bu qiligi juda ajib tuyulardi. Mixail Averyanich ham ko'pincha uni uydan topolmaydigan bo'lib qoldi, ilgari hech bunday bo'lmasdi; doktorning ma'lum soatda pivo ichmayotganidan, ba'zan hatto ovqatga ham kechikib kelishidan Daryushka ham dovdirab qolgandi.

Bir kun, iyunning oxirlarida doktor Xobotov qandaydir bir ish bilan Andrey Yefimichning oldiga keldi; uydan topolmagach, hovlidan izlay boshladi; keksa doktoring ruhiy bemorlarning yoniga kirib ketganini o'sha yerdagilar aytishdi. Xobotov u yerga bordi va dahlizda turib, shu so'zlarni eshitdi:

– Biz bir-birimizni hech qachon anglolmaymiz va meni o'z maslagingizga tortish qo'lingizdan kelmaydi, – derdi Ivan Dmitrich qizishib, – voqelik bilan mutlaqo tanishmassiz, hech qachon azob ham chekmagansiz, faqat zuluk singari, boshqalar azob chekayotgan joyda turib, to'ygansiz. Men bo'lsam tug'ilganimdan to shu damgacha muttasil azob chekib kelaman. Shuning uchun ochig'ini aytaman; men o'zimni sizdan ustun va har borada mo'tabarroq deb hisoblayman. Menga o'rgatmay qo'yaqoling.

– Menda sizni o'z maslagimga tortay degan xayol mutlaqo yo'q, – dedi sekingina Andrey Yefimich, uning anglashni istamagani uchun og'ringanday bo'lib. – Gap bundayammas, do'stim. Gap siz azob chekib, men chekmaganimdamas. Azob chekishlar, xursandchiliklar o'tib ketadigan narsa; qo'ying, Xudo ularga yor bo'lsin... Gap shundaki, bizlar fikr yurgizamiz va bir-birimizda muho-kama qilishga, fikr yurgizishga qobiliyatli odamlarni ko'rmoqdamiz, ana shuning o'zi, maslagimizniptg turli bo'lishiga qaramay, bizlarni hamfikir qiladi. Koshki, siz umumiy ahmoqgarchilik, qobiliyatsizlik, befahmlikning jonimga qanday tekkanini va har gal siz bilan qanday shodlanib suhbatlashishimni bilsangiz edi, do'stim! Siz aqlli odamsiz, sizning yoningizda rohat qilaman.

Xobotov eshikni sal qiya ochdi-da, palataga qaradi; qalpoq kiygan Ivan Dmitrich bilan doktor Andrey Yefimich to'shakda yonmayon o'tirardi. Jinni yuzlarini burishtirar, seskanar va beixtiyor xalatga o'ranardi, doktor bo'lsa jimgina, boshini quyi solib o'tirardi, uning yuzi qip-qizil, umidsiz va g'amgin edi. Xobotov yelkalarini uchirdi, kuldi va Nikita bilan ko'z urishtirdi. Nikita ham yelkalarini uchirdi.

Ertasiga Xobotov feldsher bilan birga keldi, ikkalasi ham dahlizda turib quloq solishdi.

– Cholimiz butunlay aynib qolganga o'xshaydi-ku! – dedi Xobotov, u yerdan chiqarkan.

– Yo Rabbiy, biz gunohkorlarni O'zing kechir! – dedi chuqur nafas olib olifta Sergey Sergeich, yaltiraguncha pardozlangan etik-

lariga loy tekkizmaslik uchun ko'lmak suvdan ehtiyot bilan o'tarkan. – To'g'risini aytsam, hurmatli Yevgeniy Fyodorich, men ko'pdan beri shunday bo'lishini kutgandim! – dedi.

XII

Shundan keyin Andrey Yefimich atrofida qandaydir sirli bir hol seza boshladi. Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar, bemorlarga qarovchi ayollar va bemorlar u bilan uchrashganda savol nazari bilan boqishar, so'ng shivir-shivir so'zlashardi. Nozirning qizi Masha ham kasalxona bog'ida uchrab qolganda, Andrey Yefimich odatdagicha uning boshidan silamoqchi bo'lib, kulimsirab yoniga borsa, negadir qochadigan bo'lib qoldi.

Pochta mudiri Mixail Averyanich uning so'zlariga quloq solar-kan, ortiq: «Haq gap» demasdan, anglab bo'lmaydigan bir xijolat ichida, «Ha, ha ha...» derdi, o'ychanlik va qayg'u bilan unga boqardi; nima uchundir u do'stiga, ichkilikni tashlash kerak, degan maslahatni bera boshladi, lekin odobli odam bo'lgani uchun ochiq aytolmasdan goh bir batalyon komandiri bo'lgan yaxshi odam to'g'risida, goh polk ruhoniysi bo'lgan durust yigit to'g'risida gap keltirib, ularning ham ichib kasal bo'lganlari, lekin ichkilikni tashlash bilan butunlay tuzalib ketganlari to'g'risida shama qilib so'zlardi. Ikki-uch marta Andrey Yefimichning uyiga hamkasbi Xobotov ham kelib ketdi; u ham ichkilikni tashlashni va hech qanday sabab yo'qligiga qaramay, bromli kaliy ichishni buyurdi.

Avgust oyida Andrey Yefimich shahar boshlig'idan juda zarur ish yuzasidan kelib-ketishini iltimos qilib yozilgan xat oldi. Andrey Yefimich tayinlangan vaqtda mahkamaga borsa, u yerda harbiy ishlar boshlig'i, uyezd o'quv yurtining noziri, shahar mahkamasi a'zosi bo'lmish bir kishi, Xobotov va yana to'ladan kelgan sarg'ish sochli qandaydir bir odam ham bor ekan, bu kishini unga doktor deb tanitishdi. Bu aytilishi qiyin polyakcha familiyali doktor, shahardan o'ttiz chaqirim narida ot zavodida turarkan va shaharga yo'lakay tushgan ekan.

– Sizlarning ishingizga tegishli bir ariza bor, – dedi mahkama a'zosi Andrey Yefimichga, hamma ko'rishib bo'lib stol atrofiga o'tirgandan keyin. – Mana, Yevgeniy Fyodorich aytadilarki, katta binoda dorixonaga joy torlik qilyapti, shuni uylardan bittasiga

ko'chirsak, deydilar. Bu, albatta, hech gapmas, ko'chirish mumkin, lekin asosiy masala – uyni ta'mir qilish.

– Ha, ta'mir qilinmasa bo'lmaydi, – dedi Andrey Yefimich o'ylab ko'rib. – Agar, masalan, burchakdagi uyni dorixonaga muvofiqlashtirsak, bilishimcha, unga kamida besh yuz so'm kerak, samarasiz chiqim.

Birpas jim qolishdi.

– Men bundan o'n yil muqaddam, – deb davom etdi Andrey Yefimich ohista ovoz bilan, – bu kasalxonani haqiqiy holda asrashga shaharning kuchi yetmaydi, deb aytgandim. O'zi qirquinchi yillarda solingan, axir, u vaqtdagi sarmoya boshqa edi. Shahar befoyda imoratlar va ortiqcha mansablar uchun juda ko'p pul sarf qiladi. O'ylashimcha, tartib boshqacharoq bo'lgandaydi, shu pullarga ikkita namunali kasalxona qilib qo'yish mumkin edi.

– Qani, bo'lmasa, o'sha boshqacha tartibni qilaylik! – dedi tezlik bilan mahkama a'zosi.

– Men allaqachonlar aytgandim: tibbiy bo'limni zemstvo ixtiyoriga topshiring, deb.

– Shundaymi, pulni zemstvo ixtiyoriga topshiring, u o'g'irlasatchi? – deb kuldi sarg'ish sochli doktor.

– Bu aniq, – deb mallasoch doktorning fikriga qo'shildi mahkama a'zosi, u ham kuldi.

Andrey Yefimich sarg'ish sochli doktorga erinchoqlik bilan ma'nosiz bir nazar tashladi va:

– Insof kerak, – dedi.

Yana jim qolishdi. Choy keltirildi. Nimagadir juda xijolat tortgan harbiy ishlar boshlig'i stul ustidan qo'lini cho'zib, Andrey Yefimichning qo'lini ushlab qo'ydi va kulib:

– Bizlarni ja unutilib yubordingiz, do'xtir, – dedi. – Shunisi borki, taqvodorsiz: qarta o'ynamaysiz, xotinlarni yoqtirmaysiz, bizlarning oramizda zerikib ham qolasiz-da.

Hammalari birdan durust odam uchun bu shaharda turish og'irligi haqida so'zlab ketdilar. Na teatr, na musiqa bor, so'nggi marta bo'lgan raqs kechasida yigirmaga yaqin xonim va ikki kavaler bo'ldi. Yoshlar raqs tushmaydi, hamisha bufetda uymalanishadi yoki qarta o'ynaydi, deyishdi. Andrey Yefimich hech kimga qaramay, shoshilmasdan sekingina so'z boshlab, shahar xalqi o'z quvvati,



yuragi va aqlini qartaga va g'iybatga sarf qilishi juda-juda achinarli hol ekanini, vaqtini qiziq suhbatlar va o'qish bilan o'tkazishni bilmasligini va buni istamasligini, yana aql orqasidan keladigan lazzatlardan foydalanishni istamasligini gapirdi. Yolg'iz aqlgina go'zal va yaxshi narsa, boshga hammasi mayda va tuban narsalar, dedi. Xobotov hamkasbining so'zlarini diqqat bilan tinglab turib, to'satdan:

– Andrey Yefimich, bugun nechanchi sana? – deb so'radi. Javob olgach, u bilan birga sarg'ishsoch doktor, o'z no'noqligini bilib turgan imtihon oluvchilardek, Andrey Yefimichdan bugun qaysi kun, bir yilda necha kun bor va 6-raqamli palatada ajoyib bashoratgo'y borligi rostmi, deb so'radi.

So'nggi savolga javob berayotgan Andrey Yefimich qizarib ketdi va:

– Ha, u kasal, lekin ajoyib yigit, – dedi.

Unga boshqa hech qanday savol berishmadi.

U dahlizda paltosini kiyarkan, harbiy ishlar boshlig'i Andrey Yefimichning yelkasiga qo'lini tashladi va uh tortib:

– Biz, keksalar endi dam olsak ham bo'ladi! – dedi.

Mahkamadan chiqayotib Andrey Yefimich bular uning es-hushini tekshirgani tuzilgan komissiya ekanini angladi. U o'ziga berilgan savollarni esladi va qizarib ketdi, negadir hayotida birinchi marta tabobat ilmining ahvoliga qattiq achindi.

«Yo Rabbii, – deb o'yladi u, shifokorlarning hozirgina uni qanday tekshirganlarini eslab, – axir, ular yaqindagina ruhiy xastaliklarni o'qib, imtihon berishgan-ku, bu qadar nodonlik qayerdan keldi? Ruhii xastalik nima ekanini bilmaydilar-ku, axir!»

U hayotida birinchi martaba o'zini haqoratlangan va g'azablangan holda sezdi.

O'sha kuniyoq kechqurun uning uyiga Mixail Averyanich keldi. Pochta mudiri salomlashmasdanoq uning yoniga bordi-da, ikki qo'lidan ushlab, qaltiroq tovush bilan:

– Azizim, do'stim, mening ko'nglim yaqinligiga ishonishingizni va o'zingiz ham meni do'st deb hisoblashingizni isbot qiling... Do'stim! – U Andrey Yefimichga so'z bermasdan, hayajonlanib davom etdi: – Men sizni ilmli va sofdil bo'lganingiz uchun yaxshi ko'raman. So'zlarimga quloq soling, azizim. Ilm-fan qoidalari do'xtirlarni sizdan haqiqatni yashirishga majbur qiladi, lekin men

harbiychasiga to'g'risini shartta aytib qo'yaqolaman: siz salomat emassiz! Kechiring meni, do'stim, to'g'risi shu, buni allaqachonlardan beri atrofingizdagilarning hammasi sezgan. Hozirgina do'xtir Yevgeniy Fyodorich menga sizning sog'lig'ingiz uchun, yaxshisi, dam olish va ko'ngil ochish zarurligini aytdi. Juda to'g'ri! Juda soz! Tez kun ichida men ta'til olaman va biroz boshqa havoni hidlab kelgani ketaman. Do'stim ekaningizni ko'rsating, birga ketaylik! Bo'raylik, yoshlik davrini esga solib aylanib kelaylik.

– Men o'zimni juda sog'lom sezaman, – dedi Andrey Yefimich o'ylab turib. – Borishimning iloji yo'q. Ruxsat etsangiz, do'stligimni qanday bo'lmasin, boshqacha qilib bildira qolay.

Nima uchun ketayotganini bilmasdan, qayoqlargadir ketish, kitobsiz, Daryushkasiz, pivosiz, 20 yildan buyon o'rnatilgan qolgan hayot tartibini birdan buzish – bunday fikr birinchi daqiqada unga ajib va xayoliy bir gapday tuyuldi. Lekin mahkamada bo'lib o'tgan gaplarni, u yerdan kelayotganida kechirgan og'ir holatini esladi va uni jinniga chiqarib qo'ygan ahmoq odamlar yashayotgan shahardan biroz vaqt uzoqlashish kerak, degan fikr yoqqanday bo'ldi.

– Qani, o'zingiz qayoqqa bormoqchisiz? – deb so'radi.

– Moskvaga, Peterburgga, Varshavaga... Varshavada hayotimning baxtli besh yilini o'tkazganman. Qanday ajoyib shahar! Ketaylik, azizim!

XIII

Bir haftadan keyin Andrey Yefimichga dam olishni, to'g'risi, ishdan bo'shab ketishni taklif qilishdi, bunga u ancha beparvo qaradi, yana bir haftadan keyin Mixail Averyanich bilan ikkovi shaldiroq aravaga tushib, yaqinroqdagi temiryo'l stansiyasiga qarab yo'l olishdi. Kunlar salqin, havo ochiq, ko'k yuzi zangori bo'lib, uzoq joylar ko'rinar edi. Stansiyagacha bo'lgan ikki yuz chaqirim yo'l ni ikki kunda bosishdi va yo'lda ikki marta qo'nishdi. Bekatlarda choy ichgani yaxshi yuvilmagan stakan berilsa yoki tarantasga imillab ot qo'shilsa, Mixail Averyanich qip-qizarib ketar va butun vujudini qaltiroq bosib: «Tovushingni o'chir!», «Mahmadonalik qilma!» deb qichqirardi. Tarantasda bo'lsa bir daqiqa tinmasdan o'zining Kavkazga va Polsha podsholigiga borganlarini so'zlardi. Naqadar ajoyib hodisalar, qanday uchrashuvlar! U shang'illab so'zlarkan,

ko'zlarida shunday bir hayronlik alomati paydo bo'lardi, kishi, bu odam yolg'on so'zlayapti, deb o'ylardi. Uning ustiga, gapirarkan, to'g'ri Andrey Yefimichning yuziga qarab dam urar, qulog'ining tagida qah-qahlab kulardi. Bu hol doktorni siqar, o'ylashga va xayolini bir joyga to'plashga xalal berardi.

Temiryo'lda bo'lsa iqtisod qilib, uchinchi toifali popiris chek-maydiganlar vagoniga tushishdi. Yo'lovchilarning yarmi toza kiyim kiygan odamlar edi. Mixail Averyanich tez orada hamma bilan tanishib oldi va o'rindiqdan o'rindiqqa o'tib, shang'illab, bu yaramas yo'llardan yurish kerakmas, deb so'zladi. Qay tomonga qarasang – muttahamlik! Otga minib yurishga nima yetsin: kuniga yuz chaqirimdan yo'l bosasan-da, keyin o'zingni tetik va sog'lom sezasan. Bizda hosil bitmaslik, Pinsk botqoqligini quritib yuborganlaridan bo'lmoqda. Umuman tartibsizlik mudhish darajada.

U qizishib, shang'illab so'zlar va hech kimga gap bermas edi. Bu ora-chora qah-qah urish bilangina bo'linadigan bitmas-tuganmas bema'ni gap-so'z, ifodali imo-ishoralar Andrey Yefimichning tinkasini quritdi.

«Qaysi birimiz jinnimiz? – deb o'ylardi u diqqati oshib. – Yo'lovchilarni biror ish bilan bezovta qilmaslikka tirishayotgan menmi yo o'z huzurini ko'zlovchi, bu yerdagilarning hammasidan o'zini aqlliyoq va alomatyoq deb o'ylaydigan, shuning uchun ham hech kimga tinchlik bermayotgan umi?»

Moskvada Mixail Averyanich pogonsiz harbiy syurtuk va yon choklariga qizil qo'yib tikilgan shim kiydi. Ko'chaga chiqqanda harbiy furajka va shinel kiyib yurar, askarlar unga harbiychasiga salom berib o'tishardi. Endi Andrey Yefimichning nazarida, u o'zining qachonlardir bo'lgan kiborlik xulqlarining hamma yaxshi jihatlarini yo'qotib, o'ziga faqat yomon jihatlarini olib qolgan odamga o'xshab ko'rinardi. Hech keragi bo'lmagan yerda ham birovning o'ziga xizmat qilishini yaxshi ko'rardi. Gugurt ro'parasida, stolda yotibdi, uni o'zi ko'rib ham turadi-yu, xizmatkorga gugurtini olib ber, deb qichqiradi; uy xodimasining oldida tortinmasdan ichki kiyimda yuradi; xizmatkorlarning hammasini, farqiga bormay, hatto keksalarini ham sensiraydi, jahli chiqquday bo'lsa, ularni esi past, ahmoq deb koyiydi. Bu ishlar Andrey Yefimichga kiborlikday ko'rinsa ham, lekin qabihlikday tuyuladi.

Mixail Averyanich do'stini, avvalo, Iverskka olib bordi. U ikki bukilib astoydil ibodat qilar, ko'zlari yoshlanib ibodat qilib bo'lgach, chuqur nafas oladi-da:

– Ishonmayman-ku, lekin ibodat qilgandan keyin kishi tinchlanganday bo'ladi. Sajda qiling, azizim, – deydi.

Andrey Yefimich xijolat tortib sanamni o'padi. Mixail Averyanich bo'lsa lablarini cho'chchaytirib, boshini qimirlatib shivirlab ibodat qiladi, yana ko'zlariga yosh oladi. Undan keyin Kremлга ketishdi, u yerda shohzambarakni, shohqo'ng'iroqni ko'rishdi va ularni hatto barmoqlari bilan ushlashdi. Zamoskvorechye manzarasini zavq bilan tomosha qilishdi, Xaloskor Iso ibodatxonasiga va Rumyansev muze-yiga ham kirib chiqishdi.

Tushlik ovqatni Testovning oshxonasida yeyishdi. Mixail Averyanich chakkasoqollarini silaganicha taomnomaga uzoq vaqt qarab o'tirdi-da, restoranlarda ham o'zini uyida o'tirgandek sezishga o'rganib qolgan shinavanda singari:

– Ko'raylik-chi, bizlarni nima bilan mehmon qilarkinsiz, farish-tam! – dedi.

XIV

Doktor yuradi-turadi, tomosha qiladi, yeydi-ichadi-yu, Mixail Averyanich g'ashini keltirayotganini hech unutmaydi. U o'rtog'idan ayrilib, yashirilib olgisi, tanho o'zi dam olgisi keladi, o'rtog'i esa uni o'zidan bir qadam nari yubormaslikni va mumkin qadar ko'proq uning ko'nglini ochishni o'zining burchi deb biladi. Ko'radigan narsa qolmaganda, uning ko'nglini gap bilan ochishga urinadi. Andrey Yefimich ikki kun chidadi. Uchinchi kuni do'stiga kasalligini va kun bo'yi uyda qolish niyatida ekanini aytdi. Do'sti, agar unday bo'lsa, men ham uyda qolaman, dedi. Haqiqatan dam olish kerak, bundoq yuraversak, oyoqda oyoq qolmaydi, dedi. Andrey Yefimich divanga yotdi, orqasini o'girdi-da, tishini tishiga qo'yib, uning so'zlariga quloq soldi. Do'sti bo'lsa, ertami-kechmi, Fransiya, albatta, Germaniyani tor-mor qiladi, Moskvada muttahamlar juda ko'p va otning ko'rinishiga qarab uning yaxshi jihatlarini haqida biror fikr aytish qiyin, deb uni ishontirishga harakat qilib astoydil gapirdi. Doktorning qulog'i bitib, yuragi o'ynay boshladi, lekin do'stiga, chiqib keting yoki gapirmang, deyishga nazokati yo'l qo'ymaydi. Uning baxtiga

xonada o'tirish Mixail Averyanichning joniga tegib, ovqatdan so'ng bir aylanib kelgani chiqib ketdi.

Yolg'iz qolganidan keyin Andrey Yefimich yayrab dam oldi. Uyda yolg'iz o'zing ekaningni bilganing holda qimirlamay divanda yotish qanday yaxshi! Yolg'izlikdan boshqa baxtning bo'lishi mumkin emas. Tubanlashgan farishta ehtimol farishtalar bilmaydigan yolg'izlikni istab Xudoga xiyonat qilgandir. Andrey Yefimich so'nggi kunlarda ko'rgan va eshitganlari haqida o'ylay desa, Mixail Averyanich xayolidan sira nari ketmasdi.

«Axir, u ta'til olib men bilan birga kelganida do'stligidan, oliy-himmatligidan keldi-ku, – o'ylardi doktor xunob bo'lib. – Mana shu do'stona g'amxo'rlikidan yomon narsa yo'q-da. Bo'lmasa, o'zi rahmdil, oliyjanob, xushchaqchaq odamga o'xshaydi-ku, lekin kishini zeriktiradi, chidab bo'lmas darajada zeriktiradi. Shunday odamlar bo'ladiki, doim ma'noli va yaxshi so'zlarni gapirsayam, lekin be-fahmligini shunday sezib turadi kishi».

Bundan keyingi kunlarda ham Andrey Yefimich kasalman deb xonadan chiqmay qo'ydi. U divan suyanchig'iga yuzini o'girib yotar, do'sti gap bilan uning ko'nglini ochishga uringanda, siqilar va chiqib ketganda, dam olardi. Kelgani uchun o'zidan, yana kundan kunga battar jag'i ochilib, sergap bo'lib borayotgan do'stidan koynib, xunob bo'lardi: fikrini jiddiy va yuksak izga solishning aslo ilojini topolmasdi.

«Meni bir vaqtlar Ivan Dmitrich aytgan voqelik aylantirmoqda, – deb o'ylardi u, o'zining ikir-chikirlarga ahamiyat berishidan achchiqlanib. – Umuman bo'lmag'ur gaplar... Uyga borsam, hammasi o'z joyiga tushib qoladi...»

Peterburgda ham ahvol shu bo'ldi: ertadan kechgacha xonadan chiqmadi, divanda yotdi, faqat pivo ichganigina o'mnidan turdi.

Mixail Averyanich uni tezroq Varshavaga ketishga qistardi.

– Azizim, men u yerga borib nima qilaman? – derdi Andrey Yefimich yolvorib. – Yolg'iz boraqoling, sizdan so'rayman! Menga ruxsat bering, uyga ketay!

– Aslo iloji yo'q! – deb qarshilik qildi Mixail Averyanich. – Varshava juda ajoyib shahar. U yerda men hayotimning baxtli besh yilini o'tkazganman!

O'z aytganini qilishga Andrey Yefimichning irodasi kuchsizlik qildi va bo'ynidan boylaganday Varshavaga ketdi. Bu yerda ham xonadan chiqmadi, divanda yotdi, o'zidan, do'stidan va rus tilini tushunishni aslo istamagan xizmatkorlardan koyindi.

Odatda, sog'lom, tetik, xursand yuradigan Mixail Averyanich esa ertadan-kechgacha shaharni aylanar va eski tanishlarini axtarar edi. U bir necha marta uyda tunamadi. Qayerda tunagani noma'lum, bir kechadan so'ng qip-qizil bo'lib, sochlari to'zigan, qattiq hayajonga tushgani holda ertalab qaytib keldi. O'zicha nimalarnidir so'zlab, uzoq vaqt uyning u boshidan bu boshiga yurgandan keyin to'xtadi va:

– Hammasidan ham nomus kerak! – deb qo'ydi.

Yana ozroq yurgach, boshini ushladi va dahshatli tovush bilan:

– To'g'ri, hammasidan ham nomus kerak! Birinchi gal boshimga shu shaharga kelish fikri kelgan daqiqaga la'natlar bo'lsin! Azizim, – dedi doktorga qarab, – mendan nafratlaning, yutqazib keldim! Menga besh yuz so'm berib turing!

Andrey Yefimich besh yuz so'mni sanadi va indamasdan do'stiga berdi. U esa uyatidan va g'azabidan hali ham qizargan holda g'o'ldirab, qandaydir bir befoyda qasamni ichdi-da, qalpog'ini kiyib chiqib ketdi. Ikki soatlardan keyin qaytib kelib, o'zini oromkursiga tashladi va qattiq uh tortib:

– Nomus saqlandi! Ketamiz, do'stim! Bu la'nati shaharda mening bir daqiqayam turgim kelmaydi. Muttahamlar! Avstriya josuslari! – dedi.

Do'stlar o'z shaharlariga qaytib kelishganda noyabr oyi edi va ko'chalarda qalin qor yotardi. Andrey Yefimichning o'rmini doktor Xobotov olgandi; u Andrey Yefimichning kasalxonaga qarashli uyini bo'shatib berishini kutib hali ham eski joyida turardi. U xizmatchim deb yurgan xunuk juvon kasalxona uylaridan bittasida turardi.

Shaharda kasalxona to'g'risida yangi g'iybatlar tarqalgandi. Aytardilarki, haligi xunuk juvon kasalxona noziri bilan urishib qolganmish, nozir juvonning oldida tiz cho'kib uzr so'rganmish.

Andrey Yefimich qaytib kelgan kuniyoq o'ziga uy izlashga to'g'ri keldi.

– Do'stim, – dedi pochta mudiri tortinibgina, – andishasizlik qilib berayotgan savolim uchun kechiring: qancha mablag'ingiz bor?

Andrey Yefimich indamasdan pullarini sanadi-da:

– Sakson olti so‘m, – dedi.

– Men uni so‘rayotganim yo‘q, – dedi xijolat tortib Mixail Averyanich, doktorning so‘ziga tushunolmay. – Umuman qancha deyapman?

– Men ham o‘shani aytyapman-da sizga. Sakson olti so‘m... Bundan boshqa hech narsam yo‘q.

Mixail Averyanich doktorni halol va nomusli odam deb bilgani holda, hech bo‘lmasa, yigirma mingga yaqin sarmoyasi bor, deb o‘ylardi. Endi bo‘lsa Andrey Yefimichning faqirligini, hayot kechirishiga ham yetarli narsasi yo‘qligini bilib, negadir to‘satdan yig‘lab yubordi va do‘stini quchoqlab oldi.

XV

Andrey Yefimich meshchan xotin Belovaning uch derazali choqina uyida turardi. Oshxonasi hisobga olinmasa, bu uy uchtagina xonadan iborat. Derazalari ko‘chaga qaragan ikkita xonasida doktor turar, oshxona bilan uchinchi uyda Daryushka va uch bolasi bilan meshchan xotinning o‘zi turardi. Goho bekaning o‘ynashi, mast mujik tunagani kelardi, kechalari to‘polon qilib bolalarning va Daryushkaning o‘takasini yorardi. U kelib, oshxonada o‘tirib olib sharob talab qilganda, uydagilarning hammasi siqilib qolardi, shunda doktor rahmi kelganidan yig‘layotgan bolalarni o‘z uyiga olib chiqar, polga yotqizib qo‘yar edi va bunday qilish unga ko‘p huzur-halovat baxsh etardi.

U avvalgiday ertalab soat sakkizda turar, choydan keyin o‘tirib, eski kitob va jurnallarni o‘qir edi. Yangisini olishga endi puli yo‘q... Kitoblarning eskiligidanmi yoki sharoit o‘zgarganidanmi – o‘qish uni chuqur ta‘sirlantirmaydi va charchatadi. Vaqtini bekor o‘tkazmaslik uchun kitoblarga to‘la katalog tuzib, ularning muqovasiga patta yopishtirar va bu aql yurgizilmaydigan, qunt talab qiladigan mayda ish o‘qishdan qiziqroq tuyulardi. Bir xil serdiqqat ish qandaydir tushunib bo‘lmaydigan bir tarzda uning fikrini allalaydi va hech narsa haqida o‘ylamaydi, vaqt ham tez o‘tadi. Hatto oshxonaga kirib Daryushka bilan kartoshka archish va qora bug‘doy yormasidagi cho‘pxaslarni terish ham qiziq tuyulardi. Shanba va yakshanba kunlari u cherkovga boradi. Devor yonida turib, ko‘zlarini suzib, o‘qilayotgan

oyat kuyiga quloq solarkan, ota-onasini, oliy maktabdagi damlarini va dinlar haqida o'ylaydi; u ko'ngli tinchib, xomush tortib ketadi va keyin cherkovdan chiqib ketayotganida ibodatning bunchalik tez tamom bo'lganiga achinadi.

U Ivan Dmitrich bilan suhbatlashgani ikki marta kasalxonaga bordi. Lekin Ivan Dmitrich har gal ham haddan tashqari tutaqqan va darg'azab edi; u o'zini tinch qo'yishlarini o'tindi, bo'lmag'ur quruq so'zning allaqachon joniga tekkanini, chekayotgan barcha azob-uqubatining evaziga bu la'nati razil odamlardan faqat bitta mukofot – yolg'iz qamashlarini iltimos qilganini aytdi. Nahotki, shuni ham rad qilsalar? Har ikki gal ham Andrey Yefimich xayrlashayotib, xayrli kech, desa, u g'ijinib:

– Ming la'nat! – dedi.

Andrey Yefimich endi uchinchi marta borishini ham, bormasligini ham bilmasdi. Lekin borgisi kelardi.

Ilgari Andrey Yefimich tushlik ovqatdan keyin xonadan xonaga o'tib yurardi va xayol surardi, endi bo'lsa ovqatdan to kechki choygacha divanga orqasini o'girib yotib, hech nari ketmayotgan maydachuyda gaplarni o'ylaydi. Yigirma yildan ortiq qilgan xizmati uchun unga nafaqa ham, biryo'la yordam puli ham berishmagani alam qilardi. To'g'ri, u halol xizmat qilmadi, lekin nafaqani halol xizmat qilgan-qilmaganiga qaramay, xizmatchilarning hammasi oladi-ku. Hozirgi zamonning bor-yo'q odilligi ham shundaki, unvon, orden, nafaqalar bilan kishining axloqi va uning qobiliyatini emas, umuman, vazifani mukofotlaydilar, qanday vazifa bo'lishining farqi yo'q-ku. Nega endi bu qoidadan birgina u chetda qolishi kerak? Uning hech qanday puli yo'q. Do'kon oldidan o'tishga va uy bekasiga qarashga nomus qiladi. Pivochidan o'ttiz ikki so'm qarz. Meshchan xotin Belovadan ham qarz. Daryushka sekin-asta borib eski ko'ylaklarni, kitoblarni sotib keladi va do'xtir yaqinda juda ko'p pul oladi, deb bekani aldaydi.

Yig'ib qo'ygan ming so'mini sayohatga sarf qilgani uchun doktor o'zini koyidi. Hozir o'sha ming so'm qanday ish berardi! Yana odamlar uni o'z holiga qo'ymaganlaridan diqqati oshardi. Xobotov onda-sonda kelib, kasal bo'lib qolgan hamkasbini ko'rishni o'z burchi deb biladi. Unda bo'lgan hamma narsa: qo'nji uzun etigidan tortib to'la yuzi, so'zlaridagi bema'ni, ortiq darajada kibrli ohang,

«hamkasb» deyishi Andrey Yefimichga jirkanch tuyuladi; hammasidan ham ko'ngliga uradigani Andrey Yefimichni davolashni o'z vazifasi deb bilishi va haqiqatan ham davolayapman, deb o'ylashi edi. Har kelganda, bir shisha bromli kaliy va rovochli hapdori ko'tarib kelardi.

Mixail Averyanich ham do'stini ko'rib turishni va uning ko'nglini ochishni o'z burchi deb bilardi. Har gal Andrey Yefimichning oldiga yasama betakalluflik bilan kirib kelardi, qah-qah urib zo'raki kulardi, yana, bugun rangingiz juda yaxshi, mana, Xudoga shukur, ish tuzalish tomonga o'tdi, deb Andrey Yefimichni ishontirishga urinardi, lekin bundan do'stining tuzalishidan umidi yo'qligi bilinib turardi. Hali u Varshavada olgan qarzini berolmay, uyalganidan gangigan, qattiq xijolatda edi, shuning uchun ham qattiqroq kulishga, qiziqroq qilib so'zlashga urinardi. Uning latifalari uzundan-uzoqday tuyular va Andrey Yefimichga ham, uning o'ziga ham ozor berardi.

U borligida Andrey Yefimich divan suyanchig'iga qarab yotib, tishini tishiga qo'yib tinglardi; uning ko'ngliga qatlam-qatlam bo'lib quyqa o'tirardi va do'sti har kelib-ketganda, haligi quyqa ko'tarilib borayotganini va bo'g'ziga kelayotganini sezardi.

Mayda-chuyda sezgilarni ko'nglidan chiqarish maqsadida u o'zini, Xobotovni, Mixail Averyanichni ertami-kechmi o'lib, tabiatda biror nom-nishon qoldirmasligini o'ylardi. Agar million yillardan so'ng Yer kurrasi yonida biron ruh uchib o'tadi, deb faraz qilinsa, u quruq tuproq va yalang'och qoyalardan o'zga hech narsa ko'rmaydi. Madaniyat ham, axloq qonunlari ham – hammasi mahv bo'lib ketadi, hatto ularning ustida qariqiz o't ham o'sib chiqmaydi. Baqqoldan uyalish, arzimagan Xobotov, Mixail Averyanichning malol keladigan do'stligi nima degan gap? Bularning hammasi bo'lmag'ur, arzi-maydigan gaplar, derdi.

Lekin bu xildagi muhokamalar endi yordam bermasdi. U endigina million yildan keyingi Yer kurrasini ko'z oldiga keltira boshlasa, haligi yalang'och qoyalar orasidan qo'nji uzun etik kiygan Xobotov chiqardi yoki Mixail Averyanich paydo bo'lib, qah-qahlar va xijolat ichida: «Varshavadagi qarzni, azizim, uch-to'rt kun ichida beraman, albatta, beraman...» degan shivirlash eshitilar edi.

XVI

Bir kun tushlikdan keyin Mixail Averyanich keldi. Andrey Yefimich divanda yotgandi. Xuddi o'sha topda bir shisha brom ko'tarib Xobotov ham kelib qoldi.

Andrey Yefimich zo'rg'a qo'zg'alib, turib o'tirdi va ikki qo'li bilan divanga tiraldi.

– Bugun-chi, azizim, – deb boshladi Mixail Averyanich, – rangingiz kechagiga qaraganda ancha yaxshi. Azamatsiz-da! Xudo haqi, azamatsiz!

– Bo'ldi, bo'ldi-da, hamkasb, – dedi Xobotov esnab. – Bu g'alva o'zingizning ham joningizga tekkandir.

– Yaxshi bo'lamiz ham-da! – dedi Mixail Averyanich xushnudlik bilan. – Hali yana yuz yil yashaymiz! Ha, shunday!

– Yuz yil-ku, bo'lmas-u, yana yigirma yillarga boriladi, – deb tasalli berdi Xobotov, – hechqisi yo'q, hechqisi yo'q, hamkasb, g'am yemang... qo'ying, vahima qilmang.

– Hali biz o'zimizni ko'rsatamiz! – dedi qah-qah urib Mixail Averyanich va do'stining tizzasiga urib qo'ydi. – Hali biz ko'rsatamiz! Kelasi yoz, Xudo xohlasa, Kavkazga qarab jo'naymiz va butun Kavkazni xo'p, xo'p, xo'p, deb ot bilan aylanib chiqamiz. Kavkazdan qaytganimizdan keyin, qarabsizki, to'y qilib yubormasak deng, – deb Mixail Averyanich ko'zini qisib qo'ydi, – uylantirib qo'yamiz sizni, sevikli birodarimni... uylantiramiz...

Andrey Yefimichning xayolida birdan haligi quyqa bo'g'iziga tiqilib kelayotganday bo'ldi; yuragi o'ynab ketdi.

– Bu andishasizlik! – dedi u irg'ib turib, deraza yoniga borarkan. – Nahotki, beandisha so'zlarni aytayotganingizni anglamaysiz-a!

U nazokat bilan muloyimgina davom etmoqchi edi-yu, lekin beixtiyor, to'satdan mushtumlarini qattiq qisdi va qo'llarini yuqori ko'tardi.

– Qo'ying meni! – dedi boshqacha ovoz bilan qichqirib, bo'g'ilib, qizargan holda butun vujudini titroq bosib. – Yo'qol ko'zimdan! Ikkalang ham yo'qol, ikkalang ham! – dedi.

Mixail Averyanich bilan Xobotov o'rinlaridan turib, avvalo, hayron bo'lib, so'ng qo'rquv ichida unga tikilib qolishdi.

– Ikkalang ham yo‘qol! – dedi Andrey Yefimich yana qichqirib. – Befahm kishilar! Ahmoq odamlar! Do‘stliging ham kerakmas, doringniyam olib ket, befahm odam! Qabih! Palid odamlar!

Xobotov bilan Mixail Averyanich shoshib qolib, bir-biriga qarashdi va orqalari bilan tislanib borib, dahlizga chiqishdi. Andrey Yefimich bromli kaliy solingan shishani olib ularning orqasidan uloqtirib yubordi; shisha ostonaga tushib, sharaqlab sindi.

– Chiq, yo‘qol! – dedi Andrey Yefimich yig‘i aralash tovush bilan ularning orqasidan dahlizga chiqib.

Mehmonlar ketgach, Andrey Yefimich bezgak tutayotgandek titrab, divanga yotdi va uzoq vaqt:

– Befahm kishilar! Ahmoq odamlar! – deb takrorladi.

U jahlidan tushganda, avvalo, xayoliga: sho‘rlik Mixail Averyanich xijolat tortayotgandir, ko‘ngli juda ozor topgandir va umuman, bu qanday yomon ish bo‘ldi, degan fikr keldi. Ilgari hech qachon bunday bo‘lmagandi. Es qani-yu, odob qani? Qani har narsani anglab olish va faylasufcha loqaydlik?

Doktor uyalganidan va o‘z qilig‘idan xunob bo‘lganidan tun bo‘yi uxlolmay chiqdi, ertalab soat o‘nlarda pochtaxonaga borib, pochta mudiridan uzr so‘radi.

– Bo‘lgan ishni ko‘ngildan chiqaraylik, – dedi chuqur nafas olib, ko‘ngli buzilib ketgan Mixail Averyanich uning qo‘lini qattiq qisarkan. – Kim o‘tgan ishni eslasa, ko‘r bo‘lsin. Lyubavkin! – U to‘satdan shunday qattiq qichqirdiki, xat tashuvchilar va pochtaxonaga kelgan odamlar cho‘chib ketishdi. – Stul keltir. Sen tura tur! – dedi baqirib panjaradan buyurtma xat uzatayotgan xotinga. – Ko‘ryapsanmi, qo‘lim bo‘shmas-ku. O‘tgan ishni esga olmaymiz, – davom etdi u muloyimlik bilan Andrey Yefimichga qarab. – Qani, marhamat qiling, azizim.

U indamasdan tizzalarini silab, bir daqiqa o‘tirdi-da, keyin bunday dedi:

– Sizdan gina qilish mening xayolimgayam kelgani yo‘q. Dard hazil gapmas, men tushunaman. Kecha kasalingizning tutib qolishi do‘xtir bilan meni qo‘rqitib yubordi, keyin uzoq vaqt siz to‘g‘ringizda so‘zlashdik. Azizim, nima uchun kasalingizni jiddiy ravishda davolatgiz kelmaydi? Shu yaxshimi? Do‘stlik qilib ochig‘ini aytganim uchun kechiring, – dedi shivirlab Mixail Averyanich, – siz

o'zingizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan sharoitda yashaysiz: joy tor, iflos, parvarishingiz yo'q, davolanishgayam hech narsangiz yo'q... Aziz do'stim, do'xtir ikkovimiz jon-dilimiz bilan sizdan iltimos qilamiz, bizlarning maslahatimizga ko'ning, kasalxonaga yoting! U yer-ning ovqati yaxshi, parvarish ham qilishadi, davolashadiyam. Gap shu yerda qolsin-ku, garchi Yevgeniy Fyodorich ta'lim-tarbiyadan chetdagi odam bo'lsayam, lekin ilmdan xabari bor, unga ishonish mumkin. U sizni yaxshilab qarashga va'da berdi.

Andrey Yefimich pochta boshlig'ining chin ko'ngildan qilayotgan mehribonchiligini va to'satdan uning yuzlariga oqib tushgan yoshini ko'rib, ko'ngli bo'shshib ketdi.

– Azizim, ishonmang! – dedi u sekingina qo'lini ko'ksiga qo'yib. – Ularga ishonmang! Bo'lmagan gap! Mening kasalim faqat shundaki, yigirma yil mobaynida butun boshli shaharda faqat bitta aqlli odamni uchratdim, u ham bo'lsa jinni. Mening hech qanday kasalim yo'q, faqat chiqishning iloji bo'lmagan sehrli girdobga tushib qoldim. Menga baribir, nima desangiz, tayyorman.

– Kasalxonaga yoting, azizim.

– Menga baribir, o'raga desangiz ham mayli.

– Har to'g'rida Yevgeniy Fyodorichga quloq solishga va'da bering, jonim.

– Mayli, so'z beraman. Lekin, hurmatli do'stim, takror aytaman-ki, sehrli girdobga tushganman. Endi hammasi, hatto do'stlarimning chin ko'ngildan qiladigan mehribonligidan tortib barcha narsa meni halok qilishga olib boradi. Men halok bo'lyapman va shuni aytishga irodam yetadi.

– Jon do'stim, tuzalib ketasiz.

– Bunday deyishning nima hojati bor? – dedi Andrey Yefimich asabiylashib. – Kamdan-kam odam hayotining oxirida hozir men sezayotgan holni sezadi. Agar sizga, buyragingiz yaramaydi yoki yuragingiz kengayib ketgan, desalar, davolana boshlaysiz, agar sizni jinni yoki jinoyatchi deyishsa, ya'ni qisqasi, odamlar birdan sizga e'tibor bera boshlasa, unda bilingki, siz sehrli girdobga tushdingiz, undan chiqishning iloji yo'q. Chiqishga harakat qilsangiz, battarroq adashib ketasiz. Bo'ysunib qo'ya qoling, chunki hech qanday inson qudrati sizni qutqarolmaydi, men shunday deb o'ylayman.

Bu orada panjaraning narigi yog'ida odam yig'ilib qolgan-di. Andrey Yefimich xalaqit bermaslik uchun turdi-da, xayrlashdi. Mixail Averyanich undan yana bir qayta va'da oldi-da, ko'cha eshikkacha kuzatib qo'ydi.

O'sha kuniyoq kechga tomon Andrey Yefimichning oldiga uzun qo'njli etik, kalta palto kiyib, kutilmagan chog'la Xobotov kirib keldi va go'yo kecha hech gap o'tmaganday bir vaziyatda:

– Men oldingizga bir ish bilan keldim, hamkasb. Sizni taklif qilgani keldim, men bilan konsiliumga¹ borib kelmaysizmi-a? – dedi.

Xobotov meni aylantirib, biroz ko'nglimni ochmoqchidir yoki haqiqatan pul ishlab olsin, deya yotgandir, degan xayolga borib Andrey Yefimich kiyindi va birga ko'chaga chiqdi.

Kechagi gunohini uning ko'nglidan chiqarib, yarashib olishga qulay payt topilganiga shodlanar va kechagi gap to'g'risida og'iz ochmay borayotgan Xobotovga ichidan tashakkurlar aytar edi. Shunday madaniyatsiz odamdan bunchalik nazokat kutish qiyin edi.

– Bemoringiz qayerda? – deb so'radi Andrey Yefimich.

– Kasalxonamda. Ko'pdan beri sizga ko'rsatmoqchi bo'lib yurgandim... Juda ajoyib hodisa.

Kasalxona hovlisiga kirishdi va kasalxonaning katta binolaridan o'tib, aqli zaiflar yotadigan binoga qarab yo'l olishdi. Bularning hammasi negadir indamasdan qilindi. Haligi binoga kirganlarida, Nikita odati bo'yicha irg'ib turib, qomatini rostladi.

– Bemorlardan bittasi o'pkasini oldirib qo'yibdi, – dedi Xobotov sekingina, Andrey Yefimich bilan palataga kirarkan. – Siz shu yerda tura turing, men hozir, stetoskopni² olib kelaman.

Va chiqib ketdi.

XVII

Qorong'i tusha boshlagandi. Ivan Dmitrich o'rnida yuzini yostiqqa burkab yotibdi; falaj odam harakatsiz o'tirib, asta yig'lab, lablarini qimirlatyapti, semiz kishi bilan sobiq xat saralovchi uxlashyapti. Jimjitlik.

¹ *Konsilium* – og'ir yoki noaniq kasallikni aniqlash va uni davolash choralarini belgilash uchun chaqiriladigan shifokorlar kengashi.

² *Stetoskop* – yurak urishini va o'pkani eshitib ko'radigan uskuna.

Andrey Yefimich bo'lsa Ivan Dmitrichning karavotiga o'tirib kutdi va Xobotovning o'miga qo'ltig'ida xalat, kimningdir ichki kiyimlarini, tufli ko'tarib xonaga Nikita kirib keldi.

– Marhamat, kiyining, janobi oliylari, – dedi u sekingina. – Manavi sizning o'mingiz, bu yoqqa marhamat qiling, – dedi, aftidan, yaqinda keltirilgan bo'sh karavotni ko'rsatib. – Hechqisi yo'q, Xudo xohlasa, tuzalib qolasiz.

Andrey Yefimich hammasiga tushundi. Biror og'iz so'z qotmadi va Nikita ko'rsatgan karavotga o'tirdi; Nikitaning kutib turganini ko'rib, qip-yalang'och bo'lib yechindi va uyalib ketdi. So'ng kasalxona kiyimini kiydi; ishton juda kalta, ko'ylak uzun keldi. Xalatdan tuzlangan baliqning hidi kelardi.

– Xudo xohlasa, tuzalib qolasiz, – dedi Nikita yana.

U Andrey Yefimichning kiyimlarini qo'ltiqlab olib chiqdi-da, eshikni bekitib ketdi.

«Baribir... – deb o'yladi Andrey Yefimich uyalib, xalatga o'ranarkan, bu yangi kiyimda o'zini mahbuslarga o'xshatib. – Bari-bir... Frakmi, mundirmi yo shu xalatmi, baribir...»

Lekin soatni olib ketdi-ku? Yon cho'ntagidagi daftarcha-chi, popirislari-chi? Kiyimlarni Nikita qayoqqa olib ketdiykin? Endi ehtimol, o'lgunicha ham shim, kamzul, etik kiyishga to'g'ri kelmas. Bu juda qiziq, daf'atan tushunib ham bo'lmaydi. Andrey Yefimich hali ham, meshchan xotin Belovaning uyi bilan 6-raqamli palataning o'rtasida hech qanday farq yo'q, bu dunyodagi hamma narsa quruq g'alva va bo'lmag'ur gaplar, degan fikrda edi, shunday bo'lsa ham, qo'llari titradi, oyoqlari muzladi, yana hozir Ivan Dmitrich uyg'onadi va meni xalat kiygan holda ko'radi, degan fikrdan kayfi uchib ketdi.

O'rnidan turdi, biroz yurdi, yana o'tirdi.

Mana, uning o'tirganiga yarim soat bo'ldi, bir soat ham bo'ldi va joniga tegar darajada zerikdi. Nahotki, shu joyda mana bu odamlar singari kunlab, haftalab, hatto yillab yashash mumkin? Mana, u o'tirdi, bir aylanib kelib, yana o'tirdi; borib derazadan qarash mumkin, keyin yana uyning u boshidan bu boshiga yurish mumkin. Undan keyin nima? Ertadan kechgacha qaqqayib o'tirish va xayol surishmi? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas.

Andrey Yefimich yotdi, lekin o'sha ondayoq turdi, yengi bilan peshonasidagi sovuq terni artdi va butun yuzidan tuzlagan baliq hidi kelayotganini sezdi. U yana turib yurdi.

– Bu qandaydir anglashilmovchilik... – dedi u, qo'llarini yozib, hayron qolib, – gaplashish kerak, bunda anglashilmovchilik bor...

Shu topda Ivan Dmitrich uyg'ondi. Turib o'tirdi, yonoqlarini mushtumlariga tiradi. Tupurdi. So'ng erinchoqlik bilan doktorga qaradi va aftidan, dastlab tushunolmadi, lekin uning uyquasi o'chmagan yuzida tezda g'azab va istehzo aks etdi.

– Hm-m, sizniyam shu yerga tiqib qo'yishdimi, azizim? – dedi uyqudan bo'g'ilib turgan tovush bilan, bir ko'zini qisib. – Juda xursandman. Avval siz odamlarning qonini ichardingiz. Endi-chi, sizning qoningizni ichishadi. Juda soz!

– Bu qandaydir anglashilmovchilik... – dedi Ivan Dmitrichning so'zidan qo'rqib ketgan Andrey Yefimich va yelkalarini uchirdi, yana: – qandaydir anglashilmovchilik, – dedi.

Ivan Dmitrich yana tupurdi-da, yotdi.

– La'nati hayot! – dedi u to'ng'illab. – Hammasidan ham nimasi alam qiladi, deng, bu turmush – azob chekishlar badaliga mukofot bilanmas yoki operadagi kabi tantana bilanmas, o'lim bilan tamom bo'ladi-ya; kasalxona xizmatchilari kelib o'likni qo'lidan, oyog'idan olib, sudrab yerto'laga eltib tashlaydilar... u-u-uv! Ha, mayli... shunisi borki, bizlarga u dunyoda bayram bo'ladi... Men u dunyodan bu yerga arvoq bo'lib kelaman va bu gazandalarning o'takasini yoraman. Men ularning sochlarini oqartirib yuboraman.

Moiseyka qaytib keldi va doktorni ko'rib, qo'lini cho'zib:

– Bir tiyin ber! – dedi.

XVIII

Andrey Yefimich deraza oldiga bordi, dalaga qaradi. Qorong'i tushib qolgandi va o'ng tomonda ufqdan to'q qizil, sovuq oy ko'tarilayotgandi. Kasalxona devoridan yiroq emas, ko'p bo'lsa, uch yuz qadamcha narida toshdevor bilan aylantirilgan baland oq imorat turibdi. U turma.

«Voqelik bu ekan!» deb o'yladi Andrey Yefimich va yuragini vahima bosdi.

Oy ham, turma ham, devordagi mixlar ham, uzoqdagi suyak eritadigan korxonaning mo'risidan chiqayotgan alanga ham dahshatli ko'rindi. Orqada kimdir uh tortdi. Andrey Yefimich qayrilib qaradi, yaltiroq yulduzlar va ordenlar taqqan kishini ko'rди, u kishi jilmayar va ayyorlik bilan ko'z qisar edi. Bu ham mudhish tuyuldi.

Andrey Yefimich, oyda va turmada alohida bir narsa yo'q, ruhiy salomat kishilar orden taqib yurishadi va bularning hammasi vaqt o'tishi bilan chirib, tuproqqa aylanadi, deb o'zini o'zi ishontirib ko'rди, lekin birdan uni umidsizlik qamrab oldi, ikki qo'li bilan panjaraga yopishib, kuchining boricha silkitdi. Mustahkam panjara qo'zg'almadi.

Keyin qanchalik vahimaga tushmasin, Ivan Dmitrichning yoniga bordi, o'tirdi.

– Azizim, ruhim tushdi, – dedi titragan holda, sovuq terini artarkan. – Ruhim tushdi.

– Yana falsafa so'qing, – dedi Ivan Dmitrich mazax qilib.

– Yo Rabbiiy, yo Rabbiiy... ha, ha... Bir kun siz aytgandingiz-a, Rossiyada falsafa yo'q, lekin hamma, hatto mayda kishilargacha falsafa so'qiydi, degandingiz. Ammo pastarin kishilarning falsafa so'qishining hech kimga ziyoni yo'q-ku, – dedi Andrey Yefimich go'yo yig'lamoqchi va kishining rahmini keltirmoqchi bo'layotgandek bir ohangda. – Nega endi mazax qilib kulasiz? Norozi bo'lgandan keyin mayda odam ham falsafa so'qiydi-da! Aqlli, ilimli, mag'rur va ozodlikni sevuvchi odamga, aziz zotga orqada qolgan iflos shaharchaga borib tabib bo'lishdan, keyin umr bo'yi bonka va zuluk solish, xantal qo'yishdan boshqa iloj yo'q. Muttahamlik, razillik, fikriy cheklanganlik, yo Rabbiiy!

– Bo'lmag'ur gaplarni vaysayapsiz. Tabiblikni yoqtirmasangiz, vazir bo'ling edi.

– Sira ilojim yo'q. Zaifmiz, azizim... Men beparvo edim, tetik va sog'lom fikr yuritardim, hayot menga dag'al tomonini o'girishi bilan ruhim tushib ketdi... majolim qolmadi... zaifmiz, yaramasmiz... siz ham shundaysiz, azizim... Siz aqlli, oliyjanob odamsiz, go'zal xulq sizga sut bilan kirgan, lekin hayotga qadam qo'yar-qo'yimas horib, kasal bo'lib qolgansiz... Zaifmiz! Zaif!

Kech kirgandan beri qo'rquv va alamdan boshqa yana qandaydir sira nari ketmaydigan bir his Andrey Yefimichni ezib turgandi.

Nihoyat, angladi, uning pivo ichgisi va popiris chekkisi kelayotgan ekan.

– Azizim, eshikka chiqaman, – dedi u. – Aytay, chiroq keltirishsin... Bundoq turolmayman... Toqatim yo‘q...

Andrey Yefimich eshik oldiga bordi va eshikni ochdi, shu on Nikita irg‘ib turib yo‘lini to‘sd.

– Qayoqqa bormoqchisiz? Mumkinmas, mumkinmas! – dedi u. – Uxlash kerak!

– Ha, men bir daqiqagina hovlini aylanib kelaman! – dedi Andrey Yefimich shoshganidan.

– Mumkinmas, mumkinmas, ruxsat yo‘q. O‘zingiz bilasiz-ku.

Nikita eshikni qattiq yopdi-da, orqasi bilan suyanib oldi.

– Agar men shu yerdan chiqsam, shundan birovga bir narsa bo‘ladimi? – dedi Andrey Yefimich yelkalarini uchirib. – Tushunolmadim! Nikita, men eshikka chiqishim kerak! – dedi u qalтираgan tovush bilan. – Ishim bor!

– Tartibsizlik qilmang, yaxshimas! – dedi Nikita nasihat qilib.

– Bu nima degan gap-a?! – dedi Ivan Dmitrich to‘satdan hayqirib va sakrab turdi. – Chiqarmaslikka uning nima haqqi bor? Bizlarni bu yerda qamoqda tutishga qanday haqqingiz bor? Qonunda-ku, sud hukm qilmaguncha hech kim ozodlikdan mahrum qilinmaydi, deb ochiq aytilgan. Bu zo‘rlilik! O‘zboshimchalik!

– Albatta, o‘zboshimchalik! – dedi Ivan Dmitrichning gapidan jasoratlangan Andrey Yefimich. – Chiqaman, dedim, chiqishim kerak! Chiqarmaslikka haqqi yo‘q! Chiqar, senga aytyapman!

– Eshityapsanmi, befahm hayvon? – dedi Ivan Dmitrich, baqirib va mushtumi bilan eshikni urdi. – Och, bekorga eshikni sindiraman! Muttaham!

– Och! – dedi baqirib Andrey Yefimich butun vujudini titroq bosgan holda. – Men talab qilaman!

– Vaysayver! – dedi Nikita eshik orqasidan turib. – Vaysayver-chi!

– Hech bo‘lmasa, bor, Yevgeniy Fyodorichni aytib kel! Men chaqirayotganimni ayt... Bir daqiqaga!

– Ertaga o‘zlari keladilar.

– Bizlarni hech qachon chiqarishmaydi! – deb davom etdi Ivan Dmitrich. – Shu yerda chiritishadi! Ey Parvardigor, nahotki, haqiqatan u dunyoda do‘zax yo‘q va bu ablahlar kechirib qo‘ya qolinadi?

Qani adolat? Och, ablah, nafasim bo'g'ilib ketdi! – dedi bo'g'iq tovush bilan qichqirib va bor bo'yi bilan eshikni itardi. – Boshimni yoraman! Qonxo'rlar!

Nikita eshikni tez ochdi, ikki qo'li va tizzasi bilan Andrey Yefimichni qattiq itarib yubordi, keyin qulochkashlab mushtumi bilan yuziga tushirdi. Andrey Yefimichning xayolida kattakon sho'r to'lqin boshigacha ko'mib, karavotga sudrab borayotganday bo'ldi; darhaqiqat og'zi sho'rtang bo'lib ketdi: qon to'lgan bo'lsa kerak. U suzib chiqmoqchi bo'lgandek qo'llarini qimirlatgandi, kimningdir karavotini ushlab oldi. Shu topda Nikita ikki marta yelkasiga urgani sezdi.

Ivan Dmitrich qattiq qichqirdi, uni ham urishgan bo'lsa kerak.

So'ng hammasi jim bo'ldi. Oyning xiragina nuri temir panjara orqali o'tib, polga to'r shaklida soya tashlab turibdi. Dahshatli edi. Andrey Yefimich yotdi va damini ichiga yutdi; u yana urishadi deb, o'takasi yorilib kutardi. Xuddi birov o'roq olib, unga sanchib, ko'kragida, qornida bir necha marta burab olardi. Og'riqqa chidolmay, yostiqni tishlab, tishini tishiga qo'ydi, boshi va oxiri yo'q fikriy tarqoqlik orasida to'satdan: hozir oy yorug'ida qora dog'ga o'xshab yotgan manavi odamlar shu singari og'riqni necha yillar davomida har kuni boshidan kechirgan, degan dahshatli, og'ir fikr xayolida yarq etdi.

Yigirma yildan ortiq vaqt o'tsa-yu, qanday qilib shu narsani anglamagan va anglashni ham istamagan ekan? U bilmagandi, og'riq haqida tushunchasi ham yo'q edi, demak, u aybdor emas, lekin o'zining Nikita singari dag'al va o'jar vijdoni ensasidan tovonigacha sovishga majbur qildi. Sakrab turdi, tovushining boricha qichqirmoqchi va tezroq yugurib borib Nikitani, Xobotovni, nozirni va feldsherni, so'ngra o'zini o'ldirmoqchi edi, lekin ko'kragidan biron tovush chiqmadi, oyoqlari bo'ysunmadi; bo'g'ilib, ko'kragidagi xalat va ko'ylakka chang soldi, yirtib tashladi va bexush bo'lib karavotga yiqildi.

XIX

Ertasiga ertalab boshi og'rib, qulog'i shang'illab, butun vujudi lohaslanib turdi. O'zining kechagi zaifligini eslashdan uyalmasdi. Kecha u yuraksizlik qildi, hatto oydan ham qo'rqdi, biroq ilgari

o'zida borligini sezmagani his va fikrlarni dadil aytaverdi. Masalan, falsafa so'quvchi mayda kishilarning bema'niligini gapirdi. Lekin endi unga baribir edi.

U yemadi ham, ichmadi ham, churq etmay, harakatsiz yotaverdi.

«Endi menga baribir, – deb o'ylardi u savol berayotganlarida. – Javob bermayman... Menga baribir».

Tushlik ovqatdan keyin chorak qadoq choy, bir qadoq marmelad ko'tarib Mixail Averyanich keldi. Daryushka ham keldi va siyomosida ma'nosiz g'amginlik aks etgan holda bir soat karavot yonida turdi. Doktor Xobotov ham kelib ketdi. U bir shisha bromli kaliy keltirdi va palataga biror narsa tutatib yuborishni Nikitaga buyurdi.

Kechqurun Andrey Yefimichning miyasiga qon quyilib o'ldi. Avvalo, juda qattiq titradi va ko'ngli aynidi; xayolida qandaydir jirkanch bir narsa butun vujudiga, hatto barmoqlarigacha singib, me'dasidan tortib boshigacha chiqib, ko'zlari va quloqlariga to'lib qolganday bo'ldi. Ko'z o'ngi yashil tusga bo'yaldi. Andrey Yefimich qazosi yetganini angladi va Ivan Dmitrich, Mixail Averyanich, yana millionlab odamlarning abadiylikka ishonishlarini esladi. Bordi-yu, abadiylik bo'lsa-chi? Lekin u abadiylikni istamasdi va bu haqda faqat bir lahzagina o'yladi. Uning yonidan kecha kitobda o'qigani – g'oyat go'zal va viqorli kiyiklar podasi yugurib o'tdi; keyin bir ayol unga qo'lini cho'zib buyurtma xat uzatdi. Mixail Averyanich nimadir dedi. So'ng hammasi g'oyib bo'ldi va Andrey Yefimich abadiy uyquga toldi.

Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar kelishdi, qo'lidan, oyog'idan ushlashdi va kichkina butxonaga eltib qo'yishdi. U yerda Andrey Yefimich ko'zlari ochilgan holda stol ustida yotdi va kechasi uni oy yoritib turdi. Ertalab Sergey Sergeich keldi, mixlab qo'yilgan Iso suvratiga qarab ixlos bilan ibodat qildi va sobiq boshlig'ining ko'zlarini yumdirdi.

Bir kundan keyin Andrey Yefimichni ko'mishdi. Dafn marosimida faqat Mixail Averyanich bilan Daryushka bo'ldi.

QORA ROHIB

I

Andrey Vasilich Kovrin, magistr, o'ta toliqib ketganidan asab dardiga chalindi. U davolanishga bormadi, ammo bir shisha musallasga ketaturib, shifokor oshnasi yo'liqib qolgandi, o'sha bahor-yozni qishloqda o'tkazish kerak, deya maslahat berdi. Darvoqe, Tanya Pesotskaya ham uzundan-uzoq xat yozib, Borisovkaga taklif qilibdi – mehmon bo'lib keling, debdi. Chindan ham fursat yetib qolibdi, shekilli, bir aylanib kelishga ahd qildi.

Avvalo – bu aprelda bo'ldi – ona yurtiga, o'zi tug'ilgan Kovrinkaga borib, rosa uch hafta yolg'iz yashadi; yo'llar selgiguncha sabr qilib, keyin sobiq vasiysi hamda ustoz, Rossiyada dong'i chiqqan bog'bon Pesotskiynikiga ot-aravada jo'nadi. Kovrinkadan Pesotskiylar turadigan Borisovkagacha yetmish chaqirimdan ko'pmas deyshadi, bahorning muloyim yo'lidan yumshoq foytunda yurish chindanam huzurbaxsh bo'ldi.

Pesotskiylar hovlisi suvog'i ko'chib tushgan bahaybat ustunlari, sherlar haykali-yu, darvoza yonidagi frak kiygan darbonlari bilan juda mahobatli ko'rinardi. Odmi, lekin vahimali, ingliz rusumida bunyod etilgan eski bog' uydan to daryogacha salkam bir chaqirimga yoyilib, yung bosgan panjasimon ildizi yer yuziga bo'rtib chiqqan qarag'aylar qoplagan giltuproq nishab qirg'oqqa borib taqaladi; pastda oqayotgan daryo xilvatida to'lqinlar jimirlab, baliqchi qushlarning yurakni ezadigan chiyillashi eshitiladi, bu go'shada zavq-shavqqa to'lib, dabdurustdan ballada yozib tashlaging keladi. Ammo uyning yonginasidagi tashqi hovlining ko'chat chiqariladigan qismi bilan o'ttiz botmoncha yemi egallagan mevazorda havo aynigan damlarda ham odamning ko'ngli yozilib, dimog'i chog' bo'ladi. Nilufar, kameliya kabi bunchalik g'aroyib gullarni, turfa, rangin, oqdan tortib qop-qora tusdagi ajabtovur lolalargacha, umuman, Pesotskiy bog'idagiday rang-barang chamanzorni boshqa bir yerda ko'rish Kovringa nasib etmagan. Navbahor pallasi chunonam zeb-u ziynatga burkangan gullar hozircha issiqxonaga yashiringan bo'lsada, xiyobon bo'ylab ochilib yotgan yoki u yoq-bu yoqdagi tegara gulzorlarning o'zi ham bog' oralab, o'zingni nafis ranglar saltanati-

da yurganday his etishing uchun yetib-ortadi, ayniqsa, har yaproqda shudring tovlangan tonglarda.

Bog'ning Pesotskiy nazarga ilmaydigan manzarali daraxtlar ekilgan tarafi Kovringa qachonlardir, olis bolalik dunyosida qolgan ertaklarni eslatadi. Bu go'shada tabiatga qaratilgan ming turfa tahqir, bema'ni qilg'iliklar bejamasining har turidan bor! Bunda mevali daraxtlar butab yasalgan panjaralar, ehromsimon, terak shaklidagi nok, jo'ka; yumaloq, sharsimon eman; olma daraxtidan soyabon, ra-voq, tug'ro, qandil va hatto olxo'ri novdalarini kesib, 1862 – Pesotskiy ilk bor bog'bonlikka qo'l urgan sana yozilgan. Bu yerda xurmo singari tanasi tekis, mustahkam, chiroyli, xushbichim daraxtga ko'zing tushsa, yaqinroq borib, sinchiklab qarasang, qorag'at yoki krijovnik bo'lib chiqadi. Barchasidan ko'ra, bog'ni yashnatib, unga qaynoq hayot nafasi baxsh etib turgan hodisa, bu – tinim bilmas harakat. Tong sahardan qorong'i tungacha zambilg'altak, belkurak, chelak tutgan odamlar daraxt-u ko'chatlar tagida chumoliday g'imirliydi...

Kovrin Pesotskiylar uyiga kech soat o'nlarda yetib keldi. Tanya bilan otasi Yegor Semyonich g'am-tashvishga ko'milgan bir ahvolda edi. Yulduzlar charaqlagan ochiq osmon ham, harorat o'lchagich ham saharda ayoz tushishidan darak berardi, ustiga ustak, bog'bon Ivan Karlich ham shaharga tushib ketibdi, undan boshqa birovga ishonch yo'q. Kechki ovqat ustida faqat saharda tushadigan qirov haqida gap ketdi va nihoyat, Tanya uxlamay, kechasi soat birga bor-ganda bog'ni aylanib, hammasi joyidami-yo'qmi, ko'rib chiqadi, Yegor Semyonich esa soat uchda, hatto undan ham vaqtliroq uyg'onadi – mana shunga kelishib olishdi.

Kovrin Tanya bilan oqshom davomida suhbatlashib o'tirgach, yarim kechadan oshganda birgalashib boqqa chiqdi. Sovuq tushib qolgandi. Hovlini tutatqi isi bosib ketibdi. Yegor Semyonichga har yili jaraq-jaraq sof daromad beradigan, savdoga chiqariladigan mevalar yetishtiriladigan katta bog'da yer bag'irlab to'shalgan qora, qalin, achchiq tutun daraxtlarni qoplab, o'sha daromatlarni muzlab qolishidan saqlardi.

Shohmot usulida ekilgan ko'chatlar qaddini rostlab, bir tekis saf tortgan askarlarga o'xshardi, qat'iy tartibda, bo'ylari baravar, shohlariga bir xil shakl berilganidan shunday manzara kasb etgan-

diki, hatto odam ularga qarab zerikib ketardi. Kovrin bilan Tanya ot go'ngi, poxol va boshqa chiqindilarning tutatqisi buruqsigan qator oralab asta yurib borisharkan, ahyon-ahyonda tutun ichida sharpaga o'xshab ko'ringan ishchilarga duch kelishardi. Olcha, olxo'ri va olmaning ayrim navlari gullagan bo'lsa ham, bog' boshdan-oxir tutunga g'arq etilgandi, Kovrin gulxona yaqiniga kelgandan keyingina ko'ksini to'ldirib chuqur nafas oldi.

– Bolalik chog'imdayam shu bog'da tutundan bo'g'ilib qolar-dim, – dedi u yelkasini qisib, – lekin haligacha tushunolmayman, qanday qilib tutun sovuqdan asrashi mumkin?

– Tutun bulut o'rmini bosadi, u bo'lmasa... – javob berdi Tanya.

– Bulutning o'zi nega kerak?

– Havo bulutli bo'lsa, saharda qirov tushmaydi.

– Shunaqami?!

U kulib yubordi, so'ngra qizning qo'lidan tutdi. Qizning katta-katta, o'ta jiddiy, sovuqdan qizargan yuzlari, ingichka qalam qoshi, boshini yonga burishga xalal berayotgan paltosining tik yoqasi, butun borlig'i, ozg'in, xushbichim, shudring tegmasligi uchun yig'ib olgan ko'ylagining etagi ham yigitning ko'nglini iydrib yubordi.

– Buni qarang-a, katta bo'lib qolibdi! – dedi u. – Besh yilcha avval bu yerdan so'nggi bor ketganimda siz jajji qizcha edingiz. Shunaqangi ozg'in, oyoqlaringiz uzun-uzun, boshyalang, kalta ko'ylak kiyib chopib yurardingiz, sizni qarqara bilan qo'rqitardim... Vaqt o'tishini qarang!

– Chindanam, besh yil! – xo'rsindi Tanya. – Orada qancha suvlar oqib ketdi. Rostingizni ayting, Andryusha, – dadil dedi qiz yigitning yuziga tik boqib, – bizdan uzoqlashib ketmadingizmi? Buni nega so'rayapman o'zi? Siz erkak kishisiz, jo'shqin hayot kechirasiz, siz buyuksiz... Begonalashib ketishingiz tabiiy! Ammo nima bo'lgandayam, Andryusha, bizni o'zingiznikidek qabul etishingizni istardim. Bunga bizning haqqimiz bor.

– O'zingiznikiman, Tanya.

– Chin so'zingizmi?

– Ha, chin so'zim.

– Bugun biznikida suratingiz ko'pligini ko'rib hayron qolgandirsiz. Bilasiz-ku, otam sizni juda yaxshi ko'radi. Ba'zan mendan ham ortiq suyadiganday tuyuladi. Siz bilan faxrlanadi. Olimsiz, boshqa-

lardan ajralib turasiz, yuqori martabaga erishdingiz, otam bu darajaga yetganingizni o'zi bergan tarbiyadan deb biladi. Otamning fikriga monelik qilmayman. Mayli.

Tong yorisha boshladi, bu, ayniqsa, ochiq havoda daraxt shoxlaridan tutun parchalari ajralib chiqqan boshlaganda aniq belgi berdi. Bulbullar sayradi va dala tomonlardan bedanalar pitpildiq otgani eshitildi.

– Endi uxlab oshish kerak, – dedi Tanya. – Sovqotib ketdim. – Qiz yigitning qo'lidan tutdi. – Rahmat, Andryusha, kelganingiz uchun. Bizning tanish-bilishlar odmi odamlar, boriyam ko'pmas. Bizda faqat bog', bog', bog' – boshqa hech narsa. Daraxt tanasi, yarimtanasi, – kuldi qiz, – aport, ranet, borovinka¹ qalamcha, payvand... Bizning butun, butun umrimiz bog'da o'tadi, hatto tushlarimdayam olma-anordan boshqasini ko'rmayman. Albatta, bu juda yaxshi, foydali, biroq ba'zida ko'ngling yana nimalarnidir tusab qolarkan. Yodimda bor, siz ta'tilga chiqib yoki shunchaki biznikiga kelganingizda, uyimiz yanada musaffo bo'lib, yanada yorishib ketardi, qandil-u jihozlar g'ilofi yechib olinardi. O'sha paytda jajji qizcha bo'lsam-da, har holda tushunardim.

Qiz to'lib-toshib so'zladi. Yigitning xayoliga negadir butun yozni mana shu kichkina, nimjon, gapi tugamaydigan mahbubaga xushtor bo'lib, unga ovunib o'tkazish fikri keldi – ikkisining yoshida bo'lishi mumkin, tabiiy hol-ku bu! Yigitning ko'ngli erib ketdi-yu, ayni paytda kulgisi qistadi; u dilbar, tashvishli chehraga engashib, asta kuyladi:

*Onegin, yashirib ne qildim,
Tatyanani telbavor suydim²...*

Uyga yetib kelishganda, Yegor Semyonich allaqachon uyg'ongan ekan. Kovrinning uyqusi qochdi, qariya bilan gurunglashib yana boqqa qaytdi. Yegor Semyonich basavlat, yelkador, meshqorin bo'lib, nafas qisish dardidan aziyat chekardi, ammo hamisha ildam, tez odimlardiki, ortidan yetib yurish qiyin edi. Yuzi juda tashvishli ko'rinar, doimo qaygadir shoshar, bir daqiqacha kech qolsang, bas, hammasi barbod bo'ladi, degan vahimada tinim bilmas edi!

¹ Olma navlari.

² Mashhur rus bastakori P.I. Chaykovskiyning (1840–1893) «Yevgeniy Onegin» operasidagi Gremin ariyasidan.

– Mana, og‘ayni, senga ortiqcha g‘alva... – gap boshladi u to‘xtab, ruhini ko‘tarib olish uchun. – Yerning yuzida, ko‘ryapsanmi, ayoz, yerning ostida harorat o‘lchagich tayoqchasiga ikki barobar chuqurroqda, iliq... Bu nimadan?

– To‘g‘risi, bilmayman, – dedi Kovrin va jilmaydi.

– Hm... Hamisha bilaverish mumkinmas, albatta... Dunyoqarashing qanchalik keng bo‘lsayam, hammasini sig‘dirolmaysan. Axir, sen ko‘proq falsafa bobida...

– Ha. Ruhiyatshunoslikni o‘rganyapman, umuman, falsafa bilan bandman.

– Jonga tegmadimi?

– Aksincha, shu bilan tirikman.

– Xudo yarlaqasin... – dedi Yegor Semyonich, keyin chakasoqolini silab o‘ylanib qoldi. – Xudo yarlaqasin... Sendan xursandman... xursandman, og‘ayni...

Ammo u birdan butun diqqatini jamlab, nimagadir quloq tutdi, kutilmaganda yuzi vahimali tus olib, qayoqqadir yugurib ketdi, bir zumda daraxtlarni qoplagan tutun buluti ichra g‘oyib bo‘ldi.

– Kim bu olmaga ot boyladi, kim? – yurakni yorgudek vahimali ovoz eshitildi. – Bu ablah kim, qaysi jin chalgur otni olmaga boyladi? Xudoyim-ey, Xudoyim-ey! Ishdan chiqarishibdi, sovuq urdirishibdi, rasvo qilishibdi, bulg‘ab tashlashibdi! Bog‘ payhon bo‘ldi! Bog‘ nobud bo‘ldi! Yo Xudo!

Kovrinning yoniga qaytib kelgan cholning yuzida charchoq, xo‘rlanish alomatlarini zohir bo‘ldi.

– Bu la‘natilarni nima qilsang bo‘ladi? – dedi u yig‘lagudek bo‘lib, qo‘llarini ikki yoniga tashlab. – Styopka kechasi go‘ng olib kelgach, otni olmaga tushovlab ketibdi! O‘rab bog‘labdi, yaramas, arqon qattiq, olmaning tanasi uch joyidan zahalanibdi. Bu nimasi! Qancha gapirsang – shuncha kam, bilganidan qolmaydi, keyin ko‘zi mo‘ltirab turaveradi! Dorga ossang oz!

Chol o‘zini bosib olgach, Kovrinni quchib, yuzidan o‘pib qo‘ydi.

– Mayli, Xudo yarlaqasin... Xudo yarlaqasin... – ming‘irladi u. – Biznikiga kelganingdan xursand bo‘ldim. Qay so‘z bilan aytay... Rahmat.

Keyin u odatdagiday tez-tez odimlab, vahimali qiyofada butun bog‘ni kezib chiqdi; sobiq shogirdiga barcha oranjereya, issiqxona,

tuproqsaroy, yana o'zi aytganiday, yuzyilligimizning mo'jizasiga aylangan ikkita asalari qutisini ham ko'rsatdi.

Ular bog'ni ko'rib chiqquncha quyosh ko'tarilib, chiroyli bog'ni zarrin nurga ko'mdi. Havolar ilib ketdi. Tiniq, huzurbaxsh, uzun kunni dil-dilidan his etgan Kovrin shirin xayolga cho'mdi: axir, may endi boshlandi, hali oldinda xuddi shunday ravshan, quvonchli, uzun kunduzlari ila butun yoz turibdi, shunda birdaniga ko'ksida baxtiyor yoshlik tuyg'usi jo'sh urdi, bunaqasini u bolaligida, mana shu bog'da chopqillab o'ynab yurgan chog'lari his etgan. U ham cholni quchib, asta o'pib qo'ydi. Ikkovlon hayajon og'ushida uyga qaytib, qadimgi chinni idishda, qaymoqli, to'yimli, yog'li non bilan choy ichishdi – mana shu nonushta ham, boshqa ikir-chikirlar ham Kovringa yana bolaligini, yoshligini eslatdi. Ajoyib kayfiyati bilan qalbida uyg'ongan o'tmish taassurotlari bir bo'lib, ko'ksiga sig'may, yorgudek bo'lar, ammo yoqimli edi.

U Tanyaning uyg'onishini sabr bilan kutdi, so'ngra birga qahva ichib, sayr qilib keldi, shundan keyingina xonasiga kirib, ishga o'tirdi. U kamoli diqqat bilan o'qir, belgilar qo'yar, gohida ochiq derazaga yoki stol ustiga terilgan guldonlardagi musaffo, hali yaprog'idan shudring nuqralari ketmagan namchil gullarga ko'z tashlay deb bosh ko'tarar, so'ngra yana kitobga egilar edi. Uning tomir-tomirlari lazzatdan titrayotganday, jimirlayotganday edi.

II

U qishloqda ham shahardagi singari asabiy, bezovta hayotini davom ettirdi: tinimsiz o'qir, yozar, italyan tilini hijjab o'rganar, hatto sayrga chiqqanda ham tezroq qaytib yana ishga o'tirishini orziqib o'ylar edi. U shunchalik kamuyqu bo'lib qolgandiki, bundan atrofidagilar ajablanardi; mabodo kunduzi bexosdan yarim soatcha mizg'ib qolsa, keyin tuni bilan uxlamas, ertasiga, uyqusiz o'tgan tundan keyin ham hech narsa bo'lmaganday o'zini tetik, quvnoq his etar edi.

U ko'p gapirar, ko'p musallas ichar va qimmat sigara chekardi. Pesotskiylar xonadoniga tez-tez, deyarli har kuni Tanya bilan royal chalib, qo'shiq aytgani qo'shni qizlar chiqardi; ba'zida skripkani qoyilmaqom chaladigan qo'shni yigitcha ham ko'zga tashlanib qolardi. Kovrin kuy-qo'shiqni ishtiyoq bilan tinglagan paytlari

a'zoyi badani bo'shshib, ko'zlari yumilib, boshi bir tomoniga egilib tushganda jisman horigani aniq sezilib qolardi.

Bir oqshom kechki choydan so'ng rovonda kitob o'qib o'tirgandi. Mehmonxonada Tanya chinqirib, qo'shni qizlardan biri yo'g'on ovozdagi baqirib, yigitcha esa skripkada Braganing¹ mashhur serenadasining mashqini olayotgandi. Kovrin qo'shiqqa quloq tutdi – ruscha – ammo mag'zini chaqolmadi. Nihoyat, kitobni bir chetga surib qo'yib, diqqat bilan tinglagach, tushundi: xayolparastlik dardiga muhtalo bo'lgan qiz tungi bog'da shunchalar go'zal, g'aroyib, sirli navo eshitadiki, bu uyg'un ohanglar ilohiy bo'lib, biz, oddiy odamlar his etolmaganimiz uchun yana qaytib samoga ko'tarilib ketarmish. Kovrinning ko'zlari yumila boshladi. Shunda u o'rmiidan turib, mudrog'ini yozish ilinjida mehmonxonada, keyin zal bo'ylab odimladi. Qo'shiq tingach, Tanyaning qo'lidan tutib, rovonga yetakladi.

– Bugun ertalabdan beri bir afsona xayolimdan ketmayapti, – dedi u. – Biron joyda o'qiganmanmi yo eshitganmanmi, yodimda yo'q, ammo bu afsona qandaydir g'alati, tushuniksiz. Avvaldan aytib qo'yay, uning mazmuni judayam aniq-tiniq emas. Bundan ming yillar oldin, Shomdami, Arabistondami... qora rido kiygan rohib sahro uzra yelib borardi. U o'tib ketgan joydan bir necha chaqirim narida turgan baliqchilar ko'l yuzida ohista borayotgan yana bir rohibni ko'rib qolishadi. Ikkinchi rohib – sarob edi. Endi, optikaning har qanday qonuniyatlarini bir chetga qo'ya turaylikda, zero, afsonalar bunga bo'ysunmaydi, davomini eshiting. O'sha sarobdan yana o'zga bir sarob yaralibdi, keyin o'sha o'zgasidan uchinchisi, shunday qilib, qora rohib sharpasi yer qobig'ining bir qatlamidan boshqasiga intihosiz o'tib boraveribdi. Uni goh Afrikada, goh Ispaniyada, goh Midiyada, goh Uzoq Shimolda... ko'rishibdi. Nihoyat, u yer qobig'i chegaralaridan tashqariga chiqib, butun koinot bo'ylab keza boshlabdi, hanuzgacha so'nishi mumkin bo'lgan dastlabki muhitiga qaytolmas ekan. Ehtimol, endi u Marsdami yoki Janubiy Xochning qay bir yulduzida ko'rinar. Ammo, azizam, bu afsonaning asl mohiyati, mag'zi shundaki, rohib sahroda ayon bo'lganidan so'ng roppa-rosa ming yil o'tgach, yana qayta yer

¹ Italian bastakori Gaetano Braganing (1829–1907) «Serenada (Valaxiya afsonasi)»si.

qobig'iga tushib, odamlarga ko'rinish berarkan. Xuddi o'sha ming yillik vaqt endi yetib kelganday tuyulyapti... Afsonada aytilishicha, qora rohibni bugun emas – ertaga kutib olishimiz kerak.

– G'alati sarob, – dedi afsona yoqinqiramagan Tanya.

– Ammo-lekin, hammasidan ham ajablanarlisi, – jilmaydi Kovrin, – bu afsona qaydan kelib miyamga o'mashib qolganini sira eslolmayman. Qayerda o'qidim? Eshitdimmi? Yoki, ehtimol, qora rohib tushimga kirganmi? Xudo haqqi, ont ichaman, yodimda yo'q. Lekin afsona fikr-u zikrimni band etdi. Bugun kun bo'yi shu haqida o'yladim.

U Tanyani mehmonlar yoniga qo'yib yuborgach, uydan tashqariga chiqdi, keyin xayol bilan odimlab, tegara gulzorga borib qoldi. Quyosh botayotgandi. Endigina suv sepilgan gullardan namchil, dimoqni qitiqlovchi bo'y taralardi. Uy tomonda yana kuylay boshlashdi, skripka nag'masi olisdagi odam tovushiday eshitalardi. Kovrin afsonani aynan qayerda eshitgan yoki o'qiganini eslashga urinib, asta-sekin tomoshabog' sari odimlab, daryo bo'yiga chiqib qolganini sezmay qoldi.

Tik qirg'oq ustidan ketgan so'qmoq bo'ylab bo'rtib chiqqan ildizlar ustidan o'tib, pastga, suv yoqasiga tushganda baliqchi qushlar cho'chib uchib ketishdi, ikkita o'rdak potirlab uchdi. Vahimali qarag'aylarning yaproqlarida botayotgan quyosh nurlari o'ynar, biroq oqshom daryo yuzasini qoraytirib bo'lgandi. Kovrin oqim bo'ylab yurib, narigi qirg'oqqa o'tdi. Endi qarshisida hali to'liq gullab bo'lmagan javdarzor shovullagan bepoyon dala yastanib yotardi. Agar mana shu so'qmoqdan ketaverilsa, u na odamzot makoni, na bir tirik jon duch kelmas ufqqa, quyosh botayotgan, oqshom shafag'iday cheksiz alanga qoplagan sirli manzilga olib boradi.

«Bu yerlar naqadar bepoyon, erkin, sokin! – o'yladi Kovrin, so'qmoqdan odimlab borarkan. – Go'yo butun olam meni pinhona kuzatib turganday, uni anglashimni, idrok etishimni kutayotganday...»

Ammo, mana, javdarzor yuzasi chayqalib, to'lqinday jo'shdi, namozshomning yengil shabadasi uning yalang boshini ham silab o'tdi. Bir zumdan so'ng yana shamol keldi, lekin endi shiddatli edi – javdarzor shovqinlandi, orqa tarafdin qarag'ayzorning bo'g'iq shovullashi eshitildi. Kovrin hayratga tushib, joyida qotib qoldi. Ufqda xuddi uyurma yo quyun kabi yerdan to osmon toqiga qadar

qop-qora ustun ko'tarildi. Uning shakli noaniq, ammo bir joyda turmagani o'sha zahoti bilindi, shu tomonga o'qday uchib kelardi, yaqinlashgani sari tobora kichrayib, aniqroq shaklga kirib, dahshatli tezlikda to'ppa-to'g'ri Kovrinning ustiga bostirib keldi. Uning yo'lidan qochish uchun Kovrin yon tarafga, javdarzor ichiga o'zini otdi, arang ulgurdi...

Sochi oppoq, qoshi, ridosi qop-qora rohib qo'lini ko'ksida qovushtirgancha yonidan o'tib ketdi... Uning yalang oyoqlari yerga tegmasdi. Uch qadamcha nariga o'tgach, Kovringa o'girilib qaradi, boshini irg'adi-da, muloyim, ayni paytda quvlik bilan jilmayib qo'ydi. Ammo qanchalar oq, nihoyatda oppoq, oriq yuz! U yana kattalasha boshladi, so'ngra daryoning ustidan yelib o'tgach, giltuproq qirg'oqqa, so'ng qarag'ayzorga sassiz urilib, daraxtzor orasida tutunday tarqab ketdi.

– Mana, ko'ryapsizmi... – ming'irladi Kovrin. – Demak, afsona zamirida haqiqat bor.

Bu g'ayritabiiy hodisani anglab yetishga urinib o'tirmay, nafaqat qora ridosini, hatto rohibning yuz-ko'zini yaqindan aniq-tiniq ko'rganidan mamnun bo'lgan Kovrin yoqimli tuyg'ular og'ushida ortiga qaytdi.

Bog'da ham, xiyobondagi odamlar ham xotirjam, o'z yumushlari bilan band, uyda kuy-qo'shiq, o'yin-kulgi avjida, demak, rohibni bir o'zi ko'ribdi, xolos. U hamma-hammasi haqida Tanya va Yegor Semyonichga aytib berishni xohlardi, lekin baribir gapini yolg'onga yo'yishadi, qolaversa, boshqalarni cho'chitib qo'yishi mumkin; yaxshisi, jim bo'lgan ma'qul. U qahqaha otdi, qo'shiq aytdi, raqs tushdi, rosa o'ynab-kuldi, hamma, mehmonlar-u Tanya ham bugun uning chehrasi ochiq, nurliroq, ruhlanganroq va o'zi ham qandaydir boshqacharoq bo'lib qolganini aytishdi.

III

Kechki taomdan so'ng mehmonlar uylariga tarqalgach, u ham xonasiga kirib, divanga yonboshladi: rohib haqida maroq bilan xayol surishni xohlardi. Biroq oradan bir zum o'tmay, Tanya kirib keldi.

– Andryusha, otam yozgan manavi maqolalarni o'qib ko'ring, – dedi qiz unga bir taxlam risola-yu bosma qog'ozlarni uzatib. – Ajoyib maqolalar. Otam zo'r yozadi.

– Qanaqasiga zo‘r bo‘lsin! – dedi qizining ortidan shoshib kirgan Yegor Semyonich zo‘raki jilmayib hijolat bo‘lgandek. – Uning gaplariga quloq solma, yaxshisi, o‘qib o‘tirma! Agar tezroq uxlamochi bo‘lsang, mayli, o‘qiy qol: bu ajoyib uyqu dorisi.

– Menimcha, ajoyib maqolalar, – dedi Tanya kamoli ishonch bilan. – Siz o‘qib chiqing, Andryusha, o‘shandan keyin, albatta, otamni ko‘proq yozishga undab qolasiz. Bog‘dorchilikdan darslik yozishgayam otamning kuchi yetadi.

Yegor Semyonich butun vujudi bilan qah-qah otib yubordi, so‘ngra yuzlari qizarib, hijolat bo‘lganidan kalovlanib, odatda mualliflar aytadigan iboralarni takrorlay boshladi. Nihoyat, chol yon berganday bo‘ldi.

– Shunday ekan, avval Goshe¹ yozganlarini o‘qib chiq, keyin manavi ruscha maqolalarni, – ming‘irladi u qo‘li qaltirab risolalarni birma-bir uzatarkan, – yo‘qsa, tushunmaysan. Mening e‘tirozimni o‘qishdan oldin nimani inkor etganimni bilishing kerak-ku. Ammo arzimikan... zerikarli. Mayli, endi uxlash payti bo‘ldi, shekilli.

Tanya tashqariga chiqib ketdi. Yegor Semyonich divanga, Kovrinning yoniga o‘tirib, chuqur xo‘rsindi.

– Ha, sen mening qadrdomimsan... – deb gap boshladi u biroz sukut saqlagach. – Shunaqa, suyukli magistrim. Mana, maqolalar ham yozyapman, ko‘rgazmalarda ham qatnashyapman, medallar ham olyapman... Pesotskiyning olmalari boshidan oshib-toshib yotibdi, deyishadi, Pesotskiy bog‘dan jaraq-jaraq pul topyapti, deyishadi... Bir so‘z bilan aytganda, boy va sharafi Kichikbey. Ammo savol tug‘iladi: bularning hammasi nima uchun? Bog‘ haqiqatan ajoyib, ibrat bo‘larli... Bu bog‘ emas, yuksak davlat ahamiyatiga molik butun boshli yirik muassasa, chunki bu, ta‘kidlash joizki, rus ishlab chiqarishi hamda rus xo‘jaligi taraqqiyotidagi yangi davr. Lekin kim uchun? Maqsad nima?

– Ishning o‘zi aytib turibdi.

¹...avval Goshe yozganlarini o‘qib chiq... – 80-yillar oxiri – 90-yillar boshida «Daraxtlar va xonaki o‘simliklarni payvand qilish bo‘yicha qo‘llanma» nashr etilgan. Goshe asarlaridan tuzilgan («Bog‘ va tomorqa» gazetasi, 1889) va Goshening «Amaliyotchilar uchun meva yetishtirish bo‘yicha qo‘llanma» kitobi. Nemis tilidan tarjima. Rossiyaga moslab o‘zgartirish va to‘ldirishlar bilan nashr etilgan.

– Men bu ma'noda aytayotganim yo'q. Bir narsani so'ramoqchiman: men olamdan o'tgandan keyin bog' nima bo'ladi? Mensiz o'zing ko'rib turgan mana shu bog'ning ko'rk-u chiroyi bir oyga yetib bormaydi. Muvaffaqiyat siri nimada, bog'ning kattaligi, xizmatchining ko'pligida emas, gap shundaki, men o'z kasbimni sevaman, tushunyapsanmi? Sevaman, ehtimol, hayotimdan ham ortiq ko'rarman. Menga qara: hamma ishni o'zim bajaraman. Ertadan kechgacha tinmayman. Payvand qilaman, butayman, kesaman, hammasiga – o'zim. Yordam berishmoqchi bo'lishsa, qizg'anaman, g'azablanaman, qo'rslik qilaman. Hamma sir mehrda, ya'ni xo'jayinning o'tkir nigohida, xo'jalik boshlig'ining dastida; qachonki bir soat bo'lsayam qayoqqadir mehmonga borsam, xotirjam o'tirolmayman, bog'im nima bo'ldiykin, deb ko'nglim alag'da yuraman. Men o'lsam, boqqa kim qaraydi? Kim ishlaydi? Bog'bonlarmi? Xizmatchilarmi? A? Mana shunaqa gaplar, xullas, nima demoqchiman, muhtaram do'stim: bizning ishimizdagi birinchi dushman quyonmas, tillaqo'ng'izmas, ayozmas – begona odam.

– Tanya-chi? – so'radi Kovrin kulimsirab. – U quyonchalik zararkunanda bo'lmasa kerak. U ishning ko'zini biladi, mehnatsevar...

– To'g'ri, bilag'on, mehnatsevar bo'lib ulg'aydi. Agar mendan keyin bog' unga qolsa, u bosh bo'lsa, albatta, nur ustiga nur. Qani, ayt-chi, Xudo asrasin-u, erga tegib ketsa-chi? – pichirladi Yegor Semyonich Kovringa qo'rqa-pisa ko'z tashlab. – Mana shunday bo'lishi aniq! Erga tegadi, bola tug'adi, o'shanda boqqa boqishga qo'li tegmaydi. Men, eng avvalo, nimadan qo'rqaman: qandaydir yigitchaga turmushga chiqsa, uning nafsi hakalak otib, bog'ni savdogarlarga ijaraga bersa, bir yildayoq hammasi payhon bo'ladi. Bizning ishga xotin kishi aralashsa – Xudo urgani bu!

Yegor Semyonich xo'rsinib, biroz jimib qoldi.

– Balki, bu xudbinlikdir, ammo rostini aytaman: Tanyaning turmushga berishni istamayman. Qo'rqaman! Qayoqdandir bir olifta uyimga kelib, skripkasini g'iyqillatib yurishidan qo'rqaman; bilaman, Tanya unga tegmaydi, juda yaxshi bilaman, chunki mening o'sha yigitchani ko'rarga ko'zim yo'q! Umuman, og'ayni, shunaqa gaplar, men hiyla g'alatiroqman. Tan olaman.

Yegor Semyonich hayajonini yashirolmay oʻrnidan turib ketdi va xona boʻylab odimlay boshladi, aftidan, jiddiy gap aytmoqchi-yu, biroq bir qarorga kelolmayotgani koʻrinib turardi.

– Seni juda yaxshi koʻraman, sen bilan ochiqchasiga gaplashib olmoqchiman, – oʻylab oʻyiga yetdi nihoyat u qoʻlini choʻntagiga solib. – Ayrim qaltis masalalargayam toʻgʻri yondashadigan odatim bor, nimani oʻylasam, shuni aytaman, koʻngilda kin saqlashga toqatim yoʻq. Ochiq aytaman: men qoʻrqmasdan qizimni berishim mumkin boʻlgan yagona odam faqat sensan! Aqllisan, koʻngling toza, men boshlagan ishlarni barbod boʻlishiga yoʻl qoʻymaysan. Eng asosiy-si – seni yaxshi koʻraman, xuddi oʻz oʻgʻlimday... faxrlanaman. Agar Tanya ikkingizni bir-biringizga koʻnglingiz boʻlsa, unda men nimayam qila olardim? Xursand boʻlaman, hatto oʻzimni baxtli sanayman. Boʻyab-bejamasdan, toʻgʻrikoʻngil odam sifatida senga aytilishim lozim boʻlgan ochiq-oshkora gapim shu!

Kovrin kulib yubordi. Yegor Semyonich tashqariga chiqish uchun eshikni ochdi-yu, boʻsagʻada turib qoldi.

– Agar sen bilan Tanyadan oʻgʻil tugʻilsa, uni zoʻr bogʻbon qilaman, – dedi u xayolga choʻmib. – Ehtimol, barchasi puch orzudir... Xayrli tun.

Yolgʻiz qolgach, Kovrin qulayroq yonboshlab olib, maqolalarni oʻqishga tutindi. Birining sarlavhasi shunday: «Oraliq ekinlar haqida», boshqasi: «J. Z.ning yangi bogʻ tagidagi tuproqni kurak kengligida yumshatish haqidagi qaydlari xususida bir necha ogʻiz soʻz», uchinchisi: «Yana yumuq koʻzlarni payvandlash haqida» – qolgani ham shu taxlit. Ammo naqadar zardali, notekis ohanglar, naqadar asabiy, deyarli achchiq pichinglar! Mana, sarlavhasi eng beozor, mazmunan ola-quroq maqola: rus antonov olmalari haqida yozilgan. Ammo Yegor Semyonich maqolani «audiatur altera pars»¹ soʻzlari bilan boshlab, «sapienti sat»² bilan tugatgan, bu ikki ibora orasida esa, «Oʻzi turgan minbar balandligidan tabiatni kuzatuvchi bizning patent olgan j. bogʻbonlarimizning beodob olimi» shaʼniga turfa zaharhandalarning butun boshli favvorasi otilgan yoki «Ishqivozlar va noshudlar tomonidan muvaffaqiyati taʼminlangan» j. Goshe borasida, yana shu yerning oʻzida meva oʻgʻirlyotib daraxt

¹ «Boshqa tomonini eshitib koʻrsin» (*lot.*).

² «Aqlliga yetarli» (*lot.*).

shoxini sindirgan mujiklarni savalash bilan cheklanib qolmaslik haqida bemavrid, soxta va nosamimiy kesatliqlar yozilgan.

«Maqola chiroyli, yoqimli, foydali, ammo jizzakilik bor, mojaroli o‘rinlar ko‘p, – o‘yladi Kovrin. – Hamma yerdayam maslagi bor kishilar asabiyligi, o‘ta ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Balki shunday bo‘lishi kerakdir».

U negadir Yegor Semyonichning maqolalarini jon-dilidan sevadigan Tanyani eslab qoldi. O‘rtabo‘y, rangpar, qotmadan kelgan, to‘g‘rirog‘i, eti suyakka yopishgan; ko‘zlari katta-katta, qora, aqlli, hamisha atrofiga alanglab turadi, nimalarnidir qidiradi; otasi kabi odimlaydi – maydaqadam, shoshqaloq. Sergap qiz, bahs-munozarani hush ko‘radi, har bitta, hatto arzimas iborani aytganida, bir yo‘la yuz ifodasi, imo-ishora bilan ham uqtiradi. Borib turgan jizzaki bo‘lsa kerak.

Kovrin o‘qishni davom ettirdi, ammo hech baloni tushunolmay, maqolani chetga otdi. Ko‘nglida kecha oqshom raqsiga tushganda, musiqa tinglaganda bosgan yoqimli hayajon uyg‘onib, xayolidan ajoyib fikrlar o‘ta boshladi. O‘rnidan turib, qora rohib siymosini eslashga harakat qilib xona ichida yura boshladi. Agar o‘sha g‘alati, g‘aroyib qora rohib birgina unga ko‘ringan bo‘lsa, demak, dardga chalingani aniq, yo‘q narsani ko‘rish darajasigacha yetib boribdi-da. Bu fikridan o‘zi ham qo‘rqib ketdi, ammo unchalik emas.

«Axir, men o‘zimni binoyiday his qilyapman, atrofdagilarga ziyonim tegmaydi; demak, mening xomxayollarim xavfsiz», – deb o‘yladi u yana ham ruhlanib.

U divanga cho‘kdi, so‘ng boshini kaftlari orasiga olib, butun borlig‘ini qamragan qandaydir shirin baxtni tuygandek bo‘ldi, keyin yana borib, ishga o‘tirdi. Ammo kitobdagi fikrlar uni qoniqtirmasdi, qandaydir ulkan, aql bovar qilmas, hayratlarga chulg‘aguvchi nimanidir istardi. Tong oqarib qolganda ust-boshini yechib, istar-istamas ko‘rpacha orasiga kirdi: axir, uxlash kerak edi-da!

Bog‘ tomon yo‘l olgan Yegor Semyonichning qadam tovushlari eshitilganda Kovrin qo‘ng‘iroqchani chalib, malayga musallas keltirishni buyurdi. U bir necha qadah lafit¹ sipqorgach, joyiga cho‘zilib, boshini ko‘rpacha bilan burkab oldi; shundan keyingina ongi xiralashib, uxlab qoldi.

¹ *Lafit* – qizil musallas turi.



IV

Yegor Semyonich bilan Tanya tez-tez janjallashib qolardi, o'shanda bir-birini ayamay dilozor gap aytishdan ham toyishmasdi.

Saharmardonda ikkisi qaysidir masalada kelisholmay mojaro chiqarishdi. Tanya yig'lab yuborib, xonasiga kirdi-da, qamalib oldi. Keyin na tushlikka, na choy ichgani chiqdi. Tartib-intizom, adolat dunyodagi har narsadan ustunligini isbotlab qo'yishni istagan Yegor Semyonich avvaliga gerdayib, boshini tik tutib yurdi, ammo tez orada shashti pasayib, boshi xam bo'lib, ruhan tushkunlikka tushdi. U xiyobon bo'ylab g'amgin odimlar ekan, nuqul xo'rsinib: «Oh, Xudoyim, Xudoyim-ey!» deya takrorlardi, hatto tushlikda tuz totmadi. Nihoyat, o'zining aybdor ekanini tan olib, vijdon azobidan qutulish ilinjida yopiq eshikni qoqib, hadiksirab chaqirdi:

– Tanya! Tanya?

Eshik ortidan kuchsiz, yig'lab-yig'lab holdan toygan qizning keskin ohangdagi javobi keldi:

– O'tinib so'rayman, meni tinch qo'ying.

Butun xonadon ahliga, bog'dagi xizmatchilarga ham uy egalari orasidagi xafagarchilik nuqsi urdi. Kovrin qiziqarli ishlarga ko'milib yotgan bo'lsa ham, oxir-oqibat, atrofidagilarni ko'rib, noqulay ahvolga tushib qoldi. Yigit nimadir qilib bo'lsa ham ko'pchilikning kayfiyatini ko'tarish niyatida janjalga aralashishni ma'qul topdi va oqshomga borib Tanyaning qulflangan eshigini taqillatdi. Uni ichkariga kiritdi.

– Voy-voy, uyat-ey! – hazillashib gap boshladi yigit, yig'layverib ko'zlari shishib ketgan Tanyaning mumsiragan yuziga boqib. – Nahotki, shunchalikka borsangiz? Qo'ying-ey!

– Siz bilmaysiz-da, meni qanchalik azoblashini! – dedi qiz katta-katta ko'zlaridan qaynoq ko'z yoshini duv-duv oqizib. – U meni qiynab yubordi! – davom etdi qiz kuyunib. – Men unga sira yomon gap aytganim yo'q... hech narsa... Faqat ortiqcha ishchilarni... tutib turishga zarurat... yo'q, dedim, xolos... agar... agar kerak bo'lsa, kunbay ishchi yollaymiz, dedim. Axir... axir, ishchilar bir haftadan beri bekorchi, hech balo qilgani yo'q... Men... shuni aytdim, xolos, u bo'lsa o'shqirib berdi, xafa qildi, haqorat qildi. Nega?

– Bas endi, yetar, – dedi Kovrin qizning soch turmagini to‘g‘ri-lab. – Tergashib, yig‘lashib olganimiz yetarli, bas. Arazlab yurish yaramaydi, yaxshimas... axir, otangiz sizni juda yaxshi ko‘radilar-ku!

– U meni... mening butun hayotimni zaharladi, – davom etdi Tanya hiqillab. – Eshitganim faqat tahqiromuz gaplar... dilsiyohlik. O‘zining uyida meni ortiqcha deb hisoblaydi. Nimaga? U haq. Men ertaga bu yerdan ketaman, telegraflikka kiraman... Mayli...

– Qani, qani... Yig‘lamang, Tanya. Keragi yo‘q, azizam... Ik-kingiz ham qiziqqon, jahldorsiz, ikkingizdayam ayb bor. Yuring, o‘zim sizlarni yarashtirib qo‘yaman.

Kovrin muloyim, lekin ishonch bilan gapirdi, qiz esa yelkalari silkinib, mushtumini tugib yig‘layverdi, go‘yo chindanam dahshatli baxtsizlikka duchor bo‘lgandek edi. Arzimagan gap uchun shunchalik chuqur qayg‘uga botgan qizga achinib ketdi. Axir, bu hilqatni kun bo‘yi, hatto bir umr baxtsiz qilishi mumkin bo‘lgan cho‘pchaklar to‘lib-toshib yotibdi bu dunyoda!

Tanyani yupatgach, Kovrin xayolga toldi: bu yorug‘ olamda mana shu qiz bilan otasidan boshqa uni o‘zinikiday, tug‘ishganidan ortiq ko‘radigan, sevadigan odam zotini kunduzi chiroq yoqib topolmasa kerak; agarda shu ikki inson bo‘lmaganda, ehtimol, ota-onasidan erta ajralib mehrga zor o‘tgan bolaligidan to umrining oxirigacha eng yaqin kishilar, qarindosh-urug‘lar orasidagina bo‘ladigan chinakam mehr, oddiy, beminnat muhabbat neligini bilmay o‘tib ketarmidi. O‘zining xastahol, buzilgan asabiga ohanrabo temirni tortgan kabi mana shu yig‘layotgan hurkak qizning fe‘ligina mos kelishini biladi. U hech qachon durkun, baquvvat, ikki yuzi qip-qizil sog‘lom qizlarga ko‘ngil qo‘ymagan bo‘lardi, ammo unga rangpar, nimjon, baxtsiz Tanya yoqardi.

U qizning sochlari, yelkalarini mehr bilan siladi, qo‘lini siqib, ko‘z yoshini artib qo‘ydi... Nihoyat, qiz yig‘idan to‘xtadi. Yana anchagacha otasidan, bu uydagi chidab bo‘lmas turmush tarzidan arzini davom ettirdi, Kovrinni o‘zining o‘rniga qo‘yib ko‘rishini aytib yolvord; keyin oz-ozdan hiqillab, jilmaya boshladi, undan keyin Xudo o‘ziga tentakona fe‘l-atvor berganidan yozg‘irib, nihoyat, birdan hushchaqchaq kulgisi jarangladi-da, xonadan chopib chiqib ketdi.

Oradan biroz o'tib, Kovrin boqqa chiqqan payti Yegor Semyonich bilan Tanya orada hech gap o'tmaganday xiyobon bo'ylab sayr qilishar ekan, javdar nonga tuz sepib paqqos tushirishardi, chunki ikkalasi ham kun bo'yi tuz totmagan edi-da.

V

Ota bilan qizni yarashtiruvchi vazifasini qoyillatib uddasidan chiqqanidan mamnun bo'lgan Kovrin tomoshabog' tarafga ketdi. Endigina o'rindiqqa o'tirib, o'yga cho'mgandiki, uzoqdan foytunning taraq-turug'i va qizlar kulgisi eshitildi – bu uyga mehmonlar kelganidan darak berardi. Oqshomda soyalari yerga cho'zilgan bog' uzra skripka sadosi taralib, qo'shiq yangraganday bo'ldi, bularning barchasi bir bo'lib, uning xotirasi puchmoqlariga yashiringan qora rohibni uyg'otib yubordi. Qayerda, qaysi mamlakatda yoki qay bir sayyorada ekan hozir bu mo'jiza?

U afsonani arang eslab, xayolida javdarzorda ko'rgan o'sha qora sharpa siymosini tikladi, shu payt ro'parasida, xuddi qarag'ay tanasidan ajrab chiqqanday, hech bir sas-sadosiz boshyalang, o'rt bo'y, qora rido kiygan darvishnamo odam paydo bo'ldi, uning rangsiz, murdanikiga o'xshash yuzida qop-qora qoshi bo'rtib turardi.

Boshini do'stona irg'agan gado yoinki darvishsifat odam o'rindiqqa sassiz borib o'tirdi, shundagina Kovrin o'zining yoniga qora rohib kelganini anglab yetdi. Ikkovlon oniy lahza bir-biriga tikilib qolishdi – Kovrin hayratda, rohib esa muloyim, avvalgidek, ozgina quvligi bor, ko'nglidan o'tdi yigitning.

– Axir, sen sarobsan-ku, – ming'irladi Kovrin. – Nima uchun bu yerda, bir joyda o'tiribsan? Bu afsonaga o'xshamaydi.

– Hammasi bir, – javob berdi rohib shoshilmay, unga yuzini burib past ovozda. – afsona, sarob va men – barchasi tasavvuringda uyg'ondi. Men – sharpaman.

– Demak, sen aslida yo'qsan, to'g'rimi? – so'radi Kovrin.

– Qanday istasang, shunday o'ylayver, – dedi rohib muloyim jilmayib. – Men xayolingda yashayman, tasavvuring ham olamning bir zarrasi, demak, men borman.

– Yuz-ko'zingdan juda keksa, donishmand va jonliday ko'rinasan, yoshing mingdan o'tgan bo'lsa kerak, – dedi Kovrin. – Tasavvurim

shu qadar favqulodda hodisani yaratadi, deb o‘ylamagandim. Ammo nega buncha ajablanib qarayapsan? Senga yoqamanmi?

– Ha. Sen adolatan nazarkarda deya sharaflangan kamdan-kam odamlardan birisan. Sen mangu haqiqatga xizmat qilgaysan: fikring, maqsading, hayratomuz biliming – butun umringga samoviy muhr bosilgan; nazarkardalarning barchasi aql va go‘zallikka, ya’ni mangulikka daxldor.

– Sen: mangu haqiqat, dedingmi... Ammo odamzodga mangu haqiqat kerakmi, axir, mangu hayotning o‘zi bo‘lmasa!?

– Mangu hayot bor, – dedi rohib.

– Sen odam zotining boqiyiligiga ishonasanmi?

– Ha, albatta. Siz, odam zotini buyuk, porloq kelajak kutmoqda. yer yuzida sen kabilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, kelajak shunchalik tez ro‘yobga chiqadi. Sizsiz, oliy ibtido xizmatchilarisiz, ongli va ozod kishilarsiz insoniyat notavon bo‘lib qolur edi; u tabiiy tamaddun orqali o‘zining yer yuzidagi tarixining intihosini juda uzoq kutishiga to‘g‘ri kelardi. Sizlar bir necha ming yil oldin abadiy haqiqat mulkiga yetkazib borgaysiz – sizning yuksak a‘molingiz mana shu. Siz Xudoning marhamatiga sazovor bo‘lgaysiz, bu oddiy odamlarga nasib etmagay.

– Mangu hayotning mohiyati nimada? – so‘radi Kovrin.

– Boshqa hayotlar singari – huzur-halovatda! Chinakam halovat ilmida, mangu hayot esa bilish uchun son-sanoqsiz, bitmas-tuganmas ilm-u fan buloqlarini ato etadi, aynan shu ma’noda: Otam Xudoning uyida maskan ko‘p¹, deyilgan.

– Sening suhbating qanchalar yoqimli ekanini o‘zing bilmaysanda! – dedi Kovrin, mamnun ekanidan qo‘llarini ishqalab.

– G‘oyat mamnunman.

– Ammo bilasanmi: ketganingdan keyin seni bor-yo‘qliging haqidagi savollar qiynayveradi meni. Sen sharpasan – xayolot hosilasi. Demak, men ruhan xastaman, aqldan ozgan deyisharmidi?

– Hech bo‘lmaganda, shunday. Nega ajablanasan? Sen xastasan, chunki haddan ortiq ishlab charchading, ya’ni sog‘ligingni g‘oyaga qurbon qilding, hayotingni fido etadigan kunlargayam oz qoldi. Nima, yaxshimasmi? Bu – o‘sha, dunyodagi ulug‘ zotlar intilgan maqsad.

¹ *Otam Xudoning uyida maskan ko‘p...* – Yuhanno bayon etgan xushxabar, 14:2.

– Ruhiy xastaligimni bilib turib ham o‘zimga ishonsam bo‘la-veradimi?

– Xabaring bormi, bu dunyoda sharaf topgan daholarning ko‘pi sharpani ko‘rgandir? Olimlar aytishadi-ku, daholik telbalikka monand, deb. Do‘stginam, o‘rtamiyona odamlar – olomon sog‘lom bo‘ladi. Asabiy asrni idrok etish, qattiq toliqish, nasl buzilishi kabi fikr-mulohazalar hayotdagi maqsadini aniq bilmaganlarni yoki olomonningina jiddiy hayajonga solishi mumkin.

– Rimliklar aytgan ekan: mens sana in corpore sano¹.

– Rimliklar yoki yunonlar aytgan gaplarning hammasiyam to‘g‘rimas. Ko‘tarinki kayfiyat, hayajonlanish, jazava – bularning barchasi payg‘ambarlar, shoirlar, g‘oya qurbonlarini omilardan, odamzotning yoqimsiz hayvoniy odatlaridan, ya‘ni jismonan sog‘lomlardan ajratib turadi. Takror aytaman: sog‘misan, es-hushing joyidami – podaga qo‘shilib chopaver.

– Ajabo, sen xayolimga tez-tez kelib turadigan fikrlarni takrorlayapsan, – dedi Kovrin. – Xuddi ko‘nglimdagini bilib turganga o‘xshaysan. Ammo, kel, yaxshisi, men haqimda gaplashmaylik. Mangu haqiqat deganda nimani tushunasan?

Rohib javob bermadi. Kovrin unga tikilgandi, tanimay qoldi: yuzi xiralashib, havoga sochilib ketdi. Keyin rohibning boshi, qo‘llari g‘oyib bo‘la boshladi; jismi o‘rindiq va shomning xira pardasiga aralashib, nihoyat, tamomila ko‘zdan yo‘qoldi.

– Xomxayol tugadi! – dedi Kovrin jilmayib. – Esiz...

U uyga quvnoq, ko‘tarinki kayfiyatda qaytdi. Qora rohib aytgan gaplar uning qalbida, butun borlig‘ida xudbinlik emas, balki oz bo‘lsa-da, yoqimli tuyg‘ular uyg‘otgandi. Nazarkardalik, mangu haqiqatga xizmat qilish, odamlarni Xudo dargohiga bir necha ming yil avval yetkazuvchilar qatoridan joy olish, ya‘ni odamlarni bir necha ming yillik benaf urushlar, gunoh, azoblardan xalos etish; yoshligini, kuch-quvvatini, sog‘ligini, borlig‘ini g‘oyaga qurbon qilish – umum baxt-saodati yo‘lida o‘limning yuziga tik qarash – qanchalar yuksak, qanchalar iqbol! Uning xotirasida pokiza, halol mehnat bilan o‘tgan kechmishi jonlandi, nima maqsadda ilm o‘rgangani ham, boshqalarga nima uchun ta‘lim berganini ham bir-

¹ Sog‘lom tanda – sog‘ aql (*lot.*).

bir xayoldan o'tkazdi va nihoyat, rohibning so'zlarida mubolag'a yo'q, degan xulosaga keldi.

Tomoshaboqqa yetganda qarshisidan Tanya chiqib qoldi. Endi egniga boshqa ko'ylagini kiyib olibdi.

– Shu yerdamingiz? – so'radi qiz. – Biz bo'lsak, sizni qidiraymiz, qidiraymiz... Sizga nima bo'ldi? – ajablandi yigitning hayratlangan, barq urgan yuziga, jiqqa yosh to'la ko'zlariga boqib. – Andryusha, g'alati ko'rinib ketyapsiz!

– Men mamnunman, Tanya, – dedi Kovrin qizning qo'llarini yelkasiga qo'yib. – Men benihoya shodman, baxtiyorman! Tanya, azizam Tanya, siz favqulodda yoqimli hilqatsiz. Azizam Tanya, shunchalar mamnunmanki, shunchalar mamnun!

U jo'shib, qizning qo'lini o'pib, davom etdi:

– Men hozirgina nurli, samoviy, mo'jizali lahzalarni boshdan kechirdim. Ammo hammasini aytib berolmayman, chunki meni aqldan ozibdi, deb o'ylaysiz yoki gapimga ishonmaysiz. Keling, yaxshisi, siz haqingizda gaplashaylik. Azizam, latofatli Tanya! Sizni sevaman, sevishga ko'nikib ham qoldim. Bizning yaqinligimiz, kuniga o'n martalab uchrashuvimiz qalbim ehtiyojiga aylanib bo'ldi. Bilmadim, uyimga qaytgandan keyin sizsiz holim ne kecharkin?

– Qani, hali ko'ramiz! – kuldi Tanya. – Ikki kundayoq hammasini unutib yuborarsiz. Biz kichkina odamlarmiz, siz buyuksiz.

– Yo'q, keling, jiddiyroq gaplashib olaylik! – dedi yigit. – Sizni o'zim bilan olib ketaman, Tanya. Xo'pmi? Men bilan ketasizmi? Meniki bo'lishni istaysizmi?

– Qani, ko'ramiz! – dedi Tanya yana kulmoqchi bo'lib, ammo kulolmadi, yuzida qizil dog'lar paydo bo'ldi.

Qiz tez-tez nafas olarkan, shoshib nariga ketdi, uy tomonga emas, boshqa yoqqa, tomoshaboqqa.

– Men bunday o'ylamagandim... o'ylamagandim! – derdi u umidsizlikka tushib qolganday qo'lini siqib.

Kovrin esa qizning ortidan o'sha-o'sha, yuzlari hayratomuz barq urgan alpozda tinmay so'zlab borardi:

– Men muhabbat istayman, butun borlig'imni yondirguvchi muhabbatni, buni menga faqat Tanya, siz hadya eta olasiz. Men baxtliman! Baxtiyorman!

Tanya aqldan ozganday qaddi kamon kabi egildi, go'yo bir-daniga o'n yoshga qarib ketgandek ko'rindi, yigit esa qizning faqat go'zalligini ko'rar, qalb hayratlarini baralla aytardi:

– Siz naqadar sohibjamolsiz!

VI

Kovrindan nafaqat bir-biriga ko'ngil qo'ygani, hatto nikoh to'yini tezroq o'tkazish haqidagi xushxabarni eshitgan Yegor Semyonich hayajonini bosish uchun u burchakdan bu burchakka uzoq yurdi. Qo'llari titrab, bo'yni shishib, yuzi qizarib usti ochiq yengil aravani tayyorlashni buyurdi-da, qayoqqadir shitob bilan jo'nab ketdi. Tanya otlarga qamchi bosishi, furajkasini deyarli qulog'igacha bostirib kiyib olganini ko'rib, otasining ko'tarinki ruhini his etdi va xonasiga kirib, ichkaridan qulflab olgancha, kun bo'yi yum-yum yig'ladi.

Oranjereyalardagi shaftoli-yu olxo'rilar yetildi; bu nozik va ajoyib mahsulotni qutilarga joylab, Moskvaga jo'natish ko'p e'tibor, mashaqqat va ovoragarchiliklarni taqazo etadi. Yoz issiq, quruq kelgani sababli har bir nihol o'z paytida sug'orildi, bunga esa juda ko'p ishchi kuchi, vaqt ketdi, Kovrinning nafratini qo'zg'agan kapalak qurtini xizmatchilar, hatto Yegor Semyonich-u Tanya ham qo'lda bo'lsa ham ezg'ilab tugatishdi. Mana shunday yumushlar orasida ko'chat va meva yetkazib berish bo'yicha kuzga buyurtmalarni qabul qilish, talay yozishmalar olib borish zarur bo'ldi. Ish ayni avjiga chiqqanda, hammaning qo'li qo'lga tegmay qolgan bir paytda bog'da ishlayotganlarning teng yarmini safarbar etish lozim bo'lgan, sira kechiktirilmaz dala ishlari kuchaygandan-kuchayib ketdi; o'tobda qorayib, kuyib-pishgan asabiy Yegor Semyonich goh boqqa, goh dalaga ot choptirar, xunob bo'lib, o'zini bo'laklab tashlashni yoki shart peshonasidan otib, hammasidan qutulib qo'ya qolishini aytib yozg'irardi.

Ustiga ustak, Pesotskiylar hazilakam e'tibor qilmaydigan sep-sidirg'a dahmazasi; qaychining shiqirlashi, tikuv mashinasining shaqillashi, dazmol isi va jahldor, darrov arazlab qoladigan tikuvchi xonimning injiqligidan uydagilarning boshi aylanib ketardi. Xuddi atay qilganday, har kuni mehmon bosib kelardi, ularga mulozamat ko'rsatish, ziyofat uyushtirish kerak, hatto ular ba'zida tunab qolishardi. Biroq bu tashvishlarning barchasi tumandagiday

sezilmay kechardi. Negadir Kovrin aynan o'ziga uylanishiga o'n to'rt yoshidayoq ishonch hosil qilgan bo'lsa-da, Tanya kutilmaganda bosib kelgan muhabbat va baxtdan hayajonga tushmay qolmadi. Qiz o'ylab o'yiga yetolmas, hayron-u lol, ne qilarini bilmas, o'z ko'zlariga ishonmasdi... Goho baxt shunchalar og'ushiga olardiki, bulutlardan baland uchgisi, o'sha yuksaklarga chiqib, Yaratganga iltijo qilgisi kelardi, ammo birdaniga avgustga borib, tug'ilgan uyi bilan vidolashib, otasini yolg'iz tashlab ketishini o'ylasa yoki Xudo biladi, negadir o'zining notavon ekani, Kovrinday ulug' odamga arzimas, munosib emasligi haqidagi xayolga botsa – darrov xonasiga kirib, ichidan zulfinni tushirib, ancha vaqtgacha achchiq ko'z yosh to'kardi.

Mehmonlar ko'payganda, qizning ko'ziga Kovrin ajoyib, chiroyli ko'rinib ketar, hamma ayollar uning yoriga mahliyo boqayotganday, o'ziga esa hasad bilan qarayatganday tuyulardi, shunda barcha kibor xonimlar ustidan g'olib bo'lgandek qalbi g'urur, hayratlarga to'lib-toshar, ammo yigit biror qizga jilmayib boqsa, rashk o'tida jizg'anagi chiqib, xonasiga chopardi – yana ko'z yoshi. Man shunday yangi his-tuyg'ular to'foni uni tamomila holdan toydirdi, otasiga bir navi madadkor bo'ldi-yu, ammo shaftoli, kapalak qurti, xizmatchilar tashvishi – hech biriga tuzukroq e'tibor ajratolmay, vaqt qanchalar tez o'tib ketganini sezmay qoldi.

Yegor Semyonich ham deyarli shu ahvolda edi. U ertadan kechgacha ishlar, doimo qaygadir shoshar, ba'zan nima qilayotganini o'zi ham bilmas, jahlini bosolmas – bularning barcha-barchasi qandaydir sehrli mudrashga o'xshardi. Uning jismiga go'yo ikkita odam kirib olgandek: biri asl Yegor Semyonich – bog'bon Ivan Karlichning betartibliklar haqidagi hisobotini eshitib g'azablanuvchi, mushkul ahvolga tushib qolganday boshini changallovchi, yana bir boshqasi, aslidan o'zga, ishning borishi haqidagi gapni yarmida kesib, bog'bonning yelkasiga turtib qo'yib valaqlovchi:

– Nima desang de, ammo naslda gap ko'p. Uning rahmatli onasi ajoyib, marhamatli, aqlli ayol edi. Farishtaday tiniq, mehrlri, pokiza yuziga boqishning o'zi bir rohat bo'lgan. Chiroyli surat chizardi, she'r yozardi, beshta chet tilini bilardi, qo'shiq aytardi... Bechora, joyi jannatda bo'lsin, sil bo'lib o'lib ketdi.

Asliga o'xshamagan Yegor Semyonich xo'rsinib qo'yib, bir dam sukut saqlagach, gapini davom ettirdi:

– Kichkinaligida, menikida yurgan davrida uning yuziyam farishtaday tiniq, yoqimtoy edi. Qarashiyam, yurish-turishiyam, gap-so‘ziyam muloyim va bejirim, xuddi onasiga o‘xshardi. Aql-chi? U aqli bilan doimo bizni hayratga solgan. Ha, aytmoqchi, hozir magistr! O‘z-o‘zidan bo‘lmaydi bu! Qarab tur, Ivan Karlich, o‘n yildan keyin u kim bo‘ladi! Qo‘l uzatsang, yetmaydi!

Ammo haqiqiy Yegor Semyonich birdan nimalar deb valaqalayotganini fahmlab qolib, yuzi vahimali tus olib, boshini changalab qichqirardi:

– Shaytonlar! Rasvo qilishibdi, bulg‘ab tashlashibdi, sovuq urdirishibdi! Bog‘ barbod bo‘ldi, bog‘ payhon bo‘ldi!

Kovrin esa avvalgidek qunt bilan ishlarkan, bo‘layotgan to‘sto‘polonlarni ko‘p-da payqamadi. Muhabbat yurakdagi olovga moy sepib, battar gurillatdi, xolos. Tanya bilan navbatdagi visoldan baxtiyor, hayratlarga chulg‘anib qaytar, yana xuddi o‘sha ehtiros bilan, hozirgina Tanyadan bo‘sa olgandagi, dil izhor qilgandagi ishtiyoq bilan kitob yoki qo‘lyozmasini o‘qishga kirishardi. Qora rohibning nazarkardalar, mangu haqiqat, insoniyatning porloq kelajagi va hokazolar haqidagi gaplari qilayotgan tadqiqotida o‘zgacha, g‘ayroyib ahamiyat kasb etar, qalbini g‘ururga to‘ldirib, o‘zining yetukligini teran his etardi. Haftada bir-ikki marta tomoshabog‘da yoki uyda qora rohib bilan uchrashib turar, u bilan uzoq suhbatlashar, ammo bundan qo‘rqmas, aksincha, qalbi zavq-shavqqa to‘lib, sharpa faqat tanlangan, borlig‘ini g‘oyaga bag‘ishlagan fidoyi insonlarga ayon bo‘lishiga ishonchi ortib boraverardi.

Bir kuni rohib choshgohda paydo bo‘ldi-da, asta kelib oshxona derazasining tokchasiga o‘tirdi. Bundan mamnun bo‘lgan Kovrin rohibni qiziqtirgan mavzuga to‘xtalib, Yegor Semyonich bilan Tanyaga zukkolarcha o‘z fikr-mulohazalarini bildirarkan, qora mehmon ajoyib suhbatni tinglab, bosh irg‘ab ma‘qullab qo‘yardi. Yegor Semyonich va Tanya jilmayishardi, ammo Kovrin sharpa ko‘ngliga qarab so‘zlayotganini ota bilan qiz xayollariga ham keltirishmasdi.

Xash-pash deguncha Uspenskiy hayiti¹ kelib qoldi, orqasidan to‘y kuni ham; tantana Yegor Semyonich orzu-havas qilgandek «qasira-qusur bilan», ya‘ni ikki kecha-yu ikki kunduz cho‘zilgan telba-

¹ *Uspenskiy hayiti* – eski hisob bo‘yicha 1–14-avgust.

teskari sayrlari bilan bo'lib o'tdi. To'yguncha yeb-ichishdi, ammo uquvsiz yollanma mashshoqlar nag'masi, baqirib, valdirab aytilgan qadah so'zlari, malaylarning chop-chopi – ola-g'ovur to'polonda olomon Moskvadan olib kelingan qimmatbaho musallaslar, tansiq taomlar ta'mini bilishmadi, e'tibor ham berishmadi.

VII

Qishning uzun kechalaridan birida Kovrin o'rnida yonboshlab olib, allaqanday fransuz romanini o'qirdi. Shahar shovqiniga moslasholmay, tuni bo'yi bosh og'riqdan qiynalib chiqadigan bechora Tanya allaqachon uyquga yotgan, gohida uzuq-yuluq alahsirarab qo'yardi.

Soat tungi uchga zang urganda Kovrin shamni o'chirib, o'ringa cho'zildi; anchagacha ko'zini yumib yotdi, ammo Tanyaning bezovtalanishi, ustiga ustak, yotoqxonada dimligidan uyquasi qochdi. Soat to'rt yarimga borganda yana turib sham yoqqandi, kutilmaganda qarshisidagi oromkursida yastanib o'tirgan qora rohibga ko'zi tushdi.

– Salom, – dedi rohib, keyin biroz sukut saqlagach, so'radi: – Endi nimalarni o'ylayapsan?

– Shon-shuhrat haqida, – javob berdi Kovrin. – Hozirgina o'qidim, manavi fransuz romanida yozilishicha, yosh olim ahmoqlik qilib, shon-shuhrat orzusida sog'ligidan ajraldi. Men o'sha shuhrat kasalligini his etmayman.

– Chunki sen aqllisan-da! Maqtovlarga befarqsan, ular xuddi bolalikda o'ynagan o'yinchog'ingga o'xshaydi, bu seni hech qachon qiziqtirmagan.

– Ha, gaping to'g'ri.

– Mashhurlik senga kulib boqmaydi. Buning yoqimli tomoni, yoki ajoyibligi, yoki ibrati shundaki, kun kelib ismingni qabr toshiga o'yib yozadilar, keyin vaqt bu yozuvni zarhali bilan qo'shib o'chirib tashlasinmi? Ha, insoniyat nomingizni xotirasida saqlab qolishi uchun, baxtimizga, siz kabilar ko'plik qiladi.

– Tushunarli, – deya rozi bo'ldi Kovrin. – Xo'p, xotirlash nega kerak? Kel, yaxshisi, boshqa mavzuda gaplashaylik. Masalan, baxt haqida. Baxt nima o'zi?

U soat millari beshni ko'rsatganda karavotda bemalol o'tirib olib, oyog'ini gilamga osiltirgancha rohibga qarab so'z qotardi:

– Qadim zamonda bir baxtli kishi bo‘lgan ekan, xullas, u o‘zining iqbolidan qo‘qib ketibdi – u judayam ulkan ekan-da! Shunda ma‘budlardan rahm-shafqat qilishlarini so‘rab sevimli uzugini qurbonlik qilibdi. Bilasanmi? Polikrat singari meni ham baxtiyorligim¹ biroz bezovta qilyapti. Menga g‘alati tuyuladi, nega endi, ertadan kechgacha faqat baxtliman, baxt butun vujudimni chulg‘ab olib, boshqa his-tuyg‘ularimga yo‘l bermayapti. Men g‘am-tashvish yoki zerikish nimaligini bilmayman. Mana, uyqusizlik dardim bor, kechasi uxlamayman, lekin zerikmayman. Jiddiy aytyapman: o‘zimga o‘zim hayron qolib boryapman.

– Nega, axir? – ajablendi rohib. – Nahotki, baxt g‘ayritabiyy tuyg‘umi? Baxtiyorlik odamning tabiiy holati bo‘lishi kerakmasmi? Odamzod aqliy-ahloqiy jihatdan taraqqiy etib borgan sari yanada erkinroq yashab, hayoti huzur-halovatga to‘lib boraveradi. Suqrot, Diogen, Mark Avreliyalar g‘am-tashvishnimas, baxtni his etishgan. Va havoriy aytar: hamisha xursand bo‘lib yuringlar.² Shodlansang-chi, axir, baxtli bo‘l.

– Ma‘budlarning qahri kelsa-chi? – hazillashdi Kovrin kulib. – Agar ular meni bor-budimdan mahrum etishsa, sovuqda och qoldirishsa, ko‘nglim vayron bo‘ladi.

Shu payt uyg‘onib ketgan Tanya, avvalo, ajablendi, so‘ngra dahshatga tushib eriga tikilib qoldi. Eri oromkursiga qarab gapirar, imo-ishora qilar, jilmayardi: ko‘zlari yonib, kulishida qandaydir g‘ayriohanglar tajassum topgan edi.

– Andryusha, kim bilan gaplashyapsan? – so‘radi Tanya, uning rohib tomonga cho‘zgan qo‘lini ushlab. – Andryusha! Kim bilan?

– A? Kim bilan? – esankirab qoldi Kovrin. – Ana, u bilan... Ana, o‘tiribdi, – dedi u qora rohib tomonga ishora qilib.

– Bu yerda hech kim yo‘q-ku... hech kim! Andryusha, sen kasalsan!

Tanya xuddi sharpadan himoya qilmoqchi bo‘lganday erini quchoqlab, bag‘riga bosdi, qo‘llari bilan uning ko‘zlarini yopdi.

¹ *Polikrat singari... baxtiyorligim...* – Polikrat haqida afsona Herodotning «Tarix» kitobidan yozilgan.

² *Hamisha xursand bo‘lib yuringlar* – havoriy Pavlusning salonikaliklarga birinchi maktubidan, «Yangi ahd», 5:16.

– Sen kasalsan! – ho‘ngrab yubordi ayol vujudi titrab. – Kechir meni, azizim, do‘stim, ammo ko‘pdan buyon sezib yuribman, ko‘ngling bezovta... Sen ruhan xastasan, Andryusha...

Xotinining titrog‘i Kovringa ham ko‘chdi. U oromkursiga yana qaradi, endi joy bo‘m-bo‘shligini ko‘rib, oyoq-qo‘li bo‘shashib ketganini his qildi, qo‘rqanidan apil-tapil kiyina boshladi.

– Hechqisi yo‘q, Tanya, hechqisi yo‘q... – g‘o‘ldiradi u titrab. – Aslida, biroz tobim qochib turibdi... ochig‘ini tan oladigan payt keldi.

– Ko‘pdan buyon sezib yuribman... otam ham payqabdi, – dedi u ho‘ngrab yubormaslik uchun o‘zini tutib. – O‘zing bilan o‘zing gaplashasan, qandaydir g‘alati kulasan... uxlamaysan. O Xudoyim, Xudoyim, O‘zing asra! – dedi u dahshatga tushib. – Ammo qo‘rqma, Andryusha, qo‘rqma, Xudo xayringni bersin, qo‘rqma...

Tanya ham kiyina boshladi. Faqat endigina, xotiniga qarab turib, Kovrin mushkul ahvolga tushib qolganini anglab yetdi, qora rohib nimaligini, u bilan bo‘lgan suhbatlar xayoliy ekanini tushundi. Aqldan ozgani kunday ravshan bo‘ldi.

Ikkisi ham nima qilarini bilmay, kiyinishib katta xonaga chiqishdi: xotin oldin, er keyin. U yerda yig‘i ovozidan uyg‘onib, egniga xalat tashlab, qo‘lida sham tutgan Yegor Semyonich serrayib turardi. U mehmonga kelgandi.

– Sen qo‘rqma, Andryusha, – dedi Tanya titrab, bezgak tutgan-day, – qo‘rqma... ota, bu o‘tib ketadi... hammasi o‘tib ketadi...

Kovrin hayajon titrog‘idan tili kalimaga kelmasdi. U qaynotasiga hazil ohangida:

– Tabrik eting meni, aftidan, aqldan ozganga o‘xshayman, – demoqchi bo‘ldi, ammo faqat labini qimirlab, g‘alati jilmaydi, xolos.

Ertalab soat to‘qqizda unga palto-po‘stin kiydirishib, sholro‘molga o‘rab-chirmashib, faytonda kasalxonaga olib kelishdi. U davolanadigan bo‘ldi.

VIII

Yana yoz yetib keldi, yana shifokor uni qishloqqa borishini maslahat berdi. Kovrin endi davolangan, qora rohib ham ko‘zdan yo‘qolgan, faqat ozroq kuch yig‘ib olishi kerak, xolos. Qishloqda,

qaynotasining uyida yashab, rosa sutga to'ydi, bir kecha-kunduzda faqat ikki soat ishladi, musallas ichmadi, chekmadi.

Ilin kuni arafasida¹ kechqurun uyda ibodat marosimi bo'ldi. Chaqqon yordamchisi ruhoniya isiriqdonni uzatayotgan payti eski, o'sha hayhotday zaldan mozor hidi anqiganday bo'ldi, Kovrin diqqinafaslikka chidolmay boqqa chiqdi. Muhtasham gullarga e'tiborsiz bog' aylandi, birpas o'rindiqda o'tirdi, keyin tomoshabog' oralab ketdi; daryoning bo'yiga yetib borib, pastlikka tushdi, o'sha yerda suvga tikilganча uzoq xayolga toldi. O'tgan yili yosh, farahbaxsh va tetik ko'ringan ildizi baroq ulkan qayrag'ochlar endi shivirlamas, xuddi uni tanimaganday, qilt etmay, soqovday turishardi. Aslida, o'zi ham taqirbosh, uzun, chiroyli sochlari yo'q, qadam olishi ham sust, yuzi o'tgan yilgiga qaraganda to'lishib, biroz oqargan. Oqim bo'ylab yurib narigi qirg'oqqa o'tdi. O'tgan yilgi javdarzor o'rmiga egat tortib, sulii ekishibdi. Quyosh allaqachon botgan, ufqda ertaga shamol bo'lishidan darak beruvchi poyonsiz qizg'ish shafaq lovullardi. Atrof jimjit. O'tgan yili qora rohib ilk bor ko'ringan tarafga tikilgan Kovrin yigirma daqiqacha, oqshom shafag'i xiralashguncha tek turib qoldi...

U lanj, dili xufton bo'lib uyga qaytganda ibodat marosimi tugab bo'lgandi. Yegor Semyonich va Tanya ayvondagi zinada o'tirib choyxo'rlik qilishardi. Ular muhim bir masalada qizg'in gaplashishayotgandi, ammo Kovrin ko'ringach, birdan jimib qolishdi, u esa ota bilan qizning yuz ifodasiga qarab, gap o'zi haqida borayotganini fahmladi.

– Sut ichadigan vaqting bo'ldi, shekilli, – dedi Tanya eriga.

– Yo'q, bo'lmadi... – javob berdi u eng pastki zinaga o'tirib olgach. – O'zing ichaver. Men ichmayman.

Tanya otasi bilan tashvishli ko'z urishtirib olgach, yolvorish ohangida bunday dedi:

– O'zing aytding-ku, axir, sut foydali ekan, deb.

– Ha, juda foydali! – zaharxanda qildi Kovrin. – Sizni tabriklayman: jumadan keyin vaznimga yana bir qadoq qo'shildi. – U qo'llari bilan boshini mahkam siqib, alamli ming'irladi: – Nega, nega siz meni davoladingiz? Bromli malhamlar, bekorchilik, iliq vannalar,

¹ *Ilin kuni arafasi* – eski hisobda 20-iyul.

har qadam bosilganda, har qultum yutilgandagi xavotir, nazorat, qo'rquv – bularning bari, oxir-oqibatda meni ovsarga aylantirib qo'ydi. To'g'ri, aqldan ozdim, buyuklik vasvasasiga tushdim, ammo quvnoq, tetik, hatto baxtli edim, boshqalarga o'xshamagan, ajoyib edim-ku! Endi esa og'ir-bosiq, mulohazali bo'lib qoldim, lekin el qatori, ko'pning biriga aylandim: men – o'rtamiyonaman, yashash jonga tegdi... O', siz menga naqadar shafqatsizlik qildingiz! Men qoraxayollarni ko'rardim, ammo bu kimga xalal berardi? Sizdan so'rayapman: kimga xalal berardi?

– Tovba, nimalar deyapsan?! – xo'rsindi Yegor Semyonich. – Hatto odamning eshitgisi kelmaydi.

– Siz eshitmang.

Boshqalar borligi, ayniqsa, Yegor Semyonichning shu yerdaligi Kovrinning yanada g'azabini qo'zg'adi, u qaynotasining savollariga quruq, sovuq, hatto qo'rslik bilan javob berar, uning yuziga qaramas, masxara qilar, xullas, yomon ko'rardi, Yegor Semyonich esa ensasi qotib, xijolat bo'lib tomoq qirib, o'zini zarracha aybdor sanamasdi. Yaqin kishilari orasidagi munosabatlar nima sababdan bunchalik o'zgarib ketganini anglab yetolmagan Tanya otasiga achinib, uning ko'zlariga mungli boqardi; bechora ayol tushunishni istar, ammo aqli bovar qilmasdi, faqat shuni yaxshi bilardiki, kundan kunga oradagi munosabatlar sovuqlashib boryapti, keyingi paytlarda otasi birdan qarib qolganday, eri esa g'azabnok, injiq, tirmoq orasidan kir qidiradigan, yuzi ham xunuklashib borardi. Tanya o'yin-kulgini unutdi, qo'shiq kuylamay qo'ydi, bugun tushlikda tomog'idan suv ham o'tmadi, qandaydir dahshatli voqea yuz berishidan hadiksirab, kechalari uxlamay chiqadi, shunchalar g'am-tashvishga botdiki, bir kuni choshgohdan shomgacha behush, o'zini bilmay yotdi. Bugun ibodat marosimida otasining ko'zlarida yosh miltiraganini sezib qoldi, hozir esa, uchalasi ayvonda o'tirishganda o'tgan bu voqealarni eslamaslikka tirishardi.

– Budda, Muhammad yoki Shekspir qanchalar omadli bo'lishgan; ularni jazava tutganda, zavq-shavqqa tushganda marhamatli qarindosh-urug'lari, tabiblari malham izlashmagan! – dedi Kovrin. – Agarda payg'ambar asabiylikka qarshi bromli kaliy qabul qilib, bir kunda ikki soat ishlab, sut ichganda, bu buyuk inson o'zidan keyin juda kam narsa qoldirgan bo'lardi. Tabiblar-u marhamatli

qarindoshlar shunchalik mehribonki, alaloqibat, insoniyatning miyasi aynib, o'rtamiyonalik ham daholikka aylanib, taraqqiyot barbod bo'ladi. Agar bilsangiz edi, – dedi Kovrin alam bilan, – sizdan qanchalar minnatdorligimni!

U o'zining quyushqondan chiqib ketganini sezib qoldi, yana ortiqcha gap aytib qo'ymaslik uchun o'rmidan turdi-da, xonasiga jo'navordi. Atrof jimjit, bog' tomonga ochilgan derazadan tamaki va yalappa¹ hidi ufurardi. Kattakon qorong'i zalning poli, royal ustida yashil dog'lar paydo qilib oy shu'lasini jimirlaydi. O'tgan yozning hayratlari yana Kovrinning yodiga tushdi, o'shanda ham yalappa hidi ufurganda derazada oy jilolangan. O'tgan yilgi zavqini qayta his etish ilinjida xonasiga shoshib kirdi, achchiq sigara chekdi, malayga musallas keltirishni buyurdi. Ammo sigara tomog'ini achitdi, yoqmadi, musallasdan ham o'tgan yilgi ta'mni topmadi. Unutib yubordimikin?! Sigara tutuni va ikki qultum musallasdan boshi aylanib, yurak o'ynog'i tutdi, zudlik bilan bromli kaliy qabul qilishga majbur bo'ldi.

Uyquga yotishdan oldin Tanya gap boshladi:

– Otamning senga hurmati baland. Sen esa unga negadir qo'rslik qilasan, bu qilig'ing uning umrini yemirib, ado qiladi. Qara: kun emas, soat sayin qariyapti. Yolvoraman, Andryusha, Xudo haqqi, rahmatli otang hurmati haqqi, mening xotirjamligim uchun otamga hushmuomala bo'!

– Bo'lmayman, istamayman ham.

– Nega, axir? – so'radi Tanya qaltirab. – Menga tushuntirib berchi, nega?

– Shuning uchunki, menga yoqmaydi, vassalom, – dedi behafsala Kovrin yelka qisib, – kel, u to'g'rida gaplashmaylik: u sening otang.

– Tushunmayman, tushunolmayman! – to'ng'illadi Tanya qo'lidagi viski quyilgan qadahni siqqancha bir nuqtaga tikilib. – Uyimizda aql bovar qilmas dahshatli voqealar sodir bo'lyapti. Sen o'zgarib ketding, o'zingga o'xshamaysan... Aqlli, ajoyib odam eding, endi arzimagan narsadan jahling chiqadi, janjal ko'tarasan... ikir-chikirlargayam asabiylashaverasan, keyin esa afsus chekasan,

¹ Ildizi surgi dori sifatida qo'llaniladigan madori (tropik) Amerikada o'suvchi o'simlik.

o'zingga ishonmaysan: sen o'zi o'shamisan? Ha, ha, achchiqlanma, jahling chiqmasin, – davom etdi u, aytgan gapidan o'zi ham cho'chib ketib, erining qo'lini o'pdi. – Sen aqlli, marhamatli, oliyjanobsan. Otangga adolatli bo'l. U juda marhamatli!

– U marhamatli emas, ko'ngli ochiq, xolos. Otangga o'xshagan ajoyib amakilar o'ziga to'q, o'lashovur, odatdan tashqari mehmondo'st, tentaksimon bo'ladi, bir vaqtlar ko'nglimga yoqib, qissalardayam, hajvlardayam, hayotdayam meni xursand qilishgan, endi esa ularni ko'rarga ko'zim yo'q. Ular tish-tirnog'igacha xudbin. Ayniqsa, bo'kib ovqat yesalar, yomon ko'rib ketaman, meshqoriga o'xshab qoladi, xo'kiz yoki to'ng'izdek ko'rinadi.

Tanya ko'rpachaga o'tirib, boshini yostiqqa qo'ydi.

– Bu azob, – dedi u, ovozidan juda toliqqani, gapirishga majoli qolmagani sezildi. – Qishdan beri tinch o'tgan kunim yo'q... Axir, bu dahshat-ku, Xudoyim! Qiynalib ketdim...

– Ha, albatta, men – Hirodman, sen bilan otang esa Misr bolalarisiz¹. Albatta!

Kovrinning yuzi Tanyaga o'ta xunuk, yoqimsiz ko'rinib ketdi. Unga nafrat, istehzo yarashmas edi. Ha, avval ham uning yuzida nimadir yetishmasligini payqagan, ayniqsa, sochini qirdirgandan keyin tamomila o'zgarib qoldi. Uni ranjitadigan biror gap aytgisi keldi, ammo o'sha zahoti ko'ngli noxush bo'lib, hadiksirab, yotoqxonadan chiqib ketdi.

IX

Kovrin mustaqil kafedra oldi. Kirish ma'ruzasini o'qish ikkinchi dekabrga tayinlandi, bu to'g'rida universitet yo'lagiga e'lon osib qo'yildi. Ammo o'sha kuni u kasal bo'lib qolgani sababli ma'ruza o'qiyolmasligi haqida talabalar nazoratchisiga shoshilinchnoma orqali xabar berdi.

Uning og'zidan qon kelardi. Qon tupurar, dard oyda ikki marta zo'rayib, azobdan tinka-madori qurib, xushini yo'qotib yotib qolardi. U kasaldan cho'chimasdi, chunki rahmatli onasi shu dardga chalingandan keyin ham o'n yil, hatto undan ko'proq umr ko'rgan;

¹ Injildagi rivoyat nazarda tutilmoqda: shoh Hirod Baytlahm hamda uning tevarak-atroflaridagi ikki yosh va undan kichik bo'lgan hamma o'g'il bolalarni qilichdan o'tkazgan ekan (Matto bayon qilgan Xushxabar, 2:16–19).



bu dardning yengilligiga shifokorlar ham kafolat berishdi, faqat hayajonlanmasligi, sog'lom turmush kechirib, kam gapirishi kerak.

Yanvar oyida ham shu sabab bilan ma'ruza ortga surildi, fevralda esa kursni boshlash uchun kech bo'lgandi. Keyingi yilga qoldirishga to'g'ri keldi.

Endi Tanya bilan emas, o'zidan ikki yosh katta, uni xuddi yosh boladay parvarish qiladigan boshqa ayol bilan turmush kechirardi. Endi taqdirga tan berib, itoatli bo'lib qolgan: bajonidil bo'ysunadi, Varvara Nikolayevna – ayolni shunday atashadi – uni Qrimga olib borishga astoydil bo'lib qoldi, Kovrin bu safardan hech bir naf chiqmasligini bila turib rozilik berdi.

Ular kechqurun Sevastopolga yetib kelishgach, hordiq chiqarib, kuch yig'ib, kelasi kun Yaltaga yetib olish uchun bir kecha mehmonxonada qolishdi. Ikkisini ham yo'l horitgandi. Varvara Nikolayevna choy ichib bo'liboq, joyiga cho'zilib, uxlab qoldi. Ammo Kovrin yotmadi. Hali uyidaligida, vokzalga chiqmay turib, Tanyadan xat olgandi, biroq ochishga jur'at etolmadi, hozir o'sha xat yon cho'ntagini cho'g'dek kuydirar, u haqidagi noxush o'ylar tinchlik bermas edi. Hozir samimiy ravishda, qalbining tub-tubida Tanyaga uylanganini xato deb hisoblaydi, u bilan uzil-kesil ajralishganidan mamnun, uning timsoli esa bor-yo'g'i tirik murdaga aylandi-qoldi, faqat sinchkov tikiladigan katta-katta ko'zlari hamon yodidan o'chmaydi, endi bu xotiralar ayolga nisbatan achinish, o'ziga esa nafrat tuyg'ularini uyg'otadi, xolos. Xatjilddagi yozuv unga ikki yil oldin o'zining dilgirliги, yolg'izliги, hayotdan noroziligiga hech bir sababchi bo'lmagan odamlarga tuxmat qilganda o'ta nohaq, shafqatsiz bo'lganini yodiga soldi. O'shanda, bir kuni kasallik paytida yozgan dissertatsiyasiga qo'shib hamma maqolalarini yirtib, mayda-maydalab derazadan uloqtirgani, qog'oz parchalari shamolda daraxt shoxi, gullarga ilinib qolgani yodiga tushdi; yozgan har satrida g'alati, hech bir asossiz e'tirozlar, yengiltabiatlik bilan qilingan piching, qo'rslik, buyuklik vasvasasi yaqqol sezilib turardi, ilmiy izlanishlaridan faqat nuqsonlarni eslaydi, xolos; so'nggi daftarni ham parchalab, derazadan uloqtirgandan so'ng nima sababdandir ko'ksida chidab bo'lmas alam uyg'ongan, keyin to'g'ri xotining oldiga yo'l olgan, borib, unga ko'p dilozor gaplar aytib tashlagandi. Oh, Xudoyim, uni qanday xo'rladi-ya! Bir kuni xotining dilini

og'ritish uchun unga, ikkisinin turmush qurishida otasi munofiqlik, ustamonlik qilgani, ya'ni aldab, nikoh uyushtirganini aytib yubordi; tasodifan shu yaqindan o'tayotgan Yegor Semyonich bor gapni eshitib, xonaga yugurib kirib mushkul ahvolda qoldi, tili kalimaga kelmay faqat bir joyda turgancha yer tepinib, g'o'ldirardi, xolos, Tanya bo'lsa, otasiga qarab, titrab, qichqirgancha bexush yiqildi. O'taketgan betamizliklar qildi o'shanda.

Bularning hammasi tanish yozuvni ko'rgani asno xayolidan birma-bir kechdi. Kovrin rovonga chiqdi; sokinlik, iliq havo, dengiz hidi ufurar edi. Ajoyib ko'rfazda oy va chiroqlar aksi jilolanar, unda so'z bilan ifodalash mushkul ranginlik mujassam. Bu moviy, ko'k ranglarning nozik, yoqimli uyg'unligi hosilasi; ayrim joylarda suv rangi moviy tusga, ayrimlarida esa oy nuri quyuqlashib, suv o'rmiga ko'rfazni nur qoplaganday, umuman, uyg'un, sokin, ranglar tajallisi va ajoyib kayfiyat!

Pastki qavatda, balki rovon tagidagi deraza ochiq bo'lsa kerak, ayollarning kulgisi baralla eshitilardi. Aftidan, bazmi jamshidga o'xshaydi.

Kovrin bor kuchini jamlab, xatni ochdi va xonasiga kirib o'qiy boshladi:

«Hozir otam vafot etdi. Buning uchun sendan minnatdorman, chunki uni sen o'ldirding. Endi bog'imiz payhon bo'ladi, begonalar egallab, xo'jayin chiqishdi, bechora otam qo'rqib yurgan mudhish voqea sodir bo'ldi. Buning uchun ham sendan o'ta minnatdorman. Sendan butun borlig'im bilan nafratlanaman, tez orada o'lib ketishingni tilayman. O, men qanchalar azob chekyapman! Ko'ksimni alam kuydiryapti... Ming la'nat senga! Men seni ajoyib inson, daho debman, seni sevibman, ammo sen jinni ekansan...»

Kovrin davomini o'qiyolmadi, xatni yirtib tashladi. Butun vujudini qo'rquvga o'xshash bezovtalik qamrab oldi. Parda ortidan uxlayotgan Varvara Nikolayevnaning pishillagani eshilib turar; paski qavatdan esa ayollar qiyqirig'i, kulgisi jaranglab turgan bo'lsa ham, butun boshli mehmonxonada u o'zidan boshqa tirik jon yo'qdek his etdi.

Chunki baxtiqora, g'am ado qilgan Tanya yozgan xatida uni qarg'ab, o'lim tilabdi, nogoh ko'nglini vahima bosib eshikka ko'z tashladi, keyingi ikki yil ichida o'zi va yaqinlari hayotida haddan

ortiq buzg'unchiliklar qilgan o'sha yovuz ruhning eshikdan kirib, yana o'z izmiga solishidan qo'rqib ketdi.

U endi boshidan o'tgan tabibday, asabi titraganda, darddan xalos bo'lishning yagona yo'li – ishga andarmon bo'lish kerakligini yaxshi bilardi. Nima bo'lsa ham, stolga o'tirib biron fikr bilan xayolini chalg'itishga urindi. Qizil portfelidan uncha katta bo'lmagan qurama ishlar tafsiloti yoziladigan daftarchasini chiqardi, buni Qrimda bekorchilikdan zerikib qolishini o'ylab olgandi. U stolga o'tirib, yozuvlar bilan mashg'ul bo'ldi, yana ko'nglida xotirjam, beparvo, itoatkor kayfiyat qayta uyg'onganday tuyuldi. Tafsilotlar yozilgan daftarcha, hatto bevafo dunyoning benaf ikir-chikirlarini ham o'ylashga undadi. Hayot insonga berishi mumkin bo'lgan arzimas ne'mat evaziga qanchalar ko'p narsa talab qilishini o'ylab ketdi. Masalan, qirq yoshni qoralay deganda mustaqil kafedra olish, oddiy professor bo'lishi uchun lanj, zerikarli, og'ir, sodda tilda, ustiga ustak, o'zgalar fikrini bayon qilish, bir so'z bilan aytganda, o'rtamiyona olim darajasiga yetish uchun u – Kovrin o'n besh yil tinimsiz o'qib-o'rgandi, tun-u kun ishladi, og'ir ruhiy xastalikni boshdan kechirdi, tolesiz nikohga duch keldi va eslashni ham istamaydigan qancha nohaqlik, telbaliklarni yengib o'tdi. Oxir-oqibat, anglab yetdiki, u – o'rtamiyona odamlardan biri ekan, xolos va bunga bajonidil rozi bo'ldi, shukr qildi, uning fikricha, har bir kishi, kim bo'lsa ham, o'z taqdiriga bo'ysunishi, peshonada borini ko'rishi lozim.

U daftarcha bilan andarmon bo'lib qolardi, ammo maydalab yirtilgan xat parchalari polni oqartirib, fikrini jamlashga xalal berdi. U stoldan turdi, xat parchalarini yig'ib olib, derazadan sochib yubordi, ammo-lekin dengizdan esgan yengil shabada parchalarni qaytarib tokchaga urdi.

Yana uning borlig'ini qo'rquv hissi qamrab oldi, yana butun boshli mehmonxonada o'zidan boshqa tirik jon yo'qday tuyula boshladi... U rovonga chiqdi. Ko'rfaz xuddi jonliday, uning sanoqsiz moviy, ko'k, feruza va olovli ko'zlari unga tikilib, o'ziga imlayotganday ko'rindi. Aslida, havo issiq, dim edi, cho'milsa ham zarar qilmasdi.

Birdan rovon tagidagi pastki qavatda skripka ovozi yangrab, ovozi nozik ikki ayol kuylay boshladi. Bu qo'shiq tanishday tuyuldi. Pastdagilar kuylayotgan romans parishonxayol qiz haqida: u kechasi

bog'da sirli ohanglarni tinglab, bu uyg'un navo muqaddas, biz bandalar uchun tushunarsiz, degan qarorga keladi...

Havo yetishmay, hasratdan yuragi xun bo'lgan Kovrinning ko'ksini allaqachon unutilgan g'aroyib, shirin orziqishlar titratdi. Ko'rfazning narigi sohilida baland qora ustun – yo uyurma, yo quyun – paydo bo'ldi. U dahshatli tezlikda ko'rfaz ustidan mehmonxona tarafga bostirib kelaverdi, yaqinlashgan sari tobora kichrayib, qorayib borardi, unga yo'l berish uchun Kovrin o'zini arang chetga olib qoldi... Rohib yalangbosh, yalangoyoq, sochi oq, qoshi qora, qo'lini ko'ksiga qovushtirganча yonidan o'tib, xona o'rtasida to'xtadi.

– Nima uchun menga ishonmading? – ginaxonlik qildi u Kovringa yoqimli jilmayib. – O'shanda sen dahosan, deb aytgan gapimga ishonganingda, keyingi ikki yiling bunchalik qayg'uli, zerikarli o'tmasdi.

Kovrinning ishonchi komil, u – Xudo nazariga tushgan daho, u qora rohib bilan orada bo'lib o'tgan gaplarni darrov eslab, nimadir demoqchi edi, ammo og'zi to'la qon ko'kragiga oqib tushdi, u nima qilarini bilmay ko'ksini changalladi, shunda yoqasi jiqqa ho'l ekanini payqadi. Parda ortida uxlayotgan Varvara Nikolayevnani uyg'otmoqchi bo'lib, bor kuchini to'plab, chaqirdi:

– Tanya!

U polga yiqildi, qo'liga suyanib qayta turishga urinarkan, yana chaqirdi:

– Tanya!

U Tanyani chorladi, shudring tushgan munaqqash gullarni, yam-yashil muhtasham bog'ni chorladi, tomoshabog'ni chorladi, baroq ildizli qarag'ayzorni, to'lqinlangan javdarzorni, mo'jizakor ilmni, navqiron yoshligini, mardligini, baxtini chorladi, go'zal hayotni chorladi. U polda yuziga tegay deb turgan qon ko'lobiga ko'zi tushgach, madori qurib, boshqa biron so'z aytmadi, ammo butun vujudini ifodalab bo'lmas, tunganmas baxt chulg'adi. Pastda, rovon tagida serenada yangrar, qora rohib esa uning daholigini, odamzodning nimjon jismi muvozanatini yo'qotgani, endi dahoga tan bo'lolmasligi, shuning uchun jon berayotganini shivirlab aytdi.

Varvara Nikolayevna uyg'onib, parda ortidan chiqqanda Kovrin o'lib yotar, yuzida mas'ud tabassum qotib qolgan edi.

MUNDARIJA

Zerikarli voqea <i>(Abdurahmon Alimuhamedov tarjimasi)</i>	3
Mening hayotim <i>(Odil Sharopov tarjimasi)</i>	68
Mujiklar <i>(Nabi Alimuhamedov tarjimasi)</i>	169
Noma'lum odam hikoyasi <i>(Davron tarjimasi)</i>	201
Oltinchi palata <i>(Zumrad tarjimasi)</i>	285
Qora rohib <i>(Humoyun Akbarov tarjimasi)</i>	341

Adabiy-badiiy nashr

ANTON PAVLOVICH CHEXOV

OLTINCHI PALATA

Qissalar

Tarjimonlar: *A. Alimuhamedov, O. Sharopov,
N. Alimuhamedov, Davron, Zumrad, H. Akbarov*

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *S. Saidmurodov*

Muharrir *S. Saidmurodov*
Rassom-dizayner *B. Zufarov*
Texnik muharrir *T. Xaritovova*
Kichik muharrir *M. Salimova*
Musahhah *Sh. Hojiyeva*
Kompyuterda tayyorlovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 30-aprelda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}, Ofset qog'oz. «New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 23,5.

Nash tabog'i 23,28. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-38.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz

Chexov, Anton Pavlovich

Ch 51 Oltinchi palata [Matn]: qissalar/A.P. Chexov. –
Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2021. – 376 b.

ISBN 978-9943-7144-6-5

UO*K 821.161.1-31
KBK 84 (2Ros-Rus)

25266,65



A. P. Ghexov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7144-6-5



9 789943 714465